



ALİSHER NAVOİY NOMİDAGİ
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TİLİ VA ADABİYOTİ UNİVERSİTETİ

TASHKENT STATE UNVERSITY OF UZBEK LANGUAGE END LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVO‘I

O‘ZBEK MUTAFAKKIRLARINING TIL NAZARIYASIGA OID QARASHLARI

VIEWS OF UZBEK THINKERS ON THE THEORY OF LANGUAGE

Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

2021-yil, 15- mart

Materials of the international scientific and theoritical conference

Тошкент – 2021

“O‘zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari” Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2021.

Mas’ul muharrir:
Sh. Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:
Z. Abdirashidov – ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor
B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor
Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor
D.Jumashev – katta o‘qituvchi
D.Baxranova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.Bozorova – katta o‘qituvchi
M.Xolmuradova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
K.Rixsiyeva – o‘qituvchi
S.Abduraxmonova – o‘qituvchi

Sharqning qomusiy olimlari, xususan, o‘zbek mutafakkirlari turli ijtimoiy sohalarga doir fikrlari bilan dunyo miqyosida e’tibor topganlar. Ajdodlarimizning til taraqqiyoti, nazariy masalalari doirasidagi qarashlari, ayniqsa, e’tiborga molikdir.

“O‘zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari buyuk ajdodlarimizning tilshunoslikka va til ta’limiga oid ilmiy-nazariy qarashlari talqiniga bag‘ishlangan.

O‘zbek tilshunosligi tarixida tilning nazariy masalalariga, jumladan, tilning paydo bo‘lishi, til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabatiga oid mulohazalar bayon etilgan. Yozma manbalarda buyuk mutafakkirlarning tilga, tilshunoslikka oid qarashlari o‘z aksini topgan. Ta’kidlanganidek, “ota-bobolarimiz qoldirgan yozma yodgorliklarni sinchiklab o‘rgansak, bu asarlarda tilshunoslikning bir qancha masalalari Yevropa olimlaridan ancha oldin bayon qilinganiga guvoh bo‘lamiz”. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ajdodlarimizning lingvistik qarashlarini talqin qilish til nazariyasining bir qator masalalari, dastavval, ajdodlarimiz tomonidan o‘rtaga tashlanganini asoslashga xizmat qiladi. Anjuman ilmiy-nazariy xarakterga ega bo‘lib, buyuk o‘zbek mutafakkirlarining lingvistik qarashlarini o‘rganishni targ‘ib qilish maqsadini qo‘yadi.

Ushbu to‘plamdagi maqolalarda mumtoz adabiy manbalarda tilshunoslikning sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi zamonaviy yo‘nalishlariga oid xulosalar bayon etilgani ta’kidlangan. Olimlarning ajdodlar an’anasini davom ettirib, tilshunoslik sohasida yuksak natijalarga erishgani yoritilgan. Turkiy lug‘atchilik, xorij leksikografiyasi taraqqiyoti, til va adabiyot ta’limiga doir xulosa va tavsiyalar bayon etilgan.

Mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2021-yil 24-fevraldagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (11-sonli bayonnoma).

“Views of uzbek thinkers on the theory of language”. Materials of international scientific-teoritical conference. Responsible editor: Sh. Sirojiddinov. – Tashkent, 2021.

Responsible editor:
Sh. Sirojiddinov
Doctor of philological sciences, professor

Editorial Board:

Z. Abdirashidov – Vice Rector for Research and Innovation
H.Dadaboyev– Doctor of philological sciences, professor
B.Abdushukurov – Doctor of philological sciences, professor
Z.Xolmanova – Doctor of philological sciences, professor
D.Jumashev – head teacher
D.Baxranova – PhD philological sciences
S.Bozorova – head teacher
M.Xolmuradova – PhD philological sciences
K.Rixsiyeva – teacher
S.Abduraxmonova – teacher

Eastern encyclopedic scholars, especially Uzbek thinkers, have gained worldwide attention for their views on various social spheres. The views of our ancestors on the development of language and theoretical issues are especially noteworthy.

The materials of the International scientific-theoretical conference "Opinions of Uzbek thinkers on the theory of language" are devoted to the interpretation of the scientific-theoretical views of our great ancestors on linguistics and language education.

The history of Uzbek linguistics deals with theoretical issues of language, including the origin of language, language and society, language and thinking, and the relationship between language and speech. Written sources reflect the views of great thinkers on language and linguistics. As noted, "a closer look at the written monuments left by our ancestors reveals that many linguistic issues were addressed in these works long before European scholars." The interpretation of the linguistic views of our ancestors, such as Farobi, Beruni, Ibn Sino, Mahmud Kashgari, Mahmud Zamakhshari, Alisher Navoi, Babur, serves to justify the fact that a number of issues of language theory were first raised by our ancestors. The conference is of a scientific and theoretical nature and aims to promote the study of the linguistic views of great Uzbek thinkers.

It is noted that the articles in this collection contain conclusions on modern trends in linguistics, such as sociolinguistics, psycholinguistics, linguoculturology. It is said that the scholars continued the ancestral tradition and achieved great results in the field of linguistics. Conclusions and recommendations on Turkish lexicography, development of foreign lexicography, language and literature education are presented.

This collection is intended for professors, doctoral students, researchers, graduate students and anyone interested

Discussed at the meeting of the Council of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi on February 24, 2021 and recommended for publication (Protocol No. 11)

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

*****

Bir o‘ylab ko‘raylik, ajdodlarimiz bunday yuksak cho‘qqilarga qanday erishganlar? Ular, eng avvalo, jaholatga qarshi ma’rifat bayrog‘ini baland ko‘tarib, o‘z aql-zakovati va salohiyatini bashariyat yaratgan ilm-fan yutuqlarini chuqur o‘rganish va boyitishga bag‘ishlaganlar.

*****

Tan olish kerakki, biz ana shunday bebaho merosga ko‘pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo‘lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e’tiborsizlikka yo‘l qo‘ymoqdamiz. Vaholanki, bunday noyob meros kamdan-kam xalqlarga nasib etgan. Birgina Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq nodir qo‘lyozmalarga dunyo ahli havas qiladi. Biz bu haqiqatni har tomonlama teran anglashimiz zarur.

*****

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda etkazib berishlari zarur.

Sh. Mirziyoyev

BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZ TAFAKKURI – FAOLIYATIMIZ MEZONI

Sh. Sirojiddinov,
ToshDOTAU rektori,
filologiya fanlari doktori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrda e’lon qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20- oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari mazmunidan kelib chiqqan holda o‘zbek tili taraqqiyotini ta’minlash, ichki imkoniyatlar asosida boyitish, ta’lim bosqichlarida til o‘qitish tizimini tubdan yangilash, ona tili ta’limini rivojlantirish, ajdodlarimizning til va adabiyot masalalariga oid qarashlarini o‘rganish millat takomili uchun dolzarbdir.

Prezident ta’kidlaganlaridek, “Jonajon Vatanimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo‘yib, yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy va boshqa bir qator mutafakkirlarimizning ona tiliga munosabati, tilga millat taqdiridagi muhim masala sifatida yondashuvlari e’tiborga molikdir. Hazrat Alisher Navoiyning “Tilga e’tibor – elga e’tibor” degan mashhur hikmati bugun o‘z haqiqatini namoyon qilmoqda. “Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati”ni ta’kidlash zarur.

Mumtoz ijodkorlar asarlarini filologik aspektda tadqiq etish, til xususiyatlarini yoritish, badiiy jihatdan ta’sirchanlik darajasiga oid bir qator tadqiqotlar yaratilgan. Yozma yodgorliklarning ilmiy-tanqidiy matni yaratilgan. Tarixiy-badiiy asarlarni qomusiy planda tadqiq etish yuzasidan izlanishlar olib borilgan. Endilikda mumtoz manbalardagi til va adabiyot masalalariga bag‘ishlangan qarashlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Negaki, ajdodlar merosini shunchaki qadriyatlar nuqtayi nazaridan yoki ma’naviyat taraqqiyoti uchungina emas, balki soha muammolarini hal qilishda tayanish mumkin bo‘lgan ilmiy-amaliy tajriba mahsullari sifatida ham tadqiq etish zarur. Ajdordlarimizning yuksak darajada rivojlangan tafakkur imkoniyatlari, uzoqni ko‘ra bilish qobiliyatlari filologiya ilm-fani taraqqiyotiga doir fikr-mulohazalarida o‘z aksini topgan.

Yusuf Xos Hojibning bilim qadr-qimmati, shaxs ma’naviyati, kamoloti haqidagi fikr-mulohazalari bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Mahmud Koshg‘ariyning tilga, adabiyotga doir talqinlari sohalar taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Zahiriddin Muhammad Boburning arab yozuvi imkoniyatlaridan foydalanib alifbo yaratgani, imlo masalalari, savodxonlik borasida e’tiborli bo‘lgani, “Xatti Boburiy”ning ma’lum muddat amalda bo‘lgani, bu yozuvda sarxatlar (husnixat namunalari) shakllantirilgani ma’lum.

XX asr boshlarida Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniylarning til muhofazasi, yozuv va imlo, o‘zbek tili grammatikasi haqida aytgan fikrlari e’tiborga molikdir.

Erkin Vohidov ta’kidlaganlaridek, “o‘zbek tilining bugungi darajasi turkiy tillar ichida tutgan mavqeyi uchun biz ko‘p jihatdan o‘tgan asr boshida yashagan jadid ziyolilaridan minnatdor bolishimiz kerak. Ular o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlaridan foydalandilar, xalqda milliy g‘urur, ona tiliga hurmat tuyg‘usini tarbiya qildilar”.

Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi so‘z san’atkorlari ajdodlar an’anasini davom ettirib, tilni asrash, uning taraqqiyotiga befarq bo‘lmaslik haqida kuyunib o‘tdilar. Zero, til haqida faqat mutaxassislar, ziyolilargina emas, balki shu til sohibi bo‘lgan millatning har bir vakili qayg‘urishi kerak.

Tilni takomillashtirishda, qadriyatlarni keng yoyishda, ajdodlar tafakkur ne’matlarini targ‘ib qilishda muvaffaqiyatlar tilayman!

BUYUK O‘ZBEK MUTAFAKKIRLARINING TIL VA JAMIYAT, TIL VA TAFAKKUR, TIL VA NUTQ MUNOSABATIGA OID QARASHLARI

АЛ-ФОРОБИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ-ЛИНГВИСТИК ҚАРАШЛАРИ
PHILOSOPHICAL-LINGUISTIC VIEWS OF AL-FOROBI

И.Тўхтасинов,
СамДЧТИ ректори,
педагогика фанлари доктори, доцент

Аннотация: ушбу мақолада Ал-Форобийнинг лингвистик қарашлари унинг асарлари асосида таҳлил қилинган. Ал-Форобийнинг лингвистик ва концептуал ғоялар, лингвистик онг, концепция ва туркумлаштириш, когнитив тилшунослик, маданий тилшунослик, социолингвистика, психолингвистика каби тушунчалар ва ҳодисаларнинг мазмуни ва ривожланиши ёритилган.

Калит сўзлар: *Ал-Форобий, лингвист, лингвистика, фонетика, морфология, синтаксис, орфография, орфоэпия, стилистика, лингвистик онг, концепция ва туркумлаштириш, когнитив тилшунослик, маданий тилшунослик.*

Abstract: in this article, Al-Farobi’s linguistic views are analyzed based on his works. Al-Farobi's content and development of concepts and phenomena such as linguistic and conceptual ideas, linguistic consciousness, concept and categorization, cognitive linguistics, cultural linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics are covered.

Keywords*: Al-Farobi, Linguist, Linguistics, Phonetics, Morphology, Syntax, Spelling, Orthoepy, Stylistics, Linguistic Consciousness, Concept and Classification, Cognitive Linguistics, Cultural Linguistics.*

Ўрта Осиё алломаларининг жаҳон маданияти, маърифати, илм-фанига қўшган ҳиссаси улкандир. Жаҳон тан олган буюк алломалар: Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Маҳмуд Кошғарий, Маҳмуд аз-Замахшарий, Алишер Навоий, Мирзо Меҳдихон ва бошқаларнинг тилшунослик фани тараққиётидаги хизматлари каттадир.

Қомусий олим Абу Наср Форобий (873-930) яратган асарлар ичида «Фанлар таснифи» (ёки «Фанлар таснифи ҳақидаги сўз») китоби тилшунослик масалаларига бағишланганлиги билан ажралиб туради. Буюк аллома тилшуносликнинг фонетика, морфология, синтаксис, орфография, орфоэпия ва стилистика каби бўлимлари ҳақида дастлабки тушунчаларни берган[1].

Ҳали тилшунослик таълимоти тарихида ўз ўрни ва мавқеини тўлиқ топмаган мисли кўрилмаган шахслар кўп. Биз тилга олиб ўтган, Шарқда “Иккинчи муаллим” (Аристотелдан кейин) фахрий “унвон”ини олган, ўрта аср илми ва маданиятининг таниқли вакили, энциклопедик олим, файласуф ал-Форобийнинг ажойиб қобилиятлари, ютуқлари ва кўп қиррали истеъдодининг тан олиниши ўрта асрлар даҳо мутафаккирининг ҳаёти ва фаолияти индивидуал маданий анъананинг ривожланишида муҳим роль ўйнаганига муҳим мисолдир. Инсоният тарихида билимларнинг турли соҳаларини ривожлантиришга катта ҳисса қўшган, шунингдек, бир қатор фанларнинг асосчилари бўлган ва нафақат индивидуал, балки умумбашарий маданият даражасида кўриб чиқилган таниқли исмлар орасида Абу Наср Муҳаммад ал-Форобий номи алоҳида жаранглаб туради. Кўплаб форобийшунос олимлар таъкидлаганидек, “ал-Форобий меросининг доимий аҳамияти шундан иборатки, унинг фалсафа, социология, мантиқ, ахлоқ, эстетика, табиий илмий ғоялар соҳасидаги кўплаб қоидалари бугунги ҳаётга ҳам катта таъсир кўрсатди. Ўрта асрлар ва Уйғониш даврида нафақат Шарқ, балки Европа халқларининг ижтимоий-фалсафий фикрининг кейинги

[1]Абу Наср Форобийнинг тилшуносликка оид фикрларини беришда А.Нурмоновнинг “Ўзбек тилшунослиги тарихи” асаридан фойдаланилди.

ривожланиши билан ҳам унинг илмий мероси баҳоланади.[1] Шундай қилиб, уни билим ва ҳақиқатни излашда мавжуд бўлган этник, маданий, лингвистик ва диний соҳалардаги мавжуд фарқларни кенг таҳлил қилишга муваффақ бўлган инсон деб ҳисоблаш мумкин. Буни файласуф туркий заминларда бўлганлиги сабабли юнон фалсафасини чуқур англаган ва оммалаштирган араб-мусулмон маданиятини ифодаловчи файласуф сифатида машҳур бўлганлиги тасдиқлайди.

Асли туркий бўлган ал-Форобий ўз асарларини араб тилида ёзганлиги, етук ёшда мукаммалликка ўрганганлиги диққатга сазовордир. Араб тилини ўзлаштириш учун ал-Форобий тил ўрганишнинг бир неча босқичларини босиб ўтди: тилни амалий ўзлаштириш, унинг грамматик тузилишини ўрганиш, тил фалсафасини англаш,уни тартибга солувчи қонунлар ва ниҳоят, тилда мавҳумлик қобилиятини ривожлантириш ва бошқалар. Шу пайтгача олим бой меросининг баъзи жабҳалари ўрганилмаган ва унинг фалсафий, мантиқий, ижтимоий-ахлоқий, мусиқий назарияси ва концепциялари ҳақида кўпроқ маълумотга эга бўлган маърузалар кенг аудиторияга тақдим этилмаган. Ана шундай масалалардан бири Абу Насрнинг тил фалсафаси ва назарияси соҳасидаги қарашларидир[2].

XVIII-XX асрлар тилшунослигида ҳам Ал-Форобий ўрта асрларда илмий ривожланган ғояларни баён етган. Унинг рисолаларида биз дунёнинг лингвистик ва концептуал ғоялар, лингвистик онг, концепция ва туркумлаштириш, когнитив тилшунослик, маданий тилшунослик, социолингвистика, психолингвистика каби тушунчалар ва ҳодисаларнинг мазмуни ва ривожланишини топамиз. Шарқдаги биринчи файласуфлардан бири бўлиб, у фикрлаш жараёнида тилнинг аҳамияти, халқнинг тарихий онги ва фалсафий тажрибасини сақловчи, яратилиш, ривожлантириш воситаси сифатида тилнинг аҳамиятига, маданиятни сақлаш ва узатишга эътибор қаратган. Мутафаккирнинг лингвистик қарашларини ўрганиш катта илмий аҳамиятга эга, чунки тил назарияси соҳасидаги дастлабки тадқиқотлар айнан файласуфларнинг асарларида бўлган.

Унинг рисолаларида биз дунёнинг лингвистик ва концептуал манзаралари, лингвистик онг, концепция ва туркумлаштириш, когнитив тилшунослик, маданий тилшунослик, социолингвистика, психолингвистика каби тушунчалар ва ҳодисаларнинг мазмуни ва ривожланишини топамиз. Шарқдаги биринчи файласуфлардан бири бўлиб, у фикрлаш жараёнида тилнинг аҳамияти, халқнинг тарихий онги ва фалсафий тажрибасини сақлайдиган, маданиятни сақлаш, узатиш, яратиш, ривожлантириш воситаси сифатида кўришни таъкидлаб ўтган.

Мутафаккирнинг лингвистик қарашларини ўрганиш катта илмий аҳамиятга эга, чунки тил назарияси соҳасидаги дастлабки тадқиқотлар айнан файласуфларнинг асарларида бўлган.

Афсуски, олимнинг фалсафий ва лингвистик концепцияси ҳали тилшунослик тарихи ва назариясига бағишланган асарларда тўлиқ ва муносиб аксини топмаган. Айни пайтда, нутқ маданияти, аввало, файласуф ва мантиқчи сифатида тил муаммосини, унинг асосий хусусиятлари ва моҳиятини чуқур таҳлил қилади. Ал-Форобий мусулмон файласуфлари орасида биринчилардан бўлиб тилнинг келиб чиқиши, унинг шаклланиши тўғрисида мушоҳада юритган ва бу борада ўз тадқиқотларини бошлаган. Шу билан бирга, у муаммога ҳодисанинг турли томонларини – тарихий, географик, ижтимоий, илмий ва лингвистик хусусиятларни бирлаштириш ва таҳлил қилишга қодир файласуф сифатида ёндашди. Айнан фалсафий ёндашув ал-Форобийга тилнинг асосий тузилиши ва бўлинишини турли даражалар ва босқичларга ажратишга имкон берди, чунки у ўзининг энг юқори намойиши – ўзгаришини кўрсатиш учун тилни мантиқ, инсон онги ва тафаккури билан чамбарчас боғлиқ деб ҳисоблади.

Ал-Форобийнинг лингвистик қарашлари битта тилга, инсон тафаккурининг мавжудлиги, умуман, тилнинг ижтимоий ҳодиса эканлигига, инсон зоти ва шакли атрибутига тааллуқлидир. “Иккинчи муаллим” рисоласида биз тилнинг тўғридан-тўғри бўлимлари

[1]Бурабаев М. С. Выдающийся мыслитель средневековья Абу Наср аль-Фараби // аль-Фараби. Избранные трактаты / пер. с арабского. Алматы: Издательство «Гылым», 1994. 448 с

[2]*Зайдан М. Ф.* О философии языка (на ар. яз.). Бейрут: Издательство «Дар ан-нахда аль-арабиййа», 1971. 233 с.

(фонетика, лексикология, морфология, синтаксис) ва унинг бошқа фан турлари билан алоқаларига оид анъанавий масалаларни ёритишда ва санъат (мантиқ, риторика, хаттотлик, мусиқа, поетика), тилшунослик назариясининг турли муаммолари (тилни аниқлаш, тил ва нутқ муаммоси, тил мавжудлигининг шакллари, тилнинг белги табиати, тилнинг ривожланиши ва ўзгариши муаммолари, тил ва тафаккур ўртасидаги боғлиқлик, тилнинг шакли ва мазмуни ўртасидаги муносабатлар, тилнинг жамиятдаги ўрни, тилнинг функциялари, тилнинг келиб чиқиши ва табиати, лингвистик норма ва бошқалар) ҳақида ахборот олишимиз мумкин. Шундай қилиб, ал-Форобий асарларида лингвистик билим жуда тўлиқ ва мазмунли берилган деб айтиш мумкин.

Ал-Форобий файласуф сифатида араб шарқида лингвистик фикр ривожига катта ҳисса қўшади. Бунга олимнинг тилшунослик тафаккурида юнон меросини чуқур ўрганиши ёрдам беради. Маълумки, юнон мероси тил фалсафасини тушуниш билан чамбарчас боғлиқ эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бурабаев М. С. Выдающийся мыслитель средневековья Абу Наср аль-Фараби // аль-Фараби. Избранные трактаты / пер. с арабского. Алматы: Издательство «Гылым», 1994. 448 с

2. *Зайдан М. Ф.* О философии языка (на ар. яз.). Бейрут: Издательство «Дар ан-нахда аль-арабиййа», 1971. 233 с.

“ГУЛ ВА НАВРЎЗ” СЎЗ БОЙЛИГИДАГИ СЕМАНТИК ЖАРАЁНЛАР ХУСУСИДА
ABOUT SEMANTIC PROCESSES IN THE WORD VOCABULARY "FLOWER AND NAVRUZ"

Ҳ.Дадабоев,
ТошДЎТАУ профессори,
филология фанлари доктори

Аннотация: Мақола 1411 йилда темурий Искандар мирзо илтимосига биноан ёзилган эски ўзбек адабий тилининг нодир обидаси “Гул ва Наврўз” достони лексикасида воқеланган маъновий жараёнларнинг қисқа таҳлилига бағишланган.

Abstract: the article is devoted to a brief analysis of the semantic processes occurring in the vocabulary of the unique monument of the Old Uzbek literary language "Gul and Navruz", created at the request of Timurid Iskandar Mirza in 1411.

Калит сўзлар: эски ўзбек адабий тили, лексик таркиб, глоссарий, меъёр, қўлёзма, ўзлашма, лексема, сема.

Key words: Old Uzbek literary language, lexical structure, glossary, manuscript, borrowing, lexeme, seme.

XV-XVI аср эски ўзбек адабий тили сўз бойлиги ривожида юз берган асосий жараёнлар жамиятдаги иқтисодий-ижтимоий, сиёсий-маданий, диний-фалсафий ўзгаришлар билан чамбарчас боғланган тарзда кечган. Бу даврга оид ижтимоий зарурият ҳаётда содир бўлувчи ҳар қандай янгиликка, воқеа-ҳодисага зудликда жавоб қайтариш, муносабат билдириш, ўзида акс эттириш хусусиятига эга бўлган тилнинг лексик таркиби ривожига кучли таъсирини ўтказди.Таъкидланган даврдаги эски ўзбек адабий тили лексик тизими нафақат тилнинг ички қонун-қоидалари асосида пайдо бўлган янги нарса-буюмлар, тушунчаларни ифодаловчи сўз ёхуд истилоҳлар, араб, форс-тожик, мўғул ва ҳ.к. тиллардан кириб келган ўзлашмалар, балки мавжуд сўз бойлик доирасида содир бўлган семантик ўзгаришлар билан ҳам характерланади.

Эски ўзбек адабий тилида арабча ва форсча-тожикча ўзлашмалар сонининг ҳаддан ташқари ошиб кетиши луғат таркибида миқдорий ўзгаришлар қатори, сифатий ўзгаришларни ҳам намоён этди. Ўзлашмаларнинг эски ўзбек адабий тили луғат тизимига ўрнашиш жараёни уларнинг туб (ўзбекча) лексик бирликлараро семантик муносабатларга киришиши билан параллель юз берган. Айни лексик-семантик жараён кўп ададли эски ўзбек адабий тили

манбалари сирасидан мустаҳкам ўрин олган, ўзига хос лингвистик жиҳатлари билан маълум даражада ажралиб турувчи “Гул ва Наврўз” достони сўз бойлигида яққол кўзга ташланади.

Асарнинг ҳозирда Будапештда сақланаётган энг нодир қўлёзма нусхаси Э.И.Фозилов томонидан 2006 йилда Тошкентда нашр қилинган эди (Фазылов, 2006.) Манбашунослик ва матншуносликнинг энг сўнгги мезонлари даражасида бажарилган ушбу нашрда келтирилган глоссарий ёрдамида достонда такрорсиз 2876 лексик бирликнинг қўллангани, шундан: туб ва ясамалар-2470, жуфт сўзлар-102, такрор сўзлар-18, форсча-тожикча изофалар -206, арабча изофалар-12, ономастика-68, чунончи: антропонимлар-35, топонимлар-21 (барчаси макротопоним), лақаблар-5, астропонимлар-5, гидронимлар-2та эканлиги аниқланди. Эътиборли жиҳат шундан иборатки, 2470 лексеманинг 265 таси, яъни 11% кўп маъноли, жумладан: икки маъноли-187, уч маъноли-34, тўрт маъноли-12, беш маъноли-4, олти маъноли-2 (*kőtär-, tut-),* саккиз маъноли-2 *(tűš-, qoy-),* ўн маъноли – 1 (*sal-),* мажозий сўзлар - 23 тани ташкил қилиши маълум бўлди. Асарда ишлатилган 240та туркий посессив ҳамда релятив изофанинг туркий +туркий, туркий +араб, туркий +форс, араб +араб, араб +форс, форс +туркий, форс +араб, форс +форс қолипларида воқеланган эътироф этилди. Асар муаллифи *томонидан* ***yašart-//yašard-, andaɣ//andaq, tapuɣ//tapuq, yoqar//yoqarï, tofraɣ //tofraq, yaɣmur//yamɣur*** сингари сўз шаклларнинг қўллангани уларнинг адабий тилда меъёрлашиш учун кураш олиб борганини кўрсатади ва ҳ.к.

“Гул ва Наврўз” муаллифи томонидан бадиий жанр талаби нуқтаи назаридан лексик-семантик, эмоционал-экспрессив, стилистик воситалар сифатида кенг қамровда истифода этилган 2876 лексик бирликнинг муайян қисми моносемантик (бир маъноли), аксарияти эса полисемантик (кўп маъноли), яъни бирламчи ҳамда кўчма маъноларга эга бўлган.

Биринчи гуруҳ сўзларга, асосан, махсус, специфик маънони ифодаловчи лексемалар тегишли. Бундай лексемалар қаторидан ўрин олган турли терминологик системаларга оид лексик бирликлар фаол қўлланишда бўлган. Чунончи, **ačun**“дунё” (17 в10**), bihišt** “жаннат”(31в7),**kiši** “одам, инсон”(16р12) каби мавҳум, **faɣfur**“ Хитой императори”(39в3**), bahšï** “ турк хатида ҳужжат битувчи котиб, мунший” (54в7), **balïqčï** “баликчи”(41в11), **malláh** “денгизчи”(45в9), **enägä** “энага” (11в3) сингари турли мансаб, лавозим, касб-ҳунар**, čerig**“қўшин”(46в4), **duhul “**катта ноғора”(46в10),**ɣajarčï** “йўл бошловчи” (30в10), **hiravul** “қўшиннинг илғор қисми”(34в12), **yasal** “жанговар тартиб”(46р1), **qošun**“ҳарбий қисм” (46в6),**tonqal//toŋɣal**“қўшиннинг тўпланиши хусусидаги буйруқ” (46v6) сингари ҳарбий, **burj**“бурж”(3в10), **yulduz** “юлдуз” **(32в4)** каби астропонимлар қатори, **biti-** “битмоқ, ёзмоқ”(54в10), **butra-** “тарқалиб кетмоқ, тўзиб кетмоқ”(3в12), **čap-** “чопмоқ, майдаламоқ” (15р12), **isin-** “исинмоқ”(20в8**), yan-** “қайтмоқ”(3в11*),* **tepin-** “ҳужум қилмоқ”(47v9), **tik-** “ўрнатмоқ, жойлаштирмоқ”каби феъл-лексемалар шулар жумласидандир.

Кези келганда, асар тилида қўлланишда бўлган ўзлашмаларнинг муайян қисми ўзлаштирувчи, яъни эски ўзбек адабий тилига маъноларининг атиги биттаси билан ўзлашганлигини таъкидлаш зарур. Айрим ўзлашмалар достон матнида бирламчи маъносини сақлаганлиги, кўчма маъноларни ифодалашда иштирок этмаганлиги билан диққатни тортади. М.,**jahándár** “жаҳонгир” (9р10), **kamán** “ўқ-ёй”(38р7), **lála** “лола”(8в8), **may** “май, шароб”(16в10), **naɣma** “ашула, қўшиқ”(9в6**), salátinzáda** “султонзода”(25р13**), tanbur** “тамбур”(39р7), **zahm** “заҳм, яра”(1в3**), xásul-xás**“ҳукмдор саройида хизмат қмлувчи шахсий соқчилар бошлиғи”(9в1), **kaybur** “эни энлик(кенг) ёй ўқи”(14р1), **kejimpöš “**жанговар отларга ёпиладиган ўқ ўтмас зирҳ”(16р4) ва ҳ.к.

Асар матнида маъновий структураси тўла ёхуд қисман мувофиқ келадиган ўз ҳамда ўзлашма лексемалардан унумли фойдаланилган. Синонимларнинг турли типларидан усталик билан истифода этиш, биринчи навбатда, муаллифнинг сўз қўллаш маҳоратидан гувоҳлик берса, иккинчидан, асар таълиф этилган даврда адабий тили сўз бойлигининг турфалиги, кенглигини кўрсатади. Достонда аксини топган айрим ашёвий материалларга мурожаат қиламиз. “Мусиқа асбоблари жўрлигида куйланадиган қўшиқ, ашула” семаси асл ўзбекча **yïr**: Zabur áhanglik yïrlar bilűrmen*, Nádimlik ičrä tadbirlär bilűrmen*(8р8), арабча **naɣma:** Qïlur ol naɣma birlä šah išrat*, Atar Gul atïnï sáat basáat* (9в6) ва форсча-тожикча **tarána** истилоҳлари

билан англашилган: Qïlïb vasfin tarána birlä taqrir*, Xayálïn naqš birlä tahrir (9в9*). Эски туркий тилда “ноғора” ДТС,584) маъносида қўлланган мусиқий-ҳарбий **tuɣ** истилоҳи арабча **naqára** ўзлашмаси билан синонимик уяни шакллантирган: Nafir-u borɣu-u tuɣ-u naqára*, Dilávarlar yűrägin qïldï pára (*46в11). Шу ўринда, туб туркий **tuɣ** истилоҳининг эски ўзбек адабий тилига оид бошқа манбаларда зикр этилган семада қўлланмаганини таъкидлаш зарур. Бунинг боисини асл ҳамда ўзлашма истилоҳлар ўртасида содир бўлган рақобат, яъни “яшаш учун кураш”да арабча лексема мавқеининг юқори бўлганлиги билан изоҳлаш даркор. Айни чоғда, асл термин ўзининг бирламчи, яъни “байроқ, туғ” маъносида эски ўзбек адабий тилининг қатор манбаларидагидек достон тилида ҳам ишлатилган: Ayïrdï nűkär oš tuɣ-u naqára*, Viláyat ganj-u mal-u bišumára (44p12).* Байтда Яман подшоҳи томонидан Наврўзга эҳтиром кўрсатилиб, унга бошқариш учун вилоят, мол-мулк, қўшин ҳамда ҳокимлик рамзи саналувчи туғ ва ноғора берилгани хусусида фикр юритилган. Кези келганда, Амир Темур даврида туғ ҳамда ноғора бирор вилоят, мамлакат ҳокимлигига тайинланган шахснинг мақомини тасдиқлаш белгиси сифатида хизмат қилганини таъкидлаш лозим бўлади. Таҳлилга тортилаётган мусиқий терминлар синонимик уяси сирасига тегишли, умумий маъно нуқтаи назаридан муайян даражада мос келадиган, аммо дифференциал сема жи ҳатидан фарқ қилувчи “катта ноғора, дўмбира”ни англатувчи туб туркий **kävűrgä,** форсча-тожикча **duhul** ва **kus** истилоҳлари асарда айни бир байтда ёнма-ён қўлланган билан характерланади: Xuruš etti kävűrgä kökrädi kus*, Urub čavgán duhulnűŋ yűzinä bus (46в10*). Қадимги туркий тил ва эски туркий тил манбаларида “дўмбира” маъносида истеъмолда бўлган **kűvrűg** (ДТС,331) истилоҳи билан **kävűrgä** термини ўртасида генетик алоқанинг борлиги яққол сезилиб турибди. Байтнинг иккинчи мисрасида акс этган **čavgán** (бирламчи маъноси: “чавгон ўйинида ишлатиладиган учи эгри узун таёқ”) лексемаси “ноғора таёқчаси”ни ифодалашга йўналтирилган. Айни шундай семантик ҳодисани юқорида келтирилган байтдаги туб **borɣu** ҳамда форсча-тожикча **nafir** терминларининг “карнай” маъносини ифодалаш жараёнида ҳам кузатиш мумкин ва ҳ.к.

Сир эмаски, ҳар қандай тил сўз бойлигининг ривожланганлик даражасини белгилашда лексемалар тизимида кўпмаънолилик ҳодисасининг ўрнига алоҳида диққат қаратилади. Тилга хос эволюцион тараққиёт натижаси унинг фонетик-фонологик, морфем-морфологик ва синтактик сатҳларидан фарқли ўлароқ, лексик-семантик сатҳида кучлироқ, яққолроқ инъикосини топади. Замон ва маконда юз берган турфа воқеа-ҳодисалар, тилнинг ички ва ташқи қонуниятлари асосида воқеланган жараёнлар оқибатида лексик бирликларнинг маъно қурилиши ҳам муттасил ўзгариб туради, яъни муайян лексема ёки сўз маъно структурасининг кенгайиши, торайиши ёхуд бутунлай бошқа сема касб этиши айни ҳақиқат.

Қадимги туркий тил ва эски туркийда якка маъно касб этган айрим туб сўзлар достон матнида кўп маъноли лексема сифатида қўлланган. Чунончи, Мамуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида “айлантирмоқ, бурамоқ” маъносини англатган **čevűr**- сўзи “Гул ва Наврўз”да ушбу сема қатори (3r7) “бурмоқ, ўгирмоқ (юзни)” маъносини ҳам ифодалаган: Tahammul qïldï salmadï özini, Hamul yoldïn čevűrmädi yűzni (16r11). Ушбу феълнинг cevurmak ҳаракат номи шакли “Қайтариш (ортга), олиб кетиш” ни англатиш учун хосланган: Gulni čevűrmäk űčűn xaqan-i Čïn elčiläri kelgani (26r1).

Араб тилидан кириб келган **davlat** лексемасининг илк бор “Қутадғу билиг” матнида “бахт, омад, фаровонлик” семасида ишлатилгани маълум (Qutadg‘u bilig, 97). “Гул ва Наврўз” муаллифи айни ўзлашма зиммасига, шунингдек, “бойлик, мол-мулк” (36v12) ҳамда “салтанат, мамлакат, ҳокимият, ҳокимлик” (5v2) маъноларини ҳам ифодалаш вазифасини юклаган.

Форсча-тожикча **xub** ўзлашмасининг “чиройли, гўзал, соҳибжамол” маъносида қўлланиши XIV Хоразм обидаларига тўғри келади (СУЯ,II,506). Мазкур ўзлашма достонда тўрт ўринда қўлланган ва “чиройли, гўзал” (6v7) семасидан ташқари, “яхши, ёқимли, ёқимтой” маъносини ҳам англатган (16v9).

Маҳмуд Кошғарий луғатида **yolsuz** ясамасининг “адашган, йўлдан озган киши” маъносини ифодалаши қайд этилган (ДЛТ,III,47). Достонда бу лексеманинг маъно қурилиши

сезиларли даражада ўзгаришга учраган ва “қатнов йўлларининг йўқлиги” (15r4) ва “имкониятсизлик, чорасизлик”ни англатган (15r2).

Достонда XII-XIII аср туркий тил манбаларида қайд этилмаган айрим лексик бирликлар ҳам аксини топган. Чунончи, “қўққисдан, бирдан, тўсатдан, дафъатан” маъносини ифодалаган **kenätä** (37r4),“ажнабий, чет эллик” маъносини англатган **čočun** (45r8), “кезмоқ, сайр қилмоқ, айланмоқ” маъносидаги **kezin**- (5r13) ёки “азиз меҳмон учун белгиланган жой, ўрин” маъносидаги **körgä** (39v8) лексемалари шулар сирасидан ҳисобланади.

“Гул ва Наврўз” тилида форсча-тожикча **máh** ўзлашмаси “Хоразмийнинг “Муҳаббатнома”, Қутбнинг “Хусрав ва Ширин” асаридагидек “ой” (46r6) ҳамда кўчма “гўзал, соҳибжамол, нозанин”(12v10) маъносини ифодалашда давом этган. Бундай семантик жараён **mansab “**лавозим, мартаба, рутба” (1r12), **makr** “ҳийла, ол, алдов” (11r5), **ravza** “гулзор, чаманзор, жаннат” (2r5) сингари талайгина лексемаларда кузатилади. Илк эски туркий тил (XI-XII) ёдгорликларида “тўғри йўлга солмоқ, тўғри йўлни кўрсатмоқ” семаси **köndgär-, köngär-, köndűr**- сўзлари ёрдамида англашилган (ДТС,315). Қайд этилган маъно достон сўз бойлиги таркибида келган **könän**- (5в4) ҳамда **könändűr**- (2r13) сўзлари билан ифодаланганини кўриш мумкин. Ҳозирги ўзбек адабий тилида “юбормоқ, йўлламоқ” маъносида баъзан ишлатилувчи **кўндирмоқ** сўзи (ЎТИЛ,I, 417) меъёрлашиш жараёнининг узоқ давом этганини “тўғри йўлга кирмоқ” маъносидаги **kön**- феъли асосида ясалган юқоридаги лексемалар далиллайди. Ҳозирги турк тилида **göndermek** лексемаси **irsal etmek** бирикмаси сингари “жўнатмоқ, юбормоқ, йўлламоқ” маъносида кенг қўлланади (ТРСл, 345).

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гул ва Наврўз – Фазылов Э.И. Будапештская рукопись “Гуль и Навруз” Лютфи. – Ташкент, 2006.
2. ДЛТ – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Том III.–Тошкент, 1963.
3. ДТС- Древнетюркский словар. –Л: Наука, 1969.
4. Dadaboyev H., Xolmuradova M. “Qutadgu bilig”dagi sozlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati.–Toshkent: Navro‘z, 2018.
5. СУЯ – Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т-I-II.-Ташкент: Фан,1966,1971.
6. ТРСЛ-Турецко-русский словарь.48000 слов. –М.: Русский язык, 1977.

ƏMİR XOSROV DƏHLƏVİNİN “AYİNEYİ-İSKƏNDƏRİ” ƏSƏRİ
"AYINEYI-ISKANDARI" WORK OF AMIR KHOSROV DAHLAVI

Almaz ÜLVİ BİNNATOVA
AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutusu,
Filologiya elmləri doktoru, professor
Ruhşanə VASİYEVA
Filologiya elmləri doktoru, professor

Açar sözlər: *Nizami Gəncəvi, Əmir Xosrov Dəhləvi, “Xəmsə”, “Ayineyi-İskəndəri”, nəzm, klassik ədəbiyyat*

Kalit so‘zlar: *Nizomiy Ganjaviy, Amir Xosrov Dahlaviy, "Xamsa", "Ayineyi-Iskanderi", she'riyat, mumtoz adabiyot*

Key words: *Nizami Ganjavi, Amir Khosrov Dahlavi, “Khamsa”, “Ayineyi-Iskanderi”, poetry, classical literature.*

“Xəmsə” bir janr forması kimi yaranmasına görə dahi Nizami Gəncəviyə borcludur. Artıq məlum olduğu kimi, Şərq xalqları ədəbiyyatında Nizami Gəncəvinin “Xəmsə”sinin əsas ideya-bədii xüsusiyyətlərini təkrarlayan onlarca “beşliklər” (“Xəmsə”lər) vardır. Şərqin bütün görkəmli şairləri, ilk növbədə farsdilli və türkdilli sənətkarlar Nizami Gəncəvinin “Xəmsə”si ilə yaradıcı yarışmaya girməyi özlərinə borc bilirdilər. Bu əsərlərin süjet-mövzu əsaslarından, onların səciyyəvi kompozisiya-janr xüsusiyyətlərindən tutmuş şeirlərin formasına qədər bütün məsələlərdən istifadə edən

sənətkarlar Nizami Gəncəvinin nümunələri üzrə öz əsərlərini – nəzirə və ya cavablarını yaratmışlar. Müxtəlif şairlərin bu poemalarının məziyyətləri "Xəmsə"nin ehtiva etdiyi materialın və formanın yaradıcı təfsirinin sərbəstliyindən və orijinallığından asılıdır. Əlbəttə ki, bu sənətkarların yalnız az bir qisminə bütöv beşlik silsiləsi yaratmaq nəsib olmuşdur. Yüzlərlə şair "Xəmsə" mövzularından yalnız bir və ya iki poema yazmaqla kifayətlənməli olublar.

Əmir Xosrov Dəhləvinin (1253-1325) həyat və fəaliyyəti öz dövrünün ictimai-siyasi, ədəbi hadisələri ilə bağlıdır. Biz onun şəxsində zəmanəsinin butun elmləri sahəsində dərin biliyə yiyələnmiş acıqflkirli ziyalı, humanist bir sənətkar görürük. Əmir Xosrov Hindistan tarixinə həm ictimai dovlət xadimi, həm də özünəməxsus yeni ədəbi məktəbin banisi kimi daxil olmuşdur. Onun dünyagörüşünün və yaradıcılığının formalaşmasına yalnız Hindistan muhiti deyil, eyni zamanda klassik fars-tacik ədəbiyyatı, xususilə dünya ədəbiyyatını yüksək sənətkarlıq numunələri ilə zənginləşdirən Azərbaycan dahiləri - Xaqani Şirvani və Nizami Gəncəvi böyuk təsir göstərmişlər. Əmir Xosrovun müasiri, görkəmli tarixci Ziyaəddin Bərəni 1359-cu ildə yazmış olduğu "Tarixi-Firuzşahi" əsərində yazır: "Məhəmməd sultanın sarayında ən hörmətli müdrik simalar və istedadlı alimlər toplaşardı. Sultanın yaxın adamları ona Firdovsinin "Şahnamə"sini, Sənainin, Xaqaninin divanlarını və Şeyx Nizaminin "Xəmsə"sini oxuyardılar. Alimlər sultanın hüzurunda adları cəkilən böyük şairlərin şeirlərini muzakirə edərdilər. Əmir Xosrov və Əmir Həsən onun xidmətində idilər. Xosrov Dəhləvi hələ körpə ikən atası ona əba geydirib, bir övliyanın yanına aparmış, həmin şəxs körpə uşağın üzünə baxaraq demişdir: "Yanıma gətirdiyin elə bir adamdır ki, gələcəkdə Xaqanidən iki addım qabağa gedəcəkdir". Bu sözlər Xaqaninin o dövrdə Hindistan torpağında nə qədər məşhur və böyük nüfuza malik olduğunu göstərir" [Dəhləvi, 2006: 4-5]. Şairin dövründə və sonra yazılmış bir sıra mənbələrdə onun türk, fars, hind, ərəb, sanskrit, urdu və pəncab dillərini mukəmməl bildiyi qeyd olunmuşdur. Hindistanda yaranmış farsdilli ədəbiyyatın inkişaf tarixi Əmir Xosrov Dəhləvinin adı ilə qırılmaz surətdə bağlıdır. Şairin "Xəmsə" poemaları yazması "Xəmsə" yaradılması ənənəsinin geniş yayılmasında böyük rol oynamışdır. Qeyd etmək lazımdır ki, "Xəmsə" və onun ayrı-ayrı hissələrinin yaradılması ənənəsi Qəzənfər Əliyevin "Şərq xalqları ədəbiyyatında Nizaminin mövzu və süjetləri" əsərində qeyd etdiyi kimi, "İstanbuldan Malayziyaya qədər, Uraldan Hind okeanı sahillərinə qədər Şərq xalqları ədəbiyyatında sevimli mövzulardan biri olaraq qalmaqdadır. Bundan başqa, bu ənənələr, "Xəmsə" mövzu və süjetləri Avropada da çoxdan yayılmışdır. "Xəmsə" və ya bu silsilədən ayrı-ayrı poemalara fars, ərəb, puştu, gürcü, türk, özbək, Azərbaycan, qazax, türkmən, hind, pəncab və digər dillərdə də rast gəlinir" [Алиев, 1985:53-54].

Əmir Xosrov sayəsində "Xəmsə" poemalarının mövzu və süjetləri təkcə fars-tacik ədəbiyyatında geniş yayılmamış, həmçinin Asiya və Avropanın müxtəlif xalqları tərəfindən də yaxşı qəbul edilmişdir. Deyə bilərik ki, bu prosesdə Əmir Xosrov Dəhləvi məhz nəzirə yaradılması ənənəsini sonrakı əsrlərə ötürən özünəməxsus "körpü" rolunu oynamışdır. Hətta tam olmayan məlumatlara görə, təkcə fars dilində qırxdan yuxarı nəzirə yaradılmışdır. Nizami Gəncəvinin şanlı-şöhrətli davamçılarından Əmir Xosrov Dəhləvi, Xacu Kirmani, İmaddin Kirmani, Mövlana Əşrəf Marağayi, "Həft övrəng"in ("Yeddi taxt") yaradıcısı Əbdürrəhman Cami və nəhayət, Əlişir Nəvai də məşhur "Xəmsə" müəlliflərindən sayılırlar.

Məlum olduğu kimi, Əmir Xosrov Dəhləvinin qələminə çoxsaylı poetik və elmi əsərlər məxsusdur. Orta əsrlərin tanınmış antoloqu Dövlətşah Səmərqəndi özünün "Təzkirətüş-şüəra" əsərində şairin şeirlərinin ümumi sayının "400 min beytdən çox" olduğunu müəyyən etmişdir. Əmir Xosrovun "Xəmsə"si də buraya aiddir. Əmir Xosrov Dəhləvinin "Xəmsə"sinə aşağıdakı poemalar daxil edilib: "Mətləül-ənvar", "Şirin və Xosrov", "Məcnun və Leyli", "Ayineyi-İskəndəri" və "Həşt behişt". Yüksək bədii məharət sahibi olan sənətkar özündən əvvəlki ənənələri yeniliklərlə birləşdirməyə müyəssər olmuşdur. Əmir Xosrovun sayca dördüncü poeması – "Ayineyi-İskəndəri" ("İskəndərin güzgüsü") Nizami Gəncəvinin "İskəndərnamə" poemasına nəzirə olaraq 1299-1300-cü illərdə, yəni bu poemadan demək olar ki, yüz il sonra yazılmışdır. Əsər "Mütəqaribi-müsəmməni-məhzuf (məqsur)" vəznindədir və 4450 beytdən, Moskva nəşrinə görə isə 4416 beytdən ibarətdir. "O, "Durrət-ul-kamal" adlı əsərində şeirlərinin həcminin dörd yüz min beytdən cox, beş yüz min beytdən az olduğunu söyləyir. XV əsrdə Sultan Baysunqur onun yüz iyirmi iki min beytlik şeirlərini toplamış, axırda bu işin öhdəsindən gəlməyin qeyri-mumkun olduğunu soyləmişdir. Dövründə elə bir ədəbi-bədii forma

qalmamışdır ki, Əmir Xosrov Dəhləvi o formada əsər yazmamış olsun. O, yeganə şairdir ki, fars dilində 5 lirik şeir divanı yaratmışdır" [Dəhləvi, 2006: 4].

"Ayineyi-İskəndəri"nin əsas mənbəyi Nizami Gəncəvinin poeması olmuşdur. Bu iki poemanı müqayisə edərək belə bir qənaətə gələ bilərik ki, Əmir Xosrov Dəhləvi Nizami Gəncəvinin süjet xəttini saxlamaqla, yeni kompozisiya prinsipi tətbiq etmişdir. Şair "Ayineyi-İskəndəri" poemasının giriş hissəsində oxuculara xəbərdarlıq edir ki, bu poemasında o, öz sələfinin toxunmadığı məqamları nəzmə çəkmişdir. Əmir Xosrov özü bu barədə belə deyir:

Gəncəli mahir ustad, o əvvəlki nəğməkar,
Ümmansız sənətin böyük inci sahibi.
Baxışları bu şərab piyaləsində,
Süzülmüşü götürüb, xıltı mənə saxladı.

Poemanın əvvəlində Əmir Xosrov İskəndərin Həbəşistan, İran, Azərbaycan, Ərəbistan, Hindistan, Orta Asiya, Çin və başqa yerlərə yürüşlərindən bəhs edir. Əsərin bu hissəsi dahi Nizami Gəncəvinin "Şərəfnamə" poemasının birinci hissəsinin təsvirləri ilə demək olar ki, eynidir. Lakin Əmir Xosrov bəzi yerlərdə yunan sərkərdəsinin tərcümeyi-halının ayrı-ayrı məqamlarının müəyyənləşdirilməsində Nizami Gəncəvi ilə polemikaya girir. Müəllif Nizami Gəncəvinin İskəndər obrazına verdiyi təsvirdən imtina edir. Məlum olduğu kimi, Nizami Gəncəvi İskəndəri üç aspektdən təsvir etmişdir: sərkərdə, müdrik filosof və peyğəmbər. Əmir Xosrov İskəndərin peyğəmbərlik missiyasını, belə deyə bilərik ki, ümumiyyətlə qəbul etmir. Əmir Xosrov Dəhləvinin poemasının əsas hissəsi ixtiraçı İskəndərə həsr olunmuşdur. Əmir Xosrov izah edir ki, ixtiraçılıq ruhu hər bir insana – tələbatı onu həyat şəraitini yaxşılaşdırmaq yolları axtarmağa vadar edən hər bir Adəm ovladına xasdır. Poemada İskəndərin bütün dünyanın, kainatın əks olunduğu bir güzgü ixtira etməsi versiyası nəzmə çəkilir.

Əmir Xosrov öz əsərində, əsasən, Əbülqasim Firdovsi və Nizami Gəncəvinin ədəbi-poetik materiallarından istifadə etmşdir. Y.E.Bertels qeyd edir ki, Əmir Xosrov Dəhləvi öz vəzifəsini Nizami Gəncəvinin poemasındakı ayrı-ayrı səhnələrin yenidən şərh edilməsində görür [Бертелсь, 1965 :249]. Əmir Xosrovun poeması Nizami Gəncəvinin poemasından hər şeydən öncə onunla fərqlənir ki, bu əsər Nizami Gəncəvinin əsərinə nisbətən daha çox didaktik yönlüdür. "Ayineyi-İskəndəri" poemasındakı bütün bölmələr-fəsillər kompozisiya baxımından dəqiq qurulmuşdur, başqa sözlə, müəyyən prinsip əsasında formalaşmışdır: hər bir fəsildə mövzunun nəzəri cəhətdən əsaslandırıldığı giriş təqdim edilir. Girişin ardınca bu nəzəri müddəaları təsdiq edən illüstrativ material – hekayə (əhvalat) gəlir. Bundan sonra isə Əmir Xosrov İskəndərin tərcümeyi-halından müvafiq epizodun təsvirinə başlayır. Fəsil saqiyə və ya musiqiçiyə xitabla bitir. Qeyd etmək lazımdır ki, ilk dəfə Azərbaycan şairi Nizami Gəncəvi tərəfindən poeziyaya məhz belə bir forma – müraciət forması daxil edilmişdir. Bununla bağlı görkəmli alim Y.E.Bertels yazır: "Bu cür parçalama özünəməxsus ritm yaradır və poemaya məlum ahəngdarlıq verir. Bunsuz isə o, elə bil bir qədər xaotik xarakter daşıyardı, çünki əsərin fabulasının özü dəqiq ifadə olunmuş fəsillərə malik deyil" [Бертелсь, 1965:250].

Nizami Gəncəvi "Şərəfnamə"nin ("Şöhrət kitabı") hər fəslinin sonunda saqiyə üz tutur, "İqbalnamə"nin ("Səadət kitabı") hər fəslinin sonunda isə musiqiçiyə müraciət edir. Əmir Xosrov Dəhləvinin poemasında isə saqiyə və musiqiçiyə müraciət birlikdə verilir.

Əmir Xosrovun əsərinin başlıca hissəsi "dövlət" (hakimiyyət, sərvət) anlayışının təfsiri ilə başlayır. "Dövlət" istilahının izahına bütöv bir fəsil həsr edən dahi şair burada qeyd edir ki, istək, idrak və bilik sayəsində dövləti idarə etmək olar. Onun sözlərinə görə, sərvət – hakimiyyət, xalqı rasional idarə etmək arzusudur. Əmir Xosrov "dövlət" anlayışını sərvət mənasında o qədər də bəyənmir. Deyir ki, o, müvəqqətidir və hətta ziyanlıdır. Öz qənaətinin doğruluğunu sübut etmək məqsədilə hekayət də nəql edir: Bir dəfə Sultan Mahmud cah-cəlalla və təmtəraqla ova çıxır. Onun göz qamaşdırıcı dəbdəbəsini görən dərviş öz yoxsulluğundan cana doyaraq, paltarını soyunub göyə atır. Paltarsa səmada ilişib qalır. Hətta paltarından da məhrum olan dərviş sonda tanrıya yalvarmağa başlayır və axır, ona nail olur ki, paltarı yenidən yerə düşür. Şair ona müraciət edir:

Ey göz sahibi olan kimsə, niyə düşünürsən ki,
Yoxsulluq hökmranlıqdan yaxşı deyildir.

Böyük şair dərvişə müraciətdə dərvişin statusunu şahdan yüksəyə qaldıraraq, göstərir ki, əsl hakimiyyət bu azad, heç kimdən asılı olmayan həyatdan, qəlbi zorakılıqdan uzaq olan həyatdan ibarətdir. Sonrakı fəsildə şair İskəndərin həyatının təsvirinə başlayır.

Əmir Xosrovun poemasında İskəndərin həyatı ilə bağlı hadisələr təkrarlanmır. Artıq yuxarıda da qeyd etdiyimiz kimi, dahi şair əsərin kompozisiyasını Nizami Gəncəvinin poeması ilə müqayisədə bir qədər fərqli qurmuşdur. Onun poeması kompozisiya planı baxımından iri hissələrə bölünmüşdür. Hər bir parça üç hissədən ibarətdir. Hər şeydən öncə, bunlar konkret mövzuları əhatə edən öyüd-nəsihət, sonra şairin məsləhətlərinə qüvvət verən hekayət və nəhayət, İskəndərin həyatından bir və ya bir neçə fraqmentdir.

Əmir Xosrov İskəndərin sərgüzəştlərinin təsvirinə onun Çin hökmdarı ilə müharibəsindən başlayır və Nizami Gəncəvidən fərqli olaraq, iddia edir ki, İskəndər Çini fəth edib. Belə bir təəssürat yaranır ki, Dəhləvinin əlində İskəndərin Çin hökmdarı ilə müharibəsindən bəhs edən digər bir mənbə də olub. Daha doğrusu, Əmir Xosrov İskəndərin sərgüzəştləri haqqında əhvalatı bu hadisədən nəql etməyə başlayır.

Şair burada İskəndərin Çin hökmdarı ilə münasibətlərindən yetərincə ətraflı bəhs edir. Sultan Səncərin Rum çarı ilə döyüşü barədə hekayət danışan sənətkar İskəndərlə Çin hökmdarının qoşunları arasındakı savaşların təsvirinə qədər gedib çıxır. Dahi şair hər iki qoşunun döyüşçülərini, onların yerləşdiyi ərazini, at üzərində, qılıncla, nizə və oxlarla aparılan qədim döyüşü ustalıqla təsvir edir. İki qoşunun toqquşması zamanı əvvəlcə təkbətək döyüş başlayır. Çin tərəfdən meydana pəhləvan Kanifu çıxır və rumluların qırx pəhləvanını məğlub edir. Onların arasında Tardi Rumi, Katoyuni Rumi kimi tanınmış döyüşçülər vardı. Kanifu ilə heç kim döyüşüb ayaqlaşa bilmədiyindən İskəndər özü döyüş meydanına çıxmalı olur və pəhləvanı əsir götürür. Bundan sonra hər iki tərəfin döyüşçüləri dərhal savaşa atılırlar. İskəndəri döyüş meydanında görən Çin hökmdarı da həmçinin döyüşə girir. Bir çox döyüşçülər həlak olurlar.

Axır ki, yeddinci gün döyüş dayanır, İskəndər öz iqamətgahına qayıdır və əsir götürdüyü döyüşçünü görmək istəyir. Onu gətirirlər. Döyüşçünün silah-əsləhəsini, üst-başını çıxaranda məlum olur ki, o qızdır. Sən demə, Kanifu Çinin məşhur döyüşçülərindən birinin yeganə qızıymış və bu döyüşçü övladına döyüş sənəti sirlərini öyrətmişdi. Atasının vəsiyyətinə görə, qız yalnız döyüşdə ona qalib gələn adama ərə gedə bilərdi. Bunu eşidən İskəndər şad olur və qızın şərəfinə ziyafət təşkil edir. Bu qız onu təkcə gözəlliyinə, cəsarətinə və güc-qüvvətinə görə deyil, həm də döyüş sənətini mükəmməl şəkildə mənimsədiyinə və məharətlə döyüşə bildiyinə görə cəlb edir. Onu da xatırlatmaq lazımdır ki, Əmir Xosrovun poemasında İskəndər gözəl Kanifu ilə evlənmir, lakin uzun müddət onunla bir yerdə qalaraq bu Çin qızını çox maraqlı həmsöhbət və öz sevgilisi hesab edir.

Bundan sonra o, Abi-kövsər (Dirilik suyu) dalınca yola düşür, amma onu tapa bilmir. Əmir Xosrov İskəndərin dirilik suyu axtarışında zülmət dünyaya girdiyini, oradan isə heç bir şeyə nail olmadan çıxdığını ərz edərək şahın Yəcuclara qarşı mübarizəsinin bədii təsvirinə başlayır. Sirli səs eşidən İskəndər Yəcuc və Məcuclar qarşısında divar-bənd tikməyə yola düşür. Səma carçısı mələk Süruş (Cəbrayıl) onu Yəcuclara qarşı mübarizəyə göndərir. Süruş obrazına Nizami Gəncəvinin poemasında da rast gəlinir. Orada Süruş İskəndərə vəhy (Tanrının səsini) çatdırır. Bununla da Nizami Gəncəvi İskəndərin peyğəmbər olması barədə fikri əsaslandırmaq istəyir. Əmir Xosrov isə öz əsərində İskəndərin peyğəmbərliyini inkar edir. Buna baxmayaraq, Dəhləvinin poemasında Süruş İskəndəri Yəcuclarla döyüşə yollayır ki, bununla da biz İskəndərin hər halda ilahiləşdirilməsini görürük. Yəcuc və Məcuclara qarşı döyüşlər şiddətli və ağır keçir. İskəndərin qoşunu böyük itkilərə məruz qalır. Bundan sonra onlar polad divar tikərək xalqı və özlərini bu yırtıcılardan xilas edirlər.

Şair daha sonra İskəndərin ixtiralarından bəhs edir: onun astrolyabiya (bucaqölçən alət), şəkil qalereyası və güzgü yaratmasını göstərir. Əmir Xosrov adı çəkilən poemasında biliklərin, sənətin və sənətkarlığın gücünü vurğulayır, bütün uğurların insanın yaradıcı qabiliyyətindən asılı olduğunu qeyd edir. Dahi şair elə bu əsasda da İskəndərin ixtiraları barədə düşüncələrini bölüşür. Keyxosrovun "Cami Keyxosrov"unda bütün dünyadakı aşkarları və gizlinləri görən İskəndər özündən sonra nəsə qoymaq fikrinə düşür, alimləri toplayıb deyir:

Ətrafımda olan bu alimlərdən,
Nə Keyxosrovda olub, nə də ki Camda.

Necə ola bilər ki, həyatda məndən
Qalmasın, qalmasın heç bir xatirə

Onun sözləri alimlərin xoşuna gəlir və ilk olaraq Aristotel üsturlab (teleskop) yaradır. Rum rəssamları sanki canlı kimi görünən gözəl bir qız portreti çəkirlər. Çin sənətkarları isə polad ayna hazırlayırlar. O, insanın görkəmini müxtəlif vəziyyətlərdə əks etdirərək İskəndəri heyrətləndirir. İxtiraların böyük əhəmiyyətini dərk edən İskəndər bu işə daha ciddiyyətlə girişir. İskəndərin ixtiraçılığa olan diqqətini bəyənən Əmir Xosrov göstərir ki, öz ölkəsinin çiçəklənməsini arzulayan hər bir hökmdar məhz bu cür hərəkət etməlidir.

The article draws attention to the views of medieval authors on the ceremonies and holidays associated with Zoroastrianism in Azerbaijan, as well as the celebration of the harvest in early autumn.

Açar sözlər: *mərasim folkloru, ilkin təsəvvürlər, rituallar, mövsüm mərasimləri, yazın gəlişi, bayramlar,əmək nəğmələri, mənbə, elmi araşdırma*

Key words: *ritual folklore, early performances, rituals, seasonal rites, the arrival of spring, holidays, labor songs, source, scientific research.*

Dünya xalqlarının hər birinin müxtəlif poetik janr və formaları əhatə edən mərasim folkloru mövcuddur ki, onlar mifoloji qaynaqlar əsasında sadədən mürəkkəbə doğru ayrı-ayrı dövrlərdə xalq yaradıcılığında formalaşmış və bu günə qədər qorunub saxlanmışdır .

Mərasim folkloru geniş anlayış olduğuna görə, onun əhatə dairəsi də coxcəhətlidir. Mifoloji tarixi–magik görüşlərin, ritual komplekslərinin əks olunması mərasim folkloru nümunələrini birləşdirən əsas funksiya kimi diqqəti cəlb edir(Соколова, 1982:3).Mərasim folklorunda zaman anlayışı önəmli məqamlardan birini müəyyən edir. Hələ ibtidai dövrlərdən zaman insan həyatına müdaxilə etmiş, ilin ayri-ayrı fəsillərində ona bilavasitə təsir göstərmiş, ilin müxtəlif günlərində silsilə mərasimlər keçirilmişdir. Ayrı-ayrı mərasimlərdə sözün magik qüvvəsinə inam güclü olmuş, həmçinin sözlə hərəkətin vəhdəti bilavasitə onların yaranma strukturuna və poetik özəlliklərinə də təsirsiz ötməmişdir .

Xalq mənəviyyatının sərvəti olan şifahi söz sənətinin mənşəyi insan təfəkkürünün hələ tam formalaşmadığı çağlarla bağlıdır. İbtidai tarixi dövrlərdə təbiət və cəmiyyət hadisələri insanlarda yalnız müşahidə və ilkin təsəvvürlər yaradırdı. Təbiətdə baş verən hadisələrin yaranma səbəblərini dərk edə bilmədiklərindən insanlar onlara ilahi varlıqların müdaxiləsi kimi baxmış və bununla bağlı bu gün mərasim folkloru kimi qəbul olunan mərasimlər silsiləsi xalq ədəbiyyatına daxil olmuşdur.

C.C.Frezerin mifləri " mərasimləri izah edən elm" adlandırması da təsadüfi olmamışdır(Фрейзер, 1980:459).

İnsanların ibtidai inkişafı müəyyən görüşlərin , heyvanat və bitki aləminin müqəddəsləşdirilməsi , onlara inam totemizmin, ruhların iradəsindən asılı olma animizmin, fövqəltəbii qüvvələrin heyvan şəklində dərki zoomorfizmin, insan surətində qavranılması isə antropomorfizmin formalaşmasını təmin etmişdir. İbtidai əmək nəğmələrindən eposa qədər tarixi yol keçmiş folklor janrları üçün bu örnəklər əsaslı bünövrə rolu oynamışdır.

Azərbaycan poetik xalq yaradıcılığının toplanması, nəşri və tədqiqi sahəsində təqdirəlayiq işlər görülmüşdür.

Arxaik janr və nəğmələrin mərasimlərlə ümumilikdə öyrənilməsinin də obyektiv səbəbi vardır. Araşdırmalar göstərir ki, bir çox folklor örnəkləri,o cümlədən, alqışlar, qarğışlar,inanclar, əfsunlar, fallar və s. ayin - mərasimlərlə bilavasitə bağlı olaraq meydana çıxmışdır. Həmin bədii mətnlər, o cümlədən vəsfi-hallar da müəyyən ayin və mərasimlərlə vəhdətdə semantik mahiyyət daşıyır. Bir sıra xalqların folklorunda belə janlara rast gəlmək olar, rus folklorşünaslığında da mərasim folkloru sırasına daxil edilmiş (Abdullayev,1989:35), hətta sınamaların təqvim mərasim poeziyasının xüsusi janrı olan "priqavorki"lərlə eyni olduğu bildirilmişdir.

Dünya folklorşünaslığında mərasim poeziyasının öyrənilməsinə həsr olunmuş araşdırmalar öz aktuallığı ilə diqqət mərkəzində olmuşdur. Azərbaycan mərasim folklorunun toplanması,mərasim nəğmələrinin öyrənilməsi folklorşünaslıgımızın aktual problemlərindən biridir. Çünki mərasim folklorunda ayrı-ayrı ayinlərin, ritualların səciyyəviliyi bilavasitə xalqın yaşam tərzini, düşüncəsini, dünyagörüşünü, təfəkkürünü müəyyənləşdirir. Təqdirəlayiq haldır ki, bu gün yaşadığımız inteqrasiya və qloballaşma dövründə mərasim folkloruna olan diqqət və maraq daha da artmaqdadır.

Azərbaycan folklorunun, xüsusən də mərasim folklorunun, mərasimlərin, bayramların, arxaik, yaxud kiçik janrların və s. tədqiqi nəticəsində folklorşünaslıqda dəyərli elmi araşdırmalar ərsəyə

gəlmişdir. Bu baxımdan M. Dadaşzadənin, M.H.Təhmasibin, M.Seyidovun, P.Əfəndiyevin, V.Vəliyevin, A.Nəbiyevin, B.Abdullayevin, E.Aslanovun, M.Kazımoğlunun, və b. xidmətləri qeyd edilməlidir. Azərbaycan mərasimlərinə, xüsusən də mövsümlə bağlı mərasimlərə dair folklorşünaslıqda xeyli işlər görülmüş, ayrı- ayrı məqalə və dərsliklərdə onlardan bəhs olunmuşdur. Bu baxımdan M.H.Təhmasibin «Xalq ədəbiyyatımızda mərasim və mövsüm nəğmələri» adlı namizədlik dissertasiyası xüsusi qeyd olunmalıdır ki, burada mövsüm mərasimləri ətraflı araşdırılmışdır (Təhmasib,2010;18-98). Əsərin müəllifi bir çox məsələlərin, o cümlədən "Ata-baba günü"nün, "Hodu-Hodu"nun, "Kosa-kosa"nın, "Səməni bayramı"nın üzərində təhlillər aparmış, həmin mərasimlərin həm adlarının etimoloji izahını araşdırmış, həm də elmi- nəzəri fikirlərini irəli sürmüşdür.

Tədqiqatlara görə, şifahi yaradıcılıqda əmək nəğmələrindən sonra mühüm yeri təbiəti dərketmə ilə, ayin, etiqad və mərasimlərlə bağlı nəğmələr tutmuşdur. Zaman- zaman bu hadisələri qavramaq, dərk etmək və sanki özünə tabe etmək məqsədilə insanlar ilk, ibtidai inanc və etiqadlarını, ayin və mərasimlərini yaratmış və onlar şifahi yaradıcılıqda öz əksini tapmışdır. Xalq ədəbiyyatında həmin inam və etiqadlarla bağlı silsilə nəğmələr yaranmışdır ki, onların yalnız bir qismi bu günümüzə qədər gəlib çatmışdır. Mərasim nəğmələri adlanan bu poetik nümunələr öz mövzu və məzmun xüsusiyyətlərinə görə əsasən iki qrupa bölünür ki, bunlar mövsüm və məişət mərasimi nəğmələridir (Nəbiyev,2014: 218).

Mövsüm mərasimi nəğmələri daha çox xalqın gündəlik həyatı ilə bağlı yaranmış, bir sıra erkən görüşləri, o cümlədən animistik , antropomorfik , mifoloji düşüncəni özündə əks etdirmişdir. Mərasim nəğmələri arxaik düşüncənin poetik ölçü və qəliblərin ,poetik üslub və ifadə modellərinin ən erkən tiplərini ifadə edir, xalqların etik-estetik dünyagörüşü, əxlaqı, ritual və etiqadlarını sistem halında ifadə edir(Təhmasib,2010:218). Tədqiqatlarda erkən estetik düşüncəni və məişət əxlaqi detallarını əks etdirmək baxımından mövsüm mərasimi nəğmələri iki şəkildə nəzəri cəlb edir: Ayrı-ayrı təbiət hadisələri və etiqadlarla bağlı yaranan nəğmələr və ilin müəyyən fəsillərində xalqın birgə əməyini yekunlaşdıran nəğmələr.

Ayrı-ayrı təbiət hadisələri və etiqadlarla bağlı yaranan nəğmələrə yağışın yağması, günəşin çıxması, küləyin əsməsi, göyün guruldaması , eləcə də oda, suya, küləyə və torpağa inamla bağlı yaranan nəğmələr daxil edilir (Təhmasib, 2010:219). Belə nümunələrin birində, məsələn Günəşə etiqadla bağlı aşağıdakı mətndə antropomorfik görüşlərin izləri diqqəti cəlb edir:

Gün çıx, gün çıx,
Kəhər atı, min çıx
Oğlum qayadan uçdu,
Qızın təndirə düşdü
Keçəl qızı qoy evdə,
Saçlı qızı götür çıx.
Gün getdi su içməyə,
Qırmızı don biçməyə...

Yellə, küləklə əlaqədar yaranan nəğmələrdə isə küləyin çağırışı motivi əsas yer tutur :

A yel baba, yel baba,
Qurban sənə, gəl baba,
Taxılımız yerdə qaldı,
Yaxamız əldə qaldı.
A yel baba, yel baba,
Qurban sənə, gəl baba (Təhmasib, 2010: 220) və s.

İkinci bölgüdə ilin müəyyən fəsillərində xalqın birgə əməyini yekunlaşdıran nəğmələr yer almışdır ki, onlar əmək mövsümlərinin başlanması və ya məhsulun yığılması ilə bağlı yaranan nəğmələri əhatə edir.

Mənbələrə görə, erkən dövrlərdən Türk tayfaları içərisində əsasən ilin iki mövsümü , yazın gəlişi, yeni əmək mövsümünün başlanması və payızda məhsulun yığılıb başa çatması ilə bağlı mərasimlər, bayramlar keçirilərdi. Bu bayramlar xalq arasında xüsusi təntənə ilə qeyd olunurdu. Ən

önəmlisi isə odur ki, bu bayramların keşirilməsi ilə paylaşmaq düşüncəsi - imkansızlara kömək etmək, onlara pay vermək, bayram günü hər kəsin evində süfrə açılması amalı ilə əlaqədar idi.

Şifahi və yazılı ədəbiyyatımızın nadir qaynaqlarından olan "Dədə Qorqud" oğuznamələrində bəzi mərasimlərin izlərini müəyyən etmək olar. Məsələn, "Dirsə xan oğlu Buğac" boyunda belə bir süjetə rast gəlmək olur ki, "hər il bir yazda , bir də payızda buğa ilə buğranı savaşdırırlar. Bayandır xan Qalın Oğuz bəylərilə tamaşaya baxır, əylənirdi" ("Kitabi- Dədə Qorqud", 1988:36). Hesab edirik ki, bu, türk xalqları arasında payızda və yazda keçirilən mövsüm mərasimilə, yaxud meydan tamaşası ilə bağlı kiçik bir nümunə kimi diqqəti cəlb edir.

Azərbaycan ərazisində zərdüştiliklə bağlı keçirilən bayramlar arasında Mehrikan bayramı xüsusi qeyd olunmalıdır. Mənbələrə görə, Mehrikan bayramı payız fəslinin əvvəlində məhsulun toplanışından sonra keçirilmişdir. Orta müəllifləri Mehrikan bayramından söhbət açarkən əvvəlcə onun keçirildiyi vaxtı qeyd edirlər. Əbu Reyhan əl Biruni bu bayramın təqribən mehr ayının 16- dan 30- na kimi qeyd olunduğunu göstərir" (Dadaşzadə, 1985:124-125).

Erkən düşüncədə yeni əmək mövsümünün başlanması ilə bağlı mərasim və nəğmələr arasında "Şum mərasimi", "Saya mərasimi" və onları bəzəyən nəğmələr diqqəti daha çox cəlb edir . "Novruzqabağı nəğmələr" adı ilə tanınan həmin nəğmələr də üç yerə ayrılır–"Çillə nəğmələri", "İlaxır çərşənbə nəğmələri" və "Bayram məişəti nəğmələri"(Çəmənzəminli,2005:224).

Xalq yaradıcılığında mərasim poeziyasında arxaik əmək nəğmələrinin də böyük təsiri olmuşdur ki, bunlara həm cüt nəğmələri, həm də holovar deyilir. Bu nəğmələr əvvəlcə ibtidai məzmun daşımış, bir-iki hecalı misralardan ibarət olmuş və müəyyən ritmə uyğun şəkildə yalnız əmək prosesi zamanı oxunmuşdur. İnsan təfəkkürünün inkişafı nəticəsində şifahi yaddaşda holavar daha da təkmilləşmiş və bayatıların poetik formasını qəbul etmişdir:

Qara öküz aranda,
Çıxar gün qızaranda,
Xodaq murada çatar,
Torpaqdan bar alandan ... (Abdullayev,2005: 90)

Xalq yaradıcılığında ən qədim mərasimlərdən biri də qoyunçuluqla bağlı icra olunan sayaçı mərasimidir. Bu mərasim qoyunların quzuladığı vaxtda keçirilərdi.

Bu saya kimdən qaldı?
Adəm atadan qaldı.
Adəm ata gələndə
Musa çoban olanda
Qızıl öküz duranda
Qızıl buğda bitəndə
Dünya bünyad tapanda... (Abdullayev, 2005: 90)

Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında "saya" və "sayaçı sözləri"nin izahına dair müxtəlif mülahizələr irəli sürülmüşdür ki, burada «kölgə» (F.Köçərli), «nəğmə» (M.Arif, M.H.Təhmasib), «say-rəqəm» (Ə.Axundov), «bolluq-bərəkət» (V.Vəliyev), «tanrı, peyğəmbər, işıq, yol göstərən, tamaşaçı, ovçu, çoban» və s. (M.Həkimov) mənaları qəbul edilmişdir (Abdullayev, 2005: 91).

Xalqın yaddaşında "Saya yaradan soy qurandır", "Saya qurbanı pirdə olar" "Saya yandıran çıraq öləziməz", "Sayanın varı davar, dağın varı qar", "Gözü tox olan sayanın davarı da çox olar", "Sayanın oxu, qurdun xofu yaman olar", "Saya sözdən, qurd gözdən tanınar", "Saya mərd olar, dərd olmaz və s. hikmətamiz fikirlər bu gün də yaşamaqdadır (Bəydili,2003: 8).

M.Arifə görə « hər il təxminən yaza əlli gün qalmış qoyunlar quzulamağa başladığı zaman çoban paltarı geymiş adamlar kəndbəkənd gəzib «Sayaçı» mərasimi icra edirlər" (Байбурин, 5:94).

Y.V.Çəmənzəminli 1921-ci ildə İstanbulda nəşr etdirdiyi «Azərbaycan ədəbiyyatına bir nəzər» adlı kitabında yazmışdır ki, "Sayaçı sözləri tərəkəmə xalqı arasında heyvanlara aid nəğmələrdir ki, toplanıb tədqiq olunmayıb"(Çəmənzəminli, 2005: 87).

V.Vəliyevin sayaçı nəğmələrinin qədim nümunələrinin indiki bayatı formasında olanlardan fərqləndiyini söyləməsi və bunu konkret misallarla izah etməsi də diqqəti cəlb edir (Vəliyev, 1981:25-27).

Tarixi mənbələrə görə, türklər hələ hunların dövründən bayram və mərasimlər keçirmişlər. Hunların mərasimlərinə bənzər rituallar Göytürklərin zamanında da keçirilmişdir. Türklər hər il bayram mərasimlərini təqribən beşinci ayın ikinci yansında "Gök Tenqri" və "ıduk yer, suv" üçün qurban kəsməklə başlayardılar. Qurbandan sonra isə şənliklər olurdu. Bu zaman oyun oynar, kımız içər, nəğmələr söyləyərmişlər.

840-cı ildən sonra Tarım hövzəsinə gəlib oturaq həyata keçən uyğurlar Buddizmi qəbul etsələr də əski ənənələrini unutmamışdılar. X əsrin əvvəllərində uyğur kağamnı ziyarət edən Çin elçisi Vanq-Yen-Tenin məlumatına görə, uyğurlar üçüncü ayın doqquzunda, yəni martın 9-da bir şənlik keçirirlərmiş. Bu şənliyin əsas əyləncəsinin bir-birilərinin üzərinə su atmak olduğu göstərilir. (Bəydili, 2003:117).

Azərbaycan mövsüm mərasimləri arasında "Xıdır", "Xıdır Nəbi" və ya Xıdır İlyas", yaxud “Yazağzı Xızır bayramı, yaxud “Qışyarısı” mərasimlərinin də özünəməxsus yeri vardır. “Bəzi qaynaqlar bu el şənliyini Xıdırelləz, Xızırgünü, Ruzi Xızır və Xıdırzında da adlandırırlar”(Abdullaye, 2: 226).Bu mərasim mifik təsəvvürlərdə yazı qarşılamaqla, yaşıllıq arzusu ilə yanaşı, həm də Xızırın simasında insanlara bolluq, bərəkət və firavanlığın bəxş olunması kimi əks olunmuşdur.Bu mövsüm mərasiminin mənşəyi haqqında orta əsrlərdə Azərbaycana gəlmiş səyyahlar müəyyən məlumatlar vermiş və öz səyahətnamələrinə daxil etmişlər. Hələ XIII əsrdə Azərbaycana gəlmiş italyan səyyahı Marko Polo bu bayramın fevralın əvvəllərində “Bəyaz” adı altında xalq arasında qeyd olunduğunu bildirmişdir. Daha sonra XVIII yüzillikdə Şamaxıya gələn alman səyyahı Adam Oleari bu bayramı geniş təsvir etmişdir. Mənbələrə görə, bu bayramı həm də “taxıl və müqəddəs ağaclara pərəstişlə” əlaqədar keçirmişlər. Azərbaycanda "Xıdır Nəbi" mərasimi qışın oğlan çağı sayılan Kiçik Çillə günlərində, yəni fevralın əvvəllərində, daha doğrusu ilk ongünlüyündə keçirilir. Erkən təsəvvürlərə görə, bu bayram gecəsində Boz atlı Xızır əlində “od butası” ilə yer üzünə enib hər yeri gəzəcək, onun üçün ayrılmış paylara əlini çəkəcək, beləliklə də bütün insanlara sağlamlıq və xoşbəxtlik, firavanlıq gətirəcəkdir. "Xıdır Nəbi" mərasimində oxunan nəğmələrin də bayramın xüsusi təmtəraqla keçirilməsinə təsiri böyük idi. Bu qədim mərasim Anadolu türkləri arasında may ayının əvvəllərində, təqribən 5-6 may tarixində keçirilməkdədir.

Mövsüm mərasimləri arasında noyabr ayında qışın gəlişilə bağlı keçirilən “Kövsəc” mərasimi də diqqəti cəlb edir . Əski çağlardan bu mövsüm mərasimi xalq arasında keçirilmiş, bununla da insanlar sanki qışın çətinliklərinə hazır olduqlarını bildirmişlər. Mərasimdə arxaik rituallara müraciət edilir, oyun və tamaşalar keçirilərdi. Bu rituala görə, təlxək paltarı geyinmiş bir adam qatırın üstündə əlində tükü tökülmüş qarğa ilə guya qışın gəlişini gözləyir və bununla da qışın soyuğundan, şaxta - boranından qorxmadığını nümayiş etdirir və müxtəlif gülməli hərəkətlər edir.

Türksoylu xalqlar sanki soyuq qış günlərinə qarşı yazın gəlişini sürətləndirmək məqsədilə mifoloji düşüncədən qaynaqlanan silsilə ayin- mərasimləri yaratmış, onları milli mifoloji təfəkkürə uyğun olaraq icra etmiş və gələcək nəsillərə ötürmüşdür.

Xülasə

Təqdim edilmiş məqalədə mərasim folkloru, onun mifoloji tarixi- magik görüşlərlə bağlılığı, ayrı- ayrı mərasimlərdə sözün magik qüvvəsinə inam, şifahi yaradıcılıqda əmək nəğmələrindən sonra təbiətin dərk edilməsi ilə yaranan ayin, ritual və mərasimlərlə paralel şəkildə mövcud olan nəğmələr və s. bağlı elmi- nəzəri ədəbiyyatlara istinad edilmiş, onların çağdaş dövrümüzə çatmış örnəkləri təhlilə cəlb olunmuşdur.

Məqalədə mərasim folklorunda önəmli yer tutan mövsüm mərasimləri, onların arxaik nümunələri, o cümlədən təbiət hadisələrinə inam və etiqadlarla bağlı nəğmə mətnləri diqqətə çatdırılmışdır.

Tarixi mənbələrdə Göytürklərin dövründə ilin müəyyən mövsümlərində mərasim və bayram keçirmək ənənəsinin mövcudluğundan bəhs edilmiş, ədəbi qaynaqlara istinad edilmişdir.

Məqalədə Azərbaycan ərazisində zərdüştiliklə bağlı keçirilən mərasim və bayramlar, o cümlədən payızın əvvəlində məhsul yığımının bayram edilməsi haqqında orta əsr müəlliflərinin fikirlərinə də diqqət yetirilmişdir. Burada Yaz bayram kompleksinin tərkib hissəsi olan “Xıdır Nəbi” nin mifoloji- tarixi gerçəkliklə bağlılığı, onun mənşəyi, xalq arasında keçirilmə vaxtı və arealı, habelə Xızırın əsas funksiyaları və s. haqqında məlumat verilmişdir.

Ədəbiyyat:

1. Abdulla Bəhlul. Azərbaycan mərasim folkloru. Bakı: “Qismət”, 2005, 208 s.
2. Aslanov E. El- oba oyunu, xalq tamaşası. Bakı: “İşıq”,1985, 275s.
3. Azərbaycan mifoloji mətnləri.(Tərtib, ön söz və şərhlərin müəllifi A.Acalov), Bakı: “Elm”, 1988,196 s.
4. Байбурин А. Ритуал в традиционной культуре(Структурно-семантический анализ восточнославянских обрядов) СПб. 1993
5. Bəydili(Məmmədov) C.Türk mifoloji sözlüyü. Bakı: “Elm”, 2003, 403 s.
6. Bəydili(Məmmədov) C. Türk mifoloji obrazlar sistemi: struktur və funksiya. Bakı:”Mütərcim”, 2007, 272 s.
7. Çəmənzəminli Y. V. Əsərləri. III c., Bakı: “Avrasiya Press”, 2005,440 s.
8. Dadaşzadə M. Azərbaycan xalqının orta əsr mənəvi mədəniyyəti. Bakı: ”Elm”, 1985, 216s.
9. Əfəndiyev P. Azərbaycan şifahi xalq ədəbiyyatı. Bakı:”Elm” və təhsil, 2013, 600 s.
10. Фрейзер Дж. Золотая Ветвь. Исследование магии и религии. Москва:Издательство политической литературы.1980,831стр.
11. Nəbiyev A. Azərbaycan xalq ədəbiyyatı. I kitab, Bakı:”Appostroff”, 656 s.
12. Обряды и обрядовы фольклор. (Ответсвенный редактор В.К.Соколова). «Наука», 1982, 277 стр.
13. Тайлор Е. Первобытная культура. Пер. с англ. Москва: Политиздат,1989, 573 стр.
14. Təhmasib M. H. Seçilmiş əsərləri. 2 cilddə, I cild, Bakı: “Mütərcim”, 2010, 488 s.
15. Vəliyev V. Qaynar söz çeşməsi. Bakı: “Yazıçı”, 1981, 73s.

АБДУРАУФ ФИТРАТНИНГ ЛИНГВИСТИК ҚАРАШЛАРИ
ABDURAUF FITRAT'S LINGUISTIC VIEWS

М.Курбанова
ЎзМУ профессори,
филология фанлари доктори

Аннотация: ушбу мақолада ўзбек тилшунослиги тарихида алоҳида аҳамиятга эга бўлган Абдурауф Фитратнинг лингвистик қарашлари, хусусан, тил ва алифбо, ўзбек тилининг товуш тизими, фонетик қонуниятлари, лексик меъёрлари ҳақидаги фикрлари таҳлил қилинади. Фитрат ўзбек тили луғавий бойлигини ривожлантириш йўлларини, бадиий услубнинг ўзига хос хусусиятларини белгилаб берганлиги асосланади. Олимнинг “Сарф” ва “Наҳв” асаридаги ўзбек тили морфологияси, синтаксиси ва пунктуациясига оид фикрлари ҳозирги ўзбек тилшунослиги фанига асос солганлиги ҳақида хулоса берилади.

Калит сўзлар: *Фитрат, ўзбек тилшунослиги, алифбо ва имло, сарф ва наҳв, пунктуация, фонетика*

Abstract: this article analyzes the linguistic views of Abdurauf Fitrat, which have a special place in the history of Uzbek linguistics, in particular, his views on language and the alphabet, the sound system of the Uzbek language, phonetic laws, lexical norms. It is based on the fact that Fitrat identified ways to develop the lexical richness of the Uzbek language, the peculiarities of the artistic style. It is concluded that the scholar's views on the morphology, syntax and punctuation of the Uzbek language in his "Sarf" and "Nahv" works.

Key words: *Fitrat, uzbek linguistics, alphabet and spelling, morphology and syntax, punctuation, phonetics.*

Абдурауф Фитратнинг илмий меросида тилшуносликка оид асарлар салмоқли ўрин тутади. 1919-1930 йиллар мобайнида у ўзбек тилининг илмий-назарий масалаларига бағишланган бир қанча илмий асарлар яратди: “Тилимиз”, (“Иштирокиюн”, 1919 йил, 132-сон), “Араб алифбоси тарихи”, (“Озод Бухоро”, 1926), “Ўзбек тилининг сарфи тўғрисида”, (“Қизил Ўзбекистон”, 1925 й.), “Ўзбекча тил сабоқлиғи”, (“Қизил Ўзбекистон”, 1926 йил),

“Муқаддиматул - адаб ”, (“Маориф ва ўқитғувчи”, 1926, 7-8-сон), “Имло конференцияси муносабати ила” (“Маориф ва ўқитғувчи”, 1928, 3-сон), “Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба: “Сарф” (1-китоб), “Наҳв” (2-китоб, 1925-30 йиллар, самарқанд – Тошкент).

Фитрат 1918-19 йилларда Тошкент дорилмуаллиминида, 1923-24 йилларда Москва Лазаревлар Шарқ тиллари илмгоҳида, 1927-29 йилларда Самарқанд дорилфунунида ўзбек тили ҳақида маърузалар ўқиди. Шу билан бирга ўша йилларда энг муҳим муаммо бўлган имло жараёнида фаол қатнашди. Энг аввало, унинг ўзбек ёзувини миллийлаштириш борасидаги хизматларини эсга олиш зарур. Фитрат араб ёзуви туркий тилларнинг, жумладан, ўзбек тилининг ички қонуниятларига тўғри келмаслигини ҳисобга олиб, у ёзувни тилимизнинг талаффуз қонуниятларига, товушлар системасига мослаштирди. Ўзбек тилидаги унли товушлар учун алоҳида белгилар қабул этишни таклиф қилди.

Олим тилимизнинг имло қоидаларини ишлаб чиқишга, биз ўрганаётган даврдаги имло турлилигига чек қўйишга ҳаракат қилади. “Имло конференцияси муносабати ила” деган мақоласида олим сўзларнинг имлосини, ёзилишини аниқ қоида остига олиш керак, акс ҳолда ёзувда “анархия” юз беради деган фикрни илгари суради [Фитрат, 1928:3]. Мазкур мақолада муаллиф чет тиллардан кириб келаётган истилоҳлар (атамалар) имлосини тезда ҳал қилмоқ лозимлигини айтади ва илм аҳлларини бу каби масалаларни “қатъий сувратда, ҳеч бўлмағонда қатъийликка яқин бир сувратда ҳал қилиш”га ва бу ишга тажрибали муаллимлар, имлочилар, турли шева вакилларини аниқ таклиф ва режалар билан иштирок қилишга чақиради. Шу тариқа, Фитрат ўзбек ёзуви муаммоларини ечишда катта фидойилик кўрсатади.

Абдурауф Фитрат “Сарф” китобида ўзбек тилининг фонетик қурилишига тўхталиб, тилимизда 23 та ундош ва 9 та унли товуш борлигини қайд этади. Китобнинг “Йўғонлик ва ингичкалик”, “Товуш ўзгаришлари” деб номланган жойида олим ўзбек тилидаги фонетик қонуниятларга тўхталади [Фитрат, 1930:7-9]. Бу қонуниятлар асосан 20-йиллардаги ўзбек адабий тилига хос бўлиб ҳозирги ўзбек тилида ҳам (адабий ва жонли тилда) учрайди.

Фитрат тилшунос сифатида ўзбек тилининг лексик меъёрларини белгилашга алоҳида аҳамият берди. Ўзбек тили луғавий бойлигини ривожлантириш йўлларини белгилаб берди. Унинг фикрича, тилда имкон қадар ўзига хослик, миллийлик сақланиши керак. Ижтимоий борлиқдаги янги тушунчалар, аввалambор, миллий тилнинг ўз унсурлари билан ифодаланиши, яъни тилнинг ички имкониятларига суяниб янги сўзлар ясалиши мақсадга мувофиқ. Янги сўз ясашда миллий тил имкониятлари камлик қилса, бошқа тиллардан сўз қабул қилиш ўринлидир. 3-йўли шуки, миллий тилдаги архаизмлардан фойдаланиб, уларнинг маъноси ўзгартирилмаган ёки қисман ўзгартирилган ҳолда янги тушунчаларни ифодалаш мумкин. Олим ўзбек тилининг лексик меъёрларини, умуман фонетик ва грамматик меъёрларини белгилашда халқ жонли тилига асосланиш керак деган тезисни илгари суради [Fitrat, 1930:4]. Унинг юқоридаги фикрларида тилимизнинг софлигини, унинг миллий табиатини сақлаш билан боғлиқ қарашлари унинг “Тилимиз” мақоласида ҳам аниқ кўринади.

Абдурауф Фитрат ўзбек тили миллий грамматикасининг асосчиларидан бири бўлган. Унинг ўзбек тили грамматикаси ҳақидаги “Сарф” (1-китоб), “Наҳв” (Синтаксис) китоблари нашр қилинган вақтда ўзбек тилининг илмий-назарий масалаларини ўрганиш энди бошланган эди. Олимнинг ушбу иккита китоби ўша вақтдаги жуда катта маънавий эҳтиёжни қондирди. Шу сабабдан бу асарлар 1925-1930 йиллар мобайнида бир неча марта нашр қилинди.

“Сарф” китобида олим сўз ва унинг турлари – сўз туркумлари, мустақил ва ёрдамчи сўз туркумлари ҳақида фикр юритади. Иккинчи китоб эса ўзбек тили синтаксиси масалаларига бағишланган. Фитрат бу асарида гап ва гап бўлаклари, гап бўлакларининг синтактик вазифаси, шунингдек, гап турлари ва шу каби масалалар хусусида тўхталади.

Йигирманчи йилларнинг иккинчи ярмида Фитрат асарларидан ташқари Элбекнинг «Ёзув йўллари» (Тошкент, 1921), Мунаввар Қори, Қаюм Рамазонов, Шорасул Зуннуннинг «Ўзбекча тил сабоқлиги» (1925), Шорасул Зуннуннинг «Ўзбекча тил коидалари» (Курслар

учун, 1925) ва «Тил қоидалари» (1929) ҳамда рус тилшуноси Е.Д.Поливановнинг «Краткая грамматика узбекского языка» каби дарслик ва қўлланмалари яратилган.

Фитратнинг пунктуацияга оид фикрлари ҳам алоҳида аҳамиятга эга. У «Наҳв» асарида ўнта тиниш белгисини кўрсатади ва уларнинг ҳар бири ҳақида ўқувчига батафсил маълумот беради. Ўша даврдаги етакчи тилшуносларидан бири Ашурали Зохирийнинг 1916 йили Қозонда нашр қилинган «Имло» асарида ўн учта тиниш белгиси ҳақида гапирилган [А.Зоҳирий, 1916:8]. Фитрат кўрсатган тиниш белгилари ва уларнинг қўлланиши ҳақидаги фикрлари ҳозирги пунктуация қоидаларига жуда яқин келади. У кўрсатган товуш белгилардан фақат иккитаси – ёйлар **( ),** кўп нўқталар **...** белгиси ҳозиргидан фарқ қилади, қолганлари эса бир хилдир. Фақат тиниш белгиларининг атамаларигина бироз фарқ қилади [Фитрат, 1930:5-6].

Фитратнинг услубий меъёрлар ҳақидаги фикрлари ҳам диққатга сазовор. Маълумки, бадиий услуб ўз табиатига кўра илмий услубдан фарқ килади. Илмий услубда мантиқий тушунчалар орқали иш кўрилади ва бу тушунчалар ўқувчига ҳар доим ҳам тушунарли бўлавермайди. Бадиий услубда эса тил осон, ифода равон бўлиши керак, акс ҳолда асарнинг таъсир кучи, ўқимишлилиги пасаяди. «Адабаёт қоидалари» китобида Фитрат «услубда софлик ҳақида гапира туриб, шундай дейди: «Сўз тизишда, гап тузишда ётчилик кўрсатмаслик, асарда ёт сўзлар, ё эски англашилмас сўзларни киргизмаслик, ёт тилларнинг наҳви коидаларига караб гап тизмаслик керак» [Фитрат, 1926:48]. Бу иқтибосда бадиий асар тилига қўйиладиган талаб жуда ихчам тарзда ифодаланган. Биз учта асосий нуқтани таъкидламоқчимиз:

а) «сўз тизишда, гап тузишда ётчилик кўрсатмаслик» - асарда чет сўзларни ишлатишдан қочиш улар ўрнида соф ўзбекча (туркий) сўзларни қўллаш асар тилининг ширали бўлишини таъминлайди, бадиий нафосат табиийликда - миллийликдадир;

б)“эски англашилмас сўзларни” ишлатиш услубнинг равонлигини бузади. Китобхон ўша жумлани қайтадан ўқишга, баъзан луғатга мурожаат қилишга мажбур бўлади, китобхонни асар руҳиятидан, асардаги бадиий оламдан қисман узилишига олиб келади;

в) бадиий асар тилининг муваффақиятли чиқишида “ёт тилларнинг наҳвий (синтаксис) қоидаларига қараб гап тизмаслик» ҳам асосий шартлардан биридир. Асардаги ҳар бир сўз бирикмаси ва жумлалар тилимизнинг синтактик қонуниятларига мос келиши лозим.

Фитратнинг илмий меросида тил тарихи учун ҳам ниҳоятда қимматли фикрлар учрайди. Бу соҳадаги энг аҳамиятли ишлари “Энг эски турк адабиёти намуналари” ва «Араб алифбосининг тарихи» асарларидир. 1-асарда олим Шарқнинг машҳур олими Маҳмуд Қошғарийнинг «Девону луғотит турк» китобидан айрим намуналар келтиради, уларни қадимги турк тилидан ўзбекчага ағдаради, айрим сўзларга изоҳ беради.

Бу асарни яратишдан Фитратнинг бир нечта тилаги бор эди. Шулардан бири - Маҳмуд Қошғарий ва ундан олдинги давр тили ҳақида маълумот бериш. Олимнинг ўзи бу ҳақда шундай деган эди: «Махмуд Кошғарий «Девону луғат»да олти ярим мингдан ортиқ сўзларни изоҳ қиладир. Кўп ўринларда бу сўзларнинг қабилавий айирмаларини кўрсатадир. Китобнинг жой-жойида турк сарфи тўғрисида кенг, ҳам тўла маълумот бериб ўтадирким, ҳаммасини йиғиб текширганда тарихи сарфимиз (морфология тарихи) учун жуда қимматли материаллар берадир» [Фитрат, 1927:4] .

Китобнинг 3-қисми айрим сўзларнинг изоҳига бағишланган. Фитрат архаизмлар ва историзмларнинг маъносини айтиш билан кифояланиб қолмай, бу сўзларни бошқа ёзма ёдгорликлар билан солиштиради, уларнинг ўхшаш ва фаркли томонларини кўрсатади ва аниқ хулосаларни илгари суради. Масалан, олим سسز - *эсиз* сўзини шундай шарҳлайди: эсиз (эйисиз) бизнинг *бутун* «эсиз» деган сўзимиздир. «Девону луғат»нинг таъкидлашича, бу «ёмон» демакдир. «Қутадғу билиг” ҳам «Ҳибатул ҳақойиқ»да ҳамма вақт «эзгу» сўзига қарши ишлатилган. Машҳур Нажиб Осим афанди «Ҳибатул ҳақойиқ» луғатлар қисмида бу сўзнинг аслини «осиғсиз» (фойдасиз) дейдир. «Девону луғат»да яхшилатмоқ маъносида «итмак» борким, усмонличанинг яхши маъносидаги «ити»лари шу томирлардир. Бу эсиз

сўзининг ҳам шу томирдан *эсиз* - *эйисиз* - яхшиликсиз – ёмон ясалғони ҳақиқатга яқинроқдир.

Фитрат илмий асарларининг қимматини оширувчи асосий омиллардан бири манбаларнинг кўплиги ва уларнинг қиёсий планда ўрганилишидир. Бу эса олимнивг қиёсий-тарихий методда иш кўрганлигидан гувоҳлик беради. Фитратнинг адабиёт тарихига доир ишлари ҳақида гапира туриб адабиётшунос Ҳ.Болтабоев ҳам шу фикрни айтади [Болтабоев Ҳ, 1992:58]. Олим сўзларни изоҳлашда усмонли турк, мўғул, араб ва форс-тожик тилларига мувожаат қилади. Масалан, «бутмак» сўзини шарҳлай туриб: «бутмак» - сўзи «тамом бўлмок» маъносида келади. Бугун бизда «шу ишни бут қил» дейиладиким, тожикларда ҳам «ин коро буд кун» дейилар» [Фитрат, 1928:3], - дейди.

Бу китобда Фитрат сўзларнинг таркибига, тузилишига ҳам алоҳида аҳамият беради. У сўзларнинг ўзак қисмини ажратади ва ўша ўзакдан ясалган бир неча сўзларни кўрсатади. Натижада бизга бир-биридан маъно жиҳатдан фарқли туюлган баъзи сўзлар ясалишига кўра битта сўз бўлиб чиқади [Фитрат, 1928:3].

«Муқаддиматул-адаб» асарининг тарихий қиммати ҳақида о*лим* шундай дейди: «Бу китобдаги чиғатой луғатларининг Навоийлар замонидан ё ундан бурунги замонлардан қолғон бир манба бўлғони учун бизга йорарлик эканига шубҳа йўқдир»[Фитрат, 1927:101]. Аҳмад Яссавий ҳақидаги мақоласида эса Яссавийнинг «Девони ҳикмат» асарининг нусхалари кейинги даврларда ёзилган, унинг шогирдлари томонидан бу ҳикматларга ўзгартишлар киритилган бўлиши мумкин деган шубҳага боради ва: «Девони ҳикмат»нинг Яссавий замонига яқин бир замонда ёзилган бирон нусхаси топилмагунча бу шубҳаларни йўқотиш мумкин эмас. Бу шубҳалар йўқолмагунча маълум «Девону ҳикмат»ларни тил тарихи қарашидан текширишдан илмий бир натижа чикмайдир», - дейди [Фитрат, 1927:6].

Фитрат тил ва адабиёт масалаларини биргаликда тадқиқ этади. Уадабиёт назариясига оид асарларида асар тилига алоҳида эътибор беради. Чунончи, адабиёт тарихига оид тадқиқотларида муайян асарнинг луғат таркибига, сўзларнинг шаклига алоҳида аҳамият қаратади. Айрим илмий хулосаларни илгари суришда тил фактларига, асардаги сўз ва ибораларга асосланади. Масалан, у «Энг эски турк адабиёти намуналари» китобида «Девону луғотит турк» асаридаги қўшиқларнинг қайси даврда яратилганини шундай аниқлайди: «... биринчи қисмдаги бешинчи асарда «иврик» сўзи борким, арабча «ибриқ» демакдир. Яна шул қисмлари биринчи асарда (олп Артунга марсиясида) زمغه ران маъносида арабча كوركوم сўзи бордир. Мана булар мазкур асарларнинг турк, арабларнинг биринчи учраш замонлариға оид бўлғонин кўрсатадир. Демак, у асарларнинг ҳар ҳолда милодий 6-7 мулчалнинг (асрларнинг) адабий йимишлари эканига ҳукм этмак мумкиндир. Шундай бўлса ҳам «ئيڤ ولق « каби арабча сўзни эътиборга олмағонда бу асарларни шакл ҳам руҳ эътибори билан Исломдан бурунғи турк адабиёти намуналари каби қабул этишимизга ҳеч моне йўқдир»[Фитрат, 1927:62].

«Адабиёт қоидалари» асарида адабиёт ҳақида, адабиётшуносликка доир тушунчалар ҳақи кр юритиш билан бирга тилимизни ривожлантириш, бойитиш йўлларини ҳам кўрсатиб ўтади [Фитрат, 1926:48]. Яна шу китобда бадиий асар тилига, бадиий тил меъёрига ҳам тўхталади. Шу тариқа, Фитрат фаолиятида тил ва адабиёт муштарак ҳолда намоён бўлади.

Фитрат араб, форс, мўғул, усмонли турк ва қадимги турк тилларини мукаммал билибгина қолмай, бу халқлар тарихини, маданиятини, адабиёт ва санъатини ҳам жуда чуқур ўрганган. Фикримизга далил унинг Шарқ халқлари адабиёти тарихига оид адабий-илмий, фалсафий-тарихий асарларидир. Шарқнинг буюк донишмандлигига, бой тарихига чуқур эҳтиром билан қараган олим ана шундай юксак маданият XX асрга келиб овруполиклар томонидан инсофсизларча, ҳаёсизларча топталаётганлигини кўриб, «Шарқ сиёсати» номли туркум мақолаларида бу мустамлакачиларга қарши ўз муносабатини ифодалади. Фитрат ижодидаги ушбу мавзуни Ҳ.Олимжон «Шарқ ва Ғарбга қарши қўйиш», «Шарқчилик туйғуларини кучайтириш» ва «Шарқни идеаллаштириш» деб баҳолаган эди.

Умуман, Абдурауф Фитрат ижоди ва унинг лингвистик қарашлари бугунги замонавий ўзбек тилшунослиги учун долзарб аҳамиятга ега мерос саналади. Уни янада чукур ўрганиш, авлодларга тил илмининг чинакам нуктадони сифатида танитиш биз тилшуносларнинг зиммасидаги шарафли вазифадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. –Тошкент., 1992, 58-бет.
2. Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Самарқанд-Тошкент. 1926, 48-бет.
3. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари.– Тошкент., 1927, 101-бет.
4. Фитрат. Имло конференцияси муносабати ила. “Маориф ва ўқитғувчи”, 1928, 3-сон.
5. Фитрат. Муқаддиматул адаб. Маориф ва ўқитувчи. 1927, 6-сон.
6. Фитрат. Наҳв. – Самарқанд-Тошкент.1930, 5-6-бетлар.
7. Фитрат. Сарф. – Самарқанд-Тошкент, 1930, 4-бет.
8. Зоҳирий А. Имло. – Қозон. 1916. 9. Олимжон Ҳ. ва Уйғун. Ҳарбий коммунизм даврида ўзбек буржуазия поэзияси. Социализм ва техника. 1935.

ALISHER NAVOIY VA ALIGYERI DANTE: ADABIY TIL YARATISH MUAMMOSI
ALISHER NAVOI AND ALIGHIERI DANTE: THE PROBLEM OF CREATING A LITERARY LANGUAGE

D.Yusupova
ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.d.,
A.Malikov
ToshDO‘TAU magistranti

Abstract: the article reflects the views of the great thinker Alisher Navoi and the Italian poet Aligeri Dante on the creation of a literary language. These ideas are based on "Muhokamat ul-lughatayn" by Navoi and "On folk speech" by Dante.

Key words: *literary language, dialects, speech, Turkic, Italian.*

Har bir millatning jahon tamadduni va madaniyatiga qo‘shgan hissasi unga mansub daholarning qilgan xizmatlari, meros qoldirgan badiiy asarlari, ilmiy kashfiyotlari bilan o‘lchanadi. Buyuk shaxslar, mutafakkir zotlar o‘z elining dunyo sari yuzlanib aytgan So‘zidir.

Butun turkiy dunyoning faxri, millat quyoshi, deya e'zozlangan donishmand shoir, turkiy tilning boshqa jahon tillaridan qolishmasligini amalda isbotlab bergan buyuk shaxs Mir Nizomiddin Alisher Navoiy hamda italyan adabiy tilining asoschisi, jahon adabiyotini mumtoz asarlar bilan boyitgan iste'dodli ijodkor, mutafakkir shoir va davlat arbobi bo‘lgan Dante Aligyerining hayot yo‘llari, yaratgan asarlarini o‘rganganimizda bir necha o‘rinlarda o‘zaro mushtarak jihatlar seziladi. Bu bevosita ikki ijodkorning shoh asarlarini g‘oyaviy jihatdan qiyoslaganda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy Musulmon Sharqida mavjud adabiy an'analar doirasida turib, original fikrlarni ulkan ijodiy salohiyat bilan ifodalay olgan bo‘lsa, Dante aynan Musulmon Sharqi adabiyoti ta'sirida o‘zining yuksak badiiy asarlarini yaratdi. Bu ta'sirlanish “Ilohiy komediya” asarining bosh motivini tashkil qilib, ba'zi o‘rinlarda “Ilohiy komediya” va “Xamsa”dagi timsollar taqdirining o‘zaro o‘xshash jihatlariga guvoh bo‘lamiz. Xususan, “Ilohiy komediya” asari qahramoni (*bu o‘rinda bosh qahramon sifatida shoirning o‘zi namoyon bo‘ladi*) o‘rmonda adashib, turli hayvonlar ta'qibidan qochib, ustozi Vergiliyning huzuriga boradi va undan yo‘l-yo‘riq oladi. Keyin esa Beatrichega yetishish uchun tinimsiz harakat qiladi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni bosh qahramoni Farhodning piri murshid Suqrot qoshiga borguncha yo‘lda uchragan ajdaho, Axriman dev, sher va temir paykarni yengib borishi, keyin esa Shirin vasliga erishish uchun qilgan sa'y-harakatlari [Комилов, 2009: 184] kitobxonga “Ilohiy komediya” qahramoni sarguzashtlarini eslatadi. Ikkala asarda ham qahramonlar duch kelgan to‘siqlarning ramziylik kasb etishi e'tiborga molik jihatlardandir.

Bu uyg‘unlikni ikki buyuk dahoning tilshunoslikka bag‘ishlangan asarlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Dante yashagan davrda san'at tili lotin tili hisoblanib, Rim aholisi orasida bu til iste'moldan deyarli chiqib bo‘lgan, butun Apennin yarimoroli xalqi italyan tilining turli lahjasida so‘zlashar edilar. Ular o‘zaro ham leksik, ham fonetik, ham grammatik jihatdan katta farqlanishlarga ega bo‘lib, bu lahjalarni qiyoslash, imkoniyatlarini tahlil qilish va nazariy asoslarini yaratish davr talabiga aylangan edi. Vaziyat shuni taqozo etmoqda ediki, agar til shu tarzda tashlab qo‘yilsa, tashqi ta'sir ostida o‘zining asl holatini yo‘qotishi muqarrar edi. Dantening “Xalq nutqi haqida” asari aynan shu zaruriyat tufayli vujudga keldi.

Alisher Navoiy yashagan XV asrda sakkizinchi asrdan boshlab ilm va fan tiliga aylangan arab tili o‘z o‘rnini fors tiliga bo‘shatib bergan bo‘lib, arab tilshunosligi, lug‘atshunosligining rivoji sezilarli darajada susaygan davr edi. Fors tili saroy tili hisoblanib, bu tilda Rudakiy, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Xoju Kirmoniy, Anvariy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi daho ijodkorlar umumbashariy masalalarni yoritgan, badiiy jihatdan yuksak asarlar yaratgan edilar.

Turkiy til esa o‘z mavqyeini ancha yo‘qotib, bu tilda ijod etgan Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Atoyi, Yaqiniy, Gadoiylarning ijodi bu ulkan adabiy merosga teng keladigan darajada emas edi. Bu haqda Alisher Navoiyning o‘zi “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida shunday ta'kidlaydi: “*Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiy...Va* ***forsiy mazkur bo‘lg‘on shuaro*** *(*ta'kid bizniki*) muqobalasida kishi paydo bo‘lmadi, bir mavlono Lutfiydin o‘zgakim, bir necha matla'lari borkim, tab' ahli qoshida o‘qusa bo‘lur...*” [Навоий, 2000: 36].

Alisher Navoiy bu o‘rinda turkigo‘y shoirlar orasida forsiy adabiyotdagi Xoqoniy, Avhauddin Anvariy, Kamol Ismoil, Zahir Foryobiy, Salmon Sovajiydek qasidanavislar; Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviydek masnaviy ustalari; Sa'diy Sheroziy va Hofiz Sheroziy kabi g‘azalnavis shoirlar yetishib chiqmaganligiga e'tiborini qaratib, turkiy shoirlardan faqat Lutfiygina ular bilan she'riy musobaqaga kirishish salohiyatiga ega bo‘lganligini ta'kidlaydi. Bu bilan Alisher Navoiy turkiy til va bu tilda ijod qiluvchi shoirlarning zimmasida ulkan vazifa turganligini eslatib o‘tmoqda.

Bu davrda Xurosonda barlos, qo‘ng‘irot, arlot, sulduz, qiyot, jaloyir kabi ko‘plab turkiy qabila va urug‘lar bo‘lib, ularning tillari bir-biridan farqlanar va xalq orasida ko‘plab lahjalar mavjud edi. Adabiy til uchun kurash esa o‘z navbatida mana shu sheva va lahjalarni bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qilishi lozim edi. Shu sababli ham Alisher Navoiy ushbu lahjalarning imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z ona tilida yuksak adabiy asarlar yaratdi va bu bilangina cheklanib qolmay, turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan ham asoslab berishga e'tibor qaratib, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini yozib, turkiy tilshunoslikni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan so‘ng yana bir karra yuqori pog‘onaga ko‘tardi.

Demak, Dantening “Xalq nutqi haqida” hamda Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlari yaratilishi tasodifiy bo‘lmay, bu o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyati bilan bevosita bog‘liq ekan. O‘z davridagi murakkab siyosiy-ijtimoiy vaziyatda ona tilining xavf ostida qolishi italyan va turkiy xalq uchun birdek xos holat edi. Dante va Navoiy o‘z ona tillarining himoyachisi o‘laroq adabiyot maydoniga ko‘tarildilar. E'tiborga molik jihati, har ikkala asardan so‘ng Yevropada italyan tilining, Movaronunnahr va Xurosonda turkiy tilning mavqeyi bir muncha oshdi. Ayniqsa, Dantedan keyingi ikki asrda Yevropada italyan tilining o‘rni ancha mustahkamlandi. Albatta, bu faqatgina bir asar emas, shoirning boshqa asarlari bilan ham bog‘liq hodisa hisoblansa-da, “Xalq nutqi haqida” hamda “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlari nazariy asos rolini bajarganligini inkor etib bo‘lmaydi.

Dantening “Xalq nutqi haqida” asari ikki kitobdan iborat bo‘lib, birinchi kitobda tilning paydo bo‘lishi, italyan lahjalarining fonetik-leksik xususiyatlariga doir qarashlar bayon etilsa, ikkinchi kitobda poetikaga doir ba'zi nazariy masalalar haqida so‘z boradi. Umuman olganda, Dante ushbu asarida til taraqqiyoti masalalariga murojaat qilib, adabiy til yaratish muammolariga to‘xtaladi. Dantening niyatiga ko‘ra, bu asar to‘rt kitobdan iborat bo‘lishi kerak edi. Lekin bizga yetib kelgan nusxada asar ikkinchi kitobning o‘n beshinchi bobida to‘xtab qolgan [Челишева, 1998: 35].

“Xalq nutqi haqida” asari 1304-yil lotin tilida yozilgan bo‘lib, 1529-yilda italyan tiliga tarjima qilib nashr etilgan, 1577-yilga kelibgina asarning original matni – lotin tilidagi asl nusxasi chop etilgan. Dante yashagan davrda lotin tili adabiyot tili va umuman san'at tili hisoblanib, antik davr an'analariga sodiq tarzda maktablarda lotin tilida she'r yozish qonun-qoidalari o‘qitilgan. Shu sababli ham Dante o‘z ona tili haqidagi fikrlarini lotin tilida yozadi [Данте, 2001: 265-310].

Asarning birinchi kitobida Dante xalq nutqi haqida o‘zidan oldin hech kim yozmaganligini ta'kidlaydi. Nutq ikki xil bo‘ladi, deb hisoblaydi Dante: bu bolalikdan shakllanadigan xalq nutqi va rimliklarning adabiy til me'yorlariga amal qilgan nutqidir.

Shundan so‘ng Dante: “*Tilning inson uchun qiladigan xizmati fikrni ifodalashdir*, – deydi. – *Insondan boshqa mavjudotlarga nutq nasib etmagani uchun ular quyi darajadadirlar, Tangri tilni faqat insonga ato etgan. Hatto, farishtalarga ham nutq berilmagan, sababi, ularda jism yo‘q, jismsiz ularga til va nutqning hojati yo‘q*” [Данте, 2001: 270].

Dante ilk so‘zni kim aytgan va bu qanday so‘z bo‘lishi mumkin degan masalaga qiziqadi. Uning fikricha, ilk so‘z Odam Atoga tegishli bo‘lib, “Xudo” degan so‘zdir. Boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas, deb hisoblaydi muallif, chunki inson avvalo o‘z Yaratganiga murojaat qilishi tabiiy.

“*Ilk til yahudiy tilidir. Inson ilk gunohni qilgandan so‘ng yana gunohda davom etaverdi, lekin bundan Nuhning o‘g‘li Som avlodlari o‘zlarini tiydilar. Insonlar dastavval Sharq bo‘ylab tarqalib, keyin G‘arbga ham keldilar. Jami tillar uchga bo‘linadi:* ***ok, oyl, si*****”.** [Данте, 2001: 271].

Mazkur uch tilni birlashtirib turuvchi xususiyat, ularda umumiy so‘zlarning mavjudligidir. Dante tillar ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar ta'sirida o‘zgarishini ta'kidlab, tillardagi o‘zgarish sababini inson tabiati va yashash tarzining o‘zgaruvchan ekanligi bilan ham bog‘laydi. Shu tariqa asarning birinchi kitobidagi to‘qqiz qism yakunlanadi.

Dante o‘zigacha va o‘zidan keyin ham bir qancha vaqt hukmron bo‘lgan roman tillarining asosida lotin tili turadi, degan fikrga o‘z salaflaridan farqli munosabatda bo‘ladi va o‘z qarashlarini shunday asoslaydi: “*Lotin tili uning grammatik qoidalari ishlab chiqilgach, tabiiy rivojlanishdan to‘xtadi... Shu bois, xalq gaplashadigan til va lotin tili boshqa-boshqa hodisadir. Roman tillari azaldan mavjud edi... Qat'iy grammatik qoidalarga ega bo‘lgan lotin tili o‘zgarmasdir, xalq tili esa tinimsiz o‘zgarib, yangilanib, boyib borish xususiyatiga egadir*” [Данте, 2001: 278].

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari Musulmon Sharqi adabiyoti an'analariga muvofiq ravishda Allohga hamd aytishdan boshlanadi. Alisher Navoiy arab tilidagi hamddan so‘ng turkiy tilda ruboiy keltirib, uning ilk baytidayoq so‘z bilan olam yaratilganligini ta'kidlaydi:

Ey so‘z bila qilg‘on ofarinish og‘oz,
Insonni aroda aylagon mahrami roz.
Chun «kun fayakun» safhasiga bo‘ldi tiroz,
Qilg‘on oni nutq ila boridin mumtoz [Навоий, 2000: 7]

Demak, Navoiy Dante kabi nutqni inson ulug‘ligining sababchisi deb hisoblasa-da, uni bevosita olam yaratilishi bilan bog‘lar ekan, bu o‘rinda tilga, nutqqa ilohiy voqyelik sifatida qaraydi. Bu esa uning tilga Dantedan ko‘ra yuksakroq hodisa sifatida munosabatda bo‘layotganligini bildiradi. Quyidagi parcha orqali Alisher Navoiy til va nutq hodisasini farqlayotganligini ko‘rishimiz mumkin:

“*...So‘z durredurkim, aning daryosi ko‘nguldur va ko‘ngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kulldur. Andoqki, daryodin gavhar g‘avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javhariga ko‘ra zohir bo‘lur. Ko‘nguldin dog‘i so‘z durri nutq sharafiga sohibi ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish ko‘rguzur va aning qiymati ham martabasi pisbatig‘a boqa intishor va ishtihor topar. Gavhar qiymatig‘a nechukki, marotib asru ko‘pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo‘lur*” [Навоий, 2000: 8]

Demak, so‘z – dur, uning daryosi – ko‘ngil. Ko‘ngil esa mazhar. Mazhar deganda o‘zida mavjud biror narsaning suratini aks ettiruvchi ko‘zguni tushunamiz. Ko‘ngil mazharida (*bu o‘rinda Navoiy uni jom, deb ataydi, mumtoz adabiyotda jom aynan mazhar – aks ettiruvchi sifatini ifodayladi*) juzv va kull (qism va butun), ya'ni borliq ma'nolari mujassam. Gavhar daryodan g‘avvos vositasida olib chiqilgandan so‘ng jilva qiladi, qiymati esa uning javhari (asosi) bilan

baholanadi. So‘z duri esa sohibi ixtisos, ya'ni notiq vositasida namoyon bo‘ladi, uning qiymati esa nutqning ma'nosiga ko‘ra belgilanadi. Ko‘rib turganimizdek, Alisher Navoiy tilning yoki lisonning ko‘ngilda – ongda saqlanishini ta'kidlamoqda. Undan sara so‘zlarni tanlab qo‘llashga urg‘u qaratar ekan, buyuk ijodkorning til va nutq hodisasini yana ham aniqroq farqlayotganligi ma'lum bo‘ladi.

Dante ilk til bu ***yahudiy tili,*** degan fikrni ilgari surganligini ta'kidlab o‘tgan edik. Bu nima bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin? Dantening mashhur “Ilohiy komediya” asarini o‘qir ekanmiz, unda boshdan-oxirigacha xristian dini g‘oyalariga bo‘lgan mutaassibona sodiqlikni ko‘ramiz. Shuningdek, asarda islom dini, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) va ul Zotning kuyovlari hazrat Ali (r.a.) haqida noxolis qarashlarning mavjudligi, hatto, anchagina salbiy munosabatlarni uchratamiz. Bularning barchasi Dante dunyoga, hayotga faqatgina xristian dini ko‘zgusidan boqqanligini tasdiqlaydi. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, barcha payg‘ambarlar yahudiy millatidan bo‘lib, “Zabur”, “Tavrot” va “Injil” kitoblari aynan shu tilda tushirilgan. Dante ***yahudiy tili***ni dunyodagi ilk til deb hisoblar ekan, bunda o‘z dini – xristian e'tiqodining mohiyatidan kelib chiqqanligi shubhasiz.

Alisher Navoiy so‘zga bo‘lgan munosabatini she'riy parchalar bilan ham ifodalab borar ekan, ***arab tili***ning barcha tillardan ustun ekanligini ta'kidlaydi. Chunki bu tilda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) so‘zlashganlar, muqaddas kitob – “Qur'on” nozil etilgan. Shuning o‘ziyoq uning sharafli ekanligini bildiradi, deb hisoblaydi Navoiy. Mazkur o‘rinda, hazrat Navoiyning “din va millatning nizomi” deya e'zozlanganligini, asarlari mohiyatida islom dinining insonparvar va bag‘rikenglik g‘oyalari, tasavvufona qarashlar mujassam ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, bundan boshqacha yondashuv bo‘lishini tasavvur qilish qiyin, albatta.

Demak, Dante tillar ichidan eng mukarrami va avvalgisi deya yahudiy tilini, Alisher Navoiy esa arab tilini tanlayotganlari bejiz bo‘lmay, bu bevosita ularning diniy e'tiqodlari bilan bog‘liqdir.

Dante o‘z asarida quyidagi to‘rtta masalani yoritishni alohida maqsad qilib qo‘ygan:

1. Til sotsiumidagi tilning mavjud bo‘lish holati, umumxalq tilining eng yuksak shaklidan (*biz uni adabiy til, deb ataymiz;*) tortib, lahjalargacha (har bir sheva;) bo‘lgan shakllarni ko‘rib chiqish. Dante mazkur tadqiqotni yaxshi olib borib, ilk bor tilshunoslik tarixida *jug‘rofiy shevashunoslik* yo‘nalishiga asos soldi.

2. Uslub nazariyasi va antik triadaning yuksak, o‘rta, quyi uslublari hamda ularning tragik, komik va elegik janrlar bilan munosabati. Bunda Dante uslub nazariyasiga maxsus to‘xtaladi. Italiyaning turli hududlarida yashovchi har bir xalqning shevasi, ularning so‘zlashuv uslublari, fonetikasi haqida so‘z yuritib, har bir etnik guruhning tili (shevasi) muayyan tuyg‘uni bayon eta olishini, bir tilda mavjud bo‘lgan ifoda imkoniyati boshqasida yo‘q ekanligini aytadi, buning sababi sifatida fonetika hamda o‘sha tilning adabiy tili uslubini keltiradi. Pirovardida, italyan tilining yaxlit shakldagi imkoniyati keng ekanligiga asosiy e'tiborni qaratadi.

3. She'riy shakllarning eng yuksak shakli – kansonadan tortib, quyi shakllar – ballada, sonet, elegiyalarni tahlil qiladi. Kansona italyan tiliga xos bo‘lgan janr bo‘lib, o‘z vazni va o‘z ifoda uslubiga ega, lirik tuyg‘ularni erkin kuylash imkonini o‘zida mujassam qilgan edi. Dante shu o‘rinda vazn va qofiya haqidagi qarashlarini ham bayon etadi. Bir so‘zda ikki ma'no kelishini ijobiy baholamaydi, balki bu fikr ifodasini xiralashtiradi, deb hisoblaydi.

4. Dante 3 paradigmatik qator – til, uslub, she'riy shaklning o‘zaro munosabatini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu jiddiy ilmiy tadqiqot bo‘lib, Dante bu boradagi fikrlarini italyan tili doirasidan turib bayon etadi. U tilning leksik, fonetik imkoniyati undagi uslubning boy bo‘lishini ta'minlaydi, uslubning rang-barangligi she'riy shakllarning vujudga kelishi uchun zamindir, deb hisoblaydi. Umuman olganda, Dante mazkur asarining bizga yetib kelgan ikki kitobidayoq bu masalalarga jiddiy yondashib, yuqorida bayon qilingan mazmundagi ilmiy asoslangan xulosalarni beradi.

5. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining o‘ziga xos quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratish mumkin:

1. Navoiy turkiy va forsiy tilni o‘zaro solishtirish yo‘lidan borib, ikki tilning leksik va poetik imkoniyalarni ilmiy nuqtai nazardan asoslab beradi. Bu esa bugungi kunda fanda kontrastiv lingvistika, deb atalayotgan sohaning ilk ko‘rinishi bo‘lib, tilshunoslik tarixidagi yangilik edi

(ammo g‘arblik tilshunos olimlar ko‘p yillar qiyosiy tilshunoslikka XIX asrda asos solindi, degan nuqtai nazarni ilgari surib keldilar).

2. Navoiy forsiy tilda muodil (ekvivalent)i bo‘lmagan 100 ta fe'lni keltiradi [Навоий, 2017]. Masalan, “telmurmak” so‘ziga berilgan izohni kuzatsak:

3. “*Yana ishq tariqida mahbub nazzorasi muyassar bo‘lsa, oshiqning niyoz yuzidin* **telmurmagi** *asru munosib ishdur va bu lafz alarda yo‘qtur va munungdek lafzlari ham yo‘qtur va bu turkchada mundoq deyilibdurki,*

b a y t:

To‘kadur qonimni har dam ko‘zlaring boqib turub.

Kim, necha yuzumga boqqaysen yiroqdin **telmurub**” [Навоий, 2000: 16].

Bu o‘rinda Navoiy “telmurmak” so‘zining nozik semasini tahlil etib, “telmurish” orqali ikki insonning o‘zaro muhabbati namoyon bo‘lishini ta'kidlamoqda. Keltirilgan misolda: “*Ko‘zlaring har lahza menga boqib qonimni to‘kadi, chunki uzoq-uzoqlardan menga* telmurib *boqasan*”, – degan mazmun mujassam bo‘lib, bunda mahbubaning o‘z oshig‘iga befarq emasligi oydinlashadi.

4. Turli sohalarga doir narsa-buyum, tabiiy hodisalar va hayvonlarning forsiy tilda mavjud bo‘lmagan nomlarini berib, ularning ba'zilari forsiy til leksikasi tarkibiga ham kirganligi haqida ma'lumot beradi:

“Va ov va qushki, salotin odob va rusumida har qaysi boshqa mutaayyin eshitur, ikkalasin, «shikor» derlar. Va ovda umdaki kiyikdur, turk aning erkagin «huna» va tishisin «qilchoqchi» der. Yana suyqunning ham erkagin «bug‘u» va tishisin «maral» der” [Навоий, 2000: 20].

Ya'ni forslar ov va qushni shikor deb ataydilar. Ovlanadigan kiyikni turkiylar jinsiga qarab nomlaydilar: erkagini “huna”, urg‘ochisini “qilchoqin”. Suyqun degan kiyikka o‘xshash hayvonning erkagi “bug‘u”, urg‘ochisi “maral” deb atalar ekan. Ammo bularning hammasi fors tilida bir xil aytilaverar ekan. Yoki yana boshqa bir o‘rinda shunday deyiladi:

Ең алдымен аталған еңбектің лингвистикалық сипаты басымдау екенін ескере келе М.Қашқаридің тіл тазалығына баса назар аударғанын айтпай кетуге болмас. Ол «ең таза, көркем тілдер қатарына жат парсы тілінің сөздерін қоспай сөйлейтіндер мен бөгде салт-дәстүрлерді қабыл алмайтындарды жатқызатынын» ашып айтқанының астарлы мағынасында талай-талай танымдық мәселелер бар екенін ескеру керек [2, С. 69]. Өйткені, қала халқымен араласқандардың тілі екі немесе одан көп тілдердің элементтерінен тұрып «таза тіл» бола алмайтынын және ал кейбір сырттан кірме тайпалардың тілі түркіленгенін ашық жазған (сонда). Бұдан шығатын қорытынды таза тілге ие халық аз деген сөз. Соның ішінде түріктерде аралас тайпалардан құралған. Бірақ оларды тіл біріктіруші күш, құрал екенін және өзіндік ойлау жүйесі жоқ халық, яғни рухани тұтастығын көрсететін негізгі белгілерге ие емес халық біртұтас ел бола алмайтынын да айтып тұрғандай. Иа ортағасырлық түріктердің алып империясы құрамындағы тайпаларды сипаттап беруде олардың тіліне айрықша тоқтала отырып, М.Қашқари сол заманның өзінде тілдің елді біріктіруші факторлық қызметін жақсы білген. Мысалы, М.Қашқаридің: «....өз тілі мен жазуы бар Хотандықтар сияқты Түбіттердің өз тілі бар. Олардың екеуі де түрікше еркін меңгермеген», «Көшпенді Жумулдар, сонымен бірге Кай, Йабаку, Татар, Йасмилдердің өз тілі бола тұра, түрік тілін жақсы меңгергені » туралы мағлұматтарды келтіреді [2, С. 69-70].

М.Қашқари еңбегінен билікке қатысты дүниетанымдық мәселелер де анық байқалады. Оның ішінде ерте ортағасырлардан қалыптасқан түркілік рухты жоғары қойып сөз қозғау дәстүрі ислам келгеннен соңда бәсеңдемегенін анық байқатады. Оны жазбагердің: «Мен Тәңірінің дәулет ұясын түріктер жұлдызына жаратқанын және ғарышты солардың заманы үстіне айналдырып қойғанын көрдім. Тәңірі оларды «түрік» деп атады. Әрі оларды мемлекетке еге қылды. Заманымыздың қағандарын түріктерден шығарып, дәуір, халықтың ақыл-ерік тізгінін солардың қолына ұстатты; оларды адамдарға бас қылды; хақ істерде соларды қолдады.....»-деп жазғаны айқын көрсетіп тұр [3, 7 б.].

Әрине М.Қашқари өмір сүрге кезең тарихи жағдайда түріктердің саяси тұрғыдан үстем болып тұрған кезеңі. Дегенмен ондай асқақ рухсыз түріктер саяси үстемдікке қол жеткізе алмасы тағы белгілі. Сол рухқа түріктер мемлекет құрып, дербес ел болғаннан соң ие болған. Ең жоғары билік Қаған лауазымы. Оны Тәңірі тартуы, сыйы деп қабылдағанын көрсететін деректер жеткілікті. Мысалы, Тонықөк ескерткішінде: “tanri anca temis erinc qan bertim” яғни «Тәңірі айтты: мен бердім [саған түркі халқы] қанды» - деген жолдар бар [4, С. 417]. VIII ғасырдағы Онгин жазбаларында «қан» (яғни «хан») термині осы мағынада кездеседі [4, С. 417]. Түркі халықтарында хан лауазымының тәңірдің сыйы ретіндегі түсініктермен астасып жатқаны жоғарыдағы мәтіннен көрінеді. Бұл түркілер санасында қасиетті лауазым саналып, олар ханды тәңірінің жердегі өкілі ретінде қабылдағанын көрсетеді. Ұйғыр жазуымен

жазылған Турфандық түркі жазбаларында «adinciγ iduq qaγan qan susi,» яғни «қасиетті жоғарғы билеушінің таңдаулы жасағы» деген мәтін бар. Қасиетті сөзі босқа қолданылмағаны байқалады. *Қаған хан а*тауы қасиетті, жоғарғы, биік, яғни хандардың ханы деген мағынаға сай екенін көрсетеді. Әл-Хорезми жазбаларында «қаған - түріктердің бас билеушісі. Қаған - бұл хандардың ханы, яғни көсемдердің көсемі, парсылардың шахиншахына сәйкес,» деп қағанның дәл анықтамасын көрсеткен [5, с. 116].

Ортағасырлық Оғыздарда *хан* мен *жабғу* титулдары, селжұқтарда, XI ғасырда, *хан* және *сұлтан* титулдары қатар қолданылған [6, с. 113.; 7, с. 414-416].

Қарлұқтарда жоғарғы билік лауазымы жабғу болды. Күшейе келе *қаған* деңгейінде атала бастаған. Ал олардың кейінгі мұрагері - Қарахан мемлекетінде биліктің жоғарғы деңгейінде *хан* отырды. Ортағасырлық түркі тілінде алғаш рет сол дәуірдегі түрік қоғамының саяси, мемлекеттік құрылымы мен оны басқару туралы жазылған Жүсіп Баласағұнның «Құтты білік» еңбегінде жоғарғы билік лауазымы «хан» ретінде көрсетілген [4, С. 636].

Жалпы алғанда ұлттық тарихымызды зерттеудегі құнды дереккөздер ретінде түрлі жазба мұралар пайдаланылып келеді. Олардың қатарына көне грек, латын, парсы, қытай, араб, түрік, армян, славян тілдерінде жазылған жылнамалар, тарихи, географиялық, агиографиялық шығармалар, энциклопедиялар, саяхатшылардың естеліктері, актілік құжаттар және сөздіктер жатады. Жазба ескерткіштердің басым бөлігін, негізінен, сипаттау бағытында жазылған елшілер мен саяхатшылардың, уағыз таратушылардың (миссионерлердің) естеліктері мен жазбалары және өзіндік жанрға жататын актілік, яғни заң актілері - жарлықтар, бұйрықтар, түрлі актілер-өтініштер, арыз-шағымдар құрайды. Олар тарихи дереккөз ретінде ғылыми айналымға енген. Өкінішке орай, тілдік жәдігерлер - сөздіктерді тарихи дереккөз ретінде қарастырып, ғылыми айналымға қосқан еңбектер жоқтың қасы. Шындығында, «тілдік деректер» арқылы этностың болмысын, тұрмысын және өзіндік тарихи ерекшеліктерін айқындауға болады. Өйткені, халық тарихи санасы арқылы өзін толық тани да, таныта да алады. Халық өз тұрмысы мен болмысындағы бар, әрі қажет еткен дүниенің бәрін, тарихи санадағы ұғым, түсініктерін тіл арқылы сыртқа шығарады және сақтайды [8]. Олай болса лингвистикалық деректерге де тарихшылар тарапынан ғылыми дереккөздік тұрғыдан талдаулар жасау керектігі анық байқалады. Осы жолдар авторының зерттеулерінде ортағасырлық «Кодекс Куманикус» жазба ескерткішіндегі тілдік деректер арқылы құман-қыпшақтардың тарихы зерделенді [9]. Қазақ халқы басқа да туыс халықтар сияқты қыпшақ тілді халық екені, қазақ әдеби тілінің қайнар көзі - қыпшақ тілі екені белгілі. Қыпшақтар қазақ халқының қалыптасу үдерісінде (процесінде) де басты құрамдарын (компоненттерін) құраған тайпалардың бірі болатын және ортағасырлық қыпшақтар құрған мемлекеттің орталық аумағы қазақ даласы болды.

Ертістен бастап, Дон мен Дунайға дейінгі аралықтың «Қыпшақ Даласы» аталып, қыпшақтардың нағыз дәуірлеп тұрған XI ғасыр ортасынан XIII ғасырдың басына дейін, бұл аймақта ғасырлар бойы қалыптасқан қыпшақ мәдениеті үстем болды. Аталған дәуірде қыпшақтар «әлемдік империялар» санасқан, ірі, саяси күшті ел еді. Шығыстан Батысқа, немесе кері бағытта, «Қыпшақ Даласын» басып өту үшін қыпшақ тілін білу өте қажеттіліктің басты бағытынан саналды. Батыс пен Шығыс елдері әралуан амалдар (елшілер, саудагерлер жіберу, жансыздар салу, жиһангездер аттандыру, уағыз таратушылардан діни тыңшылар жасақтау т.б.) арқылы қыпшақтарды жан-жақты тануды қолға алған. Кейін, монғолдардың саяси билігі тұсында да қалыптасқан қыпшақ мәдениетінің басым болғаны тарихи деректерден белгілі. Осындай түрлі қажеттіліктер арқасында ортағасырларда қыпшақ тіліне қатысты бірнеше сөздіктер жазылды. «Кодекс Куманикус те» сондай жазба ескерткіштің бірі, әрі бірегейі. Сондықтан Қыпшақтану - Қазақтанудың басты бағыты деп, ал Қыпшақтанумен шұғылдану - қыпшақ әлемінің қара шаңырағы - Қазақстанның тарихи миссиясы деп санауға болады [10]. М.Қашқари еңбегінде қыпшақ тілдерінің өзіндік ерекшеліктерін көрсететін деректер қатарын тілдік тарихи дереккөз тұрғысынан арнайы зерделеу арқылы халықаралық қыпшақтану бағытының ілгерілеуіне ықпал етеді.

Қорыта келгенде М.Қашқаридің «Диуани Луғат ат-Түрік» еңбегінде ортағасырлық түріктердің саяси билік және билік иесі қағандар мен хан туралы ерте кезеңнен келе жатқан дүниетанымдық сабақтастықтарды көрсете алатын мол тарихи лингвистикалық деректер қоры бар.

Пайдаланған әдебиеттер:

1. Қаржаубай Сартқожаұлы. Орхон ескерткіштерінің толық атласы. Үш томдық. I том. Алматы, «Samga Press»6 2019. -510 б.

2. Махмуд ал-Кашгари. Диван Лугат ат-Турк. Перевод З.-А. М. Ауэзовой. Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – 1288 с. + 2 с. Вкл.

3. Махмұт Қашқари. Түрік сөздігі. Үш томдық. Аударған А.Қ.Егеубай. I том. Алматы, «Хант» баспасы, 1997 ж. -590 б.

4. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 676.

5. Кумеков Б.Е. Государство Кимеков IX-XI вв. по арабским источникам. – Алма Ата: Наука, 1972. – С. 156.

6. Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. – Ашгабат: Ылым, 1969. – С. 294.

7. Бартольд В.В. “Султан Санжар и гузы” // Сочинение в IX-х томах. – Москва: Наука, 1964. - Т.II. часть 2. – 657 с.

8. Қайдар Ә. Қазақ тілінің өзекті мәселелері. – Алматы: Ана тілі, 1998. – 304 б.

9. Анарбаев Қ.С. Ортағасырлық құман-қыпшақтар тарихының мәселелері («Кодекс Куманикус» материалдары бойынша) // Кандидаттық диссертация. Алматы, 2009 – 150 б.

10. Қайдар Ә. Қыпшақтанудың бір бұлағы - тіл // ҚР БҒМ, ҰҒА Хабарлары. - Тіл, әдебиет сериясы. - 2002. – № 3. – 13-17 бб.

ЮСУФ ХОС ҲОЖИБНИНГ ЭСКИ ТУРКИЙ ТИЛ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ЁРИТИШ МАҲОРАТИ
YUSUF KHAS HAJIB’S SKILL IN ILLUMINATING THE POSSIBILITIES OF THE OLD TURKIC LANGUAGE

М.Холмурадова
ТошДЎТАУ катта ўқитувчиси,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Ўзбек тилининг назарий масалалари, амалий қиймати, бадиий-услубий имкониятлари юзасидан бир қатор тадқиқотлар олиб борилган. “Ўзбек тилшунослиги адабий тил сатҳларига оид долзарб масалаларга тегишли кўпдан кўп изланишларга эгалиги, чунончи, бадиий услубият масалаларига тааллуқли тадқиқотлар кесимида муайян ютуқларни қўлга киритганлиги билан фахрланса арзийди”[1].

Лексикология тилнинг энг ўзгарувчан сатҳи бўлиб, бевосита халқ ҳаёти, турмуш тарзи, дунёқараши, маънавияти билан боғлиқ. Муайян тилнинг лексик имкониятлари бадиий матнда тўла намоён бўлади. Маълумки, бадиий матнда тил воситаларининг аҳамияти ҳақида фикр юритилганда, фонографик, морфологик ва синтактик воситалар баробарида лексик воситаларга ҳам диққат қаратилади. Модомики, бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлилида тилнинг асосий бирликларидан бири – сўз муҳим ўрин тутар экан[2], унда муайян шоир ёки ёзувчи услуби, тил хазинасидан фойдаланиш маҳоратининг намоён бўлиш даражаси ҳақида фикр юритиш лозим бўлади.

[1] Дадабоев Ҳ.“Қутадғу билиг” матнида бадиий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва прагматика. Профессор С. Каримов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2010. 4-5 июнь. –В. 48.

[2] Юлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фанлари док.дисс.автореф.–Т., 2009 .

Таъкидлаш жоизки, нафақат адабий тил, балки турфа қабила ва элатлар сўзларидан мукаммал хабардор бўлган Юсуф Хос Ҳожиб ҳар бир лексеманинг маъно нозикликларини ҳисобга олиб, ўта билимдонлик билан қўллаган, кўп ўринларда лексемаларга семантик вазифалар юклашнинг уддасидан чиққан[1]. Муаллиф маҳорати ўхшатиш ва қиёсларда, кўп маъноли сўзлар семантикасида, метафора, метонимия каби кўчим турларида ўз ифодасини топган.

3.1. Полисемантик сўзлар

Полисемия ҳар қандай тилда ҳам салмоқли ўрин тутади. Тил бойлиги фақат сўзлар, иборалар миқдори билан эмас, сўзларнинг лексик маънолари миқдори билан ҳам ўлчанади.[2]

Полисемия одатда муайян нарса-предмет, белги-хусусият, ҳаракат номини бошқа нарса-предмет, белги-хусусият, ҳаракатга кўчириш усули билан воқеланади.[3] Полисемия ҳодисаси ўзбек тилшунослигида атрофлича ўрганилган.[4]

Кўп маънолилик туркий тиллар табиатига хос ҳодиса бўлиб, аксарият туркий сўзлар кўчма маъноларда келиш хусусияти билан фарқланиб туради. Кўп маъноли сўзларда семантик кўчишлар метафора, метонимия, синекдоха, вазифадошлик асосида юзага келади. «Қутадғу билиг»да бир қатор сўзлар кўп маънолилик хусусияти билан намоён бўлган. Асар матнидаги белги билдирувчи сўзларнинг кўп маънолилик хусусиятлари таҳлил этилган.[5] Қуйида кўп маъноли сўзлардан айримлари борасида тўхталамиз.

Асарда келтирилган **ač=** феъли “нарса-ҳодиса, буюм қатларининг текисланиши, объект ичидагини намоён этиш” маъноларини ифода этади. *Qapuγ ačtï dunya taqï bir qapuγ, ölüm qapγï ačlur kirür χalq qamuγ* – Дунё эшик очди, яна бир эшик (очилади), ўлим эшиги очилади, ҳамма халқ (унга) киради (ҚБН, 3484; 130b5); **ač=** реал бўлмаган тушунчалар (дунё, ўлим)га нисбатан қўлланиб, кўчма маънода келган. Бу лексема ибора таркибида келиб, “ёришмоқ” маносини ифодалашга хизмат қилган: *Turub čïqtï sewnü qapuγqa külä, ögi köŋli ačlïp yarudï yula* – Ўрнидан туриб севиниб, кулиб эшикка чиқди, хотири шод бўлиб, кўнгли очилиб, машъалдек ёриди (ҚБН, 587; 28 a3).

Достондаги **ačïγ** лексемаси кўп маънолиликни юзага келтирган. Бу сўзнинг маънолари: “аччиқ, нордон, шўр; оғир, қийин, машаққатли”. «Қутадғу билиг»да ўз маносида келиб, нарса-буюмнинг маза-таъмини ифодалаган: *Ačïγ suw teg kör ul bu dunya näŋi, nečä ičsä qanmaz ölimäz tili* – Бу дунё нарсаси шўр сув кабидир, назар сол, (киши) қанча ичса (ҳам) қонмайди, тили ҳўлланмайди (ҚБН, 3568; 133a14). Бу сўз предметнинг маъза-таъм хусусиятини билдиради. Кўчма маънода келиб, “аламли, қўпол, дағал” маъноларини англатган: *Tügüg yüz ačïγ til kišig tomlïtur, tiriglikdä ketmäs köŋülda yatur* – Тугук юз, аччиқ тил кишини совутади, тирикликда кетмайди (эсдан чиқмайди), кўнгилда сақланади (ҚБН, 2538; 97a7).

Baš тана қисмини билдирувчи полисемантик сўз, денотатив маънода жонзотлар танасининг юқори қисмини ифода этади. Қуйидаги байтда нарса-буюмлар қисмига кўчган: *Elik sunsa erdäm bilä er tegib, uluγ taγ bašïn yerkä ilgürür egib* – Киши тушуниб, санъат-ҳунар билан қўл узатса, улуғ тоғ бошини эгиб ерга энгаштиради (ҚБН, 2608; 99b4). **Baš** “асосий, муҳим, бошлиқ, бошчи” маносини ҳам ифодалаган: *Kür arslan bolu bersä ïtqa bašï, bu ït barča arslan bolur öz tüši*– Кўргин, агар арслон ит (лар)га бош бўлса, бу итлар барчаси унинг тенгида арслон бўлади (ҚБН, 2013; 79a10). Бу ўринда *baš* лексемаси вазифадошлик асосида кўчма маъно ифодалаган. *Бош* бутун тана аъзоларини бошқаради. *Бошлиқ* ҳам бошқариш

[1] Дадабоев Ҳ.“Қутадғу билиг” матнида бадиий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва прагматика. Профессор С. Каримов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2010. 4-5 июнь. –Б. 49.

[2] Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси.–Т.:Mumtoz so‘z.–Б. 158;

[3] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Биринчи китоб. – Т.:Mumtoz so‘z, 2010.– Б.61.

[4] Абдурахманов И. Полисемия и антонимия в современном узбекском литературном языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1973; Аликулов Т. Полисемия имен существительных в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Т., 1966; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1975;

[5] Баялиева Г. “Қутадғу билик” дастаны тіліндегі көпмағыналы сын сімдер// Тіітаным. Языкознание. –№1. – Алматы, 2003.– С.93-96.

вазифасини бажаради. Семантик кўчишга “бошқармоқ” семаси асос бўлган. Р.Арзиев *baš* сўзининг 8та маъносини келтирган: 1) бош, асосий, тўғри маъноси: тана қисми; 2) бошлиқ, сардор; 3) маълум бир ҳодисанинг бошланиши; 4) ниманингдир тугаши, охири; 5) мақсадга мувофиқ бажарилган иш; 6) ҳаёт, тақдир, 7) халқ, 8) илғор, асосий.[1] А.Касиева “Қутадғу билиг” матнида *бош* сўзининг 130 дан ортиқ метафорик маънолари акс этганлигини қайд этади[2].

Достон матнида қўлланган **arqa** лексемаси кўп маънолилик ҳосил қилган. Биринчи маъноси “орқа томон, бел, пушт, пушти камар”: *Ata arqasïnda tuγulsa oγul, ana qarnï manzil qač aylïq amul* – Ўғил [яъни фарзанд] отанинг белидан (пуштидан) бунёд бўлгач, она қорни (раҳми) унинг учун бир неча ойлик сокин бир манзилдир (ҚБН, 1372; 56 б). Иккинчи маъноси “мадад, таянч”. *Ya rabb üstä davlat tügäl qïl tiläk, qamuγ ištä bolγïl sen arqa joläk* –Ё рабб, давлатни зиёда қил, тилакларни тугал эт, барча ишда сен мададкор бўл (ҚБН, 112; 11b1). Бу сўзлар “муайян тушунчанинг орти” семаси билан ўзаро боғланади.

“Қутадғу билиг” лексикасининг асосий хусусиятларидан бири туркий сўзлар орасида феъл туркумига оид лексемаларнинг кўп қўлланишидир. Асар лексикасидаги полисемия сўзлар семантикасидаги кўчиш усулларини ёритишга хизмат қилади.

3.2. Метафора, метонимия, синекдоха усулидаги маъно кўчиши

Метафора –«ўхшашлик» асосидаги маъно кўчиши. Метафора адабиётшуносликда *истиора* деб юритилади. Бадиий асарларда сўзларни ўз маъносидан ташқари мажозий маънода қўллаш санъати истиорадир. «Қутадғу билиг»да қўлланган метафораларни А. Касиева махсус ўрганган.[3]Достон матнидаги метафора намуналари таъсирчанлиги ва бетакрорлиги билан алоҳида аҳамиятга эга. Асар таркибидаги метафораларни шартли равишда икки гуруҳга ажратдик:

а) шахс феъл-атворини ифодаловчи метафоралар;

б) табиат ҳодисалари, нарса-буюм хусусиятларини ифодаловчи метафоралар.

Шахс феъл-атворини ифодалашда қўлланган метафоралар. *Yula erdi xalqqa qaraŋqu tüni, yoruqluqï taδtï yaruttï seni* –Қоронғу тунлари (у) халққа машъал эди, (У) ёруғлигини тарқатиб сени рўшноликка чиқарди (ҚБН, 34; 8b6). Муҳаммад (с.а.в.) сифатлари “шамчироқ, машъала” маъносини ифодаловчи *yula* сўзининг кўчма “машъал” маъноси орқали мадҳ қилинган бўлиб, пайғамбаримиз диннинг таянчи ва суянчи тарзида эътироф этилган.

Асарнинг бош қаҳрамонларидан бири Ойтўлдининг хусусиятларини ифодалашда метафоралар муҳим ўрин тутади. *Yüzi körki körklüg qïlïnčï köni, qamuγ anda könilik tönï* – (Ойтўлдининг) юзи кўркли, феъли-рафтори тўғри (эди), (ҳожиб) барча ростлик либосларини унда мужассам кўрди (ҚБН, 519; 25b8). Ойтўлди вазир бўлганлиги боис адолатли ва феъли тўғри бўлиши лозимлиги қайд этилган. Муаллиф барча ростлик либосларини унда мужжассам кўрган. Биринчи мисрада *köni* “тўғри”, иккинчи мисрада *tön* “либос” метафора асосидаги кўчимни юзага келтирган.

Бекларнинг хусусиятларини ифодалашда ҳам метафоралардан унумли фойдаланилган. *Qut-ul beg yaqïn bolsa qutqa kiši, tiläkin bulur barča etlür iši* –Бег – бу қут, агар киши бу қутқа яқин бўлса, барча тилакларини топади, ишлари бажо келади (ҚБН, 592; 28a8). Ушбу байтда беглар *qut* истиораси билан номланган. Агар киши бу қутга яқин юрса эзгулик топади, тилаклари бажо бўлади. Аммо, беглар дарғазаб бўлган пайтда оловдан ҳам кучлироқ, заҳардан ҳам заҳарлироқ бўлишади. Шунинг учун беглар дарғазаб бўлган пайтда уларнинг олдига яқинлашмаслик зарурлиги айтилган.

Taqï yaqšï aymïš biliglig bögü, bušar öδtä beglär bolur ot aγu –Билимли, доно (бу ҳақда) янада яхшироқ айтибди: дарғазаб бўлган пайтида беглар олов (ва) оғу бўлади (ҚБН, 764; 34

---

[1] Арзиев Р. Лексико-стилистические особенности языка поэмы “Кутадгу билик” Юсуфа Хас Хаджиба. Дисс. канд. филол. наук.–Алма–Ата, 1991.–Б.10

[2] Касиева А. Антропоморфная метафора в поэме “Кутадгу билиг” и особенности перевода ее на английский язык. Sosyal Bilimlar Dergisi.Sayı:15, 2006.–С.142.

[3] Касиева А. Лексико-семантический анализ метафор “Кутадгу билиг.–Бишкек, 2005; шу муаллиф. Антропоморфная метафора в поэме “Кутадгу билиг” и особенности перевода ее на английский язык // Sosyal Bilimlar Dergisi.Sayı:15, 2006. – С.142.

а). *Ot* ва *аγu* сўзлари бегларнинг характер-хусусиятини ифодаловчи метафораларни ҳосил қилган.

Феъл-лексемалар метафорик маънода келиб, шахс феъл-атвори, руҳий ҳолатига нисбатан қўлланган, бадиийликка, таъсирчанликка хизмат қилган.

Табиат ҳодисалари, нарса-буюм хусусиятларини ифодалашда қўлланган метафоралар. «Қутадғу билиг»да турли мансабдор шахслар ва ижтимоий табақаларни ифодаловчи метафоралардан ташқари табиат ҳодисалари ва ижтимоий ҳаётдаги жараёнлар, воқеа-ҳодисаларга доир метафоралар ҳам фаол қўлланган. *Uqušqa biligkä bu tïlmač tïl, yaruttačï erni yorïq tilni bil* – Уқувга, билимга тилмоч – бу тил, кишини рўшноликка чиқарган равон тил деб билгин (ҚБН, 158; 13a7). Тил орқали киши юксалади, қадр топади. Байтда *tïlmač* метафорани юзага келтирган.

Yaγï-ul bu bor ičmi altun kümüš, qïlïnčï tutuš boldï qïlqï uruš – Ичимлик бу ёв, (унинг) ичими эса олтин, унинг (келтириб чиқадиган) ишлари ёқалашиш, юмушлари эса урушдир (ҚБН, 2064; 81a1). Ушбу байтда ичкиликнинг салбий оқибатлари ҳақида маълумот келтирилган. Ичимлик ёвга қиёс қилинган. “Ёв”(уаγï)лигининг асоси “ёқалашиш” (tutuš), “уришиш” (uruš) билан изоҳланган.

Aγïzdïn ara ot ara suw čïqar, birisi yapuγli birisi yïqar – Оғиздан гоҳо ўт, гоҳо сув чиқади, бири тузади, бири бузади (ҚБН, 2646; 100b14). Байтда муаллиф беқиёс истиора намунасини келтирган. Оғиздан чиқадиган сўз ўт (олов) ва сувнинг хусусиятлари билан ифодаланган. Достон матнида таъкидланганидек, ёмон сўз олов каби барча экинларни пайҳон қилади, яъни ёмон сўз инсонларнинг дилини вайрон қилади. Яхши сўз зилол сув кабидир. Сув бор ерда анвойи неъматлар унади. Яхши сўз ҳам кишилар қалбига яхшилик уруғини сочади. *Ўт* ва *сув* тушунчаларидаги семантик зидлик метафорага асос бўлган.

Qïlïč birlä tutlur qalï tutsa el, qalam birlä baslur qalï bassa el – Агар эл олинса, қилич воситасида олинади, агар эл бошқарилса, қалам билан бошқарилади (ҚБН, 2671; 101b9). Байтдаги *qïlïč* сўзи “куч”, *qalam* “адолат” маъносида қўлланган.

Otuz ekki tišïm ürüŋ yünǯülär, üzüldi yïpï kör sačïldï birär –Ўттиз икки тишим – бу оқ инжулар, ипи узилди, кўр, битталаб сочилди (ҚБН, 5522; 203a5). Байтда ўттиз икки тиш оқ инжуларга қиёсланган. Бу ўринда тишларнинг оқ рангда бўлиши, бир хил шакли қиёслашга асос бўлган. *Ürüŋ* оқ рангни билдирувчи сўз бўлиб, энг қадимги олтой боботил даврига бориб тақалади. Мўғул тилида ҳам қўлланади.[1]

Qonuq ya bu dunya seŋär bir tüšün, tüšündä sewünč tutma artuq uzun – Сен учун бу дунё бир меҳмонхона ёки работдир [яъни тушиб ўтирадиган жойдир], работдан кўп, узоқ севинма (ҚБН, 3513; 1313b4). Достонда дунё кўп ўринларда *работ, карвонсарой (tüšün)* га қиёс қилинган. Бу метафорик кўчимда “вақтинчалик”, “ўткинчи” семалари асос бўлган.

Асар матнида қўлланган метафоралар маънони таъсирчан ифодалашга, денотат хусусиятлари, белгиларини ёритишга, нарса-буюмлар ўртасидаги ўхшашликни англашга хизмат қилади.

Метонимия асосидаги маъно кўчиши

Метонимия юнонча “қайта номлаш” демакдир. Нарса ва ҳодисалар ўртасида макон ва замондаги ўзаро алоқадорлик асосида бир номнинг иккинчисига кўчирилиши метонимия ҳисобланади. “Қутадғу билиг”да метонимиядан унумли фойдаланилган.

Učuγlï yurïγlï tïnïγlï nečä, tirilgü seniŋdin bulub yer ič-ä – Қанчадан қанча учадиган (лар), юрадиган(лар), нафас оладиган(лар), сендан ризқ топиб учиб-ейди(лар) (ҚБН, 22; 8a9). Бу ўринда қушлар (*učuγlï*), ер юзидаги жонзотлар (*yurïγlï*) ҳамда инсонлар (*tïnïγlï*) назарда тутилмоқда. Байтда метонимия сифатдошнинг отлашиши ҳисобига воқеланган.

Yorïγlï körür-män yaraγlïsï yoq, yaraγlï bulunsa yurïγlïsï yoq –Юрувчиларни (кўплаб) кўраман, ярайдигани йўқ, яроқлиси топилса-чи, у юрмайди (умри қисқа бўлади) (ҚБН, 1598; 64a12). Байтда *yorïγlï* “юрувчилар” деганда одамлар назарда тутилмоқда. Муаллиф “бу дунёда яшовчилар ичида яроқли киши йўқ, ярайдигани эса тирик эмас”, деган ғояни илгари сурмоқда. Бу байтда ҳам сифатдош отлашган.

[1] Дадабоев Ҳ., Холманова З. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. –Т.:Turon zamin ziyo, 2015.–Б. 51.

Достон матнида қўлланган *köŋli süzük* “кўнгли покиза”, *köŋli tüzük* “кўнгли тўғри” изофалари орқали “тоза, пок кўнгилли инсон” назарда тутилади: *Nekü ter ešitgil ay köŋli süzüg, qamuγ iš ičində e köŋli tüzüg* – Нима дейилган, эшитгин, эй кўнгли покиза, ҳамма иш(лар) соҳасида (ҳам) эй кўнгли тўғри (ҚБН, 3046; 114 b4).

Асарда қўлланган **atlan=** лексемаси “отланмоқ, отга минмоқ” маъносидаги келган: *Turup čïqtï atlandï keldi yana* –Туриб чиқди, отга минди, яна қайтиб келди (ДТС, 67). Ясама сўз мазкур байтда ўз маъносида келиб, транспорт воситаси ҳисобланган уловни эгарлаш, миниш назарда тутилади. Лексема “жўнамоқ”, “тайёрланмоқ”, “ҳозирланмоқ” маъносида ҳам қўлланган: *Qalï atlanur bolsa beglär sügä* – Агар беглар жангга отлансалар (ҚБН, 2542; 97a11). Байтда *отланмоқ* “лашкар тортмоқ”ни ифода этади. Кўчма маъно “отга миниш” ҳаракати орқали воқеланган. Даставвал, бирор жойга бориш учун отга минилган. Кейинчалик, бирор ишга жазм қилмоқ, аҳд қилмоқ” маъноси ҳам шу сўз билан ифодаланган. Маъно кўчишига “ҳозирланмоқ”, “йўл олмоқ” семаси асос бўлган.

Aš сўзи “таом, овқат” ҳамда “зиёфат” маъноларида келган: *Ularda birisi kodängä aš-ul, ya sunnat ašï ya tuγursa oγul*– Улардан биттаси зиёфат (никоҳ) ошидир, ё суннат оши ёки фарзанд туғилиши муносабати билан бериладиган ошдир (ҚБН, 4471; 66a2). Ушбу байт аждодларнинг қандай маросимлар муносабати билан элга дастурхон ёзиши, ош тортишини ўзида яққол ифода этган. Кези келганда достонда бирор кишининг вафотига бағишлаб бериладиган эҳсон ошининг ***yoγ ašï*** изофаси билан ифодаланганини айтиб ўтиш лозим (ҚБН, 330_4).

Tolun (<tol=) деганда шу белгига эга бўлган ойга (Муҳаммад (с.а.в.)) ташбеҳ қилинган: *Qiyamatta körgit tolun-teg yüzin, elig tuttačï qïl ilaha özin* – Қиёматда тўлин (ой) каби юзини кўрсат, илоҳо, ўзини (қўл)дан тутувчи қил (ҚБН, 47; 9a6).

Юсуф Хос Ҳожиб асарда ўқувчига кўп мурожаат қилади. Муаллиф *aya qutluγ öz* “эй қутлуғ инсон”, *e edgü köŋül* “эй эзгу кўнгилли инсон”, *e bilgi batïγ* “эй билими чуқур инсон”, *e köŋlï yazï* “эй кўнгли кенг киши”, *aya elči qut* “эй қут элчиси”, *e sïγun* “эй, буғу” каби мурожаат шаклларини қўллаган. Бу мурожаат шаклларида ҳам метонимияга асосланилган.

Синекдоха усулидаги маъно кўчиши

Ҳосила маъно юзага келишининг унча кенг тарқалмаган кўриниши *синекдоха* – юнонча “биргаликда англаш” сўзидан олинган бўлиб, бўлак орқали бутунни ёки бутун орқали бўлакни ифодалашни билдиради.[1]«Қутадғу билиг»да келтирилган синекдохаларда табиат ҳодисалари, турли доирадаги шахсларнинг хусусиятлари ифодаланган. Асарда, асосан, қисм номи билан бутун ифодаланган: *Yanut berdi Ögdülmiš aydï özüm, seni arzuladï ay körklüg yüzüm* – Жавоб берди Ўгдулмиш, айтди: ўзим, сени (кўришни) орзуладим, эй кўркли юзим (ҚБН, 3266; 122b2). Байтда асар қаҳрамони Ўгдулмиш “эй кўркли юзим” деб мурожаат қилган. Аслида “юзи кўркли киши” шаклида бўлиши керак эди. Аммо, ушбу жумла эллипсисга учраб, шу ҳолга келган. Бу ўринда қисм номи билан бутун ифодаланган. Асарда инсоннинг юзи билан боғлиқ *qïzγu eŋ* “қизил ёноқ”, “ёруғ юз”, *qïzγu meŋïz* “қизил юз”, *isig yüzlüg* “иссиқ юзли” каби бирикмалар қўлланган ва улар синекдохани юзага келтирган.

Манбада келтирилган *ürüŋ bašlïγ er* “оқ бошли киши” синекдохаси “қари киши”, “қария” маъносини билдиради. Бу ўринда “оқ бошли киши” яъни “сочига оқ тушган” деганда тажрибали, ҳаётнинг аччиқ-чучугини тотган киши назарда тутилмоқда. *Baš сўзи* “соч” маъносида келган: *Nekü ter ešitgil ürüŋ bašlïγ er, aǯunuγ qarïtmïš uzun yašlïγ er* – Оқ бошли (сочи оқарган) киши нима дейди, эшитгин, дунёни қаритган узун ёшли киши (ҚБН, 2973; 112a4). *Ürüŋ bašlïγ* деганда *оқ сочли, кекса, катта ёшли киши* назарда тутилмоқда.

Köŋül berdiŋ ersä bu qurtγa yüzi, yaqaŋnï tutar kündä ketmäz sözi – Кўнгил бериб қўйсанг, бу юзи кўҳна (қари), кунда ёқангни тутади, сўзи (ҳеч) тугамайди (ҚБН, 3493; 130b14). Байтда *qurtγa yüzi* дейилганда юз эмас, балки қари юзли кампирга қиёс қилинган дунё назарда тутилмоқда.

[1] Ҳосила маънонинг юзага келиши ҳақида қаранг: Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. .–Т.:Мумтоз сўз, 2010.–Б. 89-112 .

Isinür et er terk bayïrsaq bolur, bayïrsaq kišilär tapuγsaq bolur – Унга баданнинг (кишиларнинг) муҳаббати ортади, сўнг эса кишилар унга садоқатли бўлади, садоқатли кишилар эса хизматга шай бўлади (ҚБН, 2089; 81b11). Байтда келтирилган *et* "бадан" сўзи орқали инсонларга ишора қилинмоқда.

Айрим байтларда вазифадошлик асосида маъно кўчган: *Meŋä köz qulaq-sen išimni qamuγ, seniŋdin tilär-men ača ber qapuγ* – Менга кўз, қулоқдирсан, ҳамма ишларимни сендан умид қиламан, эшик очавер [яъни иш юритавер] (ҚБН, 6164; K 377). Байтда ҳукмдор Ўгдулмишга мурожаат қилиб, уни ўзининг кўзи, қулоғи деб билади. *Кўз* деганда "кўриш", қулоқ деганда "эшитиш" семаси назарда тутилмоқда.

3.3.Ўхшатишлар услубияти

Ўхшатиш – икки нарса-ҳодиса ёки воқелик ўртасидаги ўхшашликка асосланган, уларнинг бири орқали иккинчисининг белгисини, моҳиятини тўлароқ, бўрттириброқ кўрсатиб беришдан иборат бадиий тасвир воситаси, кўчимнинг содда туридир. Ўхшатиш (ташбеҳ) мумтоз бадиий санъат кўриниши сифатида услубиятни таъминловчи воситалардан бири ҳисобланади.

Адабиётшуносликда ўхшатиш *ташбеҳ* термини билан юритилади. "Ўхшатиш – тасаввур бирлиги. Тасаввур эса мавжудотга асосланган хаёлот натижасидир".[1] Ўзбек тилшунослигида ўхшатишнинг назарий асослари, омиллари тадқиқ этилган. Жумладан, М.Мукаррамов ўз тадқиқотларида ўхшатишни соф тилшунослик нуқтаи назаридан ўрганди.[2] Ҳ.Дадабоев XI – XIV асрлардаги ўхшатишларнинг ифодаланиши масаласига эътибор қаратган бўлса,[3] Н.Маҳмудов, Д.Худойберганова лар томонидан ўхшатишларнинг миллий-ментал хусусиятлари тадқиқ этилган[4].

"Қутадғу билиг"даги ўхшатишларни семантик жиҳатдан қуйидагича таснифлаш мумкин:

а) **шахс тавсифида қўлланган ўхшатишлар**. Достонда турли мансабдор шахсларнинг фаолияти, улар эга бўлиши керак бўлган фазилатлар ҳақида сўз боради.

Зеҳнсиз киши *мевасиз дарахт*га ўхшатилган: *Uqušsuz kiši-ol yemišsiz yïγač, yemišsiz yïγačïγ nekü qïlsun ač* – Зеҳнсиз киши мевасиз дарахтдир, мевасиз дарахтни оч нима қилади (ҚБН, 2418; 93a4). Ушбу байтда муаллиф ўзига хос *ol* ўхшатиш воситасидан фойдаланган. *Yemišsiz yïγač* бирикмасида *yemišsiz* "мевасиз", *yïγač* "дарахт" маъноларидаги лексемалардир; *yïγač* архаизмга айланган, *yemiš* лексемасида сема архаиклашган, бу лексема ҳозирда ҳайвонларга нисбатан "озуқа" маъносида ишлатилади. "Самара", "натижа" семалари қиёслашга асос бўлган.

Жоҳил киши *сигир*га қиёс қилинган: *Qara qarnï toδsa kör uδ-teg yatur, yawa sözgä awnur özin semritür* – Жоҳил қорни тўйса, сигирдек ётади, кўр, беҳуда сўзга ғарқ бўлиб ўзини семиртиради (ҚБН, 974; 42a4). Унинг дарди – фақат қорин тўйдириш ва беҳуда умр ўтказиш. Жоҳил сўздан сўзнинг фарқини билмайди. Беҳуда ва кераксиз сўзларга ҳам қулоқ тутиб ётаверади. Сигир гапга тушунмаганидек, нодон ва жоҳил киши ҳам эзгу сўзларни тингламайди. Чунки унинг онги зарарли ва кераксиз сўзлар билан тўлган. Жоҳилнинг сигирга ўхшатилишида "онгсизлик", "ақлсизлик", "бефаҳмлик" семалари асос бўлган.

Д.Худойберганова лингвокультурология бўйича изланиш олиб борган В.Маслова фикрига таяниб, шундай дейди: "...халқнинг муайян предмет, белги, ҳаракат-ҳолатга муносабати, ассоциатив фикрлаш тарзи ўхшатишларда ҳам намоён бўлади. Жумладан, буни ўзбек тилидаги инсон ҳақидаги ўхшатишларда ҳам кўриш мумкин. Ўзбек тилидаги инсонга доир ўхшатишлар 8та маъновий гуруҳни ташкил этиб, уларда ҳайвон, ўсимлик, мева номларини билдирувчи сўзлар эталон сифатида кўп қўлланганлиги она тилимизда мулоқот қилувчи тил соҳибларининг этнопсихолингвистик хусусиятларини намоён қилади[5]".

[1] Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати.–Т.:Adabiyot va san'at, 1979.–Б. 66 .
[2] Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т.:Фан,1976.
[3] Дадабоев Ҳ., Эски ўзбек тилида қиёслаш, ўхшатишнинг ифодаланиши // Лингвист IV.–Т.:Akademnashr, 2013.–Б. 4-11.
[4] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати.–Т., 2013.
[5]Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан. док. дисс. автореф. –Т., 2015.–Б.31.

Асар тилида лашкарбошининг хусусиятлари, асосан, зоонимлар орқали ифодаланган. Саркарданинг суврати ва сийрати тавсифланганда *қуйидаги* ўхшатишлар қўлланган: *Toŋuz–teg tetimlig böri–teg küči, aδïγlaju ïrγar qutuz–teg öči* –Тўнғиздек човут қилувчи, бўридек кучли, айиқдек ҳийлакор, қўтосдек қасоскор бўлиши керак (ҚБН, 2275; 88a9). *-lay* ўхшатиш-қиёслаш шакли кучайтирув-таъкид юкламаси билан бирикиб, *-layu* шаклида учрайди. Асосан, ҳайвонларга нисбатан қиёсларда қўлланган.

Uluγ tutsa himmat kür arslanlayu, ügi-teg usuz bolsa tünlä sayu – Ботир арслон каби ҳимматини улуғ тутса, тунлари укки каби бедор бўлса (ҚБН, 2278; 88a12). Юқоридаги байтда лашкарбошининг хусусиятлари ифодаланган бўлиб, табдилда байтнинг иккинчи мисраси «тунлари бедор онадай бўлса» деб изоҳланган. Бизнингча, **ügi** деганда Юсуф Хос Ҳожиб *укки* зоонимини назарда тутган ва байтни «лашкарбошилар уккидек тунлари бедор бўлса» деб табдил қилиш мақсадга мувофиқ бўлади. Мазкур байтдан олдинги ва кейинги мисраларда зоонимлар асосидаги ўхшатишларнинг келтирилиши фикримизни асослайди. «Древнетюркский словарь»да ҳам байт «Ему следует основательно проявлять рвение, уподобляясь льву, а по ночам бодрствовать, подобно сове» тарзида изоҳланган (ДТС,198). Маҳмуд Кошғарий луғатида ушбу зооним *ühi* шаклида келтирилган: *кўп туркlар бу сўзни ügi дейдилар. Тўғриси шудир, чунки туркий тилда бўғиздан чиқадиган h йўқдир* (ДЛТ, I, 175).

“Қутадғу билиг”даги қиёсларда, асосан, ҳайвонларнинг белги-хусусиятларидан унумли фойдаланилган. Ҳақиқий тадбиркор киши бўридек кучли, айиқдек ҳийлакор ва қўтосдек қасоскор бўлиши кераклиги таъкидлаб ўтилган. Бўри “куч-қудрат”, айиқ “ҳийла”, қўтос “қасос” семаларини ифодалаш учун ишлатилган ва бунда, албатта, ҳайвонларнинг ана шу белгилари асос бўлган.

“Лашкарбошининг кучлилиги *арслонга*, доимий ҳушёрлиги *зағизғонга*, бақувватлиги *қоплонга,* ҳужмкорлиги ва душманга ҳамласи *тўнғиз*га, мардонаворлиги *бўрига,* жангда моҳирлиги, ҳийла ва тадбиркорлиги *тулкига*, шиддати *айиққа*, қасоскорлиги *қўтос* ва *туя*га ўхшатилади. Умуман, бир нарсани тасвирловчи-изоҳловчи турли-туман ўхшатишларнинг ҳаммаси ҳам унинг турли хусусиятларини ёритишга хизмат қилади”.[1]

Беглар *kür арслон* “юракли арслон”га қиёс қилинган. *Kür arslanqa oxšar bu beglär özi, bušursa kesär baš e bilgi yaruq* – Беглар–бу юракли арслонга ўхшайди, уларни ғазабга келтирсанг, бош кесади, эй равшан фикрли (ҚБН, 769; 34 а). Бунда ўхшатиш тўғридан тўғри *оҳšar* сўзи орқали ҳосил қилинган.

Туркий халқлар, хусусан, ўзбек халқининг яшаш тарзини белгилайдиган, тирикчилик фаолияти бўлган чорвачилик, овчилик мақолларда ифодаланган ҳайвон номларининг тур жиҳатдан хилма-хил бўлишини таъминлаган,[2] шунингдек, “Қутадғу билиг”даги зоонимларнинг ўхшатиш воситаси сифатида қўлланишига асос бўлган.

*Халқ*нинг *қўй*га ўхшатилишида “ювошлик”, “ожизлик”, “итоаткорлик”, *бек*нинг *қўйчивон*га ўхшатилишида эса “ҳимоя”, “бошқарувчи” семалари асос бўлган: *Boδun qoy sanï-ol begi qoyčïsï, bayïrsaq keräk qoyqa qoy tütgüči*– Халқ бир қўй каби, бег эса қўйчивондир, қўй учун қўй тутувчиси меҳрибон (жонкуяр) бўлиши керак (ҚБН, 1399; 57b4).

Юсуф Хос Ҳожиб доноларни *серсув, чимли ер*га ўхшатган: *Öyük čïm osuγluγ bolur bilgälär, čïqar suw qayuda aδaq tebsälär* –Донолар чим (кўк) ўсадиган сероб ер каби бўладилар, унинг қаерига оёқ урилса, сув чиқади (ҚБН, 960; 41b1). Биринчи мисрадаги **bolur** боғламаси ўхшатиш-қиёслаш вазифасини бажарган. Доноларнинг сўзи унумдор ерга қиёсланган. “эзгулик”, “яхшилик”, “самара” семалари қиёслашга асос бўлган.

Aqar suw teg ul bu tilin eδgü söz, qayuqa bu aqsa čečäk ündi tüz –Тилдан чиқадиган эзгу сўз оқар сув кабидир, бу (сув) қаерга оқса, ҳамма ёқда чечак унади (ҚБН, 2648; 101a1). Ушбу мисраларда тилдан чиқадиган *eδgü söz* бирлиги *aqar suw*га ўхшатилган. Оқар сувнинг чечаклар ундириши, оламни яшилликка буркаши эзгу сўзнинг киши кўнглини яшнатиши, кайфиятини кўтаришига қиёсланган.

[1] To‘xliyev B. O‘zbek adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2000. –B.134.

[2] Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссертацияси автореф. –Т., 2017.–Б.14.

«Қутадғу билиг» – ҳадислардан илҳомланиб ёзилган асар. Ундаги пурмаъно фикрлар, теран мулоҳазалар ҳадисларнинг таъсири ўлароқ юзага келган. Юқоридаги байтларда доно, билимли кишилар *сувли ер*га, билимли кишининг сўзи ерга ҳаёт бағишловчи *сув*га ўхшатилган. "Илм ўрганмоқ" ҳақидаги ҳадисда илм ёмғир сувига ўхшатилади. Илм ўрганувчилар эса ерга қиёсланади. Ҳадисда ҳам ёмғир сувининг ҳаётбахшлиги таъкидланади[1];

б) **мавҳум тушунчалар реал нарса-буюмга қиёсланган ўхшатишлар**. *Körü barsa dunya kölikä sanï, edärsä qačar qačsa edrär seni*–Назар солсанг, дунё кўланка кабидир, изидан борсанг, қочади, қочсанг изидан боради (ҚБН, 3488;130b9). *Дунё кўланка*га ўхшатилган. *Kölikä säni* ўхшатиши асосида *dunya* лексемасидаги "беқарорлик", "фонийлик", "бевафолик" семалари намоён бўлган. *Dunya* лексемасидаги "ўткинчилик", "беқарорлик" семалари қиёслашга асос бўлган. *Säni* (san= ўйламоқ, ҳисобламоқ) ўхшатиш воситаси вазифасини бажарган.

Tarïylay erür dunya elig qutï, tarïsa orar er tirilgü otï – Бахтиёр элиг, бу дунё бир экинзордир, экин унса, киши ўз ейдиган ўтини ўради (ҚБН 1378; 56b13). Байтда *дунё экинзор*га ўхшатилган. Ҳар ким ўзи экканини ўради. Бу ерда ҳар ким ўз ризқи билан туғилади, деган мазмун ифодаланган. *-lay қ*ўшимчаси *-lay* аффиксининг варианти бўлиб, ўхшатишни воқелантиришга хизмат қилган.

Асарда элчиларга алоҳида аҳамият берилиб, уларга икки давлат ўртасидаги муҳим алоқа-муносабатни таъминловчи шахслар сифатида қаралган. Элчилар эга бўлиши керак бўлган бир қанча фазилатлар келтирилган. Шулардан бири *sučig sözlik* "ширинсўзлик": *Sözi bolsa yumšaq šakar-teg sučig, sučig sözkä yumšar uluy ham kičig* – Сўзи юмшоқ, шакардек ширин бўлса, Ширин сўзга улуғ ҳам, кичик ҳам юмшайди (ҚБН, 2626; 100a7). Бу ерда *sučig "*ширин" сўзи кўчма маънода келиб, *сўз*ни сифатлаган. *Sučig söz* "ширин сўз" *šakar* "шакар"га қиёсланган.

Достон матнида "туя" маъносида **tewä, tetir** каби лексемалар қўлланган. *Сўз туя бурни*га қиёсланган: *Burunduqluy-ol söz tewä burnï-teg, barur qančä yatsa tetir boynï teg* – Сўз туя бурнидек жиловланган бўлади, туя бўйнидек қаерга бурса, шу томонга боради. (ҚБН, 203; 19b11). Туя бурнини тўғри томонга йўналтира оладиган жиловдор керак. Бу ўринда "буриш", "бошқариш" , "йўналтириш", "қўллаш" семалари қиёслашга асос бўлган.

Заковат навқирон йигитга муқояса қилинган: *Qïlïnčï qarï oylan özlüg uquš, uquš qayda bolsa aŋar bar yapuš* – Заковат қарилардек иш тутувчи навқирон йигит кабидир, заковат қаерда бўлса, (сен) унга бориб ёпиш (ҚБН, 1837; 72b10)**.** *Özlüg* сўзи ўхшатиш воситаси сифатида келган. Ушбу байтда Юсуф Хос Ҳожибнинг сўз қўллаш маҳоратига яна бир карра амин бўламиз. Муаллиф заковатни қарилардек иш тутувчи навқирон йигитга қиёс қилган. "Заковат" тушунчаси ўзаро зид бўлган "йигитлик" ва "қарилик" тушунчаларидаги "куч-қудрат" ва "тажриба" семалари асосида тавсифланган.

*Киши кўнгли тубсиз денгиз*га, *билим марварид*га ўхшатилган: *Kiši köŋli tübsüz teŋiz-teg turur, bilig yinčü sanï tübindä yatur* – Киши кўнгли тубсиз денгиз кабидир, билим инжу каби (унинг) тубида ётади (ҚБН, 208; 15a1). Алишер Навоийнинг "Муҳокаматул-луғатайн" асарида *сўз* ва *кўнгил* борасида шу фикрларга яқин тасвирларни учратамиз: "… *сўз дурредурким, анинг дарёси кўнгулдур ва кўнгул мазҳаредурким, жоми маонийи жузв ва кулдур.* (яъни " … сўз бир дур бўлиб, унинг дарёси кўнгилдир. Кўнгил шундай бир жой бўлиб, унда майда ва йирик маънолар тўпланган**дир**").[2] Кўнгилнинг денгизга ўхшатилишида "кенглик" семаси асос бўлса, сўзнинг дурга қиёсланишида "ноёблик" семаси устундир.

Nekü ter ešitgil e bilgä bögü, biliglig sözi bulsa aš-teg yegü – Донишли киши нима дейди, эшитгин, эй билимдон, билимли сўзини топсанг, ошдек ейиш керак (ҚБН, 2745; 104a10). Билимдон, донишманднинг сўзи *озуқа, ош*га қиёсланмоқда;

в) **ҳаракат-ҳолатни қиёслашда ишлатилган ўхшатишлар**. *Турналар парвози* тизилган *туя карвони*га қиёсланган: *Kökis turna kökdä ünün yaŋqular, tizilmiš tetir-teg učar*

[1] Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. –T.: Sharq.–B. 21.
[2] Алишер Навоий. Муҳокамат –ул луғатайн. Мукаммал асарлар тўплами. XVI жилд.–Т., 2000. –Б.6.

yelgürär –Мағрур турна кўкда овоз чиқариб сайрамоқда, тузилган туя карвонидек учмоқда, қанот қоқмоқда (ҚБН, 72; 10а7). Қиёслашда “қаторма-қаторлик”, “эгрилик” (туянинг ўркачлари, турналарнинг қанотлари) семалари асос бўлган.

Юсуф Хос Ҳожиб қўллаган ташбеҳлар кейинчалик туркий адабиётда, жумладан, ўзбек адабиётида ҳам анъанага айланди. *Қад*ни د (дол)га (“эгик” семаси асосида), *юз*ни *ой*га (“нурафшонлик” семаси асосида), тириклик (ҳаёт)ни работга (“ўткинчилик” семаси асосида), йигитликни арғумоққа (“шўхлик”, “ўйноқилик” семаси асосида), билимни кимёга (“ноёблик” семаси асосида), сўзни заҳарга (“зиён” семаси асосида), шакарга (“қувват” семаси асосида), кўнгилни денгизга (“кенглик” семаси асосида), шишага (“нозиклик” семаси асосида), билимни машъалга (“зиё” семаси асосида), золим амалдорни бўрига (“шафқатсизлик” семаси асосида) ўхшатиш ҳам ана шундай ёзма адабиётда анъанага айланган образлардир.

Асар тилида, асосан, *-teg, sani, -layu, -ul, -lüg, -liγ, ol, turur, oxšar* каби воситалар орқали ўхшатиш бадиий санъати яратилган. Маъно-мазмунни таъсирчан ифодалашда ***-teg*** ўхшатиш воситаси фаол қўлланган. ***–teg*** нинг ўхшатиш, қиёслаш, муқояса қилиш каби маъноларни англатувчи равиш ясаши қадимги туркий тилга оид битиктошларда акс этган[1].

Достон матнидаги ташбеҳлар эски туркий тилнинг бойлигини намоён қилган, асарнинг бадиий қимматини янада оширган, тасвирнинг мукаммал, янада тушунарли бўлишини таъминлаган. «Қутадғу билиг»даги ўхшатишларнинг хусусияти шундаки, улар кўзда тутилган ҳар қандай фикрни равшанлаштиришга, шу образни аниқ тасаввур этишга хизмат қилади”[2].

«Қутадғу билиг»даги ўхшатишлар нарса-ҳодисалар моҳиятини акс эттириш билан бир қаторда миллий-ментал хусусиятларни ёритишда ҳам аҳамиятлидир.

ҚАЗАҚ АҒАРТУШЫЛАРЫЛАРЫНЫҢ ҰЛТТЫҚ ТӘРБИЕ ЖАЙЛЫ КӨЗҚАРАСТАРЫ
VIEWS OF KAZAKH ENLIGHTENERS ON THE NATIONAL EDUCATION

К. Махмутова

Abstract: The article discusses the views of the enlighteners of the Kazakh people on national education and their importance in the spiritual education of youth. The educational value of Kazakh traditions and customs is revealed.

Key words: *spirituality, mentoring, national education, national culture, traditions*

Елбасының «Болашаққа бағдар: рухани жаңғыру» атты бағдарламалық мақаласында ұлттық сананы жаңғырту, ұлттық бірегейлікті сақтау, білімнің салтанат құруына қол жеткізу, ұлттық болмысымызды сақтап, тарихымызды жаңғырту, ұлттық тәрбиемен сусындаған кәсіби құзыретті мамандар даярлау мәселелері жайлы айтып: «Егер жаңғыру елдің ұлттық-рухани тамырынан нәр ала алмаса, ол адасуға бастайды. Жаңғыру атаулы бұрынғыдай тарихи тәжірибе мен ұлттық дәстүрлерге шекеден қарамауға тиіс. Керісінше, замана сынынан сүрінбей өткен озық дәстүрлерді табысты жаңғырудың маңызды алғышарттарына айналдыра білу қажет» дегенді айтты [Н.Назарбаев «Болашаққа бағдар: рухани жаңғыру» «Егемен Қазақстан» 2017 жылдың 12 сәуір].

Қазақстан Республикасының «Білім туралы» заңында «Білім беру жүйесінің міндеттері Азаматтық пен елжандылыққа, өз Отанын-Қазақстан Республикасына сүйіспеншілікке мемлекеттік рәміздерді құрметтеуге, халық дәстүрлерін қастерлеуге, әлемдік және отандық мәдениеттің жетістіктеріне баулу қажеттігі айтылған. Бұл бағытта қазақтың ақын - ағартушылары, ағартушы педагогтары құнды пікірлер қалдырған.

Абай Құнанбаев ұлттық тәлім – тәрбие мәселесіне философиялық тұрғыдан терең талдау жасап, жастардың дүние танымдық белсенділігін арттыруда, халықтың әдет – ғұрып

[1] Дадабоев Ҳ. Эски ўзбек тилида қиёслаш, ўхшатишнинг ифодаланиши // Лингвист IV.–Т.:Akademnashr, 2013.–Б. 4-11.
[2] To‘xliyev B.O‘zbek adabiyoti.–T.: O‘qituvchi , 2000. –B.132.

дәстүрін өз шығармаларында тиімді пайдалана білді [Жарықбаев Қ.Б., Қалиев С.Қ. 1998:39]. Абайдың әрбір өлеңінің мазмұнына жеке үңілсек, өмір көріністерін шебер тілмен өрнектегенін байқаймыз. Ақынның «Қансонарда бүркітші шығады аңға» атты өлеңінде қазақ халқының ежелден келе жатқан аңшылық дәстүрін, ұлттық кәсібін, тіршілік – тынысын тартымды суреттегенін көруге болады. Ғұламаның қара сөздерінде ата салтын сақтау өз ұлтының рухани мәдениетін сақтаумен туысқандарыңызбен, дос – жарандарыңызбен араласуға мүмкіндік тудыратыны туралы ол былай дейді, -«Тойларды – игі істерді көріп, бабалардың бізге тартқан үлкен сыйы деп есептеуге болады». Бұл ойдың астарынан бабалардың салт – дәстүрі – үлкенді сыйлау дегенді аңғару қиын емес. Әрине, ұлы Абай бұл жерде дәстүрдің жағымды жақтарын өнеге етеді.Тағы да бір ескертетін жайт, қазақ халқының кейбір салт – дәстүрі деп келеңсіз жайларды мінеуі. Мәселен, татар халқының білімге құмарлығы, өзбек ұлтының еңбекқорлығы және орыс халқының енжарлығы, жалқаулығы бар екендігін, ол одан әрмен әдетке сіңіп жалғасуын қатаң ескертеді. Абайдың қара сөздері мен өлеңдерінен тұрмыс-салттық және бала тәрбиесіне қатысты салт – дәстүрлердің түрлерін көптеп байқауға болады.

Халқымыздың аса көрнекті ағартушысы Ыбырай Алтынсарин бала тәрбиелеумен қатар жақсы мұғалімдер дайындауға, ғылыми - әдістемелік басшылық жасауға баса назар аударады [Алтынсарин Ы. 1994.28]. Шәкірттерін өнерлі азамат болуға шақырып, адал, шыншыл, еңбек сүйгіш, өнегелі азамат болуға шақырады. Сонымен қатар зиянды әрекеттен, жаман әдеттен жат мінезден бойын аулақ ұстауға шақырады. «Қазақ халқының келешегі - өнер – білімде», - деп көрсетті. Ол мектепте балаларды халықтық дәстүр, аңыз, әңгіме, мақал – мәтел үйрету негізінде ана тілінде оқытып тәрбиелеуге ерекше мән берді.

Шоқан Уалиханов өз халқының ғана тұрмыс тіршілігін, дәстүрлерін зерттеп қойған жоқ, сонымен қатар ұйғыр, қытай, дүнген, қырғыз жұртының салт – дәстүрлері, мәдени тұрмыстарын салыстыра зерттеп, ғылыми баға берген. Шоқан «Шаман дінінің қазақтар арасындағы қалдығы» атты еңбегінде қазақ пен қырғыз жұрты арасындағы шамандық дін ырымдарының ұқсастығын көрсетеді. Мысалы, отқа май құю, ауруды бақсы-балгерлердің отпен аластауы, «от анаға» табынудың бәрі жаратылысты ұлы көруден шыққан пікір айтқан. «Халық аузындағы нақыл сөздерді зерттеудің этнография үшін зор маңызы бар, себебі халықтың тұрмысы мен әдет – ғұрпы мұндай сөздерден айқынырақ көрінеді,-деп көрсетеді.

Қазақ халқының зиялы азаматтары А.Байтұрсынов, Х.Досмұханбетұлы, Ж.Аймауытов, М.Дулатов, М.Жұмабаев ұлт мәселесі, ұлттық тәрбие саласындағы іргелі сөз қозғап, құнды ой-пікірлер айтқаны белгілі. Олардың ұлттық педагогика идеяларына деген мұндай сенімі халыққа, оның мәдениеті мен әдебиетіне, тіліне, тарихына, салт-дәстүрлеріне деген сүйіспеншілігінен туындаған .

Қазақтың салт-дәстүрлерінің тәрбиелік мәнін көрсеткендерінің бірі – Халел Досмұханбетов. Оның «Сана», «Шолпан» журналдарында шыққан мақалалары мен «Қазақ әдебиеті» еңбегінде, қазақ мектебінің оқушылары мен мұғалімдеріне арнап жазған оқу құралдарында ұлттық тәрбие беру туралы ой – пікірлері көрініс тапқан. Х.Досмұханбетовтың «Аламан» (1926), «Қазақ халық әдебиеті» (1928) ауыз әдебиетінің тәлім – тәрбиелік мәнін ашуда халықтық салт – дәстүрлерді пайдалануды ұсынады [Досмухамедов Х. 1991: 74]. Ол « Қазақ халық әдебиеті» (1928) еңбектерінде қазақ халқының тәрбиелік тәжірибесін жоғары бағалап, ауыз әдебиетінің тәлім – тәрбиелік мәнін ашуда халықтық салт – дәстүрлерді пайдалануды ұсынады . Ол «Қазақ халқының тұрмыстық салт – дәстүрлеріне талдау жасап, оның тәлім – тәрбиелік мәнін ашып көрсеткен, халық әдебиетіндегі шілдехана мен бесік жырының тәрбиелік мәнін ашып, қазақтың тұрмыстық салт – дәстүріндегі өлген адамды жерлеу дәстүрімен байланысты шыққан көрісу, жоқтау, естірту сияқты халық салтының сыр – сипатына тоқталған. Сонымен қатар ол мадақтау, бата беру немесе қарғыс (теріс бата) айту сияқты елдің салт – дәстүрін ерекше атап көрсетеді. Х.Досмұханбетов қазақ халқының шаруашылық кәсібіне, тұрмыс тіршілігіне, киіз үйі мен ұлттық киімдеріне, бес қаруына, ер – тұрманына сипаттама бере отырып, олардың жас ұрпақты еңбекке, ерлікке, әсемдікке, адамгершілікке баулитындығын нақты деректермен көрсете білген Х.Досмұханбетов

халықтың ауыз әдебиетін өнер ғана емес, ол халықтың өткен салт – дәстүрлерінен хабар беретін таным құралы деген қорытындыға келеді. «Қазақ халық әдебиеті» очеркінде фольклорды тек жалаң сөз өнері деп қана қоймай, оны әдет – ғұрып, таным – сеніммен байланысты мәліметтерден бөле-жармай қарау керек»,-деп санап, ауыз әдебиетінің тәрбиелік мәнін халықтың салт – дәстүрлерімен бірлікте қарастырады, соның негізінде оларды тәрбиелік мақсатқа пайдалануды ұсынған. Өз халқының салт – дәстүрлерінен хабары жоқ жас ұрпақ өз мәдениетін білмейтін азамат болуы мүмкін деген пікірге келеді. Х.Досмұханбетұлы «Сана» журналындағы ұлттық мектептегі оқуға қойған талаптарында « ... таныстыру, бұрынғыдан қалған тамтықтарды қалай іздеу жайында, қалай пайдалану туралы баяндама беру қажет» деген пікір айтқан [Досмухамедов Х. 1991: 99].

Қазақ халқының салт – дәстүрлерінің тағылымдық мәні туралы бағалы пікір айтқандардың бірі – Ж.Аймауытов болды. Ол жас өспірімдерді халықтың өткендегі өмірімен таныстыру үшін халықтың салт – дәстүрлерін оның шаруашылық кәсібімен, мәдени өмірімен байланысты қарауды нұсқады. Ж.Аймауытов « Халықтың өткендегі салт – сана, әдет – ғұрпы, шаруашылық кәсібі және мәдени өмірінен хабардар болу үшін, төртінші сыныпта әдебиет, тарихты және географияны біріктіріп (интеграциялап), «Біздің Отан» деген атпен оқыту қажет дегенді ұсынады. Сонымен қатар Ж.Аймауытов «... балалардың күнделікті өмірдің тұрмыс – салты, тіршілігімен байланысты өз жұртының тарихын оқытудан бастаған жөн, басқа жұрттың тарихынан жергілікті тарихқа керекті, хәм қазіргі заманға қатысы бар жерлерін ғана алу керек» - деген болатын. Ж.Аймауытовтың бұл айтқанынан шығатын қорытынды – басқа елдің салт-дәстүрін білу үшін балаға өз халқының салт-дәстүрін үйретуден бастаған жөн, бала өз елінің әдет-ғұрпын білмейінше, басқа елдің салт-дәстүрін түсінуі, меңгеруі қиынға соғады.

Жүсіпбек Аймауытовтың ұлттық тәрбие туралы, ой пікірлері «Тәрбиеге жетекші» еңбегінде көрініс табады, ана тілі – тәрбие құралы, тәрбиенің ұлттық сиптта болуы құралы, 4 ұлттық мектепте ұлттық сипаттағы тәрбие жүйесі болу қажеттігі туралы ойлары көрініс табады. Оның 1918 жылы «Абай» журналында жарияланған «Тәрбие» атты мақаласында адам тәрбиесінің жемісі екендігін көрсетіп, бала тәрбиесіндегі ата-ананың рөлін, балаға өнеге көрсетудің ұтымдылығын айтады. Ж.Аймауытовтың «Психология» атты кітабында осы ғылымның негізгі категориялары мен әдет-ғұрып, салт-сана, дәстүр, мәдениет пен өнердің адамға әсерін талдау барысында, қазақтың ұлттық рухани мұрасынан алынған материалдар қолданылады.

Hüseyn Cavid özünün beş pərdəli məşhur "Topal Teymur" dramını 1925-ci ildə yazıb, 1926-cı ildə nəşr etdirmişdir. Bu əsərdə, H.Cavidin əvvəlki əsərlərindəki Əmir Teymur şəxsiyyəti ilə bağlı özünəməxsus işıqlı baxışları və fəlsəfi-tarixi ümumiləşdirmələri, nəhayət, öz bədii həllini tapmışdır. Nəticə etibarı ilə böyük cahangirin öz dövrünə nisbətən mütərəqqi rol oynayan əzəmətli və yetkin bədii obrazı yaradılmışdır. Əsərdə Əmir Teymurla Yıldırım Bəyazidin qarşılaşma səhnələri dramın ən canlı və təsirli səhnələrindən sayılır.Bu canlılıq və bədii vüsət, hər şeydən əvvəl, dahi dramaturqun bəşər tarixinə və müharibələr səhnəsinə, böyük və ziddiyətli tarixi şəxsiyyətlərə olan məhəbbətlərin hamısının fövqündə dayanan dərin bədii təhlilində və yüksək fəlsəfi baxışında özünü göstərir. Bu cəhətdən əsərin son qarşılaşmasından səciyəvi bir dialoqa diqqət yetirək:

"**Şair** *(səmimi və coşqun bir ahənglə). Məhəbbət! Məhəbbət!.. Əvət bütün bəşəriyyətixilas edəcək yalnız məhəbbətdir.Məhəbbətlə çırpınan bir çoban qəlbi, kin və ədavət püskürən bir sultan qafasından daha şərəflidir.*

Teymur. *Əcəba, məğrur Yıldırım nə düşünüyor?*

Yıldırım. *Düşünəcək bir şey yoq. Əvət, sən qalibsin. Lakin bu qələbə türk əqvamını deyil, yalnız fürsət bəkləyən qonşu hökumətləri məmnun etdi. (Acı bir köküs keçiirdikdən sonra, çoq mütəəssir və şiddətli) Ah, daha doğrusu, İslam aləmini başsız qoydu.*

Teymur *(iki-üç axsaq addımla Yıldırıma doğru gəlir, məğrur və gur bir səslə): Hiç məraq etmə, xaqanım! Sən kor bir abdal, bən də dəli bir topal! Əgər dünyanın zərrə qədər, dəyəri olsaydı, yığın-yığın insanlara, ucu-bucağı yoq məmləkətlərə sənin kibi bir kor, bənim kibi bir topal müsəllət olmazdı"* [4,s.365-366].

"Topal Teymur" tarixi dramının bədii xüsusiyyətləri və ideya istiqaməti haqqında Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığı və ədəbi tənqidində olan görüşlərdən söz düşəndə daha çox 1920-30-cu illərin məşhur tənqidçisi Mustafa Quliyevin "Maarif və mədəniyyət" məcmuəsinin 1926-ci il, 11-ci nömrəsində çıxan Hüseyn Cavidin "Topal Teymur haqqında" adlı məqaləsi ilə böyük Azərbaycan ədəbiyyatşünası, akademik Məmməd Cəfərin "Hüseyn Cavid" monoqrafiyasındakı "Topal Teymur və onun tənqidi" adlı yarımfəsili xatırlanır [5,s.11; 6,s.169-183]. Hər iki tədqiqatda Hüseyn Cavid dühasına və onun "Topal Teymur" dramının bədii cəhətlərinə diqqətli münasibətlə yanaşı, Əmir Teymur şəxsiyyətinin ziddiyyətli məqamları ilə bağlı əsər haqqında, daha doğrusu, ondakı Əmir Teymur obrazının səciyyəsi və cizgiləri haqqında bir sıra tənqidi mülahizələr də bildirilmişdir.

Fikrimizcə, həmin tənqidi mülahizələrin böyük əksəriyyəti sovet dövründə hökmən ideologiyanın milli-mənəvi dəyərlərin inkişafı və çiçəklənməsinə qarşı tətbiq etdiyi ideoloji yasaqlar və maneələrlə bağlı idi. Bununla belə, hər iki alimin, xüsusən, görkəmli cavidşünas Məmməd Cəfər Cəfərovun Hüseyn Cavid irsinin bütövlükdə üzə çıxmasında və doğru-düzgün qiymətləndirilməsində danılmaz xidmətləri ilə yanaşı, istər "Topal Teymur" tarixi dramına, istər Hüseyn Cavidin bütün digər əsərlərinə yeni baxışlarla və daha obyektiv yanaşan tədqiqatçıların yetişməsində gərgin əməyi vardır. Məhz belə böyük əməyin nəticəsində müstəqillik illərində Cavid irsi də, bu irsin tərkib hissəsi olan Əmir Teymurun obrazı da əntiq milli-mənəvi dəyərlərin ifadəçisi kimi daha geniş tədqiq olunmaqdadır.

Bütün türk dünyasının və Turanın tarixi taleyində mühüm rol oynayan Əmir Teymur şəxsiyyəti və fəaliyyətinə böyük maraq onun tarixi vətəni olan Özbəkistanda XX əsrin əvvəllərindən etibarən daha çox dramaturgiyada öz bəhrəsini verməyə başlamışdır. Özbək ədəbiyyatında, xüsusən dramatrugiya nümunələrində Əmir Teymur obrazından söz gedəndə ilk olaraq xatırlanan ədəbi

adlardan biri böyük özbək şairi, dramaturqu və ədəbiyyatşünası Əbdürrauf Fitrət və onun "Teymurun başdaşı" adlı birpərdəli dramı olur. Çox təəssüf ki, bütöv mətni və əsl nüsxəsi hər cür "qara qüvvələr" tərəfindən it-bata salınmış bu qiymətli əsərin məzmunu onun özbək ədəbiyyatşünasları və tarixçilərinin tədqiqatlarında əldə olunan ayrı-ayrı parçaları əsasında bərpa olunmaqdadır. Tanınmış özbək ədəbiyyatşünası H.Baltabayev özünün "Fitrət və cədidçilik" adlı monoqrafiyasında yazır: *"Ulu sahibqiran Əmir Teymur adı Fitrətin otuzdan artıq elmi və publisist əsərlərində çəkilir. Alim "Özbək ədəbiyyatı nümunələri"ndə"Teymurilər dövrü özbək ədəbiyyatı"nı ayrıca ədəbi dövr kimi tədqiq etməsinə baxmayaraq, birbaşa bədii əsərlərində Teymur simasını sonlandırmaq niyyəti ilə "Teymurun başdaşı" adlı səhnə əsərini dünyaya gətirir. Dramaturqun "Teymurun başdaşı" əsəri olduqca çox ədəbi tənqidə səbəb olmuşdur. Əsər 1919-cu ildə yazılıb, məhz həmin 1919-1920-ci illərdə Daşkənd və Səmərqənd teatrları səhnəsinə çıxmış olsa da, onun mətni indiyə qədər tapılmamışdır" [7,s.81*].

1937-38-ci illərin qurbanları olan bir sıra özbək şair və yazıçıları haqqında bir çox dəyərli tədqiqatlar müəllifi, akademik Naim Kərimov isə "Fitrətin şeytana üsyanı" adlı məqaləsində 20-30-cu illərin müxtəlif ədəbi mənbələrində və mətbuat səhifələrində saxlanmış məlumatlar və ayrı ayrı parçalar əsasında "Teymurun başdaşı" dramının məzmununu və mətnini bərpa etməyə can ataraq, hər şeydən əvvəl, diqqəti Ə.Fitrətin "Yurd qayğısı" adlı publisist məqalələr silsiləsinin "Teymurun önündə" hissəsinə yönəldir [8,s.3]. Sözügedən məsələdən bəhs edən bir sıra mülahizələr və müxtəlif təxminlər arasında böyük özbək şairi və dramaturqu Həmid Əlimcanovun 1936-cı ildə yazdığı, "Fitrətin ədəbi yaradıcılığı haqqında" məqaləsindəki aşağıdakı məlumat, fikrimizcə, "Teymurun başdaşı" dramının qayəsi və məzmunu haqda müəyyən təsəvvür yaradır: Müəllif "Teymurun başdaşına üz tutub, öz faciəsini danışaraq ağlayır: *"Xaqanın, əzilib talanmış, talanıb yıxılmış, yıxılıb yaralanmış türkyunlunun bir yavrusu səndən kömək istəməyə gəlib. Bağları viran qalmış, gülləri solmuş, bülbülləri perik düşmüş Turanın bir gözətçisi sənə şikayətə gəlib..."* [9,s.235].

Həmid Əlimcanovun məqaləsindən gətirilən yuxarıdakı sözlərin, daha doğrusu, "Teymurun başdaşı" dramından kiçik bir parçanın diqqətəlayiq tərəfi bir də ondadır ki, həmin sözlər fitrətşünas H.Baltabayevin "Doğu Türküstan dərgisi"ndən tapıb üzə çıxardığı Əmir Teymur monoloqunun aşağıdakı cümlələri ilə məntiqi və üslubi cəhətdən vəhdət təşkil edir. "Teymurun başdaşı" adlı bir pərdəli yığcam, təsirli dramatik nümunənin yuxarıda vurğulanan ayrı-ayrı parçalarının bir-biri ilə bu qədər yaxından səsləşməsinin başqa bir səbəbi Əmir Teymur obrazının şifahi xalq ədəbiyyatındakı mövqeyi ilə bağlı idi. Bu mənada Əbdürrauf Fitrət dramındakı milli-mənəvi dəyərlərlə əlaqəli motivlər əslində özbək xalqının qəlbində öz möhtəşəm keçmişinə olan ehtiramı və həsrəti əks etdirirdi. Ə.Fitrətin "Teymurun başdaşı" dramının tarixi əhəmiyyəti bir də ondan ibarətdir ki, o, özündən sonra türk xalqları dramaturgiyasında Əmir Teymur şəxsiyyətinə və obrazına marağın güclənməsinə ciddi təkan verdi.

Ə.Fitrətdən sonra özbək dramaturgiyasında Əmir Teymur obrazını canlandıran və onu yüksək bədiilik zirvəsinə qaldıran böyük özbək şairi və dramaturqu Maqsud Şeyxzadədir! Düzdür, Maqsud Şeyxzadə Əmir Teymur haqqında ayrıca dram əsəri yazmayıb, hətta Əmir Teymur obrazının yaratdığı "Mirzə Uluqbəy" faciəsində Əmir Teymuru öz adı ilə ənənəvi iştirakçıya da çevirməyib. Amma həmin "Mirzə Uluğbəy" faciəsində Teymurun ruhu kimi elə bir unudulmaz və möhtəşəm bədii obraz yaradıb ki, nəinki türk xalqları ədəbiyyatlarında, hətta dramaturgiyasında da Əmir Teymur obrazından söz gedəndə M.Şeyxzadənin adını çəkməmək mümkün deyil.

Sovet ideologiyası öz mövqeyini möhkəmlətdikcə milli-mənəvi dəyərlərin təmsilçisi olan keçmiş tarixi şəxsiyyətlərin bədii obrazını yaratmaq yolundakı qadağalar və maneələr daha kəskin şəkil alırdı. Ona görə də, Maqsud Şeyxzadə Əmir Teymur obrazını yaratmaq məqsədi ilə daha orijinal və daha örtülü yol tutmalı olmuşdu. Yəni, birbaşa Əmir Teymurun öz obrazını deyil, onun nəvəsi, "Mirzə Uluqbəy" faciəsinin baş qəhrəmanı olan dahi astronomun və böyük hökmdarın obrazını dolğunlaşdırmaq və yetkinləşdirmək üçün həyatının ən ağır anlarında onun baş məsləhətçisi kimi babasının ruhunu canlandırmalı olmuşdu. Nəticədə, yalnız V pərdənin II şəkilində iştirak etməsinə baxmayaraq, böyük dramaturqun dahiyanə bədii məharəti sayəsində Teymurun ruhu "Mirzə Uluğbəy" faciəsinin ən canlı, ən sirli və ən təsirli obrazlarından birinə çevrilmişdir. Təsadüfi deyil ki, faciədə Uluğbəyin öz babasının ruhu ilə qarşılaşma səhnəsini "Hamlet"də baş qəhrəmanın öz atasının

ruhu ilə söhbətinə bənzədərək, ədəbiyyatşünaslıqda Şeyxzadənin bu məharətini şekspiranə məharət adlandırırlar [7,s.84]. Bizim fikrimizə görə, sözügedən səhnə özündə şekspiranə məharətlə yanaşı, həm də cavidanə ruh və fitrətanə yanğı birləşdirir. Buna əmin olmaq üçün sözügedən səhnədən aşağıdakı parçaya dərindən diqqət yetirmək kifayətdir:

*" **Uluğbəy:***

...Eşit, Baba Teymur, sən eşit məni,
Saxlaya bilmədik əmanətini.
Sənin övladların namərd çıxdılar,
Eşit, Baba Teymur, sənə sözüm var!
Dünyaya sığmazdı qüdrətin sənin,
Niyə parçalandı dövlətin sənin?!...

Teymurun ruhu:

Vur, vur yağı qaçdı, ya allah, vur , vur.
Əzəldən qəlbimin şüarı, budur!
...Əzəldən belə bir qərarım vardır,
İki padişaha yer üzü dardır!
İki padişaha - İki allaha!..
...Mənim yer üzündə şüarım budur.
Vur, vur... Düşmən qaçdı. Ya allah, vur, vur! [10,s.167-169].

M.Şeyxzadə "Mirzə Uluğbəy" faciəsinə qədər öz qələmini dramatik janrda sınamasına baxmayaraq (məşhur "Cəlaləddin Mənquberdi" (1944) dramını xatırlayaq) "Maqsud Şeyxzadə" mnoqrafiyasının müəllifi Naim Kərimovun fikrinə görə, dramaturq "Mirzə Uluğbəy" Teymurilərin qəbrini açdığı vaxtlarda doğulub [11,s.235]. Əgər bu faktı nəzərə alsaq, Maqsud Şeyxzadənin Teymurun ruhu obrazını yaratmaq yolunda hansı məşəqqətli sınaqlardan və yaradıcılıq iztirablarından keçdiyini təsəvvürə gətirmək o qədər də çətin deyil.

Beləliklə, Azərbaycan və özbək dramatrugiyalarında Əmir Teymur şəxsiyyətinə və obrazına müraciətin səbəblərini və formalarını bir-bir nəzərdən keçirdikcə onlardan hər birinin bu və ya digər şəkildə milli oyanış və özünüdərk motivləri ilə yaxından əlaqəli olması inamına gəlirik. "Topal Teymur", "Teymurun başdaşı" və "Mirzə Uluğbəy" kimi dramatrugiya nümunələrindən hər biri öz vaxtında öz ədəbi-mədəni mühitində diqqət mərkəzində olan əsərlər sayılmaqla yanaşı özlərindən sonrakı dövrlərdə istər Azərbaycanda, istər Özbəkistanda milli-mənəvi dəyərlərə rəğbətin oyanmasında və güclənməsində də böyük rol oynamışdır. Əmir Teymur haqqında istər özbək, istər Azərbaycan ədəbiyyatında digər ədəbi janrlarda yaranmış və özlərində böyük cahangirin obrazının canlandırmış, yuxarıda dediyimiz kimi, xeyli bədii nümunələr mövcuddur. Ancaq onların arasında dramatik əsərlərinin, xüsusən, Hüseyn Cavid, Əbdürrauf və Maqsud Şeyxzadənin sözügedən dramlarının əvəzolunmaz mövqeyi və yeri vardır. Bu mövqeyin qazanılmasında "Topal Teymur", "Teymurun başdaşı" və "Mirzə Uluğbəy" faciələrinin öz səhnə və böyük uğurları ilə milli istiqlal məfkurəsinə xidmət göstərməsi xüsusi əhəmiyyətə malikdir.

Ədəbiyyat:

1. Ülvi, Almaz. Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri (dövrlər, simalar, janrlar, təmayüllər). – Bakı, Qartal, 2008, 326 səh.
2. Cavid, H. Əsərləri.Beş cilddə. II cild. - Bakı, "Lider nəşriyyat", 2005, 352 səh
3. *Cavid, H. Əsərləri. Beş cilddə.* V *cild.* Bakı, "Lider nəşriyyat",. 2005, 288 səh.
4. Cavid, H. Əsərləri. Beş cilddə. III cild. - Bakı, "Lider nəşriyyat", 2005, 304 səh.
5. Quliyev M. Hüseyn Cavidin"Topal Teymur" haqqında "Maarif və mədəniyyət"məcmuəsi, 1926, №11

6. Cəfər M. Hüseyn Cavid : [H. Cavidin həyatı, ədəbi mühiti və yaradıcılıq yolu]. - *B.*: Azərnəşr,*1960*. - *264 s*. 67.

7. Baltabayev H.Fitrat va jadidcilik, Toshkent. 2007, 286 bet.
8. Karimov N. Fitratning shaytonga isyoni. "Ozbekiston adabiyoti va sanati", 1993, 20 avqust.
9. Olimjon H. Tanglanan asarlar, III jild, Toshkent, 1960,. 235 bet.
10. Shayxzoda M. Saylangan asarlar, II jild, Bakı, 1973, 284 bet.

11. Karimov N, Maqsud Shayxzoda, Toshkent., 2010, 336 bet.

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИНСОНПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРИ
THE IDEA OF HUMANISM IN THE WORK OF ALISHER NAVAI

М.Бадалбаева,
Ўзбекистон Республикаси ФВВ Академияси,
Тиллар кафедраси бошлиги в.б.
Н.Усмонов,
Ўзбекистон Республикаси ФВВ
Академияси курсанти

Аннотация: ушбу мақолада буюк мутафаккир Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижодига бўлган илмий-назарий қарашлар акс эттирилган. Навоий ижодида инсонпарварлик ғояларини қанчалик даражада моҳирона ҳаётий ва фалсафий ёндашувлар асосида ёритилганлиги очиб берилган.

Калит сўзлар: *мумтоз адабиёт, шеърият, асар, ғазал, туркий ва форсий тиллар, инсонпарварлик, фалсафий ғоя, маънавий, одамийлик.*

Abstract: this article reflects the scientific and thereare viewson the life and work of the great thinker Alisher Navai.Navai's work reveals the extent to which humanist ideas are skillfully portrayed on the basis of life and philosophical approaches.

Key words: *classical literature, poetry, works, ghazels, Turkish and Persian languages, humanism, philosophical ideas, spirituality, humanity.*

Барчамизга маълумки, инсонлар онгли равишда қалбан ҳис қилиш, фикрлаш ва ижод қила олиш билан бошқа мавжудотлардан ажралиб туради.Шуни таъкидлаш жоизки, адабиёт ва китоблар инсоннинг нафақат қалбларини уйғотибгина қолмай, балки уларга ғайрат ва шижоат бағишлайди.Шу боис ҳам ижод учун қўлига қалам тутган инсон қанчалар буюк ва муҳим ишга қўл ураётганлиги ҳақида чуқур ўйлаб кўрмоғи лозим. Шу мулоҳазалар асосида мумтоз адабиётимизнинг буюк сиймоларидан бири Ҳазрат Алишер Навоийга юзланамиз.

Ҳазрат Алишер Навоийдек шахс адабиётнинг юксак намояндаси ҳисобланади.Низомиддин Мир Алишер Навоий 1441 йил 9 февралда Ҳирот шаҳрида туғилган. Навоийнинг шеъриятдаги илк устози тоғалари Мир Саййид Қобулий ва Муҳаммад Али Ғойибийлардир.Алишер Навоийнинг илмга бўлган иштиёқи жуда эрта уйғонган, у 4 ёшида мактабда таълим ола бошлаган.Навоий ҳазратлари 7 ёшларида Фаридуддин Атторнинг "Мантиқ ут тайр"асарини ёддан билганлар. 7 ёшли Низомиддин Мир Алишер Навоий буюк муҳаддисимиз Бухорий ҳазратларининг олти мингдан зиёд ҳадиси шарифларини ёддан билганлари ҳақида маълумотлар бор. Мир Алишер Навоий 7-8 ёшларидан бошлаб ғазаллар бита бошлаган, Навоийнинг туркий тилни қайта тирилтиргани маънавиятимиз учун улкан жасорат бўлган.Алишер Навоий 15-16 ёшларида ҳам туркий, ҳам форсий тилларда ижод қиладиган "зулисонайн – икки тилли" шоир сифатида танилган. Навоий асарлари Европада ҳам маърифатпарварлар эътиборини тортган, унинг бир қанча асарлари ғарбда маълум ва машҳур эди.1967 йилда француз олими Артолеме д'Эрбело "Шарқ кутубхонаси" номли энциклопедияда Навоийнинг таржимаи ҳоли ва асарлари номини келтирган (Сирожиддинов, 2018:15). Ўз қаламида дунё адабиётини тебратган буюк бобомиз Алишер Навоий ўсмирлик йилларида ўзи севган шоирларнинг эллик минг байтдан ортиқ шеърларини ёд билган.

Алишер Навоий туркий тилда ёзган шеърларига Навоий, форсий тилдаги ёзган шеърларига эса Фоний деб тахаллус қўйган. У форс адиблари билан назмда ҳам, насрда ҳам беллаша олган. Алишер Навоий бутун ҳаёти мобайнида адабий асарларни сиёсат билан бирлаштирган, илм, фан ва санъат ривожига улкан ҳомийлик қилган. Алишер Навоий

халқнинг тинчлик ва осойишталигини таъминлашга ҳамиша ҳаракат қилган.Алишер Навоийнинг сўнгги асари **“Маҳбуб ул-қулуб”** бўлган, бу асарда шоирнинг сўнгги ижтимоий ва сиёсий қарашлари шу билан бир қаторда умри давомидаги бутун ҳаётий кузатувлари ёритилган. Мир Алишер Навоий ҳаётда кўрган, кечирган, яхши ва ёмон кунлари, меҳру жафоларни ушбу мисраларда аниқ баён эта олган:

Гоҳе топдим фалакдин нотавонлиғ,
Гоҳе кўрдум замондин комронли
Басе иссиғу - совуғ кўрдум замонда,
Басе аччиғ - чучук тоттим жаҳонда (Навоий, 1983:11).

Англашиладики, саройда улуғ ўринга эга бўлган ҳазрат Навоийдек инсон ҳам қийинчиликларга рўбарў бўлган эканлар, чунки у кишининг обрўлари халқ орасида шунчалик машҳур эдики, душманлари буни кўра олмас, шу сабаб тури бўҳтон тарқатар, мутафаккирга тўсқинлик қилар эдилар.

Бугун биз буюк боболаримизнинг асл набиралари беқиёс истеъдод қаламидан тўкилган мана шундай сатрларни англаб, онгимиз ва юрагимиз билан бахрамандлик топамиз, узоқ-узоқ замонларнинг садосини тинглагандай бўламиз. Ҳазрат Навоий сўзларда чуқур маънолар яширин эканлигини билган, ҳис эта олган.Шу боис сўзни адабиёт калитига айлантирганлар. Ҳазрат Навоий ғазалларини ва асарларини ўқиб тушуниш, маънавий баҳраманд бўлиш махсус тайёргарликсиз бўлмайди, албатта шоирнинг асарларини англаш йўлидаги биринчи тўсиқ – Навоий ижод қилган эски ўзбек тилини махсус луғатлар ёрдамида тушунганимиздан сўнг ҳам, ўз навбатида шоир асарларини маъноларини пардалаб турувчи бошқа тўсиқлар пайдо бўлаверади.Булар, аввало, шоирнинг асарларини синчиклаб мутолаа қилиш, фалсафий ғояларини адабий анъаналарини ўрганиш орқали енгиб ўтиш мумкин. Мана шундай тинимсиз меҳнат мутолаа орқали ғазалларнинг биргина байти ҳам катта маъноларни ўзида жамлаган бутун бошли асар даражасига кўтарилганлигининг гувоҳи бўламиз. Буюк бобокалонимиз бошқа қитъаларда ва ҳатто бутун ер юзида маънавий таназзулга олиб келиши мумкин бўлган омилларни кўра билган. Навоий наздида фақат зоҳирий гўзалликка шайдо бўлганлар ҳам пок ишққа мансуб эмаслар.Шоир бундай кимсаларни покланмай туриб ибодат қилувчи фосиққа ўхшатади. Чунки зоҳирий гўзаллик ҳеч қачон инсонга вафо қилмаган, бугун бор бўлса, эртага йўқ.Шундай экан бундай гўзалликка кўнгил қўйиш ақл эгаларининг иши эмас. Шоир бу фикрни таъкидлаб дейди:

Ҳусни зоҳирнинг вафоси йўқтурур,
Ҳам саботу, ҳам баҳоси йўқтурур.
Ошиқу шайдо бўлурға арзимас,
Ишқидин расво бўлурга арзимас. (Навоий. Ҳикматлар, 298.)

Хулоса қиладиган бўлсак, бугун биз яшаётган ҳаётимизнинг ҳар бир жабҳасида ҳазрат Навоийга муҳтожмиз, у зотдан сўз кутамиз. Шоир ибораси билан айтганда ўзини “аҳли маъни”, яъни зиёлиман деб ҳисоблаган киши борки, ўз ҳаётини, маслагини Навоийсиз тасаввур қила олмаслиги керак.Айниқса, ижод аҳли. Чунки сўз айтиш қаламкашлар учун шунчаки кўнгил иши бўлмаслиги лозим.Ижод кўнгил ишидан ҳам юқори мақомга юксалиб, миллат, инсоният ғами, дарди миқёсида чиққандагина ўз вазифасини бажарган бўлади.Зеро, мутаффакир Навоий айтганидек, агар ўзингни одам деб билсанг, халқ ғамидан ўзга ташвишинг бўлмаслиги керак:

Одамий эрсанг демагил одами,
Онийким йўқ халқ ғамидин ғами (Навоий. Ҳикматлар, б. 5.).

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик.1-китоб. – Тошкент: Тамаддун, 2018. – 15-бет.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб.– Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.– 93 б.

3. Алишер Навоий. Ҳикматлар.Тўплаб нашрга тайёрловчи Э.Очилов. – Тошкент. 2006.– 408 б.

ALISHER NAVOIY IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI
THE EDUCATIONAL ROLE OF THE WORKS OF NAVOI

M.Abduvaliyeva,
O‘zRes Qurolli Kuchlar Akademiyasi
katta o‘qituvchi

Agar bu zotni avliyo desak, u – avliyolarning avliyosi,
mutafakkir desak – mutafakkirlarning mutafakkiri,
shoir desak – shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonchu qayg‘u,
ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir
jahon adabiyoti tarihida kamdan kam topiladi.
Islom Karimov

She’riyat mulkining sultoni, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiyning porloq nomi olti asrki, tillarda doston. Ulug‘ mutafakkir hayotiga va ijodiga oid ma’lumotlarni juda yaxshi bilishadi. Uning asarlari asrlar davomida boy ma’naviy ozuqa sifatida xalqimiz tafakkurini boyitib, ezgulik hissi bilan yashashga undab kelmoqda. Ulug‘ mutafakkir tug‘ilgan kun mamlakatimizda har yili qutlug‘ sana sifatida tantana qilinadi. Ushbu kunda xalqimiz buyuk shoir dahosiga yana bir karra ta’zim bajo etadilar. U kishining porloq xotirasiga ehtirom ko‘rsatish va yoshlarimiz tarbiyasiga ahamiyatli tomonlarini tushuntirish lozimdir.

Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o‘zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o‘ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Ulug‘shoirning asarlari hayotlik davridayoq Xitoydan tortib Kichik Osiyogacha yetib bordi va hozirda butun dunyo xalqlari ham sevib o‘qishmoqda. Navoiy vazirlik vaqtida ham xalqning ta’lim olishiga katta diqqat qaratar edi. Uning qo‘llab-quvvatlashi sababli do‘sti Sulton Xusayn Boyqaro ham ilm-fan uchun davlat g‘aznasidan kattagina pul ajratib bergan ekan.Hazrati Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotining eng yuksak cho‘qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik **“ko‘p va xo‘b”***(Bobur)* yozmagan edi. Aytish mumkinki, undan keyin salkam olti yuz yil ichida ham hech kim u kabi ko‘p va yaxshi yozolgani yo‘q. Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiridir. U o‘zini “Xitodin to Xuroson” gacha yoyilgan turkiy **“qavm”** larning shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog‘i ostida birlashtirdi – **“yakqalam”** qildi. Buyuk shoir Xurosonda, uning poytaxti Hirotda yashab ijod qildi. Navoiy yashagan davrda Xuroson va Movarounnahr bir mamlakat bo‘lib, taxt egasi ixtiyorida kelganligi va aholisining asosiy nufuzini turk xalqlari tashkil etganligi ma’lum.

Hirot ichra tug‘ildi ulug‘ zot,
Qozondi dunyoda ilm-la zo‘r ot.
Taxallusi bo‘ldi Navoiy, ismi Alisher,
Futun maydonida erlar aro er .
Toki yangrar hayot qo‘shig‘i,
Ochiladi orzu eshigi.
Tebranadi xalqim beshigi,
Navoiydan so‘z ochsam agar.
Jahon umriga teng Navoiy umri,
She’riyat ahlining bayroqdori ul.
G‘azal olamida nidosi amri,
Qo‘shig‘i kuy bo‘lib yangragay mangu.
Kelajakka qo‘yib poydevor,

Tarix so‘zlar ko‘zgusiga bo‘y.
Nazm oqar azim shiddatkor,
Og‘ushiga tortib ketar oy.

Navoiy o‘z asarlarida va Xurosonning vaziri a’zami sifatidagi faoliyatida insonni ana shunday tushunishni, qadrlashni, himoya etishni va savob ishlarga da’vat qilishni muqaddas vazifa deb bildi. Insonni tavsiflashda Navoiy bir yoqlama mubolag‘aga yo‘l qo‘ymaydi, u odamning ojiz tomonlari borligini ham tan oladi. Ammo inson o‘z fazilatlarini himoya qila va saqlay olsa, uning hayot uchun kurashida fazilatlari ustun chiqishiga chuqur ishonch izhor etadi: Bordir inson zotida oncha sharaf, Kim, yamon axloqin etsa bartaraf.

Navoiy nafaqat shoir, tarjimon, tilshunos olim, balki davlat arbobi sifatida ham tarixda katta iz qoldirgan. Ana shuning ucun uning ko‘p ruboiylari, dostonlari xalqni qay yo‘sinda baxtli-saodatli qilmoq mumkin, savoliga javob tariqasida yozilgandir. Alisher Navoiy dunyoni tushunib o‘tdi. Shu bois, alg‘ov-dalg‘ov zamonlarda botinan xotirjam yashadi. Zotan, Nozim Hikmat ta’biri bilan aytganda: “tushunmak – buyuk xotirjamlik”, – deganidir.

Navoiy yashagan davrdan buyon besh asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi. Movarounnahr tuprog‘i ne-ne bosqinlarga, toju taxt uchun qonli kurashlarga sahna bo‘ldi. Ammo shoir ijodining qimmati aslo pasaymadi. Har avlod undan o‘zi uchun nimadir topdi. Navoiy asarlari xalqimiz uchun ma’naviy quvvat va yuksalish manbai bo‘ldi.

Navoiy shaxsiyati va ijodini taqdid etish XV asrdan buyon olimlar, shoirlar, tarjimonlar, kotiblar, naqqosh va musavvirlar diqqat markazidagi masalalardan biri bo‘lgan.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov Alisher Navoiy haqida: “Alisher Navoiyni bilish, uning madaniyatini his qilish, umuman, Alisher Navoiyni emas, balki, mumtoz adabiyotni bilish, har bir farzand uchun ham qarz ham farzdir” deya fikr bildirgan edi.

Alisher Navoiyning onasini madh etib O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov shunday degan:

Bilmam qanday ayol bo‘lgan
Alisherning onasi.
Balki uning qalbiga ham
Lol qolgan zamonasi.
Balki uning ko‘zlarida
Bo‘lgan og‘ir bir xayol.
Balki g‘amgin zotdir u ,
Balki sho‘xchan bir ayol.
Balki buyuk farzandiga
Terib bergan chechaklar.
Balki tunlar unga bedor
Aytib bergan ertaklar.
Mayliga u kim bo‘lmasin,
Yolg‘iz bir so‘z ma’nosi
Alisherning onasi u,
Navoiyning onasi.

Navoiyning usbu hikmatlarini o‘qib, uning tubida qanchadan qancha tarbiyaviy ma’no borligini ko‘rib lol qolmaslikning iloji yo‘q .

Hikmatlar:

1. Odami ersang demagil odami,
Oni kim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.
2. Tiling bilan ko‘nglingni bir tut.
3. Don sochib ekin o‘rmagan,
Bilim olib amal qilmaganga o‘xshar.
4. Befoyda so‘zni ko‘p aytma.
Foydali so‘zni eshitishdan qayta
5. Oz- oz o‘rganib dono bo‘lurö

Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur
6. Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim
7. Kishining eng muhim burchlaridan biri ota – ona hurmati
8. Yaxshilik istasang, yaxshilarga qo‘shil
9. Tilga ixtiyorsiz, ega e’tiborsiz .
10. Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma

Bugun Alisher Navoiy haqli suratda jahon madaniyatining mumtoz vakillari safidan o‘rin oldi. Uning asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilindi. Dunyo ahli uning merosi bilan qiziqmoqda, asarlarida tarannum etilgan olijanob g‘oyalar va falsafiy mushohadalaridan zavq olmoqda. Shoir haykallari Yaponiyaning Soka universiteti hovlisida Moskva va Boku shaharlarida qad ko‘tardi.

Barcha daho san’atkorlar singari Alisher Navoiy ham o‘zining nomi va yaratgan asarlari osha yashab qolishiga ishongan edi. "Umidim uldurki va xayolimga andoq kelurki, so‘zim martabasi avjdan quyi enmagay va yozgan asarlarimning tantanasi a’lo darajadan o‘zga yerni yoqtirmagay", – deb yozgan edi ulug‘ shoir. Bu bashoratomuz so‘zlar ijobat bo‘ldi. Endilikda shoir so‘zlari dunyo bo‘ylab o‘zining yuksak parvozini davom ettirmoqda. Xulosa so‘ngida shuni aytish joizki, o‘zbeк xalqining uchta baxti bor. Birinchi baxti mustaqillik, ikkinchi baxti yerosti va yerusti boyliklari bo‘lsa, uchinchi baxti Navoiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatov O. Alisher Navoiy va Amir Temur (http://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/olimjon-davlatov-alisher-navoi-va-amir-temur/)
2. Qudratullayev H. Hech kim Mir Alisher Navoiychalik javob yozolmagan(http://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2011-7/)
3. http://www.ziyouz.com/images/books/farhod_va_shirin.jpg
4. (http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_remository&Itemid=57&func=fileinfo&id=966)

NAVOIY ASARLARINING TA’LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI
THE EDUCATIONAL ROLE OF THE WORKS OF NAVOI

M.Badalbayeva
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi
Tillar kafedrasi boshlig‘i v.b,
T.Kalkorazov
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi
4-kurs kursanti

Annotatsiya: maqolada qadimiy merosimiz ildizlarini ko‘rsatish, o‘tmishdagi boy an’analarni, milliy qadriyat va ma’naviy boyliklarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etish bugungi hayotimizning bosh vazifalaridan biriga aylanganligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim-tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, ulug‘ mutafakkir, urf-odat, ilm-fan.*

Abstract: The article says that the demonstration of the roots of our ancient heritage, the introduction of the richest traditions of the past, national values and spiritual values into the structure in the new society has become one of the main tacks of our life today.

Key words: *education, spiritual value, a great thinker, traditions, science.*

O‘zbekiston davlatining mustaqillik davridagi taraqqiyoti ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha qirralarida bo‘lgani singari madaniy-ma’rifiy sohalarda ham tarixiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Istiqlol mafkurasi tufayli “Tilimizni, dinimizni, urf-odatimizni, ma’naviy qadriyatlarimizni butkul yo‘qotib qo‘yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni

va qudratini tiklash…” [Karimov, 1993-yil: 71] darajasiga erishdik. Qadimiy merosimiz ildizlarini ko‘rsatish, o‘tmishdagi boy an’analarni, milliy qadriyat va ma’naviy boyliklarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etish bugungi hayotimizning bosh vazifalaridan biriga aylandi. Yosh avlodni har tomonlama bilimli va barkamol, komil inson qilib tarbiyalash zamon talabidir. So‘z mulkining sultoni, o‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkiri, ma’rifatparvari Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e’tibor bergan. U bolalarni ilm-hunarni, mehhnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo‘lida sarf qilish zarurligini uqtirdi, aql, ilm insonning eng go‘zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish-o‘rganish kerak: *Yigitlik chog‘i yig‘gil ilm mahzani, Qarilik chog‘i sarf qilgil ani*, degan shoirning o‘zi ham juda yoshligidan ta’lim oladi, o‘qishga beriladi. Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma’rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi.

Navoiy ilm-ma’rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma’naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo‘la olganligida deb biladi. Ilm o‘zidan o‘zi bo‘lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo‘la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma’no mujassamdir. Uning hikmatlarida, avvalo, ilm-ma’rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o‘rinni egallaydi.

Birovkim qilsa olimlarga ta’zim,
Qilur go‘yoki payg‘ambarga ta’zim.

Shoir olim ahlini qadrlaydi, ulug‘laydi. Olimlarga ta’zim qilish payg‘ambarga ta’zim qilsh bilan barobar ekanligini ta’kidlaydi. Jumladan:

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

Navoiy kishi bilimga ega bo‘lishi uchun oz-ozdan o‘rganib borishi lozimligini, bilimlari yig‘ilib ma’lum ko‘nikmaga ega bo‘lishi mumkinligini yozadi va buni tomchi-tomchi suvlar yig‘ilib daryoga aylanishiga o‘xshatadi

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Ushbu jumlalarda birinchi ustoz haqida gap boradi. Ilk ustoz tolibiga savod chiqarishida ko‘maklashadi, bu bilan uning hayot yo‘lini – to‘g‘ri yo‘lni belgilab beradi. Ustozning bu xizmatini yuzlab xazinalar bilan ham to‘lay olmaslikni Navoiy shu ikki misrada bayon qiladi.

Navoiyning yirik “Xamsa” asarining har bir dostonida ta’lim-tarbiyaga doir qarashlar ilgari surilgan Xususan, “Hayrat ul-abror” dostonining bir necha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug‘lab, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o‘stirish, o‘qitish va balog‘atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo‘lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta’riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a…
Tun-kunungga aylagali nurfosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh…

Dostonning o‘n birinchi maqolotida Navoiy ilm-fanga, ilm ahliga yuksak baho beradi. Kishilarni ilm olishga, olimlarni izzat-hurmat qilishga chaqiradi. Shu bilan birga, shoir o‘sha davrda mehnatkash va musofir talabalarning ilm olish yo‘lida chekkan mashaqqatlaridan, ilm-fan egalarining muhtojlikda yashaganlaridan afsus-nadomatlar chekadi.

Navoiy ilmdan amalda foydalanish zarurligini ta’kidlaydi:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Endiki ilm o‘ldi amal aylagil.

Shu tariqa Navoiy bolalarni ilmni puxta egallashga chaqirib, buyuk pedagog hamda murabbiy sifatida ularni tarbiyalash va o‘stirish yo‘llarini ko‘rsatadi.

“Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerakligini” [Karimov, 1999-yil: 55] har bir murabbiy chin yurakdan his qilmog‘i lozim. Buni o‘quvchi yoshlarga tez va oson yetib borishini ta’minlashda esa, bizga adabiyot fani yordamga keladi. Chunki, adabiyotning bosh vazifasi ham tarbiyalashdir. O‘z shaxsiyati va asarlari bilan insonlarga ibrat bo‘la oladigan, ularga ma’rifat nuri ulashadigan buyuk siymolarning hayoti va faoliyatini o‘rganishimizning ham asl mohiyati shunda. Maktabgacha va maktab yoshidagi o‘quvchilar ustozining har bir aytgan gapini yodda saqlashga harakat qiladi, xotirasiga abadiy muhrlaydi. Badiiy asarlar ta’lim va tarbiyaning asosiy negizi, o‘qituvchi asarlarning tub negizini o‘quvchilarga yetkazib bera olsa, uning eng katta yutug‘i sanaladi. Biz yoshlar, bo‘lg‘usi pedagoglardan buyuk mutaffakir bobomizning tayyor ilmiy-badiiy merosini kelajak avlodlarga to‘la-to‘kisligicha yetkazib berish talab etiladi. Hazrat Navoiyning har bir aytgan jumlasi olam-olam ma’nolarni o‘zida mujassam etgan. Uning ijodini o‘rganish har bir o‘quvchiga keng qamrovli, yuksak bilimlar berad. Mutaffakir bobomizning qay bir asarini qo‘limizga olmaylik, albatta, ta’lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan turli- tuman voqea hodisalar, inson ruhiyati, ichki dunyosi, ma’ishiy hayotdagi qusurlar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari borasida yozilganligining guvohi bo‘lamiz. Navoiy ilm o‘rganishga intilishni inson kamolatini ta’minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb bildi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g’oyalar yordamida kishilarni ilmli va ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Mutafakkir ilm o‘rganishni har bir kishining insoniy burchi deb e’tirof etadi. Zero, ilm o’rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo‘lishini ta’minlashga hissa qo’shishdir, deya ta’kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o’z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo‘lida faoliyat olib borishlari shubhasizdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Istiqlol va ma’naviyat” – T.:O’zbekiston.1993-yil, 71-bet.
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1999-yil, 55-bet.

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA IJTIMOIY TILSHUNOSLIK BA‘ZI ASPEKTLARINING AKS ETTIRILISHI XUSUSIDA

ON OF SOME ASPECTS OF SOCIAL LINGUISTICS IN YUSUF KHOS HOJIB‘S WORK "KUTADGU BILIG"

X. Imamova
PhD, dotsent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotation: This article reveals that the sociolinguistic approach to the socio-linguistic-cultural trinity of KutatguBilig, a written monument of the Turkic peoples, shows that this field dates back to ancient times in the life of the Turkic peoples.

Keywords*: Kutatgu Bilig, society, language, culture, sociolinguistics.*

Turkiy xalqlarning yozma yodgorligi hisoblangan “Qutadg‘u bilig” adabiy, ta’lim-tarbiya va axloq-odob haqidagi didaktik asarlari [Султонов, 1980: 231] barchamizga yaxshi ma’lum. “Qutadg‘u bilig” asarini o‘qigan kishi uning serqirraligi, ochilmagan tomonlarining ko‘pligiga amin

boʻladi. Shulardan, *jamiyat-til-madaniyat* uchligini tashkil etuvchi asardagi sotsiolingvistik yondashuv bu sohaning turkiy xalqlar hayotida eski davrlarga borib taqalishini koʻrsatadi.

Ijtimoiy tilshunoslik yoki sotsiolingvistika tilning ichki tuzilishini emas, balki ijtimoiy vazifasini namoyon etadi. Asardagi qahramonlar: Kuntugʻdi – xon – adolat, Oytoʻldi – vazir – baxt, Oʻgdulmish – vazirning oʻgʻli – aql, Oʻzgʻurmish – vazir oʻgʻlining doʼsti – qanoatni – *jamiyat va uning vakillari* deb olsak; ular soʻzlashayotgan til – *qadimgi turkiy til*, shu jamiyatning oʻziga xos tili mavjudligi boʻlsa; aynan mana shu jamiyatda tilning nutqda qay tarzda namoyon boʻlishi bu – *jamiyat madaniyatini* aks ettiradi. Yana ijtimoiy tilshunoslik uchun asos qilib olinuvchi *standartlash, hayotiylik, tarixiylik* singari oʻlchovlar “Qutadgʻu bilig” asari tilini toʻlaligicha qamrab olgan.

Til kishilar orasidagi asosiy muloqot vositasi boʻlish bilan bir qatorda xalqning hayotiy tajribasini, anʼanasini, milliy xarakterini va hatto bilim darajasini aks ettiruvchi koʻzgudir [Ирискулов, 1992: 165].

Ushbu asar qahramonlari, jamiyat aʼzolari boʻlgan Kuntugʻdi, Oytoʻldi, Oʻgdulmish, Oʻzgʻurmishning muloqot jarayonida tildan foydalanish qonun-qoidalariga amal qilishi, nutq madaniyati sifatida har qanday vaziyatda til vositalaridan ayni oʻrinda toʻgʻri keladiganini tanlay bilishini ularning nutqida koʻrish mumkin.

Айур мэн битидим тилäким сöзум
Тилин сöзлämишни эшиттиŋ**көзум**[КБ.: 3730; 580].
Айтди: Мен тилагим, сўз(лар)имни ёздим,
Тил билан сўзлаганларимни эшитдинг,(эй) **кўзим** (қароси) [КБ.:3730; 581].

Katta yoshdagilarning oʻzidan kichiklarga, mansab va lavozimidan qatʼiy nazar, munosabat ifodalashida -im egalik qoʻshimchasining, asosan, undalmalarga qoʻshilishi kuzatildi. Bu ifoda shakli bugun ham zamonaviy oʻzbek tilida keng ishlatilada. Morfologik jihatdan hozirgi zamon oʻzbek tilidagi - im egalik qoʻshimchasi otlarga, sifatlarga qoʻshilib, egalikdan tashqari samimiylik, hurmat maʼnosini ifodalaydi. Manbada va oʻzbek tilidagi transkriptsiyada bu yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Manbadagi leksik birliklar orqali munosabat ifodalanishida koʻproq antonimli holatning ustunligini kuzatish mumkin. Hurmat maʼnosi hurmatsizlik bilan ketma-ket kelganda uning ahamiyati ortadi. Zamonaviy oʻzbek tilida hurmatning olmoshlar yordamida ifoda etilishi maʼlum. Diaxronik aspektda bu olmoshlarning funktsiyasini qayd etgan taniqli nemis tilshunosi K. Gronberg sanaladi [Grönbech, 1995: 182]. “Qutadgʻu bilig” asarida esa hurmat va hurmatsizlikning olmoshlar yordamida ifodalanishi zid maʼnolik shaklida yonma-yon ochib beriladi.

Seni **siz** tesälär anı **siz** tegil
Taqı anda yegräk yanut sözlägil[КБ.: 4208; 644].
Сени сиз десалар, у(лар)ни сиз дегин
Ундан янада яқинроқ жавоб сўзлагин [КБ.: 4208; 645].
Qaya yanqusında qudı bolmağıl
Seni **sen** tegäy ol anı **sen** tegil [КБ.: 4209; 644].
Қоянинг акс-садосидан қуйи бўлмагин
У сени сен дейди, уни сен дегин(чи) [КБ.: 4209; 645].

“Qutadgʻu bilig” asarida yana olmoshlardan tashqari qarindosh-urugʻ nomlari orqali ham juda chiroyli munosabat ifodalanishiga duch kelinadi. Qarindosh-urugʻ nomlari bilan qarindosh boʻlmagan, begona kishilarga murojaat axloq-odob anʼanasi, xalq madaniyatining belgisi sanaladi. Buni bugungi kunda oʻzbek tilida juda koʻp uchratamiz. Uning sababi, tarixiy ildizi “Qutadgʻu bilig” asariga borib taqalishini misollardan koʻrish mumkin.

Қалы умдусы болса бу умдучы
Атағай сэни ул **ини** йа **эчи**[КБ.: 4112; 632].
Агар (бирор) тамаси бўлса, бу тамагир
Сени ини ёки ака деб атайди [КБ.: 4112; 633].

Qarindosh-urug‘ nomlarining qo‘llanilishida “men sizni o‘z yaqinimdek, qarindoshimdek, qadirdonimdek ko‘rdim” degan ma’no ifodalanadi. Begona kishilar orasidagi murojaatda hurmat yuzasidan qarindosh-urug‘ nomlarining qo‘llanilishida samimiylikdan tashqari tamagirlik, ishi bitgunicha soxta hurmat ifodalashda ham qarindosh-urug‘ nomlarining ishlatilishi ta’kidlanadi.

Kichiklar ulug‘larning huzuriga kirganda qo‘llarini qovushtirib, tik turish odobdan sanaladi. Hurmat, faqat harakat va ramzlarda namoyon bo‘ladi. O‘tirish uchun taklif etilmaguncha o‘tirilmaydi. O‘tirishga taklif etilganda ham tik qarash axloqsizlik hisoblanadi. Bu udumga hozirgacha amal qilinadi. Xalq orasida “ko‘zimga (tik) qarab yolg‘on gapiradi” yoki “kiprik qoqmasdan yolg‘on gapiradi” iborasi ishlatiladi. Ularda “uyalmasdan”, “hurmatsizlik qilib” singari ma’nolar yashiringan. Bu “Qutadg‘u bilig” asarida shu shaklda uchraydi.

Uluğ hurmatı bar ajunda töru
Uluğ kelsä qopğil adaqın öpu [КБ.: 4050; 624].
Yaraşur uluğqa kiçig hurmatı
Uluğ ma kiçigkä qılur-oq köpu [КБ.: 4051; 624].
Жаҳонда улуғ ҳурматини қилиш одати бор,
Улуғ келса, оёққа тик тургин [КБ.: 4050; 625].
Улуққа кичик ҳурмати (жуда) ярашади,
Улуғ ҳам (уни) кўриб кичкинага (ҳурмат) кўрсатади [КБ.: 4051; 625].

Yoshi ulug‘ insonlar kirib kelganida o‘tirganlar turadi, turganlar esa odob saqlaydi. Hurmat tushunchasi faqat kichiklarning kattalarga munosabatida aks etib qolmasdan, katta yoshlilarning kichik yoshlilarga ko‘rsatiladigan munosabatlaridan namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Bu an’ana, nafaqat XI asr uchun, balki bugun uchun ham ahamiyatlidir. “Qutadg‘u bilig” asarini o‘qigan har bir o‘quvchi axloq-odob qoidalarining eng mayda tomonlariga ham e’tibor qaratishni o‘rganadi. Atrofimizdagi kishilargagina emas, ixtiyor yolg‘iz o‘zimizda qolganida ham hushyor bo‘lish ta’kidlanadi:

Özüŋ oldrur ersa bu özuŋ bilin
Kişig satğamağıl kişilik qılğın [КБ.: 4010; 618].
Ўзинг ўлтирадиган бўлсанг, ўрнингни билгин,
Одамни оёқ ости қилма,одамийлик қилгин [КБ.: 4010; 619].

Bundan xulosa, hurmat ko‘rsatish uchun yoshi albatta ulug‘ bo‘lishi shart emas. Kichik yoshli kishilar orasida ham odam o‘zini tutishi shart. Kichiklarga ham hurmat bilan munosabatda bo‘lginki, ularning ham ko‘ngli og‘rimasin. Bunday yaxshi xislatlar tarbiyaning negizida bo‘lsa, hech qachon kishi o‘zgarmaydi. Atrofidagilar hamisha undan mamnun qoladi.

Bu Aytoldı girdi köründü sökup
Açıldı elig köŋli ul köz yarup [КБ.: 567; 142].
Yüküdü eligkä köp açtı sözü
Süçutti sözü ham sevitti özü [КБ.: 568; 142].
Ойтўлди кирди, чўкиб таъзим билан кўринди,
Элигнинг кўзи равшанлашиб, кўнгли ёзилди [КБ.: 567; 143].
(Ойтўлди) элигга таъзим қилди, кўргин, сўз бошлади,
Ширин сўзлади ва ўзини элигга севдирди [КБ.: 568; 143].

Bu misollar shuni ko‘rsatmoqdaki, Yusuf Xos Hojib yashagan jamiyat, jamiyatda muloqot munosabatiga kirishgan kishilar qo‘llagan kodlar shu jamiyatdagi muhitiga, jamiyat kishilarining jamiyatdagi o‘rniga, shu o‘rinda qo‘llaydigan o‘zining nutq madaniyati va axloq-odob normalariga mos kelishi zarurligini namoyon etadi. Bu xalqalarning bir-biriga uzviy bog‘lanishi ayni paytda jamiyat kishisining madaniyatini ham aks ettiradi. Agarda ular orasidagi mana shu uzviylik yo‘qolsa, nutqning ta’sir kuchi ham o‘z-o‘zidan yo‘qoladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” epik asarini axloq- odob qonunlarining boshi, shuning bilan birga sotsiolingvistikaning asosi deyish o‘rinli. Insonlar orasidagi ijtimoiy munosabatlar birinchi planda yoritiladi. Shu sababli, axloq-odob va hurmat tushunchalari bir an’ana sifatida yillar, asrlar osha yashab kelmoqda. Turkiy xalqlar hayotida “Qutadg‘u bilig” asari *jamiyat-til-madaniyat*ni qamrab oluvchi va ularga asoslangan nasihatlar, maqollar va masallar orqali jamiyatni yoritib beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Grönbech K., Der Türkisahe Sprachbau, Kopenhagen, 1936, Türkçenin yapısı, Çeviren: Akalın M., Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu, Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara, 1995. S. -182.
2. İmamova H. Yusuf Has Hacib‘in ‘Kutadgu Bilig‘ Eseri Eski Türklerin Estetik Görüşlerini (Nezaketi) Açıklamada Önemli Kaynak // Истоки и эволюция литератур и музыки тюркских народов. Материалы международной конференции 23-24 сентября 2014 года. – Казань. Стр. 125-127.
3. Ирисқулов М., Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1992, 165-бет.
4. Султонов И., Адабиёт назарияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980, 231- бет.
5. КБ–Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Қ.Каримов. –Тошкент: Фан, 1971.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ “ТИЛ МАСАЛАСИ” ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИ
THE VIEWS OF MAKHMUDKHOJA BEHBUDI ON “THE LANGUAGE ISSUE”

Эшпўлат Жабборов,
Қарши ДУ доценти, филология фанлари номзоди, доцент

Annotation. This article deals with the issues on the agenda in “The Problem of Language” article of Makhmudkhoja Behbudi about language. It is based on the that fact the views of the scholar have not lost their relevance even todey.

Keywords: “Language issue”, Arabic and Persian, Ottoman Turkish, Iiterary language, vernacular, Chegatoy.

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг тил мавзусига бағишланган мақолаларидан бири “Тил масаласи” деб номланади. Мақола 1915 йилда ёзилган бўлиб, “Ойна” журналининг 11-12-сонларида чоп этилган. Мақолада ўзбек тилининг имлоси ва адабий тил билан боғлиқ бир қатор долзарб масалалар хусусида фикр юритилган.

Беҳбудий туркий тилларни араб ва форс тилларининг таъсир даражасига қараб маълум гуруҳларга ажратиб ўрганади. Ўша давр лингвистик адабиётларида таъкидланишича, форс ва араб тилларини энг кўп қабул қилган тил усмонли турк тили бўлган. Бу тил оддий халқ тилидан узилиб қолган бўлиб, унда битилган битикларни фақат зиёли кишигина тушуна олган. Чунки усмонли турк тили турк халқининг адабий тили саналган. Маҳмудхўжа Беҳбудий бу ҳақда қуйидагиларни ёзади: “Туркларнинг баъзи тоифаси форсий ва арабийни у қадар кўп олдиларки, тиллари туркий, форсий ва арабийдан қўшулиб, “усмонли тили” аталади. Ушбу уч тилни адабиёт ва қоидалардан бохабар бўлмагунча усмонли шевасинда ёзмоқ мумкин эмасдир…”[Беҳбудий, 1999. 183].

Маҳмудхўжа Беҳбудий ўзбек хаклқларининг тилида форс ва араб сўзларининг таъсири қай даражада экани ҳақида ҳам сўз юритади. Олимнинг таҳлили асосида шуни айтиш мумкинки, Фарғонанинг Қўқон ва бошқа шаҳарларида форсий тилда сўзлашувчи аҳоли нисбатан кўп. Тошкент шаҳри ва Сирдарё вилоятида форсий тилнинг таъсири камлиги қайд этиб ўтилади [Нурмонов. 2002, 126]. Беҳбудий қайси жойда форсий тилнинг таъсири кучли бўлса, ўша ерда араб тилининг ҳам таъсири катта эканлигини таъкидлайди. Туркистоннинг Мовароуннаҳр ва Ҳазор қисмида туркман тилининг таъсири юқори эканлиги кўрсатилади. Шунга қарамай, ҳамма жойда Алишер Навоий, Фузулий асарлари бир хилда ўқилади ва шу тушунилади. Олим бу ҳолатни таҳлил этар экан, барча жойда бадиий асарларнинг

тушунилишини таъминловчи асосий восита адабий тил эканлигини уқтиришга ҳаракат қилади.

Муаллифнинг фикрлари асосида шундай хулоса қилиш мумкинки, адабий тил жонли халқ тилидан озиқланиши, шу асосда бойиб бориши керак. Олим халқ жонли тили ва адабий тилни фарқлаган. У туркий тилларнинг бир нечтасини ўрганиб чиққан ва шу асосда озарбайжон, Қрим татар тиллари усмонли турк тилига яқин бўлса-да, араб ва форс тилларининг таъсири кам бўлганини таъкидлайди.

“Тил масаласи” мақоласида кун тартибига қўйилган масалалардан яна бири ўзбек (чиғатой) тилининг кўп шевали эканлиги ва имло қоидаларини меъёрлаштиришдир. Беҳбудий ўзбек тилигина эмас, балки бошқа кўпгина туркий тиллар ҳам кўп шевали эканлигини ёзади: “Туркчанинг шуба шох(а)лари бўлган ўзбек – чиғатой, татар, озарбайжон, қозоқ ва тукман лаҳжаларидаги янги матбуотнинг энг аҳамиятли масалаларидан бири, албатта, шева, лаҳжа, имло масаласидир” [Беҳбудий, 1999. 183].

Мақолада Туркистон ўлкасининг шевалари турличалиги ва бу ҳол адабий тилни меъёрлаштиришда ўзига хос қийинчиликларни келтириб чиқариши мумкинлиги хусусида эътиборга молик фикрлар баён этилган: “...Келайлук Туркистон ёйинки Осиё Васати (*Ўрта Осиё, Марказий Осиё* – Э.Ж.) халқларининг тил ва шеваларига: Туркистоннинг ўзига тегишли шеваси турк тилининг чиғатой лаҳжаси бўлиб, “Навоий” китоби бу лаҳжанинг гўё муҳим китобидир. Аммо кўпдан бери Туркистонда маданият ва салтанат ва адабиёт таданний (*тушкунлик* –Э.Ж.) этгани учун халқ бу лаҳжани бузганлар. Бузмоқ нари турсин, Туркистоннинг ҳар бир шаҳрининг ва ҳатто, баъзи бир қасаба ва кўйлари (*қишлоқлари* – Э.Ж.)нинг шеваси бошқадир. Масалан: анда, мунда, шундани - ул ерда, бул ерда, шул ерда; ўтда, бўтда, шўтда; этта, бетта, шетта; ўрда, бўрда, шўрда; ўра, бўра, шўра кайфиятида сўйлайтурган шаҳарлар бўлиб, мундай бузуқ сўзларни нави адади жуда кўпдир” [Беҳбудий, 1999. 184].

“Тил масаласи” мақоласида кун тартибига қўйилган масалалардан яна бири адабий тилни шакллантириш ва тараққий эттиришдир. Мақоланинг иккинчи қисми айнан шу масалага бағишланган. Буни муаллифнинг ўзи ҳам эътироф этади: “Аввалги мақолада туркча тилнинг аҳамиятлилик шўбаларини қисқалик билан ёзиб эдим. Энди тилни бутун соддалаштуриб индирмоқ ва яъники адабийлаштириб тараққий қилдирмоқдан бетарафона ёзарман” [Беҳбудий, 1999. 185].

Беҳбудий кундалик матбуот нашрлари чоп этилиб, халқ орасида кенг оммалашган жойда адабий тил нормалари маълум меъёрга кираётганини эътироф этади. Бундан ташқари, матбуат тилнинг ривожи халқ жонли тилидан устун даражада эканини ҳам уқтириб ўтади. Дарҳақиқат, олим таъкидлаганидек, ўша даврда Россия ва Кавказда матбуот тили анча ривожланган ва кўча тилидан фарқли бир ҳолга кирган эди. Бундай ҳол, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг таъкидига кўра, татар матбуоти тили ва жонли тилида ҳам кузатилади.

Олим ўша давр матбуоти тилини адабий ва илмий тил сифатида иккига ажратади. Бу ўша давр маърифатпарварларининг кўпчилигига хос бўлган ҳолатдир. Беҳбудий ёзади: “…Кафкоз матбуоти аввалдан адабий бўлуб, ўн саналардан бери матбуот, қоғоз устиндаги адабий тилни, халқни тил ва сўзига таъсир этиб ўткардики, бул ўшал вилоятларда диққат этганларга маълум бўлур. Ҳеч бир фирқа ва ё лаҳжанинг авом тили матбуотига кирмайдур. Кирса-да, мактаб рисолаларига ва фанний китобларга кирмайдур. Азбаски, фанний, адаб, таълим ва тарбия ва диний китобларни сирф (*соф* – Э.Ж.) авом тилиға ёзмоқ мумкин эмасдур” [Беҳбудий,1999.185].

Хуллас, Махмудхўжа Беҳбудий матбуот тилига адабий тилни шакллантириш ва унинг имло меъёрларини ишлаб чиқиш воситаси сифатида қарайди.

“Тил масаласи” мақоласида баҳс юритилган масалалардан яна бири тилимизга бошқа тиллардан ўзлашган сўз ва терминларга муносабат масаласидир. Дарҳақиқат, тилимиз лексикасида катта қатламни ташкил этувчи форс-араб ўзлашмаларини янгилаш, уларни ўзбекчалаштириш XX аср бошларида маърифатпарварлар томонидан кескин бир тарзда кун тартибига қўйилган. Ўша давр матбуотида чоп этилган мақолалар шундай дейишимизга асос

"Девону луғотит турк" учун тузилган "Индекс"да ушбу асарда учрайдиган тил, нутқ, нутқ одобига оид ўнга яқин мақол келтирилган.

Тилшунос У.Саноқулов "Девон"да учрайдиган тил ва нутқ ва нутқ одобига оид ҳикматли гапларни тўплаган, уларни бошқа ҳикматлар билан биргаликда келтирган. Қуйида уларнинг ҳозирги тилга ўгирилган вариантларини келтирамиз:

Тулки ўз уясига қараб ҳурса (ирилласа) қўпур бўлади.[3]
Белги бўлса, йўлдан адашмас,
Ақли бўлса, сўздан янглишмас. [3]
Шохли дарахтга қуш қўнар,
Кўклик (яхши) кишига сўз (мақтов келар). [3]
Дарахт учига шамол тегар,
Кўрклик кишига сўз келар.[3]
Одоб – фазилатнинг боши – тил. [3]
Ширин сўз дастурхонга етаклайди. [3]
Халқда фитна кўпайса, ақл озаяди,
Янглиш (ортиқча) сўз кўпайса, оғиз қақшаб, жағ қабишади. [3]
Тил била боғланган,
Тиш билан ечилмас. [3]
Чақмоқ тош чақилса олов тутайди,
Сўз эшитилса, мақсад билинади. [4]
Эр сўзи битта бўлади,
Эгар ики (чилвири) учта бўлади. [4]
Кулиб боқса юзингга,
Кулган юзда кўрингин.
Ёвлик тилингни тийиб,
Эзгуликни тилагин. [4]

Киши сўзлашув билан,
Йилқи (ҳайвон) ҳидлашув билан бир-бирини билади (танитади). [5]
Яхши хулқнинг боши тилдир.[5]
Билимдон киши сўз, насиҳатлар олгил,
Яхши сўз таъсири дилга сингар (жойлашар). [5]
Тойғоқда ҳам тойимас,
Гувоҳлиги сўзламаса билинмас. [5]

"Девону луғотит турк" (индекс)да юқорида келтирилганлардан ташқари қуйидаги фикрлар учрайди:

Эрддм сЯздан қут чертЯляр – ҳунари ва одоб фазилати бўлмаган кишидан бахт ва дасир кетади. [4]

Таĝақ бнлд тајмас, тануқ сȯзя бятмас – таянчиқ билан одам тайғоқ ерда тоймайди, гувоҳнинг сўзи гувоҳлик бергандагина билинади. [5]

Схзгд суjчянса булун барїр – одам сўзнинг ширинлиги билан лаззатланади, унга асир бўлиб кетади. [4]

Чақса тятяняр, чалса бнлнняр – чақмоқ тош чақилса, олов тутади, сўз эшитилса мақсад билинади. [4]

Пашлақ тнллнғ бэгддн кэря

jайннус тул jэг – тили ёмон, суйоғон эрди бўлгандан кўра бевалик яхши. [5]

Демак, тил омади, нутқий одобнинг асосий шарти тилни тийиш, ўринли сўзлаш, инсоннинг тили ва дили бир бўлишидир.

Тилни тийиш талаблари нутқий одобда умумий (абстракт) тушунча эмас, балки аниқ мезонларга, шартларга таянадиган ахлоқий нормалардан иборатдир.Туркий халқлар, жумладан ўзбеклар ўтмишда бу масалада амал қилган нутқий қоидалар, ақидаларни ўрганиш тилни тийиш тушунчаси қуйидагилардан иборатлигини қайд этишга имкон беради:

--- аввало тилни ёлғон сўзлашдан тийиш лозим, рост, тўғри сўзлаш лозим.
--- тилни беўрин, кераксиз гап-сўздан тийиш керак;
--- тилни сўралмаган, талаб қилинмаган сўздан тийиш лозим;
--- тилни кўп сўздан, эзмалик ва мижғовликдан сақлаш керак;
--- тилни қўпол, дағал, хунук сўздан, дағал муомаладан тийиш лозим;
--- тилда (гапда) манманлик, мақтанчоқлик қилмаслик керак;
--- тилни улуғлар, ўзингдан катталар олдида тийиш, нутқий одобни сақлаш керак;
--- чақимчилик, ғийбат, майдагаплик каби одатлардан сақланиш лозим;
--- ўзгалар, ўзингдан улуғ кишилар номидан гапиришга одатланмаслик керак.

Ўтмиш аждодларимиз тилни нафақат инсонлар орасидаги мулоқат ва муносабат воситасигина эмас, балки инсонни тарбиялаш, тўғрилик ва адолатга ундаш, шахсдаги барча ижобий ва гўзал фазилатларни рўёбга чиқариш, одамни улуғ ва мўътабар амалларга рағбатлантириш воситаси, деб билганлар. Шу сабабли, ўтмишда яшаб ўтган бирорта улуғ аллома йўқки, у ўз асарларида тил, нутқ, нутқий одоб ҳақида сўз, панду насиҳатларини, ҳикматли гаплари, ноёб мулоҳазаларини ёзиб қолдирмаган бўлсин. Уларнинг бундай фикрлари нафақат ўша давр замондошларига қаратилган, балки келажак авлодлар учун буюк маданий, маънавий қурол бўлиб хизмат қилишини орзу қилишган.

Маҳмуд Кошғарий тилга олган "Эрдам боши тил" деган мақолни бизнингча, қуйидагича тушуниш лозим:

- Инсон одоби унинг тилидан билинади;
- одобга ўргатишда тил муҳим (асосий) воситадир;
- нутқ кишининг ахлоқ қиёфаси, маънавий дунёсини билиб олиш калитидир;
- тил кишини яхши ахлоққа ёки ахлоқсизликка етаклайди.

"Одобни одобсиздан ўрган" мақоли "адабсизнинг қилганини қил" маъносида эмас, аксинча, "адабсиз қилган ҳаракат ва қилиқларнинг тескарсини қил", деган рамзий маънодадир. Шунинг учун Шарқнинг барча мутафаккирлар олимлари нодон билан

сўзлашма, суҳбат қурма, нодонни тинглама, нодонга яқинлашма, нодондан узоқ юр, деб таълим берганлар.

Одамийлик, инсонийлик тушунчалари инсон ҳисобланувчи субъектни, ахлоқий сифатларидан бири бўлиб, ижобий фазилатли субъектни, шахсни, яхши инсонни англатади.

Нутқ одобида, яъни тилдан тўғри фойдаланишда нутқда баъзи қўпол, айтиш ножоиз, вулгар сўзларни тилга олмаслик одоблиликнинг энг муҳим белгисидир. Тил маданияти адабий тилдан фой фойдаланишда умумий меъёрларини кўзда тутса, нутқ одоби конкрет, якка шахс нутқи сифатида одоб-ахлоқ жиҳатдан конкрет баҳолашдир. Бунда нутқ одобининг аниқ талаблари, мезонлари, қоида ва удумлари муҳим ўрин тутади. Нутқда фойдаланилаётган тил воситалари, грамматик қонун-қоидалари, гап, нутқ тузилиши тўғри танланган, тузилган гап чиройли бўлиши мумкин. Аммо бу нутқ, нутқ одоби талабларига тўла жавоб бермаслиги мумкин. (Масалан, кўпсўзлик, қўпол, вайсақи сўзлардан фойдаланиш, нутқ мазмуни сохта ва ёлғон ва бошқалар).

Юқорида қайд қилинган хусусиятлардан шу нарса маълум бўладики, тил ва нутқ одоби ҳеч бирининг алоқасиз, тарқоқ, бир-бирига боғлиқ бўлмаган ҳодисалар эмас, балки бир-бирини тўлдирувчи ҳодисалардир.

Демак, тил ва нутқ олдига қуйидаги етакчи талаблар қўйилади. Тил ва нутққа:

- Тил ва нутққа ақлий, онглилик билан ёндашиш талаби;
- тафаккур, мушоҳада билан ёндашиш талаби;
- мантиқий изчиллик талаби;
- лисоний жиҳатдан сўзланаётган тилнинг объектив, лисоний қонун қоидаларига бўйсуниш;
- мақсад, мазмуннинг аниқ ва асослиги талаби;
- миллий ўзига хослик, миллий менталитетни бузмаслик, сохталаштирмаслик;
- нутқнинг тарихий-анъанавий этикетларига хилоф келмаслиги талаби;
- этномаданий, этнолингвистик анъаналарни бузмаслик, унга қатъий риоя қилиш талаби;
- тилни маънавий мулк деб ҳисоблаш ва уни асраб-авайлаш талаби;
- тил, нутқни нотиқнинг ахлоқ фазилатларини намоён қилувчи восита (қурол) деб билиш талаби;
- тил (нутқ) сўзловчи шахснинг эстетик диди, фаросатини намоён қилувчи восита эканини кўзда тутиш ва унга амал қилиш талаби;
- тил (нутқ) шахснинг маданий, маънавий фазилатларини намойиш қилувчи восита эканини кўзда тутиш талаби;
- тил (нутқ) халқнинг умумий ва диний эътиқодларига зид келмаслиги талаби;
- тилни бизга ўтмиш аждодлар ижод қилган, бойитган ва биз фойдаланаётган лисоний, маданий, маънавий мулк, деб билиш ва бошқалар.

Хуллас, тилдан фойдаланиш бир қараганда кишиларнинг ўзаро мулоқоти, сўзлаш имконияти сифатида оддий муомала жараёни сифатида тушунилади, аммо у ўта диққат ва эътиборни талаб этадиган вазиятдир. Чунки ҳар бир сўзни ўз ўрнида қўллаш ва чиройли ифода этишнинг ўзига хос алоҳида маданияти мавжуддир. “Демакки, тилда бир фикрни бир қанча шаклу шамойилларда ифодалаш имкониятлари мавжуд, айнан қайси шаклни танлаш, муайян фикр ва мулоқот вазияти учун энг уйғун ифодани топа билиш нутқ эгасининг тилга соҳиблик даражаси, маҳорату малакаси, маърифату маънавиятига боғлиқ. Мулоқот вазиятини етарлича баҳоламасдан туриб, фикр ифодаси учун танланган лисоний либос, ҳар қанча тўғри ва гўзал бўлмасин, мақсад нишонига етиб бора олмайди. Бундай ифода ҳатто бошга бало келтириши ҳам мумкин. Гўзал ва нафис нутқ сезгиси ҳамда унга азалий ихлосу эътиқод анъанасининг ибтидоси, айниқса, кўҳна Шарқда жуда қадим замонларга бориб тақалади. Айни вазифанинг бизнинг кунларимизга қадар ҳам ўша моҳиятини йўқотмай келаётганлиги ҳар қандай жамият ҳаётида тил ва нутқ нуфузининг нечоғли муҳташам ўрин тутишининг шаҳодатидир” [1].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007.
2. Матнлар Азиз Қаюмоқ. Қадимият обидалари. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
3. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. I том. – Тошкент. ЎзФА нашриёти, 1960.
4. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. II том. – Тошкент. ЎзФА нашриёти, 1960.
5. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. III том. – Тошкент. ЎзФА нашриёти, 1960.
6. Маҳмуд Кошғарий . Девону луғотит турк. (Индекс). – Тошкент. ЎзФА нашриёти. 1963.
7. Саноқулов Усмон. Маҳмуд Кошғарий ҳикматлари. – Самарқанд, 1997.

JADIDS' REFORMS IN LITERATURE AND LANGUAGE
JADIDLARNINGADABIYOTVATILISLOHOTLARI

J. L Khudoyberdiev
Westminster International University in Tashkent
Global Education Department,
Senior Lecturer

Abstract: This short article looks into some thoughts on what role Uzbek Jadid scholars and thought played in the formation of the modern literature and language in Uzbekistan. It reiterates the fact that it was the Jadids and their vision of the national culture, literature and language which lead to formation of the nation in a wider sense.

Key words: Jadids, literature, language, Uzbek, reforms, nation.

Annotatsiya: Ushbu tezis O‘zbek jaded mutafakkirlari va ularning g‘oyalari O‘zbekistonda zamonaviy adabiyot va tilning shakllanishida qanday rol o‘ynaganligi to‘g‘risida ba'zi fikrlarni ko‘rib chiqadi. Bu aynan jadidlar va ularning milliy madaniyat, adabiyot va tilga bo‘lgan qarashlari millatni keng ma'noda shakllanishiga olib kelishini yana bir bor ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *Jadidlar, adabiyot, til, O‘zbek, islohot, millat.*

When it comes to the Uzbek modern literature and language, special attention should be paid to the investigation of the period which played a crucial role in the formation and development of modern trends form cultural as well as historical perspective. TurkistaniJadid scholars such as Fitrat, Chulpan, Qodiriy, Behbudiy and others in fact paved the way towards purist movement which in turn led to the formation of modern national literature and language in the late 19th and early 20th century in Turkistan, later in Uzbekistan.

Unsurprisingly, currently the Jadids are celebrated as pioneers of the modern Uzbek language and literature. By analyzing the linguistic, cultural, social and economic issues of that volatile and oppressive period they were able to come up with a number of solutions.Obviously what stood out clearly in this process was the enlightenment of the nation through education and formation of new schools and educational establishments replacing old style *maktabs*and *madrasahs*. Having stalled for centuries, the old-style education system was abandoned opting for new and modern teaching and learning styles which created much more effective and efficient way to educate the general public. A great Jadid educator and scholar Abdulla Avloniy was one of the first to design and publish textbooks for those schools which offered "open and simple language" and students could raise their level easily and much faster in comparison to old style education.

In order to accomplish the agenda of enlightening and uplifting the nation, Jadids considered language issues as an important factor that urgently needs to be tackled. Thus Jadids started off their work form sketching out the theoretical basis of the Uzbek literary language, systematizing its regulations and rules, identifying grammar rules as well as making sure its social and political

values are maintained. Jadids could clearly understand that if the nation is to be enlightened, educated, then the language should also go under some transformation to meet the challenges the modern life throwing at them. Otherwise spiritual uplifting of the society could not be carried out.

As a leading force behind the reforms, the Jadids took a dominating stance regarding the cultural and social reforms for much of the period under discussion. The language was a handy tool to create a new national culture and cultural identity. Interestingly or better still paradoxically, Soviet regime's initial plans for overcoming so called backwardness of Turkistan and revolutionizing the culture for their own purposes(Baldauf, 2015). Surely unlike the previous Tsarist regime, a new 'Soviet' one actively involved in building the culture and language for the locals. Another interesting thing that was done by the newly built state was win the hearts of the Turkistanis by funding the launching of new schools, publications of new newspapers, magazines, and books in local languages. As early as 1918, the Uzbek language was declared to be the official language of Turkestan in addition to Russian which improved the status of Uzbek tremendously (Khaleed, 2007). This step of the government was an important step towards reforming Uzbek and modernizing its vocabulary. Here none but the Jadids came handy and jumped at the opportunity timely.

As nothing stays the same for a long time, so did the Uzbek language at the turn of the previous century. These transformations were brought by socio-economic, political changes, along with revolutionary progress in scientific and religious thoughts. Literature and language saw dramatic alterations by getting closer to spoken norms and forms. By taking the language issues to political agenda the Jadids could intervene into this process effectively and have their say easily. Having defined the objectives of the reforms in terms of forming the national language, they put forward a number of proposals in terms of language policy. A special attention was given to the lexical sources of the Uzbek language; literal genres, style, native speech and poetic schools were investigated thoroughly since they had direct effect to the formation and development of lexical norms (Saidov, 2016). To reap the harvest of the seeds they nurtured for decade the Jadids actively used the Uzbek language to create our own narrative about our own culture and history. A national culture of Uzbeks experienced a dramatic jadidisation as a new language, literature, theatre, journalism developed at unprecedented rate. Despite the turmoil of the period, the Jadids threw themselves into new ventures by coming up with new literature genres as well as acting their own plays in the newly opened theaters. All these activities paved the new route for building a new Uzbek way to progress and development which was not in line with what the Moscow wanted from them.

In short, creating a new nation and culture required reforming the language itself. Jadids here played an active role in simplifying the grammar and orthography which they proposed and talked along. Thus if we want to look at the roots of the modern Uzbek literature and language, the first destination is Jadids and their reforms and thoughts in literature and language.

References

1. Baldauf, I. (2015). Educating the poets and fostering Uzbek poetry of the 1910s to early 1930s. *Cahiers d'Asiecentrale*, (24), 183-211.

2. Khalid, A. (2007). *The Fascination of Revolution: Central Asian Intellectuals, 1917–1927*. na.

3. Saidov, Y. S. (2016). UZBEK JADIDS AND NATIONAL LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (7), 52-56.

SON DÖNEM ÇAĞATAY ŞAİRİ MÜCRİM ABİD'İN TÜRKÇE DİVÂNI'NDA SÖZCÜK YAPIMI
WORD MAKING IN THE TURKISH DIVAN BY THE LATEST ÇAGATAY POET MÜCRİM ABİD

Dr. Öğr. Üyesi Nursan ILDIRI
Atatürk Üniversitesi

Son dönem Çağatay edebiyatı şairlerinden Mücrim Âbid 18. yüzyılın ikinci yarısı ile 19. yüzyıl başlarında Buhara Hanlığı döneminde yaşamış, Farsça ve Türkçe şiirler yazarak Buhara edebî muhitinin önemli temsilcileri arasında yer almıştır. Mücrim Abid Türkçe Divânı'nda genellikle felsefi ve dinî meseleler üzerinde durmuş, imanın ve ibadetin öneminden, sakınılması gereken kötülük ve günahlardan bahsetmiştir. Âbid'in Türkçe Divânı ayrıca Çağatay Türkçesi döneminin dil özelliklerini yansıtması açısından da önem arz etmektedir. Bu çalışmada bir dilin söz varlığına katkı sağlamak için dilin kendi imkânları kullanılarak oluşturulan sözcük oluşturma süreçlerinden eklemeli türetmenin Mücrim Âbid'in Türkçe Divânı'ndan hareketle örnekleri üzerinde durulmuştur.

Anahtar Kelimeler: Mücrim Abid, Türkçe Divân, Sözcük Yapımı, Eklemeli Türetme, Yapım Ekleri

One of the late Chagatay literature poets MücrimAbid lived in the period of the Bukhara Khanate in the years between the second half of the 18th century and the beginning of the 19th century. He was considered one of the prominent representatives of the Bukhara literary names by writing poems in Persian and Turkish. MücrimAbid generally focused on philosophical and religious issues in his Turkish Divan and talked about the importance of faith and worship, and the good and evil that should be avoided. Abid's The Turkish Divan is also important in terms of reflecting the linguistic features of the Chagatay Turkish period. In this study, basing on MücrimAbid's the Turkish Divan, the examples of agglutinativederivation from word formation processes created by using the language's own means to contribute to the vocabulary of a language are emphasized.

Keywords: *MücrimAbid, The Turkish Divan, Word Making, AgglutinativeDerivation, Derivational Affixes.*

Mücrim Âbid, 18. yüzyılın ikinci yarısı ve 19. yüzyılın başlarında Buhara edebî muhitinin önemli temsilcilerinden biri olarak telakki edilmektedir. İki dilli şair olup Türkçe ve Farsça şiirler yazmıştır. Türkçe şiirlerinde Ali Şir Nevâyî ve Baba Rahim Meşreb, Farsça şiirlerinde ise Mirza Bedil'in etkisi altında kalmıştır [Achilov, 2012: 374].

Özbekistan Cumhuriyeti İlimler Akademisi Ebu Reyhan El Biruni Şarkşinaslık Enstitüsü El Yazmalar Bölümü'nde Mücrim Âbid'inTürkçe Divânı'nın üç nüshası 976, 1797 ve 3798 kayıt numaralarıyla yer almaktadır.

Türkçe Divân mukaddime, gazel, rubai, kıta, çala gazel[1], muhammes ve bir adet Hasb-i Hal adlı mesneviden oluşmaktadır. Divân'daki muhammeslerin 7 tanesi Ali Şir Nevâyî'nin gazellerine tahmis şeklinde kaleme alınmıştır. Ayrıca Divân'da müstakil iki adet Farsça muhammes yer almaktadır.

Mücrim Âbid'in Türkçe Divânı morfolojik açıdan incelendiğinde sahip olduğu hacim itibariyle divânın içerisinde çok fazla dilbilgisel unsur barındırdığı ortaya çıkmaktadır. Bu dilbilgisel unsurlardan biri de Çağatay Türkçesinin söz varlığına katkı sağlayacak eklemeli türetme yönteminde kullanılan yapım eklerinin varlığıdır.

Dilde yeni kavramlar oluşturmak için başvurulan yollardan biri de sözcük türetmedir. Her dil bunu kendi imkânları çerçevesinde gerçekleştirir. Kelime yapımı Türkçede mevcut isim veya fiil kök ve gövdelerine yapım eklerinin getirilmesiyle gerçekleştirilir [Küçük, 2015: 19].

Türkçe dilbilgisinde ek kavramı; bir sözcükte kökün önüne, içine ya da sonuna eklenmek suretiyle sözcüğün dilbilgisi değerini ya da işlevini değiştiren öğe olarak tanımlanmaktadır [Vardar, 2002: 90]. Türkçede ekler, yapım ekleri ve çekim ekleri olmak üzere iki başlık altında değerlendirilmektedir. Yapım ekleri eklendiği sözcük kök ya da gövdesini yeni ve kalıcı bir kavrama dönüştürür. Yapım ekleri isimden isim yapan ekler, isimden fiil yapan ekler, fiilden isim yapan ekler ve fiilden fiil yapan ekler şeklinde dört kısımdan oluşmaktadır. Mücrim Âbid'in Türkçe Divânı'nda yer alan yapım ekleri örnekleriyle beraber verilmeye çalışılmıştır.

[1] Üç beyitten oluşan, gazel kafiye düzeninde yazılmış şiirlerdir.

İsimden İsim Yapan Ekler

İsimden isim yapım ekleri, isim kök ve gövdelerine gelerek yeni isimler oluştururlar. İncelenen metinde tespit edilen isimden isim yapan ekler aşağıdaki tabloda örnekleriyle beraber sıralanmıştır:

/+aπ/, /+ek/	ét+ek 109/2, toyn+aπ 93/1
/+çA/	bar+ça 359/9, …ızıl+ça 474/5, özge+çe 204/4
/ +çI/	él+çi 17/4, …ara…+çı 49/9, yalπan+çı 299/3
/+daş/	yol+daş 111/7
/+dik/	kin+dik479 [Çağbayır, 2007: 2676]
/+düz/	kün+düz 460/2
/+e/	kéç+e 17/7 [Çağbayır, 2007: 2676]
/+en/	ér+en 442/6
/+ev/	bir+ev 461/7, ék+ev 488
/+πaç/	yalan+πaç+lıπ 435/14
/+guz/	yal+πuz (<yalan+πuz) 18/5
/+ı/	al+t+ı6/6 [Gülensoy, 2007: 67]
/+ıç/	…ıl+ıç 53/1
/+ıl/	…ız+ıl 331/5
/+…a/, /+ge/	baş+…a 120/3, öz+ge 400/3
/+…un/	uç+…un 195/3
/+lA/	bir+le 168/3, ékki+le 194/5, tan{g+la 19/7
/+lı/	at+lı 151/1, dâπ+lı 140/6, du¡â+lı 423/7, …an+lı 300/3, sevdâ+lı 140/6
/+lu/	baπ+lu 135/6
/+lik/, /+lı…/, /+lıπ/, /+luπ/, /+/lük/	açıπ+lıπ 171/3, aπır+lı… 248/3, ara+lıπ 84/6, at+lıπ 124/2, bir+lik 449/7, ferd+lik 167/5, …an+lıπ 453/5, …aranπu+lı… 264/2, …arı+lı… 282/5, kem+lik 198/7, kérek+lik 94/3, kiçik+lik 374/2, kön{gül+lük 211/2, köp+lik 314/5, mest+lik 323/4, nem+lik 198/5, ot+luπ 140/6, öy+lük 82/3, til+lik 380/1, tirik+lik 10/4, tür+lük 241/2, uyat+lıπ 174/7
/+nπu/	…ara+nπu 51/4
/+re/	üz+re 264/6
/+te/	ér+te 417/1
/+u/	aπ+u 371/4
/+ul/	av+ul 303/2
/+Un/	boy+un 257/4, üç+ün 277/11, ot+un 214/3
/+ünçi/	tört+ünçi 262/2

Fiilden İsim Yapan Ekler

Fiillerin üzerine gelen bu ekler yeni isimler oluştururlar. Metnimizde tespit edilen ekler örnekleriyle beraber aşağıda verilmiştir.

/-A/	ar-a 82/2, …ayt-a 245/2, tég(i)r-e 89/8, tol-a 91/7
/-AK/, /-aπ/	böl-ek 10/7, eş-ek 474/5, …uc-aπ 358/4, …ul-a… 227/8, sav-a… 182/7
/-an/	…az-an 492
/-(i)çi	tile-n-(i)çi 115/3
/-g/, /-π/	açı-π 118/3, arı-π 80/6, ba-π 271/1, , …aba-π 459/2, …uru-π 98/2, tırna-π 44/2, yala-π 168/3, yara-π 17/3
/-gen/	ér-gen 367/4
/-GU/	…al-πu 165/7, köz(ün)-gü 14/2, tol-πu 158/2, bil-gü 430/6, bol-πu 52/6, kül-gü 27/4, süpür-gü 177/5

/-güçi/	bil-güçi 72/3, sür-güçi 135/5
/-I/	daπ-ı 184/2, ég-ir-i 126/1, ya«(ış)-ı 33/4
/-ıπ/, /-uπ/	…at-ıπ 145/1, boz-uπ 207/6
-ımtıl	kız-ımtıl 245/7
-In	ég-in 138/4, ya…-ın 442/3
-/K/, /-IK/, /-UK/	aç-u… 182/4, aπrı-… 127/2, art-u… 224/7, biyi-k 126/4, buyr-u… 182/6, , …ız-ı… 438/11, kiçi-k 161/1, köfr-ük (< köpür) 415/3, köy-ük 331/3, öl-ük 335/7, savu-… 114/3, sın-u… 266/5, til+e-k 482, tir-ik 154/2, yaz-u… 282/3, eşi-k 404/5
/-ki/, /-…u/	és-ki 454/6, uy(u)-…u 51/1
/-l/	ti-l 10/8
/-maπlı…/ /-ma…lı…/, /-meklik/	uç-maπlı… 206/2, yaz-ma…lıπ 411/1, yıπla-ma…lı… 226/4, kél-meklik 542
/-ma…çı/	yaz-ma…çı 291/3
/-mur/	yaπ-mur 235/3
/-r/	yara-r 81/17
/-ş/, /Iş/, /-Uş/	al-ış 145/2, at-ış 145/6,bat-ışl45/7, bér-iş 145/2, oyna-ş 139/3, tur-uş 126/3, ur-uş 40/6, yür-üş 343/2
/-u/	ayr-u 331/1, …or…-u 38/2
/-Un/	tüg-ün 310/5, yaşur-un 428/4, bur-un 474/8, öt-ün 392/4
/-unç/	…or…-unç 451/7
/-üm/	öl-üm 26/4

Fiilden Fiil Yapan Ekler

Fiilden fiil yapım eklerini, fiilerin üzerine gelerek onları aynı anlam örgüsü içerisinde yeni bir fiile dönüştüren ekler olarak tarif etmek mümkündür. Bir kısmı kuvvetlendirme ya da edeleme işleviyle ortaya çıkan bu eklerin büyük kısmını özne-yüklem ilişkisini düzenleyen çatı ekleri oluşturmaktadır [Daşdemir, 2014:39,40]. Metinde tespit edilen örnekleri aşağıda sıralanmıştır.

/-a-/	aπ-(ı)n-a-t- 154/2, sor-a- 166/2
/-ar-/	çı…-ar- 351/2, …ab-ar- 345/4, …ayt-ar- 365/5, …op-ar- 417/1
/-Aş/	érk-eş- 329/1, …ar-aş- 196/3, tut-aş- 221/7
/-dUr/	al-dur- 121/6, bil-dür-123/7, kéy-dür- 57/3, …ız-dur- 446/4, köy-dür - 355/3, ol-dur- 221/5, sın-dur- 435/14
/-et-/	seg(i)r-et- 93/1, tüz-et- 259/7
/-güz-/	kir-güz- 505, kör-güz- 6/4
/-Il-/, /-Ul-/	aç-ıl- 120/2, as-ıl- 325/6, at-ıl- 202/6, ay-ıl- 317/7, ayrı-l- 81/13, ayt-ıl- 343/9, boz-ul- 418/5, çap-ıl- 45/4, kés-il- 256/3, …az-ıl- 146/5, saç-ıl- 103/1, …oş-ul- 114/4, kön-ül- 112/1, …ut-ul- 56/2
/-iş-/	ötker-iş- 72/1
/-ker-/	öt-ker- 364/1
/-…ur-/	yét-kür- 425/1
/-l-/	uşa-l- 350/3
/-n-/, /-In-/	al+da-n- 386/2, baπla-n- 160/2, bil-in- 465/5, eyle-n- 404/2, il-in- 99/4, işe-n- 13/5, …ıva-n- 95/5, …o-n- 374/3, örte-n- 33/1, saπ-ın- 39/1, sév-in- 27/2
/-r-/	köte-r- 461/1
/-ş-/	köple-ş- 353/2, tile-ş- 384/4, uçra-ş- 246/2
/-t-/	aπ-(ı)n-a-t- 154/2, ay-t- 466/5, il-t- 114/5, inci-t- 324/3,

	…uru-t- 345/2, oyna-t- 410/2, uşa-t- 331/6
/-tUr-/	çırmaş-tur-73/2, kél-tür- 331/2, köpel-tür- 195/6
/-Ur-/	art-ur- 334/3, iç-ür- 335/2, kéç-ür- 462/4, ög-ür- 53/7, sav-ur- 220/8
/-Uş-/	bul-uş- 379/3, bur-uş- 1/3, kör-üş- 423/4, tilmür-üş- 255/3
/-ut-/	…or…-ut-121/2
/-uz-/	a…-uz- 173/3

İsimden Fiil Yapan Ekler

İsim kök ve gövdesinin üzerine gelerek ismi fiile dönüştüren eklerdir. Metinde geçen örnekleri aşağıdaki tabloda yer almaktadır.

/+A-/	çın+a- 328/5, …ab+a-… 459/2, …ıv+a-n- 95/5, köt+e- 74/2, oyn+a- 192/2, ört+e- 222/4, san+a- 49/8, til+e- 162/3, uz+a- 394/2, yarlı…+a- 158/3
/+Al-/	kem+el- 381/6, köp+el- 17/5, saπ+al- 343/5
/+Ar-/	a…+ar- 259/7, …ız+ar-242/3, kög+er- 386/6, sar(ı)π+ar- 472/3
/+at-/	yo…+at- 162/6
/+da-/	al+da- 396/2
/+πa-/	çul+πa-n- 271/11
/+lA-/	an{g+la- 234/2, baπ+la-147/6, baş+la- 138/3, daπ+la- 297/5, köz+le- 380/2, söz+le- 201/6, taş+la- 166/4, tin{g+le- 108/1, uy…u-la-t- 389/3, yo…+la- 190/6, yüz+le-n- 437/4
/+lan-/	at+lan- 136/3
/+rA-/	tit(i)+re- 384/6, uç+ra- 222/8
/+şa-/	o«+şa- 93/6
/+te-/	is+te- 60/5
/+u…-/	yol+u…- 474/2

Kaynakça

1. Abdullayev, V.A., *Özbek Edebiyatı Tarihi II*, Okutuvçı Neşriyat, Taşkent 1967.
2. Achilov, Ergash,*Barhayot Siymolar "Otashnafas Shoir"*, O'zbekiston NMIU, Toshkent 2012.
3. Çağbayır, Yaşar,*Ötüken Türkçe Sözlük*, Ötüken Neşriyat, İstanbul 2007.
4. Daşdemir, Muharrem, *Oklama Yöntemiyle Türkçenin Yapısal-İşlevsel Söz Dizimi*, Eser Basım Yayınları, Erzurum 2014.
5. Gülensoy, Tuncer, *Türkiye Türkçesindeki Türkçe Sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü*, TDK Yayınları, Ankara 2007.
6. Küçük, Sâlim, *Tarihi Türk Lehçelerinde İsimden İsim Yapma Ekleri*, Akçağ Yayınları, Ankara 2015.
7. Vardar, Berke, *Dilbilim Terimleri Sözlüğü*, Multilingual Yay, İstanbul 2002.

НАРРАТИВ ТУЗИЛМАЛАРДА АСПЕКТУАЛ СЕМАНТИКАНИНГ ИФОДАЛАНИШИ
EXPRESSION OF ASPECTIVE SEMANTICS IN NARRATIVE STRUCTURES

Ғ.Қ Мирсанов,
СамДЧТИ профессори,
филология фанлари доктори

Аннотация. Мақолада инглиз ва ўзбек тилларидаги нарратив тузилмаларда аспектуал семантиканинг воқеланиши, темпорал бирликларнинг матндаги вазифалари таҳлил қилинган.

***Калит сўзлар**: тиллар, нарративлик, аспектуал, семантика, хабутал маъно.*

Аннотация. В статье анализируется актуализация аспектуальной семантики и роль темпоральных единиц нарративных конструкциях.

***Ключевые слова:** языки, нарратив, аспектуальность, семантика, хабутальное значение.*

Abstract: the article analyzes the actualization of aspectual semantics and the role of temporal units in narrative constructions.

***Key words:** languages, narrative, aspectual, semantics, habutal meaning*

Ўзбек мутафаккирларидан Алишер Навоий, Заҳириддин Бобур, Маҳмуд Замахшарий, Ибн Сино ва бошқаларнинг илмий-адабий ижоди нафақат ўзбек адабиётшунослиги ва тилшунослиги, балки жаҳон илм хазинасига қўшилган буюк ҳисса ҳисобланади. Ҳазрат Навоийнинг асарларида вақт ва макон ҳодисалари талқини, ҳикоявий услуби лисоний нарратавлик таҳлилига мос келади. Жумладан, Фарҳод ва Ширин достонидаги воқеа-ҳодисаларнинг замон ва макондаги кечими, нарратив ифодаси тилшуносликнинг темпораллик ва аспектуаллик соҳалари доирасида тадқиқотлар олиб бориш имкониятлари кенглигини кўрсатади. Айниқса, келгуси тадқиқотларда Навоий ва Шекспир асарларини чоғиштириб нарративлик ифодасини ушбу турли тизимли тилларда ўзига хослигини очиб бериш бугунги тилшунос ва адабиётшуносларимиз олдида турган муҳим вазифалардан биридир. Биз ушбу мақолада нарративлик ҳодисасини инглиз тили мисолида очиб беришга ҳаракат қилдик.

Нарративликнинг темпорал ва аспектуал хусусиятлари таҳлилини К.Смит ишларида учратиш мумкин. Олима“вақт жараёнидаги бир нечта кичик ҳодисаларнинг замонда мослашувининг ифодаланиши нарративликдир”, деган фикрни билдиради [Smith C., 2003; 93.] Унинг таъкидлашича, нарративликнинг ўрнатилиши турли вақт референциясида амалга ошади. Чегараланган (аспектуал) ҳодисалар (АҲ) ифодаланадиган гапларда вақт референцияси илгарилайди. Ҳолат ёки давомли ҳодисаларда вақт референцияси олдиндан ўрнатилган вақт саналади. Бу маълум вазият турларининг нарративлигида чекланган анафорик таҳлилда кўзга ташланади [Smith C., 2003; 94]. Нарративликда турли типдаги вақт референциялари ўрнатилади. Чекланган воқеа-ҳодисалар тасвирланаётган матнларда вақт референцияси кейинги ўринга ўтади. Давом этаётган воқеа-ҳодисалар ёки ҳолат ифодаланаётган гапларда олдиндан ўрнатилган вақт референцияси бўлиб амал қилади. Бу нарративлик доирасида чекланган маълум вазиятлар турининг анафорик таҳлилига боғлиқ. Нарратив давомлилик эса семантик ва прагматик асосларга боғлиқ. Чекланган воқеа-ҳодисаларнинг таҳлилида семантик ва аспектуал маълумотларга асосланилади. Бунда қўлланилган феълнинг чегараланган/чегараланмаган гуруҳи ва перфектив тус қўлланилиши муҳим аҳамиятга эга. Кетма-кет нарратив таҳлил прагматик жиҳат саналади ҳамда қўшимча маълумотларнинг киритилиши орқали воқеа-ҳодисанинг тури ўзгариши мумкин. Мазкур ҳолларда вазият вақт референциясининг бир жараёнда амал қилиши ҳамда каузация таъсири ёки бошқа сабаблар таъсирида ўзгариши кузатилади [Smith C., 2003; 94].

Қуйидаги мисолда маълум вақт оралиғида турли вазият ва воқеликларнинг, аспектуал ҳодисаларнинг ифодаланишини кузатиш мумкин. Масалан: 1) *Catherine escorted her (Аспектуал ҳодиса АҲ1, Чекланган Предикат) to the sideboard, chattering happily. Craig scanned the crowd (АҲ2, Чекланган Предикат). Most eyesswiveled (АҲ3, Чекланган предикат) between the outraged dowager and Catherine's pleasure. Others compared Mrs. Fairlawn'sobvious gentility to his own monstrous appearance, apparently deciding that a delectable widow wouldhardly conduct an affair with a man so deformed (Allison Lane, 63).Мен сесканиб тушдим (АҲ1, карралик ҳаракат, чекланган предикат), ҳамма хаёлни бир чеккага йиғиштириб қўйиб (АҲ2, чекланган предикат), жиндек илжайдим(АҲ3, чекланган предикат)* (Ғ. Ғулом, 144).

Берилган мисолдаги нарративликда алоҳида-алоҳида ҳодисаларнинг тугалланганлиги ифодаланган. Тугалланганлик семантикаси феълнинг акционал хусусияти билан ҳам боғлиқ. Тус-замон шакллари таркиби матннинг мантиқий моҳиятининг бир-бирига боғланишини

таъминлаш (Тураева З., 1986; 86) учун хизмат қилган. Мазкур шаклларнинг боғлиқлигини матннинг нарратив конструкцияли таркибида учратиш мумкин. Матннинг функционал таҳлилида “макон” ҳамда “вақт” муҳим ўрин тутади. Масалан: *Talking with her relaxed him for the first time in months. She was refreshingly different (ҳолат, чекланмаган предикат), with perceptionsunlike anyone else's. And she was the first woman he'd ever met who seemed truly unselfish (ҳолат чекланмаган предикат). She frettedover Caroline, the babe, her mother, even the coachman who had endangered her life, yet she made nocomplaint on her own account(Allison Lane,94).Уйнинг тўрида пўлат каравотда кўзини шипга тикиб бир ёш хотин – бемор ётар эди* (ҳолат, давомли предикат). ..... *Хотин бир оз озиб, ранги сарғайинқираган* (ҳолат, чекланмаган предикат).... (Ғ. Ғулом, 152).

Нарратив давомийлик, ўз навбатида, семантик ва прагматик омилларга боғлиқ. Чегараланган ҳодисалар аспектуал, семантик маълумотга асосланади. Нарратив таҳлилнинг мослашуви эса прагматик ҳисобланади ва қўшимча маълумот бекор қилиниши кузатилади [Smith C. 2003; 195]. Нарративликда воқеа-ҳодисалар, вазиятлар бир вақтда содир бўладиган ҳодиса сифатида англаниши мумкин. Улар каузацияга ёки бошқа шу каби омилларга боғлиқ бўлади. Масалан: 4) *The argument behind the carriage was growing louder. Two men marched their daughters into the abbey(каузативлик, чекланган натижавийлик), but a dozen others emerged, enlarging thecrowd. A matron swooned (чекланган натижавийлик). Another fell into hysterics (натижавийлик, чекланган). She could no longer see Westlake through thepress. The shoving to reach his side grew more violent (инхоативлик, чекланмаган) (Allison Lane, 97*).

Семантик тасвир, ўз навбатида, воқеа-ҳодиса тури, нарса-предмет, макон, йўлак, миқдор, қарамлик ва шу каби предикатни чекловчи концептуал примитивларга асосланади (Geeraerts D.,2010; 160). Шунинг учун ҳам матн доирасидаги боғлиқлик, ўз навбатида, вақт-замон ва макон боғлиқлигининг таъминланишига эътибор қаратилади. Мазкур боғлиқлик матннинг грамматик семантик узвийлигини таъминлайди. Бунда вазиятлар алоҳида бошланган ва тугалланган бир бутун вазият сифатида намоён бўлади.Шунинг учун ҳам темпорал ва аспектуал маъноларнинг ифодаланиши маълум жиҳатдан матн жанрига боғлиқ саналади, чунки жанрига кўра матнлар лингвистик жиҳатдан бир-биридан фарқ қилади. Масалан, нарратив жанрда воқеа-ҳодисалар кетма-кет тарзда содир бўлади ва маълум бир мавзу остига бирлашади. Аммо нарративлик баъзи ҳолларда кичик эпизодларда ҳам акс этади ва бундай ҳолларда юқорида келтирилгани каби воқеалар баёнида аниқ кетма кетлик бўлмаслиги нарратив матн баъзан тасвирий, баъзан шарҳ билан қоришиб кетиши натижасида нарратив кетма-кетлик асосий мазмунга тобе келиши мумкин. Мазмун нарратив ёки ахборот етказувчи матнда акс этади.

Лекин бу ҳол барча тиллар учун бир хил деб бўлмайди. Қуйидаги мисолда нарратив маъно ўзбек тилитаркибида, кетма-кет бўлмаган, алоҳида ҳодисалар ҳақидаги маълумотини сақлаган: *Баъзан иш билан, баъзан мажлислар билан, гоҳида улфатчилик билан уйга кеч қайтардим (итератив, чегараланган). Бир куни Намангандан меҳмонлар келиб қолишди (тасодифий вазият, тугалланганлик). Уйга боришга кўнмай ўзимни ресторанга суришди. Ярим кечгача қолиб кетдим (дуративлик). Уйга қайтганимда кайфим бор эди (ҳолат, мавжудлик). Дарвозани онам очди (тугалланган бир карралик). Совуқда мушдеккина бўлиб дилдираб турибди (давомийлик, чегараланмаган)* [Ў. Ҳошимов, 8].

Келтирилган матндаги тил структуралари нарратив тарзда ифодаланганлиги билан ҳар хил турдаги аспектуал маълумотларни сақлайди. Биринчи гапдаги хабитуал маъно шахсий тажрибалар асосидаги итератив маънони ифодалаган. Хабутал маънонинг(*одат тусига кириб қолган жараён*)морфологик белгига асосланганлигига гувоҳ бўламиз, кўмакчи гапдаги *-ар* қўшимчаси хабутал семантикани англатган. Кейинги гапдаги *келиб қолишди* аналитик шакли субъект ҳаракатининг тасодифан юзага келганлигини англатиб, терминатив аспектуал семантикани ҳосил қилган. Кейинги ўриндаги “*қолиб кетдим*” эса дуратив маънони билдирган. Охирги гапдаги “*турибди*” кузатувчи кўз ўнгида содир этилаётган давомийликни ифодаланган.Матндаги маълумотларнинг фарқланиши улардаги аспектуал маълумотларини берилишига ҳам таъсир этади. Матнларнинг боғланиши ички таркибий кўрсаткичлар матн

компонентларининг бир-бирига тобелигида акс этади. Умумийлик матннинг концептуал хусусияти ҳисобланади.

Аспектуал маъноларнинг ифодаланиш тартиби инглиз ва ўзбек тилларида тубдан фарқланади. Инглиз тилида аспектуал ҳодисалар феълларнинг ўтимли, ўтимсиз категориаларидан ташқари, аргументларнинг квантитативлик хусусиятлари билан ҳам ифодаланади. Аргументларнинг қўлланиши бевосита предикат семантикасини чеклайди. Ўзбек тили мисолида эсааспектуал ҳодисалар етакчи ва кўмакчи феълли бирикувлар ёрдамида амалга оширилади. Бунда кўмакчи феъллар семантик таркибининг кенг қамровли эканлиги муҳим ўрин тутади. Матнда эса инглиз тилидаги гапларнинг қўлланилиши нарратив тартибда алоҳида-алоҳида вазиятларни, алоҳида аспектуал ҳодисаларнинг ифодаланишини кузатиш мумкин бўлса, ўзбек тилида бири иккинчисига боғлиқ тарзда шаклланади. Бир гап иккинчи гапда ифодаланадиган аспектуал вазиятни тўлдириши мумкин. Шу билан бирга, ўзбек тили аналитик шакллари аспектуал маъноларнинг ифодаланишида муҳим аҳамият касб этади. Айнан кўмакчи феъл семантикасининг бойлиги таъсирида аспектуал маънолар шаклланади.

Нарративликда аспектуал семантика олдинги гап контекстидан келиб чиққан ҳолда кейинги гап билан мослашади. Шу нуқтаи назардан қаралганда, аспектуал маъно бир-бирига боғланган гапларда релятив муносабатлар юзага келганда содир бўлади. Замон эса сўзловчи томонидан тасвирланаётган воқеа-ҳодисанинг ўтган, ҳозирги ва келасидаги ҳаракат-ҳолатларга қаратилганлигини билан белгиланади. Албатта, замон муносабатлари ҳам нарратив матнда релятив муносабат касб этади. Бу ҳодиса сўзловчининг воқеа-ҳодисалардан ажралганлик даражасига боғлиқ. Агар нарративликда сўзловчи ўтган замондаги воқеа-ҳодисанинг иштирокчиси тарзида ифодаланса, замон сўзловчининг ўтган замондаги иштирокига алоқадор ҳолда берилади ва, аксинча, ҳозирги замон нуқтаи назаридан бўлса, сўзловчининг воқеа-ҳодисага алоқадорлиги эмас, балки муносабати юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тураева З. Лингвистика текста: (Текст: структура и семантика). Учеб. пособие. –М.: Просвещение, 1986.– 127 с.

2. Geeraerts D.Theories of Lexical Semantics.–Oxford: Oxford University Press, 2010. – 342p.

3. Smith C. S. Modes of Discourse // The Local Structure of Texts. Cambridge University Press, 2003. –336 p.

Бадиий адабиётлар:

1. Lane Allison. Christmas collection. –USA. Belgrave House. 2000. –130 p.

2. Ўткир Ҳошимов. Икки эшик ораси. –Т: “Шарқ”, 2000.–608 б.

3. Ғофур Ғулом. Танланган асарлар. Назм ва Наср. –Т: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2003. –352 б.

“АВЕСТО” АСАРИДА НУТҚ МАДАНИЯТИГА ОИД ФИКРЛАР ТАЛҚИНИ
INTERPRETATION OF THOUGHTS ON SPEECH CULTURE IN AVESTO

Ў. Исламов
ЎзДСМИ доценти,
филология анлари номзоди.

Аннотация: ушбу мақола туркий халқларнинг муқаддас китоби “Авесто”да тил, нутқ, нутқ одоби, тилга муносабат, тилни улуғлашга оид фикрларни ўрганишга бағишланган. Асарнинг кўп жойларида такрор-такрор таъкидланган, яъни ўша даврдаги маънавият ва диний талаб бўйича қатъий амал қилинган *“эътиқод”, “эзгу ният”, “эзгу сўз”* ва *“эзгу амал”* тушунчаларини, халқ учун фойдали бўлган фикрни ифодаловчи, тил, нутқ одоби ва маданиятига амал қилган нутқ, кишиларга манфаат келтирувчи ва таъсир этувчи, қолаверса, уларни тарбияловчи сўз деб тушунганлиги ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: *тил, сўз, нутқ, эзгу сўз, эзгу ният, эзгу амал, нутқ одоби, тарбия.*

Abstract: this article is devoted to the study of language, speech, etiquette, attitude to language, the glorification of language in the holy book of the Turkic peoples "Avesto". The concepts of "faith", "good intentions", "good words" and "good deeds", which are repeatedly emphasized in many parts of the work, that is, the spiritual and religious requirements of the time, express the idea that is useful to the people, language, speech etiquette. and that speech, which follows its culture, is understood to be a word that benefits and influences people, as well as educating them.

Keywords: *language, word, speech, good word, good intention, good deed, speech etiquette, upbringing.*

Инсоннинг маънавий камолотга эришувида, жамиятнинг маданий-маърифий ривожида она тилининг ўрни фавқулотда муҳимдир. Тил миллий маънавият ва маданиятнинг энг холис хира тортмас кўзгусидир. [1] Тилга сиғиниш, сўз культи жуда қадимий ҳодисадир. Шунга кўра, ўтмиш давр кишилари тил, шахснинг нутқи инсонни бахтли ёки бахтсиз қилишига сабабчи бўлади, деб ишонганлар. Шу сабабли ҳам тилдан эҳтиёткорлик билан мақсадга мувофиқ равишда фойдаланишнинг ўзига хос тартиб қоидалари, муайян меёрлари яратилган. Ушбу қоидаларга амал қилиш нутқ одоби деб юритилувчи тушунчаларга замин ҳозирлаган. Шунинг учун ҳам тил нафақат ўзаро мулоқотнинг, балки инсонни тарбиялашнинг асосий воситаларидир.

Ҳозирги замон тилшунослигида нутқ одоби, нутқ маданияти, деб юритилаётган нуқтаи назарлар жуда қадимда яшаб ўтган аждодларимизнинг тафаккури мевасидир. Бунинг ёрқин мисоли қуйидаги манбаларда сақланиб, бизгача етиб келган:

1.Халқнинг оғзаки тили, лаҳжа ва шевалардаги тил ва нутққа оид фикрлар ва мулоҳазаларда.

2. Халқ оғзаки ижоди асарлари – достон ва эртаклар, мақол ва маталларда.

3.Қадимдан турли шаклларда сақланиб бизгача етиб келган мифологик асарларда – афсоналар, латифалар, мифларда.

4.Халқнинг асрлар давомида тилдан одоб-ахлоқ доирасида гапиришга интилиб, мазмунан қўпол, дағал сўз ва ибораларни эффемистик воситалар билан алмаштиришида.

5.Қадимий ёзма обидалар (тарихий мемуарлар, мумтоз адабий асарлари, тошбитиклардаги матнлар)да.

6.“Ибратли ҳикоялар”, “Ҳикматлар” номи билан бизгача етиб келган ёзма асарлар тилида ва бошқалар.

Бундай нодир асарлар, манбалар жуда кўп бўлиб, улар турли шаклларда яратилган ва ҳозиргача жуда кўп қисми сақланиб қолган.

Фикр юритилаётган муаммонинг ниҳоятда қадимийлигини Марказий Осиё халқлари аждодлари томонидан яратилган бебаҳо обида “Авесто” асаридаги мулоҳазалардан билса бўлади. Маълумки, ушбу асар бундан икки минг етти юз йил олдин яратилган бўлиб, ўзбек халқи унинг қонуний маънавий меросхўридир. Чунки “Авесто” қадимий Хоразм заминида Амударёнинг кўҳна қирғоқлари бўйида ижод қилинган. “Авесто” қомусий асар бўлиб, унда ўтмиш аждодларимизнинг тарихига оид жуда кўп қимматли маълумотлар ўз аксини топган [2]. Мана шундай маълумотлар орасида “Авесто”да тил, нутқ, нутқ одоби, тилга муносабат, тилни улуғлашга оид фикрлар ҳам мавжуд. Асарнинг кўп жойларида такрор-такрор таъкидланишича, ўша даврдаги маънавият ва диний талаб бўйича қатъий амал қилинган *“эътиқод”*, *“эзгу ният”*, *“эзгу сўз”* ва *“эзгу амал”*дир [3].

Келтирилган *“эзгу сўз”* тушунчасини, халқ учун фойдали бўлган фикрни ифодаловчи, тил, нутқ одоби ва маданиятига амал қилган нутқ, кишиларга манфаат келтирувчи ва таъсир этувчи, қолаверса, уларни тарбияловчи сўз деб тушунмоқ керак. Бу фикрни баъзи ўринларда *“эзгу сўз”* ўрнида *“эзгу калом”*, *“эзгу фикр”*, *“муқаддас сўз”* каби ифодалашда ҳам кўриш мумкин.

Қувонарлиси шундаки, мустақилликдан сўнг “Авесто” тилини тадқиқ қилишга бағишланган монографик ишлар [4] юзага кела бошлади. Дарҳақиқат, “Авесто” асарининг, қомусий асар эканини исбот қилувчи ишончли далиллардан бири ундаги нутқ одоби ва маданиятига оид қарашлардир. Ушбу қарашлар қадимда ўтган аждодларимизнинг тил ва нутққа қанчалик масъулият билан ёндашгани, тилни, унинг нафосати ва қимматини қай даражада қадрлаганлигини ўзида юксак бадиий дид билан ифодалаган. Бу эса нутқ одоби ва нутқ маданияти каби тушунчаларга ҳар доим ҳам инсонни тарбияловчи энг муҳим восита сифатида мурожаат этганлар.

Маълумки, Ахура Мазда дини ва фалсафаси амал қилган муқаддас эътиқод “эзгу ният, эзгу сўз, эзгу амал”дир. *“Эзгу ният, эзгу сўз ва эзгу амал ҳақидаги сўзларни олқишламоқ истайман”* [3].

Зардўштийлар, маздапарастларнинг маънавий ва ахлоқий тамойилларини белгиловчи ушбу фикр “Авесто” асарининг турли ўринларида, турли шаклларда кўп бор такрорланади: *“Эзгу ният, эзгу сўз ва эзгу амални олқишлайман!”* [Авесто, 56-бет], *“Эзгу фикр, эзгу калом, эзгу амал”* [Авесто, 64-бет]; *“....эзгу андиша, эзгу калом, эзгу амал билан бош уриб келган хонадонда яхшиликлар билан кутиб олингиз!”* [Авесто, 83-бет]; *“Мен мадҳ этаман эзгу фикрат, эзгу калом, эзгу амал ила эзгу калом, эзгу амални”* [Авесто, 166-бет]; *“Эзгу фикр, эзгу калом ва эзгу амалким, бу ерда ва ҳар ерда улуғланади ва улуғлангуси, мадҳ этаман. Ўзим ҳам жону дилим билан яхшиликка интиламан”* [Авесто, 225-бет]. *“Мен эзгу сўз сўзлаганга ишонаман. Мен эзгу амалнинг амалига инонаман”* [Авесто, 298-бет] ва бошқалар.

Бизни бу ўринда қизиқтираётган нарса “эзгу сўз”, “эзгу калом” фикридир. Мана шу тушунчада маздакийларнинг лисоний ахлоқи, яъни нутқ одоби ва маданиятига оид қараш ва эътиқодлари ўз ифодасини топган. Ушбу тушунча “Авесто”да доимо, “эзгу ният” (эзгу фикр, эзгу фикрат), “эзгу амал” билан бирга, ёнма-ён тилга олинади. Асарда “Эзгу фикрат” – хумата, “эзгу калом” – хухту, “эзгу амал” – хваришта деб тилга олинади” [2].

Асарда келтирилган “эзгу сўз” (“эзгу калом”) шундай талқин қилинади:

1. “Эзгу сўз нима? Муқаддас сўз” [Авесто, 65-бет]. Бу ўринда маздакийлар дини ва эътиқодлари ифодаланган тил кўзда тутилмоқда. “Авесто”даги ахлоқий масалалар қаторида зардўштийлик таълимотида эзгулик аввало яхши фикрни ифода этувчи эзгу каломдан бошланиши ва бундай сўзлар анча бўлиб, ҳар бири эзгуликнинг муайян қирраларини ифодалайди ва бевосита кишилар руҳиятига таъсир этади. Асардаги “эзгу сўз” янада аниқроқ белгиланса қуйидаги тушунчаларга яқинроқ маъно касб этади:

- сўз билан иш(амал) бирлиги;
- сўз донишмандликнинг рамзи, белгиси;
- сўзда субутсизлик ва қасамхўрликнинг қораланиши;
- сўзда маъно ва ақлнинг ўз ифодасини топиши;
- эзгу сўзнинг реал ва руҳий (хаёлий) оламга тегишли экани;
- яхши ниятни ифода этувчи сўзлар;
- ростлик ва ҳақгўйлик;
- сўзнинг сеҳри сўзнинг нажотбахш, даволовчи кучи, восита эканлиги
- эзгу сўзнинг руҳий озуқа, дил малҳами, яхши кайфият сабабчиси эканлиги [2].

Келтирилган фикрларда лисоний-луғавий маънодаги сўз, гап ҳақида эмас, эзгулик ифодаланган матн, тил ҳақидаги гап кетмоқда. Аммо уларда яна бир фикр мавжуд, яъни тилдан эзгулик йўлида тўғри фойдаланиш масаласи. Мана шу томони билан “Авесто”даги келтирилган фикрлар нутқ одоби ва маданияти билан боғланади. Аслида халқимизнинг тилни эъзозлаш, нутқ одоби ва маданиятига оид қарашлари, бунинг этник, эстетик, маънавий ва маданий тамойиллари жуда қадимий даврлардаёқ юксак дид ва фаросат руҳи билан суғорилганлигини “Авесто”даги далиллар тўла исботлайди. Чунки ўтмиш аждодларимиз ўзининг кундалик ҳаёти ва амалларида тилнинг эзгу, ҳаққоний ва самимий сўзнинг сеҳрига, унинг инсон кайфиятига ижобий таъсирига, тарбиявий кучига ишонишган, кишиларда тилга ҳурмат ҳиссини тарбиялашга интилган. Шу орқали аждодларимиз инсондаги нутқий одоб ва маданиятни камол топтиришга катта куч сарфлашган. Буни фикр юритилаётган асарнинг

кўпгина ўринларида такрор-такрор айтилган фикрлардан билса ҳам бўлади. Буларнинг асосийлари қуйидагилар:

1. Самимий, виждон билан айтилган сўз улуғланган:

Имон билан фикр айлансин,

Имон билан сўз сўйлансин. [Авесто, 172-бет]

2. Кишиларни пухта ўйлаб, фикр юритиб сўзлашга, яъни “ақл тили” билан иш кўришга, муқаддас нарсаларни мана шундай усулда олқишлашга чорлашган: “...ақл тили, мансара, эзгу андиша, сўз ва амал билан олқишлаймиз”. [Авесто, 233-бет]

3. “Авесто”да “эзгу калом”га нисбатан “ёвуз калом”, “қабиҳ сўз” қарама-фарши қўйилади. Чунки биринчиси адолатга, яратувчанликка чорлайди, иккинчиси эса ёвуз, қабиҳ ниятлар, амалларга ундайди: “Эзгу каломга боғланганман. Ёвуз каломдан чекинганман”. [Авесто, 54-бет] “Мен бу уч нарсадан – қабиҳ андиша, қабиҳ сўз ва қабиҳ амалдан пушаймонман ва патит қиламан (қайтаман). [Авесто, 298-бет]

4. “Авесто”да ростгўйлик, “рост сўз”, “тўғри сўз”, “ҳаққоний нутқ” улуғланади, ёлғончилик, “ёлғон сўз”га нафрат изҳор қилинади. Қуйидаги фикрлар ҳозирги давр учун ҳам долзарбдир: “Барча рост айтилган сўзларни мадҳ этаман” [Авесто, 100-бет]. “Дуруж – ёлғонга қулоқ солганлар ва унинг таълимини олганларнинг оқибати ғоят хунук...” [Авесто, 11-бет]. “Тўғри сўз охиратда энг саодатли сўздир” [Авесто, 145-бет]. “Бу ёлғон ва мунофиқона амалларингиз билан етти иқлимга ном таратдингиз ва охири-оқибат шарманда бўлдингиз” [Авесто, 13-бет]. Демак, ёлғончилик ва бу орқали кўзланган мунофиқона хатти-ҳаракатлар инсонни эл олдида бутун ёмонликлари билан шарманда бўлишига ишора қилинмоқда.

5. Зардўштийлик таълимотига кўра, нутқ самимий ва ошкора бўлмоғи керак. Масалан: “Самимий сўзлар оламга бўлсин!” [Авесто, 55-бет]. “...менинг ошкора сўзларимни тинглангиз ва ёдингизда маҳкам сақлангиз” [Авесто, 316-бет].

6. Асарда нутқий субутлилик, бир сўзлилик, қатъий сўзлилик, лафзда туриш улуғланади, нутқий субутсизлик, қасамхўрлик ниҳоятда қораланади: “Имон билан сўз сўйласин ва имонга амал қилсин” [Авесто, 172-бет].

“Авесто”да қасамнинг турлари ва қасам ичиш усуллари қуйидагича изоҳланади: “Қасамларнинг саноғи нечтадир?

Ахура Мазда жавоб берди:

Менинг қасамларим олтита:

Биринчиси – сўз қасами;

Иккинчиси – қўл қасами;

Учинчиси – қўй қасами;

Тўртинчиси – сигир қасами;

Бешинчиси – одам қасами;

Олтинчиси – экин қасами. [Авесто, 117-бет]

Келтирганимиздек, энг биринчи “сўз қасами” бўлишдан ташқари бу қасамга амал қилмаган, уни бузганларга берилувчи жазо ҳамда унинг гуноҳи жуда юқори бўлган: “Кимда-ким сўз қасамини бузса, бу гуноҳ учун гирифтор бўладиган жазосининг андозаси нечундир?

Ахура Мазда жавоб берди:

- *Унинг ва энг яқин қариндошлари гуноҳининг товони ўша қасам баҳосининг уч юзтасига тенгдир.*

Кимда-ким сўз қасамини бузса, гуноҳининг жазоси нечук?

Ахура Мазда жавоб беради:

- *Уч юз қамчин аспаҳиҳ – ашатра билан, уч юз қамчин саравушу – чарапа билан саваланади”* [Авесто, 117-бет].

7. “Авесто” тили билан танишган киши асарнинг ниҳоятда таъсирчан, бадиий жиҳатдан пишиқ, одамни ўзига тортувчи, мантиқан баркамол тилда ёзилганига гувоҳ бўлиши мумкин. Бу бежиз эмас, чунки китобнинг турли саҳифаларида *“пайваста сўз”, “энг гўзал калом”, “мукаммал нутқ”, “комил нутқ”* ҳақида гап боради. Бу зардўштийларнинг

нутқий нафосатга, яъни нутқнинг гўзаллиги тамойилига алоҳида диққат қилганини кўрсатади. Бу қуйидаги гапларда ёрқин ифодаланган: *“Энди мен сизга нопайваста сўзлар билан эмас, балки пайваста сўзлар билан мурожаат қиламан”.* [Авесто, 316-бет] *“Икки оламда энг гўзал бўлган фикр, калом ва амални танлаймиз”.* [Авесто, 225-бет] “*Забардаст Андарватни мукаммал нутқ билан олқишлаймиз”.* [Авесто, 264-бет] *“Забардаст Андарватни комил нутқ билан олқишлаймиз”* [Авесто, 267-бет] ва ҳоказо.

Юқоридаги таҳлиллардан кўринадики, зардўштийлар нутқ одобининг этикавий томони, деб яхши ният билан айтилган сўзни, самимий ва имон билан ирод қилинган нутқни, ўйлаб, ақл билан изҳор қилинган гапни, гап билан амал бирлигини, кишига бахт келтирувчи тўғри, рост сўзни, самимий ва ошкора нутқни, сўзида қатъий туришни тушунган, нутқ одобининг лисоний томони деб мукаммал, етук, комил тилни, эстетик томони деб энг гўзал каломни, чиройли сўзларни тушунган ҳамда ўзлари амалда ушбу тамойилларга қатъий риоя қилишган.

“Авесто”да эзгулик ҳақида фикр юритаётган шахс эзгу мақсадли одамдир. Унинг нияти фақат эзгулик ва эзгулик учун курашишдир. У одамларга яхшилик истайди, эзгу сўзликни комил инсон даражасида кўради.

Қайд қилинган тамойиллар аслида нутқ маданияти ва одобининг ҳозирда амал қилинаётган етакчи талабларидир. Шу сабабли, нутқ маданияти муаммосини тадқиқ қилганда, нутқ маданияти таълимида “Авесто”нинг бу масалага оид сабоқ ва ўгитларидан ҳам ўрни билан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Келтирилган тушунчалар ўтмишда жамият аъзоларининг тилга, ундан тўғри фойдаланишга муносабати ҳам бир хил бўлмаганига дахлдордир. Бунинг устига, келтирилган маънавий-мазмуний қарши қўйиш тарихнинг бир даври махсули эмас. Бу фикрларда кишиларнинг қадимдан давом этиб келаётган кузатишлари ва тажрибаларининг асосли махсуллари бор.

Албатта, инсонлар ҳар доим яхшилик йўлида ижобий нарса ва ҳаракатларни маъқуллаб, унинг салбий кўринишларини инкор этган. Нутқдаги салбий томонларни ижобий томонга буришга ҳаракат қилган. Бу жамият ривожи учун, кишиларнинг дунёқараши ва маънавияти учун муҳим бўлган. Шу туфайли аждодларимиз туғилган болага ёшликдан нутқда учрайдиган қусурларни тўғрилашга ундайдиган танбеҳлар бериш ва лозим бўлса жазолаш чораларини қўллашган. Нутқ одобини тарбиялаш барчанинг вазифаси сифатида қаралган ҳамда у ҳар бир жамоа орасида кескин тарзда давом этган. Нутқ одобини камол топтириш, нутқни доимо эзгу мақсадларга буриш ўз ўрнида осон ҳам кечмаган. Чунки бундай чақириқларга барча ҳам бирдек амал қилмаган. Бунинг сабаби шахс тарбия олган муҳитга жамиятнинг ўзида мавжуд бўлган баъзи мақсад ва интилишлар, шахсларнинг ўзаро муносабати, ноҳалол, салбий характерли инсонлар борлиги тил ва нутқдан ўз шахсий манфаатлари йўлида фойдаланишга йўл очган.

Демак. мавжуд нодир адабиётларни ўрганиш шуни исботлайдики, кишилар кўпроқ нутқ одобининг салбий томонлари ва уларнинг зарари ҳақида кўп ёзишган. Чунки ҳар қандай нарсанинг салбий томони ижобий томонга кўра тез ва ёрқинроқ кўзга ташланади. Кишилар нутқий одобдаги салбий хусусиятларни йўқотишга эришиш нутқий камолотга етишишнинг асосий чораси деб ҳисоблашган ва бу борада ақлли, доно кишилар, мутафаккирларнинг деярли барчаси ўз фикрларини билдиришган.

Инсон ўзлигини ифодалашда айтилган такомил йўли жараёнларида тилдан фойдаланишнинг, мазкур нутқ парчаларини бир-бири билан бириктиришнинг шундай усулларирни ҳам кашф этганки, натижада бадиий нутқ дейиладиган мўъжизакор бир воситанинг муаллифига айланган. Ана шундай гўзал нутқнинг бетакрор шакллари, намуналари сифатида юзага келган сўз дурдоналари сифатида юзага келган сўз дурдоналари – афсона, асотирлар, достонлар, эртаклар, мақолу маталлар, топишмоқлар, қўшиқлар, шеърлар драмалар, ҳикоя, қисса ва романлар инсоният бадиий даҳосининг ноёб шаҳодатномалари сифатида яшаб келмоқда, яратилмоқда ва албатта, бундан кейин ҳам ятарилган. Бу соҳир нутқнинг синоатларини тилшунослик, адабиётшунослик,

эстетика, тарих каби фанлар, таъбир жоиз бўлса, қўлни қўлга бериб, биргаликда, ҳамкорликда тадқиқ этади. Аммо бадиий адабиёт дейиладиган ана шу ўзига хос майдондаги тилнинг ҳаётини ўрганиш борасида, гарчи бу муаммони ўрганишнинг ибтидоси энг қадимги даврларга бориб тақалса-да мунозараю муҳокамалар, баҳслар ҳеч қачон тинган эмас [5].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маҳмудов Н., Ўқитувчи нутқи маданияти. Т.: 2007: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2-бет.
2. Ўрозбоева Нигора. “Авесто” – антик тарихимизнинг бой тарихий манбаи // “Авесто” – буюк қомусий асар. Тошкент, 2001, 53-бет.
3. “Авесто” (тарихий-адабий асар). Асқад Маҳкам таржимаси. Тошкент: Шарқ, 2001. 56-57-бетлар.
4. Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида). Номзодлик дисс.автореф.- Тошкент, 2006.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Т.: 2019. 3-бет.

БЕҲБУДИЙНИНГ СЎЗ ТАНЛАШ МАҲОРАТИ
BEHBUDIY'S WORD SELECTION SKILLS

Н.Авазов
Тошкент давлат санъат ва маданият институти, филология фанлари номзоди, доцент

Аннотация: Беҳбудийнинг ижоди XX аср бошларида Туркистон ўлкаси тил ва адабиётида кенг ўрин эгаллайди.Сўз маҳоратини ўрганиш масаласи Беҳбудий ижодининг янги қирраларидан саналади. Унинг “Падаркуш” драмаси, бадиий публицистикаси Туркистон ўлкасида ўзбек миллатини маърифатпарварлик руҳида тарбиялашда катта ўрин тутади. Шунингдек, сўздан маҳорат билан фойдаланганлигининг гувоҳи бўламиз.

Беҳбудийнинг сўз топқирлиги, халқона сўзларнинг қўллаши айни даврни тушунишга янада ёрдам беради.

Аннотация: Работы Бехбуди широко использовались в Туркестане в начале двадцатого века как лидер джадидов в языке и литературе.

В творчестве Бехбуди проблема овладения искусством речи - одна из новых сторон его творчества. Его драма «Падаркуш» и художественная журналистика играют важную роль в воспитании узбекского народа в духе просвещения в Туркестане. Таким образом, мы видим, что он умело использовал это слово.

Красноречие Бехбуди, использование популярных слов еще больше помогает понять тот же период.

Abstract: Behbudi's works were widely used in Turkestan at the beginning of the twentieth century as the leader of the Jadids in language and literature.

In Behbudi's work, the problem of mastering the art of speech is one of the new aspects of his work. His drama "Padarkush" and artistic journalism play an important role in educating the Uzbek people in the spirit of enlightenment in Turkestan. Thus, we see that he skillfully used this word. Behbudi's eloquence, the use of popular words further helps to understand the same period.

Калит сўзлар: *сўз, сўзнинг маҳорати, миллат тили, миллийлик, Туркистон, Туркистон ўлкаси, кўп тиллилик, ислоҳот, ҳуррият, Ватан, озодлик, маданият, эркинлик, сўзнинг қудрати.*

Ключевые слова: *слово, словарное мастерство, язык нации, национальность, Туркестан, Туркестанская область, многоязычие, реформа, свобода, Родина, свобода, культура, свобода, сила слова.*

Key words: *word, vocabulary, language of the nation, nationality, Turkestan, Turkestan region, multilingualism, reform, freedom, Motherland, freedom, culture, freedom, power of speech.*

Беҳбудий ижодида сўзнинг таъсир кучи ниҳоятда катта. Адиб маҳоратининг ёрқин белгиларидан бири – унинг ишонтириш сўз санъатидир. Ҳар бир мақола айнан шу санъат билан зийнатланган. Фақатгина баёндаги сўзлар танлови, фикрнинг мантиқий оқими, изчиллигигина эмас, келтирилаётган факт ва далилларб, ҳаттоки, воқеалар тафсилотидаги аниқлик, далил ва фактларнинг саноғидаги холислик ҳам ана шу ишончни таъминлайди. Шу ўринда Беҳбудий мақолаларнинг ҳажми ҳақида ишда тўхталиш ўринли кўринади. Беҳбудийнинг йирик сўз ҳажмидаги мақолалари йўқ ҳисобида. Уларнинг энг йириги ҳозирги ўлчамларда кўрадиган бўлсак, 5-6 машинка қоғоздан ортмайди. Уларнинг кўпчилиги эса икки, уч машинка қоғози ҳажмига тенг. Мана шу ҳолатнинг ўзи ҳам Беҳбудий мақолаларининг кучи унинг ихчамлигида, фикрининг сиқиқ ва лўнда, аниқлигида кўринади деган мулоҳазага ундаб туради. Унинг сўз топқирлиги, сўзни ўз жойида қўллай билиши эътиборга молик.

Беҳбудийнинг публицистик мақолаларида тез – тез кўзга ташланиб турадиган бир ҳислат мавжуд. Бу- муайян фикр ғоя ёхуд фактлар такрори. У муҳим деб ҳисобланган ўринларда айнан шу йўлни тутади. Аммо бу такрорлар муаллиф услубининг заиф жиҳати сифатида эмас, аксинча, муаллиф дунёқараши ва мақсадларидаги изчиллик, устиворлик, собитлик билан изоҳланмоғи керак. Қолаверса, такрорларни улар фактлар билан алоқадорми ёки фикр йўналиши биланми, барибир, муаллиф бундан ўз мақсадига эришиш йўлида фойдаланади, яъни уларни ўз адресатига етказиш воситаси деб билади. Фикримизни тасдиқлаш учун айрим мисолларга мурожаат этайлик:

“Тўй ва таъзияга сарф қилинатурган ақчаларимизни биз Туркистонлилар илм ва дин йўлига сарф этсак, қарийиб Оврупаликлардек тараққий этамиз ва ўзимизда динимизда обрўй ва ривож топар. Йўқ ҳозирги ҳолимизда давом этсак дин ва дунёга залолат ва маснунатдан бошқа насибамиз бўлмайдур”.

“Мактаб ва мадрасалар очмоққа, жамият ва ширкатлик тижоратхоналар таъсис этмоққа ҳаракат этайлик. Россия ва Оврупа, Миср ва Истамбулга талаба юбормоқ керакдур. Ой Туркистонли мусулмонлар бошқа насибамиз бўлмайдур”(1).

“Мактаб ва мадрасалар очмоққа, жамият ва ширкатлик тижоратхоналар таъсис этмоққа ҳаракат этайлик, Россия ва Овропа, Миср ва Истамбулга талаба юбормоқ керакдур. Ой Туркистонли мусулмонлар, биродарлар! Кўзингизни очинг, мажалла ва жаридаларга боқиб дунёни билинг”.

Маълумимиздирки тўй ва маракаларга сарф қилинадурган ақча ила Кавказ, Қрим, Оренбург ва Қозонга усули таълим ўрганмоқ учун бола юбормоқ керакдур”(2).

Келтирилган мисоллардан кўриниб турганидай, фикрий такрорлар умумий ва жиддий мақсадга эришиш йўлидаги урф – одатларимизга боғлиқ бўлган ва айни пайтда миллатнинг тараққиёти учун кишан ҳисобланган айрим иллатларни танқид қилиш ва улардан қутилиш, кўрсатиш билан алоқадор.

Умуман такрорларнинг деярли ҳаммаси муаллиф фикрини таъкидлаш, кучайтириш мақсадига бўйсундирилган. Айрим ҳоллардагина бу такрорларнинг ёзувчи услуби билан алоқадор қирралари ҳам кўзга ташланиб қолади.

Шу нуқтаи назардан Беҳбудий ижодига ёндошадиган бўлсак, унинг адабий мероси айни пайтда ўша даврдаги ўзбек тилининг равнақи учун ҳам салмоқли таъсир кўрсатганини илғаш ва англаш мумкин. Кўриниб турганидай, Беҳбудий ҳар бир мақолани ёзганида унинг ўқувчисини ҳар доим кўз олдида тутади. Бу ўқувчининг мартабаси, дунёқараши, савияси, билим даражаси, унинг назаридан четда қолмайди. Ана шу ҳолатлар адибнинг сўз танлаш меъёрларини белгилашга хизмат қилади. Шунинг учун ҳам жамиятнинг турли табақаларига мўлжаллаб ёзилган мақолаларида Беҳбудий турлича сўзларни танлаганини кўриш қийин эмас.

Олдиндан маълум бўлган воқелик ҳақида гап кетганда адибнинг ниҳоятда ихчам ва қисқа, лўнда ифодалар билан кифояланганини кўрамиз. Аксинча, маҳаллий аҳоли, суҳбатдош, ўқувчи учун янгилик ёки нотаниш бўлган ҳодиса ёки тушунча ҳақида гапирганида эринмасдан изоҳ беришни кузатиш мумкин. Фикримизнинг қуруқ бўлмаслиги учун бир мисол келтирайлик: “ Мелкий кредит – исм ила ҳукумати Туркистон музофотининг аксар ноҳияларида кичкина банкларни уч санадан бери очмоқда ва мухтасар тартиби ишдир. Ҳар ноҳия яъни вулуснинг икки – уч даҳасидан уч – тўрт нафар аъзо сайланадур. Бу аъзолар даҳа аҳлидан ақча қарз олатурганлариға саккиз – тўққиз муддат билан ўн икки фоиз яъни бир юз сўмға бир йил муддатға ўн икки сўм фойда ила қарз бериладур”(3).Ёки “Туркистоннинг баъзи ерларида бир десятина тўрт таноб ва яъни ерларинда олти таноб ҳисобланадур. Аммо ҳозирги фойдаға десятин ҳисобин ила яъни бир таноби олти юз саржин ҳисоблаб олинур. Бир таноб тўрт юз саржинлик жойлар бир ярим танобға бир пут ғалла бераралар. Бир десятин икки минг тўрт юз марҳиб саржиндур”(4).

Биринчи мақолада “Мелкий кредит” ифодаси фақат русча бўлганлиги билангина эмас, балки иқтисодий тушунча сифатида ҳам маҳаллий аҳолига янгилик бўлганлиги учун Беҳбудий махсус изоҳ беришни лозим топади. Бу тушунчанинг мазмун ва моҳиятини ойдинлаштириб беради. Кейинги кўчирма ҳақида ҳам худди шундай дейиш мумкин. Бу ерда десятина сўзининг Туркистоннинг турли музофатларида ҳар хил ўлчамларга эга эканлигини ҳисобга олиб, уни ҳаммага тушунарли бўлган саржин ўлчовига қиёслаб беради. Бу усул, Беҳбудийнинг барча турдаги мақолаларига хос десак янглишмаймиз.

Беҳбудий даврида ўзбек тилининг рус тили орқали бойиш имкониятлари кенгайиб бораётган эди. Ана шу имкониятдан Беҳбудий ҳам жуда ўринли фойдаланади. Русча ва русча-байналмилал сўзлар Беҳбудий мақолаларида кўплаб учрайди. Ҳар ҳолда булар ўша давр тарихий давр воқеаларининг қонуний ва ҳаққоний ифодаси сифатида тушунилмоғи керак. Беҳбудий истаса ҳам, истамаса ҳам бу сўзлар ҳаётга, амалиётга ўз тушунчалари билан биргаликда кириб келмоқда, ўз ўрнини топмоқда эди. Беҳбудий мақолаларида ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаётнинг турли соҳаларига оид кўплаб русча ва русча – байналмилал сўзларни кўрамиз. Хусусан, иқтисодга оид: банк, кредит, молия, коммерсант; сиёсатга оид: дума, волость, член, автономия, контурхона; ҳарбий соҳага оид: военние организация, губернатор, миссионер ва бошқа сўзлар шулар жумласидандир.

Адиб бу сўзларни ўз - ўзича қўлламайди. Уларнинг нотаниш эканлигини назарда тутиб ўзбек китобхонига маълум бўлган бошқа бир сўз ёки изоҳ билан уни тушунтириб кетади. Масалан: “Учредительная собрания” тушунчаси “мажлиси муассисон” (Ҳақ олинур, берилмас), федерация-мухторият (Ҳақ олинур, берилмас), калония-мустамлақот (Баёни ҳақиқат), ҳарбий ташкилот мажлиси: военновий организация, аскар ва ишчилар мабъусларининг мажлиси – совет солдатский, рабочий депутат (Иттифоқ керак).

Уларнинг барчаси ниҳоятда оддий кишиларга, кенг халқ оммасига тушунарли деб айтиш қийин, албатта. Ўзи ўрни билан Беҳбудийнинг муқобил сўзларни топишда қийналганини, баъзан эса бундай сўзлар топилмаганлигини кузатиш мумкин. Масалан: “дума” – “балдия” (Самарқандда миллий ишлар ҳақинда), “мубораватимиз”– “парламентизм”(Баёни ҳақиқат) каби сўзлар шулар жумласидандир. “Ультиматум” сўзини эса Беҳбудий “расмий бир қоғоз” деб изоҳлаш билан чекланади.

Беҳбудий ҳақида гапирганда арабча ҳамда форсча-тожикча сўзларни чеклаб ўтиш мумкин эмас. Ҳатто ўрни-ўрни билан бутун бошли арабча жумла ва гаплар ҳам истефода этилади. Афгор, амлоқ, басират, дарилқазо, жадида, жиҳот, жафт, мафтун, мабухоса, рафиқ, маниҳ, муфатиш, манзиррат, масраф, мабъус, наҳир, такфир, тазийин, тамасахўр, фунун, фавран сингари кўплаб арабча, шунингдек, биринчи, бомашварат, дигар, доҳлан, сарбозхона, бачча, олболу, хазор, каби тожикча-форсча сўзлар кўп учрайди. Бугина эмас Беҳбудий тилида классик анъаналаримизга хос бўлган ифода тузилишлари ҳамда онда-сонда бўй кўрсатиб туради. Масалан: “индоллоҳ ва инданнос”, “фитаммул” (Иттифоқ керак), “куллоллоҳу ва луквн мароҳ (Муҳтарам Самарқандийларга холисона арз).

Табиийки, Беҳбудий маҳорати соф ўзбекча сўзни қўллашда жуда очиқ кўринади. У сўзнинг ниҳоятда кучли таъсирига эгалигини яхши илғайди. Шунинг учун ҳам амалиётда бундан жуда нозиклик билан фойдаланади. Оддийгина мурожаат вакилларининг ўзида бу нарсани кўриш мумкин. “Ой, азиз ҳамватанлар”(Самарқандда миллий ишлар ҳақинда), “Ой ҳазрат уламо ва ағниё” (Ҳақ олинур, берилмас), “Азиз биродарлар” (Иттифоқ керак).

Беҳбудий мурожаат қилаётган фикр йўналган кишилар қалбига таъсир эта оладиган сўзларни топа олишга ҳаракат қила олади. Юқоридаги мисолларимизда бу хусусиятлар кўриниб турибди. Аммо, бу ерда юқорида келтирилган бир мисолни яна бир келтирсак, ортиқчалик қилмас : “Бовурлар! Билингки, ҳозирда Туркистондаги барча халқлар учун мухторият эълон қилинди ва сиз билингки, ҳақ олинур, лекин берилмас”.

Бу ерда “Бовурим” деган сўзнинг қўлланилиши бадиий топилдиқ сифатида баҳоланиши мумкин. Фақат халқ руҳиятини, онг- шуурини, урф-одатларини, миллий анъана ва қадриятларини англаган ва қадрлаган одамгина шу мурожаат шаклини топиши мумкин эди. Беҳбудий сиймосида ана шундай буюк шахс кўриниб туради.

Беҳбудий тилининг ширадорлиги, таъсирчанлиги унинг халқ тилига, аниқроғи, сўзлашув услубига яқинлиги билан изоҳланади. Беҳбудий халқ тилида гапиради. Шунинг учун ҳам унинг мақолаларида халқона таъбирлар, мақола, матнлар тез-тез кўзга ташланади. Шу руҳнинг таъсири бўлса керак Беҳбудийнинг баъзи иборалари ҳикмат ва мақол даражасига кўтарилади. Беҳбудий асарлари матнига сингдирилган халқ мақоллари янгича жило билан кўзга ташланади. “Бола йиғламаса, она сут бермайди” мақоли одатда эҳтиёж тақозаси кучли бўлган ҳолатларда қўлланилиши маълум.

Яна бир мақолага эътибор берайлик. Халқ орасидаги “Кўрпангга қараб оёқ узат” мақоли ножўя ҳаракатлардан тийилишни ёки ҳаракат ва фаолиятда ижтимоий – ахлоқий меъёрларга амал қилишни талаб этади. У Беҳбудий мақоласида бу маънодан ташқари қўшимча оҳангдорлик ҳам ташийди: “Банк сабаби ила яҳудий, армани ва бошқалар давлатли бўлур. Биз бўлса билакс давлатимиздан мулк ва обрўмиздан айрилармиз. Чунончи, кўрпамизга қараб оёқ узатмаймиз”(5).

Беҳбудий бир неча тилнинг билимдони сифатида ўша тилларда мавжуд бўлган нозик қочирмалар, ҳикматли сўзлар ва халқ мақолларидан ҳам истеъфода этади: “Кавказ ва Татаристон уламо ва тужжорлардан ибрат олмоқ кенрак:

(Саъи қилмагунча инсонга бир саъи берилмас”(6)).

Кўриниб турибдики, бу ердаги мақол араб ва форс тилларидаги мавжуд шаклларнинг айнидир. Умуман, Беҳбудий бундай ҳикматли сўзлар таъсири ва ўз шахсий кузатишлари натижасида бир қатор ҳикматли сўзларни яратди. “Ҳақ олинур, берилмас”, “Мозий – истиқболнинг тарозисидур” каби мисоллар фикримизнинг далили бўла олади. Беҳбудийнинг тилига яқинлиги баъзан – баъзан бўлсада унинг шева материалларидан фойдаланишга ҳам имкон яратади. Эҳтимол, бу табиий равишда бўлар. Ҳар ҳолда мақолларда Самарқанд шевасига хос бўлган айрим унсурлар ўзини кўрсатиб туради: “Аларнинг ҳар шаҳарига жамиятлари борким”, “военновий организация”- “ҳарбий ташкилот мажлиси” аталур. Ёйинки “совет солдатский рабочий депутат”, “аскар ва ишчилар мабъусларининг мажлиси” аталур(“Иттифоқ керак”,”Ҳуррият”, 1917).

“Биз қачон тараққий қиламиз? Қачонға ўн минг сўмлаб тўйларға қилинатурган исрофларни замонча одам тайёр қилмоқ учун мактаблар йўлинда қилсак, ўшал замон тараққиётида қадам қўйган бўлурмизки, у ҳам узоқдур” (“Ким эшитадур”, “Самарқанд”, 1913 йил 26 апрель).

“Мана, бизнинг олдимизға катта ишлар турибди агарда ҳаммамиз иттифоқ этиб, “Шўрои ислом” жамиятини ўзимиз учун сиёсий ва муътабар бир жамият қарор этиб, барча шаҳарларға шубаларни очиб қадим жадидларимиз бирлашиб ишлсак, мухториятли ҳурриятга мойил бўлурмиз” (“Улуғ Туркистон”, 1917 йил 12 июнь).

Мисоллар Беҳбудийнинг Самарқанд шеваси унсурларидан унумли фойдаланганлигини кўрсатиб турибди. Бу ерда табиий равишда Беҳбудий шева таъсиридан чиқа олмай қолган эмасми деган савол пайдо бўлади. Агар Беҳбудийнинг бошқа асарлари кўздан кечириладиган

бўлса, ўша давр адабий тилини мукаммал даражада эгаллаганлигига шубҳа қолмайди. Демак, юқоридаги шева унсурларига бошқачароқ ёндашув талаб этилади. Бу ўринда бизга Беҳбудийнинг яна ўзи ёрдам қўлини чўзади, у ёзган эди: “Халқ тили илан ваз ва панд айтмоқ жорийдур”.

Демак, Беҳбудий ўз мақолаларида ҳам “халқ тили илан” айтмоқ учун айнан ўша унсурлардан онгли равишда фойдаланади.

Беҳбудий мақолаларнинг тугалланмаси ҳам ўзига хосдир. Бу жиҳатдан ҳам Беҳбудийнинг маҳорат мактаби ҳақида гапириш мумкин. Айрим мақолаларида мақоланинг мақсади бевосита тугалланма билан боғланиб кетади. Муаллиф мақсадни тўғри ва тўла англамоғи учун уни мақола охирига суради. Жумладан, “Самарқандда миллий ишлар ҳақинда” мақоласи шундай якунланади: “Матлабимиз шаҳар думалари ва саҳро земстволари вакили мажлиси муассисонига халойиқни ҳозирламоқ ва ҳам Тошкентдаги марказий шуромизга бир – икки нафар киши тайлаб доимо анда туриб халқ нафига ишламоқлари учун юбортирмоқ ҳам аларни ва ҳам шўрои марказимиз масорафини таъмин этдурмоқ, тушунтириб, яхши ҳукуматга ёрдам бермоқ лозимлигини баён этмоқдур”(7).

Айрим мақолалар “қўшимча далил” билан якунланади. Бу вазифани ҳикматли сўзлар, халқ мақолалари ёки машҳур кишиларнинг ибратомуз фикрлари бажарилиши мумкин. Масалан, “мажлиси муассисон бизга берилмайдур, балки ўзимиз олсак, азбаски ҳақ олинур, берилмас”(8).

Бу кўчирма “Ҳақ олинур, берилмас” мақоласидан келтирилади. Ёки “Таҳсил ойи” мақоласида эса қуйидаги якунни кўрамиз: “Мозий – истиқболнинг тарозисидур. Ҳар ким ўлчовинда билсин”, “Иттифоқ керак” мақоласи эса баён этилган масалаларни ниҳоятда уйғун келадиган шеърий мисралар билан якунланади:

Давлат ҳа ма зи иттифоқ хезад,

Бадавлати аз нифоқ хезад.

(Яъни: Давлат иттифоқлик туфайли барқарор бўлади,

Бедавлатлик душманликдан келиб чиқади).

Яна бир туркум мақолалар борки, уларда жамиятга хос бўлган иллатлар мавжуд тузумнинг камчиликлари, қаттиқ танқид остига олинади. Шунга мувофиқ равишда якун ҳам истеҳзоли сўзлар билан зийнатланган бўлиши мумкин. “Оҳ, бу сўзларни тинглайдурғон бойлар бизда етишганми?”.

Табиийки, мақоланинг қисқа ҳажми баъзан фикрнинг охиригача баён этиш имконини бермайди. Шундай пайтда Беҳбудий фикрларини қисмларга ажратади. Ва бу бўлинишнинг борлигига ишоралар беради. Жумладан, “Туркистон мухторияти” мақоласи “Ҳуррият” газетасининг 1917 йил 19 сентябридаги босилган ва ниҳоясига етмаганлиги учун “охири бор” ишораси берилган. Унинг давоми 22 декабрь сонида эълон қилинган. Аммо яна давоми бўлганлиги учун “боқияси бўлур” деб таъкидланади.

Бу эҳтимол матбаа ҳамда газета ва журналлар имконияти туфайли бўлган бўлиши ҳам мумкин. Бироқ айрим мақолалар борки, уларда Беҳбудий масаланинг охиригача етиб борилмаганлигини ёхуд бу муаммонинг ўта муҳимлигини таъкидлайди. Масалан: “Ёшларга мурожаат” мақоласида “замонча ўқимоқ тариқасидан бошқа мақолага арз қилинур”.

Беҳбудий публицистикаси ўзбек маданияти, хусусан ўзбек адабиёти тарихидаги мутлақо янги ва такрорланмас ҳодисадир. Буюк шахсиятига хос бўлган улуғворлиги, фидоийлиги, хассослиги унинг мақолаларида ўзининг тўлиқ ифодасини топган. Мавзу эътибори билан улар ўз долзарблигини ҳалигача йўқотган эмас.

Беҳбудий публицистикасида ўзбек тили, ўзбекча сўз бутун гўзаллиги ва тароватини тўлалигича намоён этган.

Беҳбудий мақолаларининг таъсир кучи уларнинг тузилиши, қўйилаётган мавзуси мавзуга муаллифнинг фаол ёндашуви ва ҳар бир мавзунинг ёритилишидаги тегишли сўзларнинг моҳирона танлови билан чамбарчас боғлиқ ҳолда юзага келади. Худди шунинг учун ҳам унинг мақолаларини эътиборсизлик билан ўқиш ёки уларга шунчаки кўз ташлаб

қўйиш мумкин эмас. Улар ўз замондошлари томонидан ҳам бугунги авлодлар учун ҳам бирдай муҳим, мўътабар ва азиздир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Беҳбудий М. Танланган асарлар. Биринчи жилд. Тошкент, 2018. – 452 б.
2. Беҳбудий М. Омилимиз ёйинки муродимиз//Ойина. – 1913. - №7.
3. Беҳбудий М.Майда қарз//Ойина. – 1914.- №1.
4. Беҳбудий М. Ғалла, аскарлик, ер ва тазминоти ҳарбия. “Меҳнаткашлар тавуши”, 1918 йил 2 август.
5. Беҳбудий М. Оҳ, банклар бизни барбод этди//Ойина. -1914 .- №19.
6. Беҳбудий М.Ҳақ олинур, берилмас. “Ҳуррият” газетаси, 1917 йил 13 июль.
7. Беҳбудий М. “Ҳуррият” газетаси, 1917 йил 28 июль.
8. Беҳбудий М. “Ҳуррият” газетаси, 1917 йил 17 июль.

АЛИШЕР НАВОИЙ ҲАКИМ ОТА ҲАҚИДА
ALISHER NAVOI ABOUT HAKIM OTA

К.Н.Рахимова,
Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти доценти
Ў.Э.Усмонов,
ўқитувчи

Сулаймон Боқирғоний тасаввуф адабиёти ва туркий халқлар тарихида аввалambор Хожа Аҳмад Яссавий шогирди сифатида машҳур бўлса, иккинчидан, у сермазмун ҳикматларию, панд— одоб руҳидаги достонлари ва бу улуғ валий зотга бағшланган манқабавий ривоятлар орқали юксак мавқе қозонган мутасаввиф ижодкорлардандир.

Сулаймон Боқирғоний тарихий ҳаёти ҳақидаги маълумотлар Мавлоно Сайфиддин Ўрунг Қуйлоқийнинг "Насабнома", Алишер Навоийнинг "Насоим ул-Муҳаббат" Фахриддин Али Сафийнинг "Рашаҳот айн —ул ҳаёт”, "Хазинат ул—асфиё", "Мўзаккир ал — аҳбоб” каби асарларида ўрин олган. Тадқиқотчилардан В.В.Бартольд "К вопросу о родине Хаким Ата", "Хаким —Ата", К.Г.Залеман "Легенда про Хаким Ата", Фуод Купрулизода "Турк адабиёгида илк мутасаввифлар" ва проф. Абдурауф Фитрат кабилар илк тарихий асарлар асосида Сулаймон Боқирғоний ҳаёти ва ижодига доир ўз фикр — қарашларини билдиришган[1].

Сулаймон Боқирғонийнинг туғилган йили номаълум бўлиб, унинг вафоти тарихи ҳақида тадқиқотчилар турлича фикр билдирганлар. Жумладан, В.В.Бартольд ҳижрий 562 й (1166-1167). Абдулмумин Сатторий ҳижрий 582 й. милодий 1136[2], “Ўзбек адабиёти тарихи" китобининг биринчи жилдида 1192 й.[3] Камий Шошийнинг “Безабонлар таржимони"

---

[1] Сулаймон Боқирғоний ҳаёти ва ижоди ҳақида қаранг: Купрулизода М.Ф. “Турк адабиётида илк мутасаввуфлар” Анқара 1984 йил 88-92, 172-174-бетлар

Абдурауф Фитрат. Яссавий мактабк шоирлари тўғрисида текширнглар. “Маорнф ва ўтувчн” журналн 1928, 5-6 сонлар; Самайлович А Махтум—Қули и Ҳаким Ата “Туркияноведенне’’ 1929, №12; Бартольд В.В. Соч. т. 2, ч. 2 - М 1961 г. с. 361-532.

Снасарев Г.П. Рел-ты до мусулманских верование и обрядов у ўзбеков Харезма. М. 1969 с 250-255;

Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёта тарихи 1-китоб (дарсник) Тошкент. 1976 йнл. 159-160 бетлар;

Иброҳим Ҳаққулов Сулаймон Боқиртоний “Ёш леннчн” газ. 1990 йил 15 август.

Иброҳим Ҳаққулов ва Сайфнддин Рафидднов “Қул Сулаймон сўлада...” (Сўз боши) “Боқирғон китоби" Тошкент 1991 йил

А Раҳим ва У Азиз Татар адобиёти тарихи Қозон 1922 йил 1924 йил. Биринчи иккинчи том, 95—119 бетлар.

Р.Р.Арат Ҳаким ота (Истом энцклопедияси) Истанбул V. 1 с. 101-103.

Залиман К.Г. Легенда про Хаким-Ата изв. Императорские Академии наук, сер 5 т 9 спб 1898 с 130 (105-150)

Ўзбекистон ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институт қўлёзмалар бўлимида 1330/1911 йил Жуборийзода томонидан кўчирилган 2069-V рақамли қўлёзманинг 79—100 саҳифолари. Эшпулат Жаббаров, Хўжамурод Жаббаров “Ҳаким ота китоби” рисолосига “Сўз боши”. Қарши “Насаф" нашриёти 1993 йнл 3-8 бетлр.

Қўрбай Байниязов “Щэким ата - Сулаймон Беқўрғаний - бизин уллы жерлесимиз рисоласи Нокис — 1997 йил 28-бет

[2] “Учқун” журнали.-№2 1923 й. 1апрел. 7-9-бетлар нашрга тайёрловчи Тўлабоев О.

[3] Маллаев Н. “Ўзбек адабиёти тарихи”-Т.Ўқитувчи, 1965 й. 193-б.

мақоласида ҳижрий 549 й., милодий 1186 й[1], Н.Маллаев, И.Ҳаққулов ва С.Рафиддиновлар ҳам 1186 йил вафот этганлигини кўрсатишган[2].

Кейинги йилларда олиб борилган тадқиқотларда Сулаймон Боқирғонийнинг таваллуд ва вафот этган йиллари ҳақида фикрлар билдирила бошланди. Қозоқ олими Авезовнинг фикрича, Ҳаким ота 1104 йил туғилиб, 1186 йил вафот этган[3], Х.Е.Есберганов эса Ҳаким ота 1122 йил туғилиб, 1186 йил 64 ёшида вафот этган дейди[4].

Сулаймон Боқирғоний таваллудининг 800 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари тўпламида О.Д.Доспонов, А.Алимов, С.К.Камолов каби тадқиқотчиларнинг Боқирғонийнинг 1122 йил туғилиб, 1180 йил 58 ёшида вафот этганлигига доир фикрларга дуч келамиз[5].

Лекин келтирилган бу саналар қайси тарихий манбаларга асосланганлиги муаллифлар томонидан қайд этилмаган.

Мазкур тўпламдан ўрин олган Идрисов Абдуолимнинг "Ал— Маҳзун Ҳаким ота ҳақида"[6] мақоласида Ал-Маҳзун Сулаймон Боқирғонийнинг ҳижрий 598 / милодий 1201 йил вафот этганлиги ҳақидаги маълумот эътиборимизни тортди. Чунки олим кўрсатган рақамлар Сайфиддин Ўрунг Қуйлоқийнинг "Насабнома" асаридаги Сулаймон Боқирғонийнинг "95 йил умри бўлди"[7] деган фикрига яқин эди. Қуйлоқий ва Идрисовларнинг фикридан келиб чиқадиган бўлсак, Сулаймон Боқирғоний 1106 йилда таваллуд топтан бўлади.

Сулаймон Боқирғонийнинг ҳаёти, ижоди пири Хожа Аҳмад Яссавий билан чамбарчас боғлиқ эканлигини Ҳаким отанинг ҳикматлари, маноқиблари ва тарихий маълумотлардан яхши биламиз. Шу сабабли Ҳаким отага оид саналар Хожа Аҳмад Яссавий ҳақидаги сана ва маълумотларга боғлаб ўрганиш ўринлироқдир. Ҳамид Неъматовнинг "Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёгига оид баъзи саналар"[8] мақоласида келтирилган Хожа Аҳмад Яссавийнинг 1097 йил туғилганлигига доир фикр ҳақиқатга яқин деб қарайдиган бўлсак, Сулаймон Бокрғоний устози Аҳмад Яссавийдан ўн ёш кичик бўлади. Ҳаким ота маноқибларида келтирилишича, "Сулаймон Хожа Аҳмад Яссавий даргоҳида Қуръони Каримни мукаммал ўрганиб ўн беш ёшида мурид" бўлади. Бу вақт Хожа Аҳмад Яссавий эса 20-25 ёшларида бўлиб ўзи айтганидек:

"Ёшим етди йигирмага, ўтдим мақом,
Биҳамдиллоҳ, пир хизматин қилдим тамом.
Дунёдаги қурту қушлар қилди салом,
Уд сабабдин ҳаққа ёвуқ бўлдим мано
ХХХ
Ёзуқ билан ёшим етди йигирма беш,
Субҳон эгам зикр ўргатиб кўксимни теш.
Куксимдаги гириқларим сен ўзинг эш,
Ул сабабдин ҳаққа сиғиниб келдим мано"[9]

деб ўзининг камолот даражасини маълум қилади.

Демак, мавжуд маълумотларга таяниб айтишимиз мумкинки, Сулаймон Боқирғоний 1106 йил туғилиб 95 ёшида, яъни 1201 йил вафот этганлиги эҳтимоли бор.

Сулаймон Боқирғонийнинг асл исми Сулаймон бўлиб ёшлигида илмга ва Қуръонга булган муҳаббати туфайли Хожа Аҳмад Яссавий назарига тушади. Шундаи бошлаб Хожа Аҳмад Яссавий даргоҳида таълим олиб, ун беш ёшида мурид бўлади. Устозидан сулук

[1] Сирли олам кутубхонаси "Авлиёлар султони", "Буронли авлиёлар" нашрга тайёрловчи ф.ф.н. Икромиддин Остонқул ўғли "Камалак", 1995 й.143-145
2 И.Ҳаққулов, С.Рафиддинов "Боқирғон китоби" Т. "Ёзувчи". 1991 йи. . 3-б
[3] Авезов А.П. Мировоззрение Ходжа Аҳмад Яссавий. Алматы, 1997 й. с.20-21.
[4] Есберганов Х.Е. Ҳаким ота// Республика илмий-теорияльқ Конференция материаллари Нўкуз-Қунғўрат, 2002 й. 19-бет
[5] Шу Конференция материаллари 6-17, 27-бетлар
[6] Шу Конференция материаллари 24-бет.
[7] «Насабнома" Т. "Хизина" нашриёти 1996 й. 19- б.
[8] "Ўзбе тили ва адабиёти" журнали 1992 й. 2-сон, 3-5-бет
[9] Аҳмад Яссавий Ҳикматлари Тошкент Ғ.Ғулом нашриёти 1991 й. 55-58-бет

одобини, ҳикмат сирларини ўрганиб, етук шайхга айланади ва Ҳаким ота деб ном қозонади. "Ҳаким Сулаймон", "Ҳаким хожа", "Қул Сулаймон" каби тахаллуслар билан ҳикматлар айта бошлайди. Биринчи ҳикмати Хизр алайҳиссалом ҳақидаги ҳикматидир.

Арслонбобнинг ўғли Мансур ота ва Хоразмлик Саид отадан кейин Хожа Аҳмад Яссавийга учинчи халифа бўлган Сулаймон Ҳаким ота устозининг амри билан Хоразмга Буғрохон ерларига бориб халқни иршод қила бошлайди. Кейинчалик у ер Боқирғон деб атала бошлайди. Ҳаким отанинг номи ҳам у ерга нисбат бериб Сулаймон Боқирғоний дейилади.

Фахриддин Али Сафийнинг "Рашадот айн ул ҳаёт" асарида Сулаймон ота ва Ҳаким ота-бошқа шахслар сифатида нотўғри қайд этилади. Қуйида биз у маълумотларни тўлиқ келтиритишга қарор қилдик.

Сулаймон ота (Сулаймон Боқирғоний (раҳматуллоҳи таъоло) Ҳазрати хожа (Аҳмад)нинг иккинчи халифалари турурлар. Турк машойихларнинг улуғларидан турурлар. Ва ҳикматлариким олар туркий тил бирла дарвешларнинг муаммоларида айтибдурлар, Туркистонда маъруф ва машҳур турур. Ва фавойида анфосларнинг жумласидан бу масалким, халқ эҳтиромида ва вақт ихтиномида айтубдурлар: Ҳар ким кўрсант Хизр бил, ҳар тун кўрсанг қадр бил", яъни "Ҳар кишини кўрсанг, Хизр бил ва кечани кўрсанг лайлат ул-Қадр бил". Ва бу масал ҳам аларға мансубдурким, ўз нафсларини шикастида айтиб турурлар: "Барча яхши-биз ёмон, барча буғдой-биз сомон" яъни "барча яхши турур, биз ёмон, ҳамма буғдой турур биз сомон" деб Сулаймон Боқирғонийнинг ҳикматларини таҳлил қилса, китобни 25 бетидаги "Ҳаким ота" сарловҳали мақоласида Хожа Аҳмад Ясссавий билан боғлиқ ривоятларга ишора қилиб, иршод олиши ҳақида ва яшаган жойи ҳақида маълумот бериб шундай дейди.

Ҳаким ота (раҳматуллоҳи таъоло) Ҳазрат хожа Аҳмаднинг хулофайи арбаъларидан тўртинчи халифа турурлар. Неча йиллар маснади иршодда ўлтурдилар. Хулофайи салосадин сўнг халқни ҳақға даъват қилдилар.

Маскани Ҳаким ота Хаворазм вилятида ким, они Оққурғон дерлар, яъни маърифа ва машҳурдур. Юзору ва ютабарук биҳи, яъни зиёрат этурлар ва табаррук талаб қилурлар[1]

Алишер Навоий эса "Насоим ул-муҳаббат"да Сулаймон Боқирғоний ҳақидаги бу фикрларига аниқлик критиб, шундай маълумот беради. "Ҳаким ота — оти Сулаймондур ва Хожа Аҳмад Яссавийнинг муридидур. Ҳамонки бир кун Хожа шайхи буюрғондурлар, матбахий ўтун етмайдур деб келгандур. Агар асҳобға дегандурларки, ёзидин ўтун териб келтурунг ва ул замон ёғин ёғадур экандур. Асҳобким, ўтун теribтурлар, матбахға келгунча ёғин жиҳатидин ўтунлар ҳул бўлғондур. Ҳаким ота терган ўтунларни тўнига чирмаб, қуруқ келтургандур. Хожа Ҳазратлари дегандурларки, эй фарзанд Ҳакимона иш қилдинг ва аларға бу лақаб ондин қолғондур ва Ҳаким ота ҳикмат тили гўё бўлубтур..." деб маълумот беради.

Ҳаким отаниг яшаган жойи ҳақида ва Бақирғон тахаллуси ҳақида ҳам турли фикр-қарашлар мавжуд. Масалан, маноқиблардаги ривоятларда Хожа Аҳмад Яссавий Ҳаким Хожани камолатга етганлигини тақдирлаб оқ нор туя беради ва Оллоҳни ихтиёрига топшириб: "Шу туяга мингин-да, бошини бери қўй, туя қаерга бориб чўкса сенинг манзил мақоминг ўша ер бўлади" деб ижозат беради. Туя Туркистондан кун ботар томон юриб Хоразм шаҳрининг Бенавор орқаси деган жойга келиб чўкади[2] Ҳаким ота ҳар қанча зурласа ҳам ўрнидан туриб ҳаракат қилмайди, бақиради. Шундан буён у ер "Боирғон" деб атала бошлаган. Ориф Усмон ҳам Ҳаким ота" мақоласида "кейинроқ бориб Ҳаким отанинг ўзини ҳам уша жойга нисбат бериб "Боқирғоний" деб атай бошлаган эканлар" деб фикр билдиради.

В.В.Бартольд Комаровнинг "Туркестанские ведомости" газетасидаги "Ҳаким ота"га доир мақоласига муносабат билдириб: "Муаллиф бу Ўрта Осиёлик мутасаввифнинг ватани ва қабрини илгари тахмин қилинганидек Хива хонлигида эмас, балки Сирдарёга бориб қуюладнган шу номли ирмоқ жойлашган Хўжанд яқинидаги Хожа Боқирғон мозоридан излаш лозимлигини исботлашга уринган. Ушбу қабристон тўғрисида Ҳаким ота ривоятларига ўзоқ бўлсада, ўхшаш бир ҳикоят мавжуд. Афсуски, муаллиф К.Залеман

[1] Ф.А.Сафийнинг "Рашаҳат айнул ҳаёт" 25-бет
[2] Фуод Купрули "Хуросонга" дейди

томонидан тўпланган ушбу мутасаввиф тўғрисидага тарихий маълумотлардан фойдаланмаган. Бу тадқиқотда 909 (1503-04) йилларда ёзилган “Рашаҳот айн — ул ҳаёг" асаридан айрим мисоллар келтирилган. Унда ёзишича, “Ҳаким Сулаймоннинг туғилган жойи Хоразм эди. У фоний дунёдан боқий дунёга кетар жоғида “оппоқ — қурғон", яъни оқ. қалъага жойлашган. Унинг қабри бу ерда машҳур”.[1]

Ҳаким ота ҳақидаги афсонада Комаров Бенавор орқасидаги карвонсарой ҳақида ҳикоя қиларкан: “У ер Хуросоннинг ғарбий қисмидадир, Залеман нашрига кўра асл матнда бу ер “Хоразм шаҳридан ғарброқда жойлашган" дейди. Шу афсонада яна айтилишича, ушбу муқаддас қабр Хоразмда сув тошқини бўлганда қирқ йил сув остида қолди. Ушбу ривоятда К.Г.Залеман 1221 йил Амударёнинг Қуйи оқимида Абулғозий даврида Бақирғон ота яшагани ҳақидаги Комаров фикрларига ишониш қийин”[2] — деб мулозҳаза қилади.

В.В.Бартольд Сулаймон Бақирғонийга бағишланган “Ҳаким ота" номли мақоласида “Ҳаким ота қабри Маҳдисийда кўрсатилганидек Боқирғонда эмас, балки бир мунча шимолроқда, ҳозирги **Қ**ўнғирот шаҳридан бироз пастроқда жойлашгандир... У Оппоқ— қўргон деб аталиб Туркистонда ва бошқа жойларда Хўжандда Сирдарёга тушувчи ерда Хожа Боқирғон дарёси бўлиб, (номи кўрсатилганидек қайси авлиёга сиғинишни билдиради) деб маълумот беради.

Қорақалпоқ олими Қўрбай Байниёзов "Ҳаким ота - Сулаймон Боқирғоний бизнинг буюк юртдошимиз"[3] рисоласида ҳозирги Қўнғирот қалъасининг ёнида Сулаймон Боқирғоний қабри жойлашганини айтади.

Академик Яҳё Ғуломовнинг "Қадимги Хоразмнинг суғорилиши тарихи"[4] асарида келтирилишича XIX аср хроникаларида Ҳаким ота мақбараси билан Қўнғирот орасидаги шаҳар харобалари Қорахитой туркларининг Ҳукмдори Сулаймон Боқирғонийнинг муриди, қайнатаси Буҳрахон номи билан аталган экан.

Мунис ва Огазҳийлар ҳам шаҳар харобалари Хива ёки Буҳрахон номи билан маълум бўлганлиги, бу шаҳар улкан текисликда Машанкўл деб аталган кўлга яқинлиги учун кўл тошиб у ерни тез —тез сув босиб турганлиги ҳақида маълумот беришади.

Ушбу манбаларга таянган ҳолда шуни айтиш мумкинки, ҳақиқатдан ҳам Боқирғон тахаллуси билан Ҳаким отанинг манзилини билдириш учун қўлланилган. Бу фикримизни исботлайдиган яна бир жиҳати шундаки, Сулаймон Боқирғоний бирон бир "Девони ҳикмат" нусхаларида “Боқирғон" номини қўлламаган. Ҳикматлар тўпламини "Сулаймон Боқирғоний" деб номлаган холос.

Демак, Хаким отанинг яшаган жой "Занги ота" китобида келтирилишича "Қўнғирот шаҳрининг (Қорақалпоғистондан) Оролга қараб борадиган оқимнинг 30 - километрида "Равшан" деган ирмоғи бошланадиган жойда жойлашган қабри атрофида деб қараш ҳақиқатга яқинроқ У вақтлар Хоразмда Қорахонийлар Ҳукумдори Буҳрахон[5] Ҳукумронлик қилар эди. Буҳрахон Ҳаким отага мурид бўлиб, катта назру, ниёзлар қилади ва қизи Анбарни никоҳлаб ўзига киёв қилади. Шундан бошлаб Ҳаким ота номи туркий халқлар орасида машҳур бўла бошлайди. Тасаввуф оламида Яссавия тариқатининг асосий давомчиси сифатида шуҳрат қозонади.

Ҳаким ота ҳақида Мавлоно Сайфиддин Ўрунг Қуйлоқийнинг “Насабнома” сида: Ва токи Сулаймон хожа Ҳакимға Ўрганч вилоятини берди. 95 йил умри бўлди, 70 йил Хизр алайҳиссалом бирла суҳбат бўлди. 5 минг муриди бўлди"[6] деб маълумот беради.

Ҳаким ота билан Анбар онанинг учта фарзанди Маҳмуд хожа, Асҳар хожа ва Ҳубби хожа бўлиб, улар ота изидатт бориб, ўз замонасининг улуғ тариқати пешволаридан бўлиб

[1] “Рашаҳот айн ул-ҳаёт”
[2] Бартольд В.В. Соченения. Т.2. ч.2-М, 1964 й. 361-бет
[3] Қўрбай Байниязов “Щэким ата - Сулаймон Бекўрғаний - бизин уллы жерлесимиз рисоласи Нокис — 1997 йил
[4] Ўша китоб 33-бет
[5] “Рашаҳат айн-ул ҳаёт” асарида Бароқхон деб берилади.”Музаккур ул асҳоб” “Дўстлар ҳақида хотира” номли асарда Буғрахон деб берилади. Тадқиқотчи олимлар Буҳрахон бўлганлигини ўз тадқиқиотларида келтирганлар бошқа ҳеч бир манбада бароқхон деб келтирилганлигига дуч келмадик.
[6] “Насабнома” Т.”Хазина” нашриёти 1996 й. 19-бет

етишади. Маҳмудхожа билан Асҳархожа Хоразмда таълим олади. Кенжа ўғли Ҳубби хожа эса отасининг ўзидан илм ўрганади. Шу сабабдан бўлса керак халқ орасида Ҳубби хожанинг мавқейи баланд тутишади. Ҳубби хожа ҳақида Навоий шундай ёзади: “Ҳубби хожа –мавлуди Хоразм вилояти ва навҳасидандур. Анинг авсоф турк ва ўзбек халойиқи орасида андин кўпроқ ва машҳурроқдурки, шарҳға иҳтиёж бўлғай. Йигитликда ўтубтур. Йигитлар сарвари Ҳубби хожа дерлар”[1]

Ҳаким ота вафотидан сўнг амударё тошқини туфайли Боқирғон қишлоғини сел босиб, Ҳаким ота қабирин сув оқизиб кетади. Муридларидан Хожа Жалол манзилхон Ҳаким ота қабирни қайтадан тиклайди.

Ҳозирда Ҳактим ота қабри Амударёнинг қўнғирот шаҳридан (Қорақалпоғистондан) Оролга қараб борадиган оқимнинг 30-километирда “Равшан” деган ирмоғи бошланадиган жойда бўлиб, улуғ зиёратгоҳ ҳисобланади.[2]

“ТЎНЮҚУҚ” БИТИКТОШИДАГИ “ЭЛТАБАР” ҲАРБИЙ-МАЪМУРИЙ УНВОНИНИНГ СЕМАНТИК-ФУНКЦИОНАЛ ТАҲЛИЛИГА ДОИР
ON THE SEMANTIC-FUNCTIONAL ANALYSIS OF THE MILITARY AND ADMINISTRATIVE TITLE "ELTABAR" IN THE "TONYUQUQ"

М. Дустмуродов,
ТошДЎТАУ ўқитувчиси

Аннотация: мақола “Тўнюқуқ” битиктошидаги “элтабар” ҳарбий-маъмурий унвонининг семантик-функционал таҳлилига бағишланган. Турк хоқонлиги ҳарбий-маъмурий тизимида энг фаол қўлланилаган унвонлардан бири “Элтабар” ҳарбий-маъмурий унвонининг турк битиктошларда ва бошқа манбааларда қўлланилиши ва ўзаро фарқлари ёритилган.

Abstract: the article is devoted to the semantic-functional analysis of the military-administrative title "eltabar" in the inscription "Tonyukuk". One of the most actively used titles in the military-administrative system of the Turkish Khanate is the use and differences of the military-administrative title "Eltabar" in Turkish inscriptions and other sources.

Калит сўзлар: *турк битиктошлари, “Тўнюқуқ” битиктоши, “элтабар” ҳарбий-маъмурий унвони, Кўк Турк, ҳарбий унвон, термин.*

Keywords*: Turkish inscriptions, “Tonyuquq” inscription, “eltabar” military-administrative title, Blue Turk, military title, term.*

Қадимги турк битиктошларида учрайдиган хоқонликнинг бошқарув тизимига алоқадор атамаларнинг катта бир қисмини ҳарбий унвон ва терминлар ташкил этиши ҳам ушбу давлат уюшмасининг моҳиятида ҳарбийлик устуворлик қилганидан дарак беради. Хоқонликнинг бу хусусияти кўпчилик тадқиқотчилар томонидан эътироф этилган бўлиб, бу борада кўплаб фикрлар билдирилган. Жумладан, Л.Гумилевнинг таъкидлашича, “Туркутлар (Турк хоқонлиги) зафарлари ва дунёнинг ярмига эгалик қилиши тасодифий ҳодиса эмас эди. Улар кўчманчилик савиясидан анча юқори бўлган шундай бир қўшин ва идора тизими яратдиларки, шунга муносиб равишда ғалабаларга ҳам эришди, деб айтиш мумкин”[3].

Турк хоқонлигида мавжуд бўлган унвонлар тизимига мурожаат қилиш нафақат хоқонликнинг давлат тузумини ёритишда муҳим мезонлардан бири, балки унинг бутун тарихини ўрганишда ўзига хос ўрин тутадиган манба эканлигини таъкидлаш лозим. Хоқонликка алоқадор унвонлар, асосан, хитой йилномалари ва қадимги турк битиктошларида сақланиб қолган бўлиб, улар асосида хоқонликдаги унвонлар тизими ҳақида муайян тасаввур ҳосил қилиш мумкин. Шунингдек, византия, арман, сурёний, суғдий, бақтрий ва тибет тилидаги манбаларда ҳам хоқонликка хос анчагина унвонлар ўрин олган. Ушбу

[1] “Насоимул-муҳаббат” 15 том. Ғ.Ғулом наш. 1968 й. 155-б.
[2] “Занги ота” китоби “ Мавароуннаҳр” нашриёти. 2001 й. 8-бет
[3]Гумилев Л. Н. Қадимги турклар. – Т., 2007.–Б.64.

тиллардаги унвонларга доир маълумотларнинг аҳамияти шундаки, улар қадимги турк битиктошларида учрамайдиган ёки ўқилиши муаммоли унвонларга аниқлик киритишга ёрдам берибгина қолмай, балки иероглиф ёзувли хитой йилномаларидаги унвонларни тиклашда ўрни беқиёсдир. Чунки мазкур тилларнинг барчаси алифболи ёзувга эга бўлиб, бу эса уларда қадимги туркча унвонларнинг аслига яқин ёзилишини таъминлаган.

Турк хоқонлиги ҳарбий-маъмурий тизимида энг фаол қўлланилаган унвонлардан бири ***элтабар***ҳарбий-маъмурий унвонидир. Турк хоқонлигида юқори даражали унвонлардан бири бўлган *элтабар* манбаларда "элни, давлатни тутиб турувчи" сифатида изоҳланади. Кўк турклар давридан бери қўлланилган муҳим унвонлардан бири "элтабар"дир. Хитойча матнлардаги "Чи-ли-фа" ва "Ҳсиеҳ-лифа" ҳам фонетик ва ҳам тарихийлик жиҳатидан "Илтабар"га мос келади. Ёзувларда "элтабар" ўқилиши қатъий бўлмаса ҳам, сўзнинг бошида бир "и" ҳарфи пайдо бўлади, шу билан бирга "элтабар" билан "кул элтабар" орасида ҳуқуқ ва бурч нуқтайи назардан бир тафовут бор ёки йўқлиги аниқ эмас[1]. Кўк Турк давлатининг маъмурий иерархиясида Ябғу, Шад ва Тегиндан кейин, Тудундан олдинги тўртинчи ўринда "Элтабар" унвони жойлашган. Ушбу кетма-кетлик Кўк Туркларнинг қадимги маъмурий тузилишига тегишлидир[2].

Хоқонлик иерархиясида дастлабки пайтларда *элтабар* унвони *ябғу*, *шад*, ва *тегин* унвонларидан сўнгра келиб, бошқа унвонлар сафининг эса бошида жой олган. Бу фикр хитой йилномаларида "*Ғарбий турклардан Тун ябғу-хоқон вассал (воҳа) ҳукмдорларига элтабар унвонини берди*" мазмундаги маълумотлар ва қадимги турк битиктошларида "Аз элтабари", "Қарлуқ элтабари", "Уйғур элтабари" каби хоқонлик таркибидаги нисбатан йирик қабилалар бошлиқларига алоқадор иборалар учраши мисолида ўз тасдиғини топади[3]. Дарвоқе, хитой йилномаларида ҳам *уйғур, байирқу*[4]*, буғу, тўнгра, хунь* каби йирик қабилалар бошқарувчилари *силифа – элтабар* унвони билан тилга олинади[5].

Ҳемилтон унвон *эл* – "давлат" ва *табар* сўзларининг бирлашувидан ҳосил бўлганин, *табар*нинг эса *тап* – "топмоқ, соҳибланмоқ" феълидан шаклланган (элтопар) ва сўзлар бирикмасининг "давлат ёки қавм йўлбошчиси" маъносини англатишини ёзади[6].

"Элтабар" унвони бу отадан ўғилга, шунингдек акадан укага ҳам мерос бўлиб ўтиши мумкин бўлган бир рутба эди[7]. Хитой йилномаларида ҳам таъкидланганидек, хоқонликда унвонлар (шунингдек, лавозимлар) кўпинча меросий бўлиб, улар отадан ўғилга, акадан укага ўтарди. Яъни улар муайян даражада оилаларга тегишли эди. Демак, лавозимлар берилишини маълум шахслар, шу жумладан, уларнинг оилалари томонидан қўлга киритилган ўзига хос имтиёзлар сифатида қарамоқ лозим. Бу ҳолат нафақат хоқонлик бошқарувига хос, балки ундан кейинги кўплаб туркий сулолалар бошқарувида кўзга ташланади.Унвон ва мансаб номларининг меросий ўтиши ҳатто сўнгги ўрта асрларда ҳам бир қатор туркий давлатлар бошқарувида давом этгани кўзга ташланади. Жумладан, XIX асрларда қабила уюшмалари ҳолатида бўлган туркманларда ҳам мавжуд бўлиб, *бек*, *ботир*, *оталиқ*, *юзбоши* ва ҳ. к. лар кўпинча авлоддан-авлодга ўтган[8]. Бу унвонни Ғарбий Кўк Турклари ҳам ишлатгандир[9]. Кўк Турклар даврида Элтабарлар тобе ҳукмдорлар бўлган ва улар бу унвонни хоқондан қабул қилиб олишган[10]. Ғарбий Кўк Туркларда Ябғу Хоқон Ғарбий мамлакатлар (Туркистон)даги шаҳар давлатларини бошқарувчи ҳукмдорларнинг барчасига "Элтабар" унвонини бериш, уларни назорат остида ушлаб туриш ва мажбуриятларини бошқариш ҳамда у юборган солиқларини текшириш учун Тудунни ушбу минтақага юборган[11]. Хитой манбаларида Кўк

---

[1]Abdülkadir Donuk, *Eski Türk Devletlerinde İdarî-Askerî Unvan ve Terimler,* s. 21.

[2]Mau-tsai Liu, *Die ChinesischenNachrichtenZur Geschichte Der Ost-Türken (T'u-küe),* I, s. 8, 41

[3]Бичурин Н. Я. Собрание сведений... I. – С. 283; Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил... – Б. 110, 130; Tekin T. Orhon Yazıtları... – S. 75, 77.

[4]Кул Тегин битиктошида Байирқу қабиласининг бошлиғи *Улуғ Эркин* шаклида учрайди (Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил... – Б. 108).

[5]Бичурин Н. Я. Собрание сведений... I. – С. 344, 345; Taşağıl A. Gök-Türkler. II... – S. 41–42, 43, 45, 47

[6] Hamilton, J.R. (1962), "Toquz-Oguz et on-Uygur", *JA,* Tom 250, Paris, 23-63.

[7]Mau-tsai Liu, *Die ChinesischenNachrichtenZur Geschichte Der Ost-Türken (T'u-küe),* I, s. 8, 41, 132, 181

[8](Брегель Ю. Э. Хорезмские туркмены в XIX в веке. – М.: Изд-во Восточной литературы, 1961. – С. 131–136). Бобоёров. Ғ. 2012.

[9]E. Chavannes, *Documents sur les Tou-Kiue (Turcs) 0ccidentaux,* s. 15.

[10]A. Bombaci, "On the ancient title Eltâbâr", *Proceedings of the IX th. Meeting of the PİAC*, Naples 1970, s. 1 -66;

[11]E. Chavannes, *Documents sur les Tou-Kiue (Turcs) 0ccidentaux*, s. 24.

туркларда сулола аъзолари ҳам “Элтабар” унвонини олиб юришгани ва Элтабарларнинг қўшин қўмондонлигини қандай бошқарганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд. Манбаларга кўра сулола вакили ҳамда қўшин қўмондони бўлган Қапған Хоқоннинг 714 йилда Пеи-Бешбалиққа юборилгани қўшин саркардаларидан бири *Ҳуопа Элтабар Шиҳ-а-шиҳ-пи* бўлган[1]. Ҳужжатларда Элтабарларнинг элчилик фаолиятлари ҳам кўзга ташланади. 724 ва 731 йилларда Кўк турк ҳукмдори Билга хоқоннинг Хитойга юборилган хабарчиси элчи *Кечиеҳ Элтабар*дир[2]. Бу ўринда унга атташе – дипломатик мартаба сифатида қараш мумкин.

Кучли қабилалар бошлиқлари *элтабар* унвонига, нисбатан кучсизлари эса *эркин* унвонига эга эди. Юқорида қайд этилганидек, “Элтабар” Уйғур[3], Қарлуқ[4] ва Аз бошлиқларининг унвони сифатида қўлланилгани[5] Кул Тегинда ҳам кўзга ташланади: *“оплайу тәгди. Аз Элтәбәриг тутды аз бодун анта йоқ болты* – отилиб ҳужум қилди. Аз Элтабарни тутди (қўлга туширди). Аз халқи ўшанда йўқ бўлди”[6].

Бу унвон Байирқулар, Қирғизлар, Татабилар, Сўғдлар ва шунингдек, Тўққиз Ўғуз конфедерациясига мансуб Уйғур бирлашмаси[7] ва Ғарбий Хазар хонлиги қўл остида бўлган Волга болгарларининг бошлиқлари томонидан ҳам ишлатилган[8]. Шунингдек, VII асрнинг иккинчи ярмида арман манбаларида Шимолий Кавказ Хунларининг бошлиғи ва Хазар хоқонининг вассали бўлган “Алп Элут’уер” оти тилга олинади[9].

Соф туркий сўз асосида шаклланган *эркин, элтабар* каби унвонларнинг хитой йилномаларида *сыцзинь, силифа* шаклларида Турк хоқонлигидан аввал ҳам Жуан-жуанлар давлати бошқарув тизимида учраши тадқиқотчилар учун “турклар ушбу унвонларни ҳам улардан қабул қилишган”, деб ҳисоблашларига имкон беради[10]. Шу ўринда, мазкур унвонларнинг Жуан-жуанларда учрашини ушбу хоқонлик аҳолисининг муҳим бир қисмини туркий этнослар ташкил қилгани билан ҳам изоҳлаш мумкин[11].Ғарбий Кўк Турклар бошқарув тизимида тобе қабилаларнинг бошига Турк ҳукмдорлар оиласидан бирининг тайин этилиши одатий ҳолга айланган ва бу анъана Хазарлар томонидан ҳам давом эттирилган[12]. Ҳужжатларга кўра Иккинчи Кўк Турк хоқонлиги даврида Хитойга элчи сифатида юборилган икки Элтабарга вазирлар сифатида муносабатда бўлишгани маълум бўлади.Шунингдек, қуйидаги битикларда ҳам элтабар унвон мавжуд: *Карлуқ Элтабар* (Кўл Ич Чор), *Туйғун Элтабар* (Кул Тегин), *Уйғур Элтабар* (Билга хоқон)[13].

Хоқонлик ўзидан олдин минтақада мавжуд бўлган кўчманчи ва ярим кўчманчи қадимий давлат уюшмалари: Хун, Жуан-жуан, Юечжи ва Усунларга хос ҳарбий бошқарув, унвонлар анъаналарини давом эттирган. Шу билан бирга, мазкур давлатлардан фарқли равишда хоқонлик эҳтиёж ва заруриятдан келиб чиқиб ёки ташқи йирик империяларнинг (асосан Хитой) у ёки бу даражада таъсирида бошқарувни янада мукаммаллаштирди ва бу соҳада ўзидан олдинги давлат уюшмаларинидан анча илғор бир тизимни яратдиларки, бу ҳолат битиклар ва хитой солномаларининг туркийларга оид саҳифаларида акс этган ҳарбий-сиёсий-идоравий термин ва унвонларда яққол ўз исботини топган.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA IJODIY YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY-AN’ANAVIY USULLARI
NATIONAL TRADITIONAL METHODS OF DEVELOPING WRITING SPEECH IN ALISHER NAVOI'S WORKS.

[1]Mau-tsai Liu, *Die ChinesischenNachrichtenZur Geschichte Der Ost-Türken (T’u-küe)*, I, s. 169, 220.
[2]Mau-tsai Liu, *Die ChinesischenNachrichtenZur Geschichte Der Ost-Türken (T’u-küe)*, I, s. 169, 229
[3]J. Hamilton, "Tokuz-Oğuzve On-Uygur", ç e v .Y . K o ç , İ . B i r k a n ,*Türk Dilleri Araştırmaları,* VII, s. 187-232.
[4]A. Caferoğlu, *Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü*, I, s. 139.
[5]A. V. Gabain, *Alttürkische Grammatik*, s. 311.
[6]ҚТТ. 110 б. КТ 43
[7]K. Czcglédy, "YıltavarUnvanı", s. 179-187.
[8]Abdülkadir Donuk, *Eski Türk Devletlerinde İdarî- Askerî Unvan ve Terimler,* s. 21.
[9]ZehraOdabaşı, Türk Devletlerinde Kullanılan İdari Ünvanlar - Journal of Ottoman Civilization StudiesVOL. 5, NO. 9 (2019), 183
[10] Материалы по истории древних кочевых народов ... – С. 279–280, 414.
[11] Материалы по истории древних кочевых народов ... – С. 47–48.
[12]P.B. Golden, “Hazar Dili”, *TDAY*, 1971, s. 154
[13]Gömeç S. Kök Türkçe Yazılı Belgelerde Yer Alan Unvanlar // Türk kültürü. – Ankara, 2000. – № 443. – S. 129-142. Б. 937

Y.Nasrilloyeva,
ToshDO‘TAU magistranti

Abstract: the article is about the peculiarities of written speech and the national traditional aspects of Alisher Navoi's works in developing writing speech.

Key words: lexicion, semantic, polysemy, phraseology, philogical.

Abu Xurayra roziallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Hikmatli kalima xuddi mo‘minning yo‘qolgan narsasidek. Mo‘min uni qayerdan topsa ham haqliroqdir”, – deganlar.[Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’on, 2019: 2.]

Darhaqiqat, tarixdan bilamizki, inson qalbiga yo‘l, eng avvalo, uning so‘zi, nutqi, kalomi orqali boradi. So‘z, nutq ochilmagan dovonlarni ochguvchi, yechilmagan jumboqlarni yechguvchi, qirg‘in barotlarni to‘xtatguvchi, johilni olim, beaqlni idrok sari chorlovchi bir kuchdirki, uning ishini uncha-muncha qurol qila olmaydi. Har qanday qulfni ochguvchi kalit so‘zni topa bilsangiz, bas, marra sizniki.

Hazrat Alisher Navoiy ana shunday “bebaho gavhar”ni, “yovvoyi yo‘rg‘a”ni qo‘liga o‘rgata olgan, undan bebaho ma’naviy koshona yaratgan ulug‘ ijodkor, so‘z zargaridir. Hatto diniy ta’limotda ham dunyoning yaratilishi so‘z bilan degan tushuncha mavjud. Demak, so‘z ilohiy ne’mat. “Navoiyning ijodiyoti aslida so‘z qudrati va nafosatini, boyligi va mo‘jizaviy kuchini namoyon etuvchi ko‘zgudir. U ayrim asarlarida so‘z haqida, uning xosiyati va nutqning mohiyati borasida alohida to‘xtalib o‘tgan. So‘zning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va insonning o‘zligi so‘zi bilan bog‘liqligini shoirona tashbehlar bilan izohlaydi”.[Jumaniyozov, 2005: 86].

Navoiyning biror asari yo‘qki, unda insonning so‘z oldidagi mas’uliyatini e’tirof etmagan bo‘lsin. Navoiy “Badoe’ ul-bidoya” devoniga yozgan debochasiga mana nima degan edi:

Ko‘ngilda ne ma’ni o‘lsa erdi paydo,
Til aylar erdi nazm libosida ado.
Ul nazmg‘a jonim qilibon xalq fido,
Solur erdi gumbazi gardung‘a sado.[IbrohimHaqqul, 2007:36].

Inson qalbida zohir bo‘lgan har qanday ilg‘or fikr, g‘oya, tafakkur nishonasi, ya’ni ma’nini so‘z orqali , til va kalom orqali ommaga yetkazadi. Insoniyat undan bahramand bo‘lishi uchun , albatta, bu kashfiyotni ularga yetkazish, anglatish, tushintirish darkor. Bu jarayon esa, shaksiz, so‘z va nutq orqali amalga oshadi. Ammo shoir qalbidagi ma’ni esa ash’orga, she’rga, nazmga ko‘chadi va bu fikr yana - da jozibadorlik kasb etadi. Ana shunday nazm-ash’or o‘z-o‘zidan she’r muxlislari qalbidan joy oladi, o‘z ixlosmandlarini topadi. Bu nazm asrlar osha jarangini, ma’nosini yo‘qotmaydi, bunday kalomga asrlar ham daxl qila olmaydi. “Menimcha, Navoiy she’riyatini teran anglagan kishilar ko‘nglida butun ham shunday sado yangraydi. She’riyat millat va Vatan ravnaqi uchun haq so‘z yalovbardori ekanligiga xalqqa kuchli ishonch uyg‘otdi”[Jumaniyozov,2005:86].

Har kimsaki, so‘z demak shoirida durur,
Ma’no guli nutqining bahorida durur.
So‘zkim, demasun ulki ixtiyorida durur,
So‘z yaxshiligi chu ixtisorida durur. [A.Navoiy,200:43].

Agar inson o‘z fikrini birovga tushintirmoq istar ekan, albatta, uning ma’nosiga katta e’tibor bermog‘i kerak. Chunki har qanday so‘zni aytmoqdan oldin o‘ylash lozim. So‘z toki aytilmaguncha egasining ixtiyorida bo‘ladi, aytilgach esa u sizdan ketadi va ko‘pniki bo‘ladi. Shu bois so‘zni, fikrni faqat ezgulik uchun, yaxshilik uchun qo‘llamoq kerak.

So‘zga o‘ta talabchan bo‘lgan Navoiy o‘zi kabi boshqalardan ham shu fazilatni talab qiladi.

Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har neki ag‘yor durur yor aylar,
So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor aylar,
Yumshog‘i ko‘ng‘ilni giriftor aylar. [Bekmirzayev,2007:61].

Kimki odamlarga yaxshi muomalada bo‘lsa, iltifot ko‘rsata olsa, u hatto dushmanlarini ham bu fazilati bilan do‘st qila oladi, uning ko‘nglidan joy ola oladi. Aksincha, agar tili zahar inson

bo‘lsa, uning gaplari qalblarga ozor beradi, hammani o‘zidan bezdiradi. Shirin so‘z qalblarni zabt eta oladi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy aytganlaridek, so‘z, kalom- inson qalbiga olib boruvchi eng yaqin yo‘l. Ammo bu yo‘ldan yurish qalblarni zabt etish hamma insonlarning ham qo‘lidan kelavermaydi.

Navoiy bejizga so‘zga, tilga va nutqqa bu qadar e’tiborli bo‘lmagan. U so‘zga, tilga- inson uchun berilgan bir ne’mat sifatida qaralgan va shu bois ham millat fikriga aylangan. Bugun ana shu qadriyatni yosh avlod qalbiga qanchalik singdira olayapmiz?

Navoiy ulug‘lagan kalomlarni qo‘llashda, uni avaylab ishlatishda, an’analarga rioya qilishga o‘rnimiz bormi?!

Ta’limda ana shu jihatlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik – biz ustozlarning burchimiz. Holbuki, Navoiy she’rlari leksik-semantik jihatdan boy. Shoir tilida so‘zning lug‘aviy ma’nosi , polisemantik xususiyatlari, frazeologik ma’nolari o‘z o‘rnida o‘ta ehtiyotkorlik bilan qo‘llanadi. Ijodiy yozma nutqa qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib nutqni rivojlantirishning milliy-an’anaviy usullari Alisher Navoiy qarashlarida, uning har bir asarida shoirning mahoratini ko‘rsatuvchi nutq birliklarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shoir qaysi janrda qalam tebratmasin, barchasiga o‘zining yozma ijodiy nutqda mohir ekanligini ko‘rsata olgan. “Munshaot”dagi maktublardan tortib, dostonlariga qadar, “Majolis un-nafois” dan boshlab, “Mahbub ul-qulub” asarigacha shoir nutqining ravonligi, izchilligi, mantiqiyligi va aniqligi uning iqtidorini ko‘rsatuvchi bir omildir. Shoir so‘zga talabchan, so‘z oldida mas’uliyatli va o‘ta nozikta’b. Shu bois buyuk mutaffakkir Alisher Navoiy asarlari filologik jihatdan asrlar davomida tahlil qilinmoqda va yana tahlil qilinaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Nazm-ul javohir.
2. Haqqul I. E’tiqod va ijod. –T.: O‘zbekiston Respublikasi FA nashriyoti, 2007.36-bet.
3. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. T.: Fan, 2007. 61-bet.
4. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. –T.: Adolat, 2005. 86-bet.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’on va sunnatdagi ilmiy mo‘jizalar. T.:Hilol-Nashr, 2019. 2-bet.

MULOQOT QOIDALARINING SHARQONA USULLARI
ORIENTAL METHODS OF COMMUNICATION RULES

F.Karimova,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodimi

Abstract: The article draws on some examples of the rules of communication on the example of the views of Eastern linguists, philosophers and thinkers. It focuses on nonlinear factors in the speaker-listener relationship.

Keywords: *communication, western methods of speech communication, dialogue, Farobiy, A.Navoiy, Bobur.*

Muloqotnining qonun-qoidalari va uning samarali amalga oshirilishi haqidagi niyatlar faylasuflarni, mantiqshunoslarni va albatta, tilshunoslarni doimo qiziqtirib kelgan. Sharq allomalarining bu haqdagi fikrlari diqqatga sazovordir. Abu Nasr Farobiy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutaffakkirlarning nazariy qarashlarida muloqot qoidalari ahloq-odob qoidalarining bir qismi sifatida tilga olinadi. Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida fozillar shahrini boshqaruvchi shaxs fazilatlari birma-bir sanab o‘tiladi. Ular ichida «..bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi» [Farobiy, 2020: 244] bilan birgalikda «u o‘z fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida fasohatli ifodalay olishi zarur»ligi qayd etiladi. [Farobiy, 2020: 245]. Fikrni ixcham va lo‘nda ifoda etish, kam gapirib, ko‘p tinglash haqida bildirilgan fikrlar muloqot qoidalarining asosiy qismlaridan hisoblanadi. Nafaqat

haqiqatni so‘zlash, kezi kelganda uni bayon etish muomala odobi chegarasidan tashqari bo‘lgan holatlar ham yo‘q emas. Bu haqda A.Navoiyning fikrlari nihoyatda salmoqlidir: «Xirandmand uldurkim, yolg‘on demas, ammo barcha chin degulik ham emas». [Navoiy, 1998: 102]. Mutafakkir olimning nutq odobi haqidagi fikrlari uning bir necha asarlarida aks etgan. Chunonchi:

Navoiy, xomadek tortib uzun til,
Ne dersan, oxir o‘z haddingni bilgil. [Islomov, 2011:17].

yoki

So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag‘maga tahsin degil. [Navoiy,1991:212].

tarzidagi fikrlari nutqning zerikali, uzundan-uzoq holatda emas, balki so‘zlovchining niyatini lo‘nda va qisqa satrlarda berilishini ta’kidlovchi misralardir. Shuningdek, bayon etilayotgan fikrning haqiqatga bo‘ysunishi kerakligi haqidagi fikrlar ham Navoiy asarlarida ta’kidlanadi.

Tarixdan bizga ma’lumki, so‘z bilimdonlarining o‘z farzandlariga nasihat tarzida bitgan asarlarida, xususan, Kaykovusning o‘g‘li Gilonshohga, A.Jomiyning o‘g‘li Ziyovuddinga, Boburning o‘g‘li Humoyunga bag‘ishlangan nasihatlarida nutq odobi va yozuv qonun-qoidalari haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. [Kaykovus, 1986:40-48; Jomiy, 2007:3-4; Bobur,1990: 321].

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida keltirilgan «Nomaqbul rostni aytishdan parxez qil» [Kaykovus, 1986:41], «Kishining martabasini so‘zi bila bilurlar, ammo so‘zning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zining ostida pinhondur...» [Kaykovus, 1986:43] tarzidagi qarashlar muloqot jarayonini boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

A.Jomiy esa farzand tarbiyasidagi odob qoidalarini kitob mutolaasi va nutq tuzish borasidagi nasihatlari bilan boyitadi. «Boburnoma»dagi Humoyunga bitilgan maktub mazmuni ham nutq va yozuv odobi haqida qimmatli fikrlarni beradi. «Takalluf qilay deysan, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Bundan nari betakaluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qug‘uchig‘a». [Bobur, 1990:321].

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridagi «So‘ramasdan oldin nogoh so‘z desang, ne ajab, eshitib dakki, pand esang», «Qizil til qora bosh yovi beomon» hikmatlari zamirida navbatsiz so‘z olmaslik, ko‘p gapirmaslikka ishora berilgan bo‘lsa, [Hojib, 2020:103] Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asridagi *«Nekim kelsa erga tilidin kelur, Bu tildin kim edgu, kim aqir bo‘lur (Kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli sodir bo‘ladi, bu til sababli ayrimlar yaxshilik, ayrimlar yomonlik ko‘radi)»* hikmatida ham o‘ylab, mulohaza bilan so‘zlash odobi bayon etilgan. [To‘xliev, 2013:98].

Zamonaviy tilshunoslikdagi «Tilning lug‘at boyligini etarli darajada bilmasdan turib madaniy nutq tuzish mumkin emas»kabi fikrlar bilan birgalikda nutq egasining nutqi komilligida tashqi omillarga ham e’tibor qaratish kerakligi nazarda tutiladi. [Mahmudov, 2007:10]. Unga ko‘ra «...turli jestlar, yuz ifodasi, boshni qimirlatish, gavda harakatlari, makon yaqinligi, ovoz tabiati, kiyimlar, so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy yoki boshqa maqomi kabi xilma-xil omillar kommunikatsiya jarayonida alohida qimmatga ega». [Mahmudov, 2007: 13].

Muloqotni amalga oshirishda so‘zlovchi va tinglovchining o‘z kommunikativ maqsadini yuzaga chiqarishda dialog muhiti eng yaxshi tanlov hisoblanadi. Chunki dialogning aniq makon va zamonda, ma’lum ijtimoiy va madaniy muhitda va ko‘pincha bir-biri haqida umumiy ma’lumotga ega bo‘lgan so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida yuz berishini hisobga olsak, u so‘zlovchi va tinglovchining lisoniy maqsadlarini amalga oshirishda eng maqbul nutqiy maydon ekanligini anglaymiz.

Xulosa qilib aytganda, muloqot qoidalari qadimdan sharqda o‘zining ajoyib namunalari bilan keng tarqalgan. Ularning ham nazariy, ham amaliy tomonlaridan bugungacha foydalanib kelmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – B. 244.
2. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 3-4.

3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami // Hayratul-abror. XX tomlik. Tom. VII. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 212.

4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami // Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya. XX tomlik. Tom. XIV. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 102.

5. Islamov O‘. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati talqini. Filol. fan. nom.diss...avtoref. – Toshkent, 2011. – B. 17.

6. Kaykovus Unsurul maoliy. Qobusnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986. – B. 40-48.

7. Mahmudov N. Nutq madaniyati va boshqa fanlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2007. – № 1. – B. 10.

8. To‘xliev B, Abdurahmonova B. Adabiyot (Majmua). 1-kitob. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013 – B. 98.

9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Abduhamid Pardayev tabdili. – Toshkent: Yangi asr avlodi , 2020. – B. 103.

10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B. 321.3.

SAYYID QOSIMIYNING LINGVISTIK QARASHLARI
LINGUISTIC VIEWS OF SAYYID QASIMI

O.Normurodov,
GulistonDU o‘qituvchisi

***Abstract*:** This article analyzes Sayyid Qasimi's linguistic views. It explores the author's views on speech culture. The solution of this problem will serve to highlight the specific aspects of the contribution of Uzbek thinkers to world linguistics.

***Key words*:** language, linguistics, speech, linguistics, speech culture, short vocabulary, world linguistics.

O‘zbek tilshunosligi tarixi uzoq o‘tmishga bog‘lanishini Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy kabi mutafakkirlarning shu sohaga doir risolalari va boshqa asarlari tarkibidagi til haqida bildirilgan fikrlarda ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining “Tilning fazilati, foyda-zararlari” bobida shunday fikrlar bor:

Uquvga, bilimga tilmoch – bu til,
Kishini ro‘shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.
Kishini til e’zozlaydi, kishi (u tufayli baxtga erishadi),
Kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi.
Til hovlida (ya’ni qafasda) yotgan arslon kabidir.
Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi. [Yusuf Xos Hojib, 1971:86].

Bugungi kunda tilshunoslar til va lison tushunchalarining farqlanishini jahon tilshunosliki ta’sirida tadqiq qilishmoqda: “Tilshunoslikda lison va nutqni izchil farqlab o‘rganish avvalo tilshunoslar V.fon Humboldt, B.de Kurtene va F.de Sossyur nomi bilan bog‘liq. Lison va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida tub burilish sifatida baholanadi. Chunki u mavjud qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. [Sayfullayeva va boshqalar, 2006: 32.], biroq bu kabi qarashlarni Yusuf Xos Hojib XI asrdayoq obrazli qilib tushuntirgan. Yuqoridagi misolda adibning “Til hovlida (ya’ni qafasda) yotgan arslon kabidir” jumlasi tilning ichki imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatib beradi. Yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan arslon (lison) qafasdan nutqqa (tashqariga) chiqisa, o‘zining vahshiyligini (voqeligini) aniq ko‘rsatadi. Adibning “Uquvga, bilimga tilmoch – bu til” gapida ham “Til hodisasi dastlab nutqda paydo bo‘ladi, takror-takror ishlatilishi natijasida miyaning til xotirasi qismida bu hodisaning ramzi shakllanadi, keyinchalik ana shu ramzdan nusxa olib nutqiy birlik hosil qilinadi. Demak, asli til hodisalari nutqdan lisonga ko‘chadi va keyin-gina lisondan nutqqa olib chiqiladi” [Rahmatullayev, 2006: 6-bet] kabi qarashi akslangan deyish mumkin. O‘zbek olimlarining lingvistik qarashlari, odatda, asarlarning ma’lum boblarida, biror asar qahramonlarining nutqida aytib o‘tilgan. Shu bilan birga

chiroyli, o‘rinli gapirish Islom olamida eng katta ahamiyatga ega ekanligini Ahmad Yugnakiy “Hibatul haqoyiq” asaridan olingan mana bu parchadan ham bilish mumkin:

Oqil nimalarni so‘zlar, quloq sol,
Odob boshi tildan, shuni bilib ol.
Tilingni nojo‘ya so‘zdan mahkam tut,
Tishlaring sinmasin, so‘kishni unut. [Ahmad Yugnakiy, 2002: 7].

Bu hodisa Sayyid Qosimiyning asarlarida ham juziy bo‘lsada kuzatiladi. Adibning “Gulshani roz” dostonidan olingan quyidagi baytda qisqalik haqida fikr yuritilgan:

Qosimiy sen so‘zlama ko‘b, ayla bas,
Sidqing erur holina faryodras. [Sayyid Qosimiy, 1992: 102].

Til o‘z ichki imkoniyatlarini so‘zning ma’no qirralarini qay darajada namoyon qilishi bilan yuzaga chiqaradi. Adib ilgari surgan til haqidagi fikrning ma’lum bir jihati yuqorida ko‘rildi. Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” asari ham mumtoz adabiyotimizda badiiy jihati yuqori dostonlardan biri sanaladi. Asarning dastlabki munojot qismidan o‘rin olgan quyidagi misralarini kuzataylik:

Yoyayin elga so‘zning gavharin,
Tuzayin nazmi turkiy daftarin.

Sayyid Qosimiy yashagan davrda turkiy tilga nisbatan forsiy tilda ijod qilish birmuncha yetakchilik qilar edi, shu bois muallif o‘zining ona tiliga bo‘lgan hurmatini ko‘rsatgan va so‘zni ulug‘ bilib uni gavharga tenglaydi. Navoiy ham so‘zni gavharga qiyoslaydi. Bu esa sharq tilshunosligida so‘z tushunchasining keng ma’noli ekanligini bildiradi. Bundan tashqari muallifning boshqa dostonlari tarkibida ham til, nutq, so‘z va nutq madaniyati bilan bog‘liq qarashlar mavjud.

Sayyid Qosimiyning til qarashlari ko‘p hollarda sharq mutafakkirlari kabi dostonlari tarkibida namoyon bo‘lib, obrazli tarzda ifodalangan. Muallifning bu boradagi qarashlari, asosan nutq madaniyati, til odobi, qisqa so‘zlik kabi tilning ijtimoiy tomonlarini qamrab olganligi ma’lum bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi. – T.: Fan. 1992.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul lug‘atayn.– Toshkent. G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2013.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abzalova M. Hozirgi o‘zbek tili. – T.: Fan va texnologiya, 2006.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: Universitet. 2006.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Saodatga yo‘llovchi bilim. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. – T.: Fan, 1971.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi.

QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARDA TABIAT HODISALARI KONSEPTI
THE CONCEPT OF NATURAL PHENOMENA IN ANCIENT WRITTEN MONUMENTS

M. Allambergenova ,
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada qadimgi turkiy yozma yodgorliklar lug‘aviy qatlamidagi tabiat hodisalariga oid so‘zlar qiyosiy tadqiq qilingan. Bugungi adabiy tilimizda saqlanib qolgan yoki arxaiklashgan ba’zi so‘zlar ko‘rib chiqilgan. Ko‘plab so‘zlar misollar orqali etimologik jihatdan asoslangan.

Abstract: in this article words about nature events were investigated in lexic layer of ancient Turkish writing memories. In todays literary language were lokked through some words that are kept or archaic. Many words were based with examples in etymologic side.

Kalit so‘zlar: magma, osmon, yer, yog‘och, arxaik, Sariq dengizi, leksik qatlam, Kultegin, To‘nyuquq ;

Key words: maghma, sky, earth, wood, arxaism, Yellow sea, lexic layer, Kultekhin, Tonukhuk;

Tabiat – odam paydo bo‘lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Umuman, bu dunyo odam, koinot, jonsiz va jonli borliq. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashash tabiiy sharoitlarining majmui deb ham qaraladi. Odamning tabiatga munosabati turli davrlarda turlicha bo‘lib o‘zgarib, rivojlanib bordi. Shu qatorda eng qadimgi insoniyat vakillari tabiat hodisalari, tabiiy voqeliklarga o‘z tasavvurlari nuqtai nazaridan kelib chiqib munosabatda bo‘lganlar. Tabiat haqidagi tasavvurlarning turlicha bo‘lishi rivojlanish, taraqqiyot, ong va fikrlar yangilanishi singari qator omillar bilan bog‘liqdir. Shuning uchun qadimgi yodgorliklar, qadimgi adabiy asarlarda tabiat hodisalariga oid atamalarni, so‘zlarni o‘rganish bu boradagi qarashlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishda yordamchi vositadir. Qadimgi yozma yodgorliklarda qo‘llanilgan tabiat hodisalariga oid so‘zlarning tadqiqi shu jihatdan ahamiyatga molikdir. ANIMIZM (lot. Anima – jon, ruh) odamlarning tabiatga sig‘inishi va unga itoat etishi asosida yuzaga kelgan din shakli hisoblanadi. Anima («jon» va «ruh») odam vafot etganidan so‘ng uning joni tabiatdagi jonsiz narsalarga ko‘chishiga inonishdir. Animistik tushunchaga ko‘ra, inson tabiatdagi narsa-hodisalar bilan o‘zini mushtarak holda tasavvur etadi, tabiat inson qiynalganida, u ojizlikka tushib qolganida unga jonli odamdek yordam beradi. Turkiy xalqlar o‘rtasida saqlangan ko‘plab afsonalarda animizm tushunchasi o‘z ifodasini topgan. Masalan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi «Oq bilakxon» ertagida yigit toshga aylanishi, «Ochil-ochil qamishlar», «Yoriltosh»da qizlarning iltijolari, yolvorishlari natijasida mo‘jizalar ro‘y berishi buning yorqin misolidir.

Qadimgi turkiy yozma bitiklarda yer, *yo‘l, qor, suv, dengiz, daryo, cho‘l* singari tabiat hodisalarini ifodalovchi so‘zlar ishlatilgan. Bundan tashqari mazkur so‘zlar o‘zaro juft holda kelib yangi ma’nolarni ifodalashga ham xizmat qilgan. Mazkur maqolamizda, yozma obidalardan To‘nyuquq va bitiklarning eng yirigi bo‘lgan Kultegin bitigtoshi misolida tabiat hodisalarini ifodalovchi so‘zlar yuzasidan fikr yuritishga harakat qilamiz.

Bizga xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ma’lumki, qadimgi ajdodlarimiz tabiat hodisalariga alohida ahamiyat berib, ularni jonli deb tasavvur qilganlar. Masalan, o‘ta qattiq yer silkinishi sodir bo‘lsa, yer o‘rtasidagi magma deb atalmish cho‘g‘ borligini, uning harakatga kelish oqibatida yer qimirlashlari bo‘lishini ilmiy asoslay olmagan odamlar yerimizni ho‘kiz shoxida ko‘tarib turgan bo‘lsa kerak, ho‘kiz charchaganida shoxlarini qimirlatib, dam olsa kerak, oqibatda yer qimirlaydi, deb faraz qilganlar. Bunday faraziy mulohazalar shunday ko‘p bo‘lganki, o‘tmishdagi odamlar ularga javob topishga ham ulgurmaganlar. Ammo fikr yuritish, taxminiy sabablar topish xususiyatlari hozirgi dunyo kishisida ham ajdodlar dunyoqarashiga yaqin holda saqlanib qolgan, deyish mumkin. Shundan kelib chiqib qadimgi yozma obidalarda ham bunday qarashlar bo‘lishi kerak va aynan shu holat qadimgi turkiy xalqlarning fikrlashi, dunyoqarashi haqidagi tasavvurlarni uyg‘otadi.

Olamning yaralishi uchun asos bolgan to‘rtta unsurning bittasi- olov. Mazkur so‘z yodgorliklar tilida mavjud bo‘lib, bunda olov so‘zining suv so‘zi bilan yonma-yon kelgan holatlarini uchratish mumkin: *ancha qazg‘anip, biriki bodunug‘ ot sub qilmadim*(shu xilda qozonib birlashgan xalqni o‘t- suv qilmadim). Bizga ma’lumki, olovni faqat suv yenga olishi mumkin. Bundan boshqa olovga bas keladigan biror narsa yo‘q. Shu ma’noda o‘t-suv deya ishlatilayotgan mazkur juftlikda aynan “bir-biriga dushman bo‘lmoq” ma’nosi mavjuddir. Bu bilan Bilga xoqon xalqiga o‘zi hukmronligi davridagi farovonlik, tinchlik haqidagi fikrlarni aytmoqda. Qadimgi turkiylar tabiat kuchlarida pinhoniy kuch va ruhning borligiga ishonishgan. Ularning fikricha, oy, quyosh, momoqaldiroq va chaqmoqlarning ham o‘z ruhi mavjud. Go‘yo ruhlar erkaklik va ayollik jinsiga mansub edi. Ayol ruh malikasi «Umay» deb atalgan. Mahmud Koshg‘ariy ona qornidagi bolalarni Umay muhofaza qiladi deb hisoblashi ham uning ruhlarga bo‘lgan ishonchini ko‘rsatadi.

Yer va suvni, ayniqsa, kuchli ruhga ega deb hisoblashgan. Bular turkiy qavmlar o‘rtasida turlicha nomda («Er-Su», «Er-Sub», «Er-Suv», «Suv-Er», «Yir-Sub», «Sub-Er») aytilgan. Qadimda turkiy qavmlar istiqomat qilgan Sibir (Sib-ir) vodiysining nomi ham ana shu muqaddas tushunchalar hosilasi bo‘lgan degan farazlar mavjud. Yer, suv, olov haqidagi fikrlarni Ungin[1] bitigida ham uchratish mumkin: *bilga atachim yog‘un al u rag‘ing‘in qazg‘antim sub, ya:r, ta:ngri, o‘d…. kirur art i*(Alloma otaginam, janozang, oq-qizil yirtishingga erishdim. Suv, yer, falak, olov… kirib edi) [Ungin OA 4]. *Uza tangri basmasar, asra ya:r ta:linmasar, turuk bodun, a:lignin to:rungin kim artati?* (Osmon bosmagan bo‘lsa, pastda yer yorilmagan bo‘lsa, turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi?), ya’ni tarqoq holga kelib qolgan turkiy qavmlarga da’vat sifatida aytilayotgan mazkur jumlalarda osmon va yer so‘zlarining ishlatilayotganini ko‘ramiz. Chunki insoniyatning qadimiy vakillari har ikki tushunchani muqaddas bilib, ularga e’tiqod qilishgan. Tinmay yomg‘ir yog‘ishi, turli tabiiy ofatlar, yer qimirlashi kabi tabiat hodisalarini ular yer, osmonning g‘azabga minishi deb tasavvur qilganlar. Shunga ko‘ra, Kultegin bitigida Bilgaxoqon parokanda bo‘layotgan xalqiga osmondan, yerdan yog‘ilgan ofat bo‘lmasa, qanday qilib davlatingiz buzildi? Bunga yagona sababchi o‘zlaringiz, o‘ysizligingiz emasmi? –deya ularni hamjihatlikka chorlamoqda. Bitiklarda bunday da’vatlarning bir nechtasini ko‘rsatish mumkin. Kultegin bitigtoshi Bilgaxoqon tilidan yozilgan bo‘lgani uchun unda aynan Bilgaxoqonning qarashlari ko‘proq aks etgan. Shuningdek, yodgorliklar matnida yer va suv so‘zlarining yonma-yon, juft holda qo‘llanilganini uchratamiz: *ta:ngri Umay iduq ya:r sub basa ba:rti arinch* (Tangri Umay, muqaddas yer suvni bosib bergan ko‘rinadi) [To‘nyuquq 38]. Gap shundaki, qadimgi turklar yer va suvni muqaddas deb bilishgan hamda “yer-suv” deganda vatanni tushinishgan. Shunga ko‘ra, osmon va yer haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Bunday olib qaraganda, insoniyat qaysi davrda bo‘lsa-da, uning uchun tabiiy boyliklar o‘z zaruratini yo‘qotmaydi, shu jihatdan olganda bugun ham ularga nisbatan “muqaddas” atamasini qo‘llash mumkin.

Na:ng, sabim arsar, bangu tashqa urtum (Qanday so‘zim bo‘lsa, mangu toshga o‘ydim) [Kultegin 11]. Ma’lumki, toshga o‘yib yozilgan rasm yoki yozuv hech qachon o‘chmaydi. Kultegin bitigtoshi matnidan keltirilgan mazkur jumlada, Bilgaxoqonning o‘z so‘zlarini toshga o‘yib yozdirgani qayd qilinmoqda. Jumlaning davomida “Turkning endigi xalqlari, beklari. Uy-dunyoga qaraydigan beklar, sizlar gumrohsizlar!”-degan fikrlarni o‘qiymiz. Ko‘ziga faqat mol-dunyo ko‘rinadigan beklarga ularning tanlagan yo‘li noto‘g‘ri ekanligini, bu so‘zlarni mangu toshga o‘yib yozilganining sababi esa, tarixda qilingan xatoliklarni boshqa takrorlamasdan, ko‘zni ochib oqilona harakat qilishga chaqiriq deyish mumkin.

Shuningdek, bitiktoshlar lug‘aviy qatlamidagi so‘zlar bugungi kunda ham iste’molda ekanligini ta’kidlash joiz. Qadimgi turkiy til leksik xususiyatiga ko‘ra alohida ajralib turadi. O‘rxun-Enasoy va uyg‘ur yozuvi bitilgan yodnomalar qadimgi turkiy tilning leksikasi, lug‘aviy qatlamlari ancha boy va shakllanganligidan, ma’lum qolipga kelganligidan guvohlik beradi. Qadimgi turkiy til lug‘atida bo‘lgan so‘zlarning asosiy qismini o‘sha davrdagi turkiy urug‘ va qabilalarning tillari uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar tashkil qiladi. Bu so‘zlarning ko‘pchiligi turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida keng iste’molda bo‘lgan. Ular hozirgi ko‘pgina adabiy tillar tarkibida qo‘llanilib kelmoqda.

To‘nyuquq da: *yoqaru at ya:ta:, yadag‘in, ig‘ach tutunu ag‘turtum o‘ngraki a:r* (Yuqoriga otni yetaklab, yayov yag‘och tutunib, chiqardim oldindagi yigitlar…) [To‘nyuquq 25]. Mazkur jumlada “yog‘och” so‘zining qo‘llanilishini ko‘rish mumkin. Qadimgi turkiy tilda *ig‘ach* shaklida ishlatilgan bo‘lsa, asrlar silsilasida turli fonetik o‘zgarishlarga uchrab bugungi lug‘aviy qatlamda yog‘och tarzida ishlatilib kelmoqda. Bundan ko‘rinadiki, hozirgi adabiy tilimizda iste’molda bo‘lgan so‘zlarni etimologik jihatdan tadqiqot qilinganda ularning tarixi bir necha asrlarga borib taqalishi ma’lum bo‘ladi. Turli tabiiy sharoitlar tufayli o‘zgarishlarga uchragan ko‘pgina so‘zlarning bugungi leksikamizda ham ishlatilayotgani ularning qiyosiy tadqiqi masalasiga yengillik kiritadi. Shu bilan birga qadimgi turkiy tilda iste’molda bo‘lgan ayrim so‘zlar bugungi kunda saqlanib qolmagan, ya’ni arxaiklashib qolgan. Masalan: *Shantung baliqa, taluy o‘guzka:*

[1] Mazkur bitiktosh Mo‘g‘ulistondagi Kosho-Saydam vodiysidan 180 km janubda, Ungin vodiysiga o‘rnatilgan va hozir ham o‘z o‘rnida.

ta:gmish yoq armish qag‘anima otunup, su a:ltdim(Shantung shahriga, dengiz, daryoga yetmagan edi. Xoqonimga arz qilib, lashkar tortdim). [To‘nyuquq 18]

Bu yerda taluy, o‘guz so‘zining arxaiklashib, tushuncha o‘zgarmasdan nom o‘zgarib “dengiz”, “daryo” holiga kelganini ko‘rish mumkin. Jumla mazmunidan kelib chiqqanda bu o‘rinda Sariq dengizi va Xuanxe daryosining mansabi ko‘zda tutilgan. Qadimgi turkiy tilda qo‘llanilgan bu kabi qator so‘zlar o‘z davrida iste’molda bo‘lib keyinchalik butunlay muomaladan chiqqan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ular butunlay yo‘qolib ketgan emas. Ularning ba’zilari boshqa turkiy tillarda yoki ayrim o‘zbek shevalarida hozir ham saqlanib qolgan. Jumladan, qapig‘-darvoza, al-qo‘l kabi so‘zlar hozirgi o‘g‘uz tillarida mavjud. Ayrim so‘zlar esa toponim va antrotoponimlar tarkibida saqlanib qolgan.

O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida «Tangri-tek-Tangri» birikmasi uchraydi: *Ta’ngrita’g tangrida bolmush Turuk bilga’ qag‘an bu o‘dka olurtim, sabimin to‘kati ashidgil!* (Tangriday, tangridan bo‘lmish turk bilga xoqon bu dunyoga keldim. So‘zimni tugal eshitgil.) [Bilga xoqon, 1] Uning ma’nosi ham Tangrining tanholigini etirof etishdir. Tangri-tek-Tangri- “osmondek Tangri” yoki “Ollohdek Olloh”, “Ollohga o‘xshaydigan Olloh” deyilishida Tangrining qiyofasi uchun hech bir sifat, o‘xshatish yo‘q, u faqat Tangrining o‘ziga o‘xshaydi, degan qarash ifodalangan. Ko‘kning Tangri sifatida qabul qilinishi, ko‘k qobig‘idagi osmoniy jismlarning ham muqaddasligini belgilaydi. Shu sababli ham turkiylar osmon jismlarida ilohiylikni sezadilar. Gerodotning yozib qoldirishicha, turkiylarning antik davrlarda yashagan qavmlaridan biri massagetlar Quyoshni yagona tangri deb bilganlar. Quyosh sharafiga otlarni qurbonlik qilishgan. Ularning tushunchasiga ko‘ra, Tangriga qanchalik tez qurbonlik qilinsa, u borliqqa nurini shunchalik tez sochadi. Osmon jismlariga Tangri sifatida sig‘inish milodimizning III asrida alohida din sifatida ko‘ringan. U Xitoyda 215 yilda tug‘ilgan Moniy nomi bilan bog‘langandir. Moniy «Shopurqon» asarida o‘z diniy ta’limotining tamoyillarini bayon etgan. Beruniy «Hindiston» asarida keltirishicha, Moniy yozgan edi: «Boshqa xalqlar bizni Oyga va Quyoshga sajda qilib, bu ikkovini sanam o‘rnida tutishimizni ayblaydilar. Oy va Quyosh bo‘lsa bu olamga chiqishimizning yo‘li va eshigidir. Iso ham shunday fikrda bo‘lgan». Ko‘k Tangri dini moniylikdan mutloq farq qiladi. Moniylikning osmon jismlariga sig‘inishi, ularni Xudo darajasida anglashi yangilik bo‘lmay, bunday qarashlar qadimgi davrdagi Kichik Osiyo xalqlari, jumladan, shumerlar hayotida, xususan, adabiyotida o‘z ifodasini topgan. Hatto turkiylarning massaget qavmi ham quyoshni yagona Xudo deb tan olishi ta’kidlandi. Ko‘k Tangri dini esa butun osmon yuzini Xudo deb tushunadi. Tangrining osmonda ekanligiga ishonch bildiradi. Osmon Tangri hisoblangani uchun shu osmonda joylashgan Quyosh, Oy va Yulduzlar muqaddas sanaladi. *Uza qag‘an olurtum, olurtuquma o‘ltachicha saqinig‘ima turuk baglar bodun agirip, sabinip, toqtamish kozi yuguru ko‘rti bodka o‘zum olurup buncha ag‘ir torug tort bulungdaqi (bodunug‘ at) dim, uza (ko‘k tangri as) ra…* [Uzra xoqon bo‘lib o‘tirishimga orzumand turk beklari, xalqi atrofimga yig‘ilib, sevinib, to‘xtamish ya’ni harakatsiz ko‘zlari yugurib ya’ni o‘ynab boqdi. Taxtga o‘zim o‘tirib, buncha og‘ir hukumatni, to‘rt jihatdan xalqni epga keltirdim. Ustda (ko‘k tangri), ostda…] [Bilga xoqon, 2]

Turkiy qavmlarning Ko‘k Tangri diniga e’tiqodi «O‘g‘uznoma» dostonida yorqin ifodasini topgan: Kunlardan bir kun O‘g‘uz xoqon bir yerda Tangriga yolvorar edi. Qorong‘u tushdi. Ko‘kdan bir ko‘k nur tushdi. Quyoshdan yorug‘, oydan yorqinroq edi. O‘g‘uz xoqon u tomonga yurdi, ko‘rdiki, o‘sha erning orasida bir qiz bor edi. Yolg‘iz o‘tirar edi.Yaxshi, chiroyli bir qiz edi. Uning boshida otashga o‘xshash yorug‘ bir xoli bor edi, xuddi oltin qoziq yulduziga o‘xshar edi. U qiz shunday chiroyli ediki, kulsa, ko‘m-ko‘k osmon kuladi, yig‘lasa ko‘m-ko‘k osmon yig‘laydi. Bu parchada Ko‘k Tangrining obrazi turkiy qavmlar tasavvuri darajasida chizilgan. O‘g‘uz xoqon Tangriga yolvorganda ko‘kdan tushgan nur Tangrining mehri edi. Bu nur oldida Quyosh va Oy nuri ojizdir. Demak, turkiylar uchun ko‘k mavjud ekan, Quyosh va Oy Tangri bo‘la olmaydi. Badiiy adabiyotda Tangrini yor, ma’shuqa timsolida tasavvur etish an’analari mavjud. O‘g‘uz xoqonga nur orasida ko‘ringan chiroyli qiz – bu Tangri edi. U shu qadar qudratli kuchki, kulsa osmonni (o‘z makonini) kuldiradi, yig‘lasa yig‘latadi. Dostonda O‘g‘uz xoqon o‘ziga hamroh tutungan nurdan uch farzand ko‘radi. Ularga Kun, Oy, Yulduz ismlari beriladi. Demak, bunday nomlanishda ham osmon jismlari Tangri emas, aksincha, ular Osmon -Tangrining mehridan yuzaga kelgan muqaddas

farzandlardir. Professor N.Rahmonov «Ko‘hna bitik toshlar» kitobida keltirishicha, «Sibirdagi turkiy va boshqa xalqlar tilida ham Tangrining ilohiy mazmuni va osmon ma’nosi saqlangan. Masalan, “evenklar tangara” deb osmon va xudoni aytadilar. Mordvalar esa tangri deganda faqat osmonni tushunadilar. Mo‘g‘ullarda ham tangrining faqat osmon ma’nosi bor, ilohiy mazmuni yo‘q. Yoqutlarda ilk mifik ko‘rinishi – keyingi davrdagi turli afsona qoldiqlari singdirilgan holda saqlangan. Qadimgi turkiy muhitdagi tangri obrazi qorachoy-bolqor folklorida ham uchraydi. Qorachoy-bolqorlar qadimgi turkiy madaniyatga asoslangan mifologik tasavvurlarning katta qatlamini saqlagan. Qorachoy-bolqorlar mifologiyasidan bizgacha turk-mo‘g‘ul panteoni Tangriga bag‘ishlangan uchta gimn-qo‘shiq saqlangan. Ularning har biri o‘ziga xos kuyga va ijro xususiyatiga ega. Tangri bu qo‘shiqlarda yer osmonni yaratuvchi, yerdagi barcha jonzodlarning homiysi sifatida kuylanadi». Qadimgi yunon va turkiylar tafakkurida xudo osmonda tasavvur etilishiga ko‘ra mushtaraklik, shu bilan birga farqli tomonlar ham mavjud. Turkiylarda Ko‘k deyilganda ikki ma’no – Tangri (ramziy) va osmon (asl) tushunilgan. Beruniy «Hindiston» asarida ko‘rsatishicha, yunonlar ham Zevsni ramziy va tabiiy ma’noda tushunganlar. Miloddan oldingi V asrda yashagan yunon shoiri Kratos falakni Zevs deb atagan. Bu ramziy ma’nosidir. Zevs xudolar xudosi ekanligi uning tabiiy ma’nosi hisoblanadi. Turkiylarda Ko‘k misolida Tangrining yagonaligi tan olinadi va ulug‘lanadi. Yunon mifologiyasida esa ko‘p xudolik targ‘ib etiladi hamda xudolar odam shaklida tasavvur etiladi. Har bir xudoning o‘z vazifasi bor. Ular o‘lmasligi bilan odamlardan farq qiladi. Lekin xudolar odamlar ko‘zidan uzoqda, hamisha bulutlar bilan qoplangan Olimp tog‘ida yashaydilar. Qadimgi turkiylar ham Zevsni o‘zlariga Tangri deb tushunishi va boshqa ma’budalarga ham sig‘inishi ular ham diniy e’tiqodlarining ilk shaklida ko‘p xudolikni tan olganligini ko‘rsatadi. Tangrining yagonaligiga ishonish esa turkiylardagi diniy qarashlar asrlar davomida shakllanib borganligidan nishonadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qadimgi yozma obidalarda, umuman, qadimgi turkiy tilda qo‘llanilgan lug‘aviy qatlam orqali ko‘plab tarixiy lavhalarni, tarixiy qadriyatlarni kashf qilish mumkin. Shu kabi tabiat hodisalarini ifodalovchi so‘zlar qadimgi turkiy xalqlarning e’tiqodi, dunyoqarashi, fikrlashi haqida xabardor qiladi. Bu esa o‘z o‘rnida ajdodlarimiz tarixini bilish yo‘lidagi qimmatli ma’lumotlardir. Bizningcha, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi aks etgan mazkur obidalar kelajak avlod tarbiyasida ham katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov.G‘, Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.,1982, 71-130 betlar.
2. Azimov I., Rahmatov M. Qadimgi turkiy til.– Toshkent, 2005,67-80 betlar.
3. Mahmudov N. “Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at-ma’lumotnoma” T-1990;
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. Qadimgi turkiy til.– Toshkent,2009.
5. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. Birinchi qism.

BUYUK O‘ZBEK MUTAFAKKIRLARINING TIL VA JAMIYAT, TIL VA TAFAKKUR, TIL VA NUTQ MUNOSABATIGA OID QARASHLARI
THE VIEWS OF UZBEK GREAT THINKERS ON THE RELATION OF LANGUAGE AND SOCIETY, LANGUAGE AND CONTEMPLATION, LANGUAGE AND SPEECH

N.Odinayeva,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi,
S.Hamitova
Buxoro davlat universiteti talabasi

Abstract: This article describes the national, spiritual value of our national Uzbek language also,about the development of word in the language, its literary meaning in dictionaries , its

influence, strength, development, relationship with society, culture from the views of our great Uzbek thinkers as Navoiy,Farabiy, Beruniy,Avicenna and others.

***Key words**: value, national, spiritual, inheritance, contemplation, intelligence*.

Til – muqaddas va e'zozlangan tushuncha, har bir inson uchun o‘z onasi kabi aziz va mo‘tabar.

Til – hayotning boshlanishi. Inson o‘z ona tili yordamida yangi tushunchalar va munosabatlarni anglay boshlaydi. Ona tili bizga ona suti bilan singdiriladi. Inson ulg‘aygan sayin atrofdagilar bilan muloqot qilish, badiiy kitoblar o‘qish orqali so‘z boyligini oshirib boradi.

Ota-bobolarimiz tarixi, milliy va ma'naviy qadryatlarimiz bizga ona tilimiz yordamida meros bo‘lib qoldi. Xalqlar tarixi – bu ularning tilining tarixi. Davlat rivojlanishi bilan davlat tili ham rivojlanadi. Xalq mustaqilligining asosiy belgisi – ona tili va milliy madaniyati. Dunyoning barcha davlatlari o‘z ona tillarini asrab-avaylashga intilishadi, shuning uchun har qanday davlat o‘zining madaniy merosi va ona tilini alohida hurmat qiladi.

Millatlarni ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri bu til hisoblanadi. Har bir inson o‘z tilini bilishi, uni ulug‘lashi va shu bilan birga boshqa millatlarning ona tiliga hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina tilning, millatning qadri va obro‘yi, nufuzi oshadi. Til tarixini, uning me'yoriy nuqtai nazardan shakllanish jarayonini, rivojlanishini millat tarixidan ayri holda o‘rganib bo‘lmaydi.

Til va jamiyat tushunchalari ma'no anglatish nuqtai nazaridan farqli ma'nolarni anglatsa- da, bir-biri bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Tilni xalq yaratadi va o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas ohangda rivoj topib boradi. Xalqning madaniy va ijtimoiy- tarixiy taraqqiyoti o‘z izlarini, birinchi galda tilda qoldiradi. Shu bois, jamiyatdagi har qanday o‘zgarish, birinchi navbatda, tilda aks etadi. Ana shu qonuniyat til va jamiyat tushunchalarini qanchalik uzviy bog‘liq ekanligini ifoda etadi. Bu bog‘liqlikni yana-da yaqin ifodalash uchun quyidagi holatni anglash yetarli: agar biz Alisher Navoiy asarlarini o‘qisak, Navoiy yashagan davr bilan " gaplashamiz". Buyuk mutafakkirimiz qo‘llagan so‘zlar o‘sha davrdan sado beradi. Unda "kompyuter", "bank", "avtomatika", "avtobus", "mashina" kabi so‘zlar mutlaqo uchramaydi. Hech ikkilanishsiz, uchrashi ham mumkin emas. Chunki u davrda bunday tushunchalarning o‘zi bo‘lmagan. Navoiyda "kitob", "qalam", "qalamdon", "kilk", "xoma", "lavh" kabi so‘zlarni o‘qishimiz mumkin va ular o‘z navbatida Navoiy yashagan davrga xos hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan so‘zlar esa bizning asrimizga oid so‘zlardir. Jamiyat taraqqiy etishi bilan birga undagi o‘zgarishlarga oid tushunchalar va ularni ifodalovchi yangi so‘zlar tilda ham paydo bo‘lib boraveradi. Demak, til jamiyat bilan doimo hamnafas holda yuradi.

Navoiy besh asr oldin tillarning o‘zaro chog‘ishtirma tadqiqiga asoslangan "Muhokamat ul-lug‘atayn" ("Ikki til muhokamasi") monografiyasi bilan dunyo tilshunosligida mutlaqo yangi ilmiy yo‘nalish – komprativistikaga asos solgan edi. Alloma ushbu asari orqali chog‘ishtirma tilshunoslikning tadqiq yo‘llari, tahlil usullari, metodologik asosini ishlab chiqdi.Hozirgacha zamonaviy tilshunoslikning yirik sohalaridan biriga aylangan.

Hazrat Navoiy ilmiy tafakkurining gultoji hisoblangan ushbu tadqiqot o‘zbek fani tarixida ham tengsiz maqomga ega. Ushbu asar bizgacha yetib kelgan ilmiy ishlar orasida o‘zbek tilida yaratilgan birinchi sof lingvistik ilmiy-tadqiqot hisoblanadi. Ta'kidlamoq joizki, Nizomiddin Mir Alisher Navoiyga qadar turkiy tillar tadqiqiga bag‘ishlangan o‘nlab ilmiy asarlar yaratilgan. Biroq ular arab tilida yozilganligi hamda ularning katta bo‘lagi o‘quv qo‘llanma xususiyatiga ekanligini yodda tutmoq zarur.

Til bilan tafakkurning o‘zaro munosabati, birligi haqidagi masala falsafa tarixida ham, tilshunoslik tarixida ham eng muhim muammolardan hisoblanib kelmoqda. Til va tafakkurning o‘zaro munosabatini puxta bilish uchun dialektika qonuniyatlarini, til bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqani puxta o‘rganish lozim bo‘ladi. Til bo‘lmasa, jamiyat a'zolari o‘rtasida ijtimoiy aloqa va munosabat ham, odamlar yashayotgan jamiyatning o‘zi ham bo‘lmas edi. Til vositasida bir-birimizning fikrimizni anglaymiz, har kungi kundalik ishlarimizni olib boramiz, narsa va hodisalarning mohiyatini chuqurroq bilib olamiz. Bu jarayon faqatgina insonlarda va albatta, tafakkur yordamidagina amalga oshiriladi. Insoniyatning amaliy faoliyati tafakkursiz kechmaydi.

Alisher Navoiy til va tafakkur birligi haqida turli fikrlar yuritgan va tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Til inson zotini hayvondan ajratib turuvchi “bebaho gavhar”dir:

So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin,
So‘zdurki, berur xabar jonga jonondin,
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilki go‘hari sharifroq yo‘q andin.

Navoiy bu fikrlarini chuqurlashtira borib, so‘zning ta’sir kuchi, uning katta ruhiy ozuqa va tarbiyaviy ahamiyatiga yuqori baho beradi. Xususan, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da shunday shunday mulohaza yuritadi:

“So‘z durining ayirmasi bundan ham cheksiz va darajasi bundan ham nihoyatsizdir. Shundayki, yaxshi so‘zdan o‘lgan badanga toza ruh yetadi, unga jon baxsh etadi, yomon so‘zdan tirik tanga o‘diruvchi zahar xosiyati paydo bo‘ladi, kishini halok etishga olib keladi”.

Biror bir so‘z so‘zlashdan maqsad ma’no ifodalashdir. Binobarin, “Ma’ni adosida alfoz tilga kelur va alfozdin ma’ni fahm bo‘lur”. U ma’noni birlamchi so‘zga, ikkilamchi deb qaraydiva ma’noga “so‘zning joni” deya ta’rif beradi. Alisher Navoiy til va tafakkurni bir-biridan ajratmaydi, balki ularni uzviy birgalikda olib boradi.

Alisher Navoiy, shuningdek, Sa’diy Sheroziy, Husayn Voiz Koshifiy kabi Sharq allomalari ijodida nutq odobi qoidalari mufassal bayon etilgan.

Masalan, Husayn Voiz Koshifiy Navoiyning zamondoshi bo‘lib, nutq odobiga doir “Futuvvatnomayi sultoniy” asarini yozadi. Bu asarda nutq madaniyatiga oid fikrlar bildiriladi va so‘z qudrati batafsil ochib beriladi.

“Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi, deb so‘rasalar, aytgil: men so‘zniki va so‘z menikidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan va mevani daraxtdan ajratib bo‘lmaydi”, deb yozadi olim. Aytilgan so‘z odam uchun farzandi jigarbandiday, ota-ona farzandidan tonolmagani singari, inson ham o‘z so‘zidan tonolmaydi.Farzand ham ota-onadan tonolmagani singari, so‘z ham notiqniki hisoblanadi. Shuning uchun ham deydi olim, aytiladigan so‘zga mas’ullik ota-onaning farzandga va farzandning ota-onaga mas’ulligi darajasida bo‘lmog‘i lozim. Xalqqa naf’i tegadigan farzand qobil, zarari tegadigan noqobil sanalsa, so‘z ham shunga o‘xshash bo‘ladi.Yaxshi so‘z egasiga sharaf keltirib, yomon so‘z o‘z egasini badnom etadi.

Suhbat va nutq odobida madaniyat va fahm-farosat bilan savol-javob qilib so‘rashish ham muhim o‘rinda turadi. Mashhur notiq Voiz Koshifiy o‘z suxandonligi davrida bu qoidalarga to‘la rioya etishga harakat qilgan va bo‘lajak notiqlarni ham bu qoidalar asosida ish yuritishga undagan.

O‘zbek mutafakkirlari nutq ma’nosida “nutq”, “til”, “so‘z”, atamalarini ishlatganlar. Eng ko‘p uchragani “so‘z” atamasidir. Vaziyatga qarab til, so‘z, nutq o‘rnida qo‘llana bergan. Ya’ni bu o‘z navbatida takroriylikni ham oldini olgan.

Insoniyat bilan birga paydo bo‘lgan til uning hayotida muhim rol o‘ynab kelgan va bundan keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Aniq nutqning paydo bo‘lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o‘zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmatlarni ongi orqali idroq qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so‘z bilan ifodalash imkoniga ega bo‘ldi. Til ilk boshdan e’tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan xizmatni, ya’ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi.

Psixologiyada ham insonning tafakkur faoliyati haqida aytilganda hissiy bilish bilan birga til va nutqning o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bunda inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o‘rtasidagi farqlardan biri namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Hayvonlarning o‘ta oddiy va juda sodda tafakkuri har doim ham ayoniy harakat tafakkuriligicha qoladi. Ular hech qachon mavhum, bevosita bilish darajasiga yetmaydi. Hayvonlarning tafakkuri ayni chog‘da go‘yo ko‘z o‘ngilarida turgan narsalarni bevosita idrok qilish bilan ish ko‘radi. Ular ana shunday ayoniy tafakkur doirasidan chetga chiqmaydi. Faqat nutq paydo bo‘lgach, bilinayotgan obyektdan ma’lum bir xususiyatni ajratib olib, uni maxsus so‘z yordamida tasavvurda yoki tushunchada mustahkamlash, qayd etish imkoniyati tug‘ildi. O‘z navbatida tafakkur faqat so‘z orqali boshqalar uchun va o‘zimiz uchun ham bevosita reallikka aylanadi. Inson tafakkurini u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga

oshirib bo‘lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas holda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Har qanday fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o‘ylangan bo‘lsa, u so‘zlarda, og‘zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo‘ladi. Bundan tashqari, qandaydir fikrning so‘z orqali ifodasi qanchalik ko‘p takomillashgan, sayqallangan bo‘lsa, ayni shu fikrning o‘zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo‘ladi.

Kishi o‘zining fikr-mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib ifodalab berar ekan, buning bilan u shu mulohazalarni o‘zi uchun ham ifodalaydi. Fikrni so‘zlar orqali ifodalash, mustahkamlash, fikrni so‘zlarda qayd etish fikrni bo‘lishni anglatadi, diqqatni mazkur fikrning turli o‘rinlarida va qismlarida tutib turishga yordam beradi hamda fikrning qismlarini yana-da chuqurron tushunishga imkon yaratadi. Shu tufayli keng, izchil, sistemali mulohaza yuritish, ya’ni tafakkur jarayonida tug‘ilgan hamma asosiy fikrlarni bir-biri bilan aniq va to‘g‘ri solishtirib ko‘rish mumkin buladi. Shunday qilib, so‘zda, fikrni ifodalashda tafakkurning eng muhim zaruriy, mulohazali, mantiqiy bo‘laklarga ajratilgan va anglashilgan tomonlari berilgan bo‘ladi. Fikrni so‘zda ifodalash va mustahkamlash orqali u yo‘qolmaydi hamda paydo bo‘lishi bilanoq o‘chib qolmaydi. Fikr so‘z iboralarida – og‘zaki yoki yozma so‘z iboralarida mustahkam qayd qilinadi. Shuning uchun ham kerak bo‘lganda, mazkur fikrga yana qaytish, uni yana-da chuqurroq o‘ylab, tekshirib ko‘rish va qayta o‘ylash davomida boshqa fikrlar solishtirib ko‘rish imkoniyati saqlanib qoladi. Shunday qilib, inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bog‘liqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so‘z qobig‘ida mavjuddir.

Inson tafakkurining mahsuli yoki fikrni so‘z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati sanalgan nutqning madaniyligini ta’minlovchi to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, rang-baranglik, soflik kabi bir qancha sifatlar mavjud.Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi.

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, ko‘plab allomalarimizning lingvistikaga oid bir qator qarashlari mavjud. Shu jumladan buyuk mutafakkirlarimizdan biri Abu Nasr Farobiyning fikrlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Farobiy tilshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya va stilistika haqida dastlabki tushunchalarni bergan.

Forobiy fonetika haqida fikr yuritar ekan, nutq tovushlari, tovushlarning undosh va unli turlari, undosh tovushlarning paydo bo‘lishi, o‘rni, unli tovushlar va ularning xususiyatlari, so‘zga qo‘shimchalar qo‘shganda yuz beradigan tovush o‘zgarishlari, so‘zning fonetik me’yorlari haqida fikr yuritadi.

U leksika yuzasidan ma’lumot berar ekan, leksik birlik bo‘lgan so‘z masalasiga, so‘z ma’nolarining tasnifi masalasiga to‘xtaladi. Ya’ni so‘z masalasining ikki turini: sodda va murakkab bo‘lishini ko‘rsatadi. Forobiy shu kabi tilshunoslikka oid qator qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tadi.

Yana bir buyuk allomalarimizdan biri Abu Rayhon Muhammad Ibn Ahmad al-Beruniy hisoblanadi. U o‘rta asr Yevropasida Aliborona nomi bilan mashhur bo‘lgan xorazmlik qomusiy allomadir. Beruniyning ma’lumotlariga qaraganda, u 150 dan ortiq asar yaratgan. Ushbu asarlar jahon ilm-fanining qator durdonalari sifatida qadrlanadi.

Abu Rayhon Beruniyning lisoniy qarashlari “Saydana” nomli mashhur asarida berilgan. Umuman olganda bu asarda turli xildagi dorivor o‘simliklar, hayvonlar, ma’danlar haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, unda dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari keltiriladi. Buyuk alloma ushbu asarda dorivor moddalarning har bir tildagi mahalliy, ya’ni har bir shevadagi nomlanishini ham alohida ko‘rsatib beradi. Demak, Beruniy predmet va uning nomi munosabati masalasiga alohida ahamiyat beradiki, ayni masala qadimgi tilshunoslik davridan to shu kungacha ham til haqidagi fanning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Ovrupada Avicenna nomi bilan mashhur bo‘lgan va Sharqda ulug‘lab, “Shayhurrais” nomi bilan atalgan vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino (980-1037) turli sohalarda, jumladan, tilshunoslikda ham bir qancha asarlar yaratdi. Shulardan biri “Asbobi hudut al huruf” asarining to‘rtta nashri: Qohira(2), Tiflis nashri va Toshkent nashrlari ma’lum. Ushbu asarning nashrini tayyorlashda professor A.Mahmudov va professor Q.Mahmudovlarning xizmatlari katta bo‘ldi.

Bu asar kirish va olti bobdan tashkil topgan. Manbada tovushning hamda nutq tovushlarining paydo bo‘lish sabablari, bo‘g‘iz va tilning anatomiyasi, ayrim arab tovushlarining paydo

bo‘lishidagi o‘ziga xosliklari, ushbu tovushlarga o‘xshash nutq tovushlari hamda tovushlarning nutqiy bo‘lmagan harakatlarda eshitilishi kabilar haqida fikr yuritiladi.

Mahmud ibn Husayn ibn Mahmud Koshg‘ariy O‘rta Osiyoning XI asrida yashab ijod etgan buyuk allomadir. U turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi va leksikologiyasiga asos soldi, fonetikasi bo‘yicha juda qimmatli ma’lumotlar qoldirdi.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy tilshunoslikning ensiklopediyasi hisoblangan mashhur “Devonu lug‘atit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asarini yaratdi. Shuningdek, shu kungacha topilmagan “Javohirun nahv fi lug‘atit turk” (“Turkiy tillar sintaksisining javohirlari”) nomli asarini ham yozgan.

Tilni kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida, jamiyat hayotini aks ettiruvchi ko‘zgu sifatida tushungan Mahmud Koshg‘ariy o‘zining mashhur “Devon”ida aynan bir davrga oid bo‘lgan turlicha turkiy tillar hodisalarini, faktlarini sinxron – qiyosiy metod asosida solishtiradi, taqqoslaydi. Chunki o‘sha davrda aynan shu metod arab tilshunosligida juda keng tarqalgan hisoblanadi va bu arab tilining ko‘p shevali til ekanligi xususiyatidan kelib chiqadi.

Mahmud Koshg‘ariy til va nutqning asosiy birligi bo‘lgan so‘z masalasiga leksikolog, seminolog, semisiolog, leksikograf sifatida to‘xtalar ekan, bunda u asosiy e’tiborini tilshunoslikning eng murakkab va muhim masalalaridan biri bo‘lgan so‘z ma’nosiga, so‘zning ko‘p ma’noliligiga, so‘z ma’nosining ko‘chishiga, shuningdek, so‘z ma’nosining izohi kabi o‘ta jiddiy masalalarga qaratadi. Ya’ni olim “Devon”da so‘zning muayyan ma’no anglatishdek muhim xususiyatidan kelib chiqib, so‘z ma’nosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan omonimiya, antonimiya va sinonimiya hodisalari haqida, so‘z ma’nosining ko‘chishi bilan bog‘liq bo‘lgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik kabi ma’noning ko‘chish usullari haqida, so‘z ma’nosining kengayishi va torayishi haqida fikr yuritadi, turkiy tillardan bir qancha misollar keltiradi va fikrini isbotlaydi.

Xullas, Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining ulkan tilshunosi sifatida jahon tilshunosligi tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk alloma hisoblanadi.

Yana bir buyuk mutafakkirlarimizdan Zahiriddin Muhammad Bobur tilshunoslikka ham o‘z hissasini qo‘shgan allomalarimizdan biridir. O‘zbek adabiyoti tarixida Bobur lirikasi, “Boburnoma” asari nutqning go‘zal namunalaridir. “Boburnoma” go‘zal va nihoyatda ravon tilda yaratilgan. Bobur bu asarda ommabop yozishni ma’qul ko‘rgan va o‘g‘li Humoyunga yozgan xatida birovga yozgan maktubni bir necha bor o‘qish, uning ravonligiga, so‘zlarning ko‘zda tutilgan ma’nosi to‘g‘ri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng jo‘natishga chaqiradi. Chunki, so‘zlarning xato yozilishi aytmoqchi bo‘lgan fikrni xiralashtiradi, o‘quvchini qiynaydi. Bu haqda “Boburnoma” da shunday fikr bayon etiladi: “…Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o‘qumaysen, ne uchunkim, agar o‘qur xayol qilsang edi, o‘quyolmas eding. O‘quyolmagandan so‘ng albatta tag‘yir bo‘lur eding.Xatingni xud tashvish bila o‘qusa bo‘ladur, vale asru mug‘laqdur.Nasri muammoni hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni to bila bitibsen. Qulunjni yo bilan bitibsen. Xatingni har tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsad tamom lafhum bo‘lmaydur. G‘olibo xat bitirda kohilliging ham ushbu jihattindur. Takalluf qilmay deysan, ul jihatdin muglaq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan, pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qig‘uvchig‘a”. Bu so‘zlardan ko‘rinib turibdiki, Bobur o‘zbek lirik adabiyotining zabardast vakili hisoblangan.

Mavzuga yakun yasar ekanmiz, Sharq mutafkkirlari notiq oldiga tilni chuqur o‘rganish, uning lug‘aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so‘zlashni o‘rganish, nutqning ichki va tashqi ko‘rinishiga (shakl va mazmuniga) birday e’tibor berish, ravon va ta’sirchan nutq tuza bilish va undan jamiyatda til boyliklaridan unumli, maqsadga muvofiq ishlatish vazifalarini qoyadilar. Sharq mutafakkirlari, avvalo, o‘zlari madaniyatli shaxs sifatida notiqlik ilmini o‘rganganlar, so‘z qudrati haqida ibratli fikrlar bildirganlar va bu notiqlik qoidalariga rioya qilganlar. Nutqiy madaniyatimizni rivojlantirishimiz, shu orqali jamiyatda o‘z o‘rnimizni topishimiz uchun ham Sharq mutafakkirlarining nutq odobi haqidagi qarashlarini o‘rganmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qudratov T.Nutq madaniyati asoslari.– T., 1993.
2. Beruniy. Hindiston. – T., 1965.

3. Homidov H. Olis-yaqin yulduzlar. – T., 1990.
4. Ma'naviyat yulduzlari. –T., 2001.
5. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –T., 1965.
6. Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. – T., 2006.
7. www.ziyonet.uz

SAYFI SAROYINING SO'ZGA BO'LGAN MUNOSABATI VA SO'Z QO'LLASH MAHORATI
THE ATTITUDE OF SAIFI SARAI TOWARDS THE WORD AND HIS USAGE SKILL

I.O'razova
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Abstract: This article analyzes Saifi Sarai's attitude towards words and the poet's word usage skills. Some comments on the literary-critical thoughts of the author in the Masnavi of Wasf ul-shuaro are narrated.

Key words: *language history, old uzbek language, masnavi, poetry, isti'aara, tajnees, tazood, tuyuq.*

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, til taraqqiyotining barcha davri ham birday o'rganilmaganiga guvoh bo'lamiz. Ana shunday hali to'liq o'rganilmagan, tilshunoslik nazaridan chetda qolayotgan davr XIV asrning ikkinchi yarmidagi yozma adabiyotning til xususiyatlaridir. Bu davr adabiyoti Oltin O'rda davri adabiyoti nomi bilan mashhurdir. Taniqli adabiyotshunos olim Natan Mallayev XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning birinchi yarmini peshqadam yozuvchilar yetishib chiqqan davr sifatida alohida e'tirof etib, bu davr namoyondalari sifatida Xorazmiy, Xo'jandiy, Sayfi Saroyi, Durbek, Haydar Xorazmiy, Amiriy, Yaqiniy, Ahmadiy, Atoyi, Tug'ilxoja, Mavlono Imod Mavlaviy, Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Is'hoq, Sakkokiy va Mavlono Lutfiy kabi shoirlarni sanab o'tadi [N.Mallayev.1965.205]. Olim fikriga tayanib shuni aytish mumkinki, XIV asrning ikkinchi yarmida Xorazmiy [Mallayev,1965.227], Qutb [Mallayev,1965.241], Sayfi Saroyi [Mallayev,1965.255.] yashab ijod qilgan.

Iste'dodli shoir, mohir tarjimon Sayfi Saroyi hayoti haqida ma'lumotga ijodkor she'rlari orqali ega bo'lish mumkin.

Qamishli yurt manim tuvg'on elimdi,
Bilik g'urbatga kelturg'on bilimdi.
Kelib o'ldim saroyda she'r fidoyi,
Saroyning shoiri, elning gadoyi.

Demak, Sayfi «Qamishli yurt»da (bu hozirgi Xorazm oblastining Sariqamish qishlog'i deb taxmin qilinadi) tug'iladi, bilim olmoq uchun g'urbatga-musofirlikka yuz tutadi, Saroyga kelib she'riyat bilan shug'ullanadi, she'riyat fidoyisi bo'ladi. Shoir taxallusini ham Saroydan oladi, Sayfi Saroyi nomi bilan shuhrat topadi.

Ijodkorning bizgacha o'ndan ortiq g'azali, qasida, qit'a, ruboiy va masnaviylari, "Suhayl va Guldursun" (1394) dostoni, "Gulistoni bit-turkiy" (1390-1391) asari yetib kelgan. [N.Mallayev.1965.258].

Sayfi Saroyi ijodining til xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, qo'llangan so'zlarning asosiy qismini turkiy so'zlar tashkil qilishining guvohi bo'ldik. O'rni bilan arabiy va forsiy so'zlar qo'llanilgan. Ijodkor har bir so'zning salmog'ini anglagan holda, so'zlarni mahorat bilan tanlaydi, kam so'z bilan kengroq tushuncha ifodalashni maqsad sifatida qo'yadi. Bunga erishish uchun istiora, tashbeh, tajnis kabi san'atlardan foydalanadi. Saroyi ijodida omonim so'zlar orqali qilingan so'z o'yinlari ko'p uchraydi va bu asar jozibadorligi va nafosatini ta'minlagan desak adashmaymiz. Masalan, "Suhayl va Guldursun" dostonida Suhayl ta'rifida shunday bayt uchraydi:

Biyik ardamlari[1] bor, so'zi shirin,

[1] ***ardam*** — fazilat, oliy xislatlari

Bo‘lur oshiq ani ko‘rganda Shirin.

Yoki shoir bir mushoirada shunday bayt bilan javob qaytaradi:

Meningdek nechalar hayron o‘shul jodu qaroqing‘a
Ko‘rub jismin xijolatdin ravon bo‘ldi qaro qing‘a.

Sayfi Saroyining “Dilbarimning zulfi sunbul…” mat’lali g‘azali esa to‘liqligicha tajnisli qofiya asosiga qurilgan. Shu misollarning o‘ziyoq shoirning so‘z qo‘llash mahorati, so‘zni his qilish va ulardan ajoyib san’at yarata olish qobiliyati yuqori ekanligiga dalil bo‘la oladi. Bilamizki, tuyuq sof turkiy janr bo‘lib, omonim so‘zlar asosiga quriladi. Tuyuqning ilk namunalari Lutfiy, Navoiy, Bobur ijodida uchraydi. Bizningcha, Sayfi Saroyi va boshqa turkiygo‘y ijodkorlarning tajnisli qofiyani g‘azal va she’rlarida faol qo‘llashi tuyuq janrining shakllanishiga asos bo‘lgan.

So‘z qadrini o‘z qadridan baland tutgan Sayfi Saroyi so‘z va shoirlikka munosabatini o‘zining “Vasf ul-shuaro” masnaviysida aks ettirgan. Masnaviy turkiy tilda yozilgan bo‘lib, 69 ta so‘z qo‘llangan. Shundan 39 tasi o‘z qatlamga, 30 tasi o‘zlashgan qatlamga mansub. Masnaviyda shoir mahoratli tanqidchi va so‘z bilimdoni sifatida o‘z fikrlarini dadil bayon qila olgan. Masnaviy shaklan qisqa bo‘lsa-da, so‘zlarning o‘rinli tanlanishi uning badiiyatini oshiradi. Ijodkor shoirlarni bir necha toifalarga ajratib , ularning yutug‘i yoki kamchiliklarini ko‘rsatib boradi.

Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘,
Kimi bulbuldurur so‘zda, kimi zog‘[1].

Sayfi Saroyi birinchi misraning o‘zidayoq ijodkorlarning turfa ekanligiga ishora qiladi va ularni bog‘ning gullariga qiyoslaydi. Ikkinchi misrada shoirlarni toifalashni boshlaydi: so‘z qo‘llash bobida kim bulbulga o‘xshaydi, ya’ni o‘z xonishi bilan muxlislar ko‘nglini zabt etadi. Bu kabi iste’dodli shoirlarga qarama-qarshi holatda so‘z qo‘llashni bilmaydigan, she’riyati kishini hayajonga solmaydigan ijodkorlarni zog‘ga qiyoslaydi.

Baytda qo‘llangan *kimi* olmoshi bu shaklda qadimgi turkiy til davrida ham, eski o‘zbek tili davrida ham uchramaydi. Bayt mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, *kimi* birligi bu o‘rinda gumon olmoshi ma’nosini ifodalamoqda. Shoir so‘roq olmoshiga *–i* qo‘shimchasini qo‘shish orqali *kimdir* olmoshi bilan sinonim bo‘ladigan gumon olmoshini qo‘llamoqda.

Kimi to‘ti bekin[2] chaynar shakarni,
Kimi lafzi bilan o‘rtar durarni[3].

Tanqidchi shoirlarni toifalashda davom qiladi. Shunday shoirlar borki, ular to‘tiga qiyoslanadi, to‘tiga biror yoqimli so‘zni o‘rgatib qo‘ysang, shu so‘zlarni muntazam takrorlab turaveradi. Sayfi Saroyi to‘ti o‘rgangan so‘zni shakarga o‘xshatadi va kimlargadir taqlid qilib she’r yozgan, har davrada, har majlisda shu she’rlarini takrorlaydigan shoirlarga to‘ti istiorasini beradi. To‘tisifat shoirlarga qarama-qarshi shaklda o‘z lafzi – so‘zi bilan durlarni-da o‘rtaydigan otashzabon , haqiqiy san’atkor shoirlar borligiga urg‘u beradi. Bilamizki, Navoiy so‘zni durga , ko‘ngilni ummonga qiyoslab, so‘z – dur, ko‘ngil uning ummonidir, degan . Navoiydan qariyb yarim asr avval yashab o‘tgan Sayfi Saroyi so‘zni dur bilan tenglashtirib, o‘rinli qo‘llangan so‘zning darajasi durdan ham yuqori turishi mumkinligiga urg‘u beradi. Ya’ni oddiy so‘zdan yaratilgan san’at asarining qadrini ko‘rgan durlar qadri tushib borayotganidan o‘rtanadi. Demak, shoir nazdida haqiqiy ijod, chinakan she’riyat dunyo xazinasidan ham qimmatliroqdir.

Ushbu baytda ko‘plik shakli *–lar* qo‘shimchasi *–ar* shaklida *(durar)* qo‘llangan, ko‘plik shaklini bu kabi qo‘llash shoir bilan zamondosh ijodkorlar asarlarida uchramadi. Birinchi baytda *–lar* qo‘shimchasi to‘liq holda qo‘llanganiga (*shoirlari)* tayanib shuni aytish mumkinki, shoir vazn talabi bilan va qofiyani to‘g‘irlash *(shakarni-durarni)* maqsadida *l* harfini tushirib qoldirgan.

Baytdagi *bekin* o‘xshatish ma’nosini bildiruvchi ko‘makchi bo‘lib , *bikin* shaklida Xorazmiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy she’rlarida ham uchraydi.

Kimining so‘zlari mavzun-u[4] shirin,
Kimining loyiqi tashrif-u tahsin.

---

[1] ***zog`*** — qarg‘a
[2] ***bekin*** — kabi, day
[3] ***durar*** — durlar, marvaridlar
[4] ***mavzun*** — vaznli

Keyingi baytda shoirlar ijodiga adabiyotshunos sifatida baho beriladi: shunday toifa shoirlar borki, ularning she'rlari vazn jihatdan mukammal, ma'nosi esa "shirin", ya'ni shakl va mazmun uyg'unligi talabiga javob bera oladi. Kimlar esa she'rida san'at yarata olmaydi, faqat borgan joyida mezbonni ko'kka ko'tarib maqtash bilan chegaralanadi. Sayfi Saroyi bu kabi maddoh san'atkorlarni haqiqiy ijodkorlar bilan qarama-qarshi qo'yish orqali ularga bo'lgan salbiy munosabatini subyektiv tarzda ifodalamoqda. Eng qiziq tomoni, ijodkor hech bir baytda kimnidir maqtamaydi yoki yomonlamaydi. Aksincha har bir baytda berilgan qarshilantirish san'ati tufayli o'quvchi ijodkorlarni guruhlab boraveradi va shu barobarida ijodkorlarga munosabati shakllanadi.

Kimi o'zganing ash'orin menim der,
Kimi halvo kabi shalg'am cho'bin yer.

Masnaviyning keying baytida o'zgalar she'rini o'zlashtirib, o'zini xalqqa shoir sifatida tanitgan firibgar insonlar tanqid qilinadi, bu toifa kishilar, avvalo, o'zlarini aldashi uqtiriladi. Bu kabi qaroqchi shoirlar halvo yedim deb shalg'om cho'pini chaynayotgan kishiga qiyoslanadi.

Kimi ma'ni qo'yub lafzin tuzatur,
Kimi vaznin buzub san'at kuzatur[1].

Shunday shoirlar borki, ma'no-mazmunni ikkinchi darajaga qo'yib, saklga e'tibor beradi, ya'ni shaklbozlikka beriladi. Shunday shoirlar borki, ma'noga e'tibor berib vaznni buzib, shoir bo'lishni ko'zlaydi. Sayfi Saroyi har ikkala toifadagi ijodkorlarni tanqid qiliadi.

Keyingi bayt lirik chekinish sifatida tahlil qilinishi mumkin.

Alarning ush biri Sayfi Saroyi,
Jahon oriflarining xoki poyi[2].
Ani sen jumla shoir kamtari bil,
Qamar yuzga hamisha mushtari[3] bil.

Sayfi Saroyi o'zini shu kabi shoirlarning biri sifatida aytib, o'z o'rnini yetuklikka erishgan oriflarning oyog'i ostidagi tuproqqa qiyoslaydi. Bu bilan shoir hali ham o'z ustida ishlashi lozimligini kamtarlik bilan qayd qiladi. Keyingi baytda shoir o'zini barcha shoirlar ichida eng kamtari deb hisoblaydi va yorug' yuzga talabgor ekanligini, ya'ni adabiyot ixlosmandlari oldida yuzi yorug' bo'lishi uchun tinimsiz izlanishda ekanligiga ishora qiladi.

Masvaviy aruzning hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida yozilgan bo'lib, shoir vazn talabini buzmaslik uchun oxirgi baytlardagi *shu biri* olmoshini *ush biri* shaklida ishlatgan va qisqa bo'g'inli so'zdan cho'ziq bo'g'inni hosil qilgan. Ya'ni saktalikka yo'l qo'ymaslik uchun metateza hodisasini qo'llagan. Shu misolning o'zi ham ijodkorning aruz bilimdoni ekanligini ko'rsatadi.

Masnaviyda Sayfi Saroyi shoirlarni quyidagi guruhlarga ajratadi:

- Bulbul kabi tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan, ijod namunasi durlar bahosidan ham ustun turuvchi, shakl va mazmun mutanosibligiga erishgan iste'dodli shoirlar;
- Qarg'a kabi adabiyot bog'iga adashib kirib qolgan ise'dodsiz shoirlar;
- To'tiga o'xshab boshqalarga taqlid qilib yuradigan, o'z uslubiga ega bo'lmagan shoirlar;
- Tahsin aytishdan boshqasini bilmaydigan maddoh shoirlar;
- O'g'ri shoirlar.

Masnaviyda qaratqich kelishigi to'rt xil shaklda qo'llanganini ko'rish mumkin: eski o'zbek tili davriga xos bo'lgan izofali shaklda *(gulshani bog')*, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi to'liq variantda (*kimining*), qisqargan variantdagi shakli *(menim)*, belgisiz shaklda qo'llanishi *(Jahon shoirlari)*.

Eng e'tiborli tomoni shuki, masnaviyda tushum kelishigi *(shakarni)*, qaratqich kelishigi (o'zganing), jo'nalish kelishigi *(yuzga)*, o'rin-payt kelishigi *(so'zda)*, "Suhayl va Guldursun" dostonida chiqish kelishigi (*Zafardan shod bo'lib yotmishdi ogoh)* hozirgi o'zbek adabiy tilidagi variantlarda qo'llangan. XIV asr oxirida barcha kelishiklarning shakllangan holda qo'llanishining

[1] ***sanat kuzatur*** — san'atni ko'zlaydi, san'atbozlik qiladi

[2] ***xoki poyi*** — oyoqlari ostining tuprog'i

[3] ***mushtari*** — talabgor

o‘zi katta hodisa. Demak qo‘rqmasdan aytish mumkinki, Sayfi Saroyi hozirgi o‘zbek tili morfemikasining shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkorlardan biridir.

Xulosa:

- Sayfi Saroyi tuyuq janrining shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkorlardan biridir.
- “Vasf ul-shuaro” masnaviysi o‘zbek adabiyotidagi ilk tanqidiy asardir. Saroyi unda shoirlarni toifalash orqali o‘sha davr adabiy muhitiga o‘z munosabatini bildirgan.
- Sayfi Saroyi vazn talabini buzmaslik uchun ayrim so‘z va qo‘shimchalarni o‘zgartirib qo‘llagan va bu shoir leksikasining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.
- Shoir asarlarida kelishik shakllari to‘liq shakllangan holda qo‘llangan.

Tavsiyalar:

- Sayfi Saroyi ijodi leksikasini o‘rganish, o‘z va o‘zlashgan qatlamni statistik tahlil qilish, morfologik shakllarning o‘ziga xosligiga e’tibor qaratish bugungi kun tilshunosligi uchun foydali bo‘lishi mumkin.
- Sayfi Saroyi ijodi badiiyati, qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini o‘rganish, so‘z qo‘llash mahoratini tahlilga tortish ijodkor mahoratini kashf qilishga yordam berishi shubhasizdir.
- Sayfi Saroyi nafaqat shoir, nuktadon olim, ustoz ko‘rgan, adabiy-nazariy bilimga ega bo‘lgan adabiyotshunos, yetuk tanqidchidir Ijodkor asarlarni tarixiy aspektda o‘rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun foydali bo‘ladi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadxo‘jaev E. Alisher Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek shoirlari asarlari qo‘lyozmasining tarqalishiga doirG‘G‘ Adabiy meros.-1987.-№ 1(39).-B.18-27.
2. Mallaev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. 3-nashri.-Toshkent: «O‘qituvchi», 1976.-B.255-269.
3. Mualliflar jamoasi. O‘zbek adjabiyoti tarixi. 5 tomlik.1-tom. -Toshkent: «Fan», 1977. -B.221-235.
4. Fozilov E. XIV asr Xorazm yodnomalari.-Toshkent: «Fan», 1973. -376 b.
5. Uch bulbul gulshani. To‘plam.-Toshkent: Adabiyot va san’at, 1986. -B.167-330.
6. Is’hoqov Y. So‘z san'ati so‘zligi. - T.: O‘zbekiston, 2014. - 319 b.

“МЕҲРОБДАН ЧАЁН” АСАРИДАГИ ҲУНАРМАНДЧИЛИККА ОИД ШАХС ОТЛАРИ ХУСУСИДА
ABOUT PERSONAL NOUNS BELONGS TO HANDCRAFTS IN THE “MEKHROBDAN CHAYON”

С.Зиётова,
ТошДЎТАУ таянч докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада бадиий матнда қўлланилган ижтимоий-сиёсий қатламга оид ҳунармандчилик билан боғлиқ шахс отлари тарихий, этимологик ва лингвистик жиҳатдан тадқиқ қилинган. Терминларнинг бадиий асар тилидаги семантик хусусиятлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: *термин, лексема, сема, синонимия, ижтимоий-сиёсий лексема, ясама сўз.*

Abstract: In this article, the personal nouns which are depends on handcraft lexics regarding social-political life in the literary text are analyzed to the historical, etymological and linguistic view. The semantic notions of the terms are learned in the literary text.

Key words: *terms,lexics, sema, synonymy, socio-political words, derivational words .*

Муайян адабий тилнинг сўз бойлиги ўз таркибида махсус тушунчаларни ифодаловчи терминологик лексикани у ёки бу даражада қамраб олиши лингвистикада эътироф этилган воқелик ҳисобланади. [Дадабоев, 2020:13]. Жамиятдаги ижтимоий-сиёсий муҳит, давр, жамиятдаги ўзгариш, шу жараённи ифодаловчи ижтимоий-сиёсий лексемаларда ўз аксини топади. Ижтимоий – сиёсий лексика қўлланиш соҳаси, услубий белгиси, келиб чиқиши каби турли жиҳатлари ижтимоий – сиёсий характердаги воқеликларни ўзида акс эттирган луғат таркибининг ўзгарувчан гуруҳидир. [Исоқова, 2010:8].Хонликлар даври туркий халқлар тарихида алоҳида бир босқич ҳисобланиб, ижтимоий-сиёсий, маданий-маиший ҳаётдаги ўзгаришлар, ўша давр ўзбек тили лексик қатламида ҳам намоён бўлган. Қодирий "Меҳробдан чаён" асаридаги ижтимоий-сиёсий муҳитни ҳамда асар персонажларининг ижтимоий мавқейи, мансаби, кундалик турмушдаги ҳаётини ёритишда касб-ҳунарни ифодаловчи шахс отларидан унумли фойдаланган. Асарда *бўзчи, бўёқчи, тарроҳ, темирчи, шустагар*каби ҳунарманд-косибларни ифодаловчичи истилоҳлар келтирилган.

Ўзбек тилида шахс отини аффиксал усул билан ясалиш жараёнида *–чи* аффиксли моделдан унумли фойдаланилади. Мазкур модель от сўз туркумидан аксарият шахс оти, иш-ҳаракатни бажарувчи, бирор касб билан шуғулланувчи, ижтимоий мансублик [Щербак,1977:103] каби маъноларни ифодаловчи отларни ҳосил қилади. Тилшунос олим Ҳ.Дадабоев VII-XIV аср қадимги туркий рун ҳамда эски туркий тил ёзма манбаларида ушбу аффикс иштирокида ясалган жуда кўп терминлар [Дадабоев, 2016:5] мавжудлиги ҳақида маълумот беради. Абдулла Қодирийнинг ушбу асарида ҳам турфа мансаб, касб-ҳунарларни ифодалашда –чи аффиксидан фаол фойдаланилган. Хусусан, **бўзчи** термини бўз тўқувчи ҳунарманд, косиб маъносини билдириб, ушбу аффикс орқали ҳосил бўлган. Ясама сўз асосидаги *бўз* лексемаси омоним характердаги сўз ҳисобланади. Асос қисм арабча сўз асли *bazz(un)* шаклига эга [АРС,69], ўзбек тилига *а* унлисини *ў* унлисига алмаштириб, сўз охиридаги *zz* товушларидан бирини ташлаб қабул қилинган: *bazz -> бўз.* Арабча *bazza* феълидан ҳосил қилинган масдар бўлиб [ЎТЭЛ,II,78], "хонаки дастгоҳда пахта ипидан тўқилган оқ-кулранг дағал мато" маъносини англатади: *Сафар **бўзчи** моккиси қўлида ўзича илжайди, яна бир-икки оёқ боскандан кейин, дўконхона эшиги очилди (206).*

Бўёқчи истилоҳиҳам –чи қўшимчаси воситасида морфологик усулда ясалган бўлиб, "ип, ипак ва ш.к.ни бўёвчи, уларга ранг берувчи уста, рангловчи" [ЎТИЛ,I,396] деган мазмунни англатиб, ушбу ясалманинг ўзак қисми *бўямоқ* феълидир. Мазкур феъл "ранг бермоқ" семасини билдириб, қадимги туркий тилда "ранг" маъносини англатган *бой* отига *–а* қўшимчаси билан ясалган [ЭСТЯ,II,177], ўзбек тилида *а* унлиси *ä* унлисига алмашган: *бой + а = бойа ->бойä.* [ЎТЭЛ,I,74]. Демак, ҳозирги ўзбек адабий тилидаги *бўямоқ* феълини туб феъл деб ҳисоблаймиз, лекин этимологик жиҳатдан ясалма экан. Бўямоқ феълига нарса-буюм оти ясовчи-*қ* қўшимчаси қўшилиши натижасида сўз асосидаги *а* унлиси *о* унлисига алмашган ва натижада "ранг бериш учун ишлатиладиган модда" семасини ифодаловчи от сўз туркуми ясалди:*Отасининг касби **бўёқчилиқ**, ҳамиша ярим белидан нил сувига чўмилиб ётқан бир камбағал ва бир қарич, икки қарич болалардан бештасига дада эди (46).*

Темирчи лексемасининг асоси қадимги туркий тилда *тämир* тарзида талаффуз қилинган [ПДП,429], "қорамтир кумуш рангли металл" [ЎТЭЛ,I,329] маъносини англатиб, кейинроқ *темўр, темир* шакллари юзага келган [ДЛТ,I,342,464; ДТС,554]: *тämир > темўр > темир.* **Шустагар** термини эса тожикча сўздан олинган бўлиб, матони оқартирувчи, оҳорловчи[1] деган маънони билдиради.*Паст одамларсан-да: бирингтемирчинг ўғли, иккинчинг **шустагар**нинг боласи...(288).*

Тарроҳ арабча сўз бўлиб, "лойиҳа ишловчи уста", "меъмор", "лойиҳачи" деган маъноларни англатиб, тарҳ тузиш санъатини мукаммал эгаллаган муҳандис – уста. [ЎМЭ, Т, 144]. Мазкур лексема Навоийда "бинокор"[НАЛ,597] маъносида,"Бобурнома"да "нақш солувчи, наққош, биноларни безовчи" [Холманова, 2009:154] семалари ишлатилган. Қодирий "лойиҳаловчи" мазмунида келтирган:*Ясарда тарҳини **тарроҳ** лар андоғ сакиз гулшан...(127).*

[1]https://translate.academic.ru/шустагар/tg/xx/

Асар матнида ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги ҳар бир синф вакили билан боғлиқ мансаб-мартаба, касб-ҳунар номлари келтирилган. Бугунги кунда ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг ўзгариши, ривожланиши натижасида бўзчи, бўёқчи, темирчи каби касб-ҳунарларга эҳтиёж йўқлиги туфайли ушбу истилоҳларнинг ҳозирги ўзбек адабий тилида қўлланиши ҳам камайди. Тарроҳ лексемаси ҳам архаизмга айланди ҳамда архитектор термини фаол қўлланилмоқда. Ушбу истилоҳлар фақатгина асарларда тарихий колоритни бериш вазифасини ўтовчи лексик бирлик сифатида ишлатилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. https://translate.academic.ru/шустагар/tg/xx/
2. Дадабоев Ҳ. Ўзбек тилида морфологик усул билан термин ясаш // Лингвист VII. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2016.
3. Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси. Т.: Нодирабегим, 2020.
4. Исоқова З.М. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий – сиёсий лексика: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Т., 2010.
5. Холманова З. “Бобурнома”нинг лексик тадқиқи. Фил. фан. д-ри. ... дисс. – Т., 2009.
6. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (имя). Л.: Наука, 1977.

Шартли қисқартмалар:

1. АРС – Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. Изд. “Русский язык”, М., 1976.
2. ДЛТ – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Т.,1960.Iтом.
3. ДТС – Древнетюркский словарь. Лгр., 1969.
4. НАЛ – Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Т.: Ғафур Ғулом, 1972.
5. ПДП – Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. М., 1951.
6. ЎМЭ –Ўзбекистон миллий энсиклопедияси. XIV томлик. Т., 2006.
7. ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I том.
8. ЎТЭЛ – Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Т. Университет, 2009. I,II, томлар.
9. ЭСТЯ – Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. IIтом. М.: 1974.

BUYUK AJDODLARIMIZ ASARLARIDA TIBBIYOTGA OID QARASHLAR TALQINI
INTERPRETATION OF MEDICAL VIEWS IN THE WORKS OF OUR GREAT ANCESTORS

D.Ro‘zimatova,
O‘zMU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada termin tushunchasi, tibbiyoga oid terminlarning buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida keltirishiga to‘xtalib o‘tilgan. Tibbiyot insoniyatning qadimiy mashg‘ulot turi bo‘lib,uning o‘ziga xos so‘zlari ham ko‘p asrlik tarixga ega. Kasallik, dorivor vositalar, inson a’zolari nomlari ham faol qo‘llanadigan til birliklari sanaladi. O‘zbek tilshunosligida terminlarni o‘rganishga doir ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan. Tibbiy terminlarning bizgacha yetib kelib saqlanishida esa buyuk ajdodlarimizning nodir asarlari yetuk manba bo‘la oladi

Kalit so‘zlar: termin, tibbiy termin, tibbiyotga oid asarlar, terminlarning yasalishi

Abstract: this article discusses the concept of terminology, the use of medical terms in the works of our great thinkers. Medicine is an ancient form of human activity, and its unique words have a long history. Diseases, medicines, and the names of human organs are also language units that are actively used. Much has been done in Uzbek linguistics to study terminology. Rare works of our great ancestors can be a great source for the survival and preservation of medical terms.

Key words: terminology, medical term, medical works, construction of terms.

Ma’lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etgani, shuningdek, tartibga solingani bilan ham uzviy bog‘liqdir [Мадвалиев, 2007:32]. Terminlarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta’sir etadi.

XX asrning 30-yillarida o‘zbek tilining ko‘plab terminologik lug‘atlari tuzib chiqildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma’no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi ,yasalishi, taraqqiyot yo‘li va boyish manbalari haqida nazariy masalalar ham ishlab chiqildi. Tilshunoslikda terminlarning o‘zgarishi, yangi terminlarning paydo bo‘lishi fan-texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq. Har bir xalqda bo‘lgani kabi, o‘zbek tibbiyot terminologiyasining shakllanish manbalari ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Insonlar qadimdan har xil kasalliklar, ularning belgilariga, kasalliklarni bartaraf etuvchi vositalar-dorivor moddalarga nom berib, ularni ma’lum so‘zlar bilan ataganlar. Bu esa tibbiy atamalar(terminlar)tizimi shakllanishiga asos bo‘lgan. Sharq, jumladan, o‘zbek tibbiyot fani va xalq tabobati tarixida ham o‘zidan yorqin iz qoldirgan. Sharq tibbiyoti va tabobatini butun jahon miqyosiga olib chiqqan ma’lum va mashhur olimlar, tabiblar, mutafakkirlar ko‘p bo‘lgan. Hatto tabobat bilan qiziqqan xonlar, podshohlarni ham tarixda uchratish mumkin. Ana shunday kishilardan biri 865-925-yillarda, asosan, Bag‘dod va Ray shaharlarida yashab o‘tgan qomusiy olim, tabib va mutafakkir, o‘z davrining Jolinusi deb tan olingan Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Roziydir. U zamonasidagi 10 dan ortiq fan bilan mukammal shug‘ullangan, ayniqsa, tib, kimyo, botanika, astronomiya, mantiq, falsafa sohalarida shuhrat qozongan va ularning har biri bo‘yicha yetuk asarlar yozib qoldirgan. Abu Bakr Roziy Abu Rayhon Beruniydan yuz yil ilgari yashab ijod etgan mutafakkirlardan bo‘lib, uning yozib qoldirgan ba’zi bir asarlaridan Beruniy ham yetarli darajada foydalanganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin [Абу Бакр ар Розий,1994: 42]. Roziyning o‘zi yozib qoldirgan tarjimayi holi va asarlari ro‘yxati bizgacha yetib kelmagan, bunday ma’lumotlarni biz keyinroq yashab o‘tgan olimlar asarlarida uchratamiz. Olimning falsafiy qarashlariga bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina hikmatli fikrlar Beruniyning “Hindiston”asarida uchraydi. Beruniy kimyoga oid bir qancha ma’lumotlarni mashhur faylasuf, tabiatshunos, kimyogar Abu Bakr Roziydan olgan. Masalan, Beruniy “Minerologiya” asarini yozishda Roziy asarlaridan ununmli foydalangan. Roziyning eng muhim asari “Kitob ul-hoviy fit-tib”(“Tibbiyotni qamrab oluvchi kitob”)da antik davrdan Roziy yashagan davrgacha tibbiyot sohasida mavjud bo‘lgan nazariy va amaliy fikrlar bayon qilingan. Uning “Ovqatga oid kitob”, ”Podshoh tibbiyoti”, ”Al kunnosh al-Mansuriy”(“Mansurga bag‘ishlangan to‘plam”)XVI asrgacha Sharq tabiblari va Yevropa shifokorlarining asosiy qo‘llanmalaridan biri bo‘lgan. Beruniy o‘zining 1000 dan ortiq banddan iborat “Saydana”asarining 200 bandida Roziy nomini tilga oladi, 24 bandi esa Roziy asarlariga suyangan holda yaratiladi. Roziy tabobat tarixida birinchi bo‘lib, chechakka qarshi emlash zarurligini kashf etgan va uni amalga oshirgan [Абу Бакр ар Розий,1994: 24].

Sharq va Yevropada nashr etilgan asarlarning ma’lumot berishicha, Abu Bakr Roziy ishining davom ettiruvchisi, O‘rta Osiyolik buyuk olim Abu Ali ibn Sinodir. Uning 30 dan ortiq ilmiy asari bizgacha yetib kelgan. Uning “Tib qonunlari”asari o‘zbek va rus tillariga, ”Yurak dorilari” risolasi o‘zbek tiliga, ”Urjuza” she’riy asari o‘zbek va rus tillariga, ”Siyosat al-badan” asari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari 50 tacha bo‘lib, ulardan 30 taga yaqini saqlanib qolgan. Eng mashhur asari “Tib qonunlari”esa tabobatning mukammal qomusi, olimning ko‘p yillar olib borgan ilmiy va amaliy ishlarining samarasi bo‘lib, uning har bir jildida inson sog‘ligi va kasalliklariga oid deyarli barcha masalalar izchillik bilan, alohida-alohida batafsil bayon qilingan. Ibn Sinoning “Yurak dorilari”(“Al-adviyat ul-qalbiya”) va tibbiyotning umumiy masalalari bayon qilingan , aruzning rajaz bahrida yozilgan ming satrli “Urjuza”asari ham Sharq tabobatida muhim rol o‘ynagan asarlardandir [Мадвалиев, 2007:62]. O‘rta Osiyoning yana bir qomusiy olimi, o‘nlab fundamental fanlarning o‘tkir bilimdoni va asoschilaridan biri Abu Rayhon Beruniy aniq fanlar sohasida qilgan xizmatlari bilan o‘z davri ilm-fanini ancha ilgarilatdi. Beruniyning “Saydana”asari dorishunoslik haqida bo‘lib,muallif bu asarida o‘simliklar, hayvonlar va minerallardan olinadigan 1116 xil dorivor modda, ularning nomlanishi,bu nomlarning qaysi

tillarga mansubligi va sinonimligi, dorivor moddalarning shifobaxsh xususiyatlari, qaysi kasallikkka va qanday qo‘llanishi haqida batafsil ma’lumotlar beradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Abu rayhon Beruniyning ushbu asari hamda Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asaridagi ikkinchi va beshinchi jildlar Sharq tabobatida dorigarlik va dorishunoslik sohasidagi daslabki maxsus terminologik lug‘atlar hisoblanadi [Касымов А. И., 1982: С -35]

XI asrda yashab ijod etgan ijodkor Yusuf xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida bir qator sohalarni bilishga oid ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Shuning uchun ham asar o‘nlab millatlar tiliga tarjima qilingan. ”Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlar tibbiyotiga oid ma’lumotlar berilgan ilk manbalardan hisoblanadi. Asarda *o‘tachi, emchi, baxshi* singari atamalar “tabib”, ”davolovchi”ma’nolarida qo‘llanilgan. Dorishunos, dorivor giyohlardan dori tayyorlovchi *idishchi* shaxs oti bilan ifodalangan. Bundan tashqari asarda *urag‘un, em, o‘trum* singari dori vositalari nomlari ham keltirilgan. ”Qutadg‘u bilig”da *isig‘* va *so‘yiq* so‘zlari inson mijozi bilan bog‘liq bo‘lgan “issiqlik” va “sovuqlik”ni ifoda etgan. Asardagi yuqoridagi kabi birliklar qoraxoniylar, eski turkiy til davri leksik xususiyatlarini, semantik tomonlarini aks ettirgan [Юсуф хос Ҳожиб, 1972:92]. O‘rta Osiyoda tabobat va dorishunoslikning, ayniqsa, bu sohalar terminologiyasining keying rivoji Ismoil ibn Hasan Jurjoniy va uning “Zahirayi Xorazmshohiy”, ”Zubdat ut-tib”(“Tabobat qaymog‘i”), ”A’roz ut-tibbiya”, (”Tibbiy simptomlar”)asarlari, Abdurahmon Marvaziy (XII asr) va uning “Rasoyil fit-tib”(“Tabobatga oid risolalar”)asari, Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf (XV-XVI asr) va uning “Tibbi Yusufiy” asar fors tilida yozilgan, 1882-1898-yillarda o‘zbek tiliga tarjima qilingan), ”Daloyili nabz”(“Tomir ko‘rsatishlari”)asarlari bilan bog‘liqdir [Мираҳмедова З., 2010: 13] Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf Boburning xos tabibi bo‘lib, u Hindistonda ham yashab, faoliyat ko‘rsatgan. Bobur Yusufiy bilan Afg‘onistonda tanishadi. Hindistonni egallagach, xat yo‘llab, Yusufiyni chaqirib oladi. Keyinchalik Boburning shaxsiy tabibiga aylangan, tabobat, odob-axloq, insho san’atiga oid 21 ta asar yozgan Yusufiy 1530-yilda Bobur xastalanganda unga atab “Qasida dar hifzi sihhat”(“Sog‘liqni saqlash haqida qasida”)risolasini yozgan [Бобурнинг хос табиби Юсуфий табобати, 1992:23]. Boburning tibbiyotga munosabatida , uning tibbiy bilimga ega bo‘lishida Yusufiy kabi tabiblar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etgan. Tibbiy terminlarni o‘ziga xos memuar asarlardan bir bo‘lgan “Boburnoma”da ham uchratish mumkin. ”Boburnoma”da keltirilgan tibbiyotga oid birliklar arab, fors tillari bilan birgalikda turkiy tilda ham ifodalangan. Ayni paytda shuni ham ta’kidlash kerakki, aksariyat mashhur tabiblar hukmdorlar, xonlar saroyida ularning xos tabiblari sifatida faoliyat ko‘rsatganlar. Hukmdorlar esa o‘z tabiblarining ilmiy-amaliy ishlariga zarur sharoit yaratib berish bilan birga o‘zlari ham tabobat bilan qiziqqanlar va tabobatga oid arzirli asarlar yaratganlar. Bunga misol tariqasida birinchi marta o‘zbek tilida tibbiy asarlar yaratgan o‘zbek xonlaridan Abulg‘ozixon va Subhonqulixonlarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, Abulg‘ozi ibn Arabmuhammad Bahodirxon xon avlodidan bo‘lsa-da, tarix, tibbiyot va adabiyot sohalarida ancha iqtidorli, bilimdon kishi bo‘lgan. Uning tibbiyotga oid “Manofe’ ul-inson”(“Insonga foydali narsalar”)asari o‘zbek tilidagi dastlabki tibbiy asar hisoblanib, unda, asosan, sodda, murakkab va umumiy dorilar haqida so‘z boradi hamda o‘tgan hakim va tabiblarning tabobatga oid fikrlari ,hikmatli so‘zlari bayon qilingan. Subhonqulixon (XVIII asr)esa tabobat sohasini rivojlantirish maqsadida Buxoroda tibbiyot madrasasini bino qilgan. Madrasa qoshida kasalxona, ambulatoriya, dorixona va kutubxonalar bo‘lgan. Subhonqulixon davrida tibga oid ko‘plab asarlar o‘zbek va fors tillariga tarjima qilinib, ko‘p nusxalarda ko‘chirtirilgan. Xonning o‘zi tabobatga oid o‘zbek tilida “Tibbi Subhoniy”, fors tilida “Ihyo ut-tibbi Subhoniy” (“Subhoniy tabobatining hayotbaxshligi”)asarlarini yaratadi.

Umuman olganda, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino davrlaridan boshlanib, XX asrgacha davom etgan tabobat va dorishunoslik tarixi, bu davrlarda yaratilgan ilmiy asarlar, ularda qo‘llangan terminlar ma’lum ma’noda o‘zbek xalq tabobati terminlarining,zamonaviy tibbiyot terminologiyasining shakllanishiga asos bo‘lgan, desak xato bo‘lmaydi. O‘zbek tili tibbiy terminologiyasining rivojlanish tarixi haqida gap borar ekan,Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t- turk”nomli asariga murojaat etmay iloj yo‘q. Chunki tengi yo‘q bu lug‘at turkiy xalqlar madaniy hayotida, xususan,tilshunoslikda alohida ahamiyatga egadir. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida yirik lug‘atchi sifatida IX-X asr umumturkiy tilining lug‘aviy

boyligini deyarli to‘laligicha namoyon etadi. O‘sha davrda va undan oldingi vaqtlarda ishlatib kelingan yuzdan ortiq tibbiy terminlarning keyinchalik tilda saqlanib qolishi va hozirgi kungacha yetib kelishi ana shu asarga bog‘liq desak,xato qilmagan bo‘lamiz. Asarni ko‘zdan kechirar ekanmiz,undagi tibbiy terminlarning ba’zilari hozirgi o‘zbek tilida ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan, ba’zilari arxaizmlarga aylanganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. ”Devon”da anatomik va kasallik nomini bildiruvchi ko‘plab terminlarni uchratish mumkin. Bularga quyidagilarni misol qilish mumkin:*азіғ*-oziq tish, *ajaқ*-oyoq, *aғиз*-og‘iz *баш*-bosh, *білак*-bilak, *боғаз*-bo‘g‘iz , *боғим*-bo‘g‘im, *бурун*-burun, *jijалақ*-jimjiloq, *jaш*-ko‘z yosh, *kurgak*-kurak(II, 335)*siduk*-siydik(I,335), *kirpik*-kiprik(I, 443)*tamaqa-tamg‘aq*-tomoq(I, 69 va 435)*tiz*-tizza(III,135). Kasallik nomini bildiruvchi so‘ zlar*: tumag‘u*-tumov(I,418), *uchuq*-uchg‘uq(I,124)*iq*–hiq, hiqichoq(II,250), *qizlamuq*-qizamiq(I,480), *irin*-yiring(I,154), *chəkək*-chechak (I,184) *cigil*-so‘gal (I,204), *buquq*-buqoq kabi[Маҳмуд Кошғарий,1960]. “Devonu lug‘otit turk”da qo‘llangan ko‘plab terminlar esa davrlar o‘tishi bilan iste’moldan tushib qolgan,ular arxaizmga aylanib hozirgi o‘zbek tilida ishlatilmaydi:uzuz-qo‘tir(I,88), cowushgan-gijja((,474), anumi–moxov kasalligi (I,135), kart-yara(I,328), utuk-ich ketish kasalligi (I,99),og‘ulchuq-bachadon(I,165), tulun-chakka(I,181), quduchak-quyruq suyagi(III,194). Asarda bu terminlarning sinonimlari ham berilgan.Yuqoridagi misollardan shuni bilish mumkinki,tibbiy terminlar ham davrlar o‘tishi bilan jamiyat bilan bog‘liq holda rivojlanish, o‘zgarishda davom etyapti. Lekin bu yerda keltirlgan ayrim terminlarning o‘rnini hozir arabcha, forscha, ruscha , lotincha va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar egallaganligi hali bu sohada qilinadigan ishlarning ko‘pligidan dalolatdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Бакр ар Розий. Касалликлар тарихи**.** – Тошкент:А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти ,1994.

2.Бобурнинг хос табиби Юсуфий табобати. –Тошкент :Фан, 1992

3. Касымов А. И. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке:Автореф. дисс.канд. филол.наук. – Тошкент, 1982.С -35

4. Мадвалиев А. П. Ўзбек терминологияси ва терминографияси масалалари. – Тошкент, 2007.30 б

5. Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2010. 13- б

6. .Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.–Тошкент.1-том.1960; 2-том

7. Юсуф Хос Ҳожиб.Қутадғу билиг.Іжилд. –Тошкент,1972.

ALISHER NAVOIYNING LIRO-EPIK ASARLARIDA IBORALARNING QO‘LLANILISHI
THE USE OF PHRASES IN THE LYRICAL AND EPIC WORKS OF ALISHER NAVOI

D.Tamikayeva,
SamDChTI AL o‘qituvchisi

Abstract: This article is devoted to the analysis of the features of the use of phraseology in the lyro-epic works of Alisher Navoi. On this basis, on the basisof the lyro-epic centuries, the features of the use of phrases were analyzed to some extent.

Keywords: To speak, to destroy, the state, to sweep the ashes of the night, to go from the *world, to admire, language, to admire the language*

Ma’lumki, tilning boshqa vositalari singari frazeologizmlarning ham oddiy, odatdagi umumtil qo‘llanishida shakli ham, mazmuni ham o‘zgarmaydi. Lekin taniqli so‘z ustalari frazeologizmlarni ijodiy qo‘llab, uni “rivojlantiradilar”, uning uslubiy samaradorligini, ta’sirchanlik darajasini oshiradilar. Ana shunday hollarda frazeologizmlarning uslubiy imkoniyatlari bir necha baravar ortadi.

Mana shunday xususiyatlardan Alisher Navoiy juda yaxshi foydalangan. AlisherNavoiy ibora qo‘llashda mumkin qadar bir iborani qayta takroran foydalanmaslikka intilgan. Buning uchun ulug‘

shoir ma’no jihatdan bir-biriga yaqin, ma’nodosh iboralardan foydalanishga yoki o‘zi shunday iboralarga ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan iborani shakllantirish uchun harakat qilgan. Buni birgina “so‘zlamoq, gapirmoq, demoq” ma’nolarini ifodalovchi “so‘z demaslik”, “so‘zni band aylamoq”, “so‘z ochmoq”, “so‘z chashmasin kovish qilmoq” iboralarining qo‘llanilishidan ham sezish mumkin:

Boshin tutub o‘ldi bir zamon gech,
So‘z demadi yaxshi, yo yomon hech (L.M. 78, b16).
Chun so‘zni bu yerga ayladi band,
Tahsin etib o‘ldi barcha xursand (L.M. 114, b23)
Sohibi xafaqon kuyov ko‘ ochti,
Boshidag‘i el sari so‘z ochti (L.M. 171, b32)
So‘z chashmasin ulki qildi kovish,
Bu nav su ayladi tarovish (L.M. 91, 19)

Keltirilgan bu iboralar orasida , ayniqsa, so‘nggi “so‘z chashmasin kovish qilmoq” iborasi shoirning frazeologizmlarni shakllantirish va ularni qo‘llashdagi novatorligidan, san’atkorligidan dalolat beradi. Shoir “achchiq til bilan so‘zlab, alam yetkazmoq” ma’nosini ifodalash uchun “toponcha urmoq” iborasini shakllantirgan:

Bu gulga necha taponcha urmoq,
Yaproqlarini uzub sovurmoq (L.M. 184, b34)

Shoir “chiroyli gapirmoq, yaxshi so‘zlamoq” ma’nolarini ifodalash uchun “tilni qoyil etmoq” degan ajoyib iborani qo‘llagan:

Yuz nuqtaga tilni qoyil etgay,
Shoyad ani uyga moyil etgay (L.M. 142, b28)

Dostonda “til chekmoq” iborasi ham “so‘zlamoq, gap eshitmoq” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan:

Chun yaxshi taammul etti laxte,
Til chekti nechukki sho‘rbaxte (L.M. 78, b16)

“Layli va Majnun” dostonida uch komponentli “tun kulini supurmoq”, “ulfat rishtasini uzmoq”, “hadisi jonbaxs bo‘lmoq”, to‘rt komponentli “uzlat kamarin beliga cholmoq” singari bir qancha individual-muallif iboralarni ham Alisher Navoiyning frazeologizm qo‘llashdagi o‘ziga xos novatorligi namunasidir:

Tong eli chu tun kulin supurdi,
Mehnat bulutini dog‘i surdi (L.M. 37, b9)

Majnunning vahshatlig‘ eldin ulfat rishtasini uzgani va biyobon vahshiylari bila uns navosin tuzgani (L.M. 101, b21)

Qadding qilibon havoyi raftor,
Aylarmiz jahon elin giriftor (L.M. 81, b16)
Ul nav g‘amingda notavondur,
Kim elga hadisi dostondur (L.M. 57, b8)
Shahkim ichib ul mayi ravonbaxsh,
Bazm ichra bo‘lib hadisi jonbaxsh (L.M. 83, b16)
Vahdat guharini eliga olg‘an,
Uzlat kamarin beliga cholg‘an (L.M. 56,

Shoir o‘z dostonida “davlati vasl” va “lazzati vasl” izofalarining o‘zaro qofiyadoshligi ta’sirida ham ta’sirchan iboralarni shakllantirishga muvaffaq bo‘lgan:

Majnung‘aki etti davlati vasl,
Fahm etmagan erdi lazzati vasl (L.M. 171, b32)

Adabiy tilimizda “o‘lmoq, vafot etmoq” ma’nosini ifodalovchi yuzdan ortiq iboralar mavjud. A.Omonturdiyevning kuzatishlariga qaraganda, “o‘lmoq” ma’nosini ifodalovchi evfemik iboralar qatoriga ajali yetmoq, armon bilan ketmoq, asfalasofilinga ketmoq, bandalikni bajo keltirmoq singari juda ko‘plab turg‘in birikmalar kiradi [A.Omon.O‘TQEL 98-124]. Alisher Navoiy xuddi shu ma’noni ifodalash uchun dostonda “jahondin bormoq” iborasidan foydalanadi. E’tiborli tomoni

shundaki, E.Umarov lug‘atida xuddi ma’noni ifodalovchi “jahondin kechmoq” iborasi qayd qilingani holda [108,54], “jahondin bormoq” iborasi o‘rin olmagan:

Hajr ichra to‘yub ramida jondin,

Armon bilan bordilar jahondin (L.M. 197, b35)

O‘zbek tilida “eti suyagiga yopishgan”, “terisi suyagiga yopishgan” iboralari faol qo‘llanadi hamda “haddan tashqari ozg‘in, haddan tashqari qotma” ma’nolarini bildiradi [O‘TFL, 307]. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida “jildi so‘ngaklariga yopishmoq” iborasi xuddi shu ma’noni ifodalashga xizmat qilgan. Bunday iboraning Alisher Navoiy davrida shakllanishi bejiz emas, chunki arabcha “jild” so‘zi polisematik xarakterga ega bo‘lib, uning bir ma’nosi “biror narsa ustidan kiydiriladigan, qoplab qo‘yiladigan g‘ilof, teri” bo‘lsa [O‘TIL,1,278] eskirgan “so‘ngak” so‘zi “suyak, ustuxon” ma’nolarini bildiradi:

Qon qo‘ymay solga rag‘lariga

Jildi yopishib so‘ngaklariga (L.M. 125, b25)

Shunday qilib, Alisher Navoiy so‘z qo‘llashda bo‘lganidek, yangi iboralarni shakllantirishda va ularni matn tarkibida qo‘llash sohasida ham benazir san’atkor edi. Uning bu sohadagi xizmatlari prof. E. Umarov tomonidan lirik asrlari misolida ma’lum darajada maxsus o‘rganilgan.[E.A.Umarov ONFSAN 90-95]. Xuddi shunday ishni shoirning “Xamsa”si materiallari asosida ham davom ettirish hamda Alisher Navoiy asarlarining to‘la frazeologik lug‘atini yaratish tilshunoslik fani oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy “Layli va Majnun” // .–Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2020.

2.Umarov E. Frazeologicheskaya kontaminatsiya v yazike Alishera Navoi // jurnal “Sovetskaya tyurkologiya”, 1974, № 5.-C. 23-27.

3.Omonturdiyev A. O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati.–Toshkent: Fan, 2006.-B. 98-124

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL VA NUTQ MADANIYATI MASALASI
THE ISSUE OF LANGUAGE AND SPEECH CULTURE IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

I.Mamarajabova,
ToshDO‘TAU doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiyning, til, xususan, nutq borasidagi qarashlari jamlangan va tahlil qilingan. Uning til va nutq dixotomiyasi xususidagi qarashlari asarlaridan olingan misollar yordamida izohlangan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, tilshunoslik, so‘z, til, nutq.*

Abstract: this article summarizes and analyzes the views of Alisher Navoi, the founder of the Uzbek literary language, on language, in particular, speech. His views on the dichotomy of language and speech are explained using examples from his works.

Key words: *Alisher Navoi, linguistics, word, language, speech.*

O‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy turkiy tilda go‘zal nutq tuzishning yetakchisi sifatida o‘zbek tili boyliklarini namoyon etuvchi mashhur asarlar yaratdi. Navoiyning sa’y-harakatlari hamda yaratgan badiiy va ilmiy asarlari tufayli XV asrda o‘zbek tili olamga dong‘i ketadigan adabiy asarlar yaratishga qodir til ekanligi isbotlandi. Navoiy yaratgan g‘azal, ruboiy, dostonlari bilan o‘zbek tilining bor jozibasini amalda isbotlagan bo‘lsa, qator ilmiy asarlarida mohir va bilimdon tilshunos sifatida lingvistik hodisalarga ham o‘z munosabatini bildirib o‘tgan.

Navoiy o‘z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etadi. “Mahbub ul-qulub” asarida voizlar va til odobi xususida fikr yuritsa,

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘zbek adabiy tilining boyligini e’tirof etdi. “Majolis un-nafois” asarida esa so‘zning voizlar hayotida tutgan o‘rni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. “Nazm ul-javohir” asarida esa so‘z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o‘tiladi. Tarixdan ma’lumki, Navoiyning o‘zi ham mohir notiq bo‘lgan va shirin kalomi, o‘tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o‘z asarlarida ham xaloyiqqa nafi tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirin-zabon so‘zlar so‘zlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yo‘llarini o‘rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan.

Xususan, “Nazm ul-javohir” asarida til insonni hayvondan ajratuvchi gavhardir, deb ta’kidlaydi.

So‘zdurki, nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.

Bu misralarda navoiy so‘zni umumiy ma’noda, ya’ni til, nutq ma’nosida qo‘llaganini bilishimiz mumkin. Uningcha, tirik insongina so‘zlash qobiliyatiga ega, so‘z tufayli u tirik ekanligini isbot etadi. So‘z do‘stdan, yor-u birodardan, uning holidan xabar beradi. Insonni hayvondan judo qiluvchi, ya’ni ajratib turuvchi eng muhim belgi ham so‘z ekan, demak dunyoda so‘zdan gavhari sharif-ulug‘roq narsa yo‘qdir. Bu o‘rinda tilning ijtimoiy vazifa bajarishi, kommunikativlik, informativlik kabi xususiyatlari ham chiroyli tarzda bayon qilingan.

Navoiy tilni o‘sib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o‘zaro aloqada bo‘ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug‘ma ekanligini ham ta’kidlaydi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida arab tili *“kalomi ilohiy”* deb ulug‘lanadi, fors va turkiy tili solishtiriladi [Navoiy, 1987]. Olim bu asarda ikki tilning lug‘at boyligi, so‘z yasalishi, fonetik tarkibi, stilistikasi kabi xususiyatlarini chog‘ishtirib, badiiy imkoniyatlari jihatidan turkiy tilning fors tilida qolishmasligini isbotlaydi. Hattoki, fors-tojik tilida, ekvivalenti bo‘lmagan o‘zbekcha so‘zlarni misol keltiradi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, o‘zbek tilining boshqa tillar orasida tutgan o‘rnini belgilab berishga, o‘zbek nutqi madaniyatini o‘rganishga qaratilgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, Navoiy *til* so‘zi bilan baravar arabcha *lison, kalom, kalima, lafz , alfoz,* forscha *suxan, zabon,* so‘zlarini ham ko‘plab ishlatgan. Ammo bular orasida eng ko‘p qo‘llangani *so‘z* va *til* leksemalaridir. Shoir *til* so‘zini olti xil ma’noda qo‘llaydi[Islamov, 2011:11]:

1. Insonlar o‘zaro fikr almashadigan, muloqot qiladigan qurol, vosita ma’nosida.
2. Og‘zaki aytilgan yoki yozilgan nutq, matn ma’nosida.
3. Yozilgan asar, asosan, badiiy asar, ko‘proq nazm, she’riyat ma’nosida.
4. Hayvonlar tili (masalan, qush tili) ma’nosida.
5. Nutqiy jarayon, konkret jonli til ma’nosida.
6. Biror elat, qabila, xalqning aloqa quroli ma’nosida (turkiy til, forsiy til, arab lisoni, ulus tili kabi). Yuqorida aytilganidek, Navoiy til so‘zini arabiy, forsiy sinonimlaridan ham foydalangan va ularning barchasida tilning xos xususiyatlari o‘z aksini topgan.

Navoiyning fikricha, til oddiy so‘zlashuv tili va badiiy til shakllariga ega. U, asosan, ko‘p o‘rinlarda so‘z, til, lafz, lison, kalom, suxan va boshqalar haqida gapirganda badiiy tilni ko‘zda tutadi. Navoiy asarlarida *til* so‘zi turli iboralar, birliklar tarkibida kelib, xilma-xil ma’nolarni ifodalaydi. Chunonchi: *til ranji, til og‘rig‘i, turkiy til, turk lafzi, til hifzi, til zabti, ulus tili, el tili, o‘z tili* va boshqalar[Islamov, 2011:12].

Alisher Navoiy til va so‘zning ijtimoiy vazifasini to‘g‘ri belgilagan, anglay olgan, ya’ni *so‘z* til ma’nosida xalqlarning, elatlarning o‘zaro aloqa-aralashuv vositasi ekanligini u “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida quyidagicha bayon qilgan: *“Va bu so‘zning tanavvui taaquldin nari va tasavvurdin tashqaridur. Agar mubolag‘asiz ijmol yuzidin qalam surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, etmish ikki nav’ bila taqsim toparida xud hech so‘z yo‘qturki, etmish ikki firqa kalomiga dalolat qilgay, ammo ulcha tafsiliydur. Uldurkim, rub’i maskunning yetti iqlimidin har iqlimda necha kishvar bor va har kishvarida shahar va qasaba va kent va har dashtda necha xayl-xayl*

sahronishin ulus va har tozning ko‘llarida va har bahrning jazoyirida va savohilida ne tavoyif bor. Har jamoat alfozi o‘zgalaridin va har guruh iborati yonalaridin mutazayyir va bir necha xususiyat bila mutamayyizdurki, o‘zgalarda yo‘qtur.” (ML, 9-b).

Navoiyning yozishicha, insonning go‘zalligi, barkamolligi uning tilida, nutqida o‘z aksini topadi:

Gar chiroyi rashki samar bo‘lmasa,
La’li labi tungi shakar bo‘lmasa. [Navoiy,1987: 59]
Oyqa bu husnu malohat bila,
Nuktani oyini fasohat bila. [Navoiy, 1987: 59].

Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag‘ishlangan fikrlari yana-da mukammalroq ifodalangan asari “Mahbub ul-qulub” dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so‘zlovchi dilidagi fikrni to‘g‘ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi.

Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so‘zlash odobi haqida, o‘ylamasdan so‘zlamaslik lozimligi haqida: *“Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig‘liqqa evruldi, zarari oni bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarga nushdir... So‘zni ko‘ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa, tilga surma”* deydi.

Buning ma’nosi shundayki, tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar yetkazadi. Qandni mast qiluvchi aroq qilsalar, harom bo‘ladi. Chuchuk so‘zni toza ko‘ngullar simiradi... So‘zni ko‘ngulda pishitib olmaguncha so‘zlamagin, ko‘nglingda bo‘lgan har qanday fikrni ham ayta berma. Navoiy mana shu fikrlari orqali nutqning qanchalik muhimligini ta’kidlab o‘tgan.

Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug‘ullangan Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag‘ishlaydi. Navoiyning o‘zi ham notiqlik san’atini o‘z davrida yuksak darajaga ko‘targan. Uning *“Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz”* yoki *“Ma’dani inson gavhari so‘z durur, gulshani odam samari so‘z durur”* deb yozganlarida nutqqa, tilga e’tibor berish qanchalar muhimligi va bunga o‘zi ham amal qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining 24-bobini “Nasihat ahli va voizlar zikriga” bag‘ishlagan bo‘lib, shoirning fikricha “voiz uldurki, majlisg‘a kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan holi bo‘lg‘ay”. Bu fikrlar orqali Navoiy notiqning, nutqning eshitgan kishidagi charchoqlarni oladigan darajada yoqimli bo‘lishi va qalbni, aqlni quvvatlantiradigan holda bo‘lishi maqsadga muvofiqligini bitta gap orqali ifodalagan.

Oʻzbek tilida b e r i koʻmakchisi shundan olmoshi bilan kelib, biror voqyea-hodisaning ma'lum vaqtdan boshlanganligini anglatadi. Bunday horlatda soʻzlovchi tinglovchiga ma'lum boʻlgan vaqt haqida gapiradi.

Buyon koʻmakchisi beri koʻmakchisi sinonimi sifatida keng qoʻllaniladi. Bu koʻmakchi ham voqyea-hodisa, harakatning ma'lum vaqtdan boshlanganligi ma'nosini ifodalaydi. Misol: Qiziq, u aqlini tanib, qoʻlidan ish keladigan boʻlgandan buyon koʻp vaqtini ovqat pishirish bilan oʻtkazyapti (M.Xazratqulov). Uy egalarining aytishlaricha, televizorlari anchadan buyon ishlamas ekan (gazetadan). Mana, turmush qurishgandan buyon necha oy oʻtdi (M.Xazratqulov). Payt munosabatini ifodalashda voqye-hodisaning oldin boʻlganligini ifodalashda avval koʻmakchisi ham faol qoʻllanadi. Bu koʻmakchi o l d i n, ilgari koʻmakchilari bilan sinonimik munosabatda boʻladi: Ulugʻbek ikki sipox kuzatuvda avval bobosining maqbarasini ziyorat qildi (Muzaffar). Shuni unutmangki, yaqinlashishdan o l d i n uni tinchlantirish zarur (Yoshlik № 9.89). Hozirgi oʻzbek adabiy tilida q a d a r koʻmakchisi harakat, voqyea- hodisaning payt jihatdan davomiyligi, uning chegarasini ma'lum vaqtgacha davom etganligini bildiradi. Bu koʻmakchilarning qoʻllanilishi mavjud darslik va ilmiy adabiyotlarda joʻnalish kelishigini boshqarib, harakat, voqea-hodisaning ma'lum vaqtgacha boʻlganligi ta'kidlanadi. Tergovchi huzuridagi bu uchrashuvga q a d a r Johongir ikki oʻt orasida edi. Ozodlikka chiqquniga q a d a r qolgan yillarini, oylarni, haftalarni, kunlarni xatto soatlarni hisoblardi (T.Malik).

2) Biror voqea-hodisa yoki harakatning keyin boʻlishini ifodalovchi koʻmakchilar. Bu tildagi k e y i n, s oʻ n g koʻmakchilari ish-harakat voqeaning keyin boʻlganligini bidiradi. K e y i n koʻmakchisi daqiqa, soat, oy kabi vaqt bildiruvchi soʻzlardan keyin kelib, voqea-hodisa,

harakatning ma'lum vaqtdan keyin sodir bo‘lishi ifodalanadi. Masalan: Yana bir daqiqadan k e y i n kemamiz Betta sayorasining bosh kosmodromiga qo‘nadi. Bu yetmagandek, yana bir oydan k e y i n kaminaning o‘zini ham o‘g‘irlashni mo‘ljallashgan (H.Shayxov). Yarim soatdan k e y i n futbol bo‘ladi, ko‘rishmoqchi (S.Ahmad).

Xulosa qilib aytganda, ko‘makchili konstruksiyalarni funksional-semantik, tagbilim asosida yanada chuqurroq tadqiq qilish bugungi tilshunoslikning kelgusi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev F., Ibrohimova F. O‘zbek tilida boshqaruv.T.,1982. 24 -25 -b.
2. Kononov A.N. Poslelogi v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike. Tashkent. 1951.S.6.
3. Tursunov U. Muxtorov J.Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - T.,1975. 238-243-b.
4. Amirova A.N. Obstoyatelstva prichino‘ seli v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike. AKD. Samarkand.1967.S.3 - 9.
5. Usmonov S. «O‘zbek tilida so‘zlarning grammatik formalari». Nizomiy Nomidagi TDPU ilmiy asarlar. 42-tom, 2-kitob. Tilshunoslik masalalari. T.: 1964. 210-bet.
6. G‘ulomov A.G., Asqarova M. Xozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisi. T.: 1965, 121-bet.
7. Nurmonov A. Ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi. O‘TA. 1986. VI 42-bet.
8. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O‘TA 1986. №6. 28-31-bet.

BUYUK MUTAFAKKIRLARNING LINGVISTIK QARASHLARI – FILOLOG OLIMLAR TALQINIDA O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI VA JAHON LEKSIKOGRAFIYASINING NAZARIY ASOSLARI

GLOTONIMIA TÚRCICA (O TÚRQUICA) EN LENGUA ESPAÑOLA

Rafael del Moral
Presidente de la Asociación Europea de Profesores de Español

RESUMEN Podría haber llamado a esta investigación *cómo dar nombre en español a las lenguas emparentadas con el turco*, y se entendería mejor. El rigor onomasiológico, la tradición lexicológica, exige, a pesar de las inconveniencias, usar *glotonimia*, nombres de lenguas, con la misma licencia que *antroponimia*, nombres de personas, o *toponimia*, nombres de lugares.

Ninguna lengua necesita dar nombre a todas las del mundo, si bien todas podrían hacerlo, pero no lo hacen. El hecho es que ni siquiera en el caso de las lenguas románicas, tan cercanas al español, tenemos claro el nombre que hemos de asignar a muchas de ellas. ¿De qué manera denominamos a una veintena de lenguas de la familia túrquica o túrcica? ¿Cómo podríamos regularizar la inestable o ausente terminología para su uso en español? Este artículo pretende razonar y dar luz a los procedimientos, así como proponer una glotonimia ajustada a las normas fónicas y ortográficas de la lengua española.

El estudio que ahora amplio fue expuesto en una ponencia del encuentro internacional de la *Asociación Europea de Profesores de Español* celebrado en Taskent, en el año 2014. Desde entonces la información global y la necesidad de fijar neologismos ha sido intensa.

Palabras clave: *glotonimia, lenguas túrquicas, lenguas túrcidas, lenguas altaicas, nombres de lenguas.*

LOS ORÍGENES. La lengua remota antecesora de las túrquicas o túrcicas es el llamado *protoaltaico,* lengua primitiva y sospechada, que no codificada, que da origen a las que deseamos estudiar. Según lo que hasta ahora se sabe o suponemos de manera más o menos justificada, se fragmentó aquella lengua primitiva en tres o cuatro ramas: la o *túrquica* o *túrcica*, la *mongol* y la *tungusa*, y a ellas se añade, aunque de manera controvertida, otra posible y confusa derivación a la que pertenecería el *coreano* y el *japonés,* que pudieron ser las primeras en desligarse del tronco común. Esto es lo que se ha venido diciendo. No quedan claros, por tanto, los orígenes, sobre todo si los comparamos con las evidencias de las lenguas indoeuropeas. Un estudio más profundo debería servir para esclarecer ese pasado remoto con mayor precisión.

¿TÚRCICAS O TÚRQUICAS? Llamamos a esta familia túrcica o túrquica, pues ambas denominaciones son frecuentes. Cuando hablamos de *túrcicas* hacemos derivar el adjetivo de turco, que es el gentilicio de Turquía y también el glotónimo de la lengua de los turcos. Si usamos la derivación *túrquica* lo hacemos porque tomamos como raíz al topónimo Turquía, nombre del país. ¿Cuál sería la denominación más correcta? No podemos elegir, sino acomodarnos al término que el uso generalice. Actualmente ambos conviven porque los hablantes de español no necesitan usarlo más allá de la investigación filológica. Cuando hace unos años tuve que decidir si utilizaba túrquicas o turcicas, elegí el segundo porque se ajusta más a la glotonimia que a la toponimia o los gentilicios.

LA HISTORIA. Los hablantes de **lenguas túrcicas** gozaron o sufrieron, como también nuestros antepasados de la Península Ibérica, la fuerza arrolladora del Islam. Hacia el siglo XI empezó a instalarse con tanto ímpetu y rigor que fueron pronto islamizados. El alfabeto árabe sirvió al turco, lengua de los guerreros que acabaron con el imperio Bizantino y desplazaron a la lengua griega.

Las lenguas túrcicas que se encontraban en el territorio de la antigua Unión Soviética vivieron su etapa con el alfabeto cirílico hasta la pacífica e inesperada desaparición de aquel imperio. Luego el turco, el azerí y el uzbeco, en busca de una mayor conexión con el alfabeto más universal, ajustaron su ortografía a la latina. Solo el uiguro, una de las más significativas lenguas minoritarias de China, utiliza todavía su propia escritura heredera del antiguo alfabeto sogdiano. El sogdiano, lengua irania, fue la lengua de Samarcanda y se recuerda en inscripciones hasta el momento en que militares macedonios conquistaron la ciudad al mando de Alejandro Magno.

IDENTIDAD. A pesar de la fragmentación y el distanciamiento, las lenguas túrquicas actuales se muestran tan próximas entre sí que un amplio grado de inteligibilidad se manifiesta entre sus hablantes.

Son lenguas **aglutinantes**, es decir, las palabras se acumulan en una sola secuencia en la que el nombre, el adjetivo, las preposiciones y los morfemas pueden unirse a la raíz del sustantivo, y por otra parte el verbo y sus morfemas y complementos forman otra larga palabra. A veces se produce solo una acumulación de morfemas. El concepto de lengua aglutinante se utiliza como contrapuesto a lengua flexiva. Se trata de una clasificación tipológica fundada en los parecidos formales que agrupa a aquellas en las que las palabras están formadas por una larga secuencia de unidades portadoras cada una de ellas de un significado gramatical. El japonés, el finés, el vasco y el suajili son lenguas aglutinantes, también llamadas *aglutinativas*. La voz española *Anti-interven-cion-ista* aglutina unos elementos tras otros.

Ev, en turco, significa casa. Si le añadimos el artículo, no lo hacemos con una palabra distinta, sino que la aglutinamos con la misma: *evler* (*las casas*). Pero si en vez del artículo añadimos un posesivo, habrá que colocarlo el mismo lugar: *evlerim* (mis casas), y así sucesivamente: *evlerimde* (en mis casas).

El siguiente ejemplo del cazajo da muestra de la morfología de una lengua aglutinante:

džaz	(escribir)

džazu	(carta, escrito)
džazuši	(escritor)
džazušilar	(escritores)
džazušilarim	(mis escritores)
džazušilarimizda	(relacionado con nuestros escritores)
džazušilarimizdaγi	(cualidad relacionada con nuestros escritores)
džazušilarimizdaγilar	(cualidades relacionadas con nuestros escritores)
džazušilarimizdaγilardan	(de las cualidades relacionadas con nuestros escritores)

Otra característica que las identifica es la **armonía vocálica**. Se trata de un fenómeno de asimilación que afecta a las vocales de una misma palabra o frase. Para las lenguas que la respetan la elección de una o varias vocales en una posición determinada no es libre, sino que viene determinada por la presencia de otra vocal que marca la armonía. Es necesario para ello desdoblar el sistema vocálico en dos subsistemas separados por un determinado rasgo distintivo como la abertura (serie abierta, serie cerrada), la localización (anterior o posterior) o la labialización (redondeadas o no redondeadas). De este modo cada palabra o frase toma únicamente vocales de un solo subsistema. Si la primera sílaba contiene una vocal con rasgos de un subsistema, las demás sílabas deberán contenerlo también en sus respectivas vocales.

Si la primera vocal de la palabra núcleo de la frase aglutinante pertenece a la serie anterior, todas las vocales de la lengua turca han de ser también de la serie anterior, y si es posterior deben respetar la armonía posterior de esa primera. La elección de las dos desinencias de plural *–lar* o *–ler* viene determinada por el vocalismo de la raíz: *altar* ('cabellos') pero *güler* ('rosas'). Comprobé el fenómeno cuando nuestros compañeros profesores uzbecos de español confundían la vocal española con una inadvertida voluntad de buscar la armonía.

LA EXTENSIÓN. El territorio actual de las lenguas túrcicas se ensancha desde los Balcanes hasta el noreste de China y Sur de Siberia a través de Turquía, el Cáucaso y el curso medio del río Volga. Al este y sudeste de Europa llegaron como resultado de una serie de migraciones y conquistas hasta instalarse no solo en importantes territorios de Rusia, Mongolia y China, sino también en Chipre, Bulgaria y Grecia.

En ningún momento escaparon a la influencia de las lenguas vecinas, especialmente el persa (algo así como el griego para nosotros), hasta el punto de que el sufijo persa *-stan*, que significa *territorio de* o *estado de* o *tierra de*, sirve para dar nombre a Afganistán, Azerbaiyán, Kirguizistán, Kazajstán, Tayikistán, Turkmenistán y también a Uzbekistán, con el significado de país de los uzbecos.

Los hablantes de alguna lengua túrcica son originarios del centro y norte de Asia. En aquella región ya se hablaban en el primer milenio antes de Cristo, y tal vez antes, y las utilizaban tribus nómadas dedicadas al pastoreo. Aquellas gentes, y las generaciones que le siguieron, se interesaron en extender sus dominios mediante conquistas encomendadas a sus guerreros. Y los guerreros se quedaban con el botín, pero entregaban los nuevos territorios a sus dirigentes, y los dirigentes formaron imperios que unas veces se dilataron y otras se encogieron, y con ellos se ensancharon o estrecharon sus lenguas. La situación geográfica actual muestra las idas y venidas, las victorias y las derrotas, y los restos de un dominio uniforme en hablas, pero diseminado y fragmentado entre fronteras políticas que no coinciden con las lingüísticas.

Irregular extensión de las lenguas túrcicas

LOS GLOTÓNIMOS. Aparecen en el siguiente cuadro diecinueve lenguas túrcicas, con la denominación que sugiero en la primera columna, otras maneras de nombrarlas en la segunda, el numero de hablantes (que, a falta de estadísticas lingüísticas fiables, hay que considerar siempre como aproximado y no siempre certero) y los países donde se transmiten como lengua materna.

LENGUAS TÚRCICAS Mi propuesta	**LENGUAS TÚRCICAS Otras propuestas**	**Hablantes En millones**	**Dominio lingüístico**
urco	--	82.000.000	Turquía, Chipre, Irán, Bulgaria, Uzbekistán, Grecia
azerí	azerbaiyano, azerbaiyaní	32.000.000	Azerbaiyán, Irán, Irak, Georgia, Rusia, Kazajstán y Armenia
uzbeko	--	31.000.000	Uzbekistán, Afganistán, Tayikistán Kirguizistán, Turkmenistán, Kazajstán y Rusia
kazajo	kazako	18.000.000	Kazajstán, China, Rusia, Mongolia, Kirguizistán, Uzbekistán y Turkmenistán
uiguro	uigur, uighur, uyghur	12.500.000	China: Xinjiang, y Kazajstán
turcomano	turkmeno	6.700.000	Turkmenistán, Irán, Afganistán, Uzbekistán
tártaro	--	6.200.000	Rusia: Tartaria y Basquiria. Uzbekistán y Kazajistán
kirguizo	kirguís, kirghjz	4.500.000	Kirguizistán, Uzbekistán, y China
basquiro	bashkir	1.500.000	Rusia: Basquiria.
chuvacho	chuvash, chuivasio	1.400.000	Rusia: Chuvachia
korasano	khorasan	1.000.000	Irán
caracalpaco	karakalpako	600.000	Uzbekistán: Karakalpakistán
yacuto	yakut, yakutio, sakha	450.000	Rusia: Yacutia.
cumico	Kumyk, kumiko	450.000	Rusia: Daguestán
cabardino-balkario	karchay-balkar	350.000	Rusia: Cabardino-Balkaria
tuvano	tuva	300.000	Rusia: Tuva (región sur de Siberia), China y Mongolia

gagaúzo	gagauz	150.000	Moldavia, Ucrania y Bulgaria
nogayo	nogai	87.000	Rusia: Cáucaso
kalajo	khalaj	28.000	Irán

GLOTÓNIMOS ESTABLES El **turco**, el **azerí**, el **uzbeko**, el **kazajo**, el **turcomano** y el **tártaro** son glotónimos estables. Algunos por tradición, y otros por afinidad fónica. Sus formas articuladas y ortográficas no ofrecen dudas. Unas veces porque el uso los ha ajustado, y otras porque la afinidad articulatoria se acerca. En **turco**, **uzbeco** y **kazajo** encaja con los usos hispánicos porque de la misma manera damos nombre al *italiano*, al *siciliano* o al *alsaciano*... En los tres casos el glotónimo coincide con el gentilicio. Señalemos, sin embargo, que *qazak* significa 'vagabundo', que es el rasgo que caracteriza al pueblo que habla esta lengua, palabra con la que se asocia también un significado de rebeldía. El kazajo es hablado por un pueblo tradicionalmente nómada y muy extendido por las estepas de Asia central, escenario de sucesivas migraciones.

Menos regular es el glotónimo de la lengua propia de Azerbaiyán, el **azerí**, considerada como una variedad oriental del turco, y muy cercana también al turcomano. El glotónimo convive con otros dos, azerbaiyano y azerbaiyaní, pero parece imponerse la forma primera. La raíz *azer* procede de la pronunciación descuidada del nombre de un general de Alejandro Magno, Atropates. Y la otra lexía, *baiyán* deriva del turco *bey*, que significa *'jefe'* o *'caudillo'*, a su vez relacionado con el griego *basileos* ('rey').

Glotónimos poco usados que pueden terminar en -o

Es frecuente, como hemos dicho, la terminación en -o en los nombres de las lenguas: *vasco, gallego, valenciano, italiano, siciliano, ruso, polaco, húngaro*… Sin embargo, no es habitual la consonante alveolar vibrante simple del español, *r*, que aparece en el infinitivo de los verbos. La grafía *sh* representa a una fricativa palatal sonora que no existe en español, pero sí en la pronunciación de *ch* en boca de hablantes del sur de España, especialmente andaluces.

Sugiero el final en 'o' para el **kirguizo**, lengua propia de Kirguizistán, **chuvacho** de la República de Chuvachia, y el **basquiro** de Basquiria. Y también para el **uiguro**, lengua de la administración, de la cultura y de la literatura del pueblo turco que vivió en el centro de Asia, al oeste de Mongolia, desde el siglo VIII hasta el XIV. Fue por entonces el idioma más importante de la región centroasiática conocida hoy como Xinjiang. Desde 1755 su dominio territorial pertenece a China.

Puede servir esta norma par la formación de otras lenguas señaladas también en verde en la tabla principal como **korasano**, **tuvano**, **gagauzo**, **nogayo** y **kalajo**.

La elección entre las grafías c, qu y k para la articulación oclusiva velar sorda.

La lengua española es polígráfica para el fonema oclusivo velar sordo, tan frecuente en estas lenguas. Podríamos escribir *túrkikas, *túrquicas, *túrcicas o incluso *túrcikas. Sería fácil regularizarlo si diéramos a cada grafía un solo uso y escribiéramos *kocina* y no *cocina*. Los niños españoles que aprenden a leer frecuentemente tropiezan al leer *coquina* o bien *zozina* en vez de *kocina.

Cabe por tanto hablar de la arbitrariedad en el uso de las grafías españolas *c, k*, y del bígrafo *qu*. La elección se presenta, fundamentalmente, en las cuatro lenguas señaladas en ocre en la tabla, el **caracalpaco**, **yakuto**, **cumico** y **cabardiano-balkar.** El **caracalpaco** es la lengua de más de medio millón de uzbekos que residen al sur y al oeste del mar Aral, en Karakalpakstán. El topónimo procede de la voz altaica *karakalpak* que significa *encapuchados negros*. Ya sugerí el glotónimo escrito con c en mi libro *Lenguas del mundo*, y no non k, para no herir una ortografía tan infrecuente en nuestras costumbres.

El **yacuto** es la lengua de la República autónoma de Yacutia, que pertenece a Rusia**.** Sus hablantes llaman *Sakha* a su territorio, que significa *'pueblo de los límites*'. La expansión de los mongoles en el siglo XIII separó a los hablantes de yacuto de las regiones del sudeste del dominio de las lenguas túrcicas. Sus leyendas les atribuyen el origen de su patria a las orillas del lago Baikal. Desde hace siglos el yacuto vive geográficamente separado de las lenguas de su familia. La región

fue explorada por comerciantes rusos en el siglo XVII. La capital, Yakutsk, ciudad fortificada, fue fundada por ellos en 1632 con fines comerciales. Los hablantes de yacuto se extienden por el curso del río Lena en el corazón de la Siberia, por un territorio que ocupa una extensión diez veces superior a la de España, pero muy despoblado. Si llamamos Yacutia a la región, bien podríamos usar la grafía c en el glotónimo.

La lengua propia de la república rusa de Daguestán es el **cumico**. La capital cultural del cumico es Buinaksk. La lengua recibe su nombre del pueblo, los kumyks, pero la grafía '*y*' confunde la transcripción, y unos la convierten en 'i', como corresponde al alfabeto latino, y otros en 'u', que es, más o menos, su lectura en cirílico. Y como la lengua se ha escrito con ambos alfabetos, hoy *cumico* y *cumuco* comparten uso. Durante largo tiempo los hablantes de *cumico* fueron amenazados por la expansión rusa hasta que la región fue conquistada en 1867. Desde entonces, como tantas otras lenguas túrcicas, necesitan al ruso como lengua vehicular.

Para la lengua propia de la región rusa de Karachaev-Charkess, el **carachái-balcar**, en la república rusa Kabardino-Balkaria, la propuesa parece evidente.

CONCLUSIONES

Hemos sugerido grafía y articulación para diecinueve lenguas túrcicas y sus certeros, inestables o más que dudosos glotónimos. El español necesitaría más de seis mil palabras para dar nombre a todas las lenguas del mundo, pero también las necesitaría el inglés, el vasco o el suajili y ninguna de esas lenguas las ha destinado ni ha de destinarlas en el futuro. La amplitud de bibliografía en inglés sobre las lenguas del mundo ha enriquecido considerablemente su patrimonio de glotónimos.

A medida que desciende el número de hablantes, disminuyen las posibilidades de darle nombre en otras lenguas, y si a esto añadimos que muchas de estas son huérfanas o semi-huérfanas en escritura, se entenderá mejor la inestabilidad de la glotonimia.

La lengua española dispone de unos pocos centenares de nombres de lenguas más o menos identificables y ya fijados, y de otro millar con nombres y ortografía inestables. Otras tres o cuatro mil posibles denominaciones sobreviven sin glotónimo hispano. Solo habrá que dárselo cuando sea necesario, si alguna vez hiciera falta.

LITERATURA:

1. COMRIE, Bernard, MATTHEWS, Stephen, PLLINSKY, Maria (Eds.), *The Atlas of Languages, The origin and development of languages throughout the world*, Facts on File, Londres, 1996.
2. COMRIE, Bernard (ed.), *The world's major languages* (2a ed.), Routledge, Londres, 2009.
3. DALBY, Andrew, *Dictionary of languages*, A & C Black Publishers, Londres, 2006.
4. DIXON, R. M. W., *The Rise and Fall of Languages*, Cambridge University Press, 1998.
5. GRIMES, Barbara (ed.), *Ethnologue: Languages of the World*, Summer Institute of Linguistics, *15a ed*., Dallas, 2005.
6. HAGÈGE, Claude, *La estructura de las lenguas*, Gredos, Madrid, 1987
7. JOHANSON, Donald, EDGAR, Blake, y BRILL, David, *From Lucy to Language*, Simon & Schuster, Nueva York, 2006.
8. MALHERBE, M., *Les langages de l'Humanité. Une encyclopédie des 3.000 langues parlées dans le monde,* Robert Laffont, París, 1995.
9. MORAL, Rafael del, *Diccionario de las Lenguas del Mundo*, Espasa-Calpe, Madrid, 2002.
10. MORAL, Rafael del, *Historia de las lenguas hispánicas contada para incrédulos*, Ediciones B, Barcelona, 2009.
11. MORAL, Rafael del, *Breve historia de las lenguas del mundo*, Castalia, Barcelona, 2014.
12. MORENO CABRERA, J.C., *El universo de las lenguas*, Castalia, Madrid, 2004

13. MOSELEY, Ch. y ASHER, R. E. eds., *Atlas of the World's Languages*, London, New York, 1994.

ЎЗБЕК ПЕДАГОГИК ЛУҒАТЧИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ҚИЁСИЙ-ЛЕКСИКОЛОГИК ЁНДАШУВ
COMPARATIVE LEXICOLOGICAL APPROACH TOWARDS THE DEVELOPMENT OF UZBEK PEDAGOGICAL LEXICOGRAPHY

Алметов Негматжан Шадиметович,
М.Ауэзов номидаги Жанубий Қозоғистон университетининг профессори, педагогика фанлари доктори

Аннотация: Мақолада замонавий ўзбек педагогик луғатшунослигини ривожлантириш билан боғлиқ муаммолар ва уларнинг баъзи ечимлари ўз ифодасини топган. Ўзбек педагогика лексикасининг бойиши билан бир қаторда мавжуд ва янги атамаларнинг ўзбекча талқинидаги ноаниқликларга эътибор берилган. Тилшунослик нуқтаи назаридан ўринли бўлган янги атамалар, баъзан педагогика фани мантиғига тўғри келмайдиган ҳолатлар атаб кўрсатилган. Ўзбек педагогик лексикографиясини бойитишнинг механизми сифатида қиёсий-лексикологик ёндашув, яъни терминларни бошқа халқлар педагогик лексикаси билан таққослаб, уларга ўзбекча ном бериш имкониятлари тавсия қилинган.

Калит сўзлар: *педагогик луғатшунослик, педагогик лексика, қиёсий-лексиколгик ёндашув, ўзбек педагогик терминологияси, янги педагогик атамалар, педагогик тушунчаларни талқин қилиш.*

Abstract: The article deals with the problems associated with the development of modern Uzbek pedagogical lexicography and some of their solutions. Along with the enrichment of the Uzbek pedagogical vocabulary at the present stage, there are inaccuracies in the interpretation of many existing and new pedagogical terms in the Uzbek language. As a mechanism for enriching the Uzbek pedagogical lexicography, a comparative lexicological approach is presented, which involves interpreting new pedagogical vocabulary by comparing it with terms in other languages.

Keywords*: pedagogical lexicography, pedagogical vocabulary, comparative lexicological approach, Uzbek pedagogical terminology, new pedagogical concepts, interpretation of pedagogical concepts.*

Рақамли жамиятда иқтисодий ва ижтимоий жадал ривожланиш, янги технологиялар жорий қилиниши, натижада инсон капиталига талабнинг тобора ортиб бориши таълим соҳасининг инновацион тартибда ривожланишини тақозо этади. Таълим тизимининг инновацияларга, демак илмий янгиликларга, илмий асосланган билимларга эҳтиёжи тобора ортмоқда. Шу боис педагогик лексика ҳам узлуксиз бойиб бормоқда. Ўзбек педагогик лексикасига янги ва янги терминлар кириб келмоқда. Бу ўз навбатида педагогик билимлар кенгайтишига, педагогик онг ва тафаккурнинг ривожланишига ўз ижобий таъсирини ўтказади. Аммо, иккинчи томондан педагогик лексиканинг бойиши, тилшунослар, педагог-олимлар ва таълим тизимида фаолият кўрсатаётган педагоглар учун бир қатор муаммолар туғдиради:

Биринчидан, янги педагогик терминлар таълим соҳасида меҳнат қилаётган, асосан амалий педагогик фаолият билан шуғулланувчи амалиётчи педагоглар учун тушунмовчиликлар, ноаниқликлар вужудга келтиради. Натижада илмий-педагогик ва ўқув-методик адабиётларни ўқиб-ўзлаштириш, уларни ўқув-тарбия жараёнида фойдаланиш, педагогик ижодкорлик билан шуғулланишда қийинчиликлар вужудга келади. Ҳатто бирдай педагогик матнни турли педагоглар турлича тушунишлари ва қабул қилишлари мумкин. Бу ўз навбатида амалиётчи педагогларнинг педагогика фанига, унинг амалий аҳамиятига бўлган ишончини озайтиради. Балки шу боис, амалиётчи педагогларнинг аксарияти педагогика фанидаги энг янги ва илмий

асослаб берилган билимлар ўз ифодасини топган илмий-педагогик адабиётларни зўр иштиёқ билан ўқимайдилар. Ҳозирда мактабдаги кўплаб муаммоларга педагогика фани аллақачон илмий жавоблар топганлигига қарамасдан, амалиётда бу билимлар ўз "харидорларини" топмаяпти. Ҳимяо қилинган диссертациялар, монографиялар, илмий мақолалар ва ҳисоботлар амалиётчи ўқитувчиларнинг амалда қўллайдиган маънавий мулкига айланмаяпти.

Бунинг асосий сабабларининг бири педаггик лекскика тобора мураккаблашиб, тушунарсиз бўлиб боришида, деб билиш мумкин.

Иккинчидан, педагог олимлар ва амалиётчи ўқитувчилар орасида услубиятчилар (методистлар) туради. Терминологик чалкашликлар уларнинг ҳам фаолиятига ўз таъсирини кўрсатади.

Учинчидан, ўзбек педагогик лексикаси ва лексикографиясининг ўзи модернизациялашга муҳтож. Турли илмий ва ўқув педагогик адабиётларда ҳатто асосий педагогик терминлар турлича талқин қилинганлиги ажаблантиради. Ҳа, педагогикада биргина "тарбия" деган категориянинг 150 дан ортиқ тушунчалари бор. Лекин уларнинг барчаси тарбия тушунчасининг асосий хусусиятларини деярли бирдай (тор ёки кенг маънода) изоҳлаб беради. Айни чоғда, педагогик адабиётлардаги баъзи терминларни изоҳлашда ноаниқликлар аниқ кўзга ташланади. Масалан, "таълим" ва "ўқитиш" тушунчалари бирдай маънода қўлланилади ёки ўқитиш жараёнини ифодалашда "таълим жараёни" тушунчасидан фойдаланилади. Шунингдек авторлар ўқитишни ташкил қилишнинг формалари ўрнига "таълим формалари", ўқитиш методларининг ўрнига "таълим методлари" каби тушунчаларни қўлланадилар. Бунда таълим жараёни ва ўқитиш жараёни бир-бири билан тиғиз боғлиқ тушунчалар бўлишига қарамасдан, ўзига хос хусусиятлари билан фарқланиши етарлича эътиборга олинмайди [Педагогика, 1996; Педагогика, 2007].

Шунингдек, баъзи бир педагогик терминларни ўзбек тилига таржима қилишда ҳам ноаниқликларга йўл қўйилган, деб ўйлаймиз. Масалан, "коллектив" тушунчаси педагогик адабиётларда "жамоа" деб ифодаланмоқда. Айни чоғда, "Жамоа" деганда бир тўда, гуруҳ кишилар тушунилади [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981:271]. "Коллектив" тушунчаси умумий мақсад сари интиладиган, бир хил фаолият тури билан шуғулланувчи, ўзаро ишчанлик ва дўстона муносабатда бўлган, ўз анъаналарига ва бошқарув органларига эга бўлган инсонлар гуруҳидир" [Алметов, 2001:56]. Ҳар қандай гуруҳ кишилар коллектив бўлавермайди. "Лекция" ўзбек тилидаги педагогик ва ўқув-методик адабиётларда "маъруза" деб ифодаланади, ваҳолангки, "маъруза" тушунчаси кўпроқ "доклад" тушунчасини ифодалайди. Лекциянинг эса белгилари ва хусусиятлари маърузадан анча фарқ қилади ва бу бошқа тушунчадир.

Ўзбек педагогик лексикографиясини такомиллаштиришдаги яна бир муаммо – янги терминларни ўзбекча талқин қилишдир. Бунда бир неча хил йўл тутиш (позиция) бўлиши мумкин:

- янги педагогик терминлар таржимасиз, асл нусхада қабул қилиниши мумкин, айниқса халқаро терминлар (масалан, педагогик инноватика, педагогик дизайн, Блум таксономияси, педагогик прогностика ва б.);
- ўзбек тилига таржима қилинганда маъносини йўқотмайдиган, қўллаш учун қулай бўлган педагогик терминлар (шакллантирувчи баҳолаш (форматив баҳолаш), жамловчи баҳолаш(суммативбаҳолаш);
- аралаш усулдан фойдаланиш (масалан, интерфаол ўқитиш усуллари (интерактив методлар).

Педагоглар учун янги терминларни ўзбекча талқин қилиш, унга ном бериш, албатта қийинчиликлар туғдиради. Бу ўринда тилшунос олимларнинг ёрдами жуда қўл келади. Аммо, педагоглар иштирокисиз педагогик мавзулардаги терминларни талқин қилиш ҳам тилшуносларнинг ноаниқликларга йўл беришига сабаб бўлади.

Ўзбек педагогик лексикографиясини такомиллаштиришнинг яна бир усули – бу *қиёсий-лексикологиялик ёндашув*. Педагогикага кириб келаётган янги терминларни талқин қилишда, уларга ўзбекча ном беришда фойдаланиладиган бундан ёндашув янги терминларни изоҳлашда қардош халқлар (туркий халқлар) педагогик лексикаси билан қиёслашни тақозо қилади. Чунки,

ўзбек тилида форс-тожик ва бошқа тиллардан олинган сўзлар ва терминлар кўп. Айни чоғда, қардош туркий халқлар педагогик лексикографиясининг ўзбек педагогик терминологиясида фойдаланиш мумкин бўлган имкониятлари мавжуд. Масалан, қозоқ тилида аксарият сўзлар ўзбек тилидаги сўзларга мос келади, аммо шакли ва талаффуз қилиниши ўзгача. Бироқ бу сўзлар педагогик ҳодисалар ва жараёнларни бошқа тиллардан олинмаган сўзлар орқали ифодалайди.

“Лекция” қозоқ тилида “дәріс” (дарс) деб таржима қилинади. Дарс тушунчаси қозоқ тилида «сабақ» (сабоқ) сифатида берилган. «Коллектив» тушунчаси «ұжым» (уюшган, жипслик) маъносида берилади. «Метод» ўзбекча адабиётларда «услуб» деб ёзилса, қозоқ тилидаги адабиётларда «әдіс» сифатида ифода қилинган. Шу каби янги кириб келаётган бошқа терминларни ҳам қиёслаб, ўзбек тилига яқинроқ, туркий тиллардан олинган атамаларни янги терминларни ўзбекча талқин қилишда фойдаланиш мумкин.

Қозоғистон педагогика фанлари академияси турли соҳаларнинг олимларини жалб этган ҳолда, педагогика соҳасидаги терминларни ҳар томонлама ўрганиб чиқиб, ягона тасдиқланган педагогик терминологияни қабул қилган. Бу миллий доирада педагогика фанлари ва таълим соҳасидаги расмий ҳужжатлар ва ҳисоботларда, ўқув ва ўқув-методик адабиётларда бирдай терминларнинг фойдаланилишига имкон беради[Кусаинов, 2011].

Хулоса қилиб айтсак, ўзбек лексикографиясини такомиллаштиришнинг яна бир самарали йўналиши - қиёсий атамашуносликни ривожлантириш, ўзбек педагогик терминологиясини ривожлантиришда қиёсий-лексикогафиявий ёндашувни жорий этишдан иборат.

Адабиёт:

1. Педагогика /А.Қ.Мунавваровнинг таҳрири остида. -Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Педагогика. 1 қисм. Педагогика назарияси. Олий ўқув юртлари учун дарслик./ М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. “Иқтисод-молия”.- Тошкент, 2007.-380 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ З.М.Маъруфов таҳрири остида.Т.1.- Тошкент: Рус тили нашриёти, 1981.-632 б.
4. Алметов Н.Ш. Педагогика: саволлар ва жавоблар.- Алматы, 2001.-212 б.
5. Интервью президента Академии педагогических наук Казахстана А. Кусаинова (подг. О. Лысенко)//http://www.elibrary.kz.

МАХМУД ҚОШҒАРИЙНИНГ «ДЕВОНУ ЛУҒАТИТ ТУРК» АСАРИ – ҚОМУСИЙ АСАР
MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG‘ATIT TURK" - COMMUNITY WORK

Ю.М.Ибрагимов,
Ажиниёз номидаги НДПИ
профессор. ф.ф.д.

Abstract: the articledeals with the description of the leksical laeyr”Devonu”byMahmud Kashgariyin the cjmpavative – historicalfspect with the southerm - Aral Uzbekdialekts. The author tdies comparativcly the singormonicvariants of the lexsical layev and distingvishes polisemantic, sinnymous and antonivouspecliarities. The vefsnsof cabgibgtheir forvuiis andmeaning lave proved n the basis of factvalmaterials.

Key words: Turkic languages, historical, phonetic, lexical, morphological, singormobistik variants etc.

Туркий тилларни, жумладан, ўзбек тилини тарихий-қиёсий аспектда ўрганишда Махмуд Қошғарийнинг «Девону луғатит турк» қомусий асардир. Асарнинг сўз бошида Маҳмуд Қошғарий ўз асарида туркий тилларини ўрганишда бир қанча тил хусусиялари катта ва ишончли манбалардан бири эканлигини, унда Маҳмуд Қошғарий фақат туркий қабилаларнинг тилларини изоҳлаб қолмай, балки туркий халқларининг фольклори, этнографияси, географик жойлашишларини ҳам акс этиргани, асарда турли диалектлар ва

уларнинг тил хусусияларини изоҳ қилгани, ўқилиши осон бўлиш учун изоҳланувчи сўзлардаги айрим ҳарфларга диаритик белгилар қўйгани қайд этилади. «Девону луғатит турк» асарида Махмуд Қошғарийнинг ўз давридаги туркий қабилалар тилларининг хусусиятлари тўғрисида маълумот берганлиги ва бу тилларини «турк» билан фонетик чоғиштириши кўрсатиб ўтилади.

Маҳмуд Қошғарий туркий тилларни тасниф этганда, ҳозиргидек бир-бирига қариндошлик, яқинлиги эмас, ушбу тилнинг табиий софлиги жиҳатдан бошқа тиллар таъсирининг қанчалик таъсир кўрсатгани нуқтаи назардан ёндошади. У ўзи атаб кўрсатган туркий қариндош тилларнинг ўзаро фарқини ажратмасдан асл ҳолатида қабуллайди-да уларнинг ичидаги ўзлашган сўзлар билан табиий ҳолатини бузаётган тилларнинг қанчалик барбод бўлаётганлигига боғлиқ гуруҳлайди.

Чиндан ҳам, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғатит турк” асарида XI аср туркий халқлари тилларининг фонетик, морфологик ва лексик-семантик, услубий хусусиятлари мужассам, ундан ҳозирги туркий халқларнинг ҳар бири ўз тили ва диалектларининг шаклланиши, такомиллашиш, тараққиёт босқичлари, этногенизи, давлатчилик тарихи, урф-одатлари, овчилик, балиқчилик, чорвачилик, бой деҳқончилик ва совда-сотиқ маданияти, кейинчалик эса моддий маданият (кийим-кечак, пойафзал, бош кийимлар, уй-рўзор анжомлари, асбоб-усканалар, хўжалик бинолари, газлама, безак, қурол-аслаҳа, эгар-жабдуқ, хўжалик анжомлари, музика асбоблари) тўғрисидаги, этноним ва топонимлар, қабилавий бўлинишлар, маиший предметлар, ҳайвон, парандалар ва ўсимликлар, қариндошлик ва қуда-андачилик, унвонлар ва турли туман лавозимларнинг атамалари, бир қанча афсонавий шахсларнинг номланиши, диний ва этник ҳамда боларлар ўйинларига тегишли маълумотлар берувчи ягона энциклопедик манбадир. Мана шу асосда аждодларимиз тилида луғавий бирликлар қарор топган. Масалан, “Девон”да *соч* сўзини *ту* ‘соч’, ‘тук’ деб изоҳлайди. Жанубий Оролбўйи ўзбек шеваларида *тук, тубит* каби ўзакдош сўзларнинг иккаласи учун ҳам *ту* асос саналалади. Жанубий Оролбўйи ўзбек шеваларидаги *тугин қоймәди, тугин қолдирмәди* турғун бирикмалари таркибидаги *тугин* сўзининг асоси *тук* сўзига бориб тақалади. Ёйинки XI аср луғатларида *ту, тук* сўзи ‘соч’, ‘қил’ маъносида қўлланганини инобатга олсак, шевалардаги *чачин йулди, джулди, тугин қалдирмади* бирикмалари тарихан синонимик паралеллар экани аниқ бўлади.

“Девон”да *ыш тукәди* каби бирикмалар фаол ишлатилади. Туркманистон Республикаси Илолли туманидаги ўзбек шеваларида туркман тилидаги каби *тукәди* феъли *тукеди* тарзида қўлланади. Адабий тилимиздаги *тугал* сўзининг асоси ҳам “тук”ка бориб тақалиши шубҳа туғдирмайди. Шундай қилиб, *тугал* сўзининг дастлабки маъноси ўзгарган бўлиб, умлаут ҳолатда *туга, тука* сўзи асосидаги жарангсиз **к** ундошининг жарангли **г** ундоши билан алмашиниши ўзбек шевалари учун қонуний ҳолдир. Сўз охирида келган **л** баъзи бир *қизил. яшил* каби сифатлар таркибида учрайдиган аффикс деб қаралади. Шу боисдан, қўшимча орқали равишга айланган сўздан махсус қўшимча орқали феъл асосидан равиш ясалган: *туга+л,* Жанубий Оролбўйи ўзбек шеваларидаги *тугал* сўзи *тукиш, дукиш, дугиш* - тўйда қўчқорларни уриштириш удуми ёки нарсаларнинг бир-бири билан тўқнаш келиб қолиши. Мазкур сўз ўғзтш. *тукәл, тукәллә*; йл. қпчтш. *тувәл, тувәллә*; жл. қпчтш. *тувел, тувелле* каби.

Жанубий Оролбўйи ўзбек шеваларида бирор нарсани кесиш учун *пычақ, пычқы, бычақ, бычқы* ‘арача’ қуроли ишлатилады. “Девон”да *бычды кесди, бычқы* ўрилган ер, *бычғу* сўзлари учрайди. *Пишув, пишган* маъносида *бышды, бышығ* сўзлари қайд қилинади. Демак, XI аср тилида **ш, ч** товушлари фонема сифатида сўз маъноларини фарқлаганда, икки хил сўз ясалган: бирида кесмоқ маъносининг **ч** фонемаси билан ифодаланганлиги, иккинчисида пишмақ **ш** фонемаси билан маънони фарқагани [2, 1165]. Дастлабки *быч* асоси Жанубий Оролбўйи ўзбек шеваларида *пичти, пичтирди, пычқы* сўзлари таркибида сақланган:

Махмуд Қошғарий “Девони”да изоҳланаётган ҳар бир сўз ўша даврдаги туркий тилларнинг барчаси учун умумий бўлса, унда шу сўзнинг қайси тилга тан эканлиги ҳақида сўз юритилмайди. Агар изоҳланаётган сўз ўша даврдаги туркий тилларнинг барчасига

тегишли бўлмаса, фақат бир халқ ёки муайян бир тоифа тилига хос ўзгачалик, кўриниши бўлса, унда унинг қайси халққа тегишли экани айтилиб, изоҳланади. Масалан, *ол йукунч етти* – у намоз ўқиди (ўғузча) каби. Жанубий Оролбўйи ўзбек шеваларининг ҳозир ҳам *юкунмоқ* феъли ўғуз ва йл. қипчоқ тип шеваларида *юкунди,* джелашган қипчоқ тип шеваларида *джугунди, 'табынды'*, '*бағынды',* 'сажда қилмоқ', 'бўйсинмоқ', 'таслим бўлмоқ', 'итоат этмоқ', 'топинмоқ' маъноларида қўлланади, ҳозирги қорақалпоқ, қозоқ тилларида ҳам *жугинди, табынды* шаклида худди "Девон"даги маъносида сақланган (3,125). Масалан, "Девон"да қипчоқча *іңир* 'кеч', 'қуёш уясига кирган пайт'; ўғузча. *імир* 'туман' сўзлари қпчтш. иңир қуёш уясига кирган пайт,эрта кеч; ўғзтш. имир туман. Баъзан бошқа тилга оид деб кўрсатилган сўзлар хам ДЛТ. *тунәк* 'зиндон', 'қафас' (I, 387) ўзбек тили ва унинг щеваларида *тунәк, тунек, таш тунек* 'коронғи', 'коп-коронғи' каби маънолардаги фарқи билан қўлланади.

Масалан, ДЛТ.*ашақ* 'тубан', 'қуйи'(I,97) – ўғзтш. *ашақ* 'ўша маънода', ДЛТ. *әкин* 'экин экиладиган ер'(I,197), ўғзтш. *әкин*. қпчтш. *йегин:иэгин,* ДЛТ. *қарынчақ* 'чумали', ўғзтш. *қарынжа*, қпчтш. *қумырсқа*; ДЛТ. *сәчә* 'чумчуқ' (III,238), ўғзтш. *сечә*, қпчтш. *чымчық*, оркен 'қайыш'(I, 132), ўғзтш. қпчтш. *арқан, йип;джип* ДЛТ. *мамуқ* момиқ 'бўш', 'чигитидан ажратилган пахта'(I, 300), ўғзтш., қпчтш. пахта, мамық бўщ, юмшоқ, чигитидан ажратилган пахта, ДЛТ. *әйлә* 'шундай'(I, 137), қпчтш. *әйлә* эгалла, 'ҳимоя қилмоқ', 'бағишламоқ', ДЛТ, *тақуқ* 'товуқ'(II, 330), ўғзтш, қпчтш. *тавуқ,* ДЛТ. *узлук* 'ағил', 'молхона'(I,124), ўғзтш *ағыл,* қпчтш. *қора, малхқана*, ДЛТ. арғуча, арғу ва шунга яқин тоифалар тилига хос *бенек* 'дон', 'уруғ' (I,367) сўзи- ўзбек адабий тилида *данак,* ўғзтш. *бежәнәк,* қпчтш. *мужәнәк, муженек* тарзида қўлланади.

Маҳмуд Қошғарий томонидан айрим сўзлар бир диалектда муайян бир шаклда бўлса, иккинчи диалектда унинг ўрнида бошқа сўз қўлланилган бўлса, уни ҳам алоҳида таъкидлайди. Масалан, бошқа турклар идиш, коса, пиёлани *айақ* десалар, ўғузлар унинг ўрнида *джанақ* 'чанақ' сўзини қўллаганлар (I, 112) - ўғзтш. йл. қпчтш. *чанақ*, қўнғ., шумн. қонлк. *чанақ* сўзи билан *айақ* варианти параллел ишлатилади.

«Девон»да туркларда і*ңәк* сигир маъносида, ўғузлар *тошбақанинг эркагини* шу сўз билан атаган (I,135), ўзбек тилининг тўрткўл-элликқалъа, бухоро, шимолий ўзбек ўғуз тип шеваларида *инәк* сигир маъносига эга, бошқа турклар ошхонани *ашлиқ,* ўғузлар буғдойни *ашлық* деганлар (I,137), Жанубий Оролбўйи ўзбек шеваларида *ашлық* - *егулик* учун ажратилган дон, озиқ-овқат маҳсулоти, бошқа турклар *қурт* (ҳашорат)ни *қурт* деганлар, ўғузлар бўрини *қурт* деб атаганлар (I,328). ҳозир туркман тилида ҳам бўрини *қурт* дейди.

Қисқаси, «Девону луғатит турк»да ўз даврининг қомуси сифатида турли халқларнинг тарихи, ижтимоий-иқтисодий ахволи, урф-одати, жўғрофияси, табиий шароити, этнографияси, диалектологияси ҳамда халқ оғзаки ижоди намуналаридан ҳам қимматли материаллар ўз ифодасини топган.

АДАБИЁТЛАР:

1.Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент: Ўқитувчи. 1982.-248 б.

2. Айдаров Ғ., Куришжанов А., Томанов М. Коне турк "жазба" ескертеш теркштериң тили. –Алматы: Мектеп. 1971. -272 б.

3. Кашгары Махмуд. Развитие древнетюрских языков (на казакском языке). –Алматы: Ана тілі.1992, -192 б.

4. Махмуд Қашғарий. Девону луғатит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталибов I-III.-Тошкент: Фан. 1960-1963.

5. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А.А. Ўзбек адабий тили тарихи.-Тошкент:Ўқитувчи. 1995. -264 б.

NAVOIY ASARLARIDAGI SHAKLDOSHLIK HOSIL QILUVCHI SO'ZLAR TAHLILI
ANALYSIS OF HOMONYMOUS WORDS IN THE WORKS OF NAVOI

M.Abdulxayrov,
ToshDOTAUdotsenti,
Filologiya fanlari doktori

Abstract: the article analyzes the lexical and semantic features of homonymous words in the work of Alisher Navoi on the basis of linguistics.
Keywords: *method, principle, text, work, homonymous, analysis, words.*

Bugun Navoiy asarlarini keng targ‘ib etish, uning ilmiy asoslangan matnlarini tiklash va hozirgi o‘zbek yozuvida chop etish tadqiqotchilardan o‘zbek tilshunosligi rivojidagi umumiy va xususiy jarayonlarni sinchiklab, puxta o‘rganish va yozma yodgorliklari bo‘yicha filologik tadqiqotlar olib borish sohasidagi nazariy umumlashmalarni bilish hamda va matnshunoslikning shakllanish jarayonini, uning umuman matn tarixi muammosini yaxshi bilishini taqozo etadi. Bu borada, ayniqsa, matn tarixini o‘rganish sohasida o‘tgan davr ichida bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelganligini ta’kidlash lozim. Zero, Navoiy asarlaridagi badiiy vositalarning bir qismi shakldosh, ya’ni bir-biriga shaklan o‘xshash so‘zlarga asoslangandir. Shakldoshlikning chegarasi bor. Bu hol shoir asarlarida tajnis san’ati orqali sodir bo‘lgan.

Navoiy boshqa san’atlar qatori tajnisdan ham juda o‘rinli foydalanadi:

Qilsa jonon ollida jonim Tufayl o‘lmoqqa mayl,
Kosh yuz jon o‘lsakim, har dam birin qilsam tufayl [Alisher Navoiy, 1987: 322].

Tufayl [*a.* **طفيل**] 1. Chaqirilmagan mehmon, o‘zi chaqirilmagan bo‘lsa ham, chaqirilgan kishilar qatorida, ularga ergashib, to‘y-ma’rakalarga boruvchi. 2. Sabab, bois, bahona, vaj-korson, vosita. 3. Arablar qabilasiga mansub Umayya avlodidan bo‘lgan Tufayl ismli shaxs – u juda kambag‘al, faqir bo‘lganligi tufayli birovlarnikiga mehmondorchilikka ham bora olmagan.

Bu baytda Navoiy shaxs nomi «Tufayl» bilan «sabab» ma’nosidagi «tufayl» so‘zlarining shakldoshligidan juda mohirona foydalangan. Yoki: Savt I **[سوت]** Qamchi. Savt II **[صوت]** 1. Tovush, ovoz; shovqin. 2. Ohang, kuy, maqom.

Savtin-noqus **[صوت الناقوس]** Aruz bahrlaridan biri (katta qo‘ng‘iroq ovozi). To‘rtunchi doiraning ikkinchi bahrikim, mutadorik bahridur va ani «rakz ul-xayl» va «savt in-noqus» ham derlar... » [Alisher Navoiy, 2000: 87].

Akademik Alibek Rustamov ham shoir asarlari matnidagi bu kabi shakldoshlarni quyidagicha izohlaydi: «Tab» «isitma» va «harorat» so‘zlarining ma’nodoshidir. «Tob» shakliga ega bo‘lgan ikkita so‘z bor. Biri jilo ma’nosida bo‘lib, hozirgi «tovlanish» so‘zi shu o‘zakdandir. Ikkinchisi o‘rim, chirmash ma’nosidadir. Yana «tob» ko‘chma ma’noda quvvat, sog‘lomlik va shunga o‘xshash ma’nolarda ham ishlatiladi. «Gesu» deb o‘rilgan sochga aytiladi. Navoiy o‘zining bu baytida «tob» ning hamma ma’nolaridan birdan foydalangan, ya’ni soch, birinchidan, o‘rilgan, ikkinchidan, yaltiroq, uchinchidan, baquvvat (qalin va uzun). «Tob» bilan «tab» ning ma’naviy munosabatidan quyidagi uch fikr kelib chiqadi: 1) oshiqning jismi yonadi, lekin yonish natijasi bo‘lmish jilo ma’shuqaning sochida; 2) kasallik oshiqda, lekin sog‘lomlik ma’shuqada; 3) yonish oshiqda, lekin to‘lg‘anish ma’shuqada, ya’ni oshiq har qanday azobga chidaydi…» [Rustamov, 1979: 30–73].

Shu jihatdan, uning nazmiy asarlari bilan bir qatorda, nasriy asarlari tarkibiga kirgan she’riy parchalarning badiiy malohatini o‘rganish va tadqiq qilish o‘rinlidir. Chunki Navoiyga xos bo‘lgan badiiy mahorat uning keng hajmli asarlari va lirik kulliyotidan tashqari kichik she’riy parchalarda ham o‘z aksini topgan. Biroq, Navoiy asarlarining joriy tabdillarida bu masalada ham oqsoqlik mavjud. V.Rahmonov yozadi:

*«Ilm aflokida **bir jis** mahal*
*Barcha **ashkol o‘lum** ollida hal* [Alisher Navoiy, 2000: 483].

Birgina baytdagi to‘rt so‘zning xato o‘qilgani, ya’ni «bir jis, ashkol, o‘lum» so‘zlari kitobxon fikr-idrokini boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yadi...

Chunki «jis» degan so‘z yo‘q. «Birjis» so‘zi paydo bo‘lgach, kalavaning uchi topiladi, ya’ni Mushtariy sayyorasi nazarda tutilganini anglaymiz...:

Ilm aflokida Birjis mahal

(Mazmuni: Ilm osmonida davr Birjisi).

Nashrga ishonsak, ikkinchi misra quyidagi mazmunni beradi:

Barcha shakllar o‘lum oldida hal bo‘ladi. Afsuski, baytdagi misralar mazmunan bir-biridan juda yiroq... «Hal» so‘zi menga «ashkol» so‘zini tahrir qilishga turtki beradi. Nimani hal etish kerak? «Ashkol»ni. Axir «ashkol» (shakllar)ni qanday hal etish mumkin? Demak, bu so‘z asliyatda «ishkol» (muammo) bo‘lsa kerak.

Barcha ishkol o‘lum ollida hal.

Arab yozuvida «ulum» va «o‘lum» shakldoshdir. Shunga ko‘ra, «o‘lum»ni «ulum» (ilmlar) so‘zi bilan almashtiramiz:

Barcha ishkol ulum ollida hal.

Vaznni tuzatish uchun «barcha»ni «borcha»ga o‘zgartiramiz. Va «ishkol» bilan «ulum» so‘zlari aloqasini yo‘lga qo‘yish uchun «ishkol»ga «i» izofasini qo‘yamiz:

Borcha ishkoli ulum ollida hal.

Shunday qilib baytni sahih holatga keltirdik:

Ilm aflokida Birjis mahal,

Borcha ishkoli ulum ollida hal.

Mazmuni: U ilm osmonidagi zamona Birjisidir. Ilmlarning har qanday muammolarini u hal qila oladi... » [Rahmonov, 2015: 368–369].

Xullas, barhayot falsafiy g‘oyalar, badiiy fikrlar, o‘ziga xos g‘oya va chuqur mazmun singdirilgan bunday shakldosh so‘zlar badiiyatini qancha ko‘p o‘rgansak, Navoiyni shunchalik chuqur tushunamiz va bizga ma’lum bo‘lmagan badiiy mahorat qirralarini kashf eta boramiz. Oldimizda turgan eng muhim muammolardan biri ulug‘ shoir asarlaridagi shakldosh so‘zlarni aniqlash va ularni Alisher Navoiy asarlarining keyingi tabdillariga joriy qilishdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan, 1987. – B. 322.
2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan, 2000. – B. 87.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. VI jild. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2013. – B.483.
4. Rahmonov V. Mumtoz so‘z sehri. – T.: O‘zbekiston, 2015. – B.368–369.
5. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1979. – B. 30–73.

TURK TILI LUG‘ATCHILIGI AN’ANASIDA IZOHLI LUG‘AT YARATILISHINING O‘RNI VA AHAMIYATI
THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE CREATION OF AN ANNOTATED DICTIONARY IN THE TRADITION OF TÜRKISH LEXICOGRAPHY

Z.N.Xudaybergenova
Bartin universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Abstract: This article discusses the impact of the radical change in the Türkish state system on the Türkish language and the reforms carried out in Türkey in the early twentieth century. İn particular, the factors and reasons for the development of Türkish lexicography in the republic are described. The history of the Türkish Dictionary, one of the main sources in the Türkish language, and the 11 publications published in the past are analyzed.

Key words*: Türkish language, language revolution, dictionary, lexicography, “Türkish dictionary”*

Turk tilining taraqqiyot bosqichiga nazar tashlansa, tilga tashqaridan ta’sir, asosan, XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrda kuzatiladi. Bu davrga qadar juda ko‘p sinovlar, turli islohotlarni o‘z boshidan kechirgan turk tili Turkiya Respublikasi tashkil etilgandan keyin jamiyatda amalga oshirilgan qator jiddiy islohotlar orasida muhim o‘rin olgan “Til inqilobi” (Dil Devrimi) natijasida yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu islohotning asosiy maqsadi turk tilining lug‘at boyligi, uning funksional (vazifasi) uslublarini qayta tiklash, grammatik va uslubiy me’yorlari, imlo qoidalarini tartibga solishdan iborat edi.

O‘sha davrlarda Turkiyadagi yangi ijtimoiy munosabatlar adabiy tilni yangi bosqichga chiqarish, yozuv me’yorlarini demokratlashtirish va ularni xalq og‘zaki nutqiga yaqinlashtirishni taqozo etar edi.

Tilni isloh etish tadbirlaridan eng muhimlari usmonli turchasining turk tili deb o‘zgartirilishi va arab yozuvidan lotin grafikasiga asoslangan, turk tilining tovush tarkibiga to‘la mos keluvchi yangi turk yozuviga o‘tishi, shuningdek, 1929 yildan boshlab turk maktablarida arab va fors tili darslarining bekor qilinishi edi.

Alohida shuni ta’kidlash lozimki, XX asrning 30-40-yillarida turk tilini milliylashtirish, uning ichki zahiralaridan foydalanilgan holda lug‘at boyligini oshirish, sof turkcha so‘zlar yaratish, uni grammatik hamda leksik tarafdan to‘g‘ri qo‘llash, morfologik tahlil qilish kabi islohotlarni hal etishda “Turk tili qurumi” tashkilotining hissasi beqiyosdir(Dilaçar, 1962; Aksoy, 1963). Ushbu tashkilot tomonidan o‘tgan yuzyillikning birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar turk tilining rivojlanishiga samarali ta’sir o‘tkazdi. Ana shu faoliyatini o‘rganish tilshunoslik uchun muhim hisoblanadi.

Turk tilining rivojlanishidagi muhim bosqich turk tili inqilobi davri bo‘lib, bu davr bilan bog‘liq jihatlar ko‘pgina tarafda hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. 1932- yilda Turkiyada Mustafo Kamol Otaturk tomonidan amalga oshirilgan turk til inqilobi turk tilining keyingi davrdagi rivojlanishi va takomil bosqichlarini belgilab berdi(Korkmaz, 2001 : 111-119).

Otaturk 1936-yilda Turkiya millat majlisining 5-chaqiriq 2-sessiyasining ochilishida shunday nutq so‘zlagan:“Ta’lim vazirligi, Turk tarix qurumi va Turk til qurumining har kuni yangi haqiqiy marralarga erishayotganini, jiddiy, to‘xtovsiz faoliyatlarini faxr bilan tilga olmoqchiman. Bu ikki milliy qurumning tariximiz va tilimizning zulmat ichida unutilgan nuqtalarini, dunyo madaniyatidagi ibtidoning timsoli ekanligini, qabul qilsa bo‘ladigan ilmiy ma’lumotlarni o‘rtaga qo‘ygan sari, faqat turk millatining emas, butun bilim dunyosining diqqatini tortgan va sergaklantirgan ulug‘ bir vazifani amalga oshirayotganini ishonch bilan ayta olaman. Tarix qurumining Alajahoyukda olib borgan qazishmalari nihoyasida topgan 5 500 yillik moddiy turk tarixiy ma’lumotlari jahon madaniyati tarixini qaytadan ko‘rib chiqishni va mulohaza yuritishni taqozo etadi. Bir nechta Yevropa olimlari ishtirokida o‘tkazilgan oxirgi Til qurultoyining nurli yakunini ko‘rishdan baxtiyorman. Bu milliy qurumlarning tez fursatda milliy akademiyalarga aylanishini xohlardim. Buning uchun mehnatsevar tarix, til va ilm fidoyilarining ilm dunyosi ahli tomonidan tan olinadigan haqiqiy asarlari ko‘rib baxtiyor bo‘lishingizni tilayman…”(TS, 2005 : 5).

Otaturkning shaxsan o‘zi turli ilmiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni kuzatib borib, xususan, davr slohiyatli ilm odamlarini turk tili bo‘yicha izlanishlarni amalga oshirishga undagan(Aksan, 2005). Alal xusus, turk tilining eng qadimiy yodgorligi bo‘lgan ko‘kturk (Run) yozuvi matnlarining dastlabki ikki jildi uning hayotligida nashr etilgan, “Devonu lug‘at-ut turk”, “Qutadg‘u bilig” kabi asarlar ustida ham uning hayotligi davrida ishlana boshlangan. Keyinchalik yaratilgan bir necha jildlik “Tarama Sözlüğü” va “Derleme Sözlüğü” lug‘atlariga oid ishlar ham Otaturk hayotligida boshlangan(Tekin, 1975 : 488). “Tarama Sözlüğü” lug‘ati XIII asrdan boshlab turkiy yozma yodgorliklar tilini o‘rganish natijasida ajratib olingan so‘zlardan tuzilgan bo‘lsa, “Derleme Sözlüğü” lug‘ati Onadolu shevalarida qo‘llanuvchi so‘zlarning to‘planishi natijasida tartib berilgan katta hajmli lug‘atlardir. Hozirgi turk tili grammatikasi, lug‘ati, imlosi va terminlari bilan bog‘liq ishlar Otaturk tomonidan qiziqish bilan kuzatib borilganligi yuqorida ham qayd etildi. Turk tili qurumi tashkil topishi bilan zamonaviy turk tilida bo‘yicha juda tez sur’atda ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lami kengaydi. Shaxsan Otaturk rahbarligidagi turk tilining chet tili so‘zlardan tozalash oqimi 1935-yil kuzga qadar davom etgan. Xalq so‘zlashuv nutqiga

kirib o‘rnashib qolgan so‘zlarni iste’moldan chiqarib tashlash ishidan ham aynan mana shu yil voz kechilgan. Otaturk o‘limidan keyin asl turk tili oqimi turk ziyolilari o‘rtasida davomli bahs-munozaraga sabab bo‘lgan, shunday bo‘lsa-da, 1960-yildan keyin Turk tili qurumi bu oqimga yetakchilik qilgan. Otaturk o‘limidan biroz oldin yozgan vasiyatnomasiga binoan binoan mol-mulkini Turk tili qurumi va Turk tarixi qurumi tashkilotlariga qoldirgan. Meros hozirgi Turkiyaning eng katta banklaridan biri bo‘lgan Turkiya İsh bankida saqlanmoqda va qayd etilgan tashkilotlarning byudjeti hozirgi kunda ham Otaturk merosidan to‘lanmoqda(Akarsu, 1978).

XX asr boshlaridagi Turkiyada amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, til islohotlari yuzasidan Turkiyada va boshqa chet davlatlardagi bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Ogohsirli Livand, İchnech Kunos, Fredrik Jeys, Etori Rossi, Ayrel Xayt, Muharrem Ergin, Mehmet Hengirmen kabi olimlar va bir qator chet el olimlari tadqiqotlar olib borishgan((Tekin, 1975 : 488; Ercilasun, 2013 : 16). Mazkur tadqiqotlarda turk tili yuzasida amalga oshirilgan islohotning, ya’ni turk til inqilobining bir qancha jihotlari atroflicha ko‘rib chiqilgan. Xususan, XX asr boshlaridagi atamashunoslik masalalari turli xil omillar tomonidan u yoki bu darajada tahlil doirasiga tortilgan bo‘lsada, hanuzgacha bu mavzu bir to‘xtamga kelgan emas. Bu o‘rinda 1928-yil yangi turk alifbosi qabul qilingach, tildagi turli jarayonlar va o‘z tamoyillariga ega bo‘lgan turkcha izohli lug‘atlar haqida to‘xtalib o‘tish lozim. İlk turkcha izohli lug‘at 1945-yilda TDK tomonidan tuzilgan bo‘lib, unda til inqilobi ta’siri o‘z aksini topgan(İmer, 1999 : 35).

1945-yildan boshlab izohli lug‘atlarning sakkizta nusxasi nashr etilgan. Bu lug‘atlar turk tilining eng muhim manbasi deb hisoblanadi. Asosiy lug‘atlar sifatida tan olingan bu kitoblar turk tilining barcha xususiyatlarini o‘z ichiga olganligi bilan boshqa lug‘atlardan ajralib turadi.

TDK tomonidan tayyorlangan va nashr qilingan izohli lug‘atning birinchi namunasi avvalgilaridan ba’zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu farqlardan maqsad esa “taklif kiritib o‘zgartirilgan so‘zlar lug‘ati”ni tuzish edi. Bizga ma’lumki, tarihda “Til inqilobi” deb nom olgan jarayon natijasida katta miqdordagi so‘zlar turkchalashtirilgan hamda barcha lug‘atlar yangi o‘zgarishlarga binoan nashr qilingan. Shu maqsad yo‘lida yangi alifbo tuzilishi bilan til anjumani o‘tkazilgan. Anjumanda avvalgi lug‘atlarga tayangan holda ularni yangilab, katta manba yaratish maqsad qilib olindi.

Shu sababli 1939-yilga qadar yaratilgan lug‘atlardan qoniqmagan TDK yanada mukammal bo‘lgan izohli lug‘at tuzishga qarorini qiladi. Bu lug‘atning maqsadi kitobning so‘z boshisida shunday ifodalanadi: “Har xil tushunmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun shuni ta’kidlash lozimki, bu lug‘atni yaratishdan asosiy maqsad, chetdan kirib kelayotgan oqim ta’siriga tushib qolmaslik va har jabhada foydalanishi umid qilingan turkcha so‘zlar uchun yaxshi bir manba taqdim etishdir”(TS, 1988 : 11). Lug‘at tarkibiga kiritish uchun xalq orasida qo‘llanilayotgan so‘zlar yoki qo‘llanilishi kutilgan turkcha so‘zlar, iste’molda bo‘lgan o‘zlashma atamalar va ular bilan aloqador o‘zlashma so‘zlar tanlab olingan. Turkcha lug‘atning birinchi nashriga kiritiladigan so‘zlar 3 guruh holida belgilandi: 1.Tilda ishlatilayotgan yoki qo‘llanishi kutilayotgan turkcha so‘zlar. 2. Qaysi tildan olinganiga qaramay atama sifatida olingan va ishlatilgan so‘zlar. 3. Bugungi jonli muloqot yoki yozuv tilida qo‘llanilayotgan o‘zlashma so‘zlar.

Rasmiy ravishda 1939-yilda boshlangan bu sa’yi-harakatlar natijasida 1945-yilda lug‘atning ilk nusxasi nashr qilindi(TS, 1945). Bu asarning yaratilish jarayonida ishboshida turgan TDKning bosh kotibiyati vakili bo‘lgan Hasan Rashit Tankit lug‘at loyihasini tuzadi, so‘ngra o‘z ishlarini lug‘at-filologiya sohasining rahbari Ali Janip Yo‘nga topshiradi. Biroq ozgina vaqt o‘tgach Ali Janip Yo‘nning betobligi tufayli bu lug‘at ishiga Mehmet Ali Ag‘akay mas’ul qilib tayinlanadi(İnan, 1998). Lug‘at tuzilish tartibi ancha tortishuvlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, keng iste’molda qo‘llanildi. Bu lug‘at 65 ming nusxada nashr qilingan edi. 1945-yilgi lug‘atning nusxasiga tayangan holda, 1955-yil kitobdagi ba’zi kamchiliklar bartaraf etilgan va so‘zlar ko‘lami, hajmi kengaytirilgan ikkinchi nusxasi chop etildi. Turkcha izohli lug‘atning ikkinchi nashri ham Mehmet Ali Ag‘akay boshchiligidan yaratildi.

Faqat jahondagi ilm-fan sohasidagi yangi kashfiyotlar, yangi ijtimoiy yondashuvlar sababli turk tili leksikasi to‘xtovsiz rivojlanib borayotganligini nazarda tutgan Turk tili qurumi tashkiloti lug‘atni qaytadan ko‘rib chiqib, bir tarafdan yangi so‘zlar bilan boyitish, boshqa tarafdan, birinchi

nashrdagi kamchiliklarni barataraf etish, notoʻgʻri kiritilgan izohlarni chiqarish va shu tarzda lugʻatni yanada takomillashtirish uchun yillar mobaynida toʻxtovsiz ish olib bormoqda (Korkmaz, 2001 : 111-119). Shu maqsadda turli davrlarga oid qadimgi yozma yodgorliklar, yangi kitoblar tili, jurnallar va gazetalar leksikasi oʻrganib chiqilmoqda, bundan tashqari, turk ogʻzaki soʻzlashuv nutqi materiallari, televidenie va radio koʻrsatuvlarda qoʻllaniladigan leksikaga ham diqqat qaratilmoqda. Demak, turk tili lugʻatchiligi soʻzliklarni boyitish yoʻlida butun kuch-qudratini safarbar etgan, desak, yanglish boʻlmaydi.

1959-yilda bosilgan Turkcha lugʻatning 3-nashri ham Farid Develli oʻgʻluning yordamida Mehmet Ali Agʻakay tomonidan chop etildi. Xuddi shu mutaxassislar yordamida 1966-yilda lugʻatning 4-nashri bosildi. Bu nashr tuzatishlar nihoyasida xastalanib doʻst va birodalari fikriga koʻra "mangu hayotga qovushgan" Mehmet Ali Agʻakay xotirasiga bagʻishlandi. Turkcha lugʻatning 5-nashri yana 3 yildan soʻng nashr etildi. Kamol Demiray rahbarligidagi S.G. Aksol, S.Buluch, B.K. Chagʻlar kabi mutaxassislar yordamida, F.Devlliogʻlu, K.Alkan va N.Kilichkimlarning hissasi bilan tayyorlangan ushbu nashrning 1966-yilgi 4-nashrdan anchayin farqli tomonlari borligi aytib oʻtilgan:

"Turkcha lugʻatning bu nashrida 4-nashrga koʻra muhim hissoblanuvchi baʼzi oʻzgarishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, juda eski va hozirgi kunda qoʻllanilmayotgan soʻzlar chiqarildi, aksincha, koʻp qoʻllanilayotgan, lekin lugʻatga kiritilmagan baʼzi soʻzlar eʼtiborga olindi. Oʻzlashgan soʻzlarning mos keluvchi ekvivalenti boʻlsa, foydalanuvchilarga kerak boʻlishi mumkin degan fikrda, ularni ham hozircha keng tarqalgan soʻzlarning yonida koʻrsatilishi maʼqul deb hisoblandi"(TS, 2005 : 13).

Beshinchi nashrdagi singari, K.Demiray rahbarligida bir necha mutaxassislarning gʻayrati bilan 1974-yilda 6-nashr, 1974-1983- yillar davomida TDKda lugʻat ishi rahbarligini bajargan M.Jonpoʻlat, K.Demiray, S.Tezjan boshchiligida va K.Alkan, A.Aysan, T. Uch kabi bir necha mutaxassislarning mehnati bilan 1983-yilda turkcha lugʻatning 7-nashri ikki jild holida bosildi. 1988 yilda chop etilgan Turkcha lugʻatning nomi "Yangi nashr"dir. Biroq bu lugʻatga 8-nashr deb qayd etilmagan. Bu nashrning eski nashrlardan farqli jihatlari boʻlishi bilan birga, soʻzlarning koʻpi yozuvchi va shoirlar ijodi, xalq ogʻzaki soʻzlashuv tilidan olingan soʻzlar bilan boyitilgan. Shu sababli ham, ehtimol, turkcha lugʻatning 1988-yilgi bosmasiga 8-nashr deb yozilmagan. Yangi nashrda koʻplab soʻzlarning shakllarining oʻzgartirilganligi diqqatga sazovor. Boshqa tarafdan, ushbu lugʻat Turk tili qurumining 1980-yillar oxiridagi yangi maqomi Otaturk madaniyat, til va tarix yuksak tashkiloti Turk til qurumi nashridir. Yangi nashr H.Eren boshchiligida N.Goʻzaydin, İ.Parlatir, T.Tekin, H. Zulfikarlar yordamida tayyorlangan.

Turkcha lugʻatning barcha sakkizta nashrini solishtirib koʻrsak, har nashrda oʻsish, takomillashish borligini aytishimiz mumkin. Lugʻatga olingan soʻzlar sonini nazarda tutsak, eng katta oʻsish 1993-yilgi 7-nashrda ekanligi oʻz aksini topgan. Buning aksi 4-nashr (1969) eng kam koʻrsatgichga ega. Ushbu 8- nashr boʻyicha oʻzlashgan soʻzlar mahalliy soʻzlardan kam boʻlsa ham, ularning qoʻllanilish darajasi baland koʻrsatkichda ekanligi kuzatilgan. Xullas, Turkcha lugʻatlarda begonalashuv (chet el soʻzlarini oʻzlashtirish) koʻrsatkichi, turkchalashish koʻrsatkichidan koʻproq. Ushbu vaziyat ilk nashrda qoʻyilgan maqsaddir.

Turkcha lugʻatlarda arab, fransuz va fors tilidan oʻzlashgan eng koʻp qoʻllaniluvchi soʻzlar guruhi paydo boʻldi. Koʻplab fransuzcha soʻzlar 4-nashrdan tashqari, 8-nashrgacha boʻlgan lugʻatlarga kirdi. Arabcha soʻzlar asosan 5-nashrdan boshlab lugʻatdan chiqarildi, faqat keyinchalik 8-nashrgacha boʻlgan lugʻatlarda arabcha soʻzlar miqdori koʻpayib ketdi. Turkcha lugʻatning 8-nashri (Yangi nashr,1988) lugʻatga soʻz olish jihatidan oʻzlashgan soʻzlarning oʻz qatlam soʻzlariga eng yaqinlashgan nashri boʻldi. Qisqacha qilib aytganda, yangi nashr oldingi nashrlarning barchasida kuzatilgan umumiy qoidalarga boʻysunmaslik va bu qoidalarning ham son jihatidan anchayin kamayganligi bilan diqqatni tortadi. Masalan, lugʻatga olingan soʻzlar miqdori nashrda anchayin pasaydi. Sof turkcha soʻz boyligini koʻpaytirish maqsadida yozuvchi va shoirlarning asarlari koʻzdan kechirilib, ulardan olingan soʻzlar, xususan, xalq muloqotida qoʻllanilayotgan soʻzlar ham lugʻatga kiritildi. Shu bilan birga ilmiy nashrlar ham koʻzdan kechirilib, ilmiy tilga oʻzlashgan va ilmiy maqolalarda qoʻllanayotgan yoki tortishilayotgan atamalar ham lugʻatning

yangi nashriga kiritildi. Nashrga tayyorlovchilarning avvagi va yangi nashrlarda qo‘llanilayotgan so‘zlarni kiritish bilan cheklanganliklari, avvalgi va yangi so‘zlar o‘rtasida qandaydir farqlar mavjudligini ko‘rsatish fikridan yiroq ekanliklari so‘z boshida alohida ta’kidlanadi. Turk tili qoidalariga muvofiq hosil qilingan so‘z va ma’nolarning tilda muqim qolajagiga urg‘u berildi. Lug‘atning bu nashridan 46.825 bosh so‘z, 16.496 yasama so‘z, jami 63.321 so‘z joy oldi. Lug‘at jami 115.000 nusxada bosilgan.

Sakkizinchi nashrdan o‘n yil o‘tgach, 1998 yil to‘qqizinchi nashr chop etildi. Bu nashr ham 7- va 8-nashr singari ikki jild holida tayyorlandi. Adabiy asarlar, o‘rta maktab darsliklari, gazeta va jurnallar ko‘zdan kechirilishi, umumiste’molga kirgan turli soha atamalarini lug‘atga kiritish orqali so‘z boyligini orttirish nazarda tutildi. TDKning O‘zlashma so‘zlarga qarshi kurashish bo‘limi komissiyasi tomonidan taklif qilingan tarjimalar ham lug‘atning 9-nashriga kiritildi. So‘zlarni to‘g‘ri yozish bo‘yicha 1996-yil nashr qilingan “İmlo lug‘ati” bilan mutanosiblik saqlanganligini o‘z taqdimnomasida bayon etilgan lug‘atning 9-nashrda so‘z, atama, ibora, qo‘shimcha va ma’nodan iborat 98.107 ta so‘z boyligi joy olgan. Ularning 60.152 tasi bosh, 13.555 tasi yasama so‘zlardir.

Turk tili lug‘atining o‘ninchi nashri 2005-yilda nashr etildi(TS, 2005). Ushbu lug‘atda 63.818 modda boshi va 13.589 modda ichi, jami 77.407 moddadan tashkil topgan. Mazkur lug‘atning eng so‘nggi 11-nashri 2011-yilda chop etildi. Mazkur lug‘atda so‘z, termin, iboralardan tashqil topgan 122.423 ta so‘z o‘rin olgan bo‘lib, modda boshi va modda ichi sifatida 2.292 so‘z, Turk adabiyotidan tanlangan 34.672 misol jumlalar, 1.454.903 so‘zdan iborat lug‘at matni bordir.

Turk tili qurumi tashkilotini tomonidan nashr etilgan turk tilining katta izohli lug‘ati 11-nashri 77.005 ta modda boshi va 15.287 ta modda ichi sifatida 92.292 ta so‘zni o‘z ichiga oladi. 34.664 ta misollar bilan mazkur so‘zlarning ma’nolari izohlangan. Lug‘atda 53.451 ta ot, 12.666 ta sifat, 3.312 ta ravish, 88 ta olmosh, 40 ta ko‘makchi, 299 ta undov so‘zlar, 50 ta bog‘lovchi, 9.912 ta fe’l bor. Jami 79.818 ta so‘z berilgan. Lug‘atning 10- va 11-nashri professorlar Shukru Xaluk Akalin, Mustafa Argunshoh, Nurettin Demir, Nevzat Go‘zaydin, Melek O‘zyetgun, Rejep Toparli, Hamza Zulufkar,va b.lar tarafidan tayyorlangan(TS, 2011 : 6).

11 -nashrga qo‘shilgan yangi so‘z miqdori 14.885. Avvalgi nashrda 3.700 ta yangi so‘zlar kiritilgan edi. 11-nashrga deyarli 15 ming dona yangi so‘zning qo‘shilishining ba’zi sabablari bor. Masalan, *“-bilmek”* ko‘makchi fe’li bilan hosil qilingan qo‘shma fe’llarning lug‘atga alohida modda ostida qo‘shilgan. Bundan tashqari, *“-vermek”* ko‘makchi fe’li bilan yasalgan qo‘shma fe’llarning ham miqdori ko‘paygan. Va albatta, bu qo‘shma fe’llarning *“-me”* harakat nomi qo‘shimchasini olib, otga xoslashgan shakllarining ham ayricha modda boshi sifatida berilishi ham lug‘atlardagi so‘z miqdorining ortishiga olib kelgan. Misol uchun, avvalgi nashrga qo‘shimcha ravishda *“ısınmak” – isinmoq* o‘zak-negizidan hosil qilingan *ısınabilme - isina bilish, ısınabilmek – isina bilmoq, ısınıverme - isinaverish, ısınıvermek - isinaverish, ısındırabilme – isindira bilish, ısındırabilmek – isindira bilmoq, ısı tedavisi – issiqlik bilan davolash, günısı – kun issig‘i, ısıl işlem – issiqlik bilan ishlov, küresel ısınma – global isinish* kabi so‘zlar qo‘shilgan.

Yoki *“güvenli, güzide”* kabi so‘zlardan yasalgan *“güvenlilik, güzidelik”* kabi bir qator yasama so‘zlar ham qo‘shilgan.Ba’zi so‘zlarning ichki moddalariga ham qo‘shimchaar kiritilgan. Masalan, 10-nashrda *“güzel” – go‘zal* so‘zining ich moddasida *“güzel olmak, güzelim”* ikki so‘z izohi berilgan bo‘lsa, 11-nashrda bu so‘zning ichki moddasiga yana 7 ta so‘z qo‘shilgan va jami 9 ta ichki modda joy olgan. Lug‘atlarning maqollar va iboralar bilan boyitilgani ham shu ma’noda tahsinga sazovordir. Yangi nashrda ilk bora viloyat va tumanlar nomlari berilgan, buning natijasida lug‘at yana 1100-1200 so‘zga boyigan.

Lug‘atning yangi nashri so‘nggiga ilova qilingan ma’lumotlar juda foydalidir. Turk tilining batafsil bayon etilgan xususiyatlari, Turk tilida qo‘llanilgan alifbolar, Morze alifbosi, imlo qoidalari, tinish belgilari, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalari, ariza, tarjima hol, elektron maktub yozish bo‘yicha ko‘rsatmalar, turli birliklar, rim raqamlari, kalendar birliklari, Quyosh tizimi, Turkiya va boshqa o‘lkalar haqida ma’lumotlar (bayroqlari, geografik joylashuvi, poytaxtlari va b.), milliy va xalqaro tashkilotlar nomlarining qisqartmalari, lug‘atdagi

misollarning manbalari kabi taxminan 100 sahifa atrofida qo‘shimcha ma’lumotlarning kiritilganligi lug‘atning yanada qadrli manbaga aylantirgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, turk tilidagi lug‘atlarga tartib berish ishi Mustafo Kemal Ataturk boshchiligida markazlashgan tartibda amalga oshirilgan. Umuman, turk lug‘atchiligining shakllanishida, turk tili lug‘atlarini chop etilishida Turk tili Qurumi tashkilotining o‘rnini alohida ta’qidlab o‘tishimiz kerak. Yuqorida aytib o‘tilganidek, lug‘at tilning so‘z boyligi, madaniyat yuksakligi va jamiyat o‘zgarishlarini aks ettiuvchi muhim vosita hisoblanadi. Lug‘at tuzish ham sermashaqqat va murakkab vazifadir. Albatta, lug‘atlarni qiyoslash, ularda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, bu borada takliflar berish maqsadga muvofiq. Biroq, shuni unutmaslik kerakki, jamoaning ko‘p yillik og‘ir mehnati mahsuli bo‘lgan lug‘atlar turli sohalar uchun muhim manba vazifasini o‘taydi.

ADABIYOTLAR

1. Akarsu Bedia. Atatürk Devrimi ve Yorumları, Ankara, TDK Yayınları, 1978.
2. İmer Kâmile. Türkiye’de Dil Planlaması: Türk Dil Devrimi, Ankara, Kültür Bakanlığı Yayınları, 1999.
3. Aksan Doğan. Türkiye Türkçesinin Dünü, Bugünü, Yarını, İstanbul, Bilgi Yayınevi, 2005.
4. Aksoy Ömer Asım. Atatürk ve Dil Devrimi, Ankara, Milli Eğitim Basımevi, 1963.
5. Dilaçar Agop. Devlet Dili Olarak Türkçe, Ankara, TDK Yayınları, 1962.
6. Ercilasun Ahmet Bican. Dilde Birlik, Ankara, Akçağ Yayınları, 2013.
7. İnan Afet. Türkiye Cumhuriyeti ve Türk Devrimi, Ankara, Türk Tarih Kurumu, 1998.
8. Korkmaz Zeynep. “Atatürkçü Düşüncede Türk Dilinin Yeri ve Günümüz Açısından Değerlendirilmesi”, Türk Dili Dergisi, 2001, S. 596, s. 111-119.
9. Tekin Tekin. “Atatürk’ün Dil Reformu”, Atatürk Devrimleri İ. Milletlerarası Sempozyum Bildirileri, İstanbul Üniversitesi Atatürk Devrimleri Araştırma Enstitüsü Yayınları, 1975, s.488.
10. Türkçe Sözlük. 1.baski. Ankara: TDK, 1945.
11. Türkçe Sözlük. 10.baski. Ankara: TDK, 2005.
12. Türkçe Sözlük. 11.baski. Ankara: TDK, 2011.
13. Türkçe Sözlük. 8.baski. Ankara: TDK, 1988.

“O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYA”SI TARIXIDA ILMIY MAKTABLAR
EDUCATIONAL SCHOOLS IN THE HISTORY OF UZBEK DIALECTOLOGY

T.Enazarov
ToshDO‘TAU professori,
filologiya fanlari doktori

Abstract: there have been and are scientific schools in the field of Uzbek dialectology, as well as scientific schools in every field. Earlier, the name of the founder of the scientific school was mentioned. It is these scientific schools that determine the development of the industry in a particular period. So far, the following scientific schools of dialectology have been formed to study Uzbek dialects on a scientific basis. Therefore, they need to be scientifically studied.

Har bir sohaning rivojlanishi va taraqqiyotini belgilab beradigan ilmiy maktablari bo‘lgani kabi o‘zbek dialektologiyasi sohasida ham ilmiy maktablar bo‘lgan va bor. Oldinlari ilmiy maktab deganda uning asoschisining nomi aytilardi. Mana shu ilmiy maktablar sohaning ma'lum bir davrdagi rivojlanishini belgilab beradi. Shuning uchun ularni ilmiy tadqiq etish lozim.

Илмий мактаблар хусусида кўп ишлар ҳали қилингани йўқ, аммо баъзи ишлар амалга оширилган ва тилшунос олимлардан Саид Усмонов, Иристой Қўчқортоев, Аюб Ғуломовларнинг илмий мактаблари тўғрисида анчагина фикр билдиришган [1,3-53].

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyunda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan «*Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi*» mavzusidagi videoselektorda ham asoschisi bor, ham asoschisi yo‘q, ammo shunday ilmiy maktablarning bo‘lishiga ijtimoiy va ilmiy talab-ehtiyojning borligiga asoslanib, ularni ikkiga bo‘lib, farqlagan edi: «Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida *hadisshunoslik*, Imom Moturidiy markazi qoshida *kalom ilmi*, Farg‘onada – Marg‘inoniy ilmiy markazida *islom huquqi maktabi*, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida *tasavvuf*, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida *aqida ilmi maktabi*ni tashkil etsak, o‘ylaymanki, bu juda foydali bo‘ladi. Kelgusida chuqur bilimli imom-xatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida, sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalashda bu maktablar tayanch bo‘lib xizmat qiladi» [2.].

Natijada, Samarqand viloyatidagi “*Hadis*” va “*Kalom*” ilmiy maktablari 2017-yil 8-noyabr kuni Qashqadaryo viloyatidagi “*Aqida*” ilmi maktabi, 10-noyabr kuni, Mir Arab oliy madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband tasavvuf ilmiy maktabi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi Farg‘ona viloyati vakilligi qoshida “*Islom huquqi maktabi*” 13-noyabr kuni rasman ish boshladi [3, yuqoridagi havolaga qarang].

Demak, ilmiy maktablarning quyidagi turlari bor: 1) asoschisi e’tirof etiladigan ilmiy maktablar; 2) ijtimoiy, ma’rifiy, madaniy va ilmiy ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan ilmiy maktablar (ularning asoschisi bir kishi emas, bir necha olim yoki alohida bir ijodiy jamoa bo‘lishi mumkin. Shuning uchun “Dialektologik kvalametriya” fani talablari asosida mamlakatimiz hududida dialektologiya sohasiga ilmiy kuzatishlardan boshlangan izlanishlar keyinchalik ilmiy maktab va ilmiy nazariy konsepsiyalar darajasida rivojlangan. Ular davriylik nuqtai nazaridan joylashtirilsa, biron-bir ilmiy maktabning vakillari o‘rinsiz xafa bo‘lishmaydi. Zero, ilmiy maktablarning faoliyatiga ham zamonaviy talablar va “Dialektologik kvalametriya” nuqtai nazaridan birinchi marta bo‘lsa hamki, baho berish mumkin. Hozirgacha o‘zbek shevalarini o‘rganib, ilmiy asoslarda tadqiq etadigan dialektologiya bo‘yicha quyidagi ilmiy maktablar shakllanib rivojlangan:

1. XI asrda Mahmud Koshg‘ariy asos solib, o‘zi boshchilik qilgan dialektologlarning ilmiy maktabi.

2. XII-XIY asrlardagi turkiy-o‘zbek shevalari(dialektologiyasi)ning ijodkorlar tomonidan amaliy qo‘llanishi ilmiy-ijodiy maktabi.

3. XY-XYI asrlarda eski o‘zbek adabiy tili amalda bo‘lgan vaqtda turkiy-o‘zbek shevalari(dialektologiyasi)ning amaliy qo‘llanishi faollashtirgan ilmiy maktabi.

4.XYII asrdan to XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda ijodkor va lug‘atshunoslar yaratgan dialektal talqin ilmiy maktabi.

5. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrda faoliyat ko‘rsatgan olimlarning dialektologik kuzatishlar ilmiy maktabi.

6. ToshDU dialektologlarining ilmiy maktabi. Uning faoliyati XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Bunda professorlar Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, A.Aliyev, K.Nazarov, dotsentlar T.Ibrohimov, Yo. G‘ulomov, I.Shoinoyatova, L.Karimova, katta o‘qituvchi A.Yo‘ldoshyev, filologiya fanlari doktori T. Enazarov kabi olimlar faoliyat olib borishgan [4.].

7. SamDU dialektologlarining ilmiy maktabi. Ushbu ilmiy maktab XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Unda professorlar Ulug‘ Tursunov, Xudoyberdi Doniyorov, Nazar Rajavbov, V. Egamov, H. Berdiyorov, M. Baliyev, M. Ahmedov, X. Jo‘rayev, B. Jo‘rayev, Mirsoatov, Y. Ibragimov, E. O‘razov, T. Qudratov, H. G‘ulomov, Suyun Karimov, Jo‘liboy Eltazarov, Murodqosim Abdiyev va boshqa olimlar faoliyat ko‘rsatishgan. Uning faoliyati ToshDU dialektologlarining ilmiy maktabi faoliyati bilan birga boshlangan bo‘lishi mumkin. Unda professor va dialektolog olim Xudoyberdi Doniyorovning 100 yilligi 2017-yilda, Mahmud Koshg‘ariy, Farobiy, Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan Xalqaro ilmiy anjuman 2018-yil noyabrda o‘tkazildi [5,55-59].

8. Xorazm dialektologlarining ilmiy maktabi. Uning faoliyati XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Professorlar Fattoh Abdullayev, Yusuf Jumanazarov va ularning shogirdlari bu ilmiy maktabda faoliyat ko‘rsatishmoqda.

9. O‘zR FA A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti dialektologlarining ilmiy maktabi. Bu ilmiy maktabning faoliyati XX asrning 60-yillaridan boshlangan. Professor Fattoh Abdullayev, akademik Shonazar Shoabdurahmonov, yetakchi ilmiy xodimlar Qosim Muhammadjonov, Ahmad Ishayev, Shukur Nosirov, Tohir Sodiqov, katta ilmiy xodim Masharif Safarov, ilmiy xodim Klara Sharipova, ilmiy xodim Do‘stmurod Abdurahmonov, Nasiba Shoimova kabi dialektolog olimlar faoliyat olib borishgan.

10. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (keyinchalik shu nomdagi pedagogika universiteti)dialektologlarining ilmiy maktabi XX asrning 30-yillaridan o‘z tadqiqotlarini boshlagan. Mazkur ilmiy maktabda professor Said Usmonov, A’zam Shermatov, Samixon Ashirboyev kabi olimlar faoliyat yuritishgan.

11.Farg‘ona (Farg‘ona, Namangan, Andijon DUlar) dialektologlarining ilmiy maktabi.Ushbu ilmiy maktab XX asrning 70-yillaridan Qo‘qon, Andijon, Farg‘ona shaharlaridagi institut va unversitetlardagi dialektolog olimlarning faoliyatlarini birlashtirib, bugungi kunda ham amalda faoliyat ko‘rsatmoqda.

12. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instetuti dialektologlarining ilmiy maktabi. Mazkur ilmiy maktab XX asrning 80-yillaridan boshlanib, bugungi kungacha amalda faoliyat ko‘rsatmoqda. Unga filologiya fanlari doktori, professor Yo‘ldosh Ibragimov rahbarlik qilib kelmoqda.

13. Qarshi DU dialektologlarining ilmiy maktabi. Ushbu ilmiy maktab XX asrning 70-yillaridan boshlanib, bugungi kungacha amalda faoliyat ko‘rsatmoqda. Dotsent T.Qudratov, dotsent K.Usmonov, professorlar T.Nafasov va X.Jabborov va ularning shogirdlarining ishlari bu maktab faoliyati bilan bog‘liq.

14. Navoiy davlat pedagogika instituti dialektologlarining ilmiy maktabi. Bu ilmiy maktabning shakllanishiga filologiya fanlari doktori, professor N.Murodova va uning shogirdlarining ilmiy tadqiqotlari zamin bo‘lgan.

15. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dialektologlarining ilmiy maktabi. Bu ilmiy maktab 2016-yildan boshlab rivojlanib kelmoqda. Bu yerda 2018-2019-o‘quv yilida 5A120105 - Folklorshunoslik va dialektologiya magistraturasining ochilishi ushbu ilmiy maktabning o‘ziga xos mahsulidir.

Bunday nomlangan magistraturaning ochilishi to‘g‘ri, chunki o‘zbek folklori materiallarining barchasi aslida dialektal matnlar ko‘rinishidagi dialektologik materiallarning bir qismi hisoblanishi ayni hayotiy haqiqatga mos keladi. Ushbu ilmiy maktabda f.f.d., professor Samixon Ashirboyev, f.f.d. Tolib Enazarov kabi dialektolog olimlar va talabalar ichidan chiqayotgan yosh dialektologlar faoliyat ko‘rsatishmoqda. Yosh dialektologlarning ilmiy anjumanlardagi faolligi ancha kuchaygan va chet ellardagi ilmiy anjumanlarga ham o‘z maqolalarini jo‘natib, e’lon qilib turishibdi. Ilmiy maktablarning amalga oshirgan ishlari kelajakda alohida holda bir qancha ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘ladi.

“O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYA”SIDAGI ILMIY MAKTABLAR

1. XI asrda Mahmud Koshg‘ariy asos solib, o‘zi boshchilik qilgan dialektologlarning ilmiy maktabi.

2. XII-XIY asrlardagi turkiy-o‘zbek shevalari(dialektologiyasi)ning ijodkorlar tomonidan amaliy qo‘llanishi ilmiy-ijodiy maktabi.

3. XY-XYI asrlarda eski o‘zbek adabiy tili amalda bo‘lgan vaqtda turkiy-o‘zbek shevalari(dialektologiyasi)ning amaliy qo‘llanishi faollashtirgan ilmiy maktabi.

4.XYII asrdan to XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda ijodkor va lug‘atshunoslar yaratgan dialektal talqin ilmiy maktabi.

5. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrda faoliyat ko‘rsatgan olimlarning dialektologik kuzatishlar ilmiy maktabi.

6. Turkiston unversiteti, keyinchalik ToshDU dialektologlarining ilmiy maktabi.

7. SamDU dialektologlarining ilmiy maktabi.

8. Xorazm dialektologlarining ilmiy maktabi.

9. O‘zR FA Til va adabiyot instituti dialektologlarining ilmiy maktabi.

10. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (keyinchalik shu nomdagi pedagogika universiteti) dialektologlarining ilmiy maktabi.

11.Farg‘ona (Farg‘ona, Namangan, Andijon DUlar) dialektologlarining ilmiy maktabi.

12. Nukus dialektologlarining ilmiy maktabi.

13. Qarshi DU dialektologlarining ilmiy maktabi.

14. Navoiy davlat pedagogika instituti dialektologlarining ilmiy maktabi.

15.Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dialektologlarining ilmiy maktabi.

Bu ilmiy maktab 2018-yil 20-aprelda “O‘zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari” nomli respublika anjumanini o‘tkazdi va jamoatchilik asosida tashkil etilgan “Sheva materiallarini yig‘ish qo‘mitasi” esa 2019-yilning mart oyida tashkil etildi. Bu qo‘mita 2020-yida “O‘zbek shevashunosligi markazi” deb qayta nomlanib, rejadagi tadbirlarini o‘tkazishni boshladi. Natijada, ko‘p tomli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni tayyorlash ishlari boshlandi. Uni faqat dialektolog mutaxassislar va mablag‘ bilan ta’minlash masalasini o‘ylab ko‘rish vaqti keldi. Xullas, ilmiy maktablarning soha uchun ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Lisoniy meros va ona tili taraqqiyoti mfvzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, 2019.-B. 3-53.

2.https://kun.uz/news/list?f=илмий мактаблар.

3.Yuqoridagi havolaga qarang.

4.Bu ilmiy maktabda ham, boshqa ilmiy maktablarda ham biz tilga olmagan dialektologlar faoliyat ko‘rsatishgan bo‘lishi mumkin. Ammo ularning ilmiy ishlarini topo olmay, ko‘rmaganimiz uchun ushbu maqolada tilga olmadik. Shuning uchun uzr so‘raymiz.

5. Абдиев М. Самарқанд вилояти ўзбек шеваларининг ўрганилиш тарихи ва долзарб масалалари // Истиқлол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. –Самарқанд, 2017. -Б. 55-59.

6. Холбоев Сотимжон. Миллий мустақиллик ва тараққиётнинг ўзбек модели (методология, инновация, тарихий таҳлил. –Тошкент, O‘zbekiston, 2015. –B.

NUTQ BILAN BOG‘LIQ KOMPYUTER DASTURLARI UCHUN LEKSIKOGRAFIK MANBALAR TA’MINOTI
THE PROVISION OF LEXICOGRAFIC SOURCE FOR SPEECH-RELATED COMPYUTER PROGRAMS

M. Qurbonova
ToshDO‘TAU dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Abstract: In the article, the place and the significance of the lexicographic sources in creating the uzbek speech synthesizer and speech recognition of linguistic database are clarified.

Keywords: *digital economy, speech synthesizer, speech recognize, text, emphasis, dictionary, computational linguistics.*

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotgan bugungi kunda tilning zamonaviy axborot vositalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Bu boradagi muammolarning innovatsion yechimi uchun kompyuter tilshunosligiga oid tadqiqot natijalari, xususan, nutq sintezatori va nutqni aniqlash (tanish) dasturlarini ishlab chiqish ниҳоятда муҳимдир. Nutq sintezatori matnni ovozli xabarga, nutqni aniqlash dasturi esa ovozli xabarni matnga aylantirishga xizmat qilishi bilan kompyuter lingvistikasining tadqiq obyektlari sanaladi.

Hozirgi kunga qadar dunyo miqyosida nutq bilan bog‘liq kompyuter dasturlarining ingliz, nemis, rus, yapon, koreys, xitoy, qozoq, qirg‘iz, turk, tatar kabi tillardagi talqinlari yaratilib, amaliyotga tatbiq etilgan. Keyingi yillarda o‘zbek kompyuter tilshunosligida ham nutq sintezatorini ishlab chiqish masalasiga muayyan darajada e’tibor qaratila boshlandi. Milliy nutq sintezatorining dastlabki talqini Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan “Ko‘zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o‘qish va yozish imkonini beruvchi o‘zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta’minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy grant loyihasi asosida tayyorlandi. [Qurbonova, Maxsudov, Isoyev, 2020] Milliy nutq sintezatori “TTSuzbot” telegram boti orqali Online rejimda ishga tushirilib, keng jamoatchilik or‘tasida ommalashtirildi. Biroq o‘zbek tilidagi nutqni aniqlash dasturini ishlab chiqish kompyuter tilshunosligidagi tadqiqtalab masalalardan biri sifatida alohida ahamiyatga molik.

Jahon kompyuter tilshunosligida nutq bilan bog‘liq lingvistik dasturlarni yaratish texnologiyalari, usullari va turlari o‘zaro farqlanadi. Muayyan lingvistik dastur ikki va undan ortiq metod asosida ishlab chiqilishi va ko‘plab tillarga xoslanishi mumkin. Shu jihatdan ularning lingvistik ta’minoti uchun umumiy va maxsus qoidalar ishlab chiqish tadqiqotchilardan turlicha yondashuvlarni talab etadi. Quyida biz innovatsion texnologiyalar asosida yaratiladigan nutq bilan bog‘liq kompyuter dasturlarining ma’lumotlar bazasi uchun zarur bo‘lgan lingvistik manbalar xususida so‘z yuritamiz.

Zamonaviy lingvistik dasturlar sun’iy intellekt mahsuli hisoblansa-da, ularni yaratishda foydalaniladigan neyrotarmoqlar bir jihatdan inson miyasining ishlash prinsipiga asoslanadi. Shu tufayli bu jarayonda maxsus qoidalar ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmasligi mumkin. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun tatbiq etiladigan mashinali o‘qitish texnologiyasi tilni sun’iy intellektga o‘rgatishga yordam beradi. Mazkur texnologiya asosida ovoz blilan ishlashga mo‘ljallangan kompyuter dasturlari qurilish qolipi, ifoda maqsadi va nutq uslubiga ko‘ra turli tipdagi muayyan parametrlar, texnik talablar asosida audio formatda yozilgan sintaktik birliklarni grafik ifodasi yordamida qiyosiy tahlil qilish orqali tildagi umumiy qonuniyatlar, spetsifik xususiyatlarni aniqlash imkoniga ega bo‘ladi va sifat samaradorligining yuqori darajada ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, o‘zbek nutq sintezatorining dastlabki talqini sun’iy intellekt texnologiyasi yordamida yaratilgan bo‘lsa-da, tabiiy ovozga asoslangani, uning bazasiga kiritilgan audioma’lumotlar suxandon nutqida to‘g‘ri ifodalangani uchun kirill va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida qayd etilgan matnlarni milliy tilimizning fonetik qonuniyatlari, adabiy talaffuz me’yorlariga muvofiq tarzda aks ettirishi bilan foydalanuvchilar uchun qulay interfeys hisoblanadi. Biroq nutq bilan bog‘liq har qanday kompyuter dasturi fonetik dialektizmlar hamda o‘zlashma so‘zlarni orfoepik hamda orfografik jihatdan to‘g‘ri ifodalashi uchun leksikografik manbalar ta’minotini talab etadi.

Kompyuterga matnni ovoz orqali kiritishga mo‘ljallangan dasturning fonetik-fonologik ta’minotini yaratish uchun, eng avvalo, nutq tovushlari bazasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda foydalanuvchilarning hududiy xosligiga ko‘ra nutq birliklarining turli shevalarga xos tarzda ifodalanishini hisobga olgan holda o‘zbek tilidagi har bir fonemaning variantlari (allofonlari) transkripsiyasi bilan dasturning ma’lumotlar bazasiga kiritilib, kodlashtirilishi lozim bo‘ladi. Ularning ovozli ifodasi nutq sintezatori uchun yaratiladigan audioma’lumotlardan farqli ravishda bir sintaktik qurilmani turli sheva vakillari bo‘lgan ko‘plab suxandonlarga o‘qitish orqali shakllantiriladi. Chunki nutqni aniqlash dasturining ma’lumotlar bazasi og‘zaki nutqda aks etgan birliklarning yozma shaklda to‘g‘ri ifodalanishini ta’minlashga xizmat qilishi zarur.

Ma’lumki, til birliklarining muayyan qismini talaffuzi bir xil, yozilishi farqli so‘zlar tashkil qiladi. O‘zbek tilidagi ***bo**p*-*bo**b**, bo**d**-bo**t*** singari leksik birliklar shular jumlasidandir. Sun’iy intellekt texnologiyasiga asoslangan o‘zbek nutq sintezatorining dastlabki talqini bu kabi omofonlar talaffuzini to‘g‘ri ifodalash imkoniga egadir. Biroq ularni nutqni aniqlash dasturi orqali yozuvda to‘gri ifodalash uchun, birinchi galda, omofonlar bazasini shakllantirish lozim. Bu boradagi muammolarni hal etishda “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” [Rahmatullayev, 1984: 216]

va uning asosida tayyorlangan ma’lumotlar bazasi [Abjalova, 2019]da qayd etilgan omofonlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek nutq sintezatorining lingvistik bazasi uchun morfologik lug‘atlar nihoyatda muhimdir. Avtomatik tahlil va sintez dasturlari konteksda uchraydigan omograflar (***tok*** – *uzum butasi,* ***tok*** – *elektr quvvati*)ning talaffuzdagi ifodasini farqlay olishi, til birliklarining sintagmatik munosabatga kirishib, valentlik hosil qilish imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlashi uchun morfologik birliklarning lingvistik modellarini ishlab chiqish joiz.

Leksik hamda grammatik valentlik hosil qiluvchi lisoniy birliklar assotsiativ tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan “O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati” [Lutfullayeva, Davlatova, Tojiboyev, 2019: 332]da mavjud sintagmatik munosabatga asoslangan verbal assotsiatsiyalar ham nutq sintezatori uchun muhim lingvistik material hisoblanadi. Morfologik baza orqali lingvistik dasturlar urg‘uning ma’no farqlashi (***akadémik*** – *ot,* ***akademúk*** - *sifat*) bilan bog‘liq orfoepik me’yorlarni belgilash imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Mazkur holat nutq bilan bog‘liq kompyuter dasturlari bazasini urg‘uli lug‘atlar bilan ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Bunday lug‘at o‘zlashma so‘zlar talaffuzi va imlosi bilan bog‘liq muammolar echimi uchun nihoyatda zarur. Chunki ularda urg‘u erkin bo‘lib, so‘zning turli bo‘g‘inlariga tushishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar o‘zbek leksikografiyasida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yaratilgan “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati” mavjud. [Hamrayeva, 2009: 124] Ushbu lug‘at asosan maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 3000 dan ortiq so‘zni o‘z ichiga oladi. Unda faqat oxirgi bo‘g‘inga tushmaydigan hollardagina so‘zdagi urg‘uning o‘rni ko‘rsatilgan va so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llanadigan ma’nolari qayd etilgan. Faqat shakldosh so‘zlar yoki ko‘p ma’noli so‘zning alohida ma’nolari turli turkumlarga mansub bo‘lgan hollardagina izohlanayotgan so‘zning kelib chiqishiga oid ma’lumotlardan keyin uning qaysi turkumga mansubligi ko‘rsatilgan. Shuni e’tiborga olgan holda yuqorida qayd etilgan amaliy grant loyihasi doirasida o‘zbek tili o‘zlashma so‘zlarining urg‘uli bazasi yaratildi. [Qurbonova, Abjalova va b., 2020]

“O‘zlashma so‘zlar lug‘atining urg‘uli bazasi o‘zbek tilining izohli lug‘atida mavjud o‘zlashgan hamda kundalik hayotda ko‘p uchraydigan baynalmilal so‘zlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, lug‘at so‘zlari bazaga kirill va lotin yozuvida kiritilgan. Har ikki yozuvdagi urg‘ulari qo‘yilib, bazada ularga maxsus ID kod (identifikatsiya raqami) berilgan. ID kod dasturda urg‘u qo‘yilgan so‘zning o‘z ovozli xabari bilan bog‘lanishini ta’minlaydi. Bu esa ovoz bilan ishlashga mo‘ljallangan lingvistik dasturlarni tayyorlashga qulaylik yaratish uchun nihoyatda muhimdir.

Lug‘atning avtomatik tahrir va avtomatik tarjima dasturlarini tayyorlashdagi ahamiyatini ham hisobga olgan holda, undagi o‘zlashma so‘zlar turkumi ko‘rsatildi va ularning izohi, mavjud hollarda ma’nodoshlari berildi.

Mazkur lug‘at 11000 ta o‘zlashma so‘zni o‘z ichiga olgan bo‘lib, keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan. U o‘zbek tilidagi muloqot jarayonida o‘zlashma so‘zlar urg‘usining ifodalanishi bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan nutqiy xatolarni bartaraf etishda o‘ziga xos o‘rin tutadi, milliy nutq korpusini yaratishda qimmatli leksikografik manba sifatida xizmat qiladi, teleradiokanallar suxandon-boshlovchilari nutq madaniyatini oshirish maqsadida tashkil etiladigan qayta tayyorlov kurslari uchun uslubiy ko‘rsatmalar, kompyuter lingvistikasi hamda medialingvistikaga oid monografik tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matnlari, seminar va amaliy mashg‘ulot materiallari va laboratoriya topshiriqlari tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq bilan bog‘liq kompyuter dasturlarining ma’lumotlar bazasini leksikografik manbalar bilan ta’minlashda cho‘ziq unlilar, sirg‘aluvchi ***j***, qorishiq ***s*** undoshlari ishtirok etgan lug‘aviy birliklar, qisqartma otlar, raqamlar, matematik amallar, lotin va yunon harflari orqali ifodalanadigan formulalar, semiotik hamda simvolik belgilarni o‘qish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun ham lug‘atlar tuzish, ularning ovozli bazasini tayyorlash lozim. Shu jihatdan o‘zbek nutq sintezatorining dastlabki talqini uchun shakllantirilgan ma’lumotlar bazasiga turli sohalarda ko‘p ishlatiladigan belgilar va ularning nomi, raqamlar hamda ularning talaffuzdagi ifodasidan iborat ro‘yxat (lug‘at)lar ham kiritildi. Bu orqali ko‘zi ojiz foydalanuvchilar uchun kompyuterda o‘zbek

alifbosidagi harflar va belgilarni yozish, ularni alohida o‘qitish, belgilash, elektron matnlarni tahrirlash jarayonlarining qulay kechishiga erishiladi.

Tilning boy ifodaviy imkoniyatlarini o‘zida aks ettiruvchi ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lgan nutq sintezatori orqali, birinchi galda ko‘zi ojiz shaxslarning elektron o‘quv adabiyotlar, zamonaviy multimediya texnologiyalaridan mustaqil foydalanishi, internet sahifalarida e’lon qilingan yangiliklardan xabardor bo‘lishi, tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha foydali mehnatga jalb qilinishi bilan bog‘liq ijtimoiy muammolar hal etiladi. Chunki kompyuter saboqlarini chuqur o‘zlashtirgan ko‘zi ojiz shaxslar tiflotexnik dasturlar, qurilmalar vositasida elektron matnlarni eshitish, o‘qish, yozish, tahrirlash, hisob-kitob ishlarini amalga oshirish, kompyuter savodxonligiga oid o‘quv kurslarida trener vazifasini bajarish, kichik hajmdagi kompyuter dasturlarini yaratish imkoniga ega bo‘ladi. Bu turdagi mahsulotlar ularning dasturchi mutaxassis bo‘lib etishishida ham muhim vosita vazifasini bajaradi. Kompyuter savodxonligiga ega bo‘lgan ko‘zi ojiz yoshlar nutq sintezatori yordamida turli xil qo‘ng‘iroq markazlari, ovoz yozish studiyalarida operator vazifasini bajarishi, uzoq masofadan turib, kompyuter foydalanuvchilariga tezkor amaliy (dasturiy) yordam ko‘rsatishi, internet tarmog‘i orqali tadbirkorlik faoliyatini keng yo‘lga qo‘yib, ishbilarmon shaxsga aylanishi mumkin. Natijada ularning bandligi ta’minlanadi.

Yuqorida qayd etilgan leksikografik manbalar bilan ta’minlangan nutqni aniqlash dasturi qo‘l harakati cheklangan shaxslar tomonidan uyali aloqa vositasi va boshqa avtomatlashtirilgan texnik qurilmalarni ovoz orqali boshqarish, kompyuterga matnni ovoz orqali kiritish va tahrirlash, global tarmoqdagi qidiruv tizimlaridan mustaqil foydalanish, axborot va maslahatlar berish, tovar xizmatlari uchun buyurtma berish, ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazish, anketalashni amalga oshirish, eshitish imkoniyati cheklangan shaxslar tomonidan audiomanbalarni matnga aylantirish orqali o‘qish, tibbiyot xodimlari tomonidan bemorlarga qo‘yiladigan tashxislarni elektron qayd varaqasiga ovoz orqali matn ko‘rinishida kiritish, audioformatda yozib olingan intervyular, majlis bayonnomalari matni hamda stenogrammalarni tayyorlash, o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, ularning savodxonlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan nutqni tanish dasturining milliy tilimizdagi talqinini yaratish o‘zbek kompyuter tilshunosligidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. O‘zbek tilidagi omonim so‘zlarning ma’lumotlar bazasi. № BGU 00381 raqamli guvohnoma. – Toshkent, 2019.
2. Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
3. Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati. – Toshkent: NMU, 2019.
4. Kurbanova M.A., Maxsudov B.M., Isoyev E.E. UzNutq. № DGU 09823 raqamli guvohnoma. – Toshkent, 2020.
5. Kurbanova M.A., Maxsudov B.M., Isoyev E.E. UzNutq Sintezator. № DGU 09822 raqamli guvohnoma. – Toshkent, 2020.
6. Kurbanova M.A., Abjalova M.A. Va b. O‘zbek tilidagi o‘zlashgan so‘zlarning urg‘uli bazasi. № BGU 00404 raqamli guvohnoma. – Toshkent, 2020.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINTAKSISGA OID QARASHLARNING SHAKLLANISHI

FORMATION OF SYNTAX APPROACHES IN UZBEK LANGUAGE

N.Alavutdinova,
O‘zMU dotsenti, p.f.n

Annotation: maqola o‘zbek tilshunosligida o‘zbek tili sintaksisining tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida o‘rganilishi va bu jarayonda prof Ayyub G‘ulomovning tutgan o‘rni ko‘rsatilgan. Ayyub G‘ulomovning o‘zbek tili sintaksisi bilan bo‘liq ishlariga munosabat bildirilgan.

Keywords: *sintaksis, aniqlovchi,sodda gap,urg‘u,grammatika, intonatsiya*

Taniqli o‘zbek tishunosi professor Abdulhamid Nurmonov ta’kidlaganidek, o‘zbek tili sintaksisining tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida o‘rganilishi dastlab Abdurauf Fitratning «Nahv» deb ataluvchi kitobi bilan boshlanadi. Abdurauf Fitratning sintaktik qarashlari o‘zbek tilshunosligida tilshunos olimlar Bosim To‘ychiboev va Muhabbat Qurbonovalar tomonidan «Fitrat – tilshunos» va «Abdurauf Fitrat va o‘zbek tilshunosligi»(2,3) risolalarida tadqiq etilganligi kuzatiladi. Tilshunos olimlar Abdulhamid Nurmonov, Bosim To‘ychiboev va Muhabbat Qurbonovalar tadqiqotlarida o‘rganilgam masalalar va xulosalarga asoslangan holda Abdurauf Fitratning sintaksisga oid qarashlari o‘zbek tilshunosligida atroflicha tadqiq etilgan, deyish mumkin.

Abdurauf Fitratdan keyinroq (1933y.) H.Qayumiy va S.Dolimovlar tomonidan yaratilgan «Grammatika» kitobining ikkinchi qismi «Nahv» deb nomlandi. O.Usmonov va B.Azizovlar tomonidan yozilgan «Sintaksis» -maktab darsligi 1939 -yili nashr etilgan. Biroq bu asarlar A.Nurmonov qayd etganidek, «faqat bolalarni o‘qitish uchun mo‘ljallanganligi sababli amaliy qimmatga ega bo‘lib, sintaksis hodisalarni chuqur ilmiy tahlil qilishni o‘z oldilariga maqsad qlib qo‘ymagan edi».[1]

Turkiston general gubernatorligi tashkil qilinishi munosabati bilan ruslarning o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini nazarda tutgan holda XIX asrning oxirlari va XX asrning birinchi choragida M.A.Terentevning «Грамматика турецкая, персидская,киргизская, (казахская) и узбекская » (1875), S. Lapinning «Карманный русско-узбекский словарь с приложением краткой грамматики узбекского языка» (Sam.1985). L.Afanasevning «Словарь сартовских слов с главнейшими грамматическими правилами» (Skobelev, 1908), N.Budzinskiyning «Грамматика сартовского языка и русско-сартовские разговоры » (T., 1910 y.) tarzidagi ma’lum sintaktik hodisalarni qayd etib o‘tgan qo‘llanmalar ham yaratildi. Bular ham til o‘rganish-o‘rgatish maqsadini ko‘zlab tuzilganligi sababli, ularning ilmiy-nazariy ahamiyati haqida fikr bildirish qiyin.

Keltirilgan qisqa tahlilning o‘zidanoq ko‘rish mumkinki, o‘zbek tilshunosligida ilmiy sintaktik qarashlarning shakllanishida eng avval «At-tuhfa» («Noyob tuhfa») asari, keyinroq esa A.Navoiy qarashlari («Muhokamatul lug‘atayn») hamda XX asr boshlarida yaratilgan Abdurauf Fitratning «Nahv» asari turtki bo‘ldi. Abdurauf Fitratning «Nahv» asarida qayd etib o‘tgan qarashlari, haqiqatan ham, ilmiy sintaksisni yaratish vaqti kelganligini ko‘rsatadi

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida sintaktsisga ilmiy yondashuv 1940 -yili Ayyub G‘ulomov tomonidan yaratilgan «O‘zbek tili grammatikasi» (2-qism), «Sintaksis» kitobi bilan hamda olimning dastlabki ilmiy tadqiqoti hisoblanuvchi «O‘zbek tilida aniqlovchilar» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi bilan boshlangan, deyish mumkin. Chunki Ayyub G‘ulomovning «O‘zbek tilida aniqlovchilar» mavzuidagi tadqiqoti o‘zbek tilshunosligida til birliklari imkoniyatlarining nutqiy faoliyatda namoyonlashuvini o‘rganish yo‘nalishida (sintezlashgan tahlil usuli yoki substansional-pragmatik yondashuv usuli deyish mumkin) bajarilgan edi. Til hodisalarini aynan nutqiy faoliyat bilan bog‘lab tadqiq qilishga e’tibor asosan ana shu davrda kuchaydi. Ayyub G‘ulomov har bir til hodisasining imkoniyatlarini nutqiy faoliyat bilan bog‘lab, turli xil tahlil metodlaridan foydalanish mumkinligini, til birligining mazmuni, shakli vazifalari, qo‘llanish vaqti va o‘rni kabi holatlarga ham e’tibor berishni nazarda tutib tadqiq etishni boshlab berdi. Olimning «O‘zbek tilida aniqlovchilar» monografiyasi ilmiy tahlilning ana shu yo‘nalishi (substansional-pragmatik tadqiq yo‘nalishi) asosida yaratilgan edi va bu zamonaviy o‘zbek tilni ilmiy tadqiq etishning ilk namunasi bo‘ldi. To‘g‘ri ,olimning «O‘zbek tilida aniqlovchilar» monografiyasidan avvalroq yaratillgan «Ona tilidan qo‘llanma» (T., 1937 y.), «O‘zbek tili grammatikasi» (hammualliflikda, darslik, T., 1938 y.), «Sintaksis va punktuatsiya bo‘yicha mashqlar to‘plami» (hammualliflikda, T., 1938, 1939, 1947…y.) kitoblarida ham sintaksis bo‘yicha ayrim qarashlar qayd etilgan. Biroq ularda o‘zbek tili sintaksisiga doir alohida hodisalarning keng tarzdagi ilmiy tahlili berilgan emas. Bu ishlarda o‘quvchilarga sintaksisga oid hodisalarni yetkazish bosh maqsad qilib qo‘yilgan va mavjud holat qayd etilgan, xolos. Shu bilan birga 1940 -yilda tuzilgan «O‘zbek

[1] Нурмонов.А. Ўзбек тилшунослиги тарихи, Т., Университет, 2002, В-203.

tili grammatikasi»da olimning sintaksisga oid shu tarzdagi ilmiy qarashlari o‘z ifodasini topa boshlagan. Kuzatishimizcha, Ayyub G‘ulomovning sintaksisga oid qarashlari, avvalo, bir tomondan Abdurauf Fitratning «Sarf» va «Nahv» asarlari ta’sirida shakllana boshlagan bo‘lsa, ikkini tomondan, yirik rus tilshunoslari, turkiyshunoslar P.M.Melioranskiy, V.A.Bogoroditskiy, A.A.Potebnya, A.M.Peshkovskiy, Ya.Deni, N.F.Katanov, N.A.Baskakov, V.V.Vinogradov, I.A.Batmanov, A.K.Borovkov, Y.D.Polivanov, A.N.Kononov, S.N.Ivanov kabi olimlarning sintaksisga doir asarlari ta’sirida shakllana boshlagan. «Shakllana boshlagan» deyishimizning sababi shundaki, A.G‘ulomiovning ilk sintaktik qarashlari davr o‘tishi bilan o‘zgarib borib, ayrim hodisalar bo‘yicha fikrlari 1940 -yillardayoq to‘la shakllanib bo‘lgan bo‘lsa, ayrim hodisalar bo‘yicha ilmiy qarashlari esa XX asrning 80-yillarida to‘la shakllanib bo‘lgan. Jumladan, aniqlovchi haqidagi fikrlari asosan 1940- yillarda to‘la shakllangan bo‘lib, keyinchalik juda kam o‘zgarishlar bilangina ommalashgan bo‘lsa, sintaksisga oid umumiy nazariy fikrlari olimning 40-yillardagi qarashlaridan ancha farq qilgan holda (Qarang:«O‘zbek tili grammatikasi», 2-qism, Sintaksis, 1940 y.; «Sodda gap», T., 1948 y., Konspektiv kursdagi holatlar va qarashlar) shakllanib bordi hamda A.G‘ulomovning «Sintaksis» bo‘yicha asosiy qarashlari sifatida 1987- yillarda to‘la namoyon bo‘ldi.

Olimning sintaksisga oid qo‘llanma va darsliklari (ba’zilari hammualliflikda nashr etilgan) bir necha marta qayta nashr etilgan. Jumladan, «Sodda gap» kitobi 1948,1955, 1961,1965- yillarda va nihoyat, hammualliflikda (M.Asqarova bilan) 1987 -yilda qayta nashr etilgan. Demak, qarashlar qayta tahlil qilingan,saralanib mukammal holda 1987- yilda nashr etilgan va unda olimning sintaksisga doir asosiy ilmiy qarashlari to‘liq o‘z ifodasini topgan. Ayyub G‘ulomovning «Sodda gap» risolasi 1948 -yilda o‘sha davr ilmiy yutuqlaridan kelib chiqqan holdagi varitantda ilk bor nashr etilgan bo‘lsa, 1961 va 1965 -yillardagi nashrlarida hamda 1987- yildagi nashrida keyingi salkam 40 yilda dunyo tilshunosligida sintaksis bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlardagi yangi, ilmiy asoslangan xulosalarni hisobga olgan holda mukammallashtirilgan, to‘ldirilgan. Olim sintaksis bo‘yicha dastlabki ilmiy qarashlariga tanqidiy qarab ilk qarashlarini o‘zgartirgan holatlarning mavjudligi ham ma’lum.

Ushbu mukammal darslikning yaratilishida A.G‘ulomov A.N.Gvozdev, G.A.Xolotova, I.I. Kovtunova, P.A.Lekant, T.P.Lomtev, A.M.Mukin, O.I.Moskalskaya, N.N.Prokopovich, M.P.Raspopov, O.B.Sirotinina, N.Yu.Shvedova, D.N.Shmelev, N.Z.Gadjieva, M.Z.Zakiev, E.V.Sevortyan, Ye.I.Ubryatova kabi rus olimlarining ,turkiyshunoslarning ana shu davrda yaratilgan ishlaridan hamda o‘zbek olimlaridan F.Abdullaev, G‘.Abdurahmonov, A.Ahmedov, A.Boboeva, I.Rasulov, A.Safaev, A.Nurmonov, F.Ubaeva, A.Sayfullaev, E.Shodmonov, J.Omonturdiev, D.Muhamedova, S.Usmonov, N.Mahmudov, N.Mamatov kabi qator olimlarning sintaksisga oid tadqiqotlaridan foydalangan, ulardagi yangi xulosalar, yutuqlarga e’tibor qaratgan. Bu olimlar qarashlariga munosabat bildirgan, xulosalarini to‘ldirgan, boyitgan.

Umumiy tarzda olganda, A.G‘ulomovning sof sintaksis – bo‘yicha qarashlari 1937 -yildan boshlab o‘zbek va rus tillarida yozilgan 20 dan ortiq tadqiqotlarida (darslik, qo‘llanma, dissertatsiya, ilmiy maqola…) bayon etilgan.

A.G‘ulomovning o‘zbek tili sintaksisi muammolariga oid qarashlari, bu boradagi faoliyati, asarlarining bahosi ko‘pgina olimlar tomonidan qayd etilgan. Ana shunday munosabat bildirib o‘tgan olimlardan biri A.Abduazizov hamdir. A.Abduazizov A.G‘ulomov haqida: «Sodda va qo‘shma gaplar ustida chuqur tadqiqot olib borar ekan, quyidagi muammolar sohasida ilmiy ishlar olib borishga da’vat etadi» deya shu muammolarni sanab o‘tadi:

1) sodda gaplarning mazmun va ohangga ko‘ra tasnifi masalasi;
2) kirish so‘zlar, undalmalar, ha va yo‘q so‘zlariga munosabat masalasi, bu boradagi qarashlar;
3) ega va kesim munosabati, predikativlik, ega va kesimning maqomi masalalari;
4) to‘ldiruvchi va hol bo‘laklarini farqlash, maqomini belgilash masalasi;
5) o‘zganing gapini (ko‘chirma gap) tasniflash masalasi;
6) kirish gap, kiritma gaplar mohimyati va farqi jihatlari masalasi;
7) qo‘shma gaplar va ularni tasniflash, nomlash masalalari… kabilar.

Ko‘rinadiki, Abduzuhur Abduazizov professor A.G‘ulomovning sintaksisga oid qarashlarining bir qisminigina qayd etadi – asosan e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan nuqtalarni sanaydi.

Ayyub G‘ulomovning sintaksis bo‘yicha, uning ayrim hodisalari, holatlariga oid qarashlari qay darajada ilmiy asoslanganligi jihatiga alohida to‘xtalgan emas.

Demak, prof.Ayyub G‘ulomovning sintaksisga oid qarashlari, bu qarashlarning ilmiy asoslanganligi darajasi hali batafsil tadqiq etilgan emas. Ana shu holatni hisobga olgan holda olimning ko‘p yillik tadqiqotlari natijasi sifatida yaratilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» (1948 - yilda yaratilgan «Sodda gap» kitobining qayta-qayta ishlangan, to‘ldirilgan, 1987- yilda M.Asqarova bilan birgalikda yozilgan va so‘nggi marta nashr etilgan nashri) darsligining Ayyub G‘ulomovga oid qismini tahlil qilishni lozim topamiz (Kitobning «Kirish», «So‘z birikmasi», «Gap», «Sodda gap» qismlari A.G‘ulomov tomonidan yozilgan).

«Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobining «Sintaksis haqida tushuncha» qismi (5-7-betlar.) «Grammatika», «Grammatik qurilish» kabi tushunchalarning mohiyatini ochishdan boshlanadi. Bunda grammatikaning tilning grammatik qurilishini o‘rgatadigan fan ekanligi, grammatik qurilishning tilning asoslaridan biri ekanligi, har bir tilning negizi uning grammatik qurilishi bilan leksikasi bo‘lishi grammatika o‘z ichiga morfologiya va sintaksisni olishi, har birining tekshirish ob’ektlari haqidagi mavjud umumiy fikrlarga ularni qayd etish orqali o‘z munosabatini bildiradi, ya’ni bu holatlarni ma’qullaydi. Xuddi shu tarzda A.G‘ulomov Sintaksisning gap haqidagi ta’limot ekanligini ta’kidlaydi: a) sintaksisning asosi gap haqidagi ta’limotdir; b) gap haqidagi ta’limot sintaksisning asosi sanaladi;) Sintaksisning markazi gap haqidagi ta’limotdir (shu kitob, 5,6-betlar). Olim: «Nutqning grammatik forma, intonatsiya va mazmun jihatidan tugallikka ega bo‘lgan mustaqil parchasi gapdir. So‘z birikmasi bunday xususiyatga ega emas, u gapda qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi» degan fikrga asoslanib, sintaksisning gap haqidagi ta’limot ekanligini isbotlaydi.

Kitobning shu kichik qismidayoq so‘z – gaplar, so‘z qo‘shishning yo‘llari, maketlari (qoliplar) haqida, erkin birikmalar, frazeologik birikmalar o‘rtasidagi farqli jihatlar, qo‘shma so‘z va so‘z birikmasi munosabati masalasi, so‘zlarning ichki (mazmun) tomoni mos kelgandagina birikishi (valentlik ko‘zda tutilgan), gapdagi fikr tugalligining nisbiyligi, gapning murakkab (yirik) sintaktik butunlikka munosabati, matn va gaplar, sintaktik konstruksiya holidagi butunliklar – abzas, ularning o‘zaro munosabatlari – nisbiy va to‘liq yoki tugal fikr ifodalanishi, ularning bog‘lanishi; sodda gapning abzasga teng yoki uning qismi bo‘lishi, abzasning matnning bo‘lagi bo‘lishi, matnning maksimal va minimal ko‘rinishlari, qo‘shma gap va abzas, matn munosabatlari, ulardagi intonatsiya tugallik-tugal emaslik xarakteri, matnga yondashuv masalalri, jumladan, abzas oxiridagi intonatsion tugallik bilan ayrim olingan gapning intonatsion tugalligi farqlanishi masalasi, ba’zi tekshiruvchilarning matnni lingvistikaning mustaqil bir sohasi sifatida («tekst grammatikasi», «tekst lingvistikasi» kabi nomlar bilan) ajratishni zarur deb bilishlari masalasi, shuningdek, gap sintaksisining davomi sifatida qarash, o‘rganishga munosabat masalalariga oid o‘z qarashlarini bayon qiladi.

Olimning bu boradagi qarashlari quyidagi 6 punktda o‘z ifodasini topadi: 1) Fikr bayon qilish gap (sodda va qo‘shma gap) doirasi bilangina yegaralanmaydi; 2) gapdan yirik bo‘lgan butunlikdagi komponentlar (ular shunday komponentlardan tashkil topadi – N.A.) turli jihatlardan (mazmun, grammatik) turli vositalar bilan bog‘langan bo‘ladi; 3) sodda gap butunlik tarkibida ma’lum sharoitlarda o‘zicha bir abzasni tashkil qilishi mumkin; 4) murakkab sintaktik butunlik (kitobda bunday butunlik deb ketilgan – N.A.), sintaktik konstruksiya tekst sanaladi; 5) tekst bir butunlik bo‘lganligidan, u o‘z mundarijasiga mos keladigan ayrim sarlavhalarga ega bo‘lishi ham mumkin. Tekst ayrim segmentlarga – qismlarga (ayrim parchalarga, abzaslarga, gaplarga) bo‘linadi… Nutq tekst tusida namoyon bo‘ladi; 6) tekst – yirik nutq parchasi, abzas esa tekstning bo‘lagi. Tekstning hamma ko‘rinishlari (maksimal tekst va minimal tekst) ma’lum bir temani (mundarijani tugal ifodalaydi. Demak, u yuqori darajadagi sintaktik birlik. U qo‘shma gapdan ham boshqachalik xususiyatlariga ega. Uning mazmun tiugalligi, struktura, bog‘lanish vositalari va intonatsion, stilistik jihatdan ayrim xususiyatlari bor…» (o‘sha kitob, 7-bet).

A.G‘ulomov shu xulosalar so‘ngida, «Tekst sintaksisi o‘zbek tilshunosligida hali o‘rganilmagan» degan fikrni aytadi (7-bet).

A.G‘ulomovning morfologiya bilan sintaksisning munosati haqidagi quyidagi fikri ko‘pchilik tomonidan to‘la tan olindi: « …demak, grammatikaning teng huquqli, mustaqil qismlari bo‘lgan morfologiya va sintaksis bir-biri bilan organik bog‘liq». Bu fikrni asoslash uchun A.G‘ulomov V.A.Bogorodiskiy qarashlariga murojaat qiladi va uning shu boradagi fikrini keltiradi: «Morfologiya ayrim kategoriyalar (so‘z kategoriyalari) va ularning formalari inventaridan iborat, sintaksis esa bu so‘z va formalarning hammasini harakatda va hayotda, nutq sostavida ko‘rsatadi».[1] Ana shu tarzda A.G‘ulomov til sathlari orasidagi bog‘liqlikni, boshqacha aytganda, sintaksisning til tizimida tutgan o‘rnini to‘g‘ri belgilab berdi.

Ayyub G‘ulomov o‘zbek tilshunosligida urg‘u va intonatsiyani mukammal tadqiq etgan olimdir. U ug‘ru va intonatsiyaga oid qarashlarini o‘zining grammatikaga oid ilk darsligidan boshlab bayon etgan bo‘lsa (40-yillar), keyinalik, ya’ni 1947- yilda «O‘zbek tilida urg‘u» hamda «Sodda gap» asarining keyingi nashrlarida bu boradagi asosiy qarashlarini shakllantirib bordi va shunday xulosani aytadi: «Intonatsiya (u) nutqdagi bo‘laklarning bir butun holatini ko‘rsatadi, birikmalarning, ayrim gaplarning turli munosabatlarini ifodalaydi, gapning mazmun, grammatik tugalligini, gapdagi so‘zlarning, gapning mazmunidagi har xil holatlarni, gapning turini uning qanday qismlarga bo‘linishi, undagi ayrim bo‘laklarning ajratilganligini bildiradi. Intonatsiyaning turi ko‘p. U grammatik – fikriy xususiyatga, aytilayotgan fikrning ottenkasiga qarab har gal ayrim tus oladi. Bu fikr, xulosa o‘z qimmatini yo‘qotgan emas, zero, hech kim intonatsiya borasida bundan ortiq fikr aytganicha yo‘q. So‘zlarning bog‘lanishini ta’minlovchi barcha vositalar bo‘yicha A.G‘ulomov aytgan fikrlar haqida ham bu fikrimizni qaytarishimiz mumkin.

А.Ғуломовнинг «Синтаксис» бўйича қолдирган тилшунослик мероси ҳам XX аср ўзбек тилшунослигида алоҳида аҳамият касб этади. Зеро, унинг «Синтаксис» соҳасининг энг мураккаб ва долзарб назарий масалаларига тааллуқли илмий қарашлари мухтасар ҳолда асосланганлиги билан, ҳақиқатан ҳам, XX аср ўзбек илмий синтаксисининг шаклланиши ва тараққиёти учун назарий манба бўлди, илмий грамматиканинг келгувчи тараққиётини ҳам белгилаб берди.

А.Ғуломовнинг синтаксисга оид асосаий илмий қарашлари, бир томондан, П.М.Мелиоранский, В.А.Богородицкий, А.А.Потебня, А.М.Пешковский, Я.Дени, Н.Ф.Катанов, А.А.Шахматов, И.А.Батманов, Е.Д.Поливанов, А.К.Боровков, В.В.Виноградов каби йирик олимлар асарлари доирасида (улар таъсирида), иккини томондан А.Фитратнинг «Сарф» ва «Наҳв» асарлдари таъсирида шакллана бошлади. А.Ғуломовнинг синтаксисга доир қарашларининг тўла шаклланиши, албатта, XX асрнинг ўрталаридан бошлаб шу соҳа бўйиа яратилган ишлар таъсирида бўлди. Бунда йирик рус олимлари А.Н.Гвоздев, Г.А.Золотова, П.А.Лекант (булар анчагина) каби рус олимлари ҳамда Ф.Абдуллаев, Ғ.Абдураҳморнов, М.Асқапрова (булар ҳам анчагина) каби ўзбек олимларининг синтаксис соҳасидаги ишлари муҳим рол ўйнади, дейиш мумкин.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.- T., O‘zbekiston, 2002 . –B.203.
2.To‘ychiboyev.Fitrat - tilshunos.- T., 1995 .y.
3.Qurbonova M.Fitrat – tilshunos -T., Universitet, 1996 .
4.Qurbonova M .Abdurauf Fitrat va o‘zbek tilshunosligi- T., Universitet, 1997 .
5.Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи.- Т., Университет, 2002, Б-203.

“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” VA HOZIRGI O‘G‘UZ SHEVASIDA QO‘LLANUVCHI SO‘ZLAR TALQINI
“DĪWĀN LUGHĀT AL-TURK”AND INTERPRETATION OF WORDS USED IN MODERN OGUZ DIALECT

[1] В.А.Богородицкий. Очерки по языковедению и русскому языку, Москва. Учпедгиз. 1939, стр.204.

D. Baxronova
ToshDO‘TAU dotsenti, fil.f.f.d. (PhD)
R.Yangiboyeva
4-kurs talabasi

Abstract: This article analyzes specific features of Makhmud Koshgari’s works from the linguistic point of view. The erudite’s main purpose is to demonstrate the opportunities of language with the help of perfect word usage.

Key words: *Devoni lug‘otit turk, dialect, regional accent, chavoq, yilidi*

Devon oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma‘lum bo‘lmagan alohida bir tartibda tuzilgan.
(Mahmud Qoshg‘ariy)

O‘rta asr madaniyatining buyuk arboblaridan bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariy Markaziy Osiyoda tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o‘rganish sohasida mashhur bo‘ldi va tarixda o‘chmas iz qoldirdi. U 11 asrdayoq turkiy tilshunoslik tarixida ilk bor turkiy tillar o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlagan holda jahon lingvistikasida **qiyosiy-tarixiy tilshunoslik**ka asos soldi. Hozirgacha topilgan manbalar ichida qiyosiy-tarixiy metodologiya bo‘yicha bundan qadimiyroq manba uchramaydi.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk“ asari eski turkiy tilning, turkiy lug‘atchilikning tengsiz yodgorligi sifatida butun turkiy olamda ardoqlanadi, unda turkiy tillar fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. So‘zlarning etimologiyasi izohlanar ekan, u bilan bog‘liq dalillar – rivoyatlar, parchalar, to‘rtliklar keltiriladi. Ushbu asar orqali olim turkiy leksikografiya ilmining tamal toshini qo‘yish bilan birga, bu sohani yuqori darajaga olib chiqdi. Qadimgi xalq maqollari, doston va qo‘shiqlaridan olingan parchalar, iboralar, shuningdek, sheva materiallari asar uchun asos bo‘lishi bilan birga ularni bizning davrimizgacha yetib kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu manbani o‘rganish barobarida tarixchilar, tilshunoslar o‘sha davrga xos bo‘lgan terminlarni o‘rgandilar, Alp Er To‘nga kabi tarixiy-afsonaviy qahramonlar obrazlarini tiklashga muvaffaq bo‘ldilar.

Quyidagi chizma Devon haqida qisqa ma’lumotni o‘zida jamlaydi:

Muallif turkiy tillarni tasniflar ekan, ular orasida eng yengili **o‘g‘uz lahjasi**da so‘zlovchi kishilar tili ekanligini aytib o‘tadi. Alloma bu fikrlarni ko‘p yillik kuzatish va izlanishlariga tayanib ilgari suradi. Chunki u Bolosog‘unda tug‘ilishiga qaramay, uzoq yillar Qoshg‘ardan boshlab, butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg‘onistonga qadar cho‘zilgan turkiy o‘lkalarni, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini kezib, turli lahja va shevalarning xususiyatini o‘rgandi, ularni adabiy til bilan chog‘ishtirdi, o‘z asari uchun nihoyatda boy material to‘pladi. Shu sababli asarda shevashunoslik

bilan bog‘liq qiyosiy xulosalar, leksik-semantik xususiyatlar aniq tavsif etib ko‘rsatilgan. Foydalanuvchiga osonlik tug‘dirishi uchun sodda til bilan yozilgan.

Darhaqiqat, “Devonu lug‘oti-t-turk“ asarida 8000 dan ortiq turkiy so‘z va iboralar izohlangan. Yuzlab kishi ismlari bilan bir qatorda, shahar va qishloq nomlari; dara, dovon, yaylov, vodiy kabi geografik atamalar; turli qabila, urug‘, elatlar; yulduzlar, sayyoralar va yil fasllari ham tilga olinadi. 300 ga yaqin maqol, matallar, 700 satrdan ortiq she‘riy parchalar (ular turkiy xalqlar og‘zaki ijodidan olingan) asardan o‘rin olgan.

“Devonu lug‘oti-t-turk”dagi so‘zlarning ayrimlari garchi adabiy tilda uchramasa-da, bugungi kunda o‘g‘uz lahjasida so‘zlovchi kishilar nutqida, aynan, qo‘llaniladi. Quyida ularga bir nechta misollar keltirib o‘tamiz:

T/r	“Devonu lug‘oti-t-turk“da qo‘llanishi	Adabiy tildagi muqobili	O‘g‘uz lahja (Xorazm sheva)sida ishlatilishi (izohi bilan)
1	tikach	Chakich	Tikach urmoq – chakichlamoq
2	cho‘tur	yomon xulqli	Dim cho‘tir – juda yomon kishi
3	qisir	tug‘maydigan (asosan chorva mollariga nisbatan ishlatiladi)	Ser qisir qoldi-sigir endi bolalamaydi.
4	chaboq	chavoq (mayda baliq)	Dudanga chavoq tushdi – kichkina ov asbobiga mayda baliq ilindi.
5	chanoq	kichkina idish	Chanoqqa solmoq – idishchaga ovqat suzmoq
6	qatti	aralashtirdi	Qayishga qatiq qatmoq – xamirli ovqatga qatiq aralashtirmoq
7	chachitmoq	sachratmoq	Moyg‘a suv chachradi – yog‘ga suv sachradi.
8	kechitti	kechiktirmoq	Erta kunni kechitti – bitadigan ishni kechiktirdi.
9	yilig	Ilik	Kallago‘shning yiligi – mol kallasining iligi
10	yilidi	Ilidi	Yilimchi suv – iligan suv
11	qayishmoq	g‘amxo‘rlik qilmoq	Ajinasi qayishmidi – jini suymaydi
12	qirchadi	sirg‘anib o‘tdi	Bugungi kunda yengil yaralamoq ma‘nosida qo‘llaniladi: o‘roq qo‘limni qirchidi – qo‘limdan sirg‘anib o‘tib, uni yaraladi
13	tishadi	qayradi (charxladi)	Katmanni tisha – ketmon toshini charxla
14	o‘nu	Uni	O‘nu-mo‘ni qo‘y – gapni to‘xtat
15	mo‘nu	Buni	Mo‘nu nishatamiz? – Buni nima qilamiz?
16	qarabash	qullarga nisbatan ishlatilgan	Hozirgi vaqtda o‘z ma‘nosidan uzoqlashib, dalaga ekiladigan ekinga nisbatan ishlatiladi.
17	yaranmoq	xushomad qilmoq (yoqishga harakat qilmoq)	Galin yaranishning go‘yinda – kelin yangi oilasiga yoqishning ko‘yida.
18	sarmatti	o‘ratti	Yengimni sarma – yengimni qatlab o‘ra!
19	jarlatti	yig‘latdi(baqirtirdi)	Jarlatovarma – baqirtiraverma
20	charlatti	yig‘latdi(chaqaloqlarga nisbatan)	Ukasini charlatti – ukasini yig‘latti
21	charmadi	Tugdi	Arqonni charmadi – arqonni o‘rab tugdi.
22	kizlamoq	Yashirmoq	Guyavning kavushini gizlamoq – kuyovning oyoq kiyimini yashirmoq

			(marosim)
23	sarqindi	Silqindi	Sarqindi suv – chiqindi suv
24	chibiq	chiviq (xivich)	Chibiqladim – chiviq bilan urdim
25	qapug‘	Eshik	Qapini yap – eshikni yop

Bu kabi misollar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Ular xalqning ma‘naviy mulkiga aylanib ulgurgan. So‘zlarning oldin qay yo‘sinda ifoda etilganini bilmoqchi bo‘lsak, kitobning o‘ziga murojaat qilishimiz mumkin.

Ko‘rinadiki, bugungi o‘zbek shevalarini o‘rganishda “Devonu-lug‘oti-t-turk“ asari eng muhim nazariy manba hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan shevaga xos birliklarni ushbu asarni o‘rganish orqali izohlashimiz va uni ba’zi o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan so‘zlar o‘rniga qo‘llash mumkin.

Umuman olganda, “Devonu-lug‘oti-t-turk“ qomusiy asar. Muallifning tilshunoslik va adabiyotshunoslik bilan bir qatorda, terminologiya, tarix, geografiya, etnografiya sohasidagi bilimlari, olamni falsafiy tadqiq etishi bugungi kunda ham hayratga sabab bo‘lmoqda. Asarni o‘rganish, uning yangi qirralarini kashf etish, tilshunos ko‘zi bilan boqib, til boyliklarini teran anglash – biz yoshlarning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu-lug‘oti-t-turk“. – Toshkent, 2-jild, 2011.
2. Abdullayev F. Xorazm shevalari –T., 2010. – 75 b.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma.–T.: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.

ЎЗБЕК ТИЛИГА ОИД ТИББИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛУҒАТЛАРДА БЕРИЛИШИ ВА СЕМАНТИКАСИ
DICTIONARIES AND SEMANTICS OF MEDICAL TERMS RELATED TO THE UZBEK LANGUAGE

Б. Суюнов
ЎзМУ докторанти
Филология бўйича фалсафа фанлари доктори

Abstract: This article is devoted to the dictionary of medical terms and their semantics in Uzbek.

The author makes appropriate use of existing scientific sources in the coverage of the topic and scientifically and theoretically reveals their lexical peculiarities on the example of some medical terms. Based on the evidence presented in the dictionaries, a detailed analysis of the etymology and semantic features of each term was provided.

The fact that the article focuses more on the national-cultural features of medical terms has increased its social significance.

Keywords: *term, semantics, lexical unit, semiotics, metaphor, semema, metonymy*.

Ўзбек халқ табобати ўзининг қадимий ва миллий анъаналарига эга. Тилимиздаги терминларнинг муайян қисмини ўзбекча тиббий терминлар ташкил этади. Шу билан биргаликда, ўзбек тили тиббиёт терминологиясида хорижий тиллар, жумладан, юнон, лотин, рус, араб, тожик ва бошқа тиллардан ўзлаштирилган терминлар ишлатилиб келинмоқда. Бундай халқаро терминларнинг ҳам она тилимиз тараққиётида ўз ҳиссаси бор.

Туркий тилда сўзлар ва атамаларнинг илк қиёсий тадқиқотчиси Маҳмуд Кошғарийдир. Тилшуносликка доир терминларнинг дастлабки намуналари “Девону луғотит турк”асарида учрайди. Бу асарда туркий сўз ва терминлар билан биргаликда, арабча ва тожикча сўз ва терминлар ҳам тадқиқ қилинган.

У ўз замонасида туркий тилнинг турли лаҳжаларидаги термин, сўз ва атамаларни тўплабгина қолмасдан, уларга илмий изоҳ ва шарҳлар ҳам берган.

Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, шунингдек илм-фан ютуқларининг ҳаётга кенг татбиқ этилиши натижасида янги-янги терминлар тилимизга кириб кела бошлади ва ўзлаша борди. Бу эса терминларни тартибга солиш мақсадида, уларнинг хусусиятларини чуқурроқ

ўрганиш, гуруҳлаш, луғатлар яратиш орқали терминларни тўғри тасниф ва тавсиф қилишни тақозо этди.

Ўзбек тилшунослигида терминларни назарий ва амалий жиҳатдан ўрганиш, асосан XX аср бошларидан бошланган ва турли фан соҳаларига оид терминларни ҳар томонлама, яъни ҳам илмий-назарий, ҳам амалий жиҳатдан ўрганиш изчил тус олди.

Термин ва терминологиянинг назарий асослари лингвистик жиҳатдан таҳлил этилган диссертациялар юзага келди, мукаммал терминологик луғатлар яратишга киришилди. Натижада, терминология масалаларига бағишланган номзодлик ва докторлик диссертациялари, монография ва рисолалар, кўплаб илмий-назарий мақолалар юзага келди, терминологик луғатлар чоп этилди. [Тўрақулов, 1922, Ҳасан М. 1926]

Кейинги йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, Тил ва адабиёт илмий тадқиқотлар институтида терминология масалаларига бағишланган бир қатор монография ва илмий мақолалар тўпламлари нашр этилган. Номзодлик ва докторлик диссертациялари тайёрланган ва ҳимоя қилинган. Илм-фаннинг турли соҳалари терминларига оид луғатлар яратилган.

Жумладан, терминологиянинг илмий-назарий масалалари устида изланишлар олиб борган ўзбек тилшунослари У.Турсунов, С.Иброҳимов, Н.Маматов, С.Усмонов, Р.Дониёров, А.Қосимов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, А.Собиров, А.Усмонходжаев, А.Ҳожиев, Р.Расулов, Ҳ.Дадабоев, З.Мираҳмедованинг илмий тадқиқотларида ўзбек терминологиясининг турли масалалари ёритилган.

Ҳозирги даврда терминларни атрофлича тадқиқ этиш билан биргаликда, уларни тартибга солиш ва барқарорлаштириш сингари амалий масалаларга ҳам катта эътибор берилмоқда.

Хусусан, тилшуносликда, унинг лексикология соҳасида тилнинг асосий луғавий бирлиги – лексемалар ўзаро узвий боғлиқ ҳолда маъновий гуруҳларга ажратиб ўрганилмоқда.

Ўзбек тилшунослигида кейинги даврларда ўзбек тили лексикасини семасиологик жиҳатдан “шаклдан мазмунга” тамойили асосида ўрганишга эътибор кучайди [Турсунова, 2009: 12].

Лексик бирликларни семалар асосида таҳлил қилишга кейинги пайтларда алоҳида эътибор қаратилмоқда. Чунки бундай усулдаги таҳлил сўз семантикасига алоқадор жуда кўп ҳодисаларнинг моҳиятини тўғри белгилашга имкон беради [Ғойибов, 1981: 203].

“Сема лексик маънонинг энг кичик бўлагидир. Сўзларнинг маъно компонентлари таркибини аниқлашда семеманинг барча параметрлари билан маъно қирраларини ҳисобга олиш зарур” [Новиков, 1982: 130].

Профессор Ш.Раҳматуллаев сема ва семеманинг ўзаро муносабатини қуйидагича талқин қилади:

“Бир туркум семемаси асосида бошқа бир туркум семемаси юзага келиши учун туркумлик семаси (*предмет, белги, ҳаракат* кабилар) бу семемаларнинг семалар таркибига тил босқичида бириктирилган бўлиши керак. Акс ҳолда, бир туркум лексемасининг бошқа бир туркум лексемаси каби (ўрнида) ишлатилиши ҳодисаси юз беради, бунда янги семема ҳам, янги лексема ҳам юзага келмайди” [Раҳматуллаев, 1984: 11-12].

Лексик бирликнинг янги маънога эга бўлиши тилнинг муайян ички ёки ташқи имкониятлари ва қонуниятлари асосида рўй беради. Ижтимоий ҳаёт, илм-фан, техника ва тафаккур тараққийси табиий равишда тилдаги сўзлар ва терминлар, уларнинг маъноларини ҳам ривожлантиради, янги маъноларнинг пайдо бўлиши ва қўшилишига, шунингдек янги сўз ва терминларнинг юзага келишига олиб келади. Масалан, *бир* сўзининг *“миқдор сон”, “ўлчов”, “қисм”, “тахмин”, “имконият”, “қатъият”, “бирдамлик”, “ҳамкорлик”, “қиёс”, “тафсилот”, “ёлғиз”, “ортиқлик”, “камлик”, “тезлик”, “эҳтиёт”, “нав”, “уддабуронлик”, “доимийлик”, “оқибат”, “тасодиф”, “сир”, “тасалли”, “шарт”* каби маънолари илмий адабиётларда қайд этилган [Абдураҳмонов, 1966: I, 152].

Қуйида терминологик тизимдан ўрин олган ўзбекча тиббий терминларнинг баъзиларини, уларнинг луғатларда берилиши, лексик-семантик хусусиятлари, яъни маъно доиралари нуқтаи назаридан кўриб чиқамиз:

Безгак (малярия) – паразитар касаллик; иситма тутиши, қонда ўзгаришлар содир бўлиши, жигар ва талоқнинг катталашуви билан кечади. Безгакнинг қўзғатувчиси плазмодийлар (4 та тури) бўлиб, улар безгак чивини ва одам организмида кўпайиб, ривожланади. Касаллик манбаи бемор ва безгак чивинининг урғочиси ҳисобланади. Касаллик соғлом одамга чивин чаққанда, одам организмига унинг сўлаги орқали қўзғатувчилар тушганда юқади.

Қон оқими билан улар жигарга тушади, бу ерда ривожланишнинг биринчи (тўқима) цикли рўй беради, сўнгра яна қонга тушади ва эритроцитлар ичига кириб олади, бу ерда иккинчи (эритроцитар) ривожланиш цикли ўтиб, эритроцитларнинг парчаланиши ва қонга кўп миқдорда қўзғатувчилар чиқиши билан тугалланади, бу жараён одамни иситма тутиши билан ўтади [Саломатлик энциклопедияси, 1983: 41].

Безгак – Ўзбекистонда кам учрайди. Қувватсизлик, эт увишиб, жунжикиш ва иситмалаш билан бошланади. Иситма бир неча кун кўтарилиб, пасайиб туриши мумкин. Иситма кўтарилганда одам қалтирайди, пасайгандан сўнг терлайди. Иситма ҳар 2 ёки 3 кунда бир неча соатга кўтарилиб туради. Бошқа кунлари касал тузук бўлиши мумкин [Вернер, 2014: 46].

Малярия – Malaria – группа близких друг другу протозойных болезней человека, возбудителями которых являются четыре вида гемоспоридий рода Plasmodium [Усманходжаев, 2013: 255].

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да *безгак* терминининг қуйидаги икки хил маъноси ўз аксини топган:

1. Вақти-вақти билан иситма чиқариб, қалтиратадиган юқумли касаллик. *Саратоннинг айни қизғин кунларида безгак авж олади.* Ҳ.Ғулом, Феруза.

2. Безгак касаллиги билан оғриган одам. *Нури бу воқеанинг учини эшитган ҳамон, безгакдай қалтираб кетди*. Ойбек. Танланган асарлар. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006: I, 210].

Безгак терминининг шу касаллик билан оғриган одам маъноси, ўзбек тилида маъно кўчиши асосида юзага келган ва кўчма маънода ишлатилади. Бу ерда сўзларда маъно кўчишининг *метафора* усули (юнонча metaphora – “кўчирма” демакдир) кузатилади. Яъни бирор предмет ёки ҳодиса бошқа бир шундай предмет, ҳодиса билан ўзаро ўхшашлик асосида номланади.

Мазкур лексеманинг келиб чиқиши ҳақида илмий манбаларда қуйидагича фикр юритилади:

Бу от қадимги туркий тилда *“қалтира”* маъносини англатган **без-** феълининг [Кошғарий, 1960:15] *“такрор”* маъносини ифодаловчи **-га** қўшимчасини қўшиб ҳосил қилинган шаклидан **-к** қўшимчаси билан ясалган [Кошғарий, 1960:334]. **Без + га → безга + к → безгак** [Раҳматуллаев, 2000: 42].

Юқоридаги изоҳдан маълумки, ***безгак*** касалининг номи ясама сўз бўлиб, ***без*** феълига такрорийлик отини ясовчи ***-га*** қўшимчасини қўшиш билан ясалган. Сўнгра бу ҳосила сўзга ***-к*** от ясовчи қўшимча қўшилган ва ўзбек тилида касаллик номини ифодаловчи тиббий термин юзага келган. Бу сўзда, дастлаб феълдан от ясалгани ва яна отдан от ясалганлиги, яъни икки хил от ясовчи қўшимчалар (**-га** ва **-к**) иштирок этганини кўришимиз мумкин.

Буқоқ (зоб) – қалқонсимон безнинг ўсма шаклида катталашуви. Касаллик кўпинча шу без функцияси ва организм умумий ҳолатининг бузилиши билан кечади. Буқоқнинг бир неча тури бор. *Эндемик буқоқ* билан кўпинча Ўрта Европанинг тоғли ҳудудлари (Альп, Карпат), Осиё (Ҳимолай, Тянь-Шань), Африка (Эфиопия), Америка (Кордильера, Қояли тоғлар)да яшайдиган аҳоли касалланади. Санитария-гигиена шароитининг ёмонлиги ва асосан сув, тупроқ ҳамда ҳавода, шунингдек озиқ-овқат маҳсулотларида йод етишмаслиги касалликка сабаб бўлади. Соғлом одамга бир кеча-кундузда граммнинг миллиондан 100-200 қисмича

йод керак. Йод шундан кам истеъмол қилинса, қалқонсимон без йодли гормон – тироксинни кам чиқаради.

Спорадик (онда-сонда учрайдиган) *буқоқ* беморнинг турар жойига боғлиқ бўлмаган ҳолда ривожланади, касаллик кенг тарқалмайди.

Диффуз токсик буқоқ касаллигида қалқонсимон без катталашуви билан бирга функцияси кучаяди (гипертиреоз). Буқоқнинг айрим формалари қалқонсимон безнинг хроник яллиғланиши ёки ўсмалар пайдо бўлиши билан кечади [Саломатлик энциклопедияси, 1983: 64].

Буқоқ 1. Қалқонсимон без фаолиятининг бузилиши натижасида ушбу безнинг катталашуви билан боғлиқ касаллик; шу касаллик натижасида катталашган қалқонсимон без. *Олдин шу сабил буқоғимни даволатиб олсайдим.* С.Нуров, Нарвон.

Буқоқ 2. Шу касалликка йўлиққан, қалқонсимон бези катталашган одам. *Салим буқоқ.*

Буқоқ 3. Дарахт танасининг зарарланиши натижасида унда ҳосил бўлган шиш, ғурра. *Ёнғоқ буқоғи* [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006: I, 392].

Буқоқ – бу сўз қадимги туркий тилда "томоқдаги шиш" маъносини англатган **бук** отидан [Древнетюркский словарь, 1969:124] кичрайтириш маъносини ифодаловчи **-(а)қ** қўшимчасини қўшиш билан ҳосил қилинган [Севортян, 1974: II, 202]

Ўзбек тилида **қ** ундоши таъсирида унинг олдидаги **а** унлиси **о** унлисига алмашган: **бук+ақ → буқақ → буқоқ** [Раҳматуллаев, 2000: 73].

Буқоқ тиббий термини от туркумига киради ва нима саволига жавоб бўлади. Тиббиёт соҳасидаги касаллик номларидан бирини англатувчи мавҳум, турдош от ҳисобланади.

Зоб -а, о зобе, в зобу, *мн.* -ы, *м.* 1. Расширенная часть пищевода (у птиц, насекомых, моллюсков), где предварительно обрабатывается пища.

2. Болезнь, выражающаяся в увеличении щитовидной железы.

3. Ожирение шеи под подбородком (разг.) // *прил.* зобный, -ая, -ое [Ожегов, 1953:203].

Зоб – Struma – увеличение щитовидной железы, обусловленное недостатком йода в окружающей природе, в местных пищевых продуктах [Усманходжаев, 2013: 181-182].

Буқоқ тиббий терминининг рус тилидаги изоҳида қушлар, ҳашаротлар, моллюскаларнинг овқат ўтиш (қўшимча овқат ҳазм қилиш) йўлининг кенгайган қисми унинг дастлабки маъноси сифатида кўрсатилан. Ушбу терминнинг иккинчи маъноси қалқонсимон безнинг катталашуви билан боғлиқ касалликдир. Унинг учинчи маъноси томоқ остидаги бўйинни ёғ босиши деб берилган.

Ўзбек тилидаги изоҳида ушбу терминнинг биринчи маънолари қалқонсимон без фаолиятининг бузилиши ва безнинг катталашуви билан боғлиқ касаллик номи; шу касаллик натижасида катталашган қалқонсимон без. Иккинчи маъноси шу касалликка йўлиққан, яъни қалқонсимон бези катталашган одам ва учинчи маъноси дарахт танасининг зарарланиши натижасида унда ҳосил бўлган шиш, ғурра. Буқоқ терминининг кейинги учинчи маъноси ўзаро ўхшашлик асосидаги метафорик маъно кўчимига мисол бўлади. Дарахтдаги шиш, ғурра одамнинг томоғидаги ғуррага ўхшатилган.

Куйдирги (сибирская язва) – ўткир инфекцион касаллик; одамга ҳайвонлардан юқади; тери, меъда-ичак йўли ва ўпкага зарар етказади. Бу касаллик қадимдан маълум. Гиппократ ҳам бу ҳақда ёзиб қолдирган. Куйдирги оғир ва хавфли касаллик, яқин ўтмишда ҳам бу касалликка учраган беморлар кўпинча ўлган.

Куйдиргининг олдини олишда эмлаш жорий этилиши, қишлоқ хўжалик ҳайвонларини ветеринария-санитария қоидаларига риоя қилиб боқиш туфайли ҳайвонлар ва одамлар ўртасида куйдирги билан касалланиш жуда камайди. Замонавий методлардан фойдаланиб, барвақт ва рационал даволаш касалликнинг хатарли оқибатларсиз кечишини таъминлайди [Саломатлик энциклопедияси, 1983: 221].

Сибирская язва – anthrax – инфекционная болезнь из группы зоонозов [Усманходжаев, 2013: 428].

Куйдирги одамга ҳайвонлардан юқадиган тери, меъда-ичак ва ўпкага зарар етказадиган ўткир юқумли касаллик. *Қорамол, қўй ва эчкилар кўпинча куйдирги ҳамда оқсил касалликлари билан оғрийди.* О.Азизхўжаев, Эҳтиётлик шартлари.

Куйдирги чиқмоқ баъзи сўзлар билан қўлланиб, шу сўз билдирган нарсанинг йўқ бўлиши, йўқлиги; шундай бўлиши ҳақидаги қарғиш маъноларини билдиради. *Менинг ўз отим бор! Ўз отимга куйдирги чиққан эмас!* А.Қаҳҳор, Оғриқ. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006: II, 422].

Куй – "аланга (иссиқ) таъсирида ёниб, истеъмолга яроқсиз (кўмир) ҳолатига ет". *Чиқиндилар оловда бирпасда куйиб кул бўлди.* Қадимги туркий тилда ҳам шундай маънони англатган бу феъл асли **кой** тарзида талаффуз қилинган [Древнетюркский словарь, 1969: 312] ўша даврлардаёқ, **о** унлиси **ў** унлисига алмашган [Кошғарий, 1960: III, 264]. Ўзбек тилида **ў** унлисининг юмшоқлик белгиси йўқолган: **кой → кўй → куй** [Раҳматуллаев, 2000: 213].

Куй – ушбу буйруқ шаклидаги феълга унинг орттирма даражаси шаклини ясовчи **-дир** қўшимчаси қўшилган: **куй+дир → куйдир** тарзида ва мазкур ҳосила сўзга **-ги** – пайт маъносини англатувчи от ясовчи қўшимча қўшилган: **куйдир+ги → куйдирги**, натижада юқумли касаллик номини билдирган тиббий термин юзага келган. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, *куйдирги* касалининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, бу терминни салбий маъно (оттенка)да қўллаш таомилга кирган. Бирор нарсага *куйдирги чиқсин* дейилса, демак шу нарсанинг барбод бўлиши кўзда тутилади. Бу эса *куйдирги* касалига чалинган одамнинг соғайиб кетиши қийин эканлиги ёки бу касални даволаш мураккаблигидан далолат беради.

Шу билан биргаликда, ушбу термин бирор нарса ёки ҳодисага нисбатан ишлатилганда, унинг кўчма маъноси реаллашади. Бу ерда маъно кўчишининг *метонимия* усули, яъни ўзаро боғлиқлик асосида маъно кўчишини кузатишимиз мумкин.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, юқорида *безгак, буқоқ, куйдирги* каби соф ўзбекча терминлар семантик нуқтаи назардан кўриб чиқилди. Шуларнинг ўзидан маълум бўладики, бундай касалликларнинг ўзбекча номланиши бежиз эмас. Мазкур касалликларнинг пайдо бўлиши лингвистик жиҳатдан қадимий, миллий-тарихий хусусиятларга эга. Ҳар бир терминнинг асл маъноси билан биргаликда, унинг кўчим асосида пайдо бўлган ҳосила маънолари, шунингдек ўзга тиллардан ўзлашган эквивалент маънолари ҳам бўлиши мумкин. Тилда ана шу терминларнинг маъноларидан мақсадли ва ўринли фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Умуман, юқоридаги мисоллардан терминологик тизимда ўзбекча тиббий терминларнинг ўзининг келиб чиқиш тарихи ва ўзига хос хусусиятлари мавжудлигини кўриш мумкин ва ушбу ҳодисалар бошқа тилларда учрамайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдураҳмонов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: 1966.
2. Вернер Д. ва бошқалар. Ҳаммабоп тиббиёт қўлланмаси. – Тошкент: 2014
3. Даниленко В.П. Русская терминология. М., 1977
4. Древнетюркский словарь. Лгр.: 1969
5. Кондаков Н.И. Логический словарь. Москва: 1971
6. Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. Тошкент: "Фан", 2010
7. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент: 1960, I – III
8. Новиков Л.Н. Семантика русского языка. – Москва: 1982
9. Расулов Р. Термин хусусиятлари. // СамДУ Ахборотномаси. 2005 йил
10. Расулов Р., Суюнов Б., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. Тошкент, 2010
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1984
12. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: "Университет", 2000

13. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. – Москва: 1974, I – IV
14. Турсунова О.Ф. Тарихий манбаларда ҳуқуқ терминларининг қўлланиши. Филология фанлари номзоди дисс. .. автореф. – Тошкент: 2009
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва: 1981
16. Ғойибов С. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: “Фан”, 1981

“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARIDA BIR NECHA SO‘Z TURKUMIGA XOS OMONIMLAR SEMANTIKASI
SEMANTICS OF WORD GROUP OF HOMONIMS DEVONU LUGOTI-T-TURK

N. Kilichov
Qoraqalpoq davlat universiteti
f.f.f.d. (PhD)
S.Yangiboyeva urayyo
talaba

Abstract: This article analyzes the semantics of homonyms specific to several word groups in the ancient Turkic language and reveals their relationship to modern Turkic languages.

Key words: *Turkic languages, Devonu lugoti-t-turk, omonim, vocabulary, nouns, semantics.*

Tildagi so‘zlarning ma’lum qismi shakl yoki ma’nosiga ko‘ra o‘zaro aloqador butunlikni tashkil etadi.Tilning paydo bo‘lish davridan boshlab uning shakllanish jarayonida bunday butunlikdagi so‘zlar ham asta-sekin shakllanib, asrlar davomida sayqallanib kelingan. Mana shunday butunliklardan biri bu omonimlik hodisasidir. Bunday so‘zlarning Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida keltirilib o‘tilganligining o‘zi ham X-XI asrlarda omonimlarning keng ko‘lamda iste’molda bo‘lganligidan guvohlik beradi. Omonimlar material tomonidan, ya’ni qaysi so‘z turkumlaridan bo‘lishiga ko‘ra asosan ikki turga bo‘linadi: 1. Bir so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan omonimlar. 2. Bir necha so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan omonimlar [Pinxasov, 1969:17].

Devonda omonim so‘zlarning juda ko‘p shakllari qo‘llanilgan bo‘lib, shulardan biri bir necha so‘z turkumli omonimlardir. Masalan, ‘ush’ so‘zi bir necha so‘z turkumida doirasida omonimlikni yuzaga keltirgan. 1) ush – shunday, huddi; Ush mundag‘ qïl – huddi shunday qil. 2) ush – hozirgina, shu onda; Ush kəldÿgÿm bu – hozirgina kelib turgandim. 3) ush – har qanday daraxt, shox, butoqning o‘rtasi, o‘zagi; möңÿз ушї – shoh (mÿngiz) o‘rtasi; Shuningdek qush va otlarning dum suyaklariga yoki dum chiqadigan o‘rinlariga ham ush deyiladi [Koshg‘ariy, 1960:72]. Ko‘rinadiki birinchi so‘z yordamchi so‘z turkumiga, ikkinchi so‘z ravish so‘z turkumiga, uchinchi so‘z esa ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan holda omonimlikni yuzaga keltirgan.

Mana shu omonimlarning o‘zi ham ikkita so‘z turkumi asosida, uchta so‘z turkumi asosida, ba’zilari esa to‘rt xil so‘z turkumiga tegishliligi asosida hosil bo‘lgan. Masalan, janїғ so‘zi ikki so‘z turkumiga tegishli omonim so‘zdir. Ya’ni janїғ – qusuq. Ol janїғ janдї – u ko‘p qusdi. Bu yerda ot so‘z turkumida. Janїғ – yonish, g‘azablanish. Бəг janїғїында тўшмä – bek va boshqalar yonishiga, g‘azablanishiga yo‘liqma [Koshg‘ariy, 1963:21-22]. Ushbu holatda esa fe’l so‘z turkumida qo‘llanilgan. Devonda esa bunday shakldagi omonimlar so‘zlarga qaraganda, uch so‘z turkumi doirasidagi omonimlar kam miqdorda uchraydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bu so‘zlarni qo‘llanilishi jihatidan qiyoslaydigan bo‘lsak, bugungi kunda muqobiliga ega bo‘lgan va bo‘lmagan bir necha so‘z turkumli omonimlarni uchratishimiz mumkin. Xususan, Devonda qo‘llanilgan азуқ: so‘zini olaylik. Bu so‘z uch xil: sifat, fe’l va ot turkumlarida qo‘llanilganligiga ko‘ra omonimdir. Ya’ni, 1) азуқ: - азуқ оқ – yashirin o‘q, kim otganligini aniqlash qiyin bo‘lgan o‘q. Sifat so‘z turkumi. 2) азуқ: - азуқ мунқ – qochgan; yo‘ldan ozgan; adashgan. Fe’l so‘z turkumi. 3) азуқ – oziq, oziq-ovqat; shu maqolda keladi: сартнїң азуқї арїғ болса, jол ўзä jəр – savdogarning moli toza, beshubha bo‘lsa, yo‘l ustida yeydi. Bu maqol aytgan so‘zning uddasidan chiqa olmagan, quruq maqtanchoqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ot so‘z turkumi [Koshg‘ariy, 1960:97]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida Devondagi ushbu so‘zlar va bugungi kundagi muqobil shakli ham omonimlikka ega emas. Endi ачїғ so‘ziga e’tiborimizni qaratamiz. Ushbu so‘z ham uch xil ma’nodagi omonim so‘zdir. Bular: 1) ачїғ – xon yoki shohning baxshishnomasi, mukofoti; Хан мəңä ачїғ бəрді – xon

menga mukofot berdi. Ot so‘z turkumi. 2) ачїғ – noz-ne’matlar ichida yashash, noz-ne’matlardan bahramand bo‘lish; özўңні ачїғлїғ тут – O‘zingni yaxshi tut! Noz-ne’matlardan bahramand bo‘l, oziqlan, demakdir. Fe’l so‘z turkumi; 3) ачїғ – achchiq; achchiq bo‘lgan har bir narsa. Sifat so‘z turkumi [Koshg‘ariy 1960:94].

Yuqoridagi so‘zlarning Devondagi shakli va bugungi kundagi muqobil shakli ham uchinchi so‘zdan tashqari omonimlikka ega emas. Uchinchi so‘zdan tashqari deyishimizning sababi, ushbu so‘z bugungi kunda ham ачїғ so‘zining omonim ekanligidan dalolat beradi. Lekin bu omonim so‘zlar qo‘llanilishiga ko‘ra, ya’ni qanday ma’noda kelishiga ko‘ra farq qiladi. Xususan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ачїғ so‘zi achchiq shaklida qo‘llaniladi va uning omonimligi quyidagicha:

1) achchiq [asli achi – “ achchiq, taxir, nordon holatga kelmoq” + q – sifat yasovchi affiks] sifat. 1. Qalampirga o‘xshab ta’sir qiladigan, shirinning aksi [горький]. Achchiqtosh, achchiqtomir, achchiq-chuchuk, achchiq-tizik. Achchiq narsa. Achchiq dori. Ovqat achchiq bo‘lib qolibdi. Achchiq narsalar yegim keladi. Abdulla Qodiriy, O‘tgan kunlar.

2) achchiq [asli achi – “jahllanmoq” + q – ot yasovchi affiks] ot. Jahl, qahr, g‘azab [злость, гнев]. Achchiqlanmoq, achchiq-alam, achchiq-tirsiq. Achchig‘i tez. Achchig‘i chiqdi. Achchig‘i keldi. Achchig‘idan tushdi. Achchiq ustida. “Nega achchig‘ing chiqadi, Po‘lat?” – dedi Bahor muloyimlik bilan. Sharof Rashidov, Qudratli to‘lqin[Rahmatullayev, 1984: 23-24].

Devonda shunday so‘zlar ham borki, ularning XI asrdagi ma’nosi bugungi kunda ham saqlangan holda omonimlikni hosil qilmoqda. Masalan, burun so‘zini olaylik. Bu so‘z Devonda ikki xil ma’noda ot hamda ravish so‘z turkumi sifatida qo‘llanilgan. 1) бурун – burun. Тағ бурнї – tog‘ burni.. Ot so‘z turkumi. 2) бурун – oldin, burun, ilgari. Ол мәндан бурун бардї – u mendan oldin bordi. Bu so‘z shaklda emas, ma’noda arabchaga o‘xshaydi [Koshg‘ariy 1960:379]. Ravish so‘z turkumi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ushbu ma’nolar to‘la saqlanib qolgan. Buni misollar orqali ko‘ramiz: 1) burun – ot. Hidlash organi [нос]. Burundor, burunaki. Burun kataklari. Burun tortmoq. Qirg‘iy burun. Qirra burun. Og‘iz-burun o‘pishmoq. Ko‘chadagi “tez yordam” mashinasi... burniga ko‘zoynak qo‘ndirgan, xuddi shunday oq xalatli novchagina kasalxona vrachi, bemor opani ularga topshirayotgan Dilbar bilan Olya derazadan shundoqqina ko‘rinib turibdi. Hamid G‘ulom, Binafsha atri. 2) burun – [<bur+un] ot; geografiya termini. Dengizga turtib chiqqan quruqlik (burchak hosil etib turadi) [мысь]. Chelyuskin burni. Jarning narigi tomoni bir tepadan iborat bo‘lib, janub biqini ma’lum Chaqar suvi bilan, g‘arbi Bo‘zsuv va Ko‘kcha arig‘i bilan o‘ralgan burun (O‘tgan kunlar). 3) burun – ravish. Ilgari, avval [раньше]. Burungi. Burun shunday edi, hozir o‘rganib ketgan. Uning yuzlari shu qadar so‘lib qolgan ediki, bundan bir nechagina yil burun o‘z chiroyi bilan hammani hayratda qoldirganiga ham ishonib bo‘lmasdi[Rahmatullayev, 1984:37]. Ushbu misollardan devondagi burun so‘zi bugungi kunda ham huddi shunday omonimlik shaklda ekanligini ikkinchi, uchinchi misollarda ko‘ramiz.

Devonda ayrim, bir so‘z turkumi doirasida omonimlikni yuzaga keltirgan so‘zlar bugungi kunda turli so‘z turkumlilik shaklida omonimdir. Bunday so‘zlar nafaqat bugungi o‘zbek tilida, balki, boshqa turkiy tillarda ham omonimlikda qo‘llanib kelinmoqda. Shunday so‘zlardan biri ot so‘zidir. Bu so‘z Devonda a:т ko‘rinishida hamda bir so‘z turkumli omonim so‘z shaklida qo‘llanilgan. Bugungi kunda esa bu so‘z bir necha turkumli omonim so‘z bo‘lib faqat o‘zbek tilida emas, balki, qoraqalpoq tilida ham bir necha turkumli omonim so‘zdir. Demak, ot so‘zi Devonda ham o‘zbek hamda qoraqalpoq tillarida ham omonimdir.

Ushbu misollar orqali, Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘oti-t-turk” asari orqali turkiy tillarning til boyligi nihoyatda keng ekanligini ochib bergan deyishimiz mumkin. Qardosh bo‘lgan turkiy tillarning bir-biriga yaqinligi esa ularning bir tildan unib chiqqanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Da’wletov Abatbay. Til bilimi tiykarları. No‘kis. “Bilim”. 2007.

2. Pinxasov Y. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T.: “O‘qituvchi”, 1969.

3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘oti-t-turk. O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Toshkent. 1960.

4. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘oti-t-turk. O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Toshkent. 1963.

5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “O‘qituvchi”. 1984.

ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ЛЕКСИКОГРАФИИ
HISTORICAL OVERVIEW OF LEXICOGRAPHY

Н. Абдуллаева
преподаватель,
Ташкентский финансовый институт

Abstract: This is provides information about the history of lexicography, scientific work of Eastern and Western linguists in the field of lexicography, scientific innovations in the creation of dictionaries, the contribution of Russian, Uzbek and other scholars to lexicography. There are recommendations for further development of modern lexicography.

Keywords: *lexicography, dictionary, linguistics, types of dictionaries, theoretical lexicography, compilation of dictionaries*

Лексикография – уникальное национальное богатство любого народа, его собственные слова и выражения. Словарь языка постоянно развивается под влиянием времени и пространства. Жизнь, развитие образа жизни и открытия рождают новые слова и концепции, а некоторые слова устаревают. Заполнить это могут только смелые, трудолюбивые, самоотверженные лингвисты. Имена таких великих людей будут почитаться вечно.Достаточно упомянуть имя нашего предка Махмуда Кашгари. Его “Девону луғотит турк” – труд по анализу тюркских языков, созданный почти 1000 лет назад, является уникальным сокровищем всех тюркских народов. Имя Махмуда Кашгари навсегда вписано в страницы истории.Словари, которые сначала начинались с рукописей, состоящих только из небольшого количества слов и фраз, теперь издаются на тысячах языков и содержат сотни тысяч слов. В последние годы сформировалась не только практическая сторона лексикографии, но и теоретическое направление, объект и предмет. Теория и практика составления словаря стали особой областью лингвистики.Взгляды русского ученого Л. В. Щербы на лексикографию положили начало формированию теоретической лексикографии[Щерба, 1974:7]. Теория сравнительного изучения и анализа типов словарей на основе их специфики Л.В.Щерба актуальна и сегодня. Научно обоснованные теоретические взгляды западных лингвистов послужили основой для дальнейшей работы восточных лингвистов в области лексикографии. Теории о разделении словарей на типы, порядке размещения слов, способах обеспечения их удобства находят отражение в трудах узбекских ученых, в процессе создания словаря. Например, И. В. Рахманов делит немецкие словари на четыре группы на основе теории Л. В. Щербы[https://hozir.org/].О важности и значении словарей ученый Б. Менглиев пишет: «Словарный запас и обучение на нем превосходит другие разделы в увеличении насыщенности речи. Поэтому учебные словари и энциклопедии играют важную роль в учебных пособиях»[Менглиев, 2009:6].

История узбекской лексикографии начинается со знаменитого «Девону луғотит турк» XI века Махмуда Кашгари. Словарь не только описываетслова и их значения, но и содержит обширную информацию об истории, обычаях и географическом положении тюркских народов. Считается, что это один из первых двуязычных (тюркско-арабский) толковых словарей. Другой соотечественник, Махмуд Замахшари, написал свой труд «Асос ул-балоға» и свой четырехязычный (арабский, персидский, узбекский, монгольский) словарь «Мукаддимат ул-адаб» (XII век). Внес большой вклад в развитие как практических, так и теоретических знаний. лексикографии[www.ziyouz.com].

XX век занимает особое место в истории узбекской лексикографии. За это время было создано множество терминологических словарей, учебных и орфографических словарей, двуязычных и трехъязычных словарей различного назначения. Особое место в нем занимают

русско-узбекские и узбекско-русские словари, а также словари для сравнительного изучения узбекского с другими европейскими и иностранными восточными языками. Важнейшие из них - «Краткий русско-узбекский словарь» Е.Д. Поливанова, 2-томный «Русско-узбекский совершенный словарь» А. Захири, «Краткий узбекский-русский словарь» К.К.Юдахина, «Узбекско-русский словарь» У.Ахмаджанова и Б.Илёзова, «Русско-узбекский полный словарь» С. Рахматия и А. Кодырий, «Краткий узбекско-русский словарь»В.В. Решетова. В начале 1940-х годов были созданы и изданы «Узбекско-русский словарь» на 17 000 слов (Ташкент, 1941) и «Русско-узбекский словарь» на 30 000 слов (Ташкент, 1942). Эти словари под редакцией профессора Т.Н. Кори-Ниязи и профессора А.К. Борокова были более совершенными, чем ранее опубликованные словари, как по содержанию, так и по полноте словарных статей. Эти словари, в частности, стали основой для создания первого аннотированного словаря узбекского языка «Узбекско-русский словарь», изданного в 1959 году, и составили его научную основу. Эти словари обобщили опыт узбекской лексикографии, впервые описали лексико-семантическую систему современного узбекского языка и нормы, сформированные в XX веке.

Endi mavzuimizga qaytadigan bo‘lsak, maqolada tilshunos shunday deydi: “Bu asarida A. Navoiy bir tarafdan turk tilining fors tilidan ustunligini isbot qilishga urinar ekan, ikkinchi tarafdan o‘z tilining (ya’ni turkiy tilning) fonetik va morfologik xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tgan”. Maqolada Navoiyning hayoti va asarlari haqida ma’lumot keltirilib (turklarga tanitish maqsadida), so‘ng asosiy maqsad bo‘lgan unlilar tizimi haqida ma’lumot beriladi. Chig‘atoy tilida to‘qqizta unli mavjud ekanini aytib, o‘sha vaqtdagi unlilar hozirgi turk tilidagi unlilar tizimi bilan qiyos qilinadi. Shundan so‘ng tovush o‘zgarishlari haqida ma’lumot berilib, singarmonizm sabab vujudga kelgan qo‘shimchalarning unlilardagi variantlari beriladi. So‘ng esa undoshlarga to‘xtalinib, qiyosiy aspektda o‘rganiladi va bunda ham undoshlarning o‘zgarishlari va singarmonizmi haqida ma’lumot beriladi. Tilshunos xulosa sifatida Alisher Navoiyning asarida qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi xususiyatlari bilan birga qisman qipchoq shevalari ham mavjud ekanini ta’kidlaydi. Ulug‘ mutafakkirlarimizning asarlarini o‘zga yurtda tadqiq qilinishi, albatta biz tilshunoslarni mamnun qiladigan holatdir.

Asli Yilmaz Davuto‘g‘lining “Standart Türkçedeki Ünlülerin Akustik Analizi Ve Fonetik Altyapi” nomli katta asari adabiy turk tilidagi unli tovushlarning akustik analizi va fonetik sutrukturasiga bag‘ishlangan [A.Y. Davuto‘g‘li, 2010]. Ushbu asarni turk tili fonetikasining haqiqiy

eksperimental tadqiqoti deb atash mumkin. Tilshunos adabiy turk tilidagi unlilarning allofonlarini tadqiq qilish jarayonida 875 ta so‘zni sakkizta respondentga talaffuz qildiradi va eksperiment qiladi. Tadqiqot statistikasiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi 21 allofonlar guruhi va ularga oid 10 ta uzun unli topilgan. Allofonlar o‘rin olgan tovush tizimlari so‘zlar orqali misollar bilan berilgan. Tilshunos har bir unli tovushga keng to‘xtalib, masalan *“a”* fonemasining o‘zida uchta allofon aniqlanganini misollar orqali keltirib o‘tadi: *a1, a2, va a3*.

“Bulardan tashqari, *a1* va *a2* guruhlarining uzun turlari *a11* va *a22*) bordir, – deydi tilshunos va misollar keltirib o‘tadi, “*a1*: ochiq, orqa, tor. *“ova, muaf, avuntu, ala, mal, ağustos, azar, vasat, hala, ahır, ahbap, falaka”* kabi so‘zlarda. (*“a”* tovushi kundalik qo‘llanganda qalin *“a”* sifatida keladi). So‘z o‘rtasidagi *“a”* fonemasining, xususan *“b”, “p”, “v”* kabi lab undoshlaridan va *“h”*dan keyin kelganda *a1* sifatida qo‘llanishi kuzatildi”.

Tilshunos Ijlal Ergenchning “Sesbilim Çalişmalari” haqidagi ochiq dars ko‘rinishidagi tadqiqotida turk tili fonetikasiga doir izlanishlar jadval asosida yoritib beriladi. Shuningdek, u Tilshunos Najib Uchokning, O‘zkan Bashkanning, Nevin Selinning va O‘mer Demirjanning tadqiqotlarini o‘z asarida sxemalar asosida yoritadi va tahlil qiladi [I. Ergench, https://acikders.ankara.edu.tr/].

Bundan tashqari, Huseyin Kahraman Mutlu turk tili fonetikasiga doir olib borilgan tadqiqotlar bibliografiyasini tuzib, jurnalda chop etgan [H.K. Mutlu, 2015: 373–382].

So‘nggi paytlarda neyrolingvistika sohasi tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida vujudga kelib, unda ko‘plab tadqiqotlar olib borila boshlandi. Biroq, fikrimizcha neyrolingvistikani fonetikaga doir jihatlari ko‘p, chunki fonetik jarayonlar va tovush o‘zgarishlariga neyrolingvistik omillar o‘zining ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Turk tilida neyrolingvistikaga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, professor D.Barishning “Dil ve Beyin” (Til va miya, Bolalarda til va nutq nuqsonlari) asarida bu mavzu keng yoritilgan. Asarda, avvalo odatiy til va tilning rivojlanishi keltiriladi. Bolalardagi eshitish qobiliyatining nutqqa ta'siri, nutq xususiyatlari va nuqsonlari batafsil yoritilib, nevrologik hastaliklarga urg‘u beriladi. Tadqiqotning ahamiyatli tomoni shundaki, unda inson nutqi va hayvon nutqi orasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlar keltiriladi, inson tili va genlar orasidagi aloqa yoritib beriladi, so‘ng esa til va miyaning o‘zaro bog‘liqligi ochiqlanadi. Bolaning tilni o‘rganishidan boshlab, uning nutqidagi nuqsonlarning paydo bo‘lish omillari ko‘rsatib beriladi. Asarni o‘qib-o‘rganib til bilan tibbiyot shunchalik bir-biriga bog‘liqligini, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini anglash mumkin. Shu sabab bu ikki fanni o‘zaro bog‘lovchi neyrolingvistika sohasi vujudga keldi. Bunda esa tilshunoslardan ikkita soha – ham tibbiyot ham tilshunoslikni chuqur bilish talab qilinadi. Bu jarayonlar esa, asosan fonetik sathda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Endi yana o‘z tadqiqotimiz – turk tilshunoslarining fonetikaga doir ishlariga qaytsak. Yuqorida qayd etilgan mavzular turk tilshunosligida ko‘plab ilmiy izlanishlarga sabab bo‘la boshladi. Tilshunoslar nutqdagi nuqsonlar, tovushlarning o‘zgarishlariga olib keladigan jarayonlarni chuqur o‘rganish asnosida ko‘plab ilmiy yangiliklarni ilmga olib kirdilar.

I.P.Bekar tomonidan yozilgan “Şizofrenlerin Sözlü Metinlerinde Duygudurum Görünümleri”, S.Ay va boshqalar tomonidan yozilgan “Türkçede gelişimsel disleksinin sesbilimsel ve biçimbilimsel görünümleri”, E.Esmar tomonidan yozilgan “Şizofrenlerin sözlü anlatım metinlerinin çözümlenmesi”, M.S.Erer “Karma Soz Uretme Yontemi ile Turkce Yazılı Metinden Soze Gecme” asarlarida nutq nuqsonlari ma’lum kasalliklar, xususan shizofreniya asosida tadqiq qilindi.

Ayja O‘zbel Kochning “Septum deviasyonlu hastaların septoplasti operasyonu őncesi ve sonrası, akustik ses analizi ile değerlendirilmesi” asarida rinolali (nazal disfoni, rinofon (nazalning grekcha nomi) nazal rezonansining buzilishi natijasida yuzaga keluvchi nutq patalogiyasi o‘rganildi.

Biz ushbu maqolamizda tadqiqotlarni imkon qadar muhimlarini taqdim etishga harakat qildik. Xulosa qilib aytganda, turk tili fonetikasiga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, yuqorida keltirilganidek, birinchi galda termin masalasi munozarali holatdadir. Turk tili fonetikasi o‘zga yurt tilshunoslari tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Turk tilida eksperimental fonetika rivoj topgan, shu sabab amaliy ishlar ko‘p deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alvan S.M.“Ali Şir Nevai Muhakemetül-lugateyn Eserinin Sesbilimi Özellikleri” https://docplayer.biz.tr/
2. Davutoğlu A.Y., “Standart Türkçedeki Ünlülerin Akustik Analizi Ve Fonetik Altyapi”. İstanbul. 2010.
3. Demir N. Ses Bilgisi ve Biçim Bilgisi. Hamur Tipi: 2. Hamur. İlk Baskı Yılı : 2019.
4. Ergenç I., Sesbilim Çalişmalari. https://acikders.ankara.edu.tr/
5. Muharrem Ergin. Turk Dil Bilgisi, Boğazici, Yayınları, İstanbul, 1985. 16. Baskı.
6. Mutlu H.K. “Türkiye Türkçesi Ses Bilgisi Üzerine Bir Bibliografiya Denemesi”, Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 6 (2).
7. O‘zkan M. Türkiye Türkçesi Ses ve Yazım Bilgisi. İstanbul, Filiz Kitabevi <https://www.filizkitabevi.com/filiz-kitabevi> 331.
8. Suyer E. Cağdaş Turk Dili. Grafiker Yayınları. Ankara, 2002. S. 193.
9. Topbaş.S. Kopkallı H., “Sesbilim” ve “Sesbilgisi” Terimleri Uzerine”. Dilbilim araştırmaları, Anadolu Universitesi, 1994.
10. Севортян Э.В. Фонетика турецкого литературного языка. – Москва, 1955.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA KELTIRILGAN OZIQ-OVQAT NOMLARI
NAMES OF FOOD IN "DEVONU LUG‘OTIT TURK"

N.Rasulova
O‘zMU 2-kurs magistranti

Abstract: In "Devonu leğotit Türk" very important information about the source of food and food, types of food, preparation process of food huntingyos homashyos, necessary kitchen tools in the preparation and consumption of food has been expressed. This article contains information on the names of foods in the work.

Keywords:” Devonu dictionary Turkish", food, meal names associated with the ritual, what is used in cooking-the names of the subject, the names of the dish.

Mahmud Qoshg‘ariyning umumjahon madaniyatiga qo‘shgan qimmatli tuhfasi “Devonu lug‘otit turk” asari tilshunoslikka doir o‘lmas asar bo‘lishi bilan bir vaqtda, tarix, etnografiya, folklorshunoslik, geografiya bo‘yicha o‘quvchilarga atroflicha ma’lumot beradigan mukammal qomusiy asar hisoblanadi. “Devonu lug‘otit turk” da oziq – ovqatlar va taomlarning manbasi, taom turlari, oziq-ovaqat xomashyosining hozirlash jarayoni, taom tayyorlash va iste’mol qilishga keraklik oshxona qurollariga doir juda muhim ma’lumot o‘z ifodasini topgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, turkiy xalqlarning taomlari rang-barang bo‘lishi bilan birga ulardagi taomlarning umumiy, o‘xshash jihatlari mavjud bo‘lib, ular taomlar tayyorlanadigan mahsulotlardagina emas, balki taom tayyorlash usullarida ham o‘z ifodasini topgan.

“Devonu lug‘otit turk”, birinchi navbatda, turkiy urug‘ va qabilalar tillarining xususiyatlarini, urf-odatlarini, lingvistik xususiyatlarni, tarixi va lug‘at boyligini o‘rganishga bag‘ishlangan asar. Shuning uchun ham asar mundarijasida qator lingvistik ma’lumotlarga keng o‘rin ajratilgan. Bular sirasiga tillararo fonetik farqlar, so‘z yasalishi, yozuv va boshqa qaydlarni kiritish mumkin. Asarning lug‘at qismida esa juda ko‘p jihatdan ahamiyatga molik bo‘lgan uning qomusiylik darajasini ta’minlagan materiallarga o‘rin berilgan. Ular turli xalqlarning tarixi, urf-odati, adabiyoti va boshqa sohalarini o‘rganishimizda ishonchli manba sifatida xarakterlanadi. Bu xususiyat taom nomlariga ham dahldordir.

Taom nomlari: *a) kundalik turmushda odatiy tarzda tayyorlanadigan taom nomlari:*

Bγshkal [1] bu-hozirda tayyorlanadigan lochira. Lochira hozirgi o‘zbek tilida oshirilmagan xamirdan tandirga yopiladigan non;

b) biror maxsus marosim bilan bog‘liq taom nomlari: Basan-o‘lik ko‘milgach yeyiladigan taom, *Jug‘* [1] deb atalgan taom esa, vafot etgan odam uydan chiqarilgandan so‘ng taziyaga kelganlarga berilgan. Asarda faqat taomlar emas, balki taom tayyorlashda ishlatiladigan sabzavot

va masalliq nomlari ham berilgan. Jumladan, *Jamg‘ur*- sholg‘om, *jash*- sabzavot, γz – yog‘, *kuchg‘andi*- piyoz kabi ovqat tayyorlashda foydalaniladigan masalliqlar nomlarini uchtarish mumkin.

c) taom tayyorlashda ishlatiladigan narsa-predmet nomlari: Avran- temirchi o‘chog‘ining qo‘rasiga o‘xshatib qo‘yilgan yer tandir, *ashich-buqach* – qozon tovoq, *jasg‘ach*- uvra taxta [2] kabi narsa-pridmetlarda ajdodlarimiz taom tayyorlab, iste’mol qilishgan.

d) taom tayyorlovchi kasb-koriga aloqador nomlar: Chalchi- oshpaz va hokazo.

M.Koshg‘ariyning taomlar yuzasidan keltirgan ma’lumotlarida o‘troqlashgan turkiy xalqlarning an’anaviy taomlari ,asosan, dehqonchilik mahsulotlaridan, don mahsulotlari, sabzavot va mevalardan iborat bo‘lgan bo‘lsa, ko‘chmanchilik turmush tarzi bilan hayot kechiruvchi turkiy xalqlar taomlarida ko‘proq sut va go‘sht mahsulotlaridan foydalanganliklarini anglash mumkin bo‘ladi [3]. Asarda quyidagi oziq-ovqat nomlari tilga olingan:

1.Non mahsulotlari nomlari. M.Koshg‘ariyning yozishicha, turkiy qabilalarning ayrimlarida non- *“etmak”* deyilib, yaxshi xamirdan qilingan non *“kavshak”* deb atalgan. Asarida nonning pishirish usullariga qarab quyidagi nomlari keltirilgan: *“ Bushkal ”, “ Isbiri ”, “Komuch ”, “Qijma”, “Chuqmi”* [2].

2.Xamirli taom nomlari. Ajdodlarimizning kundalik turmush tarzida xamirli ovqatlarning ham o‘z o‘rni bo‘lganini asardagi *“Umoch”, “Ugra”, “Tutmach” , “Manti” hamda “Lag‘mon”* kabi taom nomlariga duch kelganimizda bilib olishimiz mumkin.

3.Sut bilan bog‘liq mahsulot nomlari. Asarni o‘qish jarayonida turkiy xalqlar suzmani *“Ikduk”*, qaymoqni “*Qajaq”*, pishloqni *“Uzitma*”, hozirda yogurt nomi bilan ataladigan meva solib tayyorlangan suyuq qatiqni “*Suyuq jogurt*” deb nomlaganligini bilib olamiz.

4.Guruch va don mahsulotlari bilan bog‘liq taom nomlari. M.Koshg‘ariy turkiy xalqlarning taomlari orasida guruch va don mahsulotlari qo‘shib tayyorlanadigan quyidagi taom nomlarini keltiradi: *“Uva”, “Buxsi”, “Suruch”, “Korshak”, “Qavut”.*

5.Go‘shtli taom nomlari. Turkiy xalqlarning aksariyati chorvachilik bilan shug‘ullanganligi uchun taomnomalardagi juda ko‘p taomlarga go‘sht ishlatilgan. “*Sugut”, “Tobiq”, “Qazi jag”, “Sim-simraq”* [1] asarda keltirilgan go‘shtli taomlarning nomlaridir.

6. Suyuq taom nomlari.”*Bulduni”, “Oz”, “Mon”, “Lantu”, “Samduj”* kabi sho‘rva nomlarni tilga olingan.

7. Ichimliklar. Asarda *bo‘za,sharbat, qimiz* kabi ichimliklarning nimadan olinishi, mazasi, ta’mi haqida qimmatli ma’lumotlar aytib o‘tilgan. Asarda bo‘zaning tariq o‘simligidamn olinishi, mast qilish xususiyati borligi ta’kidlangan.

Xulosa qilib aytganda, “Devonu lug‘otit turk”da oziq-ovqatlar va taomlarning tayyorlash jarayoni, taom turlari, taomlarni tayyorlash va iste’mol qilishda ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or buyumlariga doir juda muhim ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.

ADABIYOTLAR

1.Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I jild. 126, 159, 444, 445-b

2. M.Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.

3. Abdulaxatov N. va boshqalar.Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi leksik birliklar tadqiqi. Toshkent- 2013

“DEVONI LUG‘OTIT TURK”DA QO‘LLANGAN VAQTNI IFODALOVCHI TURKIY LEKSEMALARNING SEMANTIK TADQIQI
SEMANTICAL STUDY OF TURKISH LEXEMAS USING THE TIMES USED IN THE DEVONI LUG‘ATIT TURK

Q. Bakirov

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Abstract: This article discusses the features of the vocabulary used in the history of the Uzbek language.***Key words:*** *lexeme; morpheme; system; etymology; denotate; anthropolinguistics.* O`zbek tilida qadimdan vaqt va

o`lchov ma`nolari mustaqil til birliklari (semema)yoki boshqa til birliklari semantikasining tashkil etuvchisi (sema) sifatida mavjud. Vaqt va o`lchov semantikasi o`zining leksik, grammatik, fonetik ifodalanishlariga ega. O`zbek tilshunosligi tarixida ham vaqt ma`nosi *payt ravishlari,vaqt ma`noli otlar, sifatlar, olmoshlar, fe`llar, yuklamalar* kabi morfologik, *payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruksiyalar*singari sintaktik yo`nalishlarda o`rganilgan. Vaqt sememasi va semalarining tarkibi, ularning sistema hosil qilish imkoniyatlari, vaqt semantikali makro va mikro sistemalar, bularning tuzilish xususiyatlari, vaqt ifodalovchi birliklarning lug`aviy sistemada tutgan o`rni, ko`lami kabi masalalar o`z yechimlariga ega emas. Leksik sathga oid vaqt birliklarining butun va qism, umumiy va xususiy belgilarini , vaqt bildiruvchi lug`aviy birliklar paradigmalarining sintagmatik imkoniyatlarini tadqiq etish galdagi hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar hisoblanadi. [1.37-41]

Til o`zida rang-barang olamning asliga mos ravishda aks ettirishga harakat qilar ekan, bunday holatda til uchun vaqtning barcha turlarini hayotiy va ilmiy tushunchalar asosida aks ettiradi. Tildagi vaqt ifodalanishlarini o`rganish uchun, avvalo, vaqt semantikasining denotatini o`rganish maqsadga muvofiqdir.[3.37] Shu boisdan  vaqt tushunchasining taraqqiyoti, unga bo`lgan hayotiy va ilmiy munosabatlar, G`arb va Sharq faylasuf-mutafakkirlarning vaqt haqidagi qarashlari, vaqtning hozirgi kundagi tavsifi asosida vaqtning nima ekanligiga (denotatiga ) e’tibor qaratildi. Vaqt haqidagi turli qarashlarning tadrijiy taraqqiyoti zamonaviy vaqt tushunchasining aniqlanishiga olib keldi. Unga ko`ra, vaqt materiyaning mavjudlik shakli bo`lib, moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarining turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishi, rivojlanishini bildiradi. Vaqtning belgilari sifatida esa bir o`lchamlilik, qaytarilmaslik, cheksizlik, davomiylik, uzluklilik, uzluksizlik, bo`linuvchanlik, ketma-ketlik, bir jinslilik kabi xususiyatlar tan olinadi. Ma`lumki, til qurulishida ishtirok etadigan va unda muayyan tuzilishiga, leksik, morfologik, sintaktik sistemalarda aniq ifodalanishga ega bo`lgan tushunchagina ong kategoriyasi bo`la oladi.

Vaqt ham ong kategoriyasi bo`lib, u til qurilishida ishtirok etadi va sistema hosil qiladi. Vaqtning tilda sistema sifatida ifodalanishi insonlarning dunyo, vaqt  strukturasini anglashi , bu haqda o`zgalarga ham axborot berishi va tilning vaqt-makonda mavjudligi kabi omillar bilan bog`liqdir. Vaqtning ongda aks etishi asosida tilning temporal funksional-semantik kategoriyasi shakllanadi. Tilda vaqtni ifodalovchi leksik, morfologik, sintaktik kabi ifoda tizimlariga ega bo`lgan ko`p bosqichli temporal maydon mavjud.

Xullas, vaqt va o`lchov birliklari o`zbek tili tarixiningning barcha sathlarida o`z ifodalanishlariga ega bo`lib, har bir sath va ularning birliklari payt ma`nosini o`ziga xos yo‘sinlarda aks ettiradi. “Devoni lug‘otit turk” asaridagi vaqt semantikali ot leksemalar tahrir qilinganida, mazkur leksemalarning vaqt ifodalash imkoniyatlarining turlicha ekanligi ma`lum bo‘ladi. Bu esa “vaqt” semasining turli sememalar tarkibida turlicha o`rin va mavqelarda kelishi bilan bog`liqdir. O`zbek tili tarixan vaqtini bevosita atovchi va vaqtga aloqador predmet, voqea hodisalarni nomlovchi ot lekseamalarga ega. Vaqtni bevosita predmet sifatida nomlovchi ot leksemalarning semik tarkibida “og‘ur-vaqt” semasi yetakchidir. Vaqt bilan aloqador predmet, voqea- hodisalarni nomlovchi ot leksemalarda esa “vaqt” semasi quyiroq mavqeda joylashib, u o`zidan umumiyroq semalarni aniqlab keladi. Vaqtni predmet sifatida nomlovchi payt otlarini farqli semalari asosida turli guruhga ajratish mumkin: sof vaqtni mavhum predmet sifatda ifodalovchi otlar (Og‘ur –vaqt; jar –vaqt: ne o‘g‘urda keldin –qaysi paytda kelding…) vaqt o`lchovi otlari (oy, ko‘ch –fursat : Bir ko‘ch ko‘zgil –bir fursat kutgin..), sutka qismlari otlari (kun, tong: Tunla keldum –kechasi keldim …, otlari (kuz, yoz…),astronomik vaqt(oy,yil….) kabi. Payt ravishlari “vaqt” ifodalovchi lug`aviy sistemaga “vaqt” semasi bilan kiradi va ayni paytda ular sof vaqtni ifodalaydi. Payt ravishlarining semantik mundarijasida “vaqt” semasi yetakchidir. Payt ravishlarini vaqt turlarini ifodalashiga ko`ra o`n guruhga ajratish mumkin: kelasi zamonni ifodalovchi payt ravishlari (so‘ngra, keyin…), o`tgan zamonni ifodalovchi payt ravishlari (ilgari, burun…), hozirgi zamonni ifodalovchi payt ravishlari (emdi..), inkor, gumon vaqtni ifodalovchi payt ravishlari (allaqachon, erta- indin…), uzluksizlikni ifodalovchi payt ravishlari (mangu…), uzlukli vaqtni ifodalovchi payt ravishlari (unda- munda…), chegarali muddatni ifodalovchi payt ravishlari (buguncha…), sutkaning turli vaqtlarini ifodalovchi payt ravishalari (kunduzi, kechqurun…), vaqt o`rnini ifodalovchi ravishlar (songda…)

O`zbek tilida shunday holat ravishlari borki, ularning semantik strukturasida vaqt semalari yordamchi semantik element sifatida ishtirok etadi va o‘zbek tili tarixida ham shunday bo‘lgan. Holat ravishlari sememalarini ularning tarkibida mavjud bo`lgan vaqt semalarining o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra quyidagicha tasnif etish mumkin: ravishlari (uzoq, oz, …), “izchil vaqtda” semasiga ega holat ravishlari (birin – ketin, ketma- ket, …), “O`tmish” semalik holat ravishlari (ilgargiday, burungicha…) qadimgi bajarilish vaqti me`yoriga nisbat beruvchi holat ravishlari (shap-tez: bu so‘z hozir tilimizda deyarli faqat so‘zlashuv uslubida qo‘shma fe’l tarkibida ishlatiladi – shap etib gapirdi; erta kabi), O`zbek tili tarixida “qisqa muddatda” semalik miqdor ravishlari ham mavjuddir. Bular oz muddatni ifodalovchi Ko‘ch –bir pas singari so`zlardir.Payt ravishlari o`z ma`no imkoniyatlari asosida ma`noviy bog`lanishlar hosil qiladi. Payt ravishlari asosan fe`l valentligini to`ldirib, birikuvchi, aniqlashtiruvchi bo`lib keladi. Payt ravishlari bir tomonlama bog`lanishga kirishib, o`zi bog`lanayotgan leksemadan oldin keladi: endi boshlanadi, ertaga boshlanadi kabi. Ma`lumki, dastlabki valentlikka oid ishlar so`z turkumiga mansub bo`lgan shu asosida fe`l valentliklari aniqlangan fe`lni kengaytirishi mumkin bo`lgan bo`sh joylardan (valentlik) biri qachon ? so`rog`iga javob bo`luvchi komponent temporallikga (payt ravishlariga) mansubdir. Payt ravishlari fe`l valentligini to`ldirib kelar ekan, qanday ravishlarining qaysi turdagi fe`llarga bog`lanishini belgilaydi. Masalan, kecha, bugun, ertaga ravishlari o`zi leksik mundarijasiga ko`ra (kecha- bugundan avvalgi kun; tun- o`tayotgan kun; ertaga- bugundan keyingi kun ) uzog`i bilan 24 soat yoki uning biror bo`lagida ro`y berishi mumkin bo`lgan harakatini ifodalovchi fe`llar bilan bog`lana oladi: kecha yozdi, bugun ko`rdi, ertaga boradi kabi.[5, 47-51] Payt ravishlarining sintagmatik imkoniyatlari ularning o`tgan, hozirgi, kelasi zamoni, sutka qismini, davomli vaqtini, doimiy vaqtini ifodalovchi leksik-semantik guruhlar bo`yicha o`rganilgan. Masalan, sutka qismlarini bildiruvchi kunduzgi, ertalab, kechasi, kechqurun leksemalarini ham o`z semalariga mos ravishda bog`lanishlar hosil qilib kunduzgi ( kechasi ) qorong`i tushdi, tun chiqdi, kechasi erishdi kabi birikmalar hosil qila olmaydi. Zero kunduzi, ertalab sememalarida “yorug`” semasi, kechasi, kechqurun sememalarida “qorong`i” semasi mavjud bo`lib ular fe`l sememasidagi zid semalar bilan moslasha olmaydi. Polisemiya, sinonimiya, kelishik, ko`makchi kabi vositalar Vaqt semali leksemalarning sintagmatik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, vaqt semasiga ega leksemalar tarixan shakllangan va ularning aksariyati tarixiy so‘zga aylangan. Asrlar davomida arial jihatdan boshqa tillar bilan yaqinlik va arablar iste’losining ta’siri olaroq ko‘plab zamon ma’nosiga ega so‘zlar leksemasini saqlagan, ammo shakli almashgan holda o‘zgargan va ulardagi zamon xususiyatlarti deyarli o‘z holicha. Menimcha, payt semali leksemalarning paradigmatik va sintagmatik xususiyatlarini atroflicha o‘rganishimiz, til tarixiga oid ko‘plab muammoli masalalarni anglashimizga yordam bera oladi. Bu esa o‘z navbatida tilimizdagi sathlarning o‘zaro bir-birlari bilan aloqasida aks etishi va ta’sirlashishi bilan baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили муаммолари.- Тошкент: 2004

2. М. Кошгарий ”Диван луготит турк” Ташкент: ССР,ФАА.1960

3. Нурмонов А. Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. // Ўзбек тили ва адабиёт. 1995, №6

4.Бегматов Э., Неъматов Ҳ., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси. //Ўзбек тили ва адабиёти, 1989,№12

5.Ахтамова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи кўмакчи формалар// Ўзбек тили ва адабиёти. 1988.3-с

TEZAURUSLI LUG‘ATLAR VA ULARNING TILDAGI AHAMIYATI
THESAURUS DICTIONARIES AND THEIR IMPORTANCE IN LANGUAGE

M.Bobozaripova

O‘zMU magistri

Abstract: The article discusses the issue of thesaurus, which is one of the most important topics in modern Uzbek linguistics. The views and theories about this topic have been mentioned so

far. Thesaurus is said to have played an important role in the development of lexicography, computer linguistics, and all fields of linguistics of word usage.

Key words: *lexicography, dictionary, thesaurus, idiographic dictionary, analogic dictionary, educational thematic dictionary.*

So‘z – serqirra hodisa. So‘z – insonlarning fikri, his-tuyg‘ularini ifodalabgina qolmay, uni o‘z-o‘zini yuksaltirishga, rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

So‘z hodisasi tilshunoslikning deyarli barcha sohalarida tadqiq etiladi. Xususan, leksikografiyada ham. Har bir xalqning betakror milliy boyligi ularning so‘zlari hamda turg‘un iboralaridir. Zamon va makon ta‘sirida tilning lug‘at boyligi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hayot, turmush tarzi, taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so‘zlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba‘zi so‘zlar esa eskirib iste‘moldan chiqib ketadi.

Tildagi bunday o‘zgarishlar tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lgan leksikografiyada aks etadi. Leksikografiyaning vazifasi juda keng bo‘lib, u lug‘at tuzish talab va ehtiyojlariga javob berishni ham o‘z ichiga oladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, kishilarning yodda tutib qolish qobiliyati naqadar kuchli bo‘lmasin,bir tildagi barcha so‘zlarni, ularning xilma-xil ma‘nolarini esda saqlab qolish nihoyatda qiyin va mumkin ham emas. Shuning uchun ham kishilarning ana shunday ehtiyojini qondirish maqsadida turli xildagi lug‘atlar tuzilgan va hozir ham tuzilmoqda. Hozirgi kunda ikki tillik tarjima laug‘ati, ko‘p tillik tarjima lug‘ati, izohli lug‘at, ikki tillik differensial lug‘at, terminologik lug‘at, tarixiy lug‘at, etimologik lug‘at, frazeologik lug‘at, idiomatik so‘zlar lug‘ati, orfografik lug‘at va ensiklopedik lug‘atlar kishilarning madaniy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda.

Har xil turdagi lug‘atlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lug‘at alfavit tartibida tuzilib, qulay qo‘llanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy funksiyani bajaradi. Lug‘atlar ma‘naviy madaniyat sohasida muhim o‘rin egallaydi, ularda jamiyatning ma‘lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug‘atlar har birimizga ilmiy jarayonda to‘g‘ri va aniq ishlashga, real va obyektiv fikrlash va tasavvur qilishga yordam beradi. Leksikografiya deb leksikologiyaning lug‘atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi qismiga aytiladi. Modomiki so‘z leksikografiya va unga tegishli bo‘lgan lug‘atshunoslik haqida borar ekan biz maqolamizda ko‘proq leksikografiyaga tegishli bo‘lgan tezaurs tushunchasi va uning ahamitati haqida gaplashamiz.

Tezaurusning nazariy konsepsiyasini qurish g‘oysining paydo bo‘lishi tilshunoslikda tasodifiy emas uning tug‘ilishi ilmiy fikrlashning butun rivojlanish jaroyoni bilan bog‘liq. Zamonaviy ilimda – lingvistik, tabiiy-ilmiy, falsafiy, uslubiy fanlar aro tadqiqotlarda tezaurus tushunchasidan foydalanish mumkun. Tezaurus haqidagi tushunchalar yigirmanchi asr va yigirma birinchi asr boshlarida rivojlandi hamda tezaurusning lingvistik nazariyasini yaratish g‘oyasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Tilshunoslikda “tezaurus” so‘zi birinchi navbatda leksikografiyadagi lug‘atlar va uning maxsus turi bilan bog‘liq tushncha sifatida yaratilgan. U “ideografik lug‘at “ tushunchasi orqali aniqlanganligi sababli biz “tezaurus” va ideografik lug‘at” so‘zlarini bir-biriga yaqin sinonim tushunchalar sifatida ishlatamiz. Tarixda tezaurus lug‘atlarning yaratilishida idiogfrafik lug‘atlar asos bo‘lgan.

Dastavval idiografik lug‘atlarning nazariy g‘oyalari nems olimi Yagon Trirning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. U semantik maydon tushunchasini tilshunoslikka olib kirdi va uning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqdi. So‘zlarni idiografik nuqtayi nazardan ma’lum mavzular asosida turli guruhlarga jamlab o‘rganish o‘ziga xos samara berishi, bunday usulning muhim ahamiyatga ega ekanliginitaniqli pedagoglar YA. A. Komenskiy, K. D. Ushinskiy va boshqalar ham ta’kidlab o‘tganlar. Leksikani ediografik nuqtayi nazardan o‘rganishning asosiy maqsadi-- bu so‘zning turli ma’nolarini bus-butun yaxlitligicha o‘rganish va ularni o‘z o‘rnida qo‘llashni o‘rgatishdir. Masalan o‘quvchi uchun *ota, ona, o‘g‘il,qiz, aka, uka, opa, singil* yoki *shamol, yomg‘ir, bulut, quyosh, oy, yulduz* so‘zlarini alohida o‘rganib mag‘zini chaqishdan ko‘ra, ushbu so‘zlarni ma’lum bir guruhga jamlab, qiyoslab o‘rganish ancha qulay va oson kechadi . Shuning uchun ma’lum bir bog‘liqlik yoki o‘xshashlikka asoslangan tematik guruh yoki tematik maydonlar nuqtayi nazaridan til leksikasini o‘rganish samarali natijalar berishi mumkin.

Xo‘sh, “semantik maydon” deganda nimani tushunmoq lozim? Trirning ta’rif berishicha, leksik-semantik maydon bu ma’nolari jihatdan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan, birining ma’nosi ikkinchisidan kelib chiqadigan bir-biriga tobe bo‘lgan so‘zlar guruhidir. Boshqacha aytganda bu tushuncha ma’no umumiyligini va predmetning o‘xshashligini aks ettiruvchi birlashgan so‘zlar yig‘indisidir. So‘zlarni bunday holda o‘rganish idiografik tahlilning asosini tashkil etadi.

Idiografik lug‘atning quyidagi asosiy ko‘rinishlari bor.

1. Idiografik tezaurus. Tezaurus tipidagi idiografik lug‘atlarda so‘zlar qat’iy mantiqiy falsafiy tasnif asosida joylashtiriladi.
2. Anologik lug‘at.
3. O‘quv tematik lug‘at[1].

Barcha uni tshkil etuvchi birliklari orasida kuchli semantik munosabat yaqqol korinuvchi lug‘atlarni “tzaurs” deb ataymiz – deb yozgan edi YU.N. Karaulov. Izohli lug‘atda esa asosiy kalit alifbo sanaladi. YU.N.Karaulov alifbo lug‘ati va tezaurus haqida shunday misol keltiradi. Ushakov lug‘atida ***dissoniruyuhiy*** so‘zi ***dissonirovat*** va ***dissotsiatsiya*** so‘zlari orasida keladi. Bu so‘z muzika sohasiga oid bo‘lib, bu sohaga tegishli barcha so‘zlar haqida bilimga ega bo‘lish uchun butun lug‘atni o‘qib chiqish lozim bo‘ladi.

X. Kasaresning tezaursida esa bu so‘z “Muzika” maqolasi ichida quyidagi so‘slar qatorida keladi***: …melodichniy, gomofonicheskey, konsoniruyuhiy, sozvuchniy, akkordiniyn, garmonicheskiy, diatonicheskiy, poluxromaticheskiy…***

Tezaurus lug‘atlarni tuzish zarurati uning mana shunday xususiyatidan kelib chiqadi. Haqiqatdan ham bunday lug‘at“ sokrovishnitsa” (xazina) deb ataladi[2].

Bog‘li matn tuzayotgan yozuvchi yoki har bir kishi nima demoqchiligini yaxshi bila turib, o‘rinli ibora yoki so‘zni topolmasa, kerakli so‘z tez topiladigan, to‘g‘ri sestimalashtirilgan, guruhlarga bo‘lingan bir kitobdan yordam oladi. Bunday kitob aynan tezaursdir.

Tilshunos olim X. Kesares bir akademikni misol keltiradi. Suzib ketayotgan kema ichida tug‘ulgan kishi qanday atalishini bilmoqchi bo‘lgan akademik odatdagi izohli lug‘atdan bu so‘zni topish uchun nafaqat 200000 kalit so‘zga ko‘z tashlab chiqishi, balki u so‘zlarning izohini ham o‘qib chiqishga majbur. Bu ishga esa odam jismonan qodir emas.

Agar bizning qo‘limizda boshqa tipdagi, ya’ni mavzu yoki ma’no asosidagi so‘zlar guruhidan tuzilgan lug‘at bo‘lsa, masalan ***kema*** so‘zi guruhiga nazar tashlaymiz. Bu yerda kema turlari va boshqalar berilgan. Haqiqatdan ham ***tug‘ilmoq*** so‘zi bilan ***kema*** so‘zining aloqasi kam. Demak bu so‘zni tug‘ilmoq so‘zi guruhidan izlab ko‘ramiz. Qisqacha aytganda butun lug‘atni emas, undagi bir ikki betni varaqlasak kerakli so‘zni topib olamiz. [Осокина, 2015]

Demak, har bir tezaurusda sestema va semantika markazda turadi. Kalit zo‘zlar esa albatta alifbo tartibida bo‘ladi.

Yevropada tezaurus lug‘atlarga qiziqish uyg‘otgan, “Ingliz so‘zlari va iboralari tezaurusi” bo‘lib uning muallifi L.M.Roje edi. U o‘z lug‘ati so‘zboshisida shunday yozadi “ Biz aytmoqchi bo‘lgan fikrimizni qanchalik aniq tasovvur qilmaylik, ba’zan biz shunday vaziyatlarga tushib qolamizki, bizga so‘z yetishmay qoladi. O‘z fikrimizni aniq ifodalash uchun bitta So‘z o‘rniga bir nechta ijobiy va salbiy, kuchli va kuchsiz, ba’zan esa keraksiz so‘zlarni ishlatib yuboramiz. Tezaurus lug‘atning eng muhim xususiyati shundaki, bir fikrning barcha qirralarini ochib beruvchi so‘z va iboralarning boy to‘dasini tortiq qiladi”. [Осокина, 2015]

Yana bir rus tadqiqotchi olimi A.S. Narinyani “ Nima uchun Rossiyada birorta ham tezaurus yo‘q, uni qanday tuzish kerak, tezaurus nimaga va kimga kerak ?” degan savollarga o‘z munosabatini bildiradi: “ Chorak asr oldin AQSHdagi safarimda meni Rojening tezaurusini sotib olishga majbur qilishdi “Sotib ol keyin tushunasan va bizdan minnatdor bo‘lasan” deyishdi. Darhaqiqat hozirgacha ham lug‘at menga yordam beradi. U menga inglizcha matnni tarjima qilishga yordam berdi. Ba’zan notanish yoki uncha tanish bo‘lmagan so‘zning ottenkasini bilish lozim bo‘lsa. Shu lug‘atga murojaat qilaman. Ruscha matnni tahlil qilyapman bir so‘zning sinonimi

[1] www.arxiv.uzIdiografiklug’atlar va ularning ahamiyati
[2] Idiagrafik lug’atlar va ularning ahamiyari www.arxiv.uz

kerak bo‘lib qoldi. Aksiga olib bu so‘z xotiramdan yashirinib qoldi, yana shu lug‘atga murojaat etaman.

Rojening tezaurusi ingliz madaniyatining muhim bir bo‘lagi. U matn tuzuvchi yoki tahrirlovchi har bir kishining – o‘quvchi, talaba, journalist, yozuvchi va keng ommaning yaqin yordamchisidir.

Afsuski, Rojening lug‘atini almashtiruvchi birorta ham Ruscha lug‘at yo‘q. Bu bizning madaniyatimizning, o‘rta va oliy ta’limimizning kemtik joyi”

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkunki, til va madaniyat egizak opa-singillar. Bizning tilimizda ham shunday lug‘atlarning yaratilishi nafaqat tilimizning, balki madaniyatimizning ham yana bir pog‘onaga yuksaltiradi.

Akademik Azim Hojiyevning tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida tezaurusga shunday izoh berilgan TEZAURUS(yun. Thesaurus – xazina) – tilga oid leksik tarkibni to‘la hajimda aks ettiruvchi lug‘at. O‘zbekiston Milliy Ensiklopidiyasida: tezaurus terminiga quyidagicha ta’rif beriladi “TEZAURUS (yun. Thesaurus – xazina , boylik) 1. Muayyan tildagi barcha so‘zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo‘llanilish holatlarini to‘la-to‘kis aks ettiradigan lug‘at 2. Biron bir ilm-fan sohasiga oid lug‘aviy birlik (so‘z)lar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar o‘rtasidagi semantik (tur-jins, sinonimik va boshqa) munosabatlar aks ettirilgan lug‘at. Bunda so‘zlar alfabet tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador so‘zlarning barchasi bir joyda beriladi; kerakli so‘z tushunchaga qarab qidiriladi”[1].

Demak, tezaurus – termenlar izohini talqin qiladi, muayyan ilm-fanga oidtushunchalarning tizimlashtirilgan majmuasi, qaysi termin qaysi sohaga oid ligini asoslaydi.

Tezaurus – tayanch so‘z va terminlar haqida mukammal ma’lumot beradi.

Tezaurus – leksikaning to‘liq ma’lumotini beruvchi soha lug‘ati. Tezaurus biror tilning mukammal lug‘ati bo‘lib, terminalogiyaning asosini tashkil qiladi. Muayyan tushunchaning introlingvistik va ekstrlingvistik aloqalari tizimidir.

Tezaurus muayyan ilmiy sohaga oid yakka va brikmalar yordamida terminologik sestema modelini yaratadi. Natijada leksikografiyada tezaurusli ilmiy tasnif paydo bo‘ladi.

Tezaurus o‘ziga xos juda murakkab lug‘at sanaladi. Shunday ekan bir ikki kishigina uni amalga oshira olmaydi. Tezaurus tuzish uchun o‘nlab, balki undan ham ko‘proq mutaxasislarning ishtiroki talab qilinadi. Buning uchun tilshunoslar, mantiq ilmi mutaxasislari, hamda lug‘atshunos olimlardan iborat ijodiy guruh tashkil etilishi lozim. Shundagina zamon talablariga javob bera oladigan o‘zbek tilining mukammal tezaurusi yaratiladi.

Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tilining asosiy muammolaridan biri bu o‘zbek tilidagi tezaurusli lug‘atlarni yaratish ekan. Bizningcha bunday lug‘atlardan biri bu, o‘zbek tilidagi fe’l-atvor leksemalarining tezaurusli lug‘atini yaratishdir. Bunday lug‘atni tuzishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Fe’l-atvor leksemalarini o‘rganib chiqish;
Fe’l-atvor leksemalarining mavzuiy guruhlarini aniqlashtirish;
Fe’l-atvor leksemalarining ma’noviy xususiyatlarini aniqlash;
Fe’l-atvor leksemalarining giponimiyasini yoritish;
Fe’l-atvor leksemalarining sinonimiyasini o‘rganish;
Fe’l- atvor leksemalarining tezaurusini tuzish.

Chunki bunday leksemalarni atroflicha o‘rganish tilimiz, xususan, leksikamiz sir-asrorlarining yangi-yangi qirralarini ochish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.154.

2. Yusupov S.N. Tezaurus i zakonodatelstvo (K sozdaniyu obshepravovogo tezaurusa) // Gosudarstvo i pravo. – 1978. – №5. – S.115.

[1] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.154.

3.Осокина Светлана Анатольевна “ОСНОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ ТЕЗАУРУСА” Барнаул – 2015
4. Н.В. Лукашевич “Тезаурусы в задачах информационного поиска” Москва -2010
5. www. ARXIV.uz

ABULG‘OZI BAHODIRXONNING “SHAJARAYI TURK” ASARIDA UCHRAYDIGAN AYRIM ETNONIMLAR IZOHI
EXPLANATION OF SOME ETHNOMYS IN ABULGAZI BAHODIRKHAN'S WORK "SHAJARAYI TURK"

K.Abduvaliyeva
ToshDO‘TAU
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada etnonimlar, ya’ni xalq nomlarining nomlanish sabablari va ahamiyati xususida so‘z boradi. Bildirilgan fikrlar Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari asosida dalillanadi. Keltirilgan ba’zi etnonimlar haqidagi ma’lumotlar Suyun Qorayevning “Toponimika” kitobidagi fikrlar bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: etnonim, etnonimika, etimologiya, toponomika, toponim, qabila, urug‘, xalq, qarluq, uyg‘ur, barlos, qo‘ng‘irot, mo‘g‘ul, mang‘it, nayman, qatag‘an, qipchoq.

Abstract: The article discusses the reasons and significance of ethnonyms, ie the names of peoples. The views expressed are based on the work of Abulgazi Bahodirkhan “Shajarayi Turk”. Some of the ethnonyms cited are explained in Suyun Karayev's book Toponymy.

Key words: *ethnonym, ethnonymics, etymology, toponymy, toponym, tribe, clan, people, Qarluq, Uyghur, Barlos, Ishngirot, Mongol, Mangit, Nayman, Qatagan, Kipchak.*

Abulg‘ozi Bahodirxon (1603-1664) yirik adib, tarixchi olim va tilshunoslikka ham o‘z hissasini qo‘shgan inson sifatida ham ardoqlidir. Adibning “Shajarayi turk” asarida o‘zbeklar bilan bir qatorda, o‘sha davrda yashagan qo‘shni xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlari haqida ma’lumot beradi. Asarning asosiy qismi 1663-1664-yilda yozilgan. Asarda Xorazmning XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi tarixi bayon etilgan.

Asarda bir necha turkiy qabilalar, o‘zbek urug‘lari haqida ma’lumot va qabila va urug‘ nomlari ma’nolari keltirib o‘tilgan. Ushbu asarda turk-mo‘gul qabilalari haqida ma’lumotlar, o‘zbeklar, sartlar, turkman urug‘lari (sariq, yovmut, qizil oyoq, ersari), o‘zbek urug‘laridan qarluq, uyg‘ur, barlos, qo‘ng‘irot, mo‘g‘ul, mang‘it, nayman, qatag‘an, qipchoq, saroy, kenagas, qurama, qang‘li va boshqa urug‘lar uchraydi.

O‘zbek xalqi turli urug‘lardan tashkil topgan bo‘lib, ma’lum tarixiy davrda, ma’lum hududda, mahalliy etnoslar asosida, turli davrlarda kelib qo‘shilgan etnik komponentlarning aralashib borishi natijasida yanada shakllanib, rivojlanib borgan. Har bir o‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi mavjud.

Avshar eli – qadimiy urug‘lardan biri bo‘lib, arab geograflari Buxoro yaqinida Avshar degan qishloqni tilga oladilar. Abulg‘oziy Bahodirxon avshar so‘zini “*ishini ildam ishlamoqchi”* deb izohlaydi.

Arlot, arlat, allot – o‘zbek urug‘laridan biri. “Shajarayi turk” asarida Arlot ma’nosi haqida quyidagi misralar bor: “Aning ma’nosi otaning sevar o‘g‘li temak bo‘lur. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko‘p sevar erdi. Aning uchun Arlat tedilar. Barcha Arlat eli aning nayeli tururlar” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992, – Б.40.]. Manbalarga ko‘ra, Chingizxon tomonidan Chig‘atoy ulusini boshqarish uchun ajratilgan 4 ming kishilik qo‘shin boshliqlaridan biri ham Arlot urug‘idan (qolgani jaloyir, barlos, qavchin) bo‘lgan. Arlotlar Amudaryodan janubda, Shimoliy Afg‘oniston hududiga o‘rnashganlar. Keyingi asrlarda hozirgi O‘zbekistonning janubiy viloyatlari, shuningdek Xorazmga ko‘chib o‘tganlar. Bu nom hozirgi vaqtda etnonim va ba’zan toponim sifatida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ko‘proq uchraydi. Buxoro viloyatidagi Olot shahrining nomi ham “arlot” so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir.

Avshar– qadimiy urug‘lardan biri. Arab geograflari Buxoro yaqinida Avshar degan qishloqni tilga oladilar. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘z asarida avshar so‘zini “ishini ildam ishlamoqchi” deb izohlaydi.

Barlos – O‘zbekiston hududida, asosan Qashqadaryo vohasida ko‘chmanchi o‘zbeklardan chig‘atoy ulusiga qo‘riqlash uchun yuborilgan 4 ta qabilalardan biri. Barlos so‘zi Abulg‘ozixonning fikricha “qo‘mondon”, Alisher Navoiy asarlariga yozilgan “Badoye-ul lug‘at”ga ko‘ra “bahodir” degan ma’noni bildiradi [Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006].

Boyovut – respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug‘lardan biri. Rashididdinning “Jome ut-tavorix”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlarida Chingizxon qo‘shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham boyovut urug‘i tilga olingan. Boyovut so‘zi “boy”, to‘g‘irog‘i “boylar” “mulkdor” demakdir.

Irg‘anoqli (erganakli) – irg‘oqli urug‘i ham qayd qilingan. Ehtimol, bu ikkalasi bir urug‘ning turlicha talaffuz qilinishidir. Irg‘anaq “katak”, “shox-shabbadan to‘qilgan chavra”. Demak, bu urug‘ning tamg‘asi katak shaklida bo‘lgan.

Kerayt (Kerayit) – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Turli manbalarda kerayit so‘zi “qora qo‘y”, “qora odam” yoki “qarg‘a” deb izohlangan, etnonim oxiridagi – “t” harfi ko‘plik affiksidir. “Shajarayi turk”da: “kirayt ma’nosi qoraburan temak bo‘lur. Bir kishining yeti o‘g‘li bore di yettisi ham qora. Onlarg‘a xalq kiroytlar derlar erdi. Qadimiy el bo‘lur. Boshlari va mollari ko‘p erdi”, deya izohlangan [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.36].

Kilgit eli – “tilida, nutqida kamchiligi bor kishi” ma’nosini anglatadi. Bu haqda Abulg‘oziy Bahodirxon shunday yozadi: “Kishining tilida kamligi bo‘lsa, turk xalqi bo‘ltak der. Mo‘g‘ul kilgi der. Bu kishining tilining kamligi bor erdi. Aning uchun Kilgit tedilar. Barcha Kilgit eli u kishining nasli turur” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.40].

Mo‘gul – asl ma’nosi mo‘ngul turur erdi. Avomning tili kelmaslikdan bora-bora mo‘g‘ul tedilar. Mungning ma’nosini barcha turk bilur, qayg‘u ma’nosini turur. Ulning ma’nosi soda dil ya’ni qayg‘uli soda temakdir [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.43]

Naymanlar – mo‘g‘ul urug‘i deb hisoblanar edi; olimlar naim so‘zi mo‘g‘ulcha “sakkiz” ma’nosini anglatadi deydilar. “Bu qadim el turur, boshlari va mollari ko‘p bo‘lur erdi. Yurtlari mo‘g‘ul yurtinda bo‘lur. Qoraqurim tegan yerda va ekinlari bo‘lmas” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. 187 – Б. 36]. Naymanlar yirik qabila uyushmasi bo‘lgan. Ko‘plab turkiy xalqlarning tarkibiga kirgan. XIX asrning 70-yillarida o‘zbek-naymanlar Zarafshon vodiysida, Farg‘ona vodiysida va Xorazmda yashagan.

Toponimist olim S.Qorayev etnograf N.A.Aristovning nayman so‘zi Sibirdagi Nayma daryosi nomidan olingan degan fikrni bildirgani haqida ma’lumot beradi. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra naymanlar asli turkiy qabila bo‘lib, sakkizo‘g‘uzlarni mo‘g‘ullar o‘z tiliga moslab nayman deb ataganlar [Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006].

Nekuz, nekus, nukus – o‘zbeklar tarkibida ham uchraydigan turkiy etnonim. “Shajarayi turk” asarida nukuslar mo‘g‘ullar tarkibiga kirganligi aytilgan.

Qarluq eli – turkiyda *“qorlik, qorliq joy”* (tarixiy voqea asosida kelib chiqqan) degan ma’noni anglatadi. “Qorluq eli Mo‘g‘uliston tog‘larining ichinda yurt qilib o‘lturdilar. Qorluqning podshohi Arslonxon tegen erdi. Mo‘g‘ulistonda berk tog‘larning ichinda yurt qilib o‘ltururlar. Ekin ekarlar, mollari ham bo‘lur erdi” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.32]. Qarluqlar – o‘zbek xalqining etnik tarixida alohida o‘rin egallaydi. Aytishlaricha O‘g‘uzxon Turonzamin tomon kelayotganda qish mavsumida qattiq sovuq bo‘lib qor yog‘gan,va qorda uning yarim lashkari qorda qolib ketgan, o‘sha qolib ketilganlari Qorluqlar deb atalgan. Abulgozi Bahodirxon asarida shunday deydi: “Turk elida elning nomini ko‘targan, unga shon-shuhrat keltirgan 5ta urug‘ (qang‘li, qipchoq, xalaj, uyg‘ur, qorluq)dan biri bo‘lgan. Qarluqlar jangovar xalq bo‘lgan. Qarluqlar chigil, tuxsi, yag‘mo, yabg‘u, tangut, arg‘u, barlos kaltatoylar bilan birlashib turk-o‘zbek qavmini tashkil etadi.

Qiyot Abulg‘ozi Bahodirxon fikricha, mo‘g‘ulcha “tog‘dan oqqan sel” ma’nosidagi qiyon so‘zining ko‘pligidir. Bu fikrni V.V. Radlov ham isbotlaydi. Bundan chiqadiki, qiyonni (qiyonli) urug‘ining etimologiyasi ham o‘sha mo‘g‘ulcha qiyon so‘zi bilan ma’nodoshdir.

Qo‘nqirat eli – (hozirda Qo‘ng‘irot) “Shajarayi turk” asarida yozilishicha, qayon naslidan bo‘lgan Cho‘rliq mergan degan kishining Qo‘nqirat degan o‘g‘li bo‘lgan va barcha Qo‘nqirat eli uning naslidan tarqalgan.

Qo‘niqqimar eli – “O‘rmavit uruqindin bir kishi bor erdi. Aning uch o‘g‘li bor erdi. Ulug‘iga xalq Qo‘niqqimar ot qo‘ydi. Qo‘niqning ma’nosi ulug‘ temak bo‘lur. Bu vaqtda ham ulug‘ qarg‘ani qo‘niq qarg‘a derlar. Qimarning ma’nosi burun, ul kishining burni bisyor ulug‘ erdi. Aning uchun Qo‘niqqimar laqab qoldi. Barcha qo‘niqqimar uruqib kishining nasli turur” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. 187 – Б. 38].

Qalmoq – qalmoqlar ko‘chmanchi o‘zbeklardan oldin ham Movaraunnahrda yashagan va turkiylashgan mo‘g‘ul qabilalarining avlodlari bo‘lsa kerak. Muhammad Solihning “Shayboniynoma”sida aytilishicha, qalmoqlar Shayboniyxonga qarshi Buxoro hokimi Boqitarxon tomonida turib jang qilganlar. [Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006].

Qalmoq so‘zi turkiy “qolmoq” fe’lidan olingan, bu so‘z islom dinini qabul qilmasdan majusiylar holida qolgan o‘yrotlarni anglatgan, deyilgan. V.P. Darbakova qalmoq so‘zi mo‘g‘ulcha “duragay”, “aralash”, “qurama” degan ma’nodagi xalmig so‘zidan kelib chiqqanligini aniqladi. Haqiqatan ham aslida o‘yrotlardan ajralib chiqqan qalmoq urug‘i juda ko‘p urug‘-qabilalar aralashmasidan iborat bo‘lgan.

Qipchoq eli – qadim turk elida *“ichi qo‘sh yog‘och”*ni qipchoq deb atashgan. Keyinchalik bu xalq nomiga ko‘chgan. Qipchoq – o‘zbek xalqining etnik tarixida katta ahamiyatga ega. Ushbu urug‘ Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” ma’lumotlar berilgan: Qipchoq – Tan (Don), Itil (volga) va Yoyiq (Ural) bo‘ylarinda o‘ltirur erdi.

Qipchoq atamasi “qabuq”dan olingan bo‘lib, ma’lum daraxtning nomi atalib bu daraxt o‘sishdan to‘xtagan qovjirab qolgan ichi kovak bo‘lgan. “Shajarayi turk” asarida O‘g‘uzixon bir safar dushman zarbasidan katta zarar ko‘rib, chekinayotganda sahroda 2 daryo oralig‘ida to‘xtaydi. Shu payt eri urushda halok bo‘lgan xotinning to‘lg‘og‘i tutib daraxt kovagida o‘g‘il tug‘adi. Bundan xabar topgan O‘g‘uzxon bolani o‘ziga o‘g‘il qilib oladi va ismini Qipchoq qo‘yadi. Bola voyaga yetgach unga qo‘shin berib Itil va Yoyiq daryolari tomon yo‘llaydi. Aytishlaricha Qipchoq avlodi Ural-Volga bo‘ylarida 300 yil qolib ketgan.

Qang‘li – o‘zbek xalqining shakllanishida tamal toshini qo‘ygan. Ushbu etnonimning kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlar M. Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarix” va Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida keltirib o‘tgan. Abulg‘oziy shunday bitadi “O‘g‘uzixon lashkarining qo‘lina o‘n choqli o‘lik mol tushdikim, yuklamakka kuluk ozlik qildi. Bir yaxshi chibor kishi bor edi. Ul fikr qilib arabani yasadi. Mollarni yuklab yuklab qaytdilar. Arabaga qaniq ot qo‘ydilar, ani yasagan kishini esa qaniqli deb atagan”.

Qiniqli – “Shajarayi turk”da “Turkman elinda o‘ltirur erdi”, deya izohlangan.

Turqaq eli – So‘ngaki ma’lum ermas, qaysi turkdin erkani. Ma’nosi saqchi temak turur [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992.]. Podshohlari o‘zlarini saqlamoq uchun bir necha kishilarni eshiklari oldida navbatchilikka qo‘yishgan. Podshohni qo‘riqlaganlarni turqaqlar deb, keyinchalik xalq nomiga ko‘chgan.

Uyg‘ur – ma’nosi yopishqur temak bo‘lur. Ya’ni sut uyidi, uyigandan keyin ajralmas, ya’ni yopishdi. Qut tog‘idan o‘n soy oqib tushgan. Qadim uyg‘ur eli o‘sha soy orasinda o‘tirur erdi [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992].

O‘rmanqit eli – “bu elning yurtlari qalin yag‘ochning ichinda turur. Aning uchun O‘rmanqit ot qo‘ydilar” [Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон. 1992, 187 – Б. 38].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, turkiy xalq uzoq shakllanish va taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Bu taraqqiyot davomida turk ulusi turli xalqlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatib, nafaqat o‘zining, balki o‘sha xalqlarning ham rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Biz yuqorida etnonimlar haqida, etnonimlarni o‘rganadigan etnonimika fani to‘g‘risida, O‘zbekistondagi ba’zi bir urug‘-qabilalar geografiyasi va ayrim etnonimlar etimologiyasi, ma’nosi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tdik. Har qanday etimologiya, xususan, aksariyat qismi qadimiy so‘zlar bo‘lgan etnonimlar etimologiyasi murakkabdir. Tobora unutilib borayotgan urug‘-aymoq nomlarini to‘plash, yig‘ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlarini, etnonimlar bilan toponimlar

munosabatini aniqlash, ya’ni etnonimlardan nom olgan toponimlar bilan birgalikda urganji, qo‘qoni (qarapchi) kabi joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlarni alohida qayd qilish etnonimika oldida turgan vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – 187 b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002. – 333 b.
3. Бегматов Э. Мустақиллик ва топонимия. Ўзбек тили ва адабиёти // 2009, 5-сон. 9-12-б.
4. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – 192 b.
5. Internet ma’lumotlari.

“МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН”НИНГ ТУРКИЙ СЎЗЛАР СЕМАНТИКАСИНИ ЁРИТИШДАГИ ЎРНИ
THE ROLE OF "MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAIN" IN THE DEVELOPMENT OF TURKISH WORD SEMANTICS

С.Холманова,
ЎзМУ магистранти

Аннотация: мақолада “Муҳокамат ул-луғатайн”нинг илмий-назарий қиймати, амалий аҳамияти, ўзбек тилшунослиги тараққиётидаги ўрни ёритилган. “Муҳокамат ул-луғатайн”даги айрим туркий сўзлар семантикаси таҳлил қилинган. Ҳозирги ўзбек адабий тилига муносабати кўрсатилган. Асар матнининг туркий тиллар тараққиётидаги ўрни, семантик ҳодисаларни изоҳлашдаги аҳамияти кўрсатилган.

Калит сўзлар: *туркий қатлам, туркий лексика, туркий сўз, лингвокультурология, язык и культура, лакуна, лексема, эквивалент*.

Annotation: the article reveals the scientific and theoretical significance, the practical value of "Muhokamat ul-lugatayn", its role in the development of Uzbek linguistics. The semantics of some Turkish words in "Muhokamat ul-lugatayn" is analyzed. The relation to the modern Uzbek literary language is shown. The role of the text in the development of the Turkic languages is shown, its importance in the interpretation of semantic phenomena.

Key words: cultural linguistics, language and cultural attitudes, lacuna, lexeme, equivalent.

Алишер Навоий ижод намуналарини, айниқса, “Муҳокамат ул-луғатайн” асарини ўрганиш ёшлар дунёқарашини маърифий, маънавий жиҳатдан такомиллаштиришда аҳамиятлидир. Бу илмий манбада умуминсоний қадриятлар билан бир қаторда бугунги кун учун аҳамиятли бўлган қарашлар акс этган [1,2].

Sotsial vazifa belgilari sifatida dastlab nutqiy me’yor tushunchasi ajratib olinadi. So‘zlovchining doimiy ijtimoiy vazifasi rasmiy munosabat belgilariga ega bo‘ladi. Bunga ko‘ra so‘zlovchi o‘zi bajarib turgan kasb nuqtayi nazaridan boshliq, kasbdoshlari hamda xodimlariga nisbatan rasmiy munosabatni ifoda etuvchi til va nutq elementlaridan foydalaniladi. Bu bosqichda uning huquq va majburiyatlari faqat rasmiy ohangni talab etadi. Hamma sotsial vazifada bo‘lganidek, bunda ham so‘zlash ohangi, harakatlanish tempi, ayniqsa, imo-ishora tili o‘ta darajada shakllangan bo‘ladi. So‘zlashuvchilar o‘rtasidagi bunday munosabat sotsial aspektga ko‘ra mutanosib munosabat deb hisoblanadi, biroq bu nutqiy munosabatning mazmuniy aspekti nomutanosib munosabat ekanligini isbot etadi. So‘zlashuvchilar orasidagi huquq va majburiyatga ko‘ra har qanday shaxs rasmiy ohangdan foydalangani holda nutqda hokimlik va itoatkorlik elementlari buyruq hamda bo‘ysunish kabi nutqiy aktlarni yuzaga chiqaradi. Har qanday rivojlangan tilda sotsial vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi til elementlari mavjud bo‘ladi. So‘zlashuvchilar ana shu til elementlaridan foydalanib, o‘zlari bajarib turgan sotsial imkoniyatlarini nutq orqali bayon etadilar.

L.P.Krisin nutqiy aloqa-aralashuv va so‘zlovchilarning sotsial vazifalari haqida so‘z yuritib, aloqa-aralashuv vaziyatida ishtirok etuvchilar nutqini ikki guruhga ajratadi:

1. Mutanosib nutq. 2. Nomutanosib nutq[1].

Mutanosib nutqiy muloqotda hatto jins, yosh nuqtayi nazaridan ham bir xillik talab qilinadi:

Salti endi gap ochdi.

- Erta saharlab chopganim bekorga emas.

- Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi.

- Nimaga, o‘rtoqjon?

- O‘zingiz bilgan sovchilar balosida... Qish ichi keti uzilmadi. (Cho‘lpon)

Ushbu misolda kommunikantlar nutqida ularni teng ekanligi “o‘rtoqjon!” so‘zining lug‘aviy ma’nosidan, ayol kishi ekanligini gap sovchilar haqida borayotganligidan bilib olamiz. Demak, bunda nutqiy muloqot ishtirokchilari sotsial mavqelari jihatiga ko‘ra tobe emas. Ularning o‘zaro tengligi, ayol kishi ekanligi, simmetrik muloqotda erkin fikrlash imkoniyatini yaratadi. Simmetrik

[1] Крысин Л.П. Речевое обшение и социальные ролы говоряших. В кн.: Социально-лингвистические исследования. М., 1976. с.49.

nutq tushunchasi ostida 2 xil holatni kuzatamiz. Birinchi holatda simmetrik nutqiy munosabatga kirishuvchi shaxslar simmetriya termini nazariyasiga koʻra, tenglik asosidagi “samimiylik” munosabatida boʻladilar. Bu holatga koʻra, ularning nutqida “teng huquqlilik”, “samimiylik” oʻz ifodasini topadi.

Simmetrik nutqiy munosabatning ikkinchi koʻrinishida kommunikantlarning oʻzaro yoshi, jinsi, sotsial mavqeyiga koʻra tenglik munosabati boʻlsa-da, biroq nutqiy muloqotda simmetrik munosabatning salbiy koʻrinishi koʻzga tashlanadi.

Asimmetrik nutqiy munosabat tushunchasida esa oʻzaro nutqiy muloqot jarayonida nutq ishtirokchilaridan birining sotsial jihatdan “tobeligi” va “ustunligi” sezilib turadi.

Umumtilshunoslik ilmida ta’kidlanishicha, tilni sotsial hodisa sifatida tushunish hamda aloqa-aralashuv va fikrlash-anglash quroli sifatida tadqiq etishning ikki yoʻnalishi mavjuddir. Bu tadqiqotning birinchi yoʻnalishiga tilni jamiyatning mahsuli sifatida oʻrganish, shuningdek, tilga, uning strukturasiga, uning shakllanish qonuniyatlariga turlicha umumiy sotsial faktorlarning ta’sirini oʻrganish kiradi. Ikkinchi yoʻnalish esa, til jamiyat instrumenti, fikrlash-anglashning quroli va aloqa-aralashuv (kommunikatsiya) quroli sifatida tadqiq etishdir. Bu yoʻnalish oʻz navbatida ikkiga boʻlinadi:

1. Tilni fikrlash-anglashning quroli sifatida oʻrganish.

2. Tilni aloqa-aralashuv, kommunikatsiya quroli sifatida oʻrganish.

Aloqa-aralashuv jarayonida tildan foydalanishning ikki asosiy maqsadi mavjud boʻladi: a) nimadir xususidagi axborot bayoni; b) odamlarning ruhiyati va axloqiga ta’sir etish.

Shunday qilib, tilning ayrim kishilarning axloqi va ruhiyatiga ta’sir etish vositasi sifatida qoʻllanishi pragmalingvistikaning predmeti hisoblanadi. L.A.Kiseleva lingvistik pragmatika sotsiolingvistikaning qismlaridan biri deb hisoblaydi[1].

Nurmonov pragmalingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida quyidagilarni koʻrsatadi: Nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham sintaktik qurilma ifodalagan propozitsiyaning soʻzlashuvchilarga tushunarli boʻlishi uchun nutq vaziyati yoki kontekst zarur boʻlgan joyda pragmatikaga ehtiyoj ortadi. Bu quyidagi hollarda roʻy beradi:

1) jumla tarkibida sen, hatto, faqat, hozir singari deskriptiv boʻlmagan soʻzlar ishtirok etganda.

Amaliy sintaksis muammolarini hal qilishda Ch.Fillmorning «tushunish mazmuni» gʻoyasi katta yordam beradi. Ch.Fillmor mazmuniy nazariyani «tushunish mazmuni» va «haqiqat mazmuni» nazariyalariga ajratgan holda, «tushunish mazmuni» nazariyasi ostida lisoniy matnlar bilan jarayon oʻrtasida mavjud boʻlgan munosabat haqidagi umumiy tasavvurni tushunadi.

«Tushunish mazmuni»ning vazifasi lisoniy matn bilan uning matnlar qurshovida toʻliq tushunilishi oʻrtasidagi aloqa mohiyatini ochishdan, jumlaning u orqali ifodalanayotgan vaziyat bilan aloqasini koʻrsatishdan iborat.

Soʻzlashuvchilarning lisoniy bilimi deganda, lisoniy birliklar bilan vaziyat elementlari oʻrtasidagi munosabatning inson ongida aks etishi tushuniladi. Bunday munosabatning aks etishini izohlashda, Ch.Fillmor kiritgan *freym* atamasidan foydalanish mumkin.

Ma’lumki, har qanday tildagi soʻzlar ma’lum belgilariga koʻra u yoki bu tematik guruhlarni, mazmuniy maydonlarni hosil qiladi. Masalan, *opa, aka, ota, ona, uka, singil* va boshqalar. Bu soʻzlarning har qaysisi oʻziga xos individual ma’noga ega boʻlishi bilan birga, hammasi uchun umumiy boʻlgan, har birida takrorlanadigan umumiy ma’no ham mavjud. Bunday bir guruhga birlashgan soʻzlarni bir butun sifatida oʻrganish qulaylik tugʻdiradi. Chunki har bir guruh oʻzaro bogʻlangan olam haqidagi bilimlarimizning lisoniy gavdalanishlari hisoblanadi. Shu sababli har qaysi guruhning u yoki bu birligining ma’nosini toʻligʻicha tushunish uchun bu birlik mansub boʻlgan guruh ifodalayotgan olam, vaziyat hamda uning uzvlari oʻrtasidagi oʻzaro aloqa haqidagi bilimlarimiz muhim ahamiyatga ega. Ma’lum guruhga mansub boʻlgan soʻzlar ortidagi oʻzaro bogʻliq boʻlgan olam uzvlari haqidagi bilimimiz freym sanaladi.

[1] Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. Л., 1978, с.100-101.

Masalan, besh bahoning qimmati uning qaysi baholash tizimiga mansubligiga bog‘liq. Agar besh balli tizimda besh baho bilan baholangan shaxsning quvonchi cheksiz bo‘lsa, o‘n balli tizimda besh bilan baholanganligini bilgan shaxsga bu baho hech qanday quvonch keltirmaydi. Shuning uchun «sen besh baho bilan baholanding» degan jumlaning ma’nosiga to‘la tushunish uchun faqat shu jumlada ishtirok etgan leksik uzvlar orqali ifodalangan axborotgina yetarli emas. Bu axborot shu baho tizimi haqidagi bilimimiz bilan to‘ldiriladi;

2) jumla kishilar o‘rtasidagi aloqa jarayonida vujudga keladi. Shuning uchun ham ularning har birida shaxsning izi o‘z ifodasini topadi. Chunki «Til borliqning uyi» (M.Haydegger), unda insoniyatning ma’naviy-ruhiy olami aks etadi[1].

Jumla mazmunini so‘zlovchi bilan uzviy bog‘lab turgan so‘zlar ham pragmatikaning tadqiqot obyektidir. Bevosita modusni ifodalovchi kirishlar, baho bildiruvchi so‘z va vositalar sintaksisi pragmatika tomoni orqali o‘rganiladi;

3) insonning sub’ektiv ruhiyatini aks ettiruvchi diskurs ham pragmatikaning o‘rganish doirasiga kiradi. E.Benvenistning fikriga ko‘ra, so‘zlovchi va tinglovchini taqozo qiluvchi va so‘zlovchining tinglovchiga qandaydir yo‘l bilan ta’sir qilish maqsadini aks ettiruvchi har qanday jumla diskurs (nutq), hisoblanadi.[2] Jumlaning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, obyektiv mazmun bilan u ifodalagan shakl o‘rtasidagi munosabat, shakl va mazmun o‘rtasidagi tengsizlik holatining nutqdagi ta’siri kabi masalalar ham pragmatikaga kiradi;

4) «men» va «boshqalar» o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi nutqiy odat (etiket), hurmat ifodalash usullari ham pragmatikaning o‘rganish sohasi sanaladi;

5) pragmatikaning o‘rganish sohalaridan eng muhimi presuppozitsiyadir. Masalan, *«Ahmad keldi»* jumlasidan qandaydir shaxsning kelganligi, qayerdan qayerga va nima maqsadda kelganligi haqidagi axborot qorong‘i bo‘ladi. So‘zlovchi va tinglovchining oldindan shunday ma’lumotga, umumiy bilish fondiga ega bo‘lishi bevosita ifodalanadigan axborotning so‘zlovchilar uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi[3].

Pragmalingvistika va sotsiolingvistika sohalari haqidagi bu fikrlarning barchasi to‘g‘ri, biroq bularning barchasi ham ma’lum darajada izoh talab qilishini M. Hakimov ta’kidlab o‘tadi. Jumladan, jamiyatdagi ijtimoiy voqeliklarning tildagi ifodasi hamda ularning umummillat tiliga ta’siri kabi masalalar sotsiolingvistika atamasida mujassamlashganligini aytib o‘tadi. Misol tariqasida tildagi ba’zi so‘z yoki iboralarning millat hayotidagi sotsial o‘zgarishlar ta’sirida iste'molga kirishi yoki iste'moldan chiqishi, shuningdek, millatning urf-odatlari bilan aloqador holatlarning tilning ba’zi qatlamlari bilan bog‘lanish va ta’siri kabi yo‘nalishlar bevosita ijtimoiy tilshunoslik predmetini tashkil etishini, tilning sotsiolingvistik aspektda tadqiq etilishi qaysi jihatlari bilan tilshunoslikning lingvistik pragmatika sohasiga yaqinlashishi yoki tadqiqot predmeti qaysi nuqtada ikkala soha uchun bir obyektga aylanishi nisbiy ekanligini uqtirib o‘tadi. Olimning fikricha, tadqiqot predmeti bir bo‘lsa-da, bu ikki soha mana shu vaziyatda o‘zining tadqiq etish usuli bilan ma’lum darajada farqlanadi. Pragmalingvistika sohasi uchun so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat, sotsiolingvistika uchun til va nutqning shakllanishidagi sotsial faktorlarning ta’siri asos qilib olinadi[4].

Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o‘rganar ekan, ijtimoiy muhitni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi. “Muhit tushunchasi o‘z ichiga oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni qamrab oladi. Insonni qurshab turuvchi barcha narsa: turmush va uning jihozlari, tabiat, jamiyat va davlat, shaxs, tarix, ya’ni turli davr va xalqlarning madaniyatlari muhit tushunchasiga kiradi”[5]. Demak, inson yashab turgan tabiat va jamiyat muhitni tashkil qiladi. Inson o‘sha muhitda yashar ekan, bu uning fe’l-atvoriga, shuningdek, muloqot madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. “Insondagi o‘zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan,

[1] Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания //Новое в зарубежной лингвистике. ХХИИИ. – М., 1988. – С. 63.
[2] Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка, Событие. Факт. – М., 1988. – С. 3.
[3] Нурмонов А. Танланган асарлар. –Тошкент, 2012. 3 жилдлик. 3–жилд.Б.196.
[4] Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент, 2015. Б.
[5] Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида):филол.фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 1999. 11–бет.

muloqot xulqida namoyon bo‘ladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta’sir ko‘rsatadi”[1]. Til jamiyat taraqqiyoti natijasida rivojlanar ekan, ijtimoiy muhitning til va uning namoyon bo‘lish shakli – nutqqa ta’siri juda katta. Inson mansub bo‘lgan muhitning tabiati uning nutqida ham yorqin namoyon bo‘ladi. Kishilarning yashash tarzi, ish faoliyati, o‘qish tartibi, sharoiti, atrof-muhitning o‘zgarishi uning nutqida ham namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy muhitning tilga ta’siri masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Tadqiqotchi S.Mo‘minovning mazkur masala bilan bog‘liq tadqiqot ishida ham ijtimoiy muhitning muloqot xulqiga ta’siri, ya’ni qishloqliklar va shaharliklar nutqining o‘ziga xos farqli jihatlari, asosan, muhit bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Sotsiolog va psixologlar ham kommunikantlar nutqining o‘ziga xos tarzda shakllanishida ijtimoiy muhitning alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydilar.

Shunday qilib, jahon tilshunosligida til tizimini shaxs bilan bog‘liq tarzda o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika sohalari bilan bir qatorda pragmatik tilshunoslik va sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlarda ham namoyon bo‘lmoqda.

Sotsiolingvistika va pragmalingvistika o‘zaro aloqadorlikdagi sohalar bo‘lib, har ikki sohaning umumiy jihatlari nutqiy vaziyat, muloqot xulqi, nutqiy odob kabi masalalarda tutashadi va bir-birini to‘ldiradi. Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o‘rganar ekan, ijtimoiy muhitni, ya’ni oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Shu jumladan, kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент, 2015.
2. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2000.
3. Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида) филол.фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 1999.
4. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка, Собитие. Факт. – М., 1988.
5. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания //Новое в зарубежной лингвистике. ХХИИИ. – М., 1988.
6. Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. Л., 1978.
7. Крысин Л.П. Речевое обшение и социальные ролы говоряших. В кн.: Социально-лингвистические исследования. М., 1976.

UY-RO‘ZG‘OR REALIYA BUYUMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI
ETHNOLINGUISTIC FEATURES OF PHRASEOLOGY FORMED ON THE BASIS OF HOUSEHOLD REALIES

A.Yusupova
O‘ZMU magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada uy-ro‘zg‘or tarziga aloqador frazeologizmlarning mohiyati, mahalliy va tarixiy kolorit hisoblangan realiyalar ishtirokidagi frazemalarning xalqimiz orasida tutgan o‘rni va idrok etilish darajasi tahlil qilingan. Milliy-madaniy buyumlar bilan bir qatorda madaniy munosabatlar, qadriyatlar aks etgan tushunchalar, iboralarning ham realiya birlik sifatida qaralishi o‘rinli ekanligi ta’kidlangan.

Abstract: This article analyzes the essence of phraseology related to lifestyle, the role of phrases involving realities that are local and historical colors, and the level of understanding among our people. In addition to national and cultural attire, it is appropriate to consider cultural relations, concepts and expressions that reflect values as a unit of realia.

Kalit so‘zlar: *milliy-madaniy qadriyat, lingvomadaniyat, muqobilsiz leksika, barqaror birikma, frazemalar.*

[1] Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: филол. фанлари д-ри....дисс. – Тошкент, 2000. 136-бет.

Key words: *national-cultural value, linguoculture, irreplaceable vocabulary, stable combination, phrases.*

O‘zbek xalqi deganda bevosita ko‘z oldimizda mehnatkash, har qanday mashaqqatga chidamli xalq gavdalanadi. Shu bois bo‘lsa kerakki, Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib o‘troqlashgan, boshqa xalqlarning turmush tarziga o‘xshamaydigan hayot tarziga ega bo‘lgan xalqdir.

Chunonchi, inson ongli hayotidan boshlab mehnat bilan shug‘ullana boshlaydi. Mehnat jarayonida esa xilma-xil ishlar bajarib kelingan. Mehnat jarayonida bajarilgan u yoki bu xatti-harakatlar kishilarda muayyan lisoniy assotsiyalarni uyg‘otadi.[1] Shu tufayli biror bir fikrni obrazli ifodalashga ehtiyoj tug‘iladi. Ayni shu holat kishilarning kasb-koriga, uy-ro‘zg‘or tarziga aloqador frazeologizmlarning ham shakllanishiga sabab bo‘lgan, deb o‘ylaymiz. Bunday frazeologizmlarning shakllanishida quyidagi leksik-semantik guruhlarga oid voqelik bilan ifodalangan obrazli tushunchalalar asos qilib olingan. Frazeologizmlar milliy tilning inson ongida muhrlangan hamda turli xil tipdagi tarkibiy qismlar orqali yuzaga keltirilgan voqelik parchalarini ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tilida yuzaga kelgan frazeologizmlarning bir qismi ma’lum kasb-kor egalarining faoliyati bilan bog‘liqligini to‘plagan materiallarimizni tasdiqlaydi. Kasb-kor egalari muayyan ishlarni o‘ziga xos xatti-harakat bilan bajaradi. Ana shunday jarayon til egalarida xilma-xil assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. O‘zbek xalqining o‘ziga xos bo‘lgan etnolingvistik xususiyatlarini aks etiradi. Shunday xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizmlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

a) Uy-ro‘zg‘or buyumlari asosida shakllangan frazeologizmlar

Bu frazeologizmlar kundalik turmushda qo‘llanadigan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarining mantiqiy asosidan kelib chiqib umumlashadi va umumtil miqyosida voqe bo‘ladi. Misol uchun *po‘stagini qoqmoq, yumshoq supurgi bo‘lmoq, chig‘iriqdan o‘tmoq, ko‘rpa-yostiq qilib yotmoq, chirog‘ini yoqmoq,o‘zini taroziga solmoq, kosasining tagi oqarmoq, yostig‘ini quritmoq, pichoq o‘z sopini kesmaydi, pichoqqa ilinadigan, kurakka turmaydigan, yumaloq-yostiq qilib, baland oxurdan yem yemoq, suprasi quruq, ola xurjun yelkasiga tushmoq, ichiga chiroq yoqsa ham yorimaydi aravani quruq olib qochmoq, ipidan ignasigacha bilmoq, ko‘rpaga qarab oyoq uzatmoq, bir yostiqqa bosh qo‘ymoq, oyog‘iga bolta urmoq, arava sinsa, yalqovga o‘tin, aravani teng tortmoq[2]* kabilar. Bu frazeologizmlarning ayrimlarining ishlatilish holatlarini misollar bilan ko‘rib chiqamiz. Hali ham soddasiz, Qo‘chqorov, shuncha chig‘iriqdan o‘tib ham pishmabsiz (Shuhrat). Keyin boshini ikkita qilib qo‘ysam, dadasi bilan mening chirog‘imni yoqib o‘tirsa deyman, xolos, deydi bechora(H.Nazir). Keltirilgan “chirog‘ini yoqib o‘tirmoq” “vafot etgan kishining nomini abadiy qilmoq, uy yumushlarini davom ettirmoq, uyga ro‘zg‘orda qo‘llanadigan voqelikni obrazli gavdalantirish sabab bo‘ladi. Arava xalqimizning og‘irini yengil qiladigan vosita sifatida qaralib kelinadi. Shu sababli arava so‘zi bilan bog‘liq iboralarga duch kelamiz. *Aravani teng tortmoq* iborasi teng baravar ishlash yoki hammasini birday ko‘rmoq ma’nolarini ifodalaydi. Frazemaning ma’nolarida ham o‘zbek xalqiga xos qarash, ya’ni adolatlilik o‘z ifodasini topgan.

b) Dehqonchilikka bog‘liqligi jihatdan yuzaga kelgan frazeologizmlar

O‘zbek xalqi azaldan dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shuni aytish joizki, dehqonchilik deyilganda “qishloq xo‘jaligining yerga ekin ekib yetishtiradigan soha” tushuniladi. Demak, dehqonchilik faoliyati va yetishtiradigan mahsulotlari ham har xil bo‘lish holatlari bor. Bunday holat, albatta, xalqlarning tushunchasi va ishlatilishi mumkin bo‘lgan frazemalarida turli komponentlarni yuzaga chiqaradi. Misol uchun *xirmon ko‘tarmoq, arpasini xom o‘rmoq, o‘tganning o‘rog‘ini, ketganning ketmonini olmoq, qovun tushurib qo‘ymoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq ko‘p qovun pishig‘i o‘tmoq, danagidan mag‘zi, qo‘ynini puch yong‘oq bilan to‘ldirmoq[3]* kabi ko‘p frazeologizmlarni keltirishimiz mumkin. Bu frazeologizmlarining barchasida o‘ziga xoslik aks etib turibdi. Ularning ayrimlarini tahlilga tortadigan bo‘lsak, o‘zbek xalqi azaldan ertangi kunini o‘ylab, ish tutgan shu bois barcha mahsulotlarini bir joyga to‘plab zaxira sifatida saqlaganlar shu asnosida xirmon qilmoq iborasi yuzaga kelgan.

c) kasb-korlikka bog‘liqligi jihatdan yuzaga kelgan frazeologizmlar

O‘zbek xalqi dehqonchilik, chorvachilik bilan birgalikda muayyan shart-sharoitlar taqozasi ila kosibchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, duradgorlik bilan shug‘ullanib kelganlar shu sababli kam miqdorda bo‘lsa-da, bu kasblarga bog‘liqligi jihatidan yuzaga kelgan frazeologizmlar mavjud.

Mazkur doirada shakllangan frazeologizmlarning asosini ma’lum kasb-kordan olingan voqelik va shu voqelikning obrazli ifodasi tashkil etadi. Masalan, *kalavaning uchini topmoq, kalavaning uchini yo‘qotmoq kabi frazemalari to‘quvchilik bilan bog‘liq voqelikni obrazli ifodalash asnosida yuzaga kelgan. Bo‘yiga qarab to‘n bichmoq, kashtasi kelishgan, bo‘zchining mokisiday[3]* kabi realiya ishtirokidagi iboralar tikuvchilik bilan aloqador voqelikni obrazli gavdalantirgan bo‘lsa, *tesha tegmagan, g‘isht qolipdan ko‘chgan* iboralar duradgorlik jarayonlar bilan bog‘liq frazeologizmlarni yuzaga keltirgan.

Bundan ko‘rinadiki, frazeologizmlar qaysi doirada yuzaga kelmasin keltirilgan barcha misollarning markazida turuvchi komponentlar mentallikni ifodalovchi etalon sifatida qaraladi. Chunki xalq mavjud ekan, uning o‘ziga xos urf-odati, dunyoqarashi, turmush tarzi, voqelik jarayonlari bir-birlariga aynan o‘xshamaydilar. Shu sababli frazeologizmlarni xalqlarning etnolingvistik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi birlik sifatida qarashimiz hamda o‘rganishimiz hech qanday xatoliklarga olib kelmaydi. Xulosa qilib shuni aytish joizki, frazeologizmlar insoniyat tili ila vujudga kelgan til birligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol.fanlari doktori...diss. – Toshkent, 1999.
2. Sattor M. O‘zbekning gapi qiziq. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2011
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978

O‘XSHATISHLAR – MILLIY-MADANIY BELGILAR IFODASI SIFATIDA
PARABLES ARE EXPRESSIONS OF NATIONAL AND CULTURAL SYMBOLS

Sh.Xamdamova
ToshDOTAU magistranti

Annotation: Maqolada o‘xshatishlarning mazmun mohiyati, o‘xshatishlar misolida tashqi dunyoni bilish va o‘xshatishlarda xalqlar madaniyatini ko‘rish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, o‘xshatish etaloni, individual, turg‘un, *lingvokulturologik xususiyatlar.*

Abstract: In the article it is said about the substance of assimilations, knowing the world, demonstrating of nation’s culture in assimilations.

Key words: assimilation, assimilation etalon, individual, permanent, linguo-cultural features.

O‘xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi.

O‘xshatish – ikki narsa-hodisa yoki voqelik o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko‘chimning sodda turidir. O‘xshatish (tashbeh) mumtoz badiiy san’at ko‘rinishi sifatida uslubiyatni ta'minlovchi vositalardan biri hisoblanadi. [*Xolmuradova,2020:*93].

O‘xshatishlar nutqda katta badiiy-uslubiy imkoniyatlarga ega bo‘lganligi uchun nutqning ifodaliligini ta’minlaydigan alohida vosita vazifasini bajaradi. O‘xshatishlar to‘rt unsurdan tarkib topadi, ya’ni:

1) o‘xshatiladigan narsa (yoki subyekt);
2) o‘xshatish etaloni;
3)o‘xshatishasosi;
4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi.

Masalan, *Yigit musichadek beozor ekan* o‘xshatishida *yigit* o‘xshatiladigan narsa, *musicha* o‘xshatish etaloni, *beozor* o‘xshatish asosi, *-dek* qo‘shimchasi esa o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichidir.

O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi:

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratadi, bu o‘xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o‘quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, pred- metlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi. Masalan, *Miryoqub ikki kishining pichirlashib gaplashganini eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi (Cho‘lpon)* gapidagi o‘xshatish – yozuvchining o‘z ijodi mahsuli. Mana bu o‘xshatishlar ham erkin badiiy o‘xshatishlardir: *Maydalab o‘rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar – nay ko‘ksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (Ismoil To‘lak).* Turg‘un o‘xshatishlarda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqtlar o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tilidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor frazeologik birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Masalan, *Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma’lum (Cho‘lpon)*; *Bolalari qo‘rqqanlaridan baqadek qotib qolishdi (M.Nizanov)* gaplaridagi o‘xshatishlar turg‘un o‘xshatishlardir. Turg‘un o‘xshatishlar ham nutqning ifodaliligini ta’minlashda alohida o‘rin tutadi. N. Mahmudov va D. Xudoyberganovaning «O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati»dan olingan o‘q so‘zi ishtirokidagi turg‘un o‘xshatishlarning ma’no- larini ko‘rib chiqsak, birgina o‘q so‘zi misolida ko‘pgina ma’nolar mujassamligiga guvoh bo‘lamiz. O‘qday (kabi, singari)

1. *To‘g‘ri, adil.* Asosan, egri bo‘lmagan ko‘cha, yo‘l va boshqa narsalar haqida: Hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o‘rniga bog‘-rog‘ga ko‘milgan, ko‘chalari **o‘qday** *to‘g‘ri,* oppoq, ko‘rkam qishloq barpo qildi. *(O.Yoqubov, «Diyonat»)*

2. *To‘g‘ri.* Rost, adolatli so‘z, shuningdek, g‘irromlikni bilmaydigan odam haqida: **O‘qdek** *to‘g‘ri* bo‘lmoqlik, kibr-u havoga yo‘l ochmasligi lozim... – negadir o‘ylanib qoldi sohibqiron. *(M. Ali, «Ulug‘ saltanat»)*

3. *Botmoq, tegmoq, teshib o‘tmoq, sanchilmoq, qadalmoq.* Odamga qattiq ruhiy azob bermoq. Asosan, gap-so‘z, o‘y-xayol haqida: Uning so‘zlari garchi **o‘q kabi** *botayotgan* bo‘lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. *(T. Malik, «Shaytanat»)*

U ketdi, ketdi-yu endi shum o‘ylar *San chilaveradi* qalbga **misli o‘q**. *(A.O‘ktam, «U ketdi...»)*

4. *Uchmoq.* Juda ham tez harakatlanmoq; zarb, shiddat bilan chiqib ketmoq. Vatan, aylanarman bir keskir toshga, Qoshingga **o‘q kabi** *uchib* borarman.

(R. Parfi, «Ona Turkiston») Bizdan uzr so‘rab, «pat-pat»iga o‘tirdi-yu **o‘qday** *uchirib ketdi. (M. M. Do‘st, «Lolazor»)*

5. *Otilmoq.* Keskin, shiddat bilan biror tomonga tashlanmoq; odam, jonivor va boshqa harakatlanuvchi narsalar haqida: Qamchi yeb o‘rganmagan uchqur bedov oldinga **o‘qday** *otilib,* egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi. *(P. Qodirov «Yulduzli tunlar»)*

6. *Otilib chiqmoq.* Asosan, qattiq hayajon, hissiy taranglik bilan aytilgan gap-so‘z, xitob va shu kabilar haqida: Ko‘kragidan shu so‘zlar **o‘qday** *otilib chiqdi*: «Otamning qamalishi emas, sizning qilmishingiz meni o‘rtoqlarim oldida yerga kirgizib yubordi». *(A. Qahhor, «Zilzila»)*

7. *Kirmoq, sanchilmoq, qadalmoq, urilmoq.* Qattiq, dag‘al, quloqqa ozor bera- digan darajada eshitiladigan ovoz, gap-so‘z haqida:

Uxlab qoldingizmi, nima balo! – rejissyorning tajang qichqirig‘i Zuhraning quloqlariga **o‘qday** *kirdi. (O‘. Hoshimov, «Nur borki, soya bor»)*

8. *Qadamoq, tikmoq.* Qattiq tikilib qaramoq. Asosan, ko‘z haqida: Ertalab haykalning ochilishidan qaytayotib, mashina oynasidan o‘ziga **o‘qdek** *qadalib turgan* bir juft ko‘zni ko‘rib qoldi. *(E. A’zam, «Shoirning to‘yi»)[Маҳмудов, Худойберганова,2013:281-283]*.

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” uchun yig‘ilgan materiallar shundan dalolat beradiki, xalqning muayyan predmet, belgi, harakatholatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o‘xshatishlarda ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, buni o‘zbek tilidagi inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Tilshunos olima D. Xudoyberganova o‘zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli maqolasida o‘zbek tilidagi inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarni quyidagi ma’noviy guruhlarga tasnif qiladi:

1. Inson a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.

2. Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshaishlar.

3. Insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar.

4. Insonning ovozi bilan bog‘liq o‘xshatishlar.

5. Inson nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlar.

6. Insonning harakteri bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.

7. Insonning holati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ xshatishlar.

8. Insonning hatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.

[Xudayberganova,2013:94].

O‘zbek tilidagi inson bilan bog‘liq o‘xshatishlar shuni ko‘rsatadiki, ularda insonning holati va harakatini ifodalovchi o‘xshatishlar miqdori boshqa ma’noviy guruhdagi o‘xshatishlarga nisbatan ko‘p. Keyingi o‘rinda esa inson a’zolarini ifodalovchi o‘xshatishlar turadi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalari ko‘proq insonning harakatholatini obrazli tarzda ifodalaydi. O‘xshatish uchun etalon sifatida tanlangan so‘zlar ham o‘zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi til birligidir. Insonning xarakteri xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlarda o‘zbek tilida so‘zlashuvchi til egalarining etalon sifatida turli hayvon va jonivor turlarini bildiruvchi so‘zlardan ko‘proq foydalanganligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, itday sadoqatli, molday befahm, musichaday beozor, eshakday qaysar (xarakter bilan bog‘liq); itday ishlamoq, echkiday sakramoq, toshbaqaday sudralmoq, ilonday sudralmoq, bulbulday sayramoq (harakat bilan bog‘liq o‘xshatishlar). O‘zbek tilida o‘simlik va meva nomlarining o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanishi ham ko‘p uchraydi. Bunday o‘xshatish etalonlariga sambit, shamshod, sarv, terak, lavlagi, sholg‘om,gilos, olma, yong‘oq, kabi so‘zlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘xshatishlar turli xalqlar madaniyatini yaqqol namoyon qilib beruvchi vositalardan biri hisoblanadi.Unda ma’lum davrda yashagan ajdodlar kechinmalari, tasavvurlari,milliy va madaniy an’analari muhrlangan bo‘ladi. O‘xshatishlar bizning madaniyatimizni kelajak avlodga yetkazuvchi vositalardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. “Qutadg‘u bilig” leksikasi [Matn] : monografiya / M.F.Xolmuradova. - Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 156 b.

2. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013.

3. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати / Н. Маҳмудов, Д. Худойберганова. - Тошкент: «Маънавият», 2013.-320 б.

NEYROLINGVISTIK DASTURLASH: TARIXI VA BUGUNGI AHAMIYATI
NEUROLINGUISTIC PROGRAMMING : FORMING HISTORY AND THE IMPOTANCE FOR TODAY’S LIFE

O.Sharipova
TDO‘TAU magistranti

Abstract: In the article, it is investigated that the forming history of NLP as a new subject and its importance in today’s life

Keywods: *NLP, neuro, language, programming, brain, brain’s behavior*.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ijtimoiy hayotning turli tarmoqlarida inson psixologiyasiga ta’sir qilishning yangi – neyrolingvistik dasturlash turi keng qo‘llanmoqda. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: kundan kunga tobora talab ortib borayotgan bu yo‘nalish qachon shakllangan, uning asl mohiyati, amaliy ahamiyati nimada?

Neyrolingvistik dasturlash (NLD) terminini ona tilimizga so`zma-so`z tarjima qiladigan bo‘lsak, nerv, til va dasturlash so‘zlari kelib chiqadi, ya’ni u insonni til va so‘zlar yordamida dasturlash degan ma’noni anglatadi va ushbu uch tarkibiy qism uning uch muhim elementini tashkil etadi: neyro(nerv tizimining miya va tana o‘rtasidagi aloqadorligi), lingvistika(til vositasida o`zaro ta’sir ko`rsatish) va dasturlashtirish(fikr va harakatlarning ketma-ketlikda takrorlanib turishini tizimga solish).

Oksford lug‘atida ushbu atamaga quyidagicha ta’rif beriladi: “A model of interpersonal communication chiefly concerned with the relationship between successful patterns of behaviour and the subjective experiences (*esp*. patterns of thought) underlying them” va “A system of alternative therapy based on this which seeks to educate people in self-awareness and effective communication, and to change their patterns of mental and emotional behaviour”. Bundan kelib chiqadiki, NLD asosida ikki narsa yotadi-inson xulq-atvorini muvaffaqiyatga erishuvga modellashtirish va o‘zini anglash.

Neyrolingvistik dasturlash bo‘yicha dastlabki tizimli ilmiy tadqiqotlar 1970-yilda Kaliforniyadagi Santa Kruz universitetida boshlangan. Universitet talabasi Richard Bandler va uning ustozi professor Jon Grinderlar uning asoschilari sifatida ko‘rsatiladi. Bu davrga qadar ham Ibn Sino, Beruniy singari buyuk bobokalonlarimiz o‘z asarlarida inson nutq faoliyatidagi nuqsonlar, buzilishlar bosh miyadagi neyronlarning – nerv hujayralarining zararlanishi oqibati ekanligini qayd etgan va uni davolash bo‘yicha ham ayrim ko‘rsatmalar berib o‘tgan bo‘lsalarda, bu soha alohida yo‘nalish sifatida izchil o‘rganilmagan. O`tgan asrning so`nggi yillarida miya faoliyatini o‘rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. XX asrning 2-yarmiga kelib inson miya faoliyati va uning nutqqa ta’siri masalasi chuqur tadqiq qilina boshlandi. Asr oxiriga kelib esa u bilan bog‘liq ishlar shu darajada rivojlandiki, bu davr amerikalik neyropsixologlar tomonidan “miya o`n yilligi” deb nomlangan (XXasrning 90-yillari).

Richard Bandler va Jon Grinderlarni har tomonlama teng salohiyatga ega bo‘lgan insonlarning nima uchun turli xil natijalarga erishishi qiziqtiradi va buning ilmiy asosli sababini topishga kirishishadi. Ular ishni o‘z davrining mashhur psixoterapevtlari Satir, Geshtald va gipnoz ustasi Milton Eriksonlarning nazariyalarini o‘rganishdan boshlashdi. Ularning asosiy maqsadi tez va yuqori natijalarga erishishning nazariy asosli texnikalarini ishlab chiqish bo‘lgan. Bu izlanishlarning amaliy natijasi o‘laroq o‘z sistem yondashuviga ega bo‘lgan biz hozirda neyrolingvistik dasturlash sifatida o‘rganuvchi yangi fan tarmog‘i vujudga keldi (uning nomi (Neuro-Linguistic Programming) ham aynan Richard Bandler tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan). Shu davrga qadar jamiyat a’zolari tomonidan odatiy jarayon sifatida e’tiborsiz qoldirilgan holatlarga tanqidiy qarash va uning ustida olib borilgan kichik tajriba-amaliyot innovatsion sohalardan biriga aylangan yangi yo‘nalishning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

NLD gumanitar ta’lim texnologiyasi hisoblanib, uning asosiy vazifasi inson ma’naviy madaniyatini rivojlantirish, kafolatlangan natijalarga erishtiruvchi samarali muloqot texnikasini shakllantirishdan iboratdir. Tilshunoslik, psixologiya, nevrologiya fanlari kesishuvida vujudga kelgan bu yangi tarmoq neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixolingvistika, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g‘oyalaridan barakali oziqlanib, shaxs intellektual taraqqiyot darajasini oshirish, individual imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish, mavjud salohiyatidan to‘laqonli foydalanish imkoniyatini beradigan va uning ijtimoiylashuvi yo‘lidagi sun’iy to‘siqlarni bartaraf etadigan yangidan yangi o‘ziga xos metodlarni ishlab chiqmoqda.

Ma’lumki, bizni o‘rab turgan obyektiv olam haqidagi qarashlarimiz birlamchi sezgi organlarimiz orqali qabul qilinib, bu axborotlarning barchasi miyada umumlashadi. Nutq jarayoni esa miyaning ushbu yig‘ilgan ma’lumotlar asosida har bir stimulga bildirilgan reaksiya natijasida paydo bo‘ladi. Neyrolingvistik dasturlash til va boshqa kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda miya faoliyatiga ta’sir qilish va yangi, nuqsonlardan xoli yashash tarzini yaratish usulidir.

Dasturlashning bu usulidan foydalanish orqali insonlar ham o‘zlarining, ham atrofdagilarning xatti-harakatlarini boshqara oladi, u odamlarga o‘zlari xohlagan o‘zgarishlarga tez fursatda erishishlariga yordam beradi.

NLDning bugungi kundagi ahamiyati qay darajada muhim ekanligini quyidagi singari salbiy holatlarni bartaraf etishda qo‘lga kiritayotgan ijobiy yutuqlari misolida ko‘rishimiz mumkin:

-kundalik turmushda sodir bo‘luvchi murakkab vaziyatlar;

-individual kamchiliklar;

-qo‘rquv, hadiksirash yoki shu kabi noxush hislar;

-past o`zlashtiruvchi o`quvchi-yoshlar, o`zlariga ma’lum cheklashlar qo`yib olgan katta yoshdagi kishilarda kechuvchi depressiya holatlari;

-chekish, ichkilikbozlik, uyqusizlik kabi ko‘ngilsiz qusurlar va h.k. dan xalos bo‘lish.

Bu fan tarmog‘ining eng muhim jihati yoshi-yu ijtimoiy holatidan qat’iy nazar barcha insonlarning kundalik faoliyatida shaxsiy va kasbiy samaradorligini oshirishda beqiyos ta’sir kuchiga egaligidir. Uning rivojida lingvistik va psixologik nazariyalar bir xilda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. John C.L.Ingram. Neurolinguistics. Cambridge textbook in linguistics.
2. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari (o`quv-uslubiy qo`llanma). -Urganch, 2019.
3. Stemmer B., Harry A.Whitaker. Handbook of the Neuroscience of Language. – Amsterdam, 2008.
4. www.cambridge.org
5. www.hayhouse.co.uk

PSIXOLINGVISTIKA VA PSIXOLINGVISTIK TAHLIL
PSYCHOLINGUISTICS AND PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS

M.Muxammadiyeva
O‘zMU magistranti

Annotatsiya: Maqolada psixolingvistika va uning tahlili bayon etiladi. O‘tkir Hoshimov asarlari misolida psixolingvistik tahlillar keltirilgan. Psixolingvistik tahlil haqidagi qarashlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *obyekt, predmet, nutqiy faoliyat, subyekt, retsipient.*

Annotation: The article describes psycholinguistics and its analysis. Psycholinguistic analysis is given in the example of Utkir Hoshimov's works. It is about views on psycholinguistic analysis.

Keywords: *object, subject, speech activity, subject, recipient.*

Psixolingvistika – zamonaviy fan sohalaridan biri bo‘lib, nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jaroyonlarini, ularning til tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fandir. Psixolingvistika psixologiya va lingvistikaning sintezi sifatida XX asrning 50-yillarida maydonga keldi.

Psixolingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti nutqiy faoliyat subyekti bo‘lgan shaxs, til egasidir. Rus tilshunosi A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasini “tilning amal qilinishi psixik fenomen sifatida tavsiflashva tushuntirish “ bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan.

Psixolingvistikaning predmeti – turli obyektlarning mavhum tizimi yoki ayrim obyektlarning mavhum tizimi hisoblanadi. Shu o‘rinda yevropalik psixolingvistlarning fan sohasiga oid mulohazalarini keltirib o‘tish lozim. Jumladan, P.Fress psixolingvistikani “til orqali taqdim etiladigan bizning ekspressiv va kommunikativ ehtiyojlarimiz va vositalarimiz o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi fan”- deb izohlagan. Rus psixolingvistikasi nazariyasi asoschisi A.A. Leontev shunday yozadi: “Psixolingvistika- til tizimi va lisoniy qobiliyat orasidagi munosabatlarni o‘rganuvchifan”. Charlz Osgudning fikricha, “Psixolingvistika so‘zlovchi niyatining muayyan

madaniyat kodida (tilida) qabul qilingan signalga aylanishi va bu signallar tinglovchining interpretatsiyasida qaytadan namoyon bo‘lishi jaroyonlarini o‘rganadi.

Rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin o‘z tadqiqotlarida matnning psixolingvistik xususiyatlarini yoritgan. Psixolingvistik tahlilda lisoniy ong masalasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. “lisoniy ong tashqi faoliyatni til belgilari vositasida rejalashtirish va boshqarishdan iborat bo‘lgan ichki jarayondir”. U xususan kommunikatsiyaning eng oliy birligi bo‘lgan matn yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnning psixolingvistik tahlilida muhim bo‘lgan obyektlardan biri til egasi- matn tuzuvchi va retsipient faoliyatidir. Bilamizki, matn inson tomonidan inson uchun yaratiladi. Bu matn yaratilishi va uning idrokidan iborat faoliyat zanjirining antroposentrik xususiyatiga egligidan dalolat beradi. Psixolingvistik tahlilda muallif va retsipient munosabatlarida amak qiluvchi lisoniy va nolisoniy omollar borki, ularni o‘zaro uyg‘unlikda tadqiq etish kutilgan natijalarniolishga imkon yaratadi.

Matnning psixolingvistik belgilarga-yaxlitlilik, informativlik, bog‘lanishlik, kompressivlik kiradi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”qissasida “Kun botishi bilan onam hovliga ko‘loblatib suv separ, kun bo‘yi oftob qizargan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo‘shilib ajib bir taravot taratar,atrof jimjit bo‘lib qolar edi” yuqoridagi belgilarni ko‘rishimiz mumkin.

Yoki O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasida “Muqaddam ambulatoriyaga kirib kelganida anchagina odam to‘planib qolgan edi. U bir bolasini ovutayotgan, biri tinimsiz yo‘talyotyotgan bemorlar orasidan o‘tib, yo‘lak oxiridagi eshikni ochdi” yaxlitlilik, informativlik, bog‘lanishlilik belgilarini ko‘rishimiz mumkin. Matnni psixolingvistik tahlil etish haqidagi ayrim tadqiqotlarda uning kreollashtirilganlik, mantiqiy uzilish hamda interpretativlik xususiyatlari ham e’tiborga olinishi lozimligi haqida ta’kidlagan. Kreollashtirilganlik – o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish maqsadida verbal hamda noverbal shakllarning uyg‘unlashtirilishini bildiradi. Mantiqiy uzilish – bizga ma’lumki matnda ketma – ket kelgan jumlalar mazmunan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ana shu bog‘liqlilik kutilmaganda uzilib qolish mumkin. Shu hollarda mantiqiy uzulish ro‘y beradi.

V.P. Belyanin fikriga ko‘ra, har bir o‘quvchi muayyan matn haqida o‘z interpretatsiyasiga ega bo‘lishi mumkin. Matn o‘qish natijasida yuzaga keluvchi interpretatsiya xarakteri faqat matnning emas, o‘quvchining ham psixologik xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Залевскяа А.А. Введение в психолингвистику. Учебник для студенто высших учебных заведений. –М.,1999. –С.25

2. Durdona Xudoyberganova. Mattnning antroposentrik tadqiqi. Fan nashriyoti. -2013

3. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. Yangi asr avlodi. Toshkent – 2015

4. O‘tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. Sharq nashriyoti. Toshkent-2015

SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY FONETIK UNSURLARNING VOQEALANISHI
OCCURRATION OF UNUSUAL PHONETIC ELEMENTS IN PERSONAL CORRESPONDENCE

E.O‘ralov
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya: yshbu maqolada shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarning voqealanishi bilan bog‘liq muammolar, sabablar va yechimlar haqida fikr yuritilgan.

Abstract: this article discusses the problems, causes, and solutions associated with the occurrence of abnormal phonetic elements in personal correspondence.

Kalit so‘zlar: *shaxsiy, yozishmalar, xato, fonetika, muammo, tezaurus, me'yor, nutq, og‘zaki, yozma.*

Key words: *personal, correspondence, error, phonetics, problem, thesaurus, norm, speech, oral, written.*

Xat yozish - bu barcha davrdagidek zamonaviy texnologiyalar asrida o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelayotgan aloqa usuli. Har bir tilga xos xususiyatlardan biri shu tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifalariga ko‘ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda birbirlaridan ma'lum darajada farq qilish hodisasidir. O‘zbek tili “O‘zbek adabiy tili” sifatida: 1) so‘zlashuv ; 2) rasmiy; 3) ilmiy ; 4) publisistik; 5) badiiy uslublarni o‘z ichiga olgani holda biz maqolamizda “Shaxsiy yozishmalarda adabiy til me'yorlariga mos bo‘lmagan fonetik hodisalarning yuzaga kelish sabablari va bu bilan bog‘liq jihatlar”ni tadqiq etishdir.

Internetning paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning yangi modellari paydo bo‘ldi, asosan onlayn muloqotga asoslangan virtual jamoalarning shakllanishi.

L.V. Dubina Internetning ko‘rinishini yozma ko‘rinish bilan taqqoslaydi, bu esa nutqning yozma shakli paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu og‘zaki nutqdan farq qilar edi, faqat quloq bilan emas, balki ko‘z bilan idrok etilishi, shuningdek, idrok etish jarayonini vaqt oralig‘idan xalos bo‘lishiga imkon berganligi va shu sababli odamga imkoniyat yaratganligi bilan ajralib turardi .

Internetdan keng foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan inqilobiy bo‘lmagan o‘zgarishlarni e'tirof etgan holda "og‘zaki va yozma nutqning chegaralarining buzilishi"ni kuzatishimiz mumkin.

Hozirda shaxsiy yozishmalar asosan ijtimoiy tarmoqlarda olib borilishi tabiiy hodisa bo‘lib, bu jarayonda til adabiy til me'yorlariga bo‘ysunishi, aks holda qandaydir jazo chorasi ko‘rish qonun bilan belgilangmagan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi belgilangan bo‘lsa, «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi huquqiy hujjatning 3-moddasiga ko‘ra, “Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi” deb belgilangan. Mazkur qonun hujjatlari bilan birga O‘zbeksiton Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Qonunining 42-moddasiga ko‘ra, “Fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tillarini mensimaslik.... bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. [42-moddaning sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019 y., 03/19/586/4106-son]

Qonunchiligimiz o‘zaro shaxsiy yozishmalarda insonning sha’ni, uning daxlsizligi va qonun bilan belgilangan boshqa huquqlarini himoya qilishni o‘z zimmasiga olgani holda tildan foydalanishning faqat umumiy holda faqat rasmiy hollardagina buzilishini ta'qiqlaydi.

Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalasi - Internetdagi rus tilining ishlash muammosi. Ushbu muammoga bo‘lgan qiziqishni ushbu mavzu bo‘yicha G.N.Trofimova, V.G. kabi olimlarning bir qator tadqiqotlari tasdiqlaydi. Kostomarov, V.M. Shaklayn, Yu.N.Karaulov va boshqalar. Tadqiqotchilar bir necha bor ta'kidladilarki, Internet o‘zaro aloqaning yangi usullari va til mavjudligining shakllarini olib kelgan maxsus kommunikativ muhit va tilni amalga oshirishning yangi sohasi. [М. Маркович. 8–9 февраля 2017 г.]

Internetdagi shaxsiy yozishmalarda til bilan bog‘liq yuzaga kelgan xatolar ko‘pgina rivojlangan davlatlardagi soha mutaxassilarini ham tashvishga solganki, til bilan bog‘liq savodsizlikning oshib ketishi xavfi. Biroq o‘zaro shaxsiy yozishmalarda orfografik, grammatik va uslubiy jihatdan qonun bilan bog‘liq qat'iy cheklovlarning mavjud emasligi natijasida adabiy til me'yoriga mos bo‘lmagan fonetik hodisalar ham voqealanishi tabiiy. Buday norasmiy xatlar asosan:

To‘y kuni, tug‘ilgan kuni, bola tug‘ilishi, universitetni tugatishi va h.k.;

To‘yga, uyga kelishga yoki boshqa bayramga taklif;

Taklif, rahmat yoki yaxshi maslahat uchun tashakkur;

Taklifnomani rad etish;

Kechirim yoki ta'ziya;

T.S. Ivanova Internet tilini nutqning yangi turi - og‘zaki-yozma nutq deb ham atash mumkin, deb hisoblaydi, chunki u "yozma va og‘zaki nutqning xususiyatlarini birlashtiradi, shuningdek, kompyuter aloqasi vositasida o‘z xususiyatlariga ega" . Internetdagi aloqa mavjudligining asosiy

shakli yozma shakl, ammo bu erda yozma nutqning barcha qonunlari buzilgan. Internetdagi nutq tuzilish nuqtayi nazaridan,shubhasiz, ogʻzaki nutqni nazarda tutadi, chunki bu birinchi navbatda dialoglar, suhbatlar va izohlar. Rasmiy oʻrinda yozma nutq har doim puxta oʻylangan, tartibga solingan, tekshirilgan va tuzatilgan, aniq, shu bilan birga Internet aloqasi asosan norasmiy boʻlib, koʻplab orfografik va leksik xatolar koʻp uchraydi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalarda soʻzlarning xato bilan yozilishida ikki jihat oʻrinli: 1. Imlo savodxonligining past ekanligi hamda hududga xos boʻlgan talaffuz. Masalan, soʻzlarda “X” va “H” harflarning farqlanmasligi, ushbu harflar ishtirok etgan soʻzlarning puxta bilmaslik bilan izohlansa, “U” va “Oʻ” “boʻladi→buladi”, “K” va “Q” “qanday→ kanday” hamda “I” va “E” harflarining oʻrnini almashishi ham imlo qoidasini bilmaslik ham shevaga xos fonetik hodisa sifatida baholanishi mumkin. Internet tarmoqlaridagi oʻzaro yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarni voqealanishiga shevaning ta'siri yaqqol koʻringan oʻrinlarga “A” va “O” “aka → oka”, “Y” va “J” “yoʻq”→ “joʻq” fonemalarining oʻrnining almashish holatini ham keltirish mumkin. Komp'yuter va mobil telefonlarda “Oʻ, Q, Gʻ, H” harflarining yoʻqligi bilan ham voqealanishini inobatga olish zarur. Biroq “kelyapman → kelopman → kevomman” kabi nodabiy fonet hodisalarni bunday deb boʻlmaydi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida bu masalani yechish uchun Tezaurus (yun. thesauros — xazina, boylik) —1) muayyan tildagi barcha soʻzlarni qamrab oladigan, ularning matnda qoʻllanish holatlarini toʻla-toʻkis aks ettiradigan lugʻatdan foydalanish tavsiya qilingan. Doimiy olib borilgan muayyan faoliyat uning odatga aylanishiga olib kelinishini inobatga olinsa ijtimoiy tarmoqlarda noadabiy fonetik hodisalarning voqealanishi bilan bogʻliq holat adabiy tilda ish yuritishda yangi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda sun'iy intellekt sifatida mobil aloqa vositalari uchun tezaurus ilovalarini ishlab chiqish yoki bundan koʻra mukammalroq loyihalarni amaliyotga joriy qilish oʻrinli deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek tili. T-20182. *Дубина Л. В.* Тенденции развития русского языка в условиях интернет-коммуникации// Вестник Томского государственного педагогического университета, выпуск 2- Т., 2013.

3. *Иванова Т.С.* Речевое поведение интернет-общения// Вестник Адыгейского государственного университета, выпуск 3, А. 2011. 3. *Кронгауз М.* Самоучитель олбанского. Издательство АСТ- Москва, 2013. 4. *Кронгауз М.* Русский язык на грани нервного срыва.

4. Знак- Москва, 2007. 5. *Лейчик В. М.* Люди и слова: как рождаются и живут слова в русском языке / отв. ред. Г. В. Степанов. 2-е изд-е, испр. и доп. М.: Либроком,2009. 6. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона, т.9а- Спб.1893 7. Платоник: Живой журнал. URL: http://platonicus.livejournal.com 8. Неформальная интернет-энциклопедия Луркморье, URL: http://lurkmore.to/Язык_падонков#

5. М.Маркович (Российский университет дружбы народов) Безграмотность И Антиграмотность В Русскоязычном Интернете.РУССКИЙ ЯЗЫК В ИНТЕРНЕТЕ: ЛИЧНОСТЬ, ОБЩЕСТВО, КОММУНИКАЦИЯ, КУЛЬТУРА. Сборник статей I Международной научно-практической конференции Москва, РУДН, 8–9 февраля 2017 г.

6. Lex.uz

“BOBURNOMA”DAGI SIFAT LEKSEMALARINING TEZAURUSINI YARATISH
CREATING THESAURUS OF ADJECTIVE LEXEMES IN “BOBURNAMA”

P.Nabiyeva,
ToshDOʻTAU magistranti

Annotatsiya: “Boburnoma”- Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari.Ushbu asarda 28000 ta soʻz qoʻllanilgani olimlar tomonidan aniqlanib, u koʻplab tadqiqotchilar e’tiborini tortib keladi.Bu asar ustida koʻplab tadqiqotchilar ish olib borgan boʻlsa-da uning hali oʻrganilmagan masalalari ham yoʻq emas.

А.Д. Бобониёзовнинг таъкидлашича, бадиий адабиётда айнан тилнинг тасвирий воситалари бадиий асар тилининг, демак ушбу асар тегишли бўлган тилнинг ҳам жамики гўзаллигини тўликроқ очиб беради: " …бадиий асар тилининг жозибаси, унда қаламга олинган бадиий тасвирий воситалар орқали очиб берилади". [Бобониёзов 1995. – 125 б.]

Тилнинг тасвирий воситалари ҳозирги кунга қадар нутқнинг бадиий услубини китобий (функционал) услуб турларидан бири сифатида шакллантирилишида муҳим аҳамият касб этди. Улар, шунингдек, замонавий ўзбек тилидаги тилнинг бошқа услубларида, жумладан сўзлашув тилида ҳам қўлланилади. Ўзбек тили тасвирий воситаларини, айниқса, тропларни ўрганишда икки тиллилик тизимда тил ҳодисаларининг мос келиши ёки келмаслиги ҳолатлари умумийлик ва фарқли жиҳатлари асосида нутқнинг онгли равишда тушунилиши ва қўлланилишига замин яратувчи лексик-стилистик изоҳлар бериш имконияти сифатида муҳим ўрин тутади. Ўзбек тилининг бошқа тил соҳиблари томонидан ўрганилишидан мақсад нафақат расмий вазиятларда, балки норасмий вазиятларда ҳам фойдаланиш мумкин бўлган ўзбек тилида сўзлашув нутқини ўргатишдир. Бу каби вазиятлар муқаррар равишда нутқда бетараф лексика билан бир қаторда тилнинг тасвирий воситаларидан фойдаланишни ҳам талаб этади. Таълим жараёнида ўзбек ва рус тиллари тасвирий воситаларининг структуравий-семантик фарқларини эътиборга олиш лозим. Масалан, рус тилида бераҳм киши ҳақида *бессердечный* сифатловчиси ишлатилади. Унинг ўзбек тилидаги эквиваленти бўлган юраксиз сўзи эса "шафқатсизлик" эмас, балки "қўрқоқлик" маъносини беради. Қиёслаб кўрамиз: рус тилидаги "юраксиз" сўзи юмшоқлик, одамлар билан муомала қилишда самимийлик деган маъноларга қарама-қарши тушунчани англатади, ўзбек тилидаги "юраксиз" сўзи эса қўрқоқ, ҳадиксировчи, иродаси суст маъноларини англатади. Бундан ўзбекча сўзларни семантик-структур жиҳатдан ўрганиш муҳимлиги ҳақида хулоса чиқариш мумкин.

Шундай қилиб, рус тилида сўзлашувчи талабаларга ўзбек тили тасвирий воситаларини ўқитишда уларнинг юқорида айтиб ўтилган лингвистик хусусиятларини эътиборга олиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.Каримов Юксак маънавият- енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, -Б.83
2. Ожегов С.И. О нормах словоупотребления // Лексикология. Лексикография. Культура речи. – М.: Наука, 1984. - С. 285-287.
3. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры. Терминологический словарь. – М.: Феникс, 2007. – С.869.
4. Бегматов Э. Нутк маданияти тушунчаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. №5. – Б.50-58.

5. Бобониёзов А. «Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романида тасвирий воситалар тил бадиияъяти». Филол. фан. номзод. ...дисс. – Тошкент, 1995. – 125 б.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA LUG‘ATLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI
METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS OF USING DICTIONARIES IN PRIMARY SCHOOLS

D. Shodmanqulova,
Tadqiqotchi

Abstract: Today, elementary school students have a large number of dictionaries. In the coming days, the dictionary part of the native language class should become a regular part of any class, and work with different dictionaries should become a necessity.

Keywords: *Elementary education, dictionary, annotated dictionary, spelling dictionary, orthoepic dictionary phraseological dictionary, individual assignment*

Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda umumiy o‘quv ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Umumiy o‘quv ko‘nikmalari orasida turli lug‘at va ma’lumotnomalardan foydalanish ko‘nikmasi muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda kishida lingvistik qiyinchiliklarini anglash va ularni lug‘at yordamida hal qilishga intilish ehtiyoji, odatining mavjudligi insonning shaxsiy xususiyati, uning madaniyatlilik belgilaridan biridir. Shunday qilib, lug‘atlarni o‘quvchiga ta’lim berishgina emas, balki tarbiya berish vositasi ham deb hisoblash mumkin.

Hozirgi kunda yurtimizda vazifasiga ko‘ra turlicha bo‘lgan ko‘plab lug‘atlar nashr qilingan va nashr qilinmoqda. Masalan, yuqori sinf o‘quvchisi nafaqat imlo lug‘atidan, balki izohli, so‘z yasalishi, o‘zlashma so‘zlar, eskirgan so‘zlar, sinonim, antonim, omonim va hokazo lug‘atlardan foydalanishi mumkin. Biroq o‘quvchi o‘zi istab lug‘atga murojaat qiladimi?!

Bizning kuzatishimizga ko‘ra ko‘pchilik o‘quvchi hatto unga zarur bo‘lgan lug‘atlar yonida, kitob javonida turgan bo‘lsa ham, qo‘lida bo‘lgan boylikdan foydalanmaydi. Bunday hodisaning sabablaridan biri quyidagi hammaga ma’lum jumlada mujassamlangan: hamma narsa bolalikdan boshlanadi. Bolada ta’limning dastlabki bosqichlarida lug‘atlarga murojaat qilish ehtiyoji uyg‘otilmasa, unda yordamchi vositalarda mo‘ljal olish va kerakli ma’lumotni tez topib olish ko‘nikmasi shakllantirilmasa, uning mavjud lug‘atlar boyligidan to‘laqonli foydalanuvchi shaxsga aylanishi gumon. Mana shuning uchun lug‘atlar bilan ishlashni boshlang‘ich sinflardan boshlash lozimligi allaqachon ayon bo‘lgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida u yoki bu lug‘atga (muammoga bog‘liq ra-vishda) murojaat qilish odat tusiga kirsa, lingvistik masalalarni o‘z oldiga qo‘yib, ularga ongli ravishda javob topishga tayyor bo‘lgan va bu ishni qila oladigan madaniyatli odamni tarbiyalashga asos yaratildi deb hisoblash mumkin.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining qo‘lida ko‘p miqdordagi lug‘at bor. Yaqin kunlarda ona tili darsidagi lug‘at bilan ishlash qismi istalgan sinfda doimiy ish bo‘lishi, turli xildagi lug‘atlar bilan ishlash esa zaruratga aylanishi lozim. Lug‘at bilan ishlash har bir darsga kiritilishi lozim: so‘z ma’nosini tushuntirish, so‘zni to‘g‘ri yozish, to‘g‘ri talaffuz qilish, uning tuzilishi (yasalishi)ni izohlash. Barcha so‘zlar oldindan doskaga yozib qo‘yiladi. Bolalarning fikri lug‘atdagi to‘g‘ri variant bilan qiyoslanadi. Bu o‘rinda bolalarga uyga vazifa ham beriladi: lug‘atdan so‘zning ma’nosi (izohli lug‘at), to‘g‘ri yozilishi (imlo lug‘ati), to‘g‘ri talaffuzi (orfoepik lug‘at), har qanday iboraning ma’nosini (frazeologik lug‘at) va hokazoni aniqlash. Keyingi darsda topshiriq tekshirilib, yangi topshiriq beriladi. Shunday qilib, o‘qivchilarda lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasi, so‘ng malakasi ham shakllanadi. Har bir darsda o‘quvchilarga lug‘at bilan ishlash uchun individual topshiriq bajarish: o‘tilgan mavzu bo‘yicha lug‘at diktanti tuzib kelishni, keyingi darsda esa o‘qituvchi rolini bajarishni tavsiya qilish mumkin. Bunday ish turi bolalarda shubhasiz qiziqish uyg‘otadi.

Buning hammasi o‘qituvchining kichik yoshli o‘quvchilarda lingvistik lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorgarlik ko‘rishini taqozo qiladi. Bu tizim uchun avvalo lug‘atdan foydalanish murakkab ko‘nikmasining tarkibiy ishlari (operatsiyalari) bo‘lmish ko‘nikmalar sirasini belgilab olish lozim [Qosimova K.va b. Ona tili metodikasi. 2009: 113].

Lug‘atdan foydalanishga doir elementar ko‘nikmalar quyidagilar:

1.Darsliklarga yordamchi lug‘atlardan foydalanish.

2. Kirish maqolasi matnini diqqat bilan o‘qib chiqish.

3. Lug‘atning nomlanishiga qarab tavsiflanadigan til birligini aniqlash.

4. Alifboli so‘z ko‘rsatkichi bilan ishlash.

5. Lug‘at tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.

6. Lug‘at maqolasi tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.

7. Shartli belgilar, ramzlar, shartli qisqartmalar bilan ishlash.

8. Lug‘atlar bilan ishlashda o‘qish-qarab chiqish va o‘qishizlashdan foydalanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagilarni bilishi (aniqlashi) kerak:

1. Lug‘atning nomini.

2. Lug‘atning muallifi, muharririni.

3. Nashriyoti va nashr qilingan yilini.

4. Lug‘atning turini.

5. Lug‘atning vazifasini.

6. Lug‘atda so‘zlarning joylashish tartibini: alifbo, uyali, mavzuviy tartibda joylashtirilganini.

Ishni yengillashtirish uchun har bir lug‘atga lug‘atda qabul qilingan shartli belgi, qisqartmalar yozilgan xatcho‘p-eslatma qilib qo‘yish tavsiya qilinadi.

O‘qituvchilar tajribasini o‘rganish natijasida ona tili darslarida lug‘at ishi yetakchi o‘rin egallamog‘i lozim degan xulosaga kelish mumkin. Bu ishning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Yangi texnologiyalardan foydalanish bolalarning darsga qiziqishini oshiradi. Lug‘at bilan ishlash esa – ona tilini o‘rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri – madaniyatni o‘stirish texnologiyasidir. O‘quvchilarda lug‘atning barcha turidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Bu shubhasiz ularning madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi.

Boshlang‘ch sinf ona tili darsliklari orqali o‘quvchilar imlo qoidalarini bevosita o‘rganib boradilar. Ularning qay darajada imloviy savodxonlikka ega bo‘lganliklarini tekshirish maqsadida o‘qituvchi diktant yozdiradi. Shuningdek, o‘quvchilar yozishga qiynaladigan bir-ikkita so‘zni xat taxtaga yozib qo‘yadi. Diktantlarni o‘qituvchi tekshirganida o‘quvchilarning ko‘proq qaysi imloviy qoidani yaxshi o‘zlashtira olmaganliklarini bilib oladi.

O‘quvchilarda to‘g‘ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o‘zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so‘znigina emas, balki umumiylik mavjud bo‘lgan butun so‘zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan qoida xat yozuvchini har bir so‘zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me’yorga muvofiq butun so‘zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so‘zlarning yozilishini bir xillashtiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini imloga o‘rgatishda boshlang‘ich sinf o‘quvchi-lari uchun tuzilgan “Imlo va talaffuz lug‘ati” hamda Sh. Rahmatullayev va A. Hojiyevning “Imlo lug‘ati”dan foydalanish mumkin.

Imlo lug‘ati bilan ishlash natijasida o‘quvchilarda mustaqil ravishda lug‘atdan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish kerak. Mustaqil ishlashga o‘rgatish murak-kab, ziddiyatli jarayon. Shunga qaramay o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rga-tishning quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

1. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida tayyor namunaga qarab ish ko‘radi (taqlid qilish bosqichi).

2. O‘quvchi ishning bir qismini mustaqil bajaradi (qisman mustaqil ishlash bosqichi).

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi muayyan ishni takrorlanuvchi vaziyatlarda mus-taqil bajaradi.

Birinchi sinfda lug‘at bilan ishlashda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

1. O‘quv-biluv motivatsiyasi asoslarini yaratish.

2. Maxsus kitob – lug‘atga qiziqish uyg‘otish.

Bu maqsadlardan kelib quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

1. O‘quvchilar lug‘atda so‘zlar birinchi harfiga ko‘ra alifbo tamoyili asosida joylashishini bilishi kerak.

2. O‘quvchilar lug‘atdan so‘zni birinchi harfiga qarab topa olishi kerak.

Birinchi sinfda lug‘at bilan ishlash taqlid qilish bosqichida o‘qituvchi yordamida tayyor namunaga qarab, qisman mustaqil ishlash bosqichida lug‘at sahifasini ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

Birinchi sinfda imlo lug‘ati bilan ishlashni qachon boshlash kerak? Rus tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha mutaxassis olima L. N. Kalininaning fikricha, lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini o‘quvchining maktabdagi birinchi qadamlaridan, savod o‘rgatish darslaridan boshlash lozim. Kichik yoshli maktab o‘quvchilarida biluv faoliyati shakllari, usullariga qiziqish kuchliligini hisobga olib lug‘at bilan ishlashda turli qiziqarli usullar, ta’limiy o‘yinlar, musobaqa elementlaridan foydalanish lozim.

Lug‘atni darsga olib kirish o‘zbek tili alifbosini o‘zlashtirishga doir katta tay-yorgarlik ishi bilan boshlanadi. Bu vazifani bajarishga qaratilgan o‘yinlarga misol keltiramiz. Bunday o‘yinlarni har bir darsda o‘tkazish mumkin. Lug‘at bilan tanishtirish uchun esa maxsus dars ajratish kerak. Imlo lug‘atidan **lug‘at-ma’lumotnoma** sifatida foydalanishni namoyish qiluvchi topshiriqlarga misol keltiramiz [G‘afforova T. va b. Ona tili. 1-sinf, 2013: 72].

1-sinf. 1-topshiriq. Lug‘atdagi dastlabgi 10 ta so‘zni o‘qing, ular qaysi harf bilan boshlanadi? Oxirgi 10 ta so‘z qaysi harf bilan boshlanadi?

2-topshiriq. *Maktab, oftob, ozod, umid* so‘zlarining oxirida qaysi harf yozilishini lug‘atdan aniqlang.

Imlo lug‘atidan **lug‘at-darslik** sifatida foydalanish.

3-topshiriq. Lug‘atdan tutuq belgisi qatnashgan 5 ta so‘z topib yozing.

4-topshiriq. *(“Joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi” mavzusini o‘rganishda)* Lug‘atdagi ilovadan foydalanib O‘zbekistonning 5 ta asosiy shahri va 5 ta asosiy daryosining nomini yozing.

Ikkinchi, uchinchi sinfda **lug‘at bilan ishlash maqsadi** murakkablashadi:

Bolalarda lug‘atga murojaat qilish ehtiyojini tarbiyalsh.

Vazifalar: 1. O‘quvchilar so‘zlarning faqat birinchi harfiga qarab emas, keyingi harfiga ham qarab joylashtirilishi tamoyilini bilishi kerak.

2. O‘quvchilar lug‘atdan so‘zni birinchi, ikkinchi harfiga qarab topa olishi kerak.

3. Orfogrammalarni tekshirishda mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini tekshirish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Ish qisman mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini tekshi-rish bosqichida olib boriladi.

2-sinfda imlo lug‘ati bilan ishlashga doir quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin [Qosimova K., Fuzailov S., Ne`matova A. Ona tili. 2-sinf, 2008: 78].

1-topshiriq. (“Ona tili” darsligidagi “Unli tovushlar va harflar” mavzusida berilgan 20-mashqqa qo‘shimcha. Mashqda “Tushirib qoldirilgan **a** va **o** harflarini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni o‘qing. Mashqda quyidagi so‘zlar berilgan: S...bzi, b...dring, kar...m, q...vun, k...rt...shka, t...rvuz, sh...lg‘...m, h...nd...lak, l...vl...gi, q...v...q). Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring.

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga **i** yoki **u** harfini qo‘yib, so‘zlarni yozing: bur...n, qur...q, qo‘r...q, sov...q, qul..pnay, mush..k, kum...sh, qum...rsqa, qorong‘..., kulg... Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring.

3-topshiriq. Bolalar k(o\a)nsert, k(o\a)mbayn, k(o\a)lbasa, k(o\a)missiya so‘zla-rida a yoki o harfi yozilishini lug‘atdan tekshirdi. Sobir *ka-* bilan boshlanadigan barcha so‘zni o‘qib chiqdi va bu so‘zlar lug‘atda yo‘q dedi. Nodir bir necha sahifani ag‘darib, to‘rtala so‘zni ham topdi. Nima uchun Sobir bu so‘zlarni topolmadi?

4-topshiriq. Lug‘at diktanti. *(“Aytilishda tushib qoladigan undoshlar” mavzu-siga)* Baland, go‘sht, qand, payvand, g‘isht, tirband, dasht, farzand, taft, band. Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring.

5-topshiriq. *(“So‘z ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshlar” mavzusiga)* Nuqtalar o‘rniga zarur o‘rinda harf qo‘yib yozing. Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring: Laq...a, chaq...a, baq...a, mal...a, tol...a, kos...a, has...a, mar...a, pash...a.

6-topshiriq. Lug‘at diktanti *(“Tutuq belgisi” mavzusiga)*. “Zarur o‘rinda tutuq belgisini qo‘yib yozing. Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring”. O‘qituvchi quyidagi so‘zlarni aytib turib yozdiradi: A’lo, a’zo, ta’m, sa’va, qal’a, ta’na,ta’rif, ta’sir, ta’til, mash’al, ma’no, ma’qul, me’yor, jur’at, in’om, ba’zi.

7-topshiriq. *(“Tutuq belgisi” mavzusiga)*. Imlo lug‘atidan **m** harfi bilan bosh-lanuvchi tutuq belgisi qatnashgan 5 ta so‘z topib ko‘chiring.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida imlo lug‘ati bilan ishlashning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat. Birinchi sinfda lug‘at bilan ishlashda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

1. O‘quv-biluv motivatsiyasi asoslarini yaratish.
2. Maxsus kitob – lug‘atga qiziqish uyg‘otish.

Bu maqsadlardan kelib quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

1. O‘quvchilar lug‘atda so‘zlar birinchi harfiga ko‘ra alifbo tamoyili asosida joylashishini bilishi kerak.
2. O‘quvchilar lug‘atdan so‘zni birinchi harfiga qarab topa olishi kerak. Bolalarda lug‘atga murojaat qilish ehtiyojini tarbiyalsh.

Vazifalar: 1. O‘quvchilar so‘zlarning faqat birinchi harfiga qarab emas, keyingi harfiga ham qarab joylashtirilishi tamoyilini bilishi kerak.

2. O‘quvchilar lug‘atdan so‘zni birinchi, ikkinchi harfiga qarab topa olishi kerak.

3. Orfogrammalarni tekshirishda mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini tekshirish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Ish qisman mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini tekshi-rish bosqichida olib boriladi.

O‘qituvchilar tajribasini o‘rganish natijasida ona tili darlarida lug‘at ishi yetakchi o‘rin egallamog‘i lozim degan xulosaga kelish mumkin. Bu ishning samarador-ligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Yangi texnologiyalardan foydala-nish bolalarning darsga qiziqishini oshiradi. Lug‘at bilan ishlash esa – ona tilini o‘rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri madaniyatni o‘stirish texnologiyasidir. O‘quvchilarda lug‘atning barcha turidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Bu shubhasiz, ularning madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B, Xudoyberdiyeva M, Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007.
2. Qosimova K., Matchonov Z.S., Yo‘ldosheva D., G‘ulomova X., Shodmonqulova D. Ona tili metodikasi. – Toshkent.: «Sharq», 2009. 310b.
3. Qosimova K., Fuzailov S., Ne`matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent.: «Cho‘lpon», 2008. – 128 b.
4. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1995. – 192 b.
5. Safarov F., Safarov S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at. – Toshkent: «Fan», 2012. – 218 b.
6. G‘afforova T., Shodmonova E., G‘ulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent.: «Sharq», 2013. – 112 b.

ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENSIYA
PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

U. Imomova
Termiz davlat universiteti,
katta o‘qituvchi

Abstract: The ability of a teacher affects an integral feature of a person - competence. The effectiveness of a teacher’s influence on a student’s learning and development is determined by his

or her level of competence. Currently, a competency-based approach is actively developing in the psychology of local and foreign education.

Key words: Competence, educational psychology, cognitive competence of the individual, regularity, information, self-formation, competencies, skills, criteria, personal abilities.

Pedagogik kompetensiya-nima?

O‘qituvchining qobiliyati shaxsning ajralmas xususiyatiga – kompetensiyaga ta’sir qiladi. O‘qituvchi shaxsining o‘quvchilarining o‘qishi va rivojlanishiga ta’sirining samaradorligi uning vakolati darajasi bilan belgilanadi. Hozirda mahalliy va xorijiy ta’lim psixologiyasida kompetensiyaga asoslangan yondashuv faol rivojlanmoqda. Biroq, ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, hali ham kasbiy pedagogik kompetensiya mezonlarining aniq ta’rifi mavjud emas. Ko‘pgina xollarda, eng umumiy shaklda kompetensiya mutaxassis-o‘qituvchining malakasi va kasbiy mahoratining yetarli darajasi sifatida tushuniladi.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining mashhur xorijiy modellari, asosan, B. Skinner, D. Bruner, A. Bandura va boshqalarning xulq-atvorli va bexeviostistik tushunchalariga asoslangan bo‘lib, amaliy jihatlar - bilim va turli xil pedagogik texnologiyalarga e’tiborni qaratadi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, vakolatli o‘qituvchi ilm-fan asoslari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarni bilishi bilan bir qatorda o‘zining professional rolini va butun dunyo bilan o‘zaro aloqalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega. Shunga ko‘ra, pedagogik kompetensiya mezonlari samarali darslarni o‘tkazish, aloqa jarayonlarini boshqarish, qaarorlarni ishlab chiqish va qaabul qilish texnologiyalarini o‘zlashtirishdir. Masalan, R.Libsonning fikriga ko‘ra vakolatli o‘qituvchi quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

-o‘qitiladigan mavzuning mazmunini bilish;

-psixologik prinsiplarni qo‘llay olish;

- rivojlanish psixologiyasini bilish va ularni qo‘llash qobiliyati;

- o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar harakatlariga yetarlicha javob berish qobiliyati;

- yangi vaziyatlarga va yangiliklarga moslashish qobiliyati .

Ong va shaxsni rivojlantirishga madaniy, tarixiy va faoliyat yondashuvlari an’analarida yaratilgan pedagogik kompetensiyaning mahalliy modellari samarali o‘qituvchining shaxsiy va faollik fazilatlarini aniqlashga asoslangan. ...

Ko‘pgina olimlar pedagogik kompetensiyani o‘qituvchi shaxsiyatining ajralmas xarakteristikasi, shu jumladan, yetarli darajada yuqori darajadagi pedagogik mukammallikka erishish uchun zarur bo‘lgan kasbiy ahamiyatga ega fazilatlar tizimi deb ta’riflaydilar. Mualliflarning fikriga ko‘ra, ideal (vakolatli) o‘qituvchi - bu faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, odamlarga xizmat qilishga yo‘naltirilgan ko‘p qirrali shaxs. Bir qator shaxsiy xususiyatlar ushbu yo‘nalishga mos keladi:

- bolalarga muhabbat;

- rivojlangan axloqiy tuyg‘ular (gumanizm, adolat, talabchanlik);

- keng va mazmunli kognitiv qiziqishlar (o‘z sohasidagi bilimlar, umuman, qiziquvchanlik);

-Pedagogik optimizm (quvnoqlik);

-Nisbiy kuch va o‘z-o‘zini boshqarish;

- pedagogik takt (sezgirlik, talabaga yondashishni individualizatsiya qilish qobiliyati)

-pedagogik sezgi (muayyan o‘quvchining shaxsiyatidagi asosiy narsani va sinfdagi vaziyatni tez anglash).

O‘qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatga ega sifatlarini aniqlash nuqtai nazaridan pedagogik kompetensiyani o‘rganish boshqa mahalliy psixologlar va o‘qituvchilar tomonidan davom ettirildi.YAna bir gurux olimlar pedagogik kompetensiyani shaxsning eng barqaror xususiyatlari deb biladi. Masalan, V.A. Slastenin pedagogik kompetensiyani quyidagi tushunchalar orqali aniqlaydi:

-pedagogik aks ettirish;

-nisbiy barqarorlik;

- o‘qituvchining individual xususiyatlarini, moylligini, xarakterini xisobga olish;

-ishga ijobiy munosabat.

A.K. Markova o‘qituvchining kasbiy malakasini rivojlantirishning oltita darajasini ajratadi: tinglovchi, o‘qituvchi, usta o‘qituvchi, novator o‘qituvchi, tadqiqotchi o‘qituvchi, professional o‘qituvchi. Eng quyi darajadagi kompetensiya yosh mutaxassis uchun - universitetni endigina tugatgan tinglovchi o‘qituvchiga xosdir. U xali bolalar bilan ishlashda etarli tajribaga ega bo‘lmaganligi sababli, uning bilimlari nazariy bo‘lib qolmoqda, deyarli o‘zlashtirilmagan. Pedagogik faoliyat "o‘qituvchi" toifasiga mos keladigan kasbiy kompetensiya darajasida samarali bo‘ladi. Faoliyat samaradorligi toifaning ko‘tarilishi bilan ortadi - o‘qituvchidan professional o‘qituvchiga.

Pedagogik kompetensiya bo‘yicha muallif mavzu bo‘yicha bilimlarni, o‘qitish usullari va didaktikasini, pedagogik muloqot qobiliyatlari va ko‘nikmalarini (madaniyatini), shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini- o‘zi takomillashtirish va o‘zini- o‘zi anglash texnikasi va vositalarini o‘zaro muvofiqligini tushunadi. . Ta’rifga muvofiq, pedagogik kompetensiya tarkibida uchta asos ajratiladi:

- faoliyat (pedagogik faoliyatni mustakil va ma’uliyatli amalga oshirishning bilimlari, qobiliyatlari, ko‘nikmalari va individual usullari);

- kommunikativ (bilim, qobiliyat, maxorat va pedagogik aloqani

ijodiy amalga oshirish usullari);

- shaxsiy (o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurati, shuningdek, bilim, ko‘nikma, o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari).

Hozirgi vaqtda pedagogik kompetensiyaning umumiy tarkibida ba’zi tadqiqotchilar uning boshqa o‘ziga xos turlarini ajratib ko‘rsatmoqdalar. Masalan, ziddiyatli vakolat tekshiriladi. U “nizolarda o‘zini tutishi mumkin bo‘lgan strategiyalar doirasi va ushbu strategiyalarni muayyan hayotiy vaziyatda amalga oshirish qobiliyati to‘g‘risida xabardorlikni rivojlantirish darajasi” deb ta’riflanadi. Pedagogik kompetensiyaning yana bir o‘ziga xos turi bu o‘qituvchining sog‘liqni saqlash sohasidagi kompetensiyasidir, bu o‘qituvchining kasbiy salomatligini, talabalarning ruxiy va jismoniy sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashni belgilaydi. Bugungi kunda pedagogik kompetensiyani o‘rganishning yangi jihati bu uning hissiy tarkibiy qismini o‘rganishdir.

Mustaqil ekspertlar, o‘qituvchi tomonidan darslarni o‘tkazilishini kuzatib, ettita pedagogik kompetensiyaning turli ko‘rsatkichlari mavjudligini qayd etadilar. Samarali pedagogik faoliyatni ta’minlaydigan asosiy kompetensiyalarga quyidagilar kiradi:

1) talabalarning so‘rovlari va lavozimini ko‘tarish to‘g‘risida ma’lumot olish;

2) mavzuni tushuntirish va bilish;

3) dars vaqti va sinf maydonini tashkil etish, o‘quv qo‘llanmalari va texnik o‘quv vositalaridan foydalanish;

4) talabalar bilan muloqot;

5) o‘qitish usullarini namoyish etish;

6) ijodiy muhitni saqlash;

7) ma’qul guruh xatti-harakatlarini saqlab qolish;

Tadqiqot natijalar maktabda ish stajining ko‘pyishi bilan o‘qituvchilarning kasbiy vakolat darajasi va samaradorligini oshirish tendensiyasini ko‘rsatadi. Biroq, bu ko‘proq darajada predmet va metodik vakolatlarga taalluqlidir.

Kommunikativ va ijodiy kompetensiyaga kelsak, ularning ko‘rsatkichlari individualdir va kam darajada o‘qituvchilarning o‘qitish tajribasiga bog‘liq.

Pedagogik kompetensiya o‘qituvchidan keng qamrovli pedagogik, psixologik, ijtimoiy, fiziologik, madaniy va boshqa muammolarni tushunishni talab qiladi.

Bugungi kunda kattalar ta’limining asosiy vazifasi - bu o‘z bilimlarini. o‘zgaruvchan muxitda qo‘llay oladigan va ularning asosiy vakolatlari butun hayoti davomida uzluksiz o‘rganishning o‘zi bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagogik tayyorlashdir.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining ayrilmas sifati uning kasbiy kompetensiyasi, ya’ni “o‘z faoliyatining malum bir sohasidagi ongi va vakolati” bo‘lishi kerak (V.I.Daxlning lug‘ati).

Psixologik lug‘atda kasbiy pedagogik kompetensiya “ma’lum bir kvadriyatlar, ideallar tashuvchisi sifatida o‘qituvchining uning pedagogik faoliyati, pedagogik aloqasi va o‘qituvchi shaxsining shakllanishini belgilaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarning kerakli miqdoriga egaligi” deb tariflanadi va “pedagogik ong” deb nomlanadi.

Ta’limning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq pedagogik kompetensiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• mustaqil ravishda o‘qish;
• malaka oshirish yoki to‘liq qayta tayyorlash;
• vaziyatni va o‘zingizning imkoniyatlaringizni tezda baholang;
• qarorlar qabul qilish va ular uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;
• o‘zgaruvchan yashash va mehnat sharoitlariga moslashish;
• eski usullarni optimallashtirish uchun ularni yangi usullarini ishlab chiqish yoki o‘zgartirish.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, malakalarni shakllantirishning birinchi bosqichi “hayotiy ko‘nikmalarni” o‘rgatish (shaxsiy muammolar, stress bilan kurashish; vaqtingizni boshqarish; ko‘rsatmalarni o‘qish, qoidalarga rioya qilish; biznes hujjatlarini rasmiylashtirish) va “qo‘shimcha” mavzular bo‘yicha ko‘nikmalar (matn va raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish; matnlar yozish va gapirish; ishbilarmonlik aloqalarini amalga oshirish; tashabbuskor bo‘ling, nostandart yechim taklif qiling, o‘z nuqtai nazaringizni namoyon qiling.

Oliy ta’limini modernizatsiya qilish konsepsiyasiga muvofiq, kasb-hunar ta’limi asosiy maqsadlari quyidagilardir: tegishli darajadagi va profildagi malakali, mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, mas’uliyatli, o‘z kasbini yaxshi biladigan va turdosh sohalarga yo‘naltirilgan xodimni tayyorlash, doimiy ravishda kasbiy o‘sishga, ijtimoiy va kasbiy harakatchanlikka tayyor, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha jahon darajasidagi standartlarda samarali ishlashga qodir faoliyat mavjud.

Vakolatli ta’limga kirish o‘quv jarayonining barcha subyektlari va, birinchi navbatda, o‘qituvchilar tomonidan bir qator ketma-ket harakatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, birgalikda qaror qabul qilishda ishtirok etish, tajribadan foyda olish, tabiat va jamiyat hodisalariga tanqidiy munosabatda bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy o‘qituvchi qanday usul va texnologiyalarga ega bo‘lishi kerak, ya’ni asosiy vakolatlarni amalga oshirasizmi? O‘zining kasbiy rivojlanishi va rivojlanishini taminlash uchun o‘qituvchining o‘zi qanday kasbiy va pedagogik vakolatlarga ega bo‘lishi kerak? Qanday sharoitlarda vakolatlar kasbiy vakolat darajasiga ko‘tariladi?

Kasbiy kompetensiyani aniqlash va uning kompetensiya tushunchasi bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash muammosi so‘nggi paytlarda ilmiy pedagogik muhitda va amaldagi o‘qituvchilar o‘rtasida muxokama mavzusiga aylandi. Keling, ushbu masalani tushunishga harakat qilaylik.

Eng umumiy ma’noda “vakolat” - bu tegishli faoliyat sohalarida va muayyan turdagi muammolarni hal qilishda talablarga, belgilangan mezonlarga va standartlarga rioya qilish, zarur faol bilimlarga ega bo‘lish, natijalarga ishonchli erishish va boshqarish qobiliyatini anglatadigan vaziyatdir.

Shaxsning kognitiv jarayonlari psixologiyasi va psixofiziologiyasining individual xususiyatlarini rivojlantirishga psixologik-pedagogik tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan umumiy pedagogik kasbiy kompetensiya; pedagogika asoslarini bilishdir.

Mavzu ixtisosligi bo‘yicha predmet kompetensiyasi: o‘qitiladigan fan sohasidagi bilimlar, uni o‘qitish usullari.

Boshqaruv vakolati, ya’ni pedagogik tahlilni o‘tkazish, maqsadlarni belgilash, tadbirlarni realashtirish va tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Refleksiv kompetensiya, yani o‘z pedagogik faoliyati jarayoni va natijasini ko‘rish qobiliyati.

IR texnologiyalari sohasida ishlash qobiliyati bilan bog‘likq bo‘lgan axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi.

O‘qituvchini eksperimentator sifatida tavsiflaydigan innovatsiya sohasidagi kompetensiya.

Ijodiy vakolat, yani o‘qituvchining faoliyatni ijodiy, izlanish darajasiga ko‘tarish qobiliyati.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchining kasbiy mahorati va uning kasbiy kompetensiyasi darajasini baholashning eng dolzarb muammolarini hal qilishda u yoki bu darajada qo‘llaniladigan turli xil diagnostika texnikasi mavjud. Bir tomondan, o‘qituvchini “bilim-ko‘nikma-mahorat” formulasiga kiritish mumkin emas va o‘qituvchi qalbining barcha olijanobligini, takrorlanadigan ta’lim jarayonida uning ishining noyob daqiqalarini o‘lchaydigan asbobdir. O‘qituvchining ishida va hech narsadan kelib chiqmaydigan tushuncha bilan hech narsa o‘lchanmaydi, balki o‘qituvchining avvalgi barcha tajribalari, o‘zi bilan cheksiz dialoglari bilan tayyorlanadi. Boshqa tomondan, o‘qituvchining ishida "yutuqlar xujjati" to‘plangan bo‘lib, u “quvonchli, qiziqarli va o‘qituvchi hayotida sodir bo‘ladigan narsalarga loyiq bo‘lgan hamma narsani” aks ettiradi.

Diagnostika - bu bilishning o‘ziga xos turi, chunki "tashxis" yunon tilidan tarjimada "tanib olish, ta’rif" degan manoni anglatadi. So‘nggi paytlarda tahlil, ichki qarash, shaxsni o‘rganish tushunchalari tobora ko‘proq bitta atama -diagnostika bilan almashtirilmoqda.

Ungacha pedagogik diagnostika o‘rganish qobiliyati, o‘qitish va ta’limning bazi ko‘rsatkichlarini belgilash bilan cheklangan, yani diagnostika har qanday shaxsiy xususiyatlarni baxolashning boshlang‘ich muammosiga aylantirildi va shaxsiyat ta’lim sifatida taqdim etildi.

Ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish sharoitida rahbar va o‘qituvchi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zgarib bormoqda. Ular o‘zaro ta’sir o‘tkazadilar va birgalikda maktab hayotini yangilashda ishtirok etadilar. Shu bilan birga, ularning hamkorligi pedagogik diagnostikani yanada mazmunli va samaraliroq qiladi, psixodiagnostikadan olingan usullar bilan to‘yingan bo‘lib, sotsiometrik va sotsiologik usullardan keng foydalanilgan holda va olingan materiallarni matematik qayta ishlasa bo‘ladi.O‘qituvchining ishi o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadigan obektiv usullardan farqli o‘laroq, sub’ektiv usullardan foydalanganda diagnostika o‘qituvchi o‘qiladigan, tasavvur qiladigan va malumot beradigan narsalar asosida amalga oshiriladi. Vaqt keldi, har qanday o‘qituvchini baholashda uning o‘zining kasbiy qadr-qimmatini hisobga olish kerak.

O‘qituvchining muvaffaqiyatini tashxislashning asosiy vazifasi unga tashqaridan ekspert baho berish emas, balki o‘qituvchining o‘zini kasbiy muammolarini tushunishga va hal qilishga undashdir. Bundan tashqari, biz unutmasligimiz kerak: muvaffaqiyatli o‘qituvchi doimo introspektivaga va o‘zini tashxislashga e’tibor beradi. O‘z-o‘zini bilish, o‘zini- o‘zi takomillashtirish va amalga oshirish jarayoni faqat o‘qituvchining o‘zi xohishiga bog‘liq.

O‘zining kasbiy salohiyatini o‘rganish, roo‘yobga chiqarish va oshirishga intilgan o‘qituvchi endi darsga “xizmat” qila olmaydi yoki darsdagi vazifasini bajara olmaydi. U har bir darsda “yashaydi”, talabalar uchun va o‘zi uchun kerakli psixologik qulaylik va muvaffaqiyat holatini yaratadi, shu bilan birga katta mamnuniyatni qabul qiladi. Bunday holda, o‘qitish endi axborotni translyatsiya qilish xususiyatiga ega emas, balki o‘quvchilarning bilim faoliyatini rag‘batlantirish va faollashtirish xususiyatiga ega bo‘ladi.

O‘qituvchining ishi - bu eng murakkab ruhiy haqiqat, bu uch o‘lchovli makon bo‘lib, uchta o‘zaro bog‘liq bo‘shliqdan iborat:

- o‘qituvchining shaxsiyati,
- o‘qitish faoliyati,
- pedagogik aloqa.

Ushbu uchta bo‘shliqni talaba shaxsini rivojlantirishning global vazifasi birlashtiradi. Shu bilan birga, ular ustma-ust tushmaydilar, takrorlamaydilar, balki murakkab dialektik munosabatlarga kirishadilar va ularning har biri o‘qituvchi faoliyati jarayonida rivojlanish natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.D.V.Dudko: Kognitivnaya kompetentnost lichnosti buduщego pedagoga i dinamika eyo formirovaniya,2008.

2.Konopkin O.A:Psixicheskaya samoregulyasiya proizvolnoy aktivnosti cheloveka(strukturno-funksionalnыy aspekt)[Elektronnыy resurs].-Rejim dostupa: http://www.eduhmao. ru/ info /1/3952/25078/

3.Sorokovыx G.V. Professionalnaya podgotovka spetsialista inoyazыchnogo obrazovaniya: teoriya i praktika .M.2011

4.I.G.Lipatnikova, T.YU.Parshina: Formirovanie kognitivnoy kompetentnosti v protsesse obucheniya studentov pedagogicheskix vuzov elementarnoy matematike,2012 .Elektronnыy nauchnыy jurnal"Sovremennыe problemы nauki i obrazovaniya".

5.Osipova L.A. Informatsionno-obrazovatelnыe proektы kak sredstvo formirovaniya u studentov kognitivnoy kompetentnosti: avtoref. dis. ...kand.ped.nauk:13.00.01.-Bryansk,2008.-25s.

SEMANTIKA – LINGVISTIK SOHA SIFATIDA
SEMANTICS AS A LINGUISTIC FIELD

K. Rixsiyeva,
ToshDO'TAU o'qituvchisi

Abstract: This article is devoted to a brief analysis of the emergence and development of the field of semantics in linguistics, as well as research and views of linguists in this area.

Key words*: language, language unit, semantics, word meaning, semantic change, linguistic semantics, semantic development, semasiology.*

Semantika fonografiya, sintaksis va morfologiya boshqalar singari grammatikaning bir qismi hisoblanadi. Semantika lingvistik soha sifatida o`z tadqiq obyekti va mavzulariga ega. Semantikaning murakkabligi shundaki, bu soha bilan shug`ullanuvchi olimlar nafaqat tilshunoslik, balki falsafa va psixologiya kabi fan masalalari bilan ham tanish bo`lishlari lozim. Ilmiy adabiyotlarda semantikaning bir qancha ta'riflari mavjud bo`lib, quyida ulardan ba'zilarini keltiramiz.

Semantika (yun. semantikos — bildiruvchi, ifodalovchi) — 1) til yoki uning bironbir birligi (so'z, so'zning grammatik shakli, frazeologizm, so'z birikmasi, ran) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma'no, axborot; 2) turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi; semasiologiya. Ayrim lugaviy unsurlar tushunchalarni bildiradi, bu tushunchalarni esa faqat to'liq gaplar va ularning qo'shilmalari ifodalashi mumkin. Binobarin, Sning o'rganish ob'yekti ham, asosan, to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolar tizimidir. S. fan sifatida 19-asrning 2-yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha bir-biridan sifat jihatidan farqlanuvchi bir necha bosqichni o'tgan. Semantika axborot texnologiyalarda ham qo'llaniladi.

Semantika lingvistik soha sifatida nisbatan keyingi davrlarda shakllangan bo'lsa-da, aslida u eng qadimgi davrlardayoq mavjud edi, lekin u davrlarda semantika masalalariga falsafiy tafakkur doirasida qaralgan. Muayyan vaziyatlarda so'z ma'nolarining o'zgarishi, tafakkurning tilda aks etishi, tafakkur va til taraqqiyoti muammolari XVII-XVIII asrlarda falsafiy hodisalar sifatida tadqiq qilindi. XIX asrga kelibgina tilshunoslikning etimologiya sohasida bir so`zdan boshqa bir so'zning yasalishi, so'z ma'nosidagi o'zgarishlarni aniqlash va tahlil qilish talabidan kelib chiqib, semantika masalasiga e'tibor qaratila boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmida tilning nafaqat tovush, balki psixologik tomoniga ham qiziqishning ortishi semantikaning so'z ma'nolaridagi o'zgarishlarni tadqiq qiluvchi soha sifatidagi nufuzini belgilab berdi.

"Semantika" terminini fransuz tilshunosi Breal fanga kiritgandan so'ng semantikaning keyingi taraqqiyoti XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda semantik o'zgarishlar qonuniyatlari asoslari tilshunoslikdagi turli xil psixologik yo'nalishlari vakillaridan Vundt, Rozvadovskiy, Martinak, Yaberg va shu kabi olimlarning faoliyati alohida ahamiyatga ega. 1910-1920-yillarga kelib esa semantika sohasiga e'tibor yanada kuchaydi.

Rus tilshunosi T.V.Jerebilo "Лингвосемантическая парадигма в соотношении с лингвостилистикой" maqolasida 1897-yil fransuz tilshunosi Mishel Breal Parijda Semantika terminini fanga olib kirganida lingvistik semantika XX asr tilshunosligida asosiy yo'nalishlaridan biri bo`lishini balki bilmagan ham edi, degan fikrni yozadi. Vaholangki, lingvistik birliklar ma'nosini tadqiq etish bundan bir necha yuz yillar oldin ham Qadimgi Xitoyda er.avv. V-III asrlarda, Qadimgi Gretsiyada va undan keyin o`rta asr yevropa an'analarida, so'ngra esa uyg'onish davri grammatikachilari va faylasuflari tomonidan tadqiq qilib kelingan. [Жеребило, 2006: 1-5]

O‘zbek tilshunos olimi M. Mirtojiyev “Ўзбек тили семасиологияси” kitobida shunday qayd etadi: “... сўз маъносини ва унинг тараққиётини ўрганишга бағишланган айрим ишлар ярала бошлади. Сўз маъноси ҳақидаги мақолалар ҳам юзага келди. Шуниси қизиққи, бу масалага бағишланган қатор мақолалар эълон қилинган бўлса ҳам, унинг ҳал қилинмаган томонлари ҳали бор.” [Миртожиев, 2013: 15-20]

XIX asr oxiri XX asr boshlarida semantika tilshunoslikning psixologik yo‘nalishlari doirasida tadqiq etila boshladi. Bu davrda Vundt, Rozvadovskiy, Martinak, Yaberg va boshqalar semantik taraqqiyot qonuniyatlarini psixik jarayonlar bilan bog‘liq tarzda yoritish g‘oyasini ilgari surdilar. 1910-1920-yillarda semantikaga e’tibor yanada kuchaydi. [Жеребило, 2006: 1-5]

Lekin yana shuni ham aytish kerakki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida tilshunoslikda so`z ma’nosining faqat bir tomoni, ya’ni uning etimologik ma’nosini yoritishga ko‘proq ahamiyat berilgan. Etimologik tahlil shu so‘zni boshqa o‘xshash so‘zlar yoki qarindosh tillardagi shu kabi so‘zlar bilan qiyoslab olib borilgan. Etimologik ma’no, boshqacha aytganda, etimon masalasiga bunday qarash XIX asr tilshunosligida Gumboldt nomi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Semantika fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshlagan bo‘lsa ham, asr boshlaridayoq X.Shteyntal, A.Potebnya va V.Vundt kabi olimlar bu borada lingvistik-gnoseologik konsepsiyani yaratishni boshlagan edi. Shundan kelib chiqib, semantika taraqqiyotini uch asosiy davrga bo‘lish mumkin.

Birinchisi psixologik va evolyutsion bosqich bo`lib, bu davrga xalq madaniyati hamda psixologiyasidagi til semantikasiga keng evolyutsion yondashuv asosiy xususiyatdir. Ushbu davrda Potebnya, Vundt hamda A.N.Veselovskiyning so‘z va uning ma’nosi, ma`no taraqqiyoti haqidagi qarashlari ularning asarlarida ham aks etdi. Masalan, Potebnya tafakkur taraqqiyotini til qonuniyatlari, xususan semantika bilan bog`laydi. Bu davr nazariyotchilarining qarashlarida psixologik yondashuv ustunlik qilib, mantiq keyingi darajalarga tushib qolgani ularning asosiy kamchiligi, deb qaraladi.

Ikkinchi bosqich qiyosiy-tarixiy bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda semantika tilshunoslikning alohida sohasi sifatida “semasiologiya” (M.M.Pokrovskiy va boshqa rus, nemis ishlarida aks etgan) yoki “semantika” (dastlab 1883-yil M. Breal, undan so‘ng boshqa fransuz tilshunoslari ishlarida aks etgan). Bu davr semantika sohasi tarixiy qonuniyatlarga keng yondashuv bilan xarakterlanib, tarixiy-qiyosiy tadqiqotlar shakllanib bordi. 1950-yil oxirlarigacha “semasiologiya” termini ham keng qo‘llanishga kiradi. Lekin semantikaning kelib chiqishi masalasi, yuqorida aytganimizdek, qadimgi lingvistik an’analar doirasida o‘z yechimini topgan edi. Demak, semantika muammolari qadimgi davrlarda ham muhim o‘rin tutgan. Qadimgi Xitoyda ierogliflar sharhi mujassamlashgan lug‘atlar tuzilgan. Masalan, eramizdan avvalgi III asrga oid “Er Ya” lug`atining bosh maqsadi Xan sulolasi davrida yozilgan matnlarga izoh berish edi. Miloddan avvalgi 121-yilda Sharqiy Xan sulolasi olimi Suy Shen tomonidan tuzilgan “Shuo Wen jiezi” lug‘atida esa ilk bor so‘zlar ma‘nosiga qarab ajratilgan. Yevropada antik va o‘rta asr filologlari yozma yodgorliklardagi ma’nosi tushunarsiz so‘zlar uchun glossariylar tuzishgan.

Lingvistik semantikaning haqiqiy ma`nodagi taraqqiyori 1960-yillardan boshlangan, hozirgi kunda semantika tilshunoslik fanida markaziy o‘rinlardan birini egallagan.

Qiyosiy-tarixiy yondashuvning keyingi taraqqiyoti etimologiyaga chuqur ahamiyat berish bilan xarakterlanadi. O.N.Trubachyov 1966-yilda qadimgi hind-yevropa tillaridagi to`qimachilik va kulolchilik terminlarining semantik taraqqiyotini tadqiq qildi. Bundan tashqari, uning muharrirligida «Этимологический словарь славянских языков. Праславянский лексический фонд», Э. Бенвенист «Словарь индоевропейских социальных терминов», В. И. Абаева «Историко-этимологический словарь осетинского языка» kitoblari nashr etildi.

Lingvistik semantika taraqqiyotining uchinchi bosqichi taxminan XX asrning 20-yillaridan boshlanadi. Bu bosqich semantikaning mantiq va falsafa bilan yaqinlashishi, sintaksisdagi o`rnini belgilash bilan xarakterlangani uchun uni sintaktik-semantik yoki mantiqiy-semantik bosqich deb ham atash mumkin. Bu bosqichda quyidagi asosiy nazariy holatlarni belgilash mumkin: 1) obyektiv borliqni “narsa”ning emas, hodisalarning mohiyati belgilashi haqidagi qarashlarga tayanib, semantik uya asosini so‘z emas, balki fikrning tildagi ifodasi bo‘lgan gap tashkil etadi, degan qarash

ilgari surilgan; 2) “semantik oddiylik”ni tiklash, ya’ni birlamchi, qolgan ma‘nolarning kelib chiqishiga asos bo‘lgan ma’noni aniqlash.

XX asrning 50-yillarida yuzaga kelgan semantik tadqiqotlar V.A.Zveginsev nomi bilan bog‘liq. Rus tilshunosligida dastlab u “Semasiologiya” nomli monografiyasini yaratdi. Bu monografiya rus tili semasiologiyasi emas, umuman semasiologiyaga oid edi. Monografiyada olim o‘z davrigacha ma’lum bo`lgan ilmiy asarlarni ilmiy talqin qildi va semasiologiyaning asosiy masalalariga aniqlik kiritdi. Unda leksik ma’no, ma’no taraqqiyoti, ma’no miqdoriga ko‘ra so‘z tiplari, ma’nolarning paradigmatik munosabatlari doirasida yangi fikrlar bilan boyitildi. Biroq leksik ma’no tiplari va ma`noning semantik tarkibi, ma’nolarning sintagmatik munosabati haqidagi masalalar o‘z-o‘zidan ochiq qolaverdi. Chunki shu davrgacha bu masalalar ko`rib chiqilganicha yo‘q edi. [Миртожиев, 2013: 20-25]

XX asrning ikkinchi yarmida D.N.Shmelevning rus tilshunosligidagi semantik tadqiqotlarninig rivojlanishiga hissa qo`shdi. 1964-yil uning “Rus tili semasiologiyasi bo‘yicha ocherklar” nomli monografiyasi nashr etildi. Undan so‘ng L.A.Novikov ham bu sohada bir qancha tadqiqotlarni amalga oshirdi. Uning “Rus tili semantikasi” kitobi 1982-yil Moskvada nashr etildi. Unda semantika sohasi va vazifasi, leksik-semantik tizim va leksik ma’no, leksik ma’no tarkibi va uning tahlili kategoriyalari kabi masalalar yuzasidan fikr yuritilgan. [Mirtojiyev, 2013: 23-24]

Hozirgi zamon rus tilshunosligida semantikaga oid tadqiqotlar ikki asosiy yo‘nalishdan iborat: kuchli (tashqi) va kuchsiz (ichki). Kuchli semantika yo‘nalishi vakillari P. Монтегю, Д. Льюиз, Б. Парти, Э. Кинен, Х. Камп, И. Хейн va b. bo`lib, ular formal semantika bilan shug`ullanganlar. Kuchsiz yo‘nalish vakillari esa semantika nazariyasi va leksik ma’noning komponent tahlili bilan shug‘ullanadi (Дж. Катц, Дж.А. Фодор, Э. Бендикс, Ю. Найда, М. Бирвиш va b.). bundan tashqari, semantikaga tor va keng ma’noda yondashuv ham mavjud. [Jerebilo, 2006: 1-5]

Semantika sohasiga oid tadqiqotlari bilan o‘zbek tilshunosligida bu soha taraqqiyotiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan tilshunos olim Sh. Safarov “Семантика” kitobida: “Qarangki, shuncha yil o‘tishiga qaramasdan (semantics termini ingliz tilida XVII asrdayoq mavjud bo‘lgan), lingvistik semantika sohasida unchalik katta o‘zgarishlar yuz bermaganday bo‘lib turibdi. Bunday “turg‘unlik”ning bir nechta sabablari bor. Birinchidan, olimlar semantikani, M. Brealga ergashib, so‘z va iboralar ma`nosining paydo bo‘lishi va o‘zgarish taqdiri bilan shug‘ullanadigan fan sifatida qarab keldilar. Ikkinchidan esa, semantika hozirgacha leksik ma`no haqidagi fan bo‘lib qolmoqda va uning e’tiborini so‘zlar ko‘p ma’noliligi, antonimlik, sinonimlik munosabatlari, omonimiya qatorlari, valentlik imkoniyatlari kabi hodisalar tortmoqda”. [Сафаров, 2013:14-15] Ushbu fikrlardan ayonki, hali semantikaning lingvistik soha sifatidagi predmeti va tadqiq obyektlarini aniqlash va bu sohada jiddiy tadqiqotlar olib borilishi zarur.

Rus tilshunosi Kobozeva semantika haqida fikr yuritar ekan, uning boshqa fan sohalari kabi, o‘z o‘rganish predmetiga egaligini ta’kidlaydi. Biroq bu predmetnini aniqlash oson emas. Garchi tilshunoslarning aksariyati semantika lingvistik ifodalarning ma’nosini o‘rganadi, deb hisoblasa-da, ma‘no nimalarni anglatishi kerakligi haqidagi savolga umumiy qabul qilingan javob yo‘q. Predmetni aniqlashtirishdagi har-xilliklar tufayli semantika va boshqa lingvistik fanlar, xususan semantika va pragmatika o‘rtasidagi chegaralarni o‘rnatishda ham har xillik yuzaga keladi. Shuning uchun semantikaning predmeti haqidagi savol eng ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqilishi kerak. Semantika til birliklarining mazmunini va ushbu birliklardan qurilgan nutqiy hosilalarni o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi. [Кобозева, 2000: 8-10]

Biz ushbu maqolada semantikaning lingvistik soha sifatida vujudga kelishi, taraqqiyoti hamda bu sohada dunyo va o‘zbek olimlarining izlanishlarini qisqacha yoritishga harakat qildik. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, semantika yuzasidan hozirgacha juda ko‘p tadqiqot ishlari va ilmiy asarlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, hali bu sohada qilinajak ishlar yetarli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Абаева В. И. «Историко-этимологический словарь осетинского языка», т. 1—3, 1958—79.

2. Жеребило Т.В. “Лингвосемантическая парадигма в соотношении с лингвостилистикой”. 2006
3. Звегинцев В.А. Семасиология. - М.: Изд. МУ. 1957.
4. Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. –М: Эдиториал УСС. 2000.
5. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси.-Т.: Мумтоз сўз. 2013.
6. Новиков Л. А. Семантика русского языка. - М.: ВШ. 19
7. Сафаров Ш. Семантика. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2013.
8. Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. - М.: Просвещение. 1964.
9. Jon I. S. Semantika , 2-nashr, Blackwell, 2003
10. Charles W. Kreidler. Inglizcha semantikani tanishtirish. Routledge, 1998
11. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA MINIATYURA
MINIATURE IN NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE CLASSES

D. Sayfutdinova
Andijon Davlat universiteti
O`qituvchi

Abstract: Miniature works provide an exhibition in the classroom, raise oral speech, educate students in the spirit of beauty, provide detailed information about the way of life, dress, customs and flora and fauna of our ancestors of that time.

Key words: *miniatyura, Alisher Navoiy, “Xamsa”, doston**,** “Saddi Iskandariy”, “Farhod va Shirin”, “Sab'ai sayyor”*

Vatanimizning yorqin kelajagi bo‘lgan ardoqli farzandlarimizni baodob, xushfe'l, olijanob, komil inson darajasidagi shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ona tili va adabiyot darslarini boshqa fanlar bilan, jumladan, tasviriy san'at bilan bog‘lab borish o‘quvchilarda nafosat tuyg‘usini shakllantirishda, ularni go‘zallik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab boy tarixiy, madaniy merosimiz keng ko‘lamda o‘rganila boshlandi. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini o‘rganish jarayonida dostonlarga ishlangan miniatyura asarlari bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Ishni avval miniatyura san'ati haqida, Sharqning buyuk rassomi Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari Qosim Ali, Mirak Naqqosh, Do‘st Muhammad, Mahmud Muzahhiblar haqida ma'lumot berishdan boshlagan ma'qul. Shuningdek, miniatyura “o‘qish” haqida tushuncha berib o‘tilsa, dars ancha qiziqarli o‘tadi. Zero, miniatyura hajman kichik asar va unda bir necha ko‘rinish aks etgan bo‘ladi. Bu ko‘rinishlar tepadan pastga qarab joylashtiriladi. Ularning har biri chuqur ma'no kasb etib, asarda maxsus vazifalarni bajaradi. Miniatyurada qadimgi arab yozuvidagi turkiy xat namunalari, hayvonot va o‘simliklar dunyosi tasviri, tabiat manzarasi ko‘rinishlari o‘z aksini topadi. Asarning markaziy qismida chuqur g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lgan voqyea tasvirlanadi.

Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan miniatyuralar XV-XVI asrning birinchi yarmida yaratilgan bo‘lib, Temuriylar davri rasm san'atining yuksak namunalaridandir. Ularda o‘zbek xalqining estetik ideali va badiiy dahosi mujassamlangan. Jahon madaniyatining nodir yodgorliklaridan hisoblangan bu rasmlarning asosiy obrazlarini Navoiy dostonlarining o‘lmas qahramonlari tashkil qiladi. Ular o‘zlarining porloq ijtimoiy ideallari, olijanob odamiylik xususiyatlari, pok qalbi, samimiy sevgisi bilan kishini maftun etadi. Masalan, “Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar” nomli albomga kirgan “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Toju taxtni gadolikka almashtirgan shoh Iskandar huzurida“ nomli miniatyurani olaylik. Rasmda eski o‘zbek yozuvi namunalari bilan birgalikda tabiat manzarasi juda go‘zal tasvirlangan. Markazda shoh Iskandar, atrofida esa mulozimlar va gado siymolari mahorat bilan aks ettirilgan. Shoh bilan atrofidagilar gadoga va uning qo‘llaridagi suyaklarga qarab hayron boqib turishibdi.



Низомий «Хамса» достонига ишланган миниатюра

Pragmatika - grekcha “progmo” so‘zidanolinganbo‘lib, “ish”, “harakat” ma’nolarini beradi. Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo‘llanishini o‘rganadi. Shuning uchun tilshunoslikning bu yo‘nalishi semiotika tarmoqlaridan biri sanaladi. Pragmatika termini XX asrning 30 – yillarida Ch.I.Morres tamonidan ilmiy muomalaga olib kiritilgan. U semyotikani semantika, sintaktika, pragmatika, kabi tarkibiy qismlarga ajratadi. Tilshunoslik dapragmatikaning yangi tadqiqot obyekti sifatida yuzaga kelishi va ajratilishi, yuqorida ta’kidlanganidek, Ch.S. Pirs g‘oyalari, shuningdek, J.R.Osten, J.R.Serlva Z.Venlarning 60 – 70 yillardagi mantiqiy falsify qarashlari asosida yuzaga kelgan nutqiy akt. Polo Greaysning ma’noning pragmarik tahlili va L.Linskiy, J.R.Serl, P.F.Strosonlarning referensiya nazariyalari ta’siri bilan uzviy bog‘liqdir. J.R.Osten, J.R.Serlva Z.Venlarning nutqiy aktnazariyasi ta’limoti ta’sirida lingvistik pragmatic shakllanishi uchun ma’lum asoslar yaratildi. Chunki nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko‘ra so‘zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Kommunikativ niyat esa nutqiy aktlarning ko‘rinishlari sifatida nutqda namoyon bo‘ladi. Nutqiy aktlar yig‘indisi nutqning mazmunini tashkil qiladi. So‘zlovchining munosabati esa nutqiy aktlar vositasida shakllanishidan tortib to uning murakkab mazmuniy tuzilishiga qadar bo‘lgan lingvistik xususiyatlari nutqiy akt muammolari sifatida talqin etiladi. Nutqiy akt nazariyasiga xoshar bi rtadqiqiy talqinda nutq subyektining olamni bilish va his qilishdagi tasavvur ko‘rsatkichlarining nutqdagi darajalari hisobga olinadi. Nutqiy akt nazariyasiga xos mana shunday o‘zak tadqiqiy talqin lingvistik pragmatika tarmog‘ining shakllanishi uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi. Lingvistik pragmatic anazariyasi xususidagi ma’lumotla rtilshunoslik fanining yangi tarmog‘I sifatida o‘tgan asrning 60 – 70- yillarida boshlangan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning paydo bo‘lishiga turtki bergan g‘oyalar tarixi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga borib taqaladi. Bu davrda taniqli g‘arb faylasuflarining nazariy qarashlarida semantikaning mohiyati aniqlanadi, semantikaning tarkibiy qismlariga xos differensial belgilari ko‘rsatib o‘tiladi.

Tilshunos olim V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisi lingvopragmatikaning boshlang‘ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik asos bo‘ladi. “Inson qaysidir tilga xos sematik bilimlarsiz so‘zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o‘sha tilga xos sematik bilimlar egasi bo‘lishning o‘zi ushbu tilde so‘zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, masalan, musiqalip‘esa mazmunidan ogohlikuning ijrosi uchun yetarli bo‘lmaydi, bunming uchun, eng asosiysi ijro mahorati, layoqati (уменииграть)”ga ega bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pragmalingvistika tilshunoslikning eng qiziqarli va istiqbolli sohalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.I.A.Karimov. Yuksakma’naviyatyengilmas kuch.Toshkent.”Ma’naviyat”.2008

2.Me.Bar – Hilli . 1971 –yil V – VI

3. Sh.Safarov. Pragmalingvistka. Monografiya. Toshkent – 2008
4.Петров В.В. Философия, семантика, прагматика Новое в зарубежной лингвистике – 1985 С.471
5.Б.Ю.Норман Лингвистике прагматика. Минск. 2009
6. M. Hakimov. O‘zbekpragmalingvistikasiasoslari. Toshkent. “Akademnashr”.2013

“O‘TGAN KUNLAR” ASARIDA UCHRAYDIGAN O‘ZBEK TILIDAGI MAISHIY REALIYALAR TAHLILI
ANALYSIS OF UZBEK LANGUAGE HOUSEHOLD REALITIES IN "PAST DAYS"

Z.Kasimova,
O‘zMU doktoranti

Abstract. this article analyzes the units of household realities, used in the novel of the “Past Days”. Also their Russian translations are compared.

Key words: *realities, equivalents, religious realities, realities representing tradition, realities representing household items, realities representing clothing, realities representing food.*

Realiya madaniyatlar o‘rtasida asosiy farqlarni ko‘rsatadi, shuning uchun ham unga beriladigan ta’riflar turlichadir. Realiyalarda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi: jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo‘lishi tilda shunga mos so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Realiyalarni ajratib turuvchi xususiyati ularning predmet-narsa ma’nosiga ega bo‘lganligidandir. Realiyalar biror bir jamoa yoki korxona miqyosi bilan ham chegaralangan bo‘lishi mumkin. Realiya bu moddiy mavjud bo‘lgan yoki hozir ham mavjud predmet-narsadir. Lug‘aviy izohlarga ko‘ra, realiya – “moddiy madaniyat narsalari”dir. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda esa predmetlarni ifoda etuvchi so‘z va iboralar realiyalar deyiladi.

Tilshunoslar “realiyalar” haqida faqatgina XX asrning 50-yillarga kelib milliy o‘ziga xoslikning aniq, sezilarli elementi, kolorit ko‘rsatkichlari sifatida so‘z yurita boshladilar. O‘sha davr lingvistik lug‘atlarda realiyalarning aniq tavsifi yo‘qligining sababi bo‘lsa kerak, deya xulosa chiqarish mumkin.

O.S.Axmanovaning “Словарь лингвистических терминов” kitobida “realiyalar”ga quyidagicha tavsif beriladi:

Realiyalar (lot. realia)

1. Klassik grammatikada mazkur tilda ularni namoyon etish nuqtai nazaridan kelib chiqib, tashqi lingvistika fani o‘rganuvchi mazkur mamlakatning davlat tuzumi, ana shu xalqning tarixi, madaniyati va aynan shu tilda so‘zlashuvchilarning til va aloqalari hamda boshqa turli xil omillar.

2. Mavjud madaniyat predmetlari [Ахманова, 1969: 381].

D.E.Rozental, M.A.Telenkovalarning “Словарь справочник лингвистических терминов: пособие для учителя” nomli kitobida “realiyalar” so‘ziga quyidagicha tavsif keltiriladi:

Realiyalar (o‘rta asrlar lot. realis – moddiy) – so‘zning nominativ ma’nosi uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi, mavjud madaniyat predmetlari [Розенталь, Теленкова, 1985: 362].

Shuningdek, turli tadqiqotchilar boshqa til leksikasidagi ushbu guruhni turlicha tavsiflaydilar. Ko‘pincha adabiyotlarda “ekvivalentsiz leksika” va “ekzotik leksika” yoki “ekzotizmlar” kabi iboralar va ular bilan bir qatorda shu yoki shunga yaqin ma’noga ega bo‘lgan “varvarizmlar”, “lokalizm”, “qusurlar” yoki “lakunalar” (suqutlar – matnda tushib qolgan joylar) uchrab turadi. Ushbu tushunchalarni muayyan milliy, tarixiy, mahalliy, maishiy, ma’naviy o‘zgachalik, tarjima tilida mos so‘zlar (ekvivalenti)ning yo‘qligi birlashtirib turadi.

Realiyalar haqida so‘z yuritgan ko‘pgina mualliflar taxminiy, to‘liq bo‘lmagan, ularning u yoki bu jihatini ko‘rsatib beruvchi ta’rifini keltiradilar.

Masalan, L.N.Sobolevning fikriga ko‘ra, turmushda ekvivalentlarga ega bo‘lmagan maishiy va o‘ziga xos milliy so‘zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan milliy

turmush tarzidagi so‘zlar “realiya termini” sifatida keltirilgan, chunki ushbu predmet va hodisalar boshqa mamlakatlarda mavjud emas” [Соболев, 1952: 281].

V.Rossels esa realiyalarda “asar tarjima qilinayotgan tilga ega xalqning turmush tarzida qo‘llanilmaydigan tushunchalar, predmetlar, hodisalarni anglatuvchi xorijiy so‘zlar”ni ko‘radi.

A.V.Fedorov ularni hech bir nom bilan atamay, “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzi realiyalarini anglatuvchi”, ya’ni “faqatgina mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo‘q bo‘lgan” so‘zlar haqida yozadi [Федоров, 1968: 160].

Yuqorida bayon etilganlardan realiyalar so‘zlashuvning alohida toifasi ekanligi aniq namoyon bo‘lib turibdi.

Realiyalar – bu bir xalq hayotiga (turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga) xos va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan obyektlarni anglatuvchi, milliy va tarixiy koloritni yetkazib beruvchi va odatda boshqa tillarda aniq to‘g‘ri keladigan so‘zlar(ekvivalentlar)ga ega bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalaridir.

Badiiy asarlarda realiyalarni ajratish va ularni tarjima qilish yo‘llari masalasi hanuzgacha tarjima nazariyasida eng dolzarb muammolarning biri sifatida qolmoqda. Olamning ilmiy manzarasi haqidagi tadqiqotchilarning fikrlarini qisqacha analitik obzor qilar ekan, O.A.Kornilov ilgari ma’lum ta’riflar asosida o‘z ta’rifini bayon qiladi: “Insoniyat jamiyatining mazkur bosqichidagi barcha alohida fanlari tomonidan ishlab chiqilgan olam haqidagi ilmiy bilimlarning aynan barcha to‘plamini olamning ilmiy manzarasi deb ataymiz” [Корнилов, 2003: 9].

Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko‘pchilik xos so‘zlarning ma’nolari va o‘taydigan vazifalari mamlakatlarning o‘zaro madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan, tarjima tili sohiblariga ham tanish bo‘lib qoladiki, tarjimonlar bunday so‘zlarga o‘z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etaveradilar.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi – asliyatda qo‘llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo‘lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo‘yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Shunday qilib, transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so‘zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo‘lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyati siqiq holda talqin etiladi.

O‘zbek millati va o‘zbek xalqiga xos, o‘zbek madaniy hayotini ifodalovchi realiyalarning tarjimada rus tilida berilishi haqida so‘z yuritar ekanmiz, shuni ta’kidlash joizki, tarjimonlar ularni ifodalashda tarjimaning transliteratsiya usullaridan keng foydalanadilar. Quyida Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romanining o‘zbek tilidan rus tiliga qilingan tarjimasini tadqiq qilish asosida aniqlangan bir qator misollarni keltirib o‘tamiz:

Hasanali dasturxon yozib qumg‘on kirgizdi. Odatiy takalluflar bilan dasturxon va choyga qaraldi. Homid nonni shinniga bulg‘ar ekan so‘radi:

- Yoshingiz nechada, bek? [Абдулла Қодирий, 2004: 9]

Хасанали расстелил дастархан и внес кумган. Последовала традиционная церемония ухаживания за гостями. Хамид, обмакивая кусок лепешки в патоку, спросил:

- Сколько вам лет, бек? [Абдулла Кадыри, 2009: 10]

Tarjimaga e’tibor berar ekanmiz, o‘zbek urf-odatiga xos bo‘lgan “dasturxon”, “qumg‘on” so‘zlari hamda “bek” murojaat so‘zi transliteratsiya orqali ifoda qilingan, “non” so‘zi “лепешка” tarzida tarjima qilingan. Ruscha izohli lug‘atda “лепешка” so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

ЛЕПЁШКА, -и, ж. 1. Плоское круглое изделие из печеного теста [Ожегов, 1999: 735].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *non* so‘zi “xamirdan tayyorlanib, tandir, o‘choq, tova va sh.k.da pishiriladigan yegulik” deb izohlangan [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2007: 57].

Bundan ko‘rinib turibdiki, tarjimon *non* so‘zini shakliga ko‘ra *лепешка* tarzida tarjima qilgan, biroq asl ma’nosini bermagan.

Quyidagi gaplarning rus tiliga qilingan tarjimalarida ham transliteratsiya usulidan foydalanganligining guvohi bo‘lamiz.

... “sharti ketib, parti qolg‘an” bir darbozaning ostonasidan uch-to‘rt qadam ichkariga kirilsa Buxoro zindonlaridan birini his etilur va qorong‘u yo‘lakning nihoyatidagi yorug‘liqqa tomon oshiqilur [Абдулла Қодирий, 2004: 27].

... то просто ветхие, как сама история, многострадальные ворота и ступив три-четыре шага за порог, оказываешься словно в одном из бухарских *зинданов* и невольно устремляешься к озаренному светом концу коридора [Абдулла Кадыри, 2009: 30].

Ruscha tarjimada “zindon” so‘zi “зиндан” tarzida berilib, havola orqali izohlangan: “тюрьма в виде глубокой земляной ямы”.

Yana bir misol:

Choyni ichib bo‘lg‘andan keyin qutidor fotiha o‘qub o‘rnidan turdi:

- Men senga aytib qo‘yay, Kumush, - dedi turar ekan qutidor Oftob oyimga, - bu kunga bir mehmon aytkan edim. Cho‘ringni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplag‘an ko‘rpalaringni ber, tanchaga o‘shani yopsin [Абдулла Қодирий, 2004: 29].

“Закончив чаепитие, кутидор прочел фатиху и, вставая с места, заметил:

- Кумуш, имей в виду, я пригласил на сегодня одного гостя. А Офтоб-аим сказал: Прикажи служанке прибраться в михманхане. Дай ей вон те новые курпачи, пуст ими накроет сандал [Абдулла Кадыри, 2009: 32].

Yuqoridagi misolda nozik bir joyiga ahamiyat bersak. Ma’lumki, xalqimizda “nonushta qilmoq” birikmasi o‘rniga “choy ichmoq” birikmasidan foydalaniladi. Tarjimada ana shu jihatga e’tibor berilib, “чаепитие” tarzida ifodalangan. Shuningdek, “fotiha o‘qimoq” iborasi transliteratsiya qilinib, “первая сура Корана” kabi izohlangan. Tarjimon bu o‘rinda Qur’onning birinchi surasi “Fotiha” deb nomlanishiga ahamiyat qaratgan. Lekin xalqimizda “fotiha o‘qimoq” deganda, asosan “duo qilmoq” ma’nosi tushuniladi. Shu bilan birga, misolda “mehmonxona”, “ko‘rpacha” so‘zlari “михманхана”, “курпача” tarzida transliteratsiya qilingan. “Tancha” so‘zi esa “сандал” deb tarjima qilinganin ko‘rishimiz mumkin. *Сандал* so‘zi ruscha izohli lug‘atida quyidagicha berilgan:

САНДАЛ, -а, м. Дерево южных стран с ароматической древесиной [Ожегов, Шведова, 1999: 1624].

Ya’ni *janub davlatlarida xushbo‘y hidli yog‘ochdan mebel* deb izohlangan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *tancha* so‘zining izohida *sandal* so‘ziga qarash lozimligi yozilgan.

Sandal [a. kursi, stol] O‘rta Osiyo mamlakatlari va Yaponiyada ma’lum bir joyni isitish uchun mo‘ljallangan manqal; xonaning o‘rtasiga yoki chekkaroq yeriga chorburchak chuqurchaga o‘rnatilgan, ustiga ko‘rpa yopilib, atrofiga ko‘rpachalar to‘shalgan xontaxtadan iborat bo‘lib, ichiga saksovul yoki ko‘mir cho‘g‘i solinadi; tancha (qish sovug‘ida sandalga oyoq-qo‘lni tiqib isitiladi, ayni paytda ustiga dasturxon yozib, undan stol sifatida foydalaniladi) [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2007: 438].

Yuqoridagilardan xulosa qilganda, o‘zbek tilidagi realiyalarini rus tiliga tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, izohlash, muqobil variantlardan foydalanish kabi tarjima usullari samarali usullardan hisoblanadi. Bunday usullarni qo‘llashda tarjimonlar kontekstning o‘rniga, asar muallifining mazkur realiyani ishlatishdan ko‘zlagan maqsadiga e’tibor berishi talab qilinadi.

Shuningdek, “O‘tgan kunlar” romanida diniy realiyalar, urf-odat bilan bog‘liq realiyalar va maishiy realiyalar uchraydi. Ularning eng ko‘p salmog‘ini maishiy realiyalar tashkil etadi. Asarning ruscha tarjimasida maishiy realiyalar asosan transliteratsiya usulida tarjima qilingan. Ba’zi o‘rinlarda esa izohlab ketilgan. Realiyani o‘zga tilga tarjima qilishda mazkur realiya asarning umumiy kontekstidan ajratgan holda tarjima qilinmaganligi tarjimonning yutug‘i hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. – Т., 2004.
2. Абдулла Кадыри. Минувшие дни. – Т., 2009.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. С.381.
4. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1968. С.175.

5. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М., 2003. С.9.
6. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М., 1999. С.735.
7. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов: пособие для учителя. – М., 1985. С.362.
8. Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. – М., 1952. С.281.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т., 2007. Б.57.

ONTOLOGICAL SYNTACTIC STRUCTURES OF THE UZBEK LANGUAGE FOR CORPUS ANALYSIS

N. Abdurakhmonova,
PhD in Tashkent state university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi,
G.Latipova

Abstract: the article deals with ontological models of syntactic structures of Uzbek language comparing example word combinations. In this paper analyzed syntactic relations and models in order to create meta language for NLP and other linguistic technology in the frame of Turkic languages under the project of «AP05132249 Processing of electron thesaurus of Turkic languages for creation multilingual information retrieval system and extracting knowledge» on agreement №132 on «12 » March 2018.

Key words: ontological model, syntactic structures, relationship, grammatical classification, word combination, nominal and verbal adjournment, government, agreement

I. Introduction

The article has been done in the frame of project IRN: «AP05132249 Processing of electron thesaurus of Turkic languages for creation multilingual information retrieval system and extracting knowledge» on agreement №132 on «12 » March 2018.

One of the linguistic properties of languages for natural language processing is syntax. There are two crucial components as constituencies of syntax: word combination and sentence. Syntactic parsing is crucial technology for each application of natural language processing: machine translation, question-answering system, information retrieval system and sentiment analysis, corpus linguistics. Consequently, building of the structure of text and word combinations plays essential role in order to identify the place of parts of speech. Each language has own linguistic peculiarities as according to typological system of languages. For example inflectional and agglutinative, having own ontological classification of parts of speech.

Word combination represents the combinations of words. Words belong to things and substance, quality, attribute, and action. Things and substance, quality, substance, attribute, and action interconnect each other in word combination, but they cannot apart from independently each other. Syntax of word combination is capability of adjoining of words that estimated as connection ways and schemata (forms) as well as components and forms of word combination associates closely with morphology. It is studied word combination as a part of sentence and postfixes considered as morphological-syntactical category that joining each other's.

Word combination comprises semantically and grammatical attitudes of at least two words. One is component of word combination comes as head (governor) and other dependent word. Components interact each other's based on semantically and syntactical rules. Word combination plays role as nominative means of language by headword naming things, substance, quality, substance, attribute, and action interconnect each other's.

However, grammatical features can identify the functions of words in sentence there is not rigid word order in the sentence of agglutinative languages because of free place of parts of speech.

For example in Uzbek it can be seen changeable position each component what focused part comes in the front of predicate:

*Men bugun avtobusda **universitetga** boraman.*

*Men bugun universitetga **avtobusda** boraman.*

*Men universitetga avtobusda **bugun** boraman.*

Predictable matching the role of parts of speech for Turkic languages seem difficult due to free placed in the text. However each language has own formal model can be used for parsing including several stages linguistically.

II. Related work

Ontological modeling is suitable for domain of concept to analyze in order specifies hierarchic attitudes of any entries.

If we compare ontological modeling syntactic structures of Uzbek and Kazakh languages, there are three types of syntactic relations between members of syntactic groups: agreement, government, adjoinment.

Three areas of work are essential for metadata to perform its functions: semantics to define the meaning of data, syntax to specify the data binding structure, and vocabulary to control the language (1, Duval et al 2002)

Agreement is based on formal correspondence between members of a syntactic group in person and number of governor and subordinate. The definition in Uzbek there is some distinction that the model [NOUN+NOUN+Case] [Noun+POSS]: *talabalarning hammasi* in Uzbek. Moreover, the predicate agrees with the subject in person and number: *Men o'quvchiman (Uzbek).*

Government occurs by the case and particles of both languages according to what is nominal or verbal head word: *ukam uchun kitob, estalikka sovg'a, bog'dagi gullar (Uzbek).*

Adjoinment can be expressed the words joined by the common grammatical function and meaning without any change in morphological forms between them: *qalin o'rmon, oq paxta, buyuk tarix; бұтақ күрек, отыз кітап, қызыл орамал, бұл үй, ол кім, қанша үлкен*.

Syntactic relation in word combination in Uzbek and Kazakh divides two types: nominal and verbal. In nominal word combination, nominal (adjective, noun, numeral, and pronoun) is considered governor.

III. **Ontological models of word combinations**

Ontology is used for formal and specialized concept and relations that belong to exact domain. Having advantage of ontology in NPL to create metalanguage in the sphere of machine translation (mainly, rule-based machine translation) or other purposes (information retrieval system, text analysis, annotation of text). Thanks to ontology, creating structure of information based on systematical and hierarchical data it aids to ease computational processing of the natural language. Effective way to create of ontology is representing OWL. "There are several types of ontologies. The word "ontology" can designate different computer science objects depending on the context. For example, an ontology can be:

— a thesaurus in the field of information retrieval or

— a model represented in OWL in the field of linked-data or

— a XML schema in the context of databases

— etc " [1, Catherine Roussey, (2011)].

Once analyzed on concrete artifact, a model can support relation and conclusion about important aspects of the underlying sphere. For the reason that any kind of model is a construct of understandings according to a certain conceptualization. Furthermore, ontological model structure defines the set of grammatically construction in terms of the order parts of speech.

As similarities and distinctions of syntactic features between Uzbek and Kazakh languages compared by ontological models, it can ease to classify subclasses of relations of the words by different syntagmatic properties. Although Uzbek and Kazakh languages considered as agglutinative language, both of them have differences due to being allomorphs in terms of sinharmonism in Kazakh.

MORPHOLOGICAL PECULIARIETIES OF UZBEK

Tag	Name_English	UZB
WC	Word combination	ukam uchun sotib olmoq
COLC	Collocation	o‘z yog‘iga qovurilmoq
FP\FC OLC	Free phrase\ Free collocation	xat yozmoq, kuchli iroda, ukamning kitobi
NP	Noun Phrase	bolalarning hammasi, intizomda birinchi, xushbo‘y hid
NA	Noun Adjoinment	ona vatan, bebaho sovg‘a
NG	Noun Government	ukam uchun sovg‘a, senga mukofot
NCS	Noun Collateral subordination	ukamning xati
VP	Verb Phrase	baland uchmoq, kulib gapirmoq
AGRM	Agreement	u o‘quvchi, mel keldim
SLP	Singular personal pronouns	Men talabaman
PPL	Plural personal pronouns	Ular talabalar

To study probability of word combination modeling of parts of speech is useful for distribute to some group of syntactic relations. If we consider one example as classes and subclasses of words then we can see there are several kinds of types of models of word combinations in Uzbek:

Nominal adjoinment:

1. Noun+Noun=> temir uskuna
2. Adj.+Noun=> qulay imkoniyat
3. PNoun+Noun=>hamma ishtirokchilar
4. Num.Noun=> birinchi kun
5. Gerund+Noun=> o‘qiyotgan qiz
6. Infinitive+ Noun=>nishonlash kuni
7. Adv.+Noun=> sekin harakat
8. (Noun+dagi)+ Noun=> devordagi rasm
9. (Infinitive+dagi)+ Noun=> ishlashdagi g‘ayrat
10. (Adv.+dagi)+ Noun=> yuqoridagi qavat
11. ↓PNoun+↓Adv. +Gerund+Noun=> (kimgadir) (sekin) o‘qib berayotgan qiz
12. Noun|PNoun{ni, ga, da, dan}+Gerund+Noun=> maktabga ketayotgan qiz
13. Adj.+Gerund|Past participle+Noun=> yaxshi o‘qigan bola
14. (Noun+day|dek)+Adj.=> oyday oppoq
15. (Noun+dagi)+Adj.=> sinfdagi a’lochi
16. Adj.+Num.=> mo‘jizaviy yetti
17. (Noun+dagi)+Num.=> rasmdagi bir
18. Noun+Infinitive=>kitob o‘qish (lekin *ism qo‘yish, nonushta qilish* bu so‘z birikmasi emas, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi)
19. Adj.+Infinitive=> qulay joylashish
20. Adv.+Infinitive=> tez yeyish

Verbal adjoinment:

1. sifat+fe’l=> yaxshi o‘qimoq
2. ravish+fe’l=> astoydil o‘qimoq
3. ravishdosh+fe’l=> kulib gapirmoq
4. Adj.+Verb=> yaxshi o‘qimoq
5. Adv.+Verb=> astoydil o‘qimoq
6. Gerund+Verb=> kulib gapirmoq

Nominal government:

1. Noun+ dan+Noun=> Andijondan kelish
1. Noun+↓dan ham |↓dan ko‘ra+Adj.+↓roq=>onadan mehribon

2. Noun+dan+Infinitive=>ustozdan so‘rash
3. Gerund+ {Noun} dan +Infinitive => bilgandan so‘rash
4. Noun | PNoun + dan + Num.=>hammadan birinchi
5. Noun | PNoun + dan +Adj.=>hammadan ustun
6. Adj. + ↓lar+dan+Num.=> a’lochilardan ikkitasi
7. Adv. + dan+Adv.=> kechagidan erta
8. Adv. + dan+Infinitive=>ko‘pdan bilish
9. Num.+dan+Num.=>yuztadan bittasi
10. Noun+ga+Noun=> vatanga muhabbat
11. PNoun+ga+Noun=> hammaga do‘st
12. Gerund+ga+Noun=>o‘qiyotganga omad
13. Infinitive+ga+Noun=>o‘qishga mehr
14. Infinitive|Noun+ga+Infinitive=>o‘qishga intilish
15. Noun+ga+Adv.=>bayramga yaqin
16. Noun+da+Noun=>yozuvdv xato
17. Noun+da+Num.=>tartibda birinchi
18. Noun|PNoun+da+Adj.=>menda ko‘p
19. Adj.+ni+Infinitive=> qahramonni eslash
20. Noun+ni+Infinitive=>farzandni sog‘inish

Verbal government

1. Noun+ga+Verb=>maktabga bormoq
2. Noun+ga+Infinitive=>daftarga yozmoq
3. Noun|Pronoun+dan+Verb=>universitetdan qaytmoq
4. Noun|Pronoun +ni+Verb=>hikoyani o‘qimoq
5. Noun +ni+ravishdosh=>ishni bajarib
6. Noun+da+Verb=>maktabda o‘qimoq
7. Noun+da+Gerund=>osmonda uchib kelayotgan

Taking into consideration syntactic structures of word combination analyzed sentences via parts of speech. Usage protégé program input all linguistic data of structures, and then it becomes easy to split up components of sentence according to input ontological hierarchy.



Conclusion

This work has been implemented by project as mentioned above. Creation of ontological syntactic structures is useful for corpus analysis in the frame of syntactic parsing. All classes and subclasses with attributes input Protégé program to work further work. In spite of diversity of languages, there is commonness of grammatical rules among the Turkic languages. Entities inputted in Protégé as classes including object properties, data properties, individuals, annotation etc. We hope that Ontology grammatical rules of Uzbek will be implemented correspondingly and it will service for computational language processing in perspectives.

References:

1. Catherine Roussey, Francois Pinet, Myoung Ah Kang, and Oscar Corcho. An Introduction to Ontologies and Ontology Engineering (G. Falquet et al., Ontologies in Urban Development Projects, Advanced Information 9

2. and Knowledge Processing 1, DOI 10.1007/978-0-85729-724-2_2, © Springer-Verlag London Limited 2011)

3. Duval, E., W. Hodgins, S. Sutton, and S. L. (2002). Weibel. Metadata principles and practicalities. 8(4): http://www.dlib.org/dlib/april02/weibel/04weibel. Html

4. Abdurakhmonova N., Aripov M. Uzbek ontology of Uzbek language as example of adjective / Turklang – 2018 6-international conference, Tashkent, 2018. –P. 234-237

EDITING PROGRAM FOR UZBEK LANGUAGE
O‘ZBEK TILI UCHUN TAHRIR DASTURI

S.Abdurahmonova
ToshDO‘TAU o`qituvchisi

Abstract: this article focuses on creating editing programs. The possibilities of editing programs for the Uzbek language were discussed.

Key words: *avtomatik tahrir, kompyuter lingvistikasi, matn tahriri automatic editing, computer linguistics, text editing*.

Har bir tilning shakllanishida shu til vakillarining tilga uni o‘rganish tadqiq qilishga bo‘lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning xalq sifatida o‘zligini namoyon etishida til muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli mamlakatimizda ona tilimizga alohida e’tibor berilmoqda. Davlatimiz mustaqillikka erishishi arafasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, o‘zbek tilining davlat tili sifatida e’tirof etilishi buning yorqin isbotidir. Darhaqiqat, til xalq ma’naviyati, madaniyati ko‘zgusidir. Til – kishilar orasidagi eng muhim aloqa vositasi, tafakkur quroli. Har bir xalq tilida uning tarixi, xarakteri, badiiy ijodi va tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topadi.

O‘zbek tili boy va imkoniyatlari keng. Uning qudratini hazrat Mir Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali butun dunyoga mashhur qilgan. Shunday ekan, O‘zbekistonda yashayotgan o‘zbek xalqi uchun ona tilini bilish, uning bebaho boyliklaridan bemalol foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, o‘zbek tilini asrash har bir o‘zbek farzandining vazifasi va burchidir.

Rus tilshunosi V.V.Vinogradov esa: “Og‘zaki va yozma nutqning yuksak madaniyati, ona tilini yaxshi bilish va his etish, ularning namunali vositalarini ishlata olish ko‘nikmasi – har bir kishi uchun o‘z ijtimoiy hayotida va ijodiy faoliyatida eng yaxshi tayanchdir”, - deb yozgan edi.

Ma’lumki, ijtimoiy hayotda yuz beradigan o‘zgarishlar ilm-fanning barcha yo‘nalishlarida bo‘lganidek, tilshunoslik sohasida ham o‘z ifodasini topadi.

Tilshunoslikda bir qator yangi sohalar paydo bo‘ldi. Bu jarayon asosan, XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelsa-da, o‘zbek tilshunosligida ushbu sohalar (neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika, geografik tilshunoslik kabi) rivoji mustaqillik davridan so‘ng kirib kela boshladi va bir qancha ilmiy ishlarning tadqiqot obyektiga aylana boshladi. Shu jumladan, “XXI asr – kompyuter texnologiyalari asri” ning o‘zbek tilshunosligiga olib kirgan yangiligi bo‘lmish kompyuter lingvistikasi sohasining rivoji ham.

Kompyuter lingvistikasi fani 1960-yilda AQShda shakllandi. Mazkur fan XX asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan matematik lingvistika fani asoslaridan kelib chiqqan. Tabiiy tillar grammatikasi formal modeli kompyuterda tarjima qilish, tillarga o‘rgatish, bilimlarni diagnostika qilish, matnlarni tahrir etish kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishga asos bo‘lgani holda kompyuter lingvistikasi yo‘nalishiga zamin yaratdi. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni hal qilishning kompyuter dasturini yaratishdir. Uning asosiy vazifalariga tillarga o‘qitish, bilimlarni tekshirish, matnlarni turli jihatdan tahrirlash va mashina tarjimasi uchun mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish kabilar kiradi. Kompyuter lingvistikasi bir-biri bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: 1) linvostatistika; 2) injener lingvistikasi; 3) algoritmik (dasturlash) lingvistika.

Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslikning tarkibiy qismi, matematik lingvistikaning mantiqiy davomi bo‘lib, u hozirda turli aspektlarda jadal rivojlanmoqda. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

Matn tahriri – kompyuter yordamida muayyan matnning xatolarini to‘g‘rilash.

Barcha sohalar uchun rivojlanish, taraqqiy etish o‘ziga xos xususiyat sanaladi. Jumladan, tilshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas.Millat ruhini o‘zida mujassam etgan til barcha davrlarda jamiyat rivoji bilan yonma-yon yurgan. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida ona tili va adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Yangi avlodni tarbiyalash – xalqni tarbiyalash demakdir deb bejizga aytishmagan. Ijtimoiy hodisa sifatida baholanadigan til hamisha boyib, yuksalib boraveradi.

Kompyuter lingvistikasining muammolarini to‘g‘ri belgilash va ularni ko‘rsata bilish katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Avtomatik tahrir dasturi kompyuter lingvistikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bir qator tillarda bu dastur yaratib bo‘lingan. O‘zbekcha matnlarni kompyuter vositasida avtomatik tahrir va qilish soha mutaxassisi oldida turgan vazifadir.

Bu yo‘nalishda qilingan avvalgi ishlar bilan tanishgan holda avtomatik tahrir va tahlil jarayonining prinsiplarini bayon qilishga va ular asosida mulohazalar bildirishga harakat qildik.

O‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish bugungi kungcha inson mehnati bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu matnlarni tahrir qilishga ketadigan vaqtning oshishiga, iqtisodiy xarajatlarning ortishiga, inson tomonidan qilinadigan xatoliklarga olib keladi. Avtomatik tahrir dasturining asosiy prinsiplari orqali kelgusida bu borada qilinadigan amaliy ishlarda qaysi jihatlariga e’tibor qaratilishi zarurligi keltiriladi. Shuningdek, bugungi kunda jahon kompyuter lingvistikasida amalga oshirilgan ishlarning salmog‘i, o‘zbek tilshunosligidagi kelgusi tadqiqotishlarining muhim yo‘nalishlari haqida so‘z boradi.

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida ham, adabiyotshunoslik sohasidaham o‘zbek tilidagi matnlarningbadiiy tahlili va uning inson tomonidan tahriri amalga oshirib kelinmoqda. Ammo bugungi kundainsonning matn tahriridagi ishtirokini talab qilmaydigan kompyuter dasturi yaratilmagan. O‘zbek tilshunosligida matnlarni axborot texnologiyalari dasturlari orqali tanlash va uni qayta ishlash bo‘yicha bir qancha ish amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishlardagi ilg‘or jahon tajribasini tadqiqotlarda samarali qo‘llash hamda matn tahrir va tahlillarining lingvistik ta'minotini yaratish ehtiyoji mavjud. Zero, “…endigi vazifamiz – ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilm-fanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish”dir. Hozirgi davrda dunyo miqyosida matn bilan bog‘liq texnologiyalarning rivojlanganligi va lingvistik dasturlarning yuzaga kelganligi o‘zbek tili uchun yaratiladigan avtomatik tahrir va tahlil (ATT)ning taraqqiyoti va bugungi holatini o‘rganish, matn tahlili dasturining lingvistik ta'minotini tuzishning umumiy tamoyillarini aniqlash, bu xususda yangicha yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

2011-yilda O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti Abjalova Manzuratomonidan “O‘zbek tilidagi matnlarni kompyuter vositasida tahlil qilish dasturining lingvistik ta’mini” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi himoya qilingan bo‘lib, o‘zbek kompyuter tilshunosligida avtomatik tahrirlovchi dasturni yaratish borasida yozilgan ilk ilmiy ish hisoblanadi. Bu magistrlik dissertatsiyasida mustaqil so‘z turkumlarining lingvistik modulini yaratish prinsiplari ot va fe’l so‘z turkumlari misolida ko‘rsatib berilgan. 2019-yilda Manzura Abjalova tomonidan O‘zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning lingvistik modullari (rasmiy va ilmiy uslubdagi matnlar tahriri dasturi uchun) Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoya qilindi. Ushbu ishning salmog‘i yuqori deya baholash mumkin. Muallif ilmiy ishining amaliy tomoniga alohida e’tibor qaratgan va avtomatik tahrirni yangi bosqichga olib chiqgan.

Tahrir dasturlari lotin yozuvida yozilgan o‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir qilishning bosqichlarini kengroq tahlil qilish, mavjud muammoni yechish hamda uni amaliyotga tatbiq etish o‘zbek matnlari doirasida amalga oshiriladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki matnlardagi kichik xatoni bartaraf etish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar o‘zbek tili tahrir dasturlarini yaratish oldiga yangi bir maqsad qo‘yadi.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutilgan:

- Matnni avtomatik tahlil va tahrir qilishning afzalliklarini ko‘rsatish;
- Lingvistik modul tushunchasini yoritish;
- Avtomatik tahrirlovchi dasturlar va ularning vazifalarini ko‘rsatish;
- Matnlarni kompyuter yordamida tahrir qilish jarayonlarini tahlil etish;
- Dasturning lingvistik ta’minotini yaratish yo‘llarining optimal variantlarini tanlash.

Avtomatik tahrir dasturi uchun obyekt va predmet qilib Microsoft Word matn muharririni, olishimiz mumkin. Ushbu matn muharriri bevosita matnlar bilan ishlashda foydalaniladi. Lotin yozuvida yozilgan rasmiy-idoraviy va ilmiy uslubdagi matnlar, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek adabiy tilining imlo lug‘atlari tadqiqotning predmeti bo‘lib xizmat qiladi.

MUNDARIJA

SH. SIROJIDDINOV	**Buyuk mutafakkirlarimiz tafakkuri – faoliyatimiz mezoni**	**5**
BUYUK O‘ZBEK MUTAFAKKIRLARINING TIL VA JAMIYAT, TIL VA TAFAKKUR, TIL VA NUTQ MUNOSABATIGA OID QARASHLARI		
И. ТЎХТАСИНОВ	**Ал-Форобийнинг фалсафий-лингвистик қарашлари**	**6**
Ҳ. ДАДАБОЕВ	**“Гул ва Наврўз” сўз бойлигидаги семантик жараёнлар хусусида**	**8**
A.BİNNATOVA, R. VASİYEVA.	**Əmir Xosrov Dəhləvinin “Ayineyi-İskəndəri” əsəri**	**11**
Б. АБДУШУКУРОВ	**“Қутадғу билиг” ва “Қисаси Рабғузий”асарларидаги айрим лексемаларнинг қиёсий таҳлили**	**17**
SÜLEYMAN EFENDİOĞLU	**Çağatay Şairi Lutfî ve Gül ü Nevrûz Mesnevisi.**	**21**
Z.XOLMANOVA	**Zahiriddin Muhammad Boburning tilshunoslikka doir qarashlari**	**31**
M.GÜMÜŞ	**Ali Şir Nevâî’de Dil Bilinci**	**38**
Б.МОМЫНОВА	**Әл-Фарабидің сөздерді топтауы және сөздерді**	**45**

	таптастырудағы грамматикалық категориялардың рөлі ғалымдар зерттеулерінде	
SH.SAFAROV	**Why we should still real the medieval uzbek grammatians**	**51**
H. BAYDEMİR	**Dilci ve Sözlükçü Yönüyle Babür**	**52**
N. JABBOROV	**Furqatning so‘z xususidagi qarashlari va so‘z qo‘llash mahorati.**	**57**
Ü. NƏBİYEVA	**Mərasim folkloru: xalq ədəbiyyatının mifoloji qaynağı və tərkib hissəsi**	**62**
M. КУРБАНОВА	**Абдурауф Фитратнинг лингвистик қарашлари**	**67**
D. YUSUPOVA, A. MALIKOV	**Alisher Navoiy va Aligyeri Dante: adabiy til yaratish muammosi**	**71**
S. ƏHMƏDOVA	**Haşım Bəy Saqib**	**77**
E. ÜŞENMEZ	**The manuscripts-works written by Mīr A’lī Shīr Navā’ī (میر علیشیر نوائی) in the British library**	**87**
M.ARSLAN	**Muhammad Yusuf’un Şiirlerinde Millet, Vatan ve Anadili**	**94**
Q. OMONOV, D.BAXRONOVA	**“Ikki til muhokamasi” asari va komparativistika**	**105**
U QOSIMOV	**Badiiy til xususiyatlari va Navoiy an’analari.**	**108**
Q. PARDAYEV	**Jadid ziyolilari ijodida til muammosi**	**113**
D. ARSLAN	**Türkiye'de Özbek Türkçesi Üzerine Yapılmış Lisansüstü Tezler**	**117**
Қ. АНАРБАЕВ	**Ортағасырлық түріктердегі саяси билік пен билік иелері туралы кейбір тілдік-дүниетанымдық деректер**	**129**
М. ХОЛМУРАДОВА	**Юсуф Хос Ҳожибнинг эски туркий тил имкониятларини ёритиш маҳорати**	**133**
К. МАХМУТОВА	**Қазақ ағартушыларыларының ұлттық тәрбие жайлы көзқарастары**	**141**
Ҳ. ҲАМРОЕВА, Ш НАРАЛИЕВА	**Сўз мулкида султон бобом – шоҳ Навоий.**	**145**
Q. ƏLİYEV	**Əlişir Nəvainin yaradiciliği XX əsrin mətbuat səhifələrində (1941-1968)**	**149**
S. SƏMƏDOVA	**Azərbaycan və özbək dramaturgiyasinda Əmir Teymur obrazi**	**154**
М. БАДАЛБАЕВА, Н. УСМОНОВ	**Алишер Навоий асарларида инсонпарварлик ғоялари**	**160**
M. ABDUVALIYEVA	**Alisher Navoiy ijodining tarbiyaviy ahamiyati**	**162**
M. BADALBAYEVA, T.KALKORAZOV	**Navoiy asarlarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati**	**164**
X. IMAMOVA	**Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ijtimoiy tilshunoslik ba‘zi aspektlarining aks ettirilishi xususida**	**167**
Э. ЖАББОРОВ	**Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Тил масаласи” ҳақидаги қарашлари.**	**169**
O. USMONOVA, Z. USMONOVA	**Alisher Navoiy asarlarida so‘z va notiqlik san’ati**	**172**
U. YIGITALIYEV,	**Antropotsentrik paradigmaning shakllanishida Sharq**	**174**

Sh.UMIDJONOV	**falsafiy ta'limotining o'rni.**	
З.ИБРАГИМОВА	**"Муҳокамат ул-луғатайн" асарининг илмий аҳамияти**	**178**
Ў. ИСЛАМОВ	**Қадимий туркий асарларда нутқ маданиятига оид талқинлар**	**181**
J. KHUDOYBERDIYEV	**Jadids' reforms in literature and language**	**187**
N. ILDIRI	**Son Dönem Çağatay Şairi Mücrim Abid'in Türkçe Divâni'nda Sözcük yapımı**	**189**
Ғ. МИРСАНОВ	**Нарратив тузилмаларда аспектуал семантиканинг ифодаланиши.**	**193**
Ў. ИСЛАМОВ	**"Авесто" асарида нутқ маданиятига оид фикрлар талқини**	**196**
Н. АВАЗОВ	**Беҳбудийнинг сўз танлаш маҳорати**	**200**
К.РАХИМОВА	**Алишер Навоий Ҳаким ота ҳақида**	**205**
М. ДУСТМУРОДОВ	**"Тўнюқуқ" битиктошидаги "элтабар" ҳарбий-маъмурий унвонининг семантик-функционал таҳлилига доир**	**209**
Y. NASRILLOYEVA	**Alisher Navoiy asarlarida ijodiy yozma nutqni rivojlantirishning milliy-an'anaviy usullari**	**212**
F. KARIMOVA	**Muloqot qoidalarining sharqona usullari**	**213**
O. NORMURODOV	**Sayyid Qosimiyning lingvistik qarashlari**	**215**
M ALLAMBERGENOVA	**Qadimgi yozma yodgorliklarda tabiat hodisalari konsepti**	**217**
N. ODINAYEVA, S.HAMITOVA	**Buyuk o'zbek mutafakkirlarining til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabatiga oid qarashlari**	**221**
I. O'RAZOVA	**Sayfi Saroyining so'zga bo'lgan munosabati va so'z qo'llash mahorati.**	**225**
С. ЗИЁТОВА	**"Меҳробдан чаён" асаридаги ҳунармандчиликка оид шахс отлари хусусида**	**229**
D. RO'ZIMATOVA	**Buyuk ajdodlarimiz asarlarida tibbiyotga oid qarashlar talqini.**	**231**
D. TAMIKAYEVA	**Alisher Navoiyning liro-epik asarlarida iboralarning qo'llanilishi.**	**234**
I. MAMARAJABOVA	**Alisher Navoiy asarlarida til va nutq madaniyati masalasi**	**236**
S. QAHRAMONOVA	**Alisher Navoiy asarlarida lingvokulturologik birliklar**	**238**
M. SAFAROVA	**Alisher Navoiy "Chor devon"ida etnonimlar**	**239**
D. DUYSABAYEVA, B. SAYFULLAYEV	**Alisher Navoyi g'azallari badiiyatida xalq iboralarining o'rni**	**242**
Н. ҲАМРАЕВ	**Даврий нашрлар тил тараққиётини таъминловчи омил**	**244**
Ф.ФАЙЗУЛЛАЕВ	**Мовароуннаҳрда тафсир илми ва муфассирлар**	**247**
B. IBROHIMOVA	**Buyuk mutafakkirning lingvistik qarashlari - filolog olimlar talqinida.**	**250**
К. РАХМАТЖОНОВА	**Ўзбек мутафаккирларининг типология назариясига оид қарашлари хусусида (IX -XV асрлар)**	**252**
M. SHODIYEVA	**Hujjatchilik tarixiga nazar**	**255**
N. ZIYATOVA	**Bir etnografik odat va uninig "Xamsa"dagi lingvokulturologik talqini**	**257**

D. JUMASHOV	**Mazluma Asqarova – yetuk tilshunos, mehribon ustoz**	**258**
Ф. ШАРИПОВ, О. ЭГАМОВА	**Мунозара – янгилик сари етаклайди**	**261**
Ж. МАСАЛИЕВА	**Сегменттік бірліктер**	**267**
Ф. ШАРИПОВ, М. АЛИҚУЛОВА	**“Сўз ясалиши” тушунчасига изоҳ.**	**267**
O. XIDIROV	**O‘zbek tilida bog‘langan qo‘shma gaplarni sintaktik teglashning nazariy asoslari**	**270**
D. JUMASHOV	**O‘zbek tilida ko‘makchilarning semantik funksional tasnifi**	**273**

BUYUK MUTAFAKKIRLARNING LINGVISTIK QARASHLARI – FILOLOG OLIMLAR TALQINIDA
O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI VA JAHON LEKSIKOGRAFIYASINING NAZARIY ASOSLARI

RAFAEL DEL MORAL	**Glotonimia túrcica (o túrquica) en lengua española**	**278**
Н. АЛМЕТОВ	**Ўзбек педагогик луғатчилигини ривожлантиришга қиёсий-лексикологик ёндашув.**	**283**
Ю. ИБРАГИМОВ	**Махмуд Қошғарийнинг «Девону луғатит турк» асари – қомусий асар**	**286**
M.ABDULXAYROV	**Navoiy asarlaridagi shakldoshlik hosil qiluvchi so‘zlar tahlili**	**288**
Z.XUDAYBERGENOVA	**Turk tili lug‘atchiligi an’anasida izohli lug‘at yaratilishining o‘rni va ahamiyati**	**290**
T.ENAZAROV	**“O‘zbek dialektologiyasi” tarixida ilmiy maktablar**	**295**
M. QURBONOVA	**Nutq bilan bog‘liq kompyuter dasturlari uchun leksikografik manbalar ta’minoti**	**298**
N. ALAVUTDINOVA	**O‘zbek tilshunosligida sintaksisga oid qarashlarning shakllanishi**	**301**
D. BAXRONOVA, R YANGIBOYEVA	**“Devonu lug‘oti-t-turk” va hozirgi o‘g‘uz shevasida qo‘llanuvchi so‘zlar talqini**	**305**
Б. СУЮНОВ	**Ўзбек тилига оид тиббий терминларнинг луғатларда берилиши ва семантикаси**	**308**
N. KLICHOV, S.YANGIBOYEVA	**“Devonu lug‘oti-t-turk” asarida bir necha so‘z turkumiga xos omonimlar semantikasi**	**312**
Н. АБДУЛЛАЕВА	**Исторический обзор лексикографии**	**314**
A. ABDULLAYEV	**Ingliz lug‘atchiligining ayrim yutuqlari xususida**	**316**
K. RIXSIYEVA, D. RADJABOV J. TEMIROV M. UZOQOVA	**Ikki tilli tarjima dasturlarini yaratishning lingvistik asoslari**	**319**
Sh. QULBULOV	**Elektron lug‘atlarning afzalliklari**	**322**
T. BEKMURODOV	**Ingliz va o‘zbek tillaridagi sanskrit tilidan o‘zlashgan so‘zlar.**	**324**
G. MIRZAYEVA	**Turk tili fonetikasiga doir tadqiqotlar borasida.**	**328**
N. RASULOVA	**“Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan oziq-ovqat nomlari**	**331**
Q. BAKIROV	**“Devoni lug'otit turk”da qo’llangan vaqtni ifodalovchi turkiy leksemalarning semantik tadqiqi**	**333**

M. BOBOZARIPOVA	**Tezaurusli lug‘atlar va ularning tildagi ahamiyati.**	**335**
K. ABDUVALIYEVA	**Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida uchraydigan ayrim etnonimlar izohi**	**338**
C. ХОЛМАНОВА	**“Муҳокамат ул-луғатайн”нинг туркий сўзлар семантикасини ёритишдаги ўрни**	**341**
AJDODLAR TAFAKKURI VA TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI		
М. АБДУРАҲМАНОВА	**Тилшуносликда когнитив йўналишлар**	**345**
А. ШАМАХМУДОВА	**Лисоний ҳурмат тамойиллари мулоқот маҳсулдорлиги асоси сифатида**	**347**
Д. ЖУМАЕВА	**“Юсуф ва Зулайҳо” достонининг Огаҳий таржимасига доир айрим мулоҳазалар**	**349**
Г. ТОИРОВА, Ф.АХМЕДОВА	**Нутқни тўғридан-тўғри разметка қилиш тизимини моделлаштириш**	**352**
S. BOZOROVA	**Turkologiyada matnni sintaktik tahlil qilishga doir tadqiqotlar**	**354**
I. BOZOROVA, I. SHODIYEVA	**Kompyuter yordamida matnni sintaktik tahlil qilishning tarixiy bosqichlari**	**357**
Д. Муҳаммадиева	**Таржима матнлардаги паремияларнинг хусусиятлари**	**359**
M. SHAMSIYEVA	**Bolalar bilingvizmini shakllantirish tamoyillari**	**363**
G. KOMILOVA	**Qadriyat va bahoning falsafiy, logik, lingvistik talqini**	**365**
M. OQMAMATOVA	**Alisher Navoiy asarlarida milliy-madaniy birliklarning tarjimasidagi murakkabliklar**	**366**
D. NASRIYEVA	**Areal lingvistika – tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida**	**368**
G. ZOYIROVA	**Lirik matnning til xususiyatlari (samandar vohidov ijodi misolida).**	**371**
J. ULUG‘MURODOV	**O‘zbek tilida barcha uslublarda axborot mavjudmi?**	**373**
Z. DADAXODJAYEVA	**O‘tkir Hoshimov asarlarida *inson* konsepti**	**375**
L. USMONOVA	**Sotsiolingvistik tahlil masalalari hamda uning pragmalingvistika bilan munosabati**	**379**
A. YUSUPOVA	**Uy-ro‘zg‘or realiya buyumlari asosida shakllangan frazeologizmlarning etnolingvistik xususiyatlari**	**384**
Sh. XAMDAMOVA	**O‘xshatishlar – milliy-madaniy belgilar ifodasi sifatida**	**386**
O. SHARIPOVA	**Neyrolingvistik dasturlash: tarixi va bugungi ahamiyati.**	**388**
M. MUXAMMADIYEVA	**Psixolingvistika va psixolingvistik tahlil.**	**390**
E. O‘RALOV	**Shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarning voqealanishi**	**391**
P. NABIYEVA	**“Boburnoma”dagi sifat leksemalarining tezaurusini yaratish.**	**393**
М. АКРАМДЖАНОВА	**Ўзбек ва турк параллел матнлар корпусини яратиш асослари**	**396**
TIL NAZARIYASIGA OID MASALALARNING TA’LIM BOSQICHLARIDA O‘RGANILISHI		
T. YUSUPOVA	**O‘quvchilarda inshoning tashkiliy-texnik jihatlariga doir bilim, ko‘nikmava malakalarni shakllantirish**	**399**
L. ABDULLAEVA	**The role of electronic educational resources (eer) in teaching english**	**402**

Д.ФАТТАХОВА, Ф.ТОПИЛДИЕВА	**Ўзбек тилининг тасвирий воситаларини ўқитишга доир баъзи мулоҳазалар**	**405**
D. SHODMANQULOVA	**Boshlang‘ich sinflarda lug‘atlardan foydalanishning metodik asoslari**	**408**
U. IMOMOVA	**Zamonaviy ta’lim tizimida kasbiy kompetensiya**	**411**
K. RIXSIYEVA	**Semantika – lingvistik soha sifatida**	**416**
D. SAYFUTDINOVA	**Ona tili va adabiyot darslarida miniatyura**	**419**
N. OYMATOVA	**Alisher Navoiy ijodida komil inson tarbiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari**	**422**
O. SAIDAXMEDOVA	**O‘zbek tilida *-ning* qaratqich kelishigi o‘zlashishi tajribasidan**	**424**
D. MIRNOSIROVA	**O‘zbek bolalari nutqida leksik assotsiatsiyalarning ifodalanishi**	**426**
D. SODIQOVA	**Nutq ta’sirini oshiruvchi birliklar**	**428**
B. POLVONOVA	**Pragmatik to‘siqning nutqdagi ko‘rinishlari**	**431**
N. ALLABERGANOVA	**Reklama matnlari presuppozitsiyasi**	**433**
N.SATTAROVA	**Erkin Vohidov asarlarining lingvopragmatik tadqiqi.**	**436**
N.TOSHPO`LATOVA	**Ulug‘bek Hamdamning asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi.**	**438**
M.XOLMO‘MINOVA	**O‘zbek she’riy matnlarida “vatan” konsepti**	**441**
H. ҲАМРАЕВ	**Даврий нашрлар - тил тараққиётини таъминловчи омил.**	**443**
M. RAXMATOVA	**Pragmalingvistika va nutqiy akt tushunchasi**	**445**
Z. KASIMOVA	**O‘tgan kunlar” asarida uchraydigan o‘zbek tilidagi maishiy realiyalar tahlili**	**447**
N. ABDURAKHMONOVA, G. LATIPOVA	**Ontological syntactic structures of the Uzbek language for corpus analysis**	**450**
S.ABDURAHMONOVA	**O‘zbek tili uchun tahrir dasturi**	**454**